The article discusses the main tools for information and methodological support of special subjects. The categories of software for educational processes and their capabilities are discussed. The ways of using software tools assigned for the educational process are considered. Instrumental environments for the development of educational and methodological complexes and multimedia courses.

Keywords: *tools, CRC, HCI, interface, e-learning, editors, web page.*

Kirish. O‘qituvchi o‘quv-tarbiya jarayonida raqamli ta‘lim resurslarini samarali qo‘llash uchun, birinchi navbatda, tegishli dasturiy ta‘minotga e‘tibor qaratishi kerak. Shubhasiz, yuqori malakali mutaxassislar: psixologlar, fan o‘qituvchilari, kompyuter dizaynerlari va dasturchilar tomonidan o‘quv-tarbiya maqsadiga mo‘ljallangan dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish uchun birgalikda ishlash zarur. Ko‘pgina yirik xorijiy firmalar va bir qator mahalliy dasturiy mahsulotlar ishlab chiqaruvchilari o‘quv muassasalarida kompyuter o‘quv tizimlari, raqamli ta‘lim resurslarini yaratish loyihalarini moliyalashtiradi va bu sohada o‘z ishlanmalarini amalga oshirib kelmoqda.

Asosiy qism. Ta‘lim-tarbiya jarayonida foydalanishga yo‘naltirilgan raqamli ta‘lim resurslari dizaynida kuzatilishi kerak bo‘lgan asosiy talab - bu o‘quvchining o‘quv materiallari bilan o‘zaro aloqasining qulayligi hisoblanadi. Dasturlarning tegishli xususiyatlari va talablari odatda HCI qisqartmasi (inglizcha Human-Computer-Interface – inson-kompyuter-interfeys) bilan belgilanib, “inson bilan muloqotga yo‘naltirilgan kompyuter dasturlari” deb tushuniladi [1].

Ta‘lim jarayonining dasturiy ta‘minotini bir nechta toifalarga ajratish mumkin:

- raqamli ta‘lim resurslarini yaratish uchun instrumental tizimlar;
- multimedia dasturlari;
- sinov tizimlari;
- avtomatlashtirilgan ta‘lim tizimlari;
- elektron giper murojaatli o‘quv materiallar;
- modellashtirish dasturlari;
- aloqa vositalari;
- kognitiv faoliyatni modellashtirish vositasi;
- axborotni qidirish va uzatish tizimlari;
- namoyish-modellashtirish va tadqiqot dasturlari;
- ma‘lumotlar bazalari va ekspert-tahlil tizimlari;
- nazorat qilish, o‘qitish va nazorat qilish kompyuter dasturlari.

Shuni ta‘kidlash kerakki, ushbu tizimlashtirish shartli va barcha dasturiy ta‘minot turlari bir-biri bilan kesishadi. Biz ushbu dasturiy ta‘minot toifalarining ayrimlarini tavsiflab chiqamiz. Turli formatdagi fayllar, ma‘lumotlar bazalari, dasturiy ta‘minot modullari, alohida dasturlar va dasturiy komplekslar kabi yangi elektron resurslarni yaratish imkoniyatini beruvchi dasturlar instrumental vositalar sifatida tushuniladi.

Bunday vositalar mavzuga yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin va muayyan vazifalar hamda dastur sohalarining o‘ziga xos xususiyatlariga deyarli bog‘liq bo‘lmasligi mumkin.

Instrumentlar vositalarni ikki guruhga bo‘linadi. Bular:

1) veb-texnologiyalarga yo‘naltirilgan va qimmatbaho maxsus vositalarni o‘z ichiga olmaydigan ommaviy vositalar;

2) kompyuter kurslarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus vositalar.

Birinchi guruhga kiritilgan asosiy dasturiy vositalar o‘z maqsadlariga ko‘ra bir qator toifalarga bo‘linadi:

- HTML va XML muharrirlar, shu jumladan matn muharrirlari;
- tasviriy va taqdimot grafikasi muharrirlari (vektorli va rastrli);
- 3D grafik muharrirlar;
- 2D va 3D-animatsiya va multimedia sahnalarini namoyish qiluvchi dasturlar;
- matn va grafik formatlarni qayta kodlovchilar;
- ovoz fayllari muharrirlari;
- videofayllar muharrirlari;
- multimedia konvertorlari va qayta kodlovchilar;
- animatsiya yaratish vositasi;
- pochta mijozlari;
- chat, tele-, audio- va videokonferensiyalarni tashkil etish vositalari;
- axborotni qidirish vositalari.

Axborot materiallarini (ma‘ruzalar, dokladlar, taqdimotlar) ishlab chiqishning eng oson usuli Microsoft Office ilovasi bo‘lib, xususan, Microsoft PowerPoint muhitidan foydalanishdir. Animatsiya effektlari soni bo‘yicha ushbu dastur ko‘plab mualliflik vositasi multimedia vositalari bilan tenglashadi [2].

Muhokamalar va natijalar. Hozirgi vaqtda zamonaviy, juda moslashuvchan raqamli ta‘lim va nazorat vositalarini, modellashtirish va namoyish dasturlarini, saytlarni, elektron gipermurojaatli darsliklarni va boshqalarni yaratishga imkon beruvchi yetarlicha tayyor dasturiy vositalar ishlab chiqildi.

Instrumental tizimlar o‘qituvchi uchun quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- ko‘p tarmoqli axborotni tayyorlash (nazariy va namoyish materiallari, amaliy topshiriqlar, test nazorati uchun savollar);
- muayyan raqamli ta‘lim vositasini yaratish uchun ssenariylarni yaratish;
- raqamli ta‘lim resurslarini tayyorlash vaqtini sezilarli qisqartirish va mashg‘ulotlarni o‘tkazish (guruhni nazorat qilish);
- yaratilgan raqamli ta‘lim resurslari orqali materialni taqdim etish va o‘qitish usullarini amalga oshirish.

Ikkinchi guruhning bunday integratsiyalashgan instrumental muhitlariga misollar: WebCT, xuddi shu nomdagi Amerika kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan; Learning Space - Lotus firmasi; Asymetrix kompaniyasi TOOLBOOK II; Adobe AuthorWare; Hypermethod tizimi; Distance Learning Studio; eAuthor elektron kurslar dizaynerlari; “Прометей” tizimi; “Опок” tizimi; “Упок” instrumental tizimi; “БиГОР” tizimi va boshqalar.

Ko‘pincha bunday muhitlar nafaqat o‘quv materiallarini ishlab chiqish funksiyalarini, balki avtomatlashtirilgan ta‘lim tizimlariga xos bo‘lgan boshqa funksiyalarni ham o‘z ichiga oladi. Ularning ayrimlarini taqdim etamiz.

Toolbook muhiti - o‘qitish uchun mo‘ljallangan multimedia dasturlarini yaratish uchun maxsus mualliflik vositalari to‘plamidir. U ToolBook Instructor, ToolBook Actions Editor va ToolBook SimulationEditorni o‘z ichiga oladi, bu bilan siz har qanday formatdagi multimedia obyektlari to‘plami bilan interaktiv tarkibni tez va samarali yaratishingiz mumkin.

Adobe Authorware muhiti bugungi kunda eng yaxshi interaktiv multimedia ta‘lim dasturlarini ishlab chiqish muhitidir. Instrumental muhit sizga tashkiliy jihatdan juda qiziqarli tarmoq multimediali interaktiv o‘quv qo‘llanmalarini yaratishga imkon beradi.

SunRav BookOffice - yana bir dasturiy muhit mavjud. Sunrav BookEditor va SunRav BookReader kabi ikkita dasturdan tashkil topgan bo‘lib, elektron kitoblar va darsliklarni yaratish va ko‘rish uchun xizmat qiladi. Paket yordamida siz EXE fayllari, CHM, HTML, PDF formatidagi, shuningdek boshqa (shablonlardan foydalangan holda) hujjatlarni yaratishingiz mumkin. Kitoblarda siz zamonaviy multimedia formatlarining to‘liq imkoniyatidan foydalanishingiz mumkin: audio va video fayllar, tasvirlar (animatsiyali), flash, har qanday OLE obyektlar va boshqalar.

“Дельфин” - o‘quv kurslarini loyihalashning instrumental muhiti yordamida quyidagi resurslar yaratilishi mumkin:

- fanni mustaqil o‘rganish - O‘UM (o‘quv uslubiy majmua);
- elektron darslik - nazariy materiallarni o‘rganish;
- topshiriqlarni bajarish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish;
- virtual laboratoriya ishlarini olib borish;
- bilimlarni tekshirishning avtomatlashtirilgan tizimi.

“Дельфин” instrumental vositasi yordamida yaratilgan o‘quv-uslubiy majmualar kunduzgi, kunduzgi-masofaviy va masofaviy ta‘lim shakllarida foydalanish uchun mo‘ljallangan.

Umuman, multimedia tushunchasi va multimedia vositalari, xususan, bir tomondan, turli xil ma‘lumotlarni kompyuterda qayta ishlash va taqdim etish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, boshqa tomondan, IT vositalarining unumli ishlashi ta‘lim jarayonining samaradorligiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.

Multimedia - bu:

- har xil turdagi axborotni qayta ishlash vositalarini ishlab chiqish, ishlatish va qo‘llash tartibini tavsiflovchi texnologiya;

- har xil turdagi axborotni qayta ishlash va taqdim etish texnologiyalari asosida yaratilgan axborot resursi;

- har xil turdagi axborotni qayta ishlash va taqdim etish bilan bog‘liq bo‘lgan kompyuter dasturlari;

- har xil turdagi axborot bilan ishlash mumkin bo‘lgan kompyuter apparat ta‘minoti;

- an‘anaviy statik vizual (matn, grafikalar) va turli xil dinamik ma‘lumotlarni (nutq, musiqa, video grafikalar, animatsiya va boshqalarni) birlashtiradigan maxsus umumlashtiruvchi axborot turi.

Multimedia mahsulotlarini yaratishda ishlatiladigan vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin:

- statik grafik ma‘lumotlarni qayta ishlash tizimlari;

- animatsion grafikalar yaratish tizimlari;

- ovoz yozish va tahrirlash tizimlari;

- videomontaj tizimlari;

- matn va audiovizual axborotni yagona loyihaga integratsiya qilish tizimlari.

Shuni ta‘kidlash kerakki, multimedia gipermatnli resurslar va multimedia sahifalarini yaratishda Internet uchun quyidagi til va vositalar tez-tez ishlatiladi: gipermatnli belgilar tili (HTML), Java tili, VRML tili (Virtual Reality Modeling Language) va CGI (Common Gateway Interface).

To‘liq xususiyatli multimedia ilovalarini yaratishga imkon beruvchi ko‘plab multimedia ishlab chiqish vositalari mavjud. Adobe Directory yoki Autoware Professional kabi paketlar yuqori darajadagi professional va qimmatbaho yaratish vositalari hisoblanib, Front Page, M Power, Hyper Studio va Web Workshop Pro esa oddiy va arzon analoglardir. Bir qator kompaniyalar multimedia bilan ishlovchi dasturiy vositalarni ishlab chiqmoqdalar. Misol uchun, Microsoft kompaniyasi 3D grafikalar va ovoz effektlarini boshqarish uchun DirectX API dasturini yaratdi.

Multimedia vositalarini quyidagi xususiyatlarga ko‘ra ajratilishi mumkin:

- dasturlashni talab qilmaydigan muhitlar;

- dasturlash vositalariga ega tizimlar;

- “vizual qurish” uslubida dasturlashni o‘z ichiga olgan tizimlar.

Hypercard, LinkWay, ToolBook, Visual Basic, Delphi kabilarni ta‘lim tizimlarining ta‘lim loyihalarida foydalanish tajribasi mavjud bo‘lib, ta‘lim sohasidagi multimedia loyihalarini yaratish uchun mo‘ljallangan. Yuqoridagi ro‘yxatdan dastlabki uchta tizim o‘rnatilgan dasturlash tillariga ega, garchi ular dasturlarni yaratishga va dasturlash vositalariga murojaat qilmaslikka imkon beradi. Ro‘yxatdagi oxirgi ikkita tizim vizual dasturlash muhitining yorqin namunasi.

Ta‘lim sifatini baholash uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish an‘anaviy nazoratga nisbatan bir qator afzalliklarni beradi. Avvalo, bu markazlashtirilgan nazoratni tashkil etish, o‘quvchilarning barcha kontingentini qamrab olish, shuningdek, nazoratni o‘qituvchining subyektivligidan qat‘iy nazar yanada obyektiv qilish imkonini beradi.

Sinov tizimi – o‘quvchi o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasini nazorat qilish uchun mo‘ljallangan avtomatlashtirilgan ta‘lim tizimining qism-tizimi yoki dasturiy mahsulot.

Sinov tizimlarini qo‘llashning ikkita asosiy yo‘nalishi mavjud:

1) o‘quvchilarning o‘quv materiallarini o‘zlashtirish jarayonida o‘z-o‘zini sinab ko‘rish;

2) ta‘lim muassasasi ma‘muriyati tomonidan tashkil etilgan va o‘quvchilarning bilimlarini attestatsiyadan o‘tkazish maqsadida o‘tkaziladigan nazorat tadbirlari.

Hozirgi vaqtda avtomatlashtirilgan sinov amaliyotida quyidagi maqsadli qism-tizimlardan tashkil topgan nazorat tizimlari qo‘llanilmoqda:

- testlarni yaratish (savollar va vazifalar bankini shakllantirish, so‘rov o‘tkazish va baholash strategiyasi);

- test o‘tkazish (savollar berish, javoblarni qayta ishlash);
- talabalarning bilim sifatini monitoring qilish.

Ideal test tizimi yuqori darajada intellektual bo‘lishi kerak, shuning uchun suhbat rejimida o‘quvchilarning javoblarini tanib olish va javob mazmuniga qarab ularning to‘g‘riligini aniqlash, o‘rganilayotgan kursning har qanday jihatlariga oid qo‘shimcha savollar berish, o‘quvchining bilimida aniqlangan kamchiliklarni tuzatish bo‘yicha tavsiyalar berish.

Sinov tizimida testning bir necha xil ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin: “ha” yoki “yo‘q” javoblari; javoblar ro‘yxatidan (menyudan) variantni tanlash; raqamli qiymat; formula shaklida javob (matematik yoki kimyoviy); tartiblangan ro‘yxat shaklida javob; tayanch tushunchalarni joylashtirish, grafik tasvir bilan ishlash va b.

Hozirgi kunda ko‘plab ta‘lim muassasalarida turli ta‘lim fanlari bo‘yicha avtomatlashtirilgan ta‘lim tizimlari (ATT) ishlab chiqilmoqda va qo‘llanilmoqda.

Avtomatlashtirilgan ta‘lim tizimi (ATT) – o‘quv materiallarining zamonaviy to‘plami bo‘lib, ularni ishlab chiqish, saqlash, uzatish va ularga kirish vositalari, ta‘lim maqsadlari uchun mo‘ljallangan va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan.

Mashq tizimlari ta‘lim tizimlarining alohida xususiy ko‘rinishidir. Bunday tizimlar oldindan o‘rganilgan materialni mustahkamlash, muayyan ko‘nikma va qobiliyatlarni shakllantirishga mo‘ljallangan. Ular mustaqil vosita bo‘lishi mumkin yoki ATTga kichik tizim sifatida kirishi mumkin.

Hozirgi vaqtda elektron giper murojaatli darslik eng keng tarqalgan raqamli ta‘lim resursidir.

Modellashtirish dasturlarida interaktiv grafikalar (ya‘ni, muloqotni qo‘llab-quvvatlovchi rejim) keng qo‘llanilishi mumkin, bu esa o‘qituvchiga o‘rganilayotgan jarayonning xususiyatlarini kuzatish bilan birga o‘zgaruvchan parametrlarning natijalarga ta‘sirini o‘rganish imkoniyatini beradi. Modellashtirish dasturlari avtonom bo‘lishi mumkin, lekin ko‘pincha ular ATTdagi qism-tizimlar sifatida ishlatiladi.

Axborot telekommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanishi ta‘limni axborotlashtirish uchun yangi turtki beradi. Global Internet tarmog‘i sayyoramizning turli burchaklaridagi ulkan hajmdagi ma‘lumotlarga kirishni ta‘minlaydi.

Kompyuter kommunikatsiyalarining asbob-uskunalarini bir nechta shakllarni o‘z ichiga oladi: elektron pochta, elektron konferensiya, videokonferensaloqa, Internet. Ushbu vositalar o‘qituvchilar va o‘qituvchilarga ma‘lumot almashish, umumiy muammolarni hal qilishda hamkorlik qilish, o‘z fikrlarini yoki sharhlarini nashr etish, muammolarni hal qilish va ularni muhokama qilishda ishtirok etish imkonini beradi.

Internet texnologiyalarining o‘ziga xosligi shundaki, ular o‘qituvchilarga va o‘quvchilarga ta‘lim jarayonida zarur bo‘lgan axborot manbalarini tanlash uchun katta imkoniyatlar beradi:

- tarmoqning veb va FTP serverlarida joylashtirilgan asosiy ma‘lumotlar;
- tanlangan pochta ro‘yxatiga muvofiq mijozga muntazam ravishda elektron pochta orqali yuborilgan tezkor ma‘lumot;
- yetakchi kutubxonalar, axborot, ilmiy va o‘quv markazlari, muzeylarning turli ma‘lumotlar bazalari;
- Internet-magazinlar orqali tarqatiladigan CD, video va audio kasetlar, kitoblar va jurnallardagi ma‘lumotlar.

So‘nggi paytlarda axborot texnologiyalarini rivojlantirish bilan Internet va korporativ intranet tarmoqlarini masofadan turib o‘qitishda qo‘llash tobora ommalashib bormoqda. E-learning (Electronic Learning) atamasi - Internet tarmog‘i yoki korporativ intranet tarmoqlari orqali ta‘limni boshqarish tizimlaridan foydalangan holda kompyuter o‘quv dasturlariga kirishni ta‘minlaydigan elektron ta‘limdir. E-learning bilan sinonimi wbt (Web-based Training) atamasi veb-texnologiyalar orqali o‘qitishdir.

Aloqa texnologiyalarini qo‘llab-quvvatlash uchun mo‘ljallangan dasturiy ta‘minot quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- o‘quv-uslubiy materiallarga kirishni tashkil etish va ular bilan mahalliy tarmoq yoki Internet orqali ishlash uchun vositalar;
- tarmoqlardagi o‘quv dasturlari, o‘quv qo‘llanmalari va topshiriqlarni yuborish;
- tarmoq orqali testlarni tashkil etish va o‘tkazish.

Agar Internet-saytlarini qurish uchun vositalar haqida gapiradigan bo‘lsak, unda veb-sahifalarni yaratish va ko‘rish uchun HTML-muharrirlar, Microsoft FrontPage, HotMetal, Corel Web Designer, Adobe Dreamweaver va boshqalar kabi maxsus muharrirlardan foydalanishingiz mumkin [3].

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, yuqorida ko‘rsatilgan instrumental vositalar va dasturiy vositalar ta‘lim sohasidagi eng ko‘p ishlatiladigan vositalardir. Ularning imkoniyatlarini ochish va ta‘lim jarayonida samarali foydalanish o‘qituvchidan axborot texnologiyalaridan foydalanishning o‘rtacha malakasini talab qiladi. Hozirgi zamonaviy vositalar juda mukammal va foydalanish uchun qulay interfeysga ega bo‘lib, axborotni qayta ishlash, nazorat qilish, vizuallashtirish va shu kabi amallarni o‘z ichiga olmoqda.

Ushbu vositalardan foydalanish ham talabaga ham o‘qituvchiga cheksiz imkoniyatlarni ochib beradi va shu bilan ta’lim sifatining jahon talablariga muvofiqlashuvi tez va oson kechadi.

Adabiyotlar

1. Isupova N.I. (2012). Metodicheskie osobennosti primeneniya elektronnyx obrazovatelnyx resursov [Methodological features of the use of electronic educational resources]. Sbornik nauchnyx trudov Sworld. Vol. 2, 4, 92-95.
2. Sariyev, R. (2020) INTEGRATION OF EDUCATION, SCIENCE AND PRODUCTION AS A BASIS OF AN INNOVATIVE EDUCATIONAL PROCESS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. 8/12, 157-164
3. Sariyev, R. (2020) MOODLE – ta’limni boshqarish tizimida interaktiv elementlardan foydalanish asoslari [Basics of using interactive elements in education management system - moodle]. Fan va texnologiyalar taraqqiyoti ilmiy texnikaviy jurnal [Scientific and Technical Journal of Science and Technology Development]. 7/2020, 164–169.

Baxshullo UMAROV

Buxoro davlat universiteti
pedagogika kafedrası dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

Yashin NARZULLOYEV

Buxoro davlat universiteti
pedagogika psixologiya
mutaxassisligi 2-kurs magistri

**OLIV O'QUV YURTIDA TARBIYAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA
IJTIMOIY FAOLLIKNI OSHIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

Maqolada dunyoda oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijtimoiy faolligini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish, ularning ijtimoiy tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlashga doir yangi pedagogik vositalarni ishlab chiqish, ijtimoiy-madaniy va kommunikativ faoliyatni samarali tashkil etish malakalarini rivojlantirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib bo'layotganligi xususida fikr bayon etilgan. Ijtimoiy faollikni rivojlantirishning asosiy omillari sifatida talabalarda axloqiy-estetik dunyoqarash va siyosiy ijtimoiylashuvni qaror toptirish alohida e'tirof qaratilmoqda. Shuningdek, ijtimoiy faollikning pedagogik mexanizmlari sifatida talabalar axloqiy, kasbiy va kommunikativ tayyorgarligining ma'naviy-madaniy asoslari, taraqqiyot g'oyalari ongli munosabati, texnokratik fikrlashini rivojlantirish muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: faollik, tarbiya, vosita, axloq, ijtimoiy, talaba.

В статье изложено мнение о том, что в мире проводится ряд научных исследований по совершенствованию технологии развития социальной активности студентов высших учебных заведений, разработке новых педагогических инструментов по поддержке их социальной инициативы, развитию навыков эффективной организации социально-культурной и коммуникативной деятельности. В качестве основных факторов развития социальной активности особое внимание уделяется формированию у учащихся нравственно-эстетического мировоззрения и политической социализации. Также в качестве педагогических механизмов социальной активности важное место занимают духовно-культурные основы нравственной, профессиональной и коммуникативной подготовки учащихся, развитие их сознательного отношения к идеям прогресса, технократического мышления.

Ключевые слова: деятельностный, воспитательный, двигательный, нравственный, социальный.

The article presents the opinion that a number of scientific studies are being carried out in the world to improve the technology for the development of social activity of students of higher educational institutions, the development of new pedagogical tools to support their social initiative, the development of skills for the effective organization of socio-cultural and communicative activities. As the main factors in the development of social activity, special attention is paid to the formation of students' moral and aesthetic worldview and political socialization. Also, as pedagogical mechanisms of social activity, the spiritual and cultural foundations of moral, professional and communicative training of students, the development of their conscious attitude to the ideas of progress, technocratic thinking occupy an important place.

Keywords: activity, educational, motor, moral, social.

Mamlakatimizda ijtimoiy pedagogika sohasida kadrlar tayyorlash imkoniyatiga erishilmagan bo'lsa-da, ijtimoiy pedagogikani bilish, hayotda ijtimoiy faollik ko'rsatish har bir o'qituvchi-murabbiyning vazifasi va burchi hisoblanadi.

Pedagogikada “kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash”, “o'z-o'zini boshqarish” va “o'z-o'zini tahlil etish” mazmun-mohiyati jihatidan ijtimoiy faollikka yo'naltiruvchi omil vazifasini o'taydi.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da omil atamasiga “ish-harakat, voqea-hodisa va shu kabilarning yuzaga chiqishi, sodir bo'lishi uchun sabab bo'lgan narsa; sabab; faktor” sifatida ta'rif berilgan [1, 48-b.]. Mazkur tushunchaning “motiv”ga yaqinroq ma'no kasb etishi qayd etilgan. Qolaversa, “faktor” so'zi o'zbek tiliga o'girilganda “omil” degan ma'noni anglatadi.

Ma'lumki, pedagogika fanida shaxs kamolotiga ta'sir etuvchi uchta yirik omil uzviylik va izchillikda o'rganiladi. Bular: irsiyat omili, ijtimoiy muhit omili va tarbiya omili. Shu o'rinda motivning ham omil vazifasini o'tashda o'rni bor deyilsa xato bo'lmaydi.

Ijtimoiy faollik murakkab jarayon bo'lib, insonda birdaniga vujudga kelmaydi. Olib borilgan tadqiqotlar talaba shaxsida ijtimoiy faollik shakllanishi uning ushbu kasbni tanlagan davriga to'g'ri kelishini ko'rsatdi. O'qituvchi o'z kasbining mas'uliyati va qiyin tomonlarini, ayniqsa, xalq manfaati va Vatan ravnaqi yo'lidagi o'rnini qanchalik erta anglab yetsa, unda ijtimoiy faollik kurtaklari shunchalik tez shakllanadi. Bu holatni boshqa kasblar misolida ham aytish mumkin. Shu asosda aytish mumkinki, *kasbiy faoliyatida intiluvchanlik pozitsiyasida tura oladigan talabaga ijtimoiy faol talaba deyiladi. Pozitsiya deganda shaxs (ayni paytida mutaxasss)ning faol o'rne, maydoni, muayyan holati va vaziyatiga ega bo'la olishi tushuniladi.*

Aksariyat holda bola oilasida ota-onasiga, o'zidan kattalarga, o'qituvchisiga, albatta, taqlid qila boshlaydi. Ijtimoiy faollikka undovchi “motiv” talabaning shaxsiy istagi, qiziqish va kelajak orzu-niyatlarini, kasbiga qiziqishi yo'lidagi maqsadini belgilovchi omil vazifasini o'tashi mumkin. Talabaning o'quv-biluv jarayonidagi faolligi uning kasbiga bo'lgan qiziqishi yo'lidagi maqsadini yanada oydinlashtirishini ko'rsatdi [2, 46-b.].

Pedagogika fanida shaxsning ijtimoiylashuvi taqlid tarbiyasi bilan bog'liqlikda talqin qilinadi. Bu muammo J.G.Mid va Z.Freyd nazariyalarida ham o'z ifodasini topgan. Midning ta'kidlashicha “...bolalar, birinchi navbatda, atrofidagilarning harakatiga taqlid qilib ijtimoiy mavjudot sifatida rivojlanadilar. Taqlid shakllaridan biri o'yin hisoblanadi. O'yinda bolalar ko'pincha kattalarga taqlid qiladilar. Kichkina bola kattalarni kuzatib, loydan pirog yasaydi, bog'bonga taqlid qilib belkurak bilan yer chopishga harakat qiladi. Bolalar o'yini to'rt-besh yoshli bola oddiy taqliddan kattalarga o'xshab bajaradigan murakkab harakatlargacha bo'lgan tadrijiy yo'lni bosib o'tadi. Buni J.G.Mid boshqalar rolini qabul qilish, ya'ni boshqalarga o'xshashga o'rganish, deb ataydi. Xuddi mana shu bosqichda bolalarda o'z shaxsi to'g'risida rivojlangan tuyg'u paydo bo'ladi. Ular o'zlarini alohida sub'ekt, “Men” sifatida, boshqalar ko'zi bilan ko'rib anglay boshlaydilar.

Z.Freyd ham, J.G.Mid ham bola oilaning bevosita kontekstidan chetda mustaqil harakat qila oladigan mavjudotga taxminan besh yoshlardan aylana boshlaydi, deyishadi. Z.Freyd nazarida bu – “Edip kompleksi”ning debochasi, J.G.Mid nazarida esa rivojlangan, o'zini anglash qobiliyatining namoyon bo'lishidir [3, 134-b.].

Ijtimoiy burchni his etish ko'nikmasining shakllanishi talabani kelgusida ijtimoiy burchini sidqidildan ado etishga undaydi. Demak, ijtimoiy burchni his etish boshqa va uni ijro etish, amalda ko'rsatish boshqa ekanligi izlanishlar jarayonida ma'lum bo'ldi. Shundan kelib chiqib, ijtimoiy burch va ijtimoiy mas'uliyat masalasi shaxsning ijtimoiy xulq-atvor motivlari tarbiyasi ko'rinishida qaraladi [4, 215-b.].

Pedagogikada bir haqiqatni unutmazlik kerak – bugungi bolalar katta yoshlilar yordamida faol bajarayotgan amallarini ertaga mustaqil bajarishi uchun berilayotgan tarbiya asosini o'z-o'zini tarbiyalashga qaratmoq darkor. Aslida tarbiya ijtimoiy hodisa, ijtimoiy voqelik bo'lib, shaxsni ma'naviy-axloqiy, mehnatsevarlik, vatanparvarlik ruhida, o'z-o'zini tarbiyalashi negizida ijtimoiy-kasbiy munosabatlarga tayyorlab borish jarayoni hisoblanadi.

Kuzatishlar tarbiya texnologiyasida har bir ishtirokchining yosh va individual xususiyatini qat'iy hisobga olgan holda, erkin tafakkur rivoji va fikr tarbiyasi muammosiga asosiy e'tibor qaratilishi zarurligini ko'rsatdi. Chunki fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishda shaxs erkinligi va ijtimoiy faolligi, fikrlar xilma-xilligini ta'minlashda tarbiya texnologiyasi hamda talaba faoliyatining ijtimoiy maqomi tobora ortib bormoqda. Shundan kelib chiqib, pedagog olim B.Adizov tarbiya texnologiyasi quyidagi holatlarning izchil va qonuniy bog'liqlikda amalga oshirishini belgilovchi ilmiy farazni o'rtaga tashlaydi. Bunda:

- sog'lom tarbiya onaning yuksak his-tuyg'ulari asosida bo'lsa;
- sog'lom muhitda sog'lom bola tarbiyalansa;
- har bir tarbiyalanuvchi o'z faoliyatida tarbiya sub'ektiga aylansa;
- tadbir o'rnida texnologik talablar asosida tayyorlangan “tarbiyaviy ish” amalga oshirilsa;
- tarbiyada ehtiyojning o'zni aniq belgilangan bo'lsa;
- tarbiya va o'zini o'zi tarbiyalashning izchilligiga erishilsa;
- shaxs tafakkurida real hayotga nisbatan yangicha munosabatlar va yondashuvlar shakllansa;
- tarbiyaning zaminida ta'lim rivojiga erishilsa;
- yangi texnologik tajribalar va ilmiy g'oyalar asosida nazariya yaratilsa;
- pedagogik mahoratning kafolatli natijalari yangi texnologiyalar rivojiga asos bo'lib xizmat qilsa;
- shaxsning orzu-niyatlari texnologik talablar bilan uyg'unlasha olsa;
- shaxs yashab turgan jamiyatda tobora o'z qadr-qimmatini topa borsa, fozillikka va komillikka

intilish shart-sharoiti yaratilgan bo‘ladi [5, 46.].

Darhaqiqat, ta‘lim texnologiyalari bo‘yicha bugungi kunda ilg‘or tajribalar ommalashib, o‘quv qo‘llanmalar, metodik tavsiyalar, ko‘plab maqolalar chop etilmoqda. Bu borada har bir oliy o‘quv yurtida mavjud imkoniyatlar ishga solinib, ta‘lim texnologiyalarini takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Respublika miqyosida ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazilib, innovatsion texnologiyalar tatbiqiga oid ibratli jihatlar xususida fikr almashilmoqda, internet materiallariga asoslangan qiyosiy tahlillar o‘tkazilmoqda.

Zamon bilan hamnafas bo‘lish, jahon ta‘limidagi ilg‘or pedagogik tajriba va texnologiyalarini o‘rganish bugungi kunda har bir oliy o‘quv yurti professor-o‘qituvchisining muhim vazifasi hisoblanadi. Bu boradagi innovatsion faoliyat ta‘lim-tarbiya jarayoniga yangicha yondashuvdan boshlanadi. Pedagogik innovatsiyalar ijtimoiy buyurtma ko‘rinishida ta‘lim-tarbiya mazmuni, sifat va samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar, takliflar, tashabbuslar, pedagogik g‘oyalar va fundamental tadqiqotlarning yaxlit tizimida namoyon bo‘ladi. Ammo uzluksiz ta‘lim tizimida yechimini kutayotgan qator muammolarni hal etmasdan turib, o‘qituvchining innovatsion faoliyatini takomillashtirish mumkin emas. Bu borada pedagogik innovatsiyalar bankini tizim holiga keltirib, uni amalga tatbiq etish mexanizmlari ilmiy-metodik asosga qo‘yish taqozo etiladi.

Shaxs ijtimoiy kamoloti borasidagi Sharq mutafakkirlarining qarashlari, shuningdek, yoshlar ijtimoiy faolligini rivojlantirish muammolari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar mazmunini o‘rganish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Shaxs kamoloti ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtirok darajasiga bog‘liq bo‘lib, uning ijtimoiy borliqqa munosabatini belgilaydi.

2. Yoshlar, xususan, talabalar ijtimoiy faolliklarini rivojlantirish shaxs umumiy kamolotini ta‘minlash hamda jamiyat taraqqiyotini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega sanalsa-da, bugungi kunga qadar yaxlit pedagogik jarayon sifatida tadqiq etilmagan.

3. Talabalar ijtimoiy faolligini rivojlantirish mazmunini asoslash, metodikasini ishlab chiqish pedagogika fani oldidagi dolzarb vazifa sanaladi.

Yuqoridagi fikrlardan shaxsning ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirish masalalariga doir o‘ziga xos yondashuvlar va tahlillar mavjudligi ma‘lum bo‘ladi. Ta‘kidlash lozimki, ilmiy-tadqiqotlarda talabalarning ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirish tizimini takomillashtirish muammosi yetarlicha tadqiq etilgan emas.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlari va ma‘ruzalarida talabalarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishga doir konseptual fikr-mulohazalar ilgari surilgan. Jumladan, bolaning dunyoqarashi, didi va salohiyati shakllanishida “eng yetuk va eng tajribali murabbiylarning biriktirib qo‘yilishi” muhimligiga e‘tibor qaratiladi. Bu yondashuvga ko‘ra, talabalarning ijtimoiy ko‘nikmalari asosini keng dunyoqarash, estetik did va intellektual salohiyat tashkil qiladi. Shu bois “talabada shaxs timsolini ko‘rish” taqozo etiladi va bunda, “ularning aqliy, ruhiy va jismoniy kamolotiga alohida e‘tibor berish kerak”ligi ta‘kidlanadi [4, 176-b.].

Shaxs ijtimoiy faolligi yuzasidan turli soha olimlari tomonidan ilmiy ishlar olib borilgan bo‘lsa-da, biroq talabalar ijtimoiy faolligini oshirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonning samarali shakl va metodlari ilmiy asoslanmagan hamda maxsus tadqiq etilmagan.

Ijtimoiy faollik xususiyatlarini o‘rganishda globallashtirish jarayonining yoshlar tarbiyasiga qanday ta‘sir ko‘rsatayotganligiga alohida e‘tibor qaratish lozim. Bugun ayrim taraqqiy etgan davlatlarning siyosiy, iqtisodiy hamda mafkuraviy vositalar orqali turli xil g‘oyalarni targ‘ib etishga intilayotgani, bu hol, ayniqsa, Markaziy Osiyo xalqlarining milliy urf-odatlarini va an‘analariga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotganligi yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Internet orqali kirib kelgan parno adabiyotlar, filmlar, odob-axloq me‘yorlarga zid pornosaytlar tajribada sinilib, o‘z e‘tirofini topgan milliy tarbiya metodlarini g‘arbona andozalar bilan baholashga shart-sharoit tug‘dirmoqda.

Axborot texnologiyasi mahsulidan transmilliy jinoiy guruhlar, terrorist va aqidaparastlarning ham unumli foydalanayotganligini nazardan qochirish lozim. Doimiy ravishda kompyuter yoki internet o‘yinlari bilan shug‘ullanish ashaddiy kashandalar singari shaxs faoliyatini o‘z domiga tortib olish kuch-qudratiga ega. Bu jarayon yoshlarni ijtimoiy faollikdan chalg‘itishga, ruhiyatidagi mo‘tadillikni buzishga, atrofidagi voqea-hodisalarga nisbatan beparvolikka va loqaydlikka olib keladi.

Bugungi kunning kishini tashvishga soladigan belgilaridan biri shuki, globallashtirish jarayoni kuchayishi siyosiy integratsiyaning yuz berishi yoki boylik va hokimiyat o‘rtasidagi dunyo bo‘yicha mavjud disbalansning kamayishi bilan birga kechmayotganligi hisoblanadi.

Jamiyat rivoji yo‘lida ijtimoiy xulq-atvorni boshqarish sub‘ektiv omil o‘rnining tobora ortib borishiga olib keladi. Shaxs o‘zining biologik, psixologik va kasbiy-pedagogik strukturasi ega bo‘lgani

kabi, ijtimoiylik strukturasi ham ega bo‘ladi. Bu haqida dissertatsiya ishining keyingi paragraflarida fikr yuritiladi.

Ijtimoiylashuv va ijtimoiylik prinsipi amal qilmagan jamiyatda insonning ichki olamini o‘rganuvchi fanlarni ijtimoiy deb bo‘lmaydi.

Izlanishlar jarayoni ijtimoiylashuvning to‘g‘ri shakllanishida bolani yoshligidan jinsiga mos ishlarga jalb etish ahamiyatga egaligini ko‘rsatdi. O‘g‘il va qiz bolani o‘ziga xos ish bilan shug‘ullantirish ijtimoiy faollikka mos yo‘nalishlarni belgilashda muhim o‘rin tutishi aniqlandi.

Yuqoridagi tahlillarga ilmiy yondashgan holda ta‘kidlash joizki, ijtimoiy faollik jarayonida talabaning mustaqil fikri to‘laqonli ifodalanishi quyidagi xususiyatlarni talab qiladi:

- erkinlik;
- intiluvchanlik;
- qiziqish;
- bilimdonlik;
- topqirlik;
- hozirjavoblik;
- tashabbuskorlik;
- faollik;
- tanqidiy fikrlash;
- o‘z-o‘zini tahlil eta olish;
- aniq maqsadni ko‘zlash;
- vazifani belgilash;
- kafolatli yechim sari intilish va hokazo.

Ta‘limning shaxsga yo‘naltirilgan ushbu tizimida talaba maqsadni ko‘zlashi uchun unga erkinlik berish zarur. Erkinlik harakatga, intilishga olib keladi. Albatta, bu o‘rinda talabaning bilimdon bo‘lishi zarur sifatlardan biri hisoblanadi. Talabaning bilimi sayoz bo‘lsa, undagi topqirlik, hozirjavoblik ko‘zga tashlanmaydi. U o‘z-o‘zidan tashabbusni qo‘lga kirita olmaydi. Demak, talaba ta‘limiy jihatdan faollikni boy beradi. Bunday hollarda talabaning maqsadi aniq emasligi ma‘lum bo‘ladi.

Interfaol metodlarning tatbiqi asosida talabalarining dars jarayonidagi faolligiga erishish ijtimoiy faollikka yo‘naltiruvchi omil vazifasini o‘tashi mumkinligi tajriba-sinov ishlari davomida o‘z isbotini topdi.

Jeff Halstedning “Yangi pedagogikani boshqarish” kitobidagi “O‘qitish jarayonini tubdan o‘zgartiruvchi olti prinsip” deb nomlangan quyidagi ilmiy mulohazalarida talabalarining ijtimoiy faollik darajasini ham nazarda tutish mumkin: “...agar o‘qituvchilar o‘quvchilarining o‘sislarini xohlasa, ularni o‘rganishni oziqlantiruvchi yetarli tajriba bilan ta‘minlashlari lozim. O‘quvchilar muvaffaqiyat uchun me‘yorni tushunishsa, xato va ustunliklari haqida individual maslahatlar olishsa, ta‘limda keyingi qadamga madadkorlikni his qilishsa, yetuk inson bo‘lib komillikka erishadi” [7, 239–247-b.].

Pedagogik texnologiyalar talabalar faolligining yuqori darajasini ta‘minlashi asosida oldindan belgilangan maqsadga erishishga qaratiladi. O‘quv-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish, ularni doimiy ravishda takomillashtirib borish, rivojlangan davlatlar ta‘lim amaliyotidagi tajribalaridan maqsadli foydalanish sifat va samaradorlikni kafolatlaydi. Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan fan, mavzu va uning mazmunida o‘rinli foydalanish ta‘lim oluvchilarning qiziqishlarini orttiradi.

Oliy ta‘lim muassasalarida talabalarining mustahkam bilim olishi, milliy va umumbashariy qadriyatlarni egallashi, ma‘naviy-axloqiy fazilatlarini kamol topishi, ijodiy fikrlashi va atrof-muhitga ongli munosabatda bo‘lishi bevosita ularning ijtimoiy faolligi bilan bog‘liqdir.

Talabalarda ijtimoiy faollikni shakllantirish – O‘zbekistonning istiqboli va istiqloli haqida qayg‘urish; o‘zining va xalqining, Vatanning qadru qimmatini, or-nomusini anglab, uni asrash, yuksak g‘oyalarni, yangi kashfiyotlar, niyatlar og‘ushida mehnat qilib, iste‘dodi, bor imkoniyatini, kerak bo‘lsa, jonini yurt istiqboli, eliga baxshida etish ruhida tarbiyalashdir. Talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish dunyoni milliy mustaqilligimiz manfaatlaridan kelib chiqqan holda anglash demakdir. O‘zbekiston diyori va xalqimizning barcha sohalarga oid manfaatlarini o‘z nuqtai nazar va hayotiy tamoyillariga tayangan holda amalga oshirish va jamiyat taraqqiyotiga mustaqil ravishda munosib hissa qo‘shishdir [6, 488-b.].

Ijtimoiy faollikni rivojlantirishda o‘z mehnati, mahorati, ishbilarmonligi tufayli ko‘pgina ehtiyojlarini qondira oladigan bo‘lajak mutaxassisni voyaga yetkazish tushuniladi. Bunda talabaning axloqiy-psixologik xususiyatlarini rivojlantirish asosida yot va buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi kurashish, ularga salbiy ta‘sir etadigan ijtimoiy, ruhiy, iqtisodiy holatlarning oldini olishda barqarorlik, tinchlikni saqlash ham nazarda tutiladi. Ijtimoiy faollikni rivojlantirish asosida jamiyatga, tabiat va o‘ziga o‘zi ziyon yetkazmaydigan shaxsni shakllantirish, yurt tinchligini saqlash uchun kurashga jalb etish; o‘z faoliyatini

insoniyat, jamiyat, xalq manfaatlariga yo‘naltirish; har bir talabani madaniy va ma‘naviy jihatdan rivojlantirish va ularning bo‘sh vaqti yetarli bo‘lishiga erishish; kuchli, adolatli, huquqiy, demokratik jamiyat qurishga bo‘lgan xohish-irodasini mustahkamlash; jamiyat va inson muhofazasini saqlashga intilishini turmush tarzining ajralmas qismiga aylantirish xususiyatlarini amalga oshirish oliy ta‘lim muassasalarining asosiy vazifalari hisoblanadi [7, 255-b.].

Har bir xalq yoki jamiyatda ijtimoiy faollikni rivojlantirish tizimi mavjud. Chunki ijtimoiy faollik inson salomatligini saqlashga, uning botiniy olamini ma‘rifiy boyitishga xizmat qiladi. Shu ma‘noda haq-huquqini taniydigan, kuchli qobiliyatga tayanib yashaydigan, atrof-muhitni muhofaza qilishda mustaqil munosabatda bo‘ladigan, o‘z manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg‘un holda tasavvur etadigan erkin shaxsni shakllantirishda barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Mana shu mezonlar asosida ijtimoiy faollikni shakllantirish, avvalo, jamiyat taraqqiyotini ta‘minlaydi, kelajagiga zamin yaratadi, ma‘naviy poydevorini mustahkamlaydi. Talabalar shaxsida ijtimoiy faollikni rivojlantirish natijasida ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarga sodiqlik, milliy-madaniy meros, o‘zlikni anglash, komillikka intilish, fan va texnikaning zamonaviy yutuqlarini egallashga harakat namoyon bo‘ladi.

Tarbiyani insonning odatiy tabiati nuqtai nazaridan tushunishga turli yondashuvlar tahlili quyidagi uchta jihatni ajratishga imkon beradi: ijtimoiy-me‘yoriy (shaxsni ijtimoiy-madaniy va kasbiy muhit bilan moslashtirish orqali shakllantirish: birinchi navbatda uning me‘yorlarini qabul qilish), individual-mazmuniy (o‘zini muhitdan ajratib individualligini rivojlantirish: o‘z-o‘zini anglash, hayotda o‘z o‘rnini topish, o‘zligini namoyon qilish, hayotiy va faoliyatda o‘z qadr-qimmatini belgilay olish) va qadriyatli-faoliyatli (sub‘ektivlikning muhit bilan o‘zaro munosabatda qaror topishi: ta‘sir almashish, nafaqat muhit qadriyatlarini qabul qilish, balki unga o‘z qarashlari bilan ta‘sir o‘tkazish). Insoniy fazilatlarini hosil qilishning ijtimoiy funksiyasi sifatida bunday tarbiya oiladan tashqarida olib borilishi mumkin emas.

Tarbiya maxsus tashkil etilgan faoliyat sifatida pedagog va tarbiyalanuvchi, kattalar va bolalarning barkamollikka erishadigan qadriyatli-mazmuniy o‘zaro munosabati sifatida belgilanadi. Bunday tarbiya natijasi tarbiyalanuvchi sub‘ektining qadriyatli qoidalarini tasdiqlash shakli sifatidagi faolligi bo‘ladi.

Talabalar ijtimoiy faolligini oshirish pedagogik zaruriyatdir. Ijtimoiy faollik ko‘nikma va malakalarini hosil qilish pedagogika nazariyasi va amaliyoti uchun o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Ijtimoiy faollik – faollikning yuksak shaklidir. U faqat ijtimoiy mavjudot sifatida insonlar guruhiga, jamiyatga xos bo‘lib, ijtimoiy munosabatlarning muayyan tizimida shaxsning intensiv faoliyatini belgilash uchun qanday bo‘lsa, uni amalga oshirish qobiliyatini belgilash uchun ham shunday ishlatiladi. Ijtimoiy faollik murakkab, integral fazilat sifatida mavjuddir. U qandaydir alohida xususiyatni emas, balki hayotiy faoliyat xususiyatlarining butun majmuini ifoda etadi. Ijtimoiy faoliyatli mohiyatning ifodasi ekanligi uning yetakchi xususiyatidir.

Adabiyotlar

1. Abu Rayhon Beruniy. Tarayhalar (Javohirotnom kitobidan). – T.: Meros, 1991. – 47 b.
2. Djuraev R.X. Organizatsionno-pedagogicheskie osnov intensivifikatsii sistem professionalnoy podgotovki v uchebnx zavedeniyax professionalnogo obrazovaniya. Avtoref. diss. ... dok. ped. nauk. – SPb.: 1995. – 43 s.
3. Ma‘naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar) /Ma‘sul muharrir: M.M.Xayrullayev. –T: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999. – 400 b.
4. Karimov I. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: O‘zbekiston, 2015. – 36 b.
5. Jamoldinova O. Yoshlar sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirishda uzviylik va uzluksizlik tamoyillari amal qilishining pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish. Avtoref. ... ped. fan. dok. – T., 2015. – 21 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
7. Jeff Halstet. Yangi pedagogikani boshqarish. Rowman va Littlefield VESTNIK Chelyabinskogo GPU, 2017. – S. 239-247.
8. Rubinshteyn S.L. Osnov obshey psixologii. – SPb.: Piter, 2013. – 713 s.

MODULLI TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH SHARTLARI

Yurtimizdagi ilg'or oliy ta'lim muassasalarida an'anaviy o'qitish tizimidan voz kechilib, dunyo tajribasidan o'tgan usul va uslublardan foydalanish yo'lga qo'yilmoqda. Ushbu usullardan biri modulli o'qitish usulidir. Ta'lim jarayonida alohida modullar asosida o'quv faoliyatini tashkil etilishi o'quvchining ta'lim faoliyatining subyekt sifatida mustaqil, rejali bilim o'zlashtirishi va o'z-o'zini rivojlantirishida katta imkoniyatlar yaratadi.

Kalit so'zlar: modul, o'quv moduli, texnologik usul, modulli texnologiya, tamoyil, kvantlash, ijodiy qobiliyat, o'quv jarayoni.

В передовых высших учебных заведениях нашей страны отходит от традиционной системы обучения и налаживается использование методов и приемов, опирающихся на мировой опыт. Одним из таких методов является метод модульного обучения. Организация учебной деятельности на основе отдельных модулей в образовательном процессе создает большие возможности для самостоятельного, планомерного усвоения знаний и саморазвития обучающегося как субъекта учебной деятельности.

Ключевые слова: модуль, учебный модуль, технологический метод, модульная технология, принцип, квантование, творческие способности, процесс обучения.

In the advanced higher educational institutions of our country, it is moving away from the traditional system of education and the use of methods and techniques based on world experience is being established. One of these methods is the modular learning method. The organization of educational activities based on individual modules in the educational process creates great opportunities for independent, systematic assimilation of knowledge and self-development of the student as a subject of educational activity.

Key words: module, training module, technological method, modular technology, principle, quantization, creative ability, learning process.

Kirish. Modulli o'qitish XX asrning 60-yillarida paydo bo'ldi va ingliz tilli mamlakatlarda tez tarqaldi. Modulli o'qitish nazariyasida modul tushunchasi qandaydir bir tizimining aniq funksional vazifasini bajaradigan (yukini ko'taradigan) mustaqil biror bir qismini bildiradi [7].

Asosiy qism. Modulli texnologiyalar eng zamonaviy texnologiya bo'lib, modul bloklardan tashkil topgan axborotni tizimli ravishda qayta ishlash va tahlil qilishga, o'quvchining mustaqil faoliyatiga asoslangan, B.K.M. diagnostikasida turli shakllaridan foydalangan holda tashkil etiluvchi yaxlit jarayon.

Modul - mazmuniy va mantiqiy yakunga ega bo'lgan, didaktik jihatdan ishlab chiqilgan, natijaga qaratilgan, kirish va chiqish nazoratlaridan iborat bo'lgan birlikdir.

Modul dastur- bir fan doirasidagi modul bloklarining yig'indisi bo'lib, erishish lozim bo'lgan didaktik maqsad, qo'llaniladigan usullar va vositalar yig'indisidir.

O'quv moduli – nisbatan mustaqil, mantiqiy yakunga ega bo'lgan o'quv kursining bo'lagidir. U o'quv metodik ta'minotdan nazariy va amaliy qismlardan, topshiriq va joriy hamda yakuniy nazorat kabi qismlardan iborat. Modulli texnologiyalar mustaqil faoliyat asosida o'quvchilarda bilim, ko'nikmalarni shakllantirish, ularda rejalashtirish, o'z-o'zini boshqarish va nazorat qilish, o'zlashtirish bo'yicha samarali natijani ta'minlashga qaratilgan eng samarali yondashuvlardan biri bo'lib qolmoqda. Modul bu shunday maqsadga yo'naltirilgan bog'lamki, u o'zida o'rganiladigan mazmunni va uni o'zlashtirish texnologiyasini aks ettiradi.

O'qitishning modul tizimi haqida rasmiy ravishda birinchi marta, 1972-yil, YUNESKOning Tokiodagi Butunjahon Konferensiyasida so'z yuritilgan edi [1].

Modulli o'qitish texnologiyasi funksional tizimlar, fikrlashning neyrofiziologiyasi, pedagogika va psixologiyaning umumiy nazariyasidan kelib chiqadi. Modulli o'qitish, pedagogik ta'limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatlarini yaratadi:

- modul - faoliyatlik asosida o'qitish mazmunini optimallashtirish va tizimlash dasturlarni o'zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta'minlash;
- o'qitishni individuallashtirish;
- amaliy faoliyatga o'rgatish va kuzatiladigan harakatlarni baholash darajasida o'qitish

samaradorligini nazorat qilish.

Modulli o'qitishning hozirgi zamon nazariyasi va amaliyotida ikki xil yondashuvni ajratib ko'rsatish mumkin: fan bo'yicha faoliyat yondashuvi va tizimli faoliyat yondashuvi [3].

Modul dasturi, mustaqil o'qishga o'rgatadigan o'quv qo'llanma sifatida o'quvchiga o'quv moduliga kiritilgan o'quv materialini blokini o'qish vaqtida doimiy foydalanish uchun berilsa ta'lim samaradorligi oshadi.

Modul qo'llanma tuzilmasida quyidagi konstruktiv talab va qoidalar aks etadi:

- modulli o'qish natijasida sifat tasniflariga (shaxsiy va bilish) kiritilgan yaxlit maqsad;
- ta'lim standartida berilgan predmet “o'quv elementlarida” maqsadning oydinlashishi;
- modulni o'rganish, texnologik usullar bo'yicha dastur va tavsiyalar;
- yakuniy nazorat topshiriqlarida o'zlashtirish darajalari etalon va mezonlari bo'yicha maqsadlar oydinlashishi;
- o'z-o'zini va o'zaro nazoratni tashkil etish bo'yicha etalonlar.

Modul dasturini loyihalashga kirishishdan oldin o'qituvchi o'zining yangi funksiyasini aniq anglab olmoq'i lozim. Uning yangiligi shundan iboratki, o'qituvchi:

- o'quvchilarning biluv faoliyatini boshqaradi, ya'ni, o'qituvchi tayyor bilimni beruvchi emas, balki o'quvchilarning shaxsiy biluv faoliyatining tashkilotchisiga aylanadi;

- darsda o'quvchilarni biluv faoliyatiga qiziqtirib (motiv), ularning o'quv predmetiga ijobiy munosabatini tarbiyalaydi;

- darsda o'quvchilarni axborot materiallari bilan ishlashga o'rgatadi va mustaqil ishlarni tashkil etadi;

- ta'limning jamoa usulidan foydalanib, barcha o'quvchilarni ijodiy ishlashga jalb etadi, ular o'rtasida o'zaro yordamni tashkil etadi;

- muvaffaqiyatga erishish vaziyatini yaratadi, ya'ni, har bir o'quvchining kuchi yetadigan topshiriqlar va ularning metodikasini ishlab chiqadi, ijodiy hamkorlik muhitini yaratadi;

- o'quvchining o'z faoliyatini tahlil qilishi va baholashini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda modulli ta'limning mohiyati shundaki, o'quvchi modullar bilan ishlash jarayonida o'quv-biluv faoliyati oldiga qo'yilgan maqsadga mustaqil ravishda to'liq erishadi (ba'zida o'qituvchi yordamidan foydalanadi).

Muhokamalar va natijalar. O'qitishning modulli texnologiyasi, o'qitishning qabul qilingan tamoyillariga muvofiq ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

Quyidagi tamoyillar modulli o'qitish texnologiyasining asosini tashkil etadi:

1. Faoliyatlilik tamoyili: Bu tamoyil, modullar mutaxassisning faoliyat mazmuniga muvofiq shakllanishini anglatadi. Bu tamoyilga ko'ra modullar fan bo'yicha faoliyat yondashuvi yoki tizimli faoliyat yondashuvi asosida tuzilishi mumkin. Modulli o'qitish texnologiyasida fan bo'yicha faoliyat yondashuvida, modullarni o'quv rejasi va dasturlar tahlili natijasida, tuzishni taqozo etadi. Tizimli faoliyat yondashuvida, modullar bloki, mutaxassisning kasbiy faoliyat tahlili asosida, shakllantiriladi.

2. Tenglik, teng huquqlik tamoyili. Bu tamoyil, pedagog va o'quvchining o'zaro munosabati subyekt-subyekt xarakterligini belgilaydi. Bu esa, modulli o'qitish texnologiyasini, shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar toifasiga taalluqligini ko'rsatadi. Ya'ni modulli o'qitish texnologiyasi, shaxsning individual psixologik xususiyatlariga moslashgan bo'ladi.

3. Tizimli kvantlash tamoyili. Bu tamoyil axborotni siqib berish nazariyasi, pedagogik bilimlar konsepsiyasi, didaktik birliklarni yiriklash nazariyalarining talablariga asoslanadi.

Shular bilan bir qatorda, bu tamoyil quyidagi psixologik-pedagogik qonuniyatlarni hisobga olishni taqozo etadi:

- katta hajmdagi o'quv materialini, qiyinchilik bilan va xohishsiz (istalmasdan) eslanadi;
- ma'lum tizimda qisqartirilgan holda berilgan o'quv materialini, osonroq o'zlashtiriladi;
- o'quv materialidagi, tayanch qismlarning ajratilib ko'rsatilishi, eslab qolish faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda o'quv materialining asosini ilmiylik va fundamentallik tashkil etish lozim.

Tizimli kvantlash tamoyili, o'quv axborotning tegishli strukturasi modulda tuzish yo'li bilan erishiladi.

Modul umumiy ko'rinishda quyidagi elementlardan iborat bo'lishi mumkin:

- tarixiy – bu muammo, teorema, masala, tushunchalarni tarixiga qisqacha sharh berish;
- muammoli – bu muammoni shakllantirish;
- tizimli – bu modul tarkibining tizimli namoyon etish;
- faollashtirish – bu yangi o'quv materialini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan tayanch iboralar va harakat usullarini ajratib ko'rsatish;

- nazariy – bu asosiy o‘quv materiali bo‘lib, unda - didaktik maqsadlar, muammoni ifodalash, gipoteza (faraz)ni asoslash, muammoni echish yo‘llari ochib ko‘rsatiladi;
- tajribaviy – bu tajribaviy materialni (o‘quv tajribasi, ishni va boshqalarni) bayon etish;
- umumlashtirish – bu muammo yechimining tasviri va modul mazmunini umumlashtirish;
- qo‘llanish – bu harakatlarning yangi usullarini va o‘rganilgan materialni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha masalalar tizimini ishlab chiqish;
- xatoliklar – o‘quvchining modul mazmunini o‘rganishdagi o‘zlashtirishda kuzatiladigan bir turdagi xatoliklarini ochib tashlash, ularning sababini aniqlash va tuzatish yo‘llarini ko‘rsatish;
- ulanish – o‘tilgan modulni boshqa modullar bilan shu jumladan yondosh fanlar bilan bog‘liqligini namoyon etish;
- chuqurlashtirish – iqtidorli o‘quvchilar uchun yuqori murakkabli o‘quv materialini taqdim etish;
- test-sinovlash – modul mazmunini o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirish darajasini testlar yordamida nazorat qilish va baholash.

Modul – ta‘lim mazmunining shunday bir yaxlit bo‘lagiki, u ta‘lim mazmuni va uning texnologiyasi birlashtirilgan yuqori darajadagi yaxlit tizimdir. Modulli ta‘limning boshqa ta‘lim tizimlaridan farqlari quyidagilar:

При подготовке к знакомству с новой аудиторией в речи необходимо выделять одну главную мысль или тезис. Это необходимо для того, чтобы студенты запомнили, о чем говорилось 10 минут назад. Если донести несколько разрозненных мыслей сразу, студентам будет сложно удержать их в голове.

Аудитория с большей вероятностью станет внимательно слушать преподавателя, если он попытается заговорить на их языке. Если тема кажется сложной, нужно провести аналогию, понятную аудитории.

Имидж и внешний вид преподавателя влияют на то, насколько внимательно студенты запоминают материал. Необходимо подобрать такую одежду, в которой будет комфортно вести разговор.

Первое занятие во многом предопределяет дальнейшую вашу работу в этом коллективе. Рассмотрим более детально различные варианты **знакомства с аудиторией**:

1. Пусть каждый студент расскажет о своём соседе по парте. Чем он выделяется среди однокурсников, чем увлекается. Как успевает по вашему предмету. Уберите журнал в сторону. Все равно вы не запомните абсолютное большинство фамилий. Кроме того, вы потеряете **зрительный контакт** с аудиторией. А он очень важен при первой встрече. Неправильными действиями вы заложите первые кирпичики в стену непонимания и недоверия.

2. Пусть каждый студент проведёт свою *мини-презентацию*. Для того, чтобы облегчить им самопредставление, напишите на доске или высветите на экране начало нескольких предложений:

- Меня зовут ...
- Мои любимые предметы — ...
- Ваш предмет мне нравится (или не нравится), потому что...
- Кроме учёбы я увлекаюсь...

Такой небольшой шаблон не только облегчит студентам изложить суть, но и поможет сэкономить время, поставит всех в равные условия.

Такой небольшой шаблон не только облегчит студентам изложить суть, но и поможет сэкономить время, поставит всех в равные условия.

И, конечно, знакомство с аудиторией необходимо начать с представления себя. Четко произнесите, а лучше напишите на доске или воспроизведите на экране фамилию, имя и отчество.

Кратко расскажите о себе. Хорошо если по той же форме, какую вы предложили детям:

- Меня зовут...
- В моём школьном детстве мне нравились ...
- Мой предмет мне нравится потому, что...
- Кроме моей работы я увлекаюсь...

Равные условия представления дадут первые ростки доверия к вам.

В завершении **знакомства с аудиторией** следует кратко сообщить о некоторых своих условиях.

К примеру, каждому завести рабочую тетрадь, брать на занятия фломастеры, маркеры и т.п.

Чего **нельзя** делать при первой встрече с аудиторией?

- Запугивать своими требованиями.
- Противопоставлять свой предмет остальным.
- Знакомить студентов с излишними подробностями из личной жизни.

Даже доверительное педагогическое общение требует соблюдение дистанции. И, разумеется, если вы получили карт-бланш при первой встрече, то есть почувствовали, что вам удалось произвести более чем положительное **первое впечатление** на студентов, то в дальнейшем постарайтесь закрепить успех.

Для закрепления знакомства, можно со студентами выполнить несколько упражнений.

Задание 1. Ответьте на вопросы.

- 1) Как вас зовут?
- 2) Как ваша фамилия?
- 3) Когда и где вы родились?
- 4) Как зовут ваших родителей? Сколько им лет?
- 5) Где вы учитесь?

Задание 2. Прочитайте диалоги. Составьте диалог с соседом по парте.

- Простите, девушка, вы тоже учитесь в этом университете?
- Да.
- Давайте знакомиться. Меня зовут Анвар.
- А меня Нодира.
- Очень приятно. Вы живёте в общежитии № 2, на втором этаже?
- Да, а что?
- Мы с вами соседи по этажу.
- Да? Очень приятно. Я ещё мало кого знаю. Но с вами я теперь знакома.

Задание 3. Расскажите свою автобиографию.

Итак, умение вести себя с людьми надлежащим образом является важнейшим фактором, определяющим шансы добиться успехов, облегчает установление контактов, способствует достижению взаимопонимания, создает хорошие, устойчивые взаимоотношения и т. д.

Каждый культурный человек должен не только знать и соблюдать основные нормы этикета, но и понимать необходимость определенных правил и взаимоотношений.

Результаты проведённого анализа представляют собой проявление двух противоборствующих тенденций в развитии языка – тенденции к устойчивости и преемственности и тенденции к изменению и обновлению. В связи с этим, русский речевой этикет, в том числе и в области форм знакомства, предстает как явление изменчивое и, вместе с тем, стабильное в основных своих характеристиках, что подтверждается результатами анализа всех рассмотренных выше примеров употребления форм знакомства.

Литература

1. Стернин И.А. Русский речевой этикет. Воронеж, 1996. -73 с.
2. Богданов В.В. Речевое общение //Прагматические и семантические аспекты. Л., 1990.
3. Формановская Н.И. Речевой этикет и культура общения. М., 1989.
4. <http://didaktor.ru>
5. <https://works.doklad.ru/view/tVtILGh25AM.html>

TALABALARDA UMUMMADANIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA ELEKTRON TA'LIM MUHITINING IJTIMOY-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Ushbu maqolada innovatsion yondashuvlar asosida talabalarda fuqarolik va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishda elektron muhitdan foydalanish jarayonlarining pedagogik va psixologik jihatlarini tahlil etish, talabalarda fuqarolik va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishda elektron muhitdan foydalanish, kasbiy tayyorgarligi sifati va samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish kabi masalalar tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishda elektron ta'lim muhitining o'ziga xos bo'lgan ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy yetuk, ajdodlar merosi, huquqiy tarbiya, axborot-kommunikatsiya vositalari.

В данной статье анализируются педагогико-психологические аспекты использования электронной среды в развитии гражданско-межкультурных компетенций у обучающихся на основе инновационных подходов, использование электронной среды в развитии гражданско-межкультурных компетенций у обучающихся, повышение качество и эффективность обучения. Также отмечены специфические социально-педагогические особенности электронной образовательной среды в развитии общекультурной компетентности обучающихся.

Ключевые слова: духовная зрелость, наследие предков, правовое образование, информационно-коммуникативные средства.

This article analyzes the pedagogical and psychological aspects of the use of the electronic environment in the development of civic and intercultural competencies in students, the use of the electronic environment in the development of civic and intercultural competencies in students, improving the quality and effectiveness of vocational training. The specific socio-pedagogical features of the e-learning environment in the development of students' general cultural competence are also mentioned.

Keywords: Spiritual maturity, ancestral heritage, legal education, information and communication tools.

Kirish. Talabalarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishda elektron ta'lim muhitining o'ziga xos bo'lgan ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari mavjud.

Ma'naviy yetuk, faol umummadaniy pozitsiyaga ega bo'lgan yoshlarni elektron ta'lim muhitda tarbiyalashning asosiy yo'nalishlari sifatida shartli ravishda quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) ajdodlar merosi orqali tarbiyalash;
- 2) ma'naviy-ma'rifiy tarbiya;
- 3) huquqiy tarbiya;
- 4) axborot-kommunikatsiya vositalaridan tashviqot va targ'ibot yo'nalishida tarbiyalash.

Asosiy qism. Bugungi axborotlashuv davri yoshlar tarbiyasi masalasini global muammoga aylantirdi. Bu muammoni hal qilish uchun yoshlar bilan ishlashda elektron ta'lim muhitning ahamiyati katta. Butun jahon miqyosida yoshlarning ma'naviy dunyosi destruktiv axborot oqimi natijasida salbiy tomonga o'zgarishi ham kuzatilmoqda. Juda ko'plab mamlakatlar uchun ma'naviyatni asrash masalasi eng jidiy va dolzarb muammoligicha qolmoqda.

Hozirgi kunda talabalarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish uchun, avvalambor, shu yurtda yashayotgan har qaysi yoshlar o'zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug' ajdodlarimizning merosini chuqurroq o'zlashtirishi, bugungi tez o'zgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarab, mustaqil fikrlashi va diyorimizdagi barcha o'zgarishlarga daxldorlik tuyg'usi bilan yashash zarurligini e'tirof etish kerak. Shuningdek, Internet global tarmog'idan foydalangan holda o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, o'quv jarayonida axborot texnologiyalarini joriy etish, elektron-ta'lim muhitini shakllantirish hamda ilg'or xalqaro pedagogik tajribalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish lozim.

Talabalarda umummadaniy kompetentlikni elektron ta'lim muhiti asosida rivojlantirish quyidagilarni inobatga olishni taqozo etadi:

- elektron ta'limning asosiy rivojlanish tendensiyalari;
- qadimiy tariximiz va boy madaniyatimizni elektron ta'lim orqali targ'ib qilish;
- onlayn-ta'limning bu boradagi afzalliklari va kamchiliklari;

elektron ta’limda yuzaga keladigan muammolar;
sinxron elektron o’qitish va asinxron elektron o’qitishning qiyosiy tahlilini olib borish;
SCORM va TinCan; elektron o’qitishdan foydalanish texnologiyasiga ega bo’lish;
elektron ta’lim sohasidagi zaruriy yangi bilim, ko’nikma va malakalarni hamda kompetensiyalarni o’zlashtirish.

Elektron ta’lim muhiti –tez rivojlanuvchi soha bo’lib, uning rivojlanishi 1980-yillardan so’ng (masofadan o’qitish va televidion kurslar shaklida) boshlandi. Texnologiya shunchalik tez rivojlandiki, uning geografik farqi sezilmasdan, tahsil oluvchi auditoriya ichida his qiladigan darajada namoyon qiladigan instrumentlar yordamida ko’rish mumkin. Elektron ta’lim video, slayd-shou, Word va PDF hujjatlari ko’rinishidagi turli formatdagi materiallar bilan tanishish imkonini beradi. Talabalarda umummadaniy kompetentligini elektron ta’limiy muhit asosida rivojlantirishda vebinarlarni o’tkazish va o’qituvchilar bilan muloqotda bo’lish, foydalanuvchilarning o’zaro hamkorlikda faoliyat olib borish imkoniyatlaridan biri bo’lgan chat va forumlar orqali amalga oshiriladi. Ko’plab turli e-learning tizimlar (bugungi kunda ma’lum bo’lgan o’qitishni boshqarish tizimi yoki LMS sifatida) va online kurslar yetkaza olish imkoniga ega bo’lgan metodlari mavjud.

Talabalarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishda elektron ta’lim muhit instrumentlari yordamida online kurslarni va avtomatik adaptiv testlarni yaratish uchun materiallar to’plami kabi turli jarayonlarni avtomatlashtirish mumkin.

Ta’lim sohasidagi muhim hodisalar internet sahifalarida paydo bo’lishi, tahsil oluvchilarning smartfonlardan foydalanishi, matnli xabarlarni jo’natishi, turli ta’limiy online kurslarda ishtirok etishiga imkoniyat yaratadi.

Talabalarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishda elektron ta’limiy muhitning o’ziga xos bo’lgan xususiyatlaridan yana biri, bu e’lonlar taxtasi, ijtimoiy tarmoq va kommunikatsiya internetning boshqa turli vositalari o’quvchilarga online kurslarda bo’lishi va o’rganilayotgan kursga bog’liq bo’lgan masalalarni umumiylik hissini ta’minlagan holda, muhokama qilish imkonini beradi. Elektron ta’limning tez o’zgaruvchan dunyoda, bugungi kunda o’rganilayotgan kursni yangi va qiziqarli qilish, kurs mazmunini doimo o’zgartirish, shuningdek, talabalarga eng oxirgi axborotni olish imkonini berishi muhimdir. Umuman, an’anaviy o’qitish shaklidan ko’ra, elektron ta’lim muhiti moddiy jihatdan arzon va qulayligi bilan ajralib turadi.

Respublikamizda “elektron ta’lim” atamasi 1999-yildan beri mavjud. Ushbu atama bilan birga “onlayn-ta’lim” va “virtual ta’lim” atamalari paydo bo’ldi. Shuningdek, elektron ta’lim asosidagi prinsiplar Internet ishga tushishidan ancha oldin paydo bo’lib, talabalarga ayrim fanlar yoki ko’nikmalar bo’yicha ta’limni taqdim etish uchun masofadan o’qitish tashkil etilgan.

Garvard universiteti professori Skinner maktablarda tahsil oluvchilar uchun o’qitishni boshqarish imkonini beradigan “trenajyor” atamasini kiritdi. 1960-yilda birinchi kompyuter dasturi taklif etildi. Birinchi e-learning tizimi talabalarga axborotni yetkazishga mo’ljallangan bo’lib, XX asrning 70-yillaridan elektron ta’lim interaktiv ahamiyat kasb etdi.

Kompyuter va Internet paydo bo’lishi bilan XX asrning oxirida, elektron ta’lim instrumentlar va yetkazib berish usullari kengaytirilgan. 1980-yillarda birinchi MAS jismoniy shaxslarga uylarida shaxsiy kompyuterga ega bo’lish, alohida predmetlar to’g’risida bilish va alohida ko’nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi [6]. So’nggi o’n yillikda onlayn-axborotning ko’p miqdoridan foydalana olish va elektron ta’lim uchun katta imkoniyatlarga ega bo’lish imkonini beradigan o’qitishning virtual muhiti rivojlana boshlandi. Texnologik yutuqlar ta’lim muassasalariga masofadan o’qitish narxini kamaytirishga, shuningdek, ta’limga keng auditoriyani taqdim etish uchun tejamkorlikka erishishga yordam berdi. Agar talaba kurs ishining ayrim qismini qiyinchilik bilan tushunsa, talaba har qanday savol bo’yicha maslahatlarni internetdan oson topishi mumkin, bunda internetdan qo’shimcha, limitsiz va bepul materialni bir zumda olish imkoniga ega bo’ladi. Bundan tashqari, elektron ta’lim talabalarning turli tipdagi ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun mo’ljallangan.

Talabalarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishda virtual ta’limdan oladigan axborot ularning kelgusida egallanadigan kasbiga oid bo’lishi, ularning ma’naviy dunyosini kengaytirishga mo’ljallangan bo’lishi zarur.

Talabalar Internet yordamida turli tarixiy va ijtimoiy mavzularda virtual video kurslarni ko’rish, shuningdek, muayyan mavzuni tushunib olish yoki ko’nikmalarga ega bo’lish imkonini yaratadigan avtonom rejimda to’liq kurs ishlarini ko’rish imkoniyatiga ega bo’ladi. Elektron ta’limdan maksimal tarzda unumli foydalanish uchun o’qituvchi va talaba internetdan olinadigan ko’plab resurslardan foydalanishi kerak. Axborotdan foydalana olish imkonini beradigan yuzlab onlayn servislar mavjud, masalan, Vikipediya. Instruktorlar onlayn materiallarining mazmuni va tarkibini oshirish uchun imkoniyatlardan foydalanishlari

yoki talabalarni qo‘shimcha veb-resurslarga yo‘naltirishlari kerak. Elektron ta‘lim talabalarga istalgan joyda va istalgan vaqtda o‘qish imkonini beradi. Istalgan joydan, kompyuter yoki mobil qurilma bo‘lgan va internetga ulangan joydan, ya‘ni uyda, dam olishda yoki ish o‘rtasidagi tanaffusda o‘qish imkonini beradi. Elektron ta‘lim va o‘qitish vositalari sifatida kelajakda shakllanishini tasavvur qilish imkonini beradigan elektron ta‘lim rivojlanishining ayrim tendensiyalari mavjud:

Demak, xulosa qiladigan bo‘lsak talabalarda umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishda elektron ta‘lim muhitidan foydalanish texnologiyasini takomillashtirish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagilarni ko‘rishimiz mumkin:

1. Zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot, fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi axborot-kommunikatsion texnologiya imkoniyatlaridan keng foydalanishni taqozo etmoqda. Shunday dolzarblik kasb etuvchi ijtimoiy hodisa talabalarda umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishda elektron ta‘lim muhitidan foydalanish texnologiyasini takomillashtirish ehtiyojini tug‘dirmoqda. Chunki bo‘lajak mutaxassislarning kasb faoliyatida fuqarolik daxldorligi, milliy va umumbashariy qadriyatlardan xabardor bo‘lishi ularning yuksak salohiyatli kadrlar bo‘lib yetishib chiqishi garovidir.

2. Bo‘lajak mutaxassislarning kelgusidagi kasbiy kompetentligi ularning faol fuqaro sifatida namoyon bo‘lishida, mamlakat taraqqiyoti, ilmiy fan rivojidadagi sa‘y-harakatida yaqqol ko‘zga ko‘rinadi. Shu sababli, uni rivojlantirishning ilmiy tizimi samaradorligini oshirish bo‘yicha tadqiqotlarni amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratilishi lozim.

3. Faol umummadaniy kompetentlik pozitsiyasiga ega bo‘lish – xalqimizning asrlar davomida yaratib kelgan an‘analari, odob-axloq me‘yorlari, turmush tarzi, yuksak ma‘naviyati, moddiy va ma‘naviy boyliklari, tarixiy merosi, urf-odatlar, barcha tarixiy yutuqlari va saboqlariga cheksiz hurmat-e‘tibor bilan munosabatda bo‘lish tushuniladi. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar va elektron ta‘lim muhiti rivojlanishi bilan, videokonferensiya, ijtimoiy tarmoq va diskussion forumlar kabi vositalardan foydalangan holda, ta‘lim subyektlari bilan faol o‘zaro hamkorlikda ta‘lim jarayonini tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirish, ularning amaliy faoliyati davomida tatbiq eta olish, shuningdek, o‘z davlati oldidagi burch va majburiyatlarini anglagan holda ularni to‘liq amalga oshirishda umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirish zarur.

4. Tadqiqotlar davrida elektron ta‘lim, an‘anaviy ta‘limga nisbatan, onlayn resurslar, ma‘lumotlar bazasi, davriy nashrlar va boshqa materiallardan foydalana olishni yengillashtirishi ilmiy asoslandi.

Xulosa. Talabalarda umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishda yoshlarni Vatanimiz qadriyatlari, boy madaniyati bilan tanishtirish, madaniy va diniy bilimlarini egallashga bo‘lgan talablarini shakllantirish, malakalarini oshirib, tobora boyitish, estetik tushunchalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqimizning ko‘p asrlik qadriyatlarini ulkan boy va madaniy merosini chuqur bilmasdan, milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘urur tuyg‘usini qaror toptirish mumkin emas. U yaratgan madaniy boyliklar yoshlar tarbiyasida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida” 2017-yil 7-fevrvldagi PF-4947-sonli Farmoni.

2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi “Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir” nomli ma‘ruzasi.

3. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 10.01.2019-y., 06/19/5618/2452-son)

4. Inomova M.O. Oilada bolalarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari: Ped. fanl. dokt. ... diss. - T., 1998. - 270 b.

5. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., Usmonboyeva M., Inog‘omova D. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Met. qo‘ll. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012. – 102 b.

6. Abdullayeva Sh.A., Ro‘ziyeva D.I. Pedagogik diagnostika va korreksiya. - Toshkent: “Universitet”, 2019. - 288 b.

Chori XAYRULLAEV

Buxoro davlat tibbiyot instituti dotsenti

PEDAGOG-SHIFOKORNING INNOVATSION FAOLIYATI VA UNING TIBBIY TABLIMNI YUKSALTIRISHDAGI AHAMIYATI

Maqolada pedagog-shifokorning innovatsion faoliyati va uning yoshlar tarbiyasidagi o'рни, uni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari tahlil qilingan. Pedagog-shifokor-klinitsist hamkorligini oshirish omillariga asosiy e'tibor qaratilgan. Shuningdek, tibbiy ta'limni tartibga soladigan me'yoriy hujjatlar mazmuni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: tibbiy ta'lim, pedagog-shifokor-klinitsist, yetuk kadr, innovatsion faoliyat.

В статье анализируется инновационная деятельность врача-педагога, ее роль в воспитании молодежи, а также основные направления ее реализации. Уделяется особое внимание расширению сотрудничества учитель-врач-клиницист. А также раскрыто содержание нормативных документов, регламентирующих медицинское образование.

Ключевые слова: медицинское образование, педагог-врач-клиницист, зрелый коллектив, инновационная деятельность.

The article analyzes the innovative activity of a doctor-teacher, its role in the education of young people, as well as the main directions of its implementation. Special attention is paid to expanding teacher-doctor-clinician cooperation. And also disclosed the content of regulatory documents governing medical education.

Key words: medical education, teacher-clinician, mature team, innovative activity.

Kirish. Tibbiyot sohasini zamonaviy fikrlaydigan, chuqur bilimli, mas'uliyatni his etadigan, har jihatdan yetuk kadrlar bilan ta'minlash masalasiga bugun davlat darajasida e'tibor qaratilmoqda. Har qanday sohaning rivoji birinchi navbatda, shu yo'nalishda tayyorlanayotgan kadrlar salohiyatiga bog'liq. Garchi, eng zamonaviy texnikalar, so'nggi texnologiyalar sohaga kiritilsa-da, binolar rekonstruksiya qilinib, mukammal boshqaruv tizimi shakllantirilsa-da, kadrlar tayyorlash masalasida sustkashlik bo'ladigan bo'lsa, soha rivojida kutilgan natija bo'lmaydi. Davlatimiz rahbari boshchiligida 2017-yilning 5-yanvar va 7-fevral kunlari sog'liqni saqlash sohasi vakillari bilan bo'lgan uchrashuvlarda, shuningdek, 2017-2020-yillar mobaynida o'tkazilgan videoselektor majlislarida tibbiyot xodimlarini tayyorlash masalasi, xususan, xalqaro tajribani o'rgangan holda, tibbiy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash lozimligiga alohida to'xtalib o'tilgani bejiz emas, albatta. Chunki hozirgi kun talabida uchyakdillik yoshlar tarbiyasida muhim o'rin egallaydi.

Ta'kidlash joizki, keyingi ikki-uch yil ichida tibbiyot yo'nalishida 150 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ularda belgilangan vazifalar bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etilishi natijasida aholiga ko'rsatilayotgan birlamchi tibbiy-sanitariya, shoshilinch va tez tibbiy yordam, ixtisoslashtirilgan xizmatlar takomillashmoqda. Bunday keng qamrovli chora-tadbirlar tufayli aholining o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichi uzaymoqda. Onalar, bolalar o'limining oldini olish, kasalliklarni barvaqt aniqlash, oilalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda sezilarli natijalarga erishilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi” PF-4947-son Farmoni [1], 2018-yil 7-dekabrda “O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-5590-son Farmoni, 2020-yil 7-aprelda “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4666-son Qarori, 2019-yil 6-maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-4310-sonli Qarori, shuningdek 2018-yil 25-sentyabrda “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha “El-yurt umidi” jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi PF-5545-sonli Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar [2, 6] da belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ahamiyati beqiyos.

Asosiy qism. Bugungi intellektual mehnat birlamchi ahamiyat kasb etayotgan, jahon bozorida raqobat tobora ortib borayotgan davr mamlakatimizda ta'lim sohasini zamon talablari asosida yanada takomillashtirish, pedagog-shifokor-klinitsistlar faoliyatini yanada kuchaytirishni taqozo qilmoqda.

Sharq ma'naviy merosining nodir manbalaridan biri “Avesto”dagi “ezgu so'z, ezgu fikr, ezgu amal” tarbiyasi ham rahbar pedagog-shifokor faoliyatida o'z o'rniga ega. Har bir pedagog-shifokor-klinitsist ta'lim

sifatini oshirib borish, unga innovatsion jarayon sifatida qarashni va uni yangi zamon talablari asosida boshqarishni talab etadi. Bu borada Buxoro davlat tibbiyot institutida innovatsion faoliyatni tashkil qilishga juda katta e'tibor berilmoqda. Demak, uchyakdillik asosida oliy ta'limning zamonaviy tizimini shakllantirish, ta'limdagi innovatsiyaquyidagilarni nazarda tutadi:

- *birinchidan*, zamonga yangicha yondashuv asosida yangi texnologiyalar va loyihalar yaratishi va ular yordamida o'quv-reja dasturlarni yangi mos turlarini yaratish;

- *ikkinchidan*, nazariyani amaliyot bilan, amaliyotni esa, ishlab chiqarish bilan bog'lash;

- *uchinchidan*, o'quv uslubiy materiallar bazasini mustahkamlash;

- *to'rtinchidan*, tibbiy ta'lim sharoitlarning sotsial va iqtisodiy asoslarini kuchaytirish;

- *beshinchidan*, pedagog-shifokor-klinitsstlarga ma'naviy va moddiy rag'batlantirishni doimo oshirib borish;

- *oltinchidan*, tibbiy ta'lim obyektlarining texnik bazasini, o'quv bazasini zamonga mos ravishda kuchaytirish va hokazo.

Hozirgi vaqtda eng muhim va murakkab vazifa yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga hozirgi zamon talablariga javob beruvchi yangicha yo'nalishlarni izlashdir.

Shunga asosan, institutda uchyakdillik asosida faoliyat olib boradigan har bir pedagogning:

- innovatsion texnologiyalarning ilmiy-nazariy, amaliy-metodik asoslarini;

- uning mohiyat mazmunini, yo'nalishlarini;

- jahon pedagogika ta'limotida sinalgan, respublikada qo'llanilayotgan ta'lim-tarbiya jarayoniga yondashuvlar to'g'risidagi ma'lumotlarni;

- tibbiy o'quv fani bo'yicha o'tkaziladigan dars loyahasini tuzishning nazariy-amaliy asoslarini, o'quv va tarbiya maqsadlarini oydinlashtirish qonuniyatlarini;

- o'zlashtirishning mahsuldor va izlanuvchan darajalariga mo'ljallangan pedagogik texnologiyasini;

- ta'lim-tarbiya maqsadlariga erishish yo'llari (usullari)ni bilishni;

- ta'lim-tarbiya maqsadlariga erishilganlikni baholash texnologiyasini;

- uy topshiriqlarini maqsadli diagnostik tahlil asosida o'quvchi-yoshlarni, o'quv bilim koidalariga mos belgilash texnologiyasini;

- o'quv maqsadlari, topshiriqlari va vazifalari katalogini ishlab chiqishni;

- o'quv vazifalari, maqsadlari asosida test topshiriqlarini tuzish texnologiyalarini chuqur va atroflicha egallangan bo'lishi shart.

Demak, uchyakdillik asosida ta'lim tizimi rivojlanishining hozirgi holatini innovatsion texnologiyalarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Darhaqiqat, zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifatini oshirishga zamin yaratadi. Tibbiy ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish texnologik, pedagogik, tashkiliy ishlar bilan bog'liq murakkab va ko'p qirrali masalalarni hal etishni talab etadi. Zamonaviy pedagoglar, mutaxassisligiga oid bilimlarga ega bo'lishi bilan birga, fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarning barcha imkoniyatlaridan samarali foydalana olishi, talabalarda bu texnologiyalarni amalda qo'llash malakasini shakllantirib bilishi zarur [7].

Uchyakdillik asosida faoliyat olib boruvchi professor-o'qituvchi nazariy bilim, amaliy tajriba, ilg'or ta'lim metodlari va usullarini qo'llay olish mahoratini egallagan bo'lsa, ta'lim sifati bilan samaradorligi albatta, kafolatlanadi.

Ta'kidlash joizki, har qanday pedagogik texnologiya yangilanishga, yuksalishga yo'naltirilgan pedagogik g'oyalarni namoyon etadi. Ta'lim tizimiga xos innovatsiya jarayonlari ana shu zarurat natijasidir.

Zero, uchyakdillikdagi innovatsiya talaba yoshlarda:

A) ularning o'qishga ongli munosabatda bo'lishini;

B) olingan axborotlarni faol va mustaqil ravishda qayta ishlashini;

D) axborotlar bilan bevosita hissiy muloqotda bo'lishni;

E) qabul qilingan, qayta ishlangan va hissiy muloqotda bo'lgan axborotlarni esda saqlab qolishini va xotirada saqlashni ta'minlaydigan vositadir.

Ta'kidlash joizki, pedagog-shifokor-klinitsistlar ta'lim muassasalarida mutaxassislarni tayyorlash jarayoniga yangicha yondashuv asosida, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish bilan bog'liq o'quv jarayonini samarali tashkil etib, ta'limni yangi sifat bosqichiga ko'tarish imkoniyatini beradi.

Uchyakdillik imkoniyatidan foydalanish bo'lajak shifokorning ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun ham keng imkoniyatlar yaratadi.

Har bir pedagog-shifokor o'z faoliyatida birinchi navbatda:

- kompyuter texnikasi, axborot va kommunikatsiya texnologiyalarning zamonaviy vositalarini tizimli o'rganish va undan foydalanishni;

- talabalarining mustaqil ishlarini o'quv-metodik jihatdan ta'minlashni;

- pedagoglar tomonidan zaruriy o‘quv-metodik ta’minotni yaratishni;
- axborot texnologiyalarini samarali qo‘llanilishidan vujudga kelayotgan yangi imkoniyatlarni hisobga olgan holda, o‘quv jarayonini takomillashtirishga oid tadbirlarni belgilashni taqozo etadi.

O‘qitish jarayonida pedagog-shifokorlarning innovatsion faoliyati ham asosiy o‘rin egallaydi. Innovatsion faoliyat deganda, yangi ijtimoiy talablarning an’anaviy me’yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g‘oyalarning mavjud g‘oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmualar muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat tushuniladi. Bu pedagogdan, xususan shifokor-klinitsistdan juda katta mehnat talab qiladi. Mohiyatiga ko‘ra, innovatsion faoliyat: ilmiy izlanishlar; ishlanmalar yaratish; tajriba-sinov ishlari olib borish; fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratishdan iboratdir [8]. Ta’kidlash joizki, pedagog-shifokorning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- yangilikni qo‘llashga bo‘lgan tayyorgarligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qilish darajasi;
- novatorlik darajasi;
- kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;
- ijodkorligi.

Pedagog-shifokor-klinitsist muntazam yangi izlanishlar, yangicha yondashuvlar bilan o‘z faoliyatini ijodiy tashkil etib, dars mashg‘uloti shakli va mazmunini yangilashga intilishi, o‘z qarashlarini tajriba-sinov tarzida amaliyotga tatbiq etmogi lozim. Bunday jarayon professor-o‘qituvchi faoliyatining muntazam takomillashib, yangiliklar bilan boyib borishini talab etadi.

Uchaykdillik asosidagi faoliyatda pedagog-shifokor-klinitsist hamdotalaba munosabatlarida o‘zgarish darajalarini quyidagicha belgilash mumkin: Pedagog-shifokor bilimni yetkazuvchi emas, talabani ilm olishga undovchi yordamchi, maslahatchi, tashkilotchi rahbar sifatida maydonga chiqadi; pedagog-shifokor konstruktorlash, loyihalash, algoritmlash sharoitida faoliyat yuritishga ko‘nikib boradi; uch tomonlama faol, ma’suliyatli, ijodkorlik asosida ish yuritish malakasi shakllanib boradi; talabaga o‘zi bilim egallashida mustaqil ishlash muhiti yordam beradi; ta’lim jarayoni individuallashtiriladi; ta’lim natijalari kafolatlanadi.

Demak, hamkorlik faoliyatitalaba yoshlarda kelajakka mas’uliyat hissini va o‘z-o‘ziga ishonchni shakllantiradi, zamon talablariga javob beradigan, yuqori darajadagi davolash texnologiyalarini egallashiga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 20-aprel Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.
5. Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 23-sentyabr 797-son Qarori.
6. Vazirlar Mahkamasining “Tibbiyot kadrlarini tayyorlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 27-sentyabr 769-son Qarori.
7. Т.Жунусов [“Развитие триединства у профессорско-преподавательского состава в медицинском высшем учебном заведении”](#). //Наука и здравоохранение. 2018. №5
8. О.Л.Задворная “Развитие профессиональных компетенций в подготовке управленческих кадров здравоохранения”. //МИР (Модернизация. Инновации. Развитие). 2015. №4.

Zarnigor SADULLAYEVA

Buxoro davlat universitetining
Pedagogika instituti
pedagogika va psixologiya yo‘nalishi
1-bosqich magistri

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI INNOVATSION PEDAGOGIK FAOLIYATIGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Ushbu maqolada bo‘ljak o‘qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatiga tayyorlashning texnologiyalarini takomillashtirish borasidagi turli xildagi tajribalar va chora tadbirlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: ta‘lim dasturlarini integratsiyalashuvi, pedagogik ijod, innovatsion faoliyat, modernizatsiya, ratsionalizatsiya, mikroinnovatsion jarayon, moslashtirish, prognozlash, aprobatziya, immanentlik, protseduralilik.

В данной статье описаны разнообразные опыты и мероприятия по совершенствованию технологии подготовки будущих учителей к инновационной педагогической деятельности.

Ключевые слова: интеграция образовательных программ, педагогическое творчество, инновационная деятельность, модернизация, рационализация, микроинновационный процесс, адаптация, прогнозирование, апробация, имманентность, процессуальность.

This article describes a variety of experiences and activities to improve the technology of preparing future teachers for innovative pedagogical activities.

Key words: integration of educational programs, pedagogical creativity, innovative activity, modernization, rationalization, micro-innovation process, adaptation, forecasting, approbation, immanence, procedurality.

Kirish. Bugungi kunda ta‘limning istalgan natijasining asosiy elementi – o‘zgaruvchan muhitda o‘quvchining muvaffaqiyatli hayotini ta‘minlash - insonning voqelikka innovatsion, ijodiy yondashuvini rivojlantirishdir. Binobarin, yaxlit innovatsion pedagogik faoliyat, uning jarayonida o‘quv jarayoni samaradorligi uchun zamonaviy sharoitlar yaratiladi va amalga oshiriladi, yetakchi ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga qaramay, umumiy ta‘lim tizimi o‘zining tabaqalanishi, o‘zgaruvchanligini oshirish, ta‘lim dasturlarini integratsiyalashuvi, ta‘limni insonparvarlashtirish yo‘nalishida rivojlanmoqda. Qonunda mustahkamlangan pedagogik ijod erkinligi huquqi innovatsion maktablarning keng miqyosda paydo bo‘lishiga, pedagogik jarayonga yangi texnologiyalarning joriy etilishiga yordam berdi; o‘qituvchining an‘anaviy ijrochilik faoliyati muammoli-tadqiqot ijodiy xarakterdagi faoliyat bilan almashtirildi.

Asosiy qism. Bugungi kunda ko‘pgina ta‘lim muassasalari innovatsion faoliyat rejimida ishlaydi. Innovatsion faoliyat pedagogik faoliyatning alohida turidir.

Innovatsiyalar - pedagogik amaliyotda qo‘llaniladigan, bolaning shaxsiga, uning qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan yangi usul, shakl, vosita, metodlar va texnologiyalarni belgilaydi.

Innovatsion texnologiyalar - bu maqsadga qaratilgan usullar, usullar yig‘indisi, o‘qitish usullari, ta‘lim vositalari tizimidir.

Innovatsion faoliyat o‘qituvchining ta‘lim jarayoniga pedagogik yangiliklarni (innovatsiyalarni) ishlab chiqish va joriy etishga tayyorligi bilan bog‘liq. Biroq, o‘qituvchilarning innovatsiyalarni qabul qilish va amalda joriy etishga tayyor emasligi ta‘lim jarayoniga kiritilgan innovatsiyalar samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda innovatsion faoliyatni tadqiq qilishning turli yo‘nalishlari o‘z aksini topgan: bu faoliyatning ijodiylik sifatida umumiy va o‘ziga xos xususiyatlari F.N.Ganobolin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, A.K.Markova asarlarida ko‘rib chiqilgan. Pedagogik voqelik yutuqlarini o‘rganish va ilg‘or pedagogik tajribani tarqatish nazariyasi va amaliyoti nuqtayi nazaridan o‘qituvchining innovatsion faoliyatini Y.K.Babanskiy, V.Y.Kuxarev, M.M.Potashnik o‘rganadi, ta‘limning zamonaviy tizimidagi innovatsion hodisalarning xususiyatlari M.S.Burgin, M.N.Klarin, S.D.Polyakov, L.S.Podimova, V.A.Slasteninlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa, ta‘limdagi innovatsion jarayonlarni boshqarish V.S.Lazarev, V.A.Bordovyakovskiy, V.P.Trett izlanishlarida tadqiq qilingan [5, 6-7].

Bo‘ljak o‘qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatning umumiy psixologik va pedagogik nazariyasi (B.G.Ananyev, A.N.Leontyev, S.L.Rubinshteyn), shaxsni rivojlantirish nazariyasi (L.S.Vigotskiy, V.V.Davidov, K.K.Platonov, S.L.Rubinshteyn tashkil etdi), umrbod pedagogik ta‘lim nazariyasi

(A.V.Vladislavlev, V.G.Onushkin, V.N.Turchenko, N.R.Filippov), shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim nazariyasi (E.V.Bondarevskaya, V.V.Serikov, G.S.Suxobskaya, I.S.Yakimanskaya), pedagogik innovatsiyalarni (M.N. Clarin, A.S.Lazarev, M.M Potashnikova) o‘zlarining asarlari va nazariyalarida ochib berishga harakat qilishgan[1, 159].

Umumiy ta‘limning yangilangan amaliyoti o‘qituvchi va pedagoglar oldiga sifat jihatidan yangi talablarni qo‘yadi. Pedagogik ta‘lim tobora kuchayib borayotgan kuchlarning ta‘sirida bo‘lib, uni jadal rivojlantirish zaruriyatini talab qilmoqda. Kelajakdagi ta‘lim tizimlari uchun o‘qituvchilar bugundan tayyorlanishi kerak, shuning uchun pedagogika yo‘nalishlari oldida ular ilgari hal etilmagan vazifalar turibdi.

O‘qituvchining o‘quv jarayoniga innovatsiyalarni kiritishga tayyorligi ko‘p jihatdan universitetda o‘qish davrida qo‘yilgan asos bilan belgilanadi. Shuning uchun ham samarali bo‘lishi uchun pedagogik kadrlar tayyorlash tizimi ham umumta‘lim amaliyotining rivojlanishini belgilab beruvchi tendensiyalarga mos ravishda o‘zgarishi kerak.

Muhokamalar va natijalar. Kasbiy faoliyat tizimidagi o‘zgarishlar zarurligini tushunadigan ijodkor modernizatsiya, ratsionalizatsiya yoki o‘zgartirish asosida tubdan yangilik (ijodiy yangilikning eng yuqori darajasi) sifatida yangi narsa yaratishga intiladi. Bunda o‘qituvchi “ijodkor” mavqeyini egallaydi. Darhaqiqat, ustoz-ijodkorning bu intilishi qarshilik va qarshiliklarga duch keladi.

O‘qituvchining ijodiy kamolotini yaratish jarayoni davom etishi uchun quyidagilar zarur:

- 1) uzoq muddatli va maqsadli innovatsion rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish;
- 2) nafaqat moddiy, balki ma‘naviy ustuvorlikni ham maqsad qilish;
- 3) g‘oyani yoki tub innovatsiyani doimiy ravishda davom ettirish va takomillashtirishga qodir bo‘lgan hamfikrlarning mavjudligi;
- 4) yaratish va amalga oshirish jarayonini birlashtirish; (innovatsiyalarning professional amaliyotida);
- 5) “ijodkor” va uning jamoasini rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilish tizimini yaratish.

O‘qituvchining ijodiy yetukligini yaratish jarayoni to‘xtab qolmasligi uchun quyidagilar zarur:

- 1) uzoq muddatli maqsadli innovatsion rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish;
- 2) maqsadni nafaqat moddiy, balki ma‘naviy ustuvorlik uchun ham belgilash;
- 3) g‘oyani yoki tub innovatsiyani doimiy ravishda davom ettirish va takomillashtirishga qodir bo‘lgan hamfikrlarning mavjudligi;
- 4) yaratish va amalga oshirish jarayonini birlashtirish, kasbiy amaliyotdagi yangiliklar;
- 5) “ijodkor” va uning jamoasini rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilish tizimini yaratish [8, 411].

Innovatsion jarayonning tuzilishida quyidagi bosqichlar shartli ravishda ajratiladi:

- yaratilgan obyektiv yoki subyektiv, tashqi yoki ichki qarama-qarshiliklarga asoslangan innovatsion g‘oya, muammoning paydo bo‘lishi;
- shaxsning ijodiy faoliyati asosida yangi mahsulot izlashda innovatsion jarayonning tashkil etilishi va borishi;
- obyektiv yoki subyektiv ahamiyatga ega yangi mahsulot sifatida innovatsion natija-innovatsiyani olish;
- ijtimoiy tajribada innovatsiyalarni tekshirish;
- yangilikni real amaliyotga moslashtirish va uni ijtimoiy standartga aylantirish. [8, 413].

Innovatsion jarayonda uning o‘zgaruvchan tuzilishi ham ajralib turadi: ***g‘oya-jarayon-natija***. Ushbu tuzilmani tahlil qilish asosida mikroinnovatsion jarayonlarni shartli ravishda farqlash mumkin bo‘ladi, bu esa innovatsion texnologiyalarning asosiy variantlarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi.

- 1-variant. Fikr paydo bo‘ladi, lekin o‘qituvchi nazariyotchi uni amalga oshirish jarayonini va qanday natija bo‘lishi mumkinligini bilmaydi.
- 2-variant. O‘qituvchi nazariy qanday yangi natijaga erishish kerakligini biladi, lekin yangi mahsulot yaratish jarayonini qanday g‘oya asosida va qanday tashkil etishni bilmaydi.
- 3-variant. O‘qituvchi nazariyotchining fikri bor, jarayonning texnologiyasi ma‘lum, lekin u qanday natija bo‘lishini bilmaydi.
- 4-variant. O‘qituvchi nazariyotchi natijani biladi, innovatsion faoliyatda (jarayonda) tajribaga ega, lekin g‘oya aniq shakllantirilmagan.
- 5-variant. Fikr bor va o‘qituvchi nazariyotchi kerakli natijani ko‘radi, lekin unga qanday qilib protsessual tarzda erishishni bilmaydi. [8, 415].

Bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, agar u dasturiy-maqsadli yondashuvning asosiy qoidalariga asoslansa va ta‘lim muassasasini innovatsion rivojlantirishning maqsadli dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish usullarini o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lsa samarali natija beradi.

Shunday qilib, innovatsion jarayonda uchta tarkibiy komponent mavjud bo‘lganda amalga oshiriladi: ***g‘oya***, uni ishlab chiqish ***jarayoni*** va yangi ***natija olish***. Biroq pedagogik amaliyotda o‘qituvchi har doim

ham shu uch komponent asosida yangi narsa yaratish imkoniyatiga ega bo‘lavermaydi. O‘ziga xoslik, muammoning yangilikni tashkil etuvchi bir yoki ikkita noma’lum bilan hal qilinishidir. Bu ko‘pincha mavjud me’yor va an’anaga yangi elementlarni kiritish jarayonida sodir bo‘ladi. Shu bilan birga, innovatsion jarayon o‘ziga xos xususiyatlarni o‘zlashtirish va yangi g‘oyani optimal tekshirish uchun shart-sharoitlarni yaratish uchun *moslashtirish, prognozlash va qidirish* davrlarini ta’minlaydi.

Pedagogik amaliyotda jarayonni yangilash va innovatsiyalarni o‘zlashtirishning bir qancha usullari mavjud: *eksperiment; innovatsion tajribani umumlashtirish; ijodiy tajribaga aylanadigan individual innovatsiyani o‘rganish*. Innovatsion tajribani yetkazish mumkin emas, chunki bu insonning yaratilishi natijasidir. Hatto *K.D.Ushinskiy ham shunday ta’kidlagan edi*: “Tajriba uzatilmaydi, balki tajriba olingan g‘oyadir” [8, 81].

Yaratilgan ijtimoiy ahamiyatga ega tajribani umumlashtirish va o‘zlashtirish innovatsion jarayonda uni boshqa sharoitlarga moslashtirish bilan amalga oshiriladi. Tajribani joriy etish uni o‘zgartirish, moslashtirish, moslashtirish, modernizatsiya qilish, takomillashtirish yoki o‘zgartirishga olib kelishi mumkin. Innovatsiyaning texnologik omilini aprobatatsiya (lot. approbatio – tasdiqlash, ma’qullash) qilish, turli ijrochilar tomonidan amalga oshirilganda, qidiruvlarni sozlash va ularni eksperimental tekshirishni nazarda tutadi. Bu o‘qituvchi - tadqiqotchi - ijrochining shaxsiy omilining katta ahamiyati va yangi natijani amaliyotga joriy etishning o‘ziga xos xususiyatlari bilan tasdiqlanadi. Pedagogik amaliyotda ijodkorlik natijasini yaratish va tekshirish uchun klassik, an’anaviy moslashuvchan innovatsion texnologiyaning oqilona kombinatsiyasi zarur.

O‘qituvchining innovatsion faoliyatini uning faoliyati o‘quvchi faoliyati bilan o‘zaro ta’siri va o‘zaro bog‘liqligi, ta’lim sifatini oshirishga intilish shakli sifatida qarash mumkin. Uning xarakterli xususiyatlariga immanentlik (ilohiylikning moddiy dunyoda namoyon bo‘lishi haqidagi ta’limot bo‘lib, uni ilohiy mavjudligi haqidagi ba’zi falsafiy va metafizik nazariyalar qo‘llab-quvvatlaydi), protseduralilik, innovatsiyalar va ta’lim jarayonlari maqsadlarining bir xilligi kiradi. Innovatsiya predmeti shaxsning unda to‘plangan tajribasini o‘z ichiga oladi. Innovatsiya funksiyalariga moslashish (muloqot, tushunish, moslashish), professionallashtirish, sotsializatsiya (ijtimoiy yetuklikka erishish) kiradi. O‘qituvchining innovatsion faoliyati o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘lib, unda kognitiv, ijodiy, motivatsion va protsessual komponentlar ajralib turadi [4, 46-45].

Kasbiy innovatsiyani yaxshi biladigan o‘qituvchi tegishli motivatsiya, innovatsion jarayonlarni bilish, pedagogik ta’sirlarni loyihalash qobiliyati, nafaqat taniqli texnologiyalarni qo‘llash, balki ularni takomillashtirish qobiliyati bilan ajralib turadi. Shunday qilib, o‘qituvchining muhim fazilatlarini - bu chuqur kasbiy bilim va maxsus ko‘nikmalarga ega bo‘lish, ijodkorlikning namoyon bo‘lishi, yuqori natijalarga erishishga qiziqish, yuqori darajadagi introspeksiya va o‘zini o‘zi nazorat qilish, ular kasbiy mahoratda namoyon bo‘ladi. Zamonaviy (“innovatsion”) o‘qituvchining hozirgi vaqtda birinchi o‘rinda turadigan va shuning uchun birlamchi rivojlanishni talab qiladigan xususiyatlariga yangilik, yangilikni his qilish, yangilikka ochiqlik, yangilikni idrok etishga tayyorlik, o‘z-o‘zini o‘rganish, yangilash kabilarni aytish mumkin [3, 568].

Xulosa. Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi jarayonini innovatsion faoliyat subyekti sifatida o‘rganish, ayniqsa, zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion jarayonlarning faollashuvi munosabati bilan bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash muammosini muhokama qilishda rivojlangan ta’lim tizimida umumiy va oliy pedagogik ta’limning asosiy muammolarini ko‘rib chiqishni talab qildi.

Adabiyotlar

1. Angelovski K. O‘qituvchilar va innovatsiyalar. -M.: “Ta’lim”, 1991. - 159 b.
2. Andreyev V.I. Ijodkor shaxsning ta’lim va o‘z-o‘zini tarbiyalash dialektikasi. - Qozon: KDU nashriyoti, 1989. - 238 b.
3. Andreyev V.I. Ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirish pedagogikasi. Innovatsion kurs. Kitob. 1. -Qozon: KDU nashriyoti, 1996. - 568 b.
4. Anisimov N.M. O‘qituvchining innovatsion madaniyati // Magistr. - 1998. - №3. C. 46-55.
5. Протасова И.А. Социально-педагогические условия формирования теоретической готовности учителя к инновационной деятельности: В процессе обучения студентов педагогического вуза. Дисс.на соиск. кандидат пед.наук. – 1999. -6-7 с.
6. <https://www.ziyonet.uz>
7. <https://www.Kutubxona.uz>

Zarifaxon MAMATQULOVA

Farg‘ona viloyati xalq ta‘limi xodimlarini
qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazi
pedagogika, psixologiya va ta‘lim
texnologiyalari kafedrasida dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD),
xalq ta‘limi a‘lochisi

O‘QITUVCHILARDA STRATEGIK FIKR, PEDAGOGIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Maqolada yangilanayotgan barcha sohalar muvaffaqiyati bilimli insonlarga bog‘liqligi, oxirgi to‘rt yilda ta‘lim sifatini yaxshilash, o‘qituvchilarda strategik fikr, pedagogik tafakkurni rivojlantirish texnologiyalari, o‘qituvchilarga metodik yordam berish uchun texnologiyalashtirilgan dars ishlanmasi, ta‘lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, ilmiy bilimlarni, amaliy faoliyatlarni tashkil etish, ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish asosi ekanligi yoritilgan. Pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, muzyorar, munozarali guruh, juftlik, turlicha mashq, tarqatma material, shakl va ranglar, raqam, ijodiy qarash, rivojlantiruvchi mashg‘ulot, geometrik figura, turli yozishma, uslub, rasm, chegaralangan daqiqa, aralash vaziyatlardan foydalanish, dars samaradorligini oshirish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *strategik fikr, pedagogik tafakkur, malaka oshirish, qayta tayyorlash, o‘qituvchi, pedagogik tafakkur, rivojlantirish, pedagogik texnologiya, muzyorar, munozarali guruh.*

В статье рассматривается, что успех всех обновляемых направлений зависит от образованных людей, улучшение качества образования за последние четыре года, технологии развития у учителей стратегического мышления, педагогического мышления, технологизированная разработка уроков для оказания методической помощи учителям, совершенствование учебно-воспитательного процесса, организации научных знаний, практической деятельности, реализации творческого и интеллектуального потенциала. Разработаны технологии использования педагогических технологий, музейного, дискуссионного группового, парного, вариативного упражнения, раздаточного материала, формы и цвета, фигуры, творческого видения, развивающего занятия, геометрической фигуры, различных соответствий, стиля, рисунка, лимитированной минуты, использования смешанных ситуаций, повышения эффективности урока.

Ключевые слова: *стратегическое мышление, педагогическое мышление, повышение квалификации, переподготовка, педагог, педагогическое мышление, развитие, педагогическая технология, музей, дискуссионная группа.*

The success of all areas in the article depends on educated people, improving the quality of education in the last four years, strategic thinking in teachers, technologies for developing pedagogical thinking, technological lesson development to provide methodological assistance to teachers, improving the educational process, scientific knowledge, practical activities is the basis for the realization of their creative and intellectual potential. Use of pedagogical technologies, museums, discussion groups, couples, various exercises, handouts, shapes and colors, numbers, creative ideas, developmental exercises, geometric figures, various correspondence, styles, pictures, limited minutes, mixed situations, etc, developed a technological model of increasing lesson effectiveness.

Keys words: *strategic thinking, pedagogical thinking, training, retraining, teacher, pedagogical thinking, development, pedagogical technology, museum, debate group.*

Kirish. Bugungi zamonaviy jamiyatda inson faoliyatining eng keng sohalaridan biri - bu ta‘lim hisoblanadi. Oxirgi yillarda ta‘limning ijtimoiy roli ortib, dunyoning aksariyat davlatlarida uning barcha turlariga bo‘lgan munosabat o‘zgardi. Ta‘lim ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning bosh, yetakchi omili sifatida qaralmoqda. Bunday e‘tiborning sababi zamonaviy jamiyatning eng muhim qadriyati va asosiy kapitali - bu yangi bilimlarni izlash, egallash va nostandart qarorlar qabul qilishga qodir bo‘lgan inson hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgi davrda ta‘lim shaxs va jamiyatni rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Asosiy qism. Yangilanayotgan barcha sohalar muvaffaqiyati bilimli insonlarga bog‘liqligi, oxirgi to‘rt yilda ta‘lim sifatini yaxshilash, o‘qituvchilarda strategik fikr, pedagogik tafakkurni rivojlantirish texnologiyalari, o‘qituvchilarga metodik yordam berish uchun texnologiyalashtirilgan dars ishlanmasi,

ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, ilmiy bilimlarni, amaliy faoliyatlarni tashkil etish, ijodiy va intellektual salohiyatini ro’yobga chiqarish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega. Pedagogik texnologiya jumlasida o’qituvchi uchun yangilik emas, lekin pedagogik texnologiya o’qituvchining ta’lim berish jarayonida erkin faoliyatni namoyon qilish, yuritilgan fikrlarni ishonish-ishontirish asosiga qurish, ishlatish va ulardan foydalanish yo’llarini anglashdan iborat. O’qituvchi–trener–fasilitator terminlari bolalarni to’g’ri yo’lga yo’naltirishdagi registrlardir. Ular muzyorar, munozarali guruh, juftlik, turlicha mashqlar, tarqatma material, shakl va ranglar, raqam, ijodiy qarash, rivojlantiruvchi mashg’ulot, geometrik figura, turli yozishmalar, uslub, rasm, chegaralangan daqiqa, aralash vaziyatlar kabilardan foydalanib, pedagogik jarayonni zeriktirmay hamda zo’riqtirmay o’tkazish tarafdorlaridir. O’qituvchilarning barchasini faollashtirish maqsadida asosiy fikr yoki guruh tomonidan kelishilgan javoblarni yozib olish uchun – yozib oluvchi, boshqa guruhlariga hisobot berish uchun – sharhlovchi, hammaning kayfiyatiga ijobiy ta’sir etuvchi – ruhlantiruvchi, berilgan vaqtni doimo eslatib turuvchi – vaqt belgilovchi yoki nazorat qiluvchi, ovoz chiqarib o’qish uchun – o’quvchi, har bir ishtirokchi navbatini, galma-galdan ta’kidlab turuvchi navbat nazoratchisini, guruhdagi har bir ishtirokchini tushunish va fikrlarga qo’shilishini qo’llab, ta’minlab boruvchi – tekshiruvchini saylab oladilar. Bu bilan har tomonlama erkinligini tarkib toptirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Bu o’qituvchilarning strategik fikr, pedagogik tafakkurni rivojlantirishda muhim hisoblanadi. Biz ushbu jarayonlarni “Markaziy Osiyo mutafakkirlarining pedagogik g’oyalari va ta’lim-tarbiyadagi zamonaviy qarashlarning uyg’unligi” mavzusidagi 80 daqiqalik mashg’ulot misolida ko’rib o’tamiz.

Birinchi bosqich: mavzu e’lon qilinadi: Markaziy Osiyo mutafakkirlarining pedagogik g’oyalari va ta’lim-tarbiyadagi zamonaviy qarashlarning uyg’unligi (2 daqiqa).

Ikkinchi bosqich: tashkiliy qism amalga oshiriladi: Guruhda 2 ta kurs ishtirok etmoqda. “Tarix” va “Odobnoma” guruhi “ishtirokchilar”i, ijtimoiy fanlar kafedrasining 50 nafar tinglovchisi. Ularga “rejissor” - o’qituvchi tarqatmalar beradi. Unda bir betdan iborat har-xil mutafakkirlar to’g’risida ma’lumotlar berilgan: Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr al-Forobiyning pedagogik qarashlari; Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Yusuf Xos Hojib, Muhammad Tarag’ay Mirzo Ulug’bek, Munavvarqori Abdurashidxon o’g’li.

Uchinchi bosqich: bir sahifalik ma’lumot bilan ishlash tartibi tushuntiriladi. Zero, tushunmagan tinglovchi yo’q, tushuntira olmagan o’qituvchi bor.

Hurmatli ustozlar! Darsimizning tartibi boshqacharoq. Hozir hammamiz qo’limizdagi ma’lumotni faqat o’qiymiz. O’qish jarayonida shu mutafakkir haqida uchtadan savolni tuzamiz. Uchta savolning javobi esa, qo’limizdagi tarqatmadan aniq, lo’nda javob bilan o’qib beriladi. Masalan, mening qo’limda “Avesto” kitobi haqida ma’lumot bor. Shunga qarab bitta savol topdim: “Avesto” bo’yicha axloqning asosiy omillari nechta? Javobni aynan o’qib beraman: “Avesto” bo’yicha axloqning asosiy omili uchta: “Ezgu fikr”, “Ezgu kalom”, “Ezgu amal”.

To’rtinchi bosqich: hamma qo’lidagi ma’lumotga asosan ham o’qib, ham 3 ta savol tuzishga harakat qilish jarayoni ularning ma’lumotni o’zlashtirishga nisbatan diqqatini yanada oshiradi. Savollar tuzish jarayoniga esa, uch daqiqa ajratilganligi qat’iy vaqt qilib belgilanadi. Bunda “O’zlik” hukmron bo’ladi. O’zlari mas’uliyat sezishadi. O’zlari savol topishadi.

Beshinchi bosqich: bunda o’qituvchi belgilangan vaqt tugaganligini e’lon qiladi. U hattoki tinglovchilar mustaqil ish jarayonini kuzatish jarayonida, ularni qiziqtirish, tezlatish uchun vaqtni doimo eslatib boradi. Oxirgi aytilgan e’lon esa ularni to’xtatishga, keyingi bosqichni tushunishga e’tiborlarini qaratadi.

Beshinchi bosqich: eng katta bosqich hisoblanadi. Tinglovchi-ishtirokchilar esa raqobat shakliga hali tayyor bo’lmagan holda munozaraga kirishib, tez munosabatga kirishuvchanlik qobiliyatlari sinaladi. O’qituvchi bir tinglovchining tarqatmasini olib, mutafakkirning nomini e’lon qiladi:

Kimlar Munavvarqori Abdurashidxon o’g’li hayoti va ijodiga tayyorgarlik ko’rdi? Bu ma’lumotnoma 8 kishiga tarqatilgan. 4 kishi bir joyda, 4 kishi ikkinchi joyda. Endi ular 4 kishidan iborat 2 ta guruhdir, savollar o’xshash. Ular bir-biriga maslahat qilmasdan tuzishgan. Endi berilgan savol qaytarilmasligi, javoblar “boshqaruvchi”ning barmoqlarini tezda beshgacha sanashi bilan aynan o’qib berilishi shart. 2 ta guruh uchtadan bir-birlariga savol berishlari, ma’lumot mohiyatini ochib beruvchi savollarni kerak bo’lsa, yana tezda tuzishlari kerak. 2 ta guruh bir-birlariga quyidagi savollarni berishdi:

Savol: Munavvarqori Abdurashidxon o’g’li nechanchi yillarda yashab ijod etdi?

Javob: 1878-1931-yillarda.

Savol: U qaysi maktabga ixlos bilan qaradi?

Javob: “Usuli savtil” maktabiga.

Savol: Qanday jamiyatni tuzdi?

Javob: “Turon” jadidlar jamiyatini.

Savol: 1918-yil may oyida qanday jamiyatni tuzdi?

Javob: Toshkent shahrida “Turk o‘chog‘i” ilmiy-madaniyat jamiyatini tuzdi.

Savol: Maqsadi nima edi?

Javob: Turkiston turklarini milliy bayroq ostida birlashtirib, ularga milliy ruh, milliy g‘oya va milliy tarbiya berish, milliy urf-odatlar asosida umumiy turk madaniyatini vujudga keltirishni va shu tariqa millatimizning ruhiy va jismoniy quvvatini orttirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Savol: U nega qamoqqa olindi va qachon o‘ldirildi?

Javob: U 1926-yili qamoqqa olinib, unga “yovuz niyatli jadid va turkparast”, “millatchi”, “xalq dushmani” tamg‘asi bosilib, 1931-yilda otishga hukm etildi.

2-guruh bu savol-javob jarayonida uchinchi savolning javobini aniq ayta olmaganliklari uchun g‘oliblik birinchi guruhda, deya e‘lon qilinadi. O‘qituvchining g‘olib guruhga tilaklari: Omadli bo‘lish doimo sizlarga nasib etsin. Mag‘lub guruhni “mag‘lub” demaymiz, “G‘oliblikka da‘vogarlar” deymiz. Sizlarga tilak: “Umidli” yashash yuragingizni tark etmasin. Kurash hech qachon sizlarni charchatmasdan, hayotga doimo ruhlantirib tursin.

Bunda beriladigan savollar ketma-ketlik asosida emas, tartibsiz ham berilishi mumkin. Lekin 3 tadan 6 ta savol ma‘lumotning mazmun mohiyatini ochib bera oladi.

O‘qituvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri 2-ijodkorni e‘lon qiladi:

Muhammad Tarag‘ay Mirzo Ulug‘bek. 4 tadan 2 ta guruhning savol hamda javoblari:

Savol: Muhammad Tarag‘ay Mirzo Ulug‘bek qaysi yillarda yashab ijod etdi?

Javob: 1394-1449-yillarda.

Savol: Ulug‘bek davrida qanday islohotlar amalga oshirildi?

Javob: O‘qitishning sinf tizimlari, bolalarni ishi bo‘yicha tabaqalashtirib o‘qitish muddatini belgilab qo‘yish, xotin-qizlarga ta‘lim-tarbiya aniq bir tizimga solish kabi islohotlar.

Savol: Darsning qanday usuli o‘zgartirildi?

Javob: Dars berishning individual usulidan jamoa usuliga o‘tkazildi.

Savol: Ulug‘bek qanday ta‘lim tizimiga asos soldi?

Javob: Samarqandda oliy ta‘lim tizimiga asos solgan. 1431-yilda Gijduvonda shu maqsadda madrasa qurilgan.

Savol: Ulug‘bek mudarrislarining nimalariga katta e‘tibor qaratdi?

Javob: Insoniy xislatlariga, bilimi va mahoratiga.

Savol: Ulug‘bekning hayoti va so‘nggi yillari haqida nima bilasiz?

Javob: 1394-yilning mart oyida Eronning g‘arbidagi Sultoniya shahrida bobosi Temurning harbiy yurishi paytida tug‘ildi. U Shoxruh Mirzoning to‘ng‘ich o‘g‘li edi. Unga Muhammad Tarag‘ay deya ism berildi. Lekin bolaligidayoq u Ulug‘bek deb atala boshlab, u keyinchalik uning asosiy ismi bo‘lib qoldi. Bobosi Temurning harbiy yurishlarida bolaligi o‘tdi. 1405-yil Xitoyga yurish boshlanishida Temur vafot etib, taxt uchun kurash boshlanib, kurash Temurning kenja o‘g‘li Shoxruhning g‘alabasi bilan tugaydi. Shoxruhning to‘ng‘ich o‘g‘li Ulug‘bek 1411-yili Movarounnahr va Turkmanistonning hokimi etib tayinlandi. 1449-yili o‘g‘li tomonidan o‘ldiriladi.

O‘qituvchi: Ikkala guruh ham g‘olib ekanligini e‘lon qiladi. G‘olib tomonlarga tilaklar aytadi:

Qorning oqligini sizga tilayman.

Yurakni pokligini sizga tilayman.

Baxti bekamligu, sog‘lik, omonlik,

Dunyoning kengligini sizga tilayman.

Mashg‘ulotlar jarayonida Yusuf xos Hojib, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino kabi mutafakkirlar hayoti haqida savol-javob o‘tkazildi.

Bunda ishtirokchilar savol tuzishni, to‘g‘ri jumlar hosil qilishni o‘rganib, javoblarning anig‘ini hayajonlanmasdan, erkin nigoh bilan topishni o‘rgandilar.

Oltinchi bosqich: matnlar yig‘ishtirib olindi. Har bir tinglovchi o‘z matnidagi mutafakkirning fikrlarini eslab qolganicha daftarlariga konspekt qiladi. Ham xotira charxlandi, ham mustahkamlandi, mutafakkirning qisqa faoliyati ko‘proq esda saqlandi. Buning uchun 5 daqiqa ajratildi.

Yettinchi bosqich: hamma bir-birlaridagi ma‘lumotni o‘z daftarlariga yozib qo‘yishadi. 8 nafar alloma haqidagi fikrlarni shu matnни o‘zlashtirganlar aytib berishadi. Qolganlar konspektlashtiradi (20 daqiqa).

Sakkizinchi bosqich: bunda mustahkamlash jarayoni amalga oshirilib, 50 nafar tinglovchi 2 ga bo‘linadi: 25nafardan. Guruh shunday bo‘lindiki, har bir tomonda 8 nafar allomani o‘rganib chiqqan ishtirokchilar teng taqsimlandi. Har ikki tomon sakkiztadan 16 ta savol berishdiki, bu savollar takrorlanmasligi, aytilmagan ijodkor bo‘lishi kerak. Bunda Markaziy Osiyo allomalari to‘g‘risidagi qo‘shimcha ma‘lumotlar ham savol qilib berilishi mumkinligini eslatiladi. Bu jarayonga 15 daqiqa ajratiladi. G‘olib guruhlar yuqoridagi kabi chiroyli tilaklar bilan rag‘batlantiriladi:

Tilaklar ichidan izlab topganim,
Olloh nigohini sizga qaratsin.
Yagona o‘tinchim, o‘kinchim bu kun,
Sizek insonlardan ko‘proq yaratsin.

G‘oliblikka da‘vogarlariga tilak:

Noumid bo‘lma o‘g‘il, g‘ayrat bilan ishga kirish,
Bo‘l umidli, tinmay ishla, izzat, obro‘ga erish.

To‘g‘izinch bosqich: ishtirokchilarni qiziqtirgan savollarni hal qilish, javoblarni topish uchun quyidagi adabiyotlar yozdirib qo‘yiladi (3 daqiqa).

1. G‘aybullayev I.R. va boshqalar. Pedagogika. –T.: Universitet, 1999-yil.
2. Hasanboyev O. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992-yil.
3. Hoshimov K., Inomova M., Xasanova R. Pedagogika tarixi. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1991-yil.
4. Munavvarov A.K. Pedagogika. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1996-yil.
5. Bo‘ri Ziyomuxammedov, Shoira Abdullayeva. Pedagogika. –Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2000.
6. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. 1-2 tom. -Toshkent, 1995-yil.
7. Fattayev M. Atoqli pedagoglarimiz.- Toshkent: “O‘qituvchi”, 1988. -49 b.
8. Jabayeva F. Pedagogika tarixi. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1985. -496 b.
9. Tursunov N.Y., Nishonaliyev U.N. Pedagogika kursi. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1997. -232 b.
10. Ochil S., Xoshimov K. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi, 2 jild. –T.: “O‘qituvchi”, 1985. -36 b.

O‘ninch bosqich: texnologiyalashtirilgan dars ishlanmasini shu dars nuqtayi nazarida 4 daqiqa ichida ishlab chiqish va umumlashtirish:

1. Mavzu e‘lon qilindi (2 daqiqa).
2. Tashkiliy qism amalga oshirildi (3 daqiqa).
3. Matn ustida ishlash qoidalari tushuntiriladi (2 daqiqa).
4. “O‘zlik” va “Hamkorlik”. To‘g‘ri savol tuzish va javobini belgilash, matnni o‘zlashtirish (3 daqiqa).
5. Raqobat bosqichi (24 daqiqa).
6. “O‘zlik” yozma ish (5 daqiqa).
7. “Hamkorlik” yozma ish (20 daqiqa).
8. Mustahkamlash, 2 ta guruh bahsi (15 daqiqa).
9. Foydalaniladigan qo‘shimcha adabiyotlarni belgilash. Har bir tinglovchi o‘ziga keraklisini belgilab oladi. Adabiyotlar ro‘yxati nusxasi tinglovchilarga beriladi (3 daqiqa).
10. Rag‘batlantirish (yoki oraliqdagi pedagogik jarayonda yoki oxiridagi yakunlovchi muzyorar tarzidagi bir-birlariga tilaklar aytish ma‘nosida bajariladi) (3 daqiqa). Jami 80 daqiqalik dars yakunlandi.

Xulosa. Malaka oshirish va qayta tayyorlash jarayonida o‘qituvchilarda strategik fikr, pedagogik tafakkurni rivojlantirish pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va texnologiyalashtirilgan darslarni olib borish pedagogik mahoratni talab qiladi. Yuqoridagi dars andozasini har bir fan o‘qituvchisi amaliyotga joriy qilsagina mashg‘ulot mazmuni serqirra, tinglovchilardagi zerikish va zo‘riqishlar chekinadi. Bu bilan o‘ziga, maktabiga, hayotiga, kelajagiga bo‘lgan ishonch ortib boradi. O‘z o‘rnini mustaqil topadigan, kasbini sevadigan, ko‘nikma va malakalarini orttirib boradigan kadrlarning milliy tizimi yaratiladi.

Adabiyotlar

1. Yuldashev N.A. Zamonaviy ta‘limda interfaol dars. –Toshkent, 2008.
2. Baratov M.U. Fanlararo aloqalarini amalga oshirish jarayonini modellashtirish. “Pedagogik ta‘lim”. –Toshkent, 2007. №3. –B.52-54 b.
3. Sharipov Sh. O‘quvchilarni ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish texnologiyasi muammolari// “Uzluksiz ta‘lim” ilmiy-uslubiy jurnal №5. –Toshkent, 2002-yil. 102 b. www.de.uz
4. Толипов У.К. Внедрение основы педагогических технологий. -Т.: “Наука”, 2006. – С. 261 б.
5. Шукур Пулатов. Технология научно-методологическое управление ВУЗ. -Ташкент: “Наука и технология”, 2011. –С. 256 б.
6. Рахматуллаев А., Самиев А., Умаров Б., Азизов О., Бобомуратов Э. Инновационная технология в непрерывной образование. Пособий. –Термиз.: Сурхондаринский вилоят ХТХҚТУМОИ. 2012. –С.54.
7. Ишмухамедов Р., Юлдашев М. “Инновационные технологии в образовании и воспитании”. Пособий. -Т.:Нихол. 2013. –С.277.

Дилдора ИСРОИЛОВА

Андижанский государственный университет

доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

ИНФОРМАЦИОННО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У СТУДЕНТОВ-ИНЖЕНЕРОВ НА УРОВНЕ МАГИСТРАТУРЫ

В данной статье рассматривается вопрос формирования межкультурной компетенции у студентов –инженеров с помощью информационно-технологических методов. Потому что информационные компьютерные технологии являются технологической основой международного информационного обмена, создают дидактические условия для развития личности, развивают аналитическое мышление, интеллектуальные и творческие способности.

Ключевые слова: информационно-технологические методы, межкультурная компетенция, дидактические условия, развития личности, аналитическое мышление, студенты –инженеры.

Ushbu maqola muhandislik fakulteti talabalarida axborot texnologiyalari metodi yordamida madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish masalasiga bag‘ishlangan. Axborot kompyuter texnologiyalari xalqaro axborot almashinuvining texnologik asosi bo‘lib, shaxsning rivojlanishi uchun didaktik shart-sharoitlar yaratadi, analitik tafakkur, intellektual va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Kalit so‘zlar: axborot texnologiyalari usullari, madaniyatlararo kompetensiya, didaktik shartlar, shaxsni rivojlantirish, analitik fikrlash, muhandislik talabalar.

This article replaces the question of the formation of intercultural qualifications among engineering students with the help of informational technology methods. Because informational computer technologies are the technological basis for international information exchange, create didactic conditions for the development of the individual, develop analytical thinking, intellectual and creative abilities.

Key words: informational technology methods, intercultural competence, didactic conditions, personality development, analytical thinking, engineering students.

XXI век является веком технологии, но, несмотря на это этические вопросы и инженерная этика остаётся актуальным вопросом в педагогике. Взаимодействие инженеров между собой, международные соглашения и производственная мобильность показывает, что технология сама по себе не может решить большинство межкультурных и этических вопросов, а наоборот новые технологии ставят перед инженерами специфические этические вопросы и требуют навыков межкультурной коммуникации. В мировой практике студенты инженерных специальностей изучают и стараются применять правила профессиональной этики и рассматривают вопросы инженерной этики и межкультурной коммуникации в своих курсовых работах. То есть не ограничиваются только техническими или специальными знаниями, несут этическую ответственность, которая влияет на новые инициативы в сравнительной перспективе. Развивают навыки работать в глобальном рабочем месте, где встречаются инженеры разных культурах с различными взглядами и культурными стереотипами.

Западные ученые утверждают, что традиционная педагогика инженерной этики включает в себе знания о природе включающая теоретические и научные представления о математике и физике, а также умение использования и проектирования каких либо действий включая диапазон профессий от художников до врачей и инженеров. Валорие Троеш (Valogie Troesch) подчеркивает “поскольку научные и инженерные знания отличаются от этических знаний, единственный способ сделать этику понятной для студентов инженерных специальностей необходимо организовать специальные инженерные курсы” [1, 56]. То есть этим учёный доказывает, что данный метод будет линейным, объективным к решению проблем и даст правильные и количественные ответы на этические вопросы. В процессе исследования в вузах республики Узбекистан мы также убедились что специальные курсы по инженерной этике для будущих инженеров необходимы не только на уровне магистратуры, но и в бакалавриате. Для организации специального курса мы рассмотрели три наиболее преподаваемые этические теории такие как, деонтологическая, консеквенциалистская этика и аристотелевская. Деонтологическая этика рассматривает внутреннюю сторону человеческих поступков. Согласно Канту, человек поступает морально тогда, когда следует своему долгу [2]. Консеквенциализм - теория этики, в соответствии с которой людям следует выбирать действия, исходя из ожидаемых последствий этих действий [3].

Аристотелевская этика включает в себя систему моральных принципов, управляющих поведением человека. Аристотель рассматривает своего рода моральную антропологию, то есть изучает то, что делает нас “человечными” [4]. Учитывая эти теории в нашем учебном пособии **“English for cross cultural and professional communication”** были включены темы *“Engineering Ethics - Moral Leadership”*, *“Engineers as Managers”* и *“Models of Professional Engineers”*. Целью данного контента является информирование о Национальном обществе профессиональных инженеров (NSPE), укрепление инженерной профессии и продвижение инженерной этики.

Валорие Троеш для чтения (Reading) предлагает тексты направленные на решение дизайнерских задач использование разработанных технологий ради добра и чтобы они служили и приносили пользу обществу. М.Бунге рекомендует, отбирать тексты, основанные на ценностях к принятию моральных решений для инженерного проектирования. Для развития письменных навыков (Writing) ученый предлагает поразмышлять об их жизненном опыте (включая стажировку или совместную работу), изучить их ценности и объяснить, как они видят себя начинающими инженерами.

Г.Л.Дауни, Ж.С.Лусена и С.Митчем (G.L. Downey, J.C. Lucene, and C. Mitcham) для развития устной речи (Speaking) предлагают новые инициативы в сравнительной перспективе. Авторы берут интервью у инженеров из Франции, Японии и Германии и сравнивают их культурные взгляды том, что значит быть этичным инженером, то есть представляют студентам разнообразие культур. На наш взгляд это уместный метод для развития межкультурной, социокультурной и прагматической компетенции потому что умение работать в глобальном рабочем месте в настоящее время является необходимым навыком. Будущие инженеры понимают специфические особенности разных культур, различают их и осознают как поступать в тех или иных ситуациях, а также хотелось бы подчеркнуть это помогает монокультурное мировоззрение переориентировать на поликультурное. И.Л.Плужник подчеркивает, что “приобретение межкультурной коммуникативной компетенции (МКК), представляет собой функциональные умения понимать взгляды и мнения представителей другой культуры, корректировать своё поведение, преодолевать конфликты в процессе коммуникации, которое становится максимально востребованным для современного специалиста” [5.].

В процессе наших наблюдений мы заметили, что формирование межкультурной коммуникативной компетенции в технических вузах выпадает на долю преподавателей английского языка. Потому что во первых, отведенные часы составляют малое количество, во вторых обучаемых необходимо научить пользоваться целым комплексом межкультурных компетенций, включая способность видеть, понимать и принимать ценности чужой культуры на профессиональном уровне. Для решения этих проблем Е.Б. Хромова предлагает использовать ИКТ, которые являются максимально эффективным при организации образовательного процесса при формировании межкультурной компетенции в обучении разных специальностей. Она подчёркивает следующие особенности:

- а) информационные компьютерные технологии являются технологической основой международного информационного обмена;
- б) создают дидактические условия для развития личности;
- в) развивают аналитическое мышление, интеллектуальные и творческие способности;
- г) формируют самостоятельность в конструировании собственных знаний;
- д) способствуют развитию мышления на глобальном уровне [6].

А.В.Илюшина в работе посвящённой формированию межкультурной компетенции студентов медицинского вуза на занятиях по иностранному языку выделяет основные компоненты МК, такие как аксиологический, аффективный, когнитивный и коммуникативный. Где аффективные и аксиологические компоненты служат развитию общечеловеческих ценностей, открытости и готовности получать новые знания о поликультурном мире. Когнитивный компонент развивает способности к критическому осмыслению приобретенных знаний и влияние культурных особенностей на эффективную профессиональную деятельность. По мнению учённого коммуникативный компонент является заключительным, где собеседники передают необходимую информацию для плодотворного диалога. Илюшина А. В. подчеркивает что “межкультурная коммуникативная компетенция является частью профессиональной компетентности и определяющая уровень готовности студента к профессиональной деятельности в условиях диалога культур” [7].

В процессе формирования межкультурного общения с помощью инновационных методов большинство исследователей предлагают использовать средства технологий активного обучения.



Рис.3.1 Технологии активного обучения

Из рисунка видно технологии активного обучения это интеракция между преподавателем и студентами, которое находит своё отражение в процессе обучения и побуждает обучаемых мыслить критически, развиваться творчески и поиску новых идей в научно-исследовательской деятельности. Эти все качества необходимы для студентов магистров потому что работа в предприятиях требует анализа решений, внедрению новых идей, проявлять лидерские способности, а также разрабатывать научные проекты. Всё это было учтено в нашем учебном пособии *“English for cross cultural and professional communication”* где представлены темы *“Engineers as Managers”*, *“Engineers as Experimenters”* и *“Engineering Ethics – Confidentiality”*. В процессе экспериментальных работ мы проводили опрос среди преподавателей, которые непосредственно преподают английский язык студентам магистрам. На констатирующем этапе проведен первоначальный обзор существующей литературы касающейся формированию межкультурной коммуникации и на вопрос *“Содержит ли используемая вами литература и материалы темы формирующую межкультурную компетенцию?”* большинство преподавателей ответили *“Частично”*. На вопрос, *“Какие темы вы бы предложили для формирования межкультурной коммуникативной компетенции у студентов-инженеров?”* из 50 ти преподавателей 35 предложили включить различные фразы и специальные слова, необходимые инженерам, а остальные 15 не ответили на данный нами вопрос. На пост экспериментальном этапе нашей исследовательской работы были проведены семинарские занятия для преподавателей по разработанному учебному пособию и получены положительные отзывы. В конце учебного пособия был представлен *Глоссарий (glossary)*, где можно найти часто используемые выражения.

В процессе обучения мы использовали метод Баркэмп (BarCamp), который является более понятным студентам технического направления. Потому что данный метод непосредственно используется при обучении студентов инженеров интенсивному использованию статистических методов, стимулирующих разработке новых инструментов и предоставление вопросов для дискуссий. **Баркэмп (BarCamp)** как инновационный способ производство и распространение статистических знаний формируется для организации конференций нетрадиционного вида, как новый способ приобретения знаний и обмена идеями. До начала дискуссии, обучающиеся выбирают основные темы, подлежащие обсуждению, в соответствии с их интересами и знаниями. Затем каждый участник может быть спикером, поднимая тему, комментируя её и высказывать свою точку зрения, а также может задавать вопросы собеседникам для уточнения того или иного вопроса. В обычных конференциях спикеры заранее устанавливаются, но разница данного метода каждый участник может быть спикером и в конце все участники вместе делают выводы и статистические анализы. Данный метод помогает развитию коммуникативных навыков и способствует усовершенствованию критических мышлений.

Следующий интерактивно методический прием ПОПС формула (Позиция, Объяснение, Примеры и Следствие) (PRES-formula Position-Reason-Explanation (or Example)-Summary), была использована для развития письменной речи в научном стиле. Данный методический приём разработан профессором Дэйвидом Маккойд-Мэйсоном из ЮАР направленный на рефлексии обучающихся.

Автор в П– приводит основной тезисы и ставит задачу, а также предоставляет необходимые слова и выражения, которые понадобятся в процессе развития научной статьи. В О– объяснении необходимо привести аргументы, для подтверждения или опровержения вышеуказанного тезиса. П - означает примеры, которые подкрепляют вышеуказанные аргументы. И наконец, С - следствие

заключительная часть письма, где студент должен сделать выводы на основе итогов развития статьи. Данный метод был эффективным в процессе занятий практического английского языка направленных на развитие письменности (Writing) для академического уровня [8].

Gloria A. Meeks в своих научных трудах предлагает обучать студентов межличностным навыкам. Мы согласны с этим утверждением, потому что межличностное общение включает в себя говорение, объяснение, убеждение и активное слушание, которое способствует формированию межкультурной компетенции. Поскольку в деловом мире это относится к способности человека эффективно общаться и взаимодействовать внутри организации с коллегами и пожилыми людьми.

По теории Гиббса навыки *soft skills* и *interpersonal skills* стали предметом растущего интереса в обучении на протяжении всей жизни. Развитие “мягких” и межличностных навыков предназначено для обеспечения и улучшения личного развития, активное участие в образовательном процессе и успеха в трудоустройстве. В процессе работы над исследованием были проанализированы занятия и проведены наблюдения, сделаны выводы, что студентам-инженерам на уровне магистратуры необходимо уметь правильно говорить и корректно использовать факты, то есть владеть вербальной коммуникацией. Большинство студентов воздерживаются задавать вопросы или же думают, что этим они выставляют себя перед аудиторией. Чтобы доказать что данные представления являются ошибочными мы провели занятие посвященное искусству правильно спрашивать или задавать вопросы. Подчеркнули насколько это важно для работы в СП и для уточнения некоторых вопросов касающихся для дальнейшего партнерства. Как нам известно, коммуникация - это двусторонний процесс, в котором умение слушать играет такую же важную роль, как и говорение. Будущему специалисту необходимо для налаживания хороших межличностных отношений формировать навыки терпения и умения слушать. В общении между сотрудниками немаловажную роль играет *body language*, то есть улыбка, жесты и мимика. Данная невербальная коммуникация также влияет на людей, на их мысли и принятия решений. В каждой организации и в производстве есть цель избежать различных проблем и недопонимания, а для этого студенты-инженеры должны выработать ниже представленные способности.



Рис. 1.1. Необходимые способности для развития межличностных навыков

Для развития межличностных навыков и формированию межкультурной компетенции по нашему мнению практический курс английского языка будет играть важную роль, потому что в настоящее время в технических вузах многие часы, отведенные на гуманитарные науки сокращаются, а часы отведенные на специальность увеличивается.

Литература

1. Valorie Troesch. Teaching Engineering Ethics. A Phenomenological Approach. 2015., IEEE Technology and Society Magazine. P-56.
2. https://studme.org/97771/etika_i_estetika/deontologicheskaya_etika (access date 14/03/2022)
3. <https://lesswrong.ru/wiki> (access date 14/03/2022)
4. <https://kbsu.ru/aristotel-jetika> (access date 14/03/2022).
5. Плужник И. Л. Формирование межкультурной коммуникативной компетенции студентов гуманитарного профиля в процессе профессиональной подготовки. Автореферат дисс. на соискание ученой степени док. Пед. Наук. –Тюмень, 2003. С-29.
6. Хромова Е.Б. Информационно-коммуникационные технологии как средство формирования межкультурной компетентности студентов неязыковых специальностей. Пермский национальный исследовательский политехнический университет. С-160-166.
7. Илюшина А.В. Формирование межкультурной компетенции студентов медицинского вуза на занятиях по иностранному языку средствами технологий активного обучения. Дис. Кан.пед. наук. – Рязань, 2020. С-221.
8. <https://www.streetlaw.org/teaching-strategies/pres> (access date 14/03/2022)
9. <https://coderlessons.com/tutorials/miagkie-navyki> (access date 15/03/2022)

Murod EGAMNAZAROV

Jizzax davlat pedagogika instituti
mustaqil izlanuvchisi

SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI ORQALI TALABALARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

So‘nggi yillarda shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim oliy pedagogik ta‘lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aksariyat professor-o‘qituvchilar va oliy ta‘lim muassasalari rahbarlari shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishni istiqbolli pedagogik paradigma sifatida baholamoqdalar. Mazkur maqolada shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish mexanizmlari yoritilgan bo‘lib, unda kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini tashkil etishning pedagogik xususiyatlari, o‘qituvchi va talabalar orasida demokratik munosabatlarni ta‘minlash imkoniyatlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish, kommunikativ qobiliyat, shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari, shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarning pedagogik omillari.

В последние годы важное значение в процессе высшего педагогического образования приобрело личностно-ориентированное образование. Многие профессора и руководители вузов рассматривают личностно-ориентированное обучение как перспективную педагогическую парадигму. В данной статье описываются механизмы развития коммуникативных умений учащихся с помощью личностно-ориентированных технологий обучения, рассматриваются педагогические особенности организации процесса развития коммуникативных умений, возможности обеспечения демократичности отношений между учителями и учащимися.

Ключевые слова: личностно-ориентированное обучение, коммуникативные способности, личностно-ориентированные технологии обучения, педагогические факторы личностно-ориентированных технологий.

In recent years, personality-oriented education has become important in the process of higher pedagogical education. Many professors and university leaders consider personality-oriented learning as a promising pedagogical paradigm. This article describes the mechanisms for the development of students' communicative skills with the help of personality-oriented learning technologies, discusses the pedagogical features of the organization of the process of developing communicative skills, the possibility of ensuring democratic relations between teachers and students.

Key words: personality-oriented learning, communication skills, personality-oriented learning technologies, pedagogical factors of personality-oriented technologies.

Kirish. Mustaqillik yillarida respublikamizda ta‘lim jarayonida ta‘lim sifatini tubdan o‘zgartirish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali sifatli ta‘lim muhitini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirishga zamin yaratildi, tahsil oluvchilarning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari va axborot resurslaridan keng foydalanish, interfaol ta‘limni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirishga yo‘l ochildi.

Yurtimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohatlar oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini ta‘minlay oladigan kasbiy kompetentli, yuqori malakali o‘qituvchilarini milliy va ilg‘or xorijiy tajribalarni uyg‘unlashgan holda tayyorlashning mexanizmi ishlab chiqilmoqda. Bo‘lajak mutaxassislarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning moddiy-texnik bazasi rivojlantirilmoqda, me‘yoriy hujjatlar va modulli malaka talablariga asoslanish tizimi joriy etilmoqda. Yurtboshimiz ta‘kidlaganidek, “taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu - ilm-fan, ta‘lim va tarbiyadir [1]”.

Asosiy qism. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali tayyorlanayotgan kadrlarning so‘zlashuv madaniyatini rivojlantirish, muloqotmandlik malakalarini shakllantirish borasida dunyo va respublikamizda olib borilayotgan tadqiqotlar ko‘rsatishicha, bugungi kunda mutaxassislarining pedagogik jarayonni boshqarish, dunyoni yangicha izohlash masalalarini sinergetika doirasida tadqiq etish, ta‘lim mazmunini umumyevropa xalqaro standartlari asosida tashkil etish, mutaxassislarining umummadaniy, maxsus, kasbiy va shaxsiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan masalalar alohida dolzarblik va ahamiyat kasb etmoqda.


Har qanday mutaxassis uchun universal, kerak bo'lgan xislatlardan biri tom ma'noda “ziyoli” bo'lish yoki, boshqacha qilib aytganda, madaniyatli bo'lishdir. Mutaxassis o'zidagi madaniyatni avvalo muomalada, odamlar bilan bo'ladigan kundalik muloqotlarda namoyon etmog'i lozim. Muomala madaniyati - bu o'rinli, aniq, qisqa, samimiy gapirish san'ati va ikkinchi tomondan suhbatdoshni tinglash qobiliyatidir. Chunki bo'lajak mutaxassisning kommunikativ qobiliyati – tevarak-atrofdagilar bilan muloqatga kirishuvchanlik, shirinsuxanlik, to'g'ri muomala qila bilish, tahsil oluvchilar qalbiga yo'l topib, ularga yaqinlasha olish, ular bilan pedagogik nuqtayi nazardan samarali o'zaro munosabat o'rnatish bilishdir. O'qituvchi nutqidagi ravonlik, o'z fikrini aniq ifoda etish o'qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir [2]. Darsda o'qituvchi nutqi hamisha talabalarga qaratilgan bo'ladi.

Fikrlar ifodasi talabalar uchun aniq, sodda, ravon, tushunarli bo'lishi shart. O'qituvchining bayoni talabalar fikri va diqqatini maksimal darajada faollashtirishga qaratiladi. O'qituvchi talabalarni faollashtirish va diqqatini jamlash maqsadida muayyan so'z va iboralar qo'llaydi. O'qituvchi uzundan uzoq jumlar, murakkab so'z birikmalari, qiyin, tumtoq iboralarni qo'llashdan qochishi lozim. O'rinli yumor, hazil-mutoyiba, yengilgina istehzo nutqni jonlantiradi, bu nutqni talabalar yaxshi qabul qiladilar.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan quyidagi tarkibiy qismlar ajratiladi:

1. Moyillik hosil qiluvchi – talabalarni faol o'rganish jarayoniga jalb qiluvchi va bilish faoliyatining barcha bosqichlarida faollikni saqlab qoluvchi qiziqishlari, ehtiyojlari, mayllari.
2. Yo'naltiruvchi – talabalarning o'quv-biluv maqsadini amalga oshirish uchun uni rejalashtirishlari va bashorat qilishlari.
3. Mazmunli-operatsion nuqtayi nazardan - axborotlarni qabul qilish, saqlash va qayta ishlash maqsadida yetakchi bilimlar va usullarni o'zlashtirish.
4. Quvvatiga ko'ra – diqqat, iroda va kechinmalar.
5. Nazariy-tahliliy jihatdan – talabalarning o'z-o'zlarini mustaqil nazorat qilishlari, bajarilgan harakatlarning borishi va natijalarini mustaqil baholashlari, o'zgaralarning bahosiga tayangan holda o'zlari va faoliyatlariga bergan baholari, o'rganish jarayonlarini mustaqil boshqarishlari va tuzatishlar kiritishlari, o'z-o'zlarini boshqarishlari kabilar [3].

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini tashkil etish o'zining pedagogik xususiyatlariga ega (1.1-rasm).




1.1-rasm. Talabalarda shakllantiriladigan kommunikativlik funksiyalari

Shunday qilib, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini tashkil etish o'zining umumpedagogik, didaktik hamda psixologik xususiyatlariga ega bo'lib, bu xususiyatlarni ochib berish natijasida oliy ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkoniyati vujudga keladi [4].

Muhokamalar va natijalar. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘qituvchi hamda talabalar orasidagi quyidagi demokratik munosabatlarni ta‘minlash imkonini beradi:

1. Talaba va o‘qituvchi orasidagi munosabatlarni barqarorlashtirish.
2. Darsda hamjihatlikka asoslangan ijobiy muhitni vujudga keltirish.
3. Talabalarda erkin tanlov va o‘z fikrini himoya qilish ko‘nikmasini shakllantirish.
4. Pedagogik jarayonda o‘qituvchi va talabalar orasida o‘zaro tenglikka asoslangan munosabatlarni qaror toptirish kabilar (1.2-rasm).



1.2-rasm. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarning pedagogik omillari


Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar didaktik jarayonlarni tahlil qilish va o‘z faoliyatini tashkil qilish metodlarini izchil tadbiq etishga yo‘naltirilgandir [5].

Janubiy Koreya, Fransiya, Yaponiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan davlatlar tajribasida talabalarning tafakkur erkinligi, mustaqil fikrlashni shakllantirishga jiddiy yondashadilar. Ayniqsa, talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion-didaktik tizimini, Life Skills (hayotiy ko‘nikmalar)ga asoslangan kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda talabalarni kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan holda o‘qitish, pedagogika va psixologiya fanlarini o‘qitish sifatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni tadqiq etish hamda ularda nazariy bilimlarni amalda qo‘llash, mustaqil fikrlash malakalarini rivojlantirishga doir ilmiy tadqiqotlar keng miqyosda olib borilmoqda. OTMLarda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish sohasidagi kompetensiyaviy yondashuvga ko‘ra talabalarning bilim olishlarida o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchni tarbiyalash, mustaqil fikrlashini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro dasturlar, assessment topshiriqlarini tizimli qo‘llash orqali ularning o‘quv-biluv motivatsiyasini jadallashtirish muhim ahamiyatga egadir. Dasturlarda talabalarning har tomonlama shakllanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi mustaqil fikrlash jarayonini rivojlantirishga xizmat qiladigan innovatsion usullar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

Bu esa talabalarda kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish – ijtimoiy pedagogik zaruriyat sifatida dolzarb muammolardan biri ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar asosida o‘quv jarayonini tashkil qilish, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy uslublarning qo‘llash orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlari rivojlanadi, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas‘uliyatni his qilish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanish, eng asosiysi, o‘qishga, fanga va o‘zi tanlagan kasbiga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi (1.3-rasm).



1.3.-rasm. Talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishga mo'ljallangan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari maqsadi

Rasmda ko'rib turganimizdek, talabalarda kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga mo'ljallangan shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar ta'lim jarayonining bosqichlarida, o'quv maqsadlariga erishganlik darajasini oldindan belgilab qo'yilgan mezonlar asosida o'lchash, tahlil qilishga qaratiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga ular faoliyatini tezkor nazorat qilish imkoniyatini beradi; ta'lim beruvchining vaqti teжалadi; ta'lim oluvchining yakuniy bilimi baholarning soniga qarab emas, sifatiga qarab baholanadi; yozma nutqining o'sishi kuzatiladi; yozma va og'zaki nutqda xato va kamchiliklarni aniqlash imkoniyati vujudga keladi; talabalarning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqining sezilarli darajada oshadi [6, 7].

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, respublikamizda ta'lim tizimini rivojlantirish, talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Pedagogika fanida bunday tizimni shaxs ongini shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik jarayon sifatida baholash mumkin. Unda amalga oshadigan ichki o'zgarishlar shaxs ongi strukturasi faoliyatini ta'minlaydi. Bu, o'z navbatida, ta'lim-tarbiya sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Talaba ongida yangicha, kuchliroq tarkibning vujudga kelishi uning yordamida bilimlar, axborotlar va tajribalarning o'zlashtirilishini taqozo qiladi.

Adabiyotlar

1. <https://xs.uz/uzkr/post/millatni-buyuk-qiladigan-kuch-bu-ilm-fan-talim-va-tarbiyadir>.
2. Расулов А. И. Талабалар тадқиқотчилик қобилияти мезонлари ва диагностикаси //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. NUU Conference 1. – С. 369-374.
3. А.Р.Жўраев, Д.А.Сайфуллаева, Шахло Бахронова. Замонавий таълим технологилар асосида ташкил қилинадиган шахсга йўналтирилган таълим жараёни // Science and Education. 2020. №8.
4. Тоджибаева К. С. К. Креативность и творческое мышление как важные составляющие профессиональных компетенций будущих педагогов //Вопросы науки и образования. – 2018. – №. 8 (20). – С. 124-126.
5. Тоджибаева К. С. К. Формирование мотивационной сферы нравственных качеств учащихся //Проблемы педагогики. – 2017. – №. 4 (27). – С. 14-16.
6. Ибраимов Х. И. Коммуникативная компетентность как механизм профессионального саморазвития будущего педагога //Проблемы педагогики. – 2018. – №. 2 (34). – С. 7-10.
7. Атауллаев Ф. Ф. У., Ибраимов Х. И. Понятие профессионально-коммуникативной компетентности будущих учителей в психолого-педагогических исследованиях //Вопросы науки и образования. – 2019. – №. 1 (42).

Dilnavoz MO‘MINOVA

Buxoro muhandislik texnologiya instituti
energetika fakulteti tyutori
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

BO‘LAJAK “TEXNOLOGIYA” FANI O‘QITUVCHISINING MUHIM KASBIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TA’LIM MUHITINING AHAMIYATI

Ushbu maqolada bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchisining muhim kasbiy sifatlarini shakllantirishda raqamli ta’lim muhitining ahamiyati, ularning muhim kasbiy sifatlarini aniqlashtirish, oliy ta’lim muassasalarida “Texnologiya” o‘qituvchisini tayyorlashda raqamli ta’lim muhitini yaratishdagi talablar bajarilishi, raqamlashtirish muhitida qo‘llaniladigan ta’lim shakllari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanganlik sari yangi kasbiy sifatlar ko‘shilib borishi hamda kelajakda malakali pedagog bo‘lib yetishish bo‘yicha fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: texnologiya, kasbiy sifat, raqamli ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli ta’lim muhiti.

В данной статье рассматривается значение цифровой образовательной среды в формировании важных профессиональных качеств будущих учителей “Технологии”, определение их важных профессиональных качеств, соблюдение требований к созданию цифровой образовательной среды при подготовке “Технологии”. педагоги высшей школы Формы обучения, используемые в цифровой среде, развитие информационных и коммуникационных технологий, добавление новых профессиональных качеств, а также идеи будущего профессионального развития педагогов

Ключевые слова: технологии, профессиональные качества, цифровое образование, информационно-коммуникационные технологии, цифровая среда обучения.

This article discusses the importance of the digital educational environment in the formation of important professional qualities of future teachers of “Technology”, the definition of their important professional qualities, compliance with the requirements for creating a digital educational environment in the preparation of “Technology”. higher education teachers Forms of education used in the digital environment, the development of information and communication technologies, the addition of new professional qualities, as well as ideas for the future professional development of teachers

Key words: technology, professional quality, digital education, information and communication technologies, digital learning environment.

Kirish. Mamlakatimizda ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi №PF-6079 sonli “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmonida maktabgacha va umumta’lim maktablarini raqamashtirishni yakunlash bo‘yicha choralar ko‘rish, shuningdek, axborot tizimlarini joriy etish va mas’ul xodimlarni o‘qitish, barcha tuman va shaharlarda o‘qivchilarning ijodiy rivojlanishi va kompyuter dasturlash asoslarini o‘rganishi uchun mavjud ta’lim muassasalari negizida 200 dan ortiq informatika va axborot texnologiyalarini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktablar bosqichma-bosqich tashkil etish vazifalari yuklatilgan [1].

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda hamda oliy ta’limni modernizatsiya qilishda, umumta’lim maktablarida o‘qitish sifatini yaxshilashda raqamli ta’lim muhitini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Kompyuter va tarmoqli texnologiyalarni o‘ziga qamrab olgan raqamlashtirish muhiti ta’lim jarayonining turli masalalarini hal etishda asosiy rol o‘ynaydi.

Biz izlanishlarimiz doirasi dastlab raqamlashtirish muhiti haqida tushunchalarga to‘xtaldik.

Ilmiy adabiyotlarda “Raqamli ta’lim muhiti”, “Raqamli muhit”, “Raqamli ta’limiy sharoit” kabi terminlar ishlatiladi .

Ko‘pchilik huquqiy-me‘yoriy hujjatlarda “Raqamlashtirish ta’lim muhiti” deb yuritiladi.

S.D. Kazakova va bir qator olimlarning fikricha, “raqamlashtirish ta’lim muhiti-raqamli texnologiyalardan foydalanib o‘qitish jarayonida talabalarda bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish muhitidir” [2].

Oliy ta’lim muassasalarida “Texnologiya” o‘qituvchisini tayyorlashda raqamli ta’lim muhitini yaratishda quyidagi talablar bajarilishi lozim.

1. Informatsion tizimlarning ochiqligi.
2. Internet tizimiga kirish imkoniyati.
3. Onlayn kurslarning joriy etilganligi.
4. Ta’limiy dasturiy mahsulotlar mavjudligi.
5. Informatsion resurslar va platformalar yaratilganligi hamda ularni onlayn kurslarga joylashtirilganligi.
6. Informatsion metodli platforma mavjudligi.
7. Mobil ilovalar ishlab chiqilganligi.

Raqamlashtirish ta’lim muhitida “Online” mashg’ulotlar va kurslar muhim o’ringa ega. Shuning uchun biz onlayn o’qitish to’g’risida qisqacha fikr yuritdik.

“Online” termini “to be on line” inglizcha so’z bo’lib, lokal va global tarmoqlardan foydalanish imkoniyati mavjudligidir [3].

Oliy ta’lim muassasalarida ommaviy “Online” kurslari uchun o’quv materiallarini ishlab chiqish konsepsiyasi 2010-yildagi D.Korme (Kanada) [4, 5] tomonidan qo’llanilgan.

Raqamlashtirish muhitining asosiy komponentlariga quyidagi telekommunikatsiya tizimi va aloqa tarmoqlariga internet, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar, 3D texnologiyalar dasturiy mahsulotlar, ta’limiy maqsadga yo’naltirilgan maxsus obyektlar va hokazolar kiradi.

Oliy ta’lim muassasalarida “Texnologik ta’lim” yo’nalishlarda ixtisoslik fanlarini o’qitish jarayonida hozirgi kunda masofaviy ta’lim, elektron o’qitish texnologiyasi qo’llanilib kelinmoqda.

Elektron o’qitish texnologiyasi deganda informatsion-kommunikatsiya resurslari, vositalari va tarmoqlaridan ta’lim jarayonida samarali foydalanish tushuniladi [6].

Masofaviy ta’limda informatsion-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanib o’qituvchi va talabalarning uzoqdan turib hamkorligini tashkil qilish tushuniladi.

Biz o’tkazgan tadqiqotlarimiz asosida bo’lajak “Texnologiya” fani o’qituvchisining raqamlashtirish muhitida shakllantiriladigan bir qator muhim kasbiy sifatlarini aniqlashtirdik (1-jadval).

1-jadval.

№	Raqamlashtirish muhitida qo’llaniladigan ta’lim shakllari va texnologiyalari	Bo’lajak “Texnologiya” fani o’qituvchini rivojlantirishdagi muhim kasbiy sifatlar
1	“Online” ma’ruza	“Online” ma’ruzalarni rejalashtirish ishlab ko’nikmasi, o’quv materiallarini taqdimot qilishi, ta’lim metodlarini bilishi va qo’llay olish.
2	Vebinar	Zamonaviy aloqa video vositalari (Skupe, zoom, va h.k.) bilan ishlay olish ko’nikma.
3	“Online” so’rovlar	Tovushli va so’rovli vositalardan foydalana olish malakasi
4	“Online” test	“Online” test o’tkazish orqali talabalar bilimni obyektiv baholash qobiliyati
5	Forumlar, seminarlar	Pedagogik mahorat, kommunikativlik faol muloqat.
6	“Online” xujjatlar bilan ishlash	Google, online dokument, HTMIS va boshqa ta’lim sohasiga bog’liq platformalarda ishlash hujjat almashish.
7	Mobil ilovalar	“Texnologiya” fani bo’yicha mobil ilovalar yaratish ko’nikmalari.
8	Interaktiv jadval, gistogramma va grafiklar bilan ishlash	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga qo’llay olish ko’nikmasi
9	Ta’lim saytlarini yaratish va tahrirlash	Adminstrativ saytlar yaratish va ular bilan ishlash ko’nikmasi, matn tahrirlash va axborot xavfsizligini bilishi.
10	“Online” monitoring vositalaridan foydalanish	“Pedagog-ta’lim” oluvchi interaktiv kommunikatsiyasining rivojlanganligi.

Informatsion kommunikatsion xarakterdagi masalalarni yechish uchun bo’lajak “Texnologiya” fani o’qituvchilardan raqamlashtirish ta’lim muhitida ishlash bo’yicha nazariy va amaliy tayyorgarlik talab etiladi.

Yuqoridagi 1-jadvaldagi muhim kasbiy sifatlar raqamlashtirish muhitidagi bo’lajak “Texnologiya” o’qituvchisiga qo’yiladigan asosiy talablar hisoblanadi.

Muhokamalar va natijalar. Bugun bo’lajak “Texnologiya” fani o’qituvchilarida 1-jadvalda keltirilgan sifatlar shakllantirilsa, ular kelajakda bemalol raqamlashtirish ta’lim muhitida pedagogik faoliyat yurita oladi.

Adabiyotlarda raqamlashtirish muhitida ishlash layoqati uchta asosiy elementlaridagi tarkib topganligi keltirilgan:

- a) raqamli muhitda internet xizmatidan foydalanish ko‘nikmasi;
- b) raqamli kompetentlar axborot texnologiyalaridan foydalanish malakasi;
- d) raqamli xavsizlik - bu internet tarmoqlaridagi xavfsizlik qoidalarini bilishi [4, 5].

Raqamli ta’lim muhitida ishlash uchun bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarining kasbiy muhim sifatlarini shakllantirish bilan bir qatorda ta’lim jarayonida quyidagi imkoniyatlarni yaratiladi:

- talabalar uchun qulay o‘quv vaqtini yaratish;
- ko‘p sonli talabalarni mashg‘ulotga jalb etish;
- ko‘p hajmdagi o‘quv materiallarini bayon etish;
- taqdimotlar hajmi chegaralanmaganligi;
- multimediali vositalar orqali talabalarda murakkab texnologik obyektlar va jarayonlar haqida real tasavvur hosil qilish.

Bu imkoniyatlar ko‘p hajmdagi o‘quv materiallariga ishlov berish, topshiriqlarni tez vaqtda bajarish, ko‘rgazmalilik yuqori taqdim etilishli, tez vaqtda ko‘pchilik bilimni baholash kabi afzalliklarni yaratadi.

Biz tomondan o‘tkazilgan ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchisida quyidagi kasbiy sifatlar shakllantirilishi lozim.

1. Loyihachilik.
2. Tadqiqotchilik.
3. Modellashtirish.
4. Tajriba sinov o‘tkazish.
5. Ma’lumotlarga ishlov berish.
6. Kreativlik.
7. Kommunikativlik.

Ilmiy metodik adabiyotlarda bo‘lajak o‘quvchilarda shakllanishi lozim bo‘lgan muhim kasbiy sifatlar quyidagi guruhlariga ajratilgan:

1. Pedagogik.
2. Ijtimoiy.
3. Motivatsion emotsional.
4. Gnostik.
5. Konkruktiv-loyihalash.
6. Raqamli ta’lim muhitida ishlash.

Har bir guruhga 10-15 ta muhim kasbiy sifatlar keltirilgan.

Bir tomondan o‘tkazilgan nazariy va amaliy izlanishlar natijasida bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarida raqamlashtirish ta’lim muhitida ishlash uchun shakllanishlari bo‘lgan muhim kasbiy sifatlarini quyidagicha guruhladik.

№	Guruhlanishi	Muhim kasbiy sifatlar
1	Ijtimoiy-pedagogik	Mas’uliyatlilik, hamkorlik qilish, tashkilotlilik, ishchanlik, initsiativa ko‘rsatish, mustaqil ishlash, ijtimoiy faollik, “Pedagog-ta’lim oluvchi-ota-ona” inteaktiv aloqa o‘rnatish.
2	Gnostik	Mantiqiy fikrlash, muhim o‘quv materiallarini va axborotni tanlay olish, o‘quv-me’yoriy hujjatlar bilan ishlash, faoliyat usullarini yaxshi o‘zlashtirganligi, axborotni qabul qilish, o‘zini doimiy rivojlantirib borish.
3	Motivatsion emotsional	Stressga chidamlilik, emotsional intellekt, yutuqlarga motivatsiya, maqsadga intilish, o‘z o‘zini tanqid qilish va sabrlilik.
4	Loyihachilik va tadqiqotchilik	- strategik loyihalashtirish; - analiz va sintez qilish; - rejalashtirish va amalga oshirish; - zamonaviy ta’lim shakl va metodlarini bilish, bilimlarni obyektiv baholash ko‘nikmasi.
5	Kreativlik va innovatsionlik	- ta’lim jarayonida innovatsiyalardan foydalanish; - kasbiy masalalarini echimida faol va innovatsion yondashuv; - ijodiy ishlash ko‘nikmasi.
6	Pedagogik madaniyat	Pedagogik odob, pedagogik muomala, pedagogik texnika.

7	Raqamlashtirish ta’lim muhitida ishlash bo’yicha kasbiy muhim sifatlar	1-jadvalda keltirilgan barcha kasbiy-muhit sifatlar kiradi.
---	--	---

Yuqorida keltirilgan kasbiy muhim sifatlaridan ko‘rib turibdiki, bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchisining raqamlashtirish ta’lim muhitida ishlash malakasiga ega bo‘lishi uchun jadvalda keltirilgan boshqa sifatlarini ham o‘zida shakllantirgan bo‘lishi lozim.

Bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchisini raqamlashtirish ta’lim muhitida ishlash uchun 7 guruhga keltirilgan eng muhim sifatlar bo‘lib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanganlik sari yangi kasbiy sifatlar ko‘shilib boraveradi.

Xulosa. Bir tomondan o‘tkazilgan dastlabki izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, “Texnologik ta’lim” yo‘nalishi talabalar o‘zlarida ushbu muhim kasbiy sifatlarini shakllantirsa, kelajakda malakali pedagog bo‘lib yetishga ishonchimiz komil.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi №PF-6079 sonli “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. Каракозов, С. Д. Развитие цифровой образовательной среды в Российской Федерации: механизмы развития и возможные риски [Электронный ресурс]/ С. Д. Каракозов, Л. Р. Пикалова, Е. П. Седова, О. Н. Титова // Ростовский научный журнал.– URL: <http://rostjournal.ru/?p=368> (дата обращения: 06.10.2017).

3. Толковый словарь русского языка Textologia.ru [Электронный ресурс]: Режим доступа URL: <http://ozhegov.textologia.ru/> (дата обращения: 10.04.2016).

4. Чекалева, Н. В. Инновационные подходы в подготовке будущих специалистов [Текст]/Н. В. Чекалева// Педагогика в правоохранительных органах. – 2012. – №2(49).– С.105-110

5. Downes S. What the ‘x’in’x MOOC’ stands for. // URL: <https://plus.google.com/+StephenDownes/posts/LEwaKxL2MaM>

6. Global Connectivity Index2016 [Электронный ресурс]: Huawei. – URL: www.huawei.com/minisite/gci/pdfs/Global_Connectivity_Index_2016_whitepaper.pdf

Abdumalik NURMAMATOV

Surxondaryo viloyat xalq ta’limi
xodimlarini qayta tayyorlash va
malakasini oshirish hududiy markazi
katta o’qituvchisi

“KREATIVLIK” VA “IJOD” TUSHUNCHALARINING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI HAMDA KREATIV VA IJODIY FIKRLOVCHILARNING XOSLIKLARI

Maqolada ikkita eng muhim zamonaviy tushunchalar “ijodkorlik” va “kreativlik”ning o‘zaro bog‘liqligi va ushbu hodisalarning mazmuni o‘quv uslubiy kontekstda ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, axborot jamiyati sharoitida ijodkorlik va kreativlikning sintezi ruh va ongning ichki faoliyatga bog‘liqligi ta’kidlab o‘tilgan.

Kalit so‘z: kreativlik, ijodkorlik, ijodiy jarayon, shaxsiy va ijtimoiy, emotsionallik, qobiliyat, bilimlarni o‘zgartirish, hayot rivojlanishi, gipoteza.

В статье рассматривается взаимосвязь двух важнейших современных понятий “творчество” и “креативность” и содержание этих явлений в учебно-методическом контексте. Также подчеркивается, что синтез творчества и креативности в условиях информационного общества зависит от внутренней активности духа и разума.

Ключевые слова: креативность, творчество, творческий процесс, личное и социальное, эмоциональное, способность, изменение знаний, развитие воображения, гипотеза.

The article discusses the relationship between the two most important modern concepts of “creativity” and “creativity” and the content of these phenomena in the educational and methodological context. It is also emphasized that the synthesis of creativity and creativity in the information society depends on the internal activity of the spirit and mind.

Key words: creativity, creativity, creative process, personal and social, emotional, ability, knowledge change, imagination development, hypothesis.

Kirish. So‘nggi o‘n-o‘n besh yil ichida “kreativlik” va “kreativ” so‘zlarining iste‘mol auditoriyasi kengayib, pedagogik doiralarda urfga aylanib ketdi. Hatto ayrim pedagogik ilmiy tadqiqot ishlari [1, 2, 3, 4]da “kreativ” so‘zi bilan semantik jihatdan yaqin bo‘lgan “ijodkorlik” atamasini noto‘g‘ri talqin qilish yoki bu tushunchalarni sinonim sifatida qabul qilish natijasida pedagogik hodisalarga bir yoqlama yondashuvlar ko‘zga tashlanmoqda. Kreativlik faqat moda bo‘lgan so‘z emas, uning zamirida katta ma’nolar yotadi.

Asosiy qism. “Kreativlik” atamasi 1950-yilda J.Gilford tomonidan kiritilgan bo‘lib, hozirgi vaqtda “ijodkorlik” va “kreativlik” tushunchalarini o‘zaro bog‘lashda ba’zi noaniqliklar mavjud.

O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida “ijod – yaratish, kashf etish; vujudga keltirish ma’nolarini anglatib, badiiy, ilmiy, san’atga oid asar yoki moddiy boylik yaratish, vujudga keltirish; yaratuvchilik faoliyati hamda yaratuvchilik faoliyati mahsuli, samarasi” ekanligi qayd etib o‘tilgan [5, 176].

“Ma’naviyat: asosiy tushunchalar” izohli lug‘atida esa, mazkur tushunchaga quyidagicha ta’rif berilgan: “Ijod (arab. yaratish, kashf etish, vujudga keltirish) – badiiy, ilmiy, amaliy asar yoki moddiy boylikni yaratish, vujudga keltirish. Ijod mohiyatan yaratuvchanlik faoliyati bo‘lib, inson ma’naviyatining amaldagi ko‘rinishini ifoda etadi” [6, 185].

Lug‘atlarda “yaratmoq” “o‘z ishida Yaratguvchiga, Xudoga o‘xshamoq” degan ma’noni anglatadi. Yaratish – hayot baxsh etish. Ijod mazmuni esa, “yaratish”, “birgalikda yaratish”, “yo‘qlikdan mavjudlikka o‘tish”dir [7, 121].

Ko‘plab ilmiy konsepsiyalar[8]da qobiliyat kreativlikni bildiradigan ijodiy imkoniyatlar bilan bog‘lanadi.

Kreativlik – fikrlash, muloqot va boshqa faoliyat turlarida, noaniqlik, qarama-qarshiliklarda namoyon bo‘ladi. Kreativlikning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar: kreativlik – mahsulot, jarayon, qobiliyat, shaxsning fazilati.

Kreativlikka, umuman ijodkorlikka bo‘lgan nuqtayi nazarlarning xilma-xilligi inson borlig‘ida namoyon bo‘ladigan keng ko‘lamli hodisalarni aks ettiradi. Bugungi kunda “ijodkorlik” va “kreativlik” tushunchalarini o‘zaro bog‘lashda uchta asosiy yondashuv mavjud:

birinchidan, “ijodkorlik” va “kreativlik” tushunchalari sinonim so‘zlar sifatida qaraladi. Qisman terminologiyaning bu kesishishi kontekst va o‘rganish sohasiga qarab ham “ijodkorlik” va “kreativlik” deb tarjima qilingan inglizcha “creativity”ning ikkilanishi ta’sir qiladi. Bunday hollarda tadqiqotchilar ijod

psixologiyasiga murojaat qilib, turli faktlar, xulosalar yoki masalalarni kraetivlik bilan emas, balki ijodning turli tomonlari bilan bog'laydilar. Demak, G.Pirov “kreativlik” atamasi ijodiy faoliyatni ham, ijodkorlik qobiliyatini ham anglatadi, deb hisoblaydi [8].

Ikkinchi yo'nalish ijodkorlik va kreativlikni alohida hodisa sifatida o'rganadi. “Ijodkorlik” va “kreativlik”ni ajratishga urinib, I.A.Dublina ijodkorlikni subyektiv-shaxsiy yangilik va ahamiyatni ijtimoiy-madaniy kontekst bilan bog'laydi va ijodkorlikni faoliyat subyektini tomonidan yaratilgan yangilikning mavjud narsalar bilan o'zaro ta'siri jarayonlarini aks ettiruvchi hodisa sifatida ko'radi [9]. Uning fikricha, kreativlik ijtimoiy-madaniy tizimda inson faoliyati jarayonida ijodkorlik sifatida vujudga keladi va bu tizimga o'zgartiruvchi ta'sir ko'rsatib, shaxsiy va ijtimoiy o'zaro ta'sirning murakkab jarayoni natijasidir. Shunday qilib, kreativlik mavzu uchun yangi imkoniyatlar qurish, ijodkorlik esa madaniyat uchun yangi imkoniyatlar yaratish sifatida qaraladi.

Uchinchi yo'nalish kreativlik ijodkorlikni o'rganishning alohida jihati bo'lib, shaxsning salohiyati, ichki resursi sifatida qaralishi bilan bog'liq. Masalan, Y.A.Ponomaryov ijodkorlikning psixik jarayon sifatida yaxlit konsepsiyasini taklif etar ekan, kreativlikni shaxs ijodiy salohiyat jihatidan biri sifatida ajratib ko'rsatadi [9].

Ijodkor odamlar tug'ilmaydi. Ijodiy qobiliyatlar yaratilmaydi, lekin qandaydir tarzda ozod qilinadi. Hammasi har birimizga xos bo'lgan potensialni turli darajada ro'yobga chiqarish uchun atrof-muhit qanday imkoniyatlarni taqdim etishiga bog'liq. Ijodkorlik har doim individual, shaxsiy boshlanishi bilan bog'liq. U shaxsning moddiy dunyoda o'xshashi bo'lmagan, makon va zamonda mavjud bo'lgan, millatning ma'naviy taraqqiyotini va shaxsning shakllanishini belgilab beruvchi narsani yaratish qobiliyatini nazarda tutadi.

Taniqli rus olimi M.Kuznetsova: “madaniyatdagi har qanday o'zgarishlar faqat shaxsning ijodiy faoliyati tufayli yuzaga keladi. Madaniyatda obyektivlashtirilgan ijod mezonlari: ham fundamental yangilik, ham insoniyat uchun ne'mat sifatida baholangan ijtimoiy ahamiyati, ijroning mukammalligi. Ijodkorlikni chindan ham insonning dunyo bilan ma'naviy-qiyamatli munosabatlarini aktuallashtirish usuli sifatida tavsiflash mumkin. Inson ijodi shunchaki obyektiv faoliyat emas, u, avvalo, inson va dunyo munosabatlarining o'zgarishidir”, -deb yozadi [10].

Sinchi olim P.Nelsonning xulosasiga qo'shilishimiz mumkin: “Kreativlikdan tashqari ijodkorlik mumkin emas. Kreativlik faqat ijodiy jarayonni tashkil etish texnologiyasi bo'lib, uning oldiga qanday vazifalar qo'yilsa ham, o'z-o'zidan samarasizdir. Axborot jamiyati sharoitida ijodkorlik va kreativlikning sintezi mumkin bo'ldi” [11].

“Ijodkorlik” va “kreativlik” mazmunining qarama-qarshiligi, umumiy ma'noda, quyidagicha ifodalanishi mumkin:

ijodkorlik - sifat jihatidan yangi moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratuvchi inson faoliyati jarayoni;

kreativlik - bu shaxsning xususiyatlari, uning tubdan yangi g'oyalarni ishlab chiqarish qobiliyati;

kreativlik - bu insonning g'ayrioddiy g'oyalarni yaratish, an'anaviy fikrlash shakllaridan chetga chiqadigan original echimlarni topish qobiliyati;

ijodkorlik - muammoning individualligini ta'kidlab, uning yangi yechimlarini topish qobiliyati.

Ijodkorlik ruh va ongning ichki faoliyatini nazarda tutadi, uning natijasi jamiyat taraqqiyotining barcha keyingi bosqichlarida fan va madaniyatda muhim hodisaga aylanishi mumkin bo'lgan narsaning yaratilishidir.

Psixologiyada muammolarni mustakil ravishda hal eta oladigan, intellektual va shaxsiy hususiyatlar tizimi, o'ziga xos g'oyalar avlodi kreativlik tushunchasi bilan belgilanadi. Maxsus tayyorgarlik orqali kreativlikni rivojlantirish mumkin. Ijodiy kobilyatlar o'quv jarayonida alohida rivojlanish obyekti bo'lishiga qaramasdan, psixologiya fanida o'quv jarayonida kreativlikning rivojlanishi juda kam o'rganilgan, ijodkorlik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar yetarlicha o'rganilmagan.

Muhokamalar va natijalar. Kreativlik deganda, shaxslarning o'ziga xos g'oyalarni yaratish va innovatsion qarorlar qabul qilish qobiliyatini chuqur anglash jarayoni tushuniladi. Bugungi kunda ta'limga qo'yiladigan asosiy talab ma'lum chegaralardan chiqib ketadigan, nostandart qarorlar qabul qila oladigan, yangilik bilan ajralib turadigan mahsulotlarni yaratadigan ijodiy shaxsni rivojlantirish ekanligi bilan bog'lik. Kreativlikni tavsiflashda psixologlar qobiliyat muammosiga ishora qiladilar va ko'pincha kreativlikni umumiy ijodiy qobiliyat, bilimlarni o'zgartirish jarayoni deb bilishadi. Bundan tashqari, ular kreativlik hayot rivojlanishi va gipotezalarni shakllantirish bilan bog'liq deb ta'kidlashadi.

Kreativlik insonning niyatlarini ko'rsatishga, g'oyalarni boshlash va rivojlantirish zarurligiga qaratilgan.

Kreativlikni rivojlantirish jarayoni kamida ikki bosqichdan o'tadi:

inson hayotining ma’lum bir sohasiga ixtisoslashgan bo’lmagan umumiy ijod qobiliyat sifatida “birlamchi” kreativlikning rivojlanishi. Senzitiv davr (3-5 yil). Hozirgi vaqtda kreativ model sifatida katta yoshli odamga taqlid qilish, ehtimol, kreativlikni shakllantirishning asosiy mexanizmidir;

o’spirinlik va yoshlik (13dan 20 yoshgacha). Bu davrda “umumiy” kreativlik asosida “ixtisoslashgan” kreativlik shakllanadi: faoliyatning ma’lum bir sohasi bilan bog’liq bo’lgan, uni to’ldiruvchi va muqobili sifatida ijodkorlik qobiliyati.

Ijodkor shaxsning asosiy parametrlari sifatida quyidagilarni aytish mumkin:

intellektual va ijodiy tashabbus;

bilim va o’zgarishga chanqoqlik;

muammolarga, yangi narsalarga sezgirlik;

nostandart muammolarni hal qilishga moyillik;

ongning tanqidiyligi, ya’ni baholashga intilish, kamchiliklarni aniqlash;

yuzaga keladigan muammolarni hal qilish yo’llarini topish va tanlashda mustaqillik.

Insonning ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi shart-sharoitlarni keltirib o’tamiz:

bilim va malaka bazasini rivojlantirish asosida ijod qila olish imkonini beruvchi axborotlar zaxirasini yig’ish va tizimlashtirish, shuningdek, ushbu faoliyat turiga muvofiq keluvchi zaruriy malakalarni takomillashtirish;

ijod qilishga undovchi muhitni yaratish. Ushbu muhitning kalit tavsifi – g’oyalar vujudga kelish bosqichida tanqiddan yiroq bo’lish, muammoni yangi tomondan ko’rishga xalal berayotgan ichki to’siqlarni yengishga imkon beradi;

analoglar (taqqoslashlar) qidirish. Vazifaning ijodiy yechimi boshqa muammoli vaziyatlar o’rtasida umumiy bo’lsa-da, analogiyasi qidirib topilganda, yechim imkoniyatlari sezilarli darajada o’sadi.

Ilk o’spirinlik davriga kelib “o’quvchilarning bilish (kreativ ijodiy) faoliyatidagi ijobiy o’zgarishlar, o’qish-izlanish motivlari, intilish, moyillik, tabiat va jamiyatga nisbatan ijtimoiy va ijtimoiy-psixologik munosabat shaxsining tarkib topishida (ijtimoiylashuvida)” [13, 184] muhim rol o’ynaydi.

Ijodiy qobiliyatli bolalar g’ayritabiyy, hayoliy javoblarni namoyish etdilar, ko’pincha o’zlarining rasmlarini jonlantirdilar. Rangli rasmlarning ko’pligi tashqi muhit ta’siriga chuqur hissiy munosabat tendensiyasini namoyon etadi. Kreativ fikrlovchi bolalar noaniqlik, nomutanosibliklarga osonlikcha dosh beradilar va noaniq vazifalarni yaxshi uddalaydilar. Kreativ fikrlovchi bolalarning rasmlari va boshqa asarlari yuqori darajadagi o’ziga xoslik, quvnoqlik va mustaqillik bilan ajralib turadi. Biroq, o’qituvchilar va sinfdoshlar uchun ularning g’oyalari ko’pincha g’alati va axmoqona ko’rinadi. Masalan: boshlang’ich sinf o’quvchilariga turli xil ijodiy o’yinlar va jumboqlar taklif qilindi. Bolalar o’yindagi topshiriqlarni bajarishlari va yangi g’oyalar ishlab chiqishlari kerak edi. Har bir guruhda beshtadan bittasi ijodiy fikrlovchi boladan iborat edi. Garchi g’oyalarning 70% kreativ fikrlovchi bola tomonidan ilgari surilgan bo’lsa-da, guruhning qolgan a’zolari ishning jamoaviy natijalariga qo’shgan hissasini deyarli butunlay e’tiborsiz qoldirishdi.

Kreativ o’quvchilar murossasiz, ziddiyatli, yuqori emotsionallikni namoyon etadilar. Ular ichki muammolarni mustaqil hal qiladilar. Odatiy fikrlovchi o’rta maktab o’quvchilari yuqori emotsionallikni namoyon etmaydilar va ma’qullamaydilar. O’zlarining kelajakdagi kasblari haqidagi savollarga javob berar ekan, kreativ fikrlovchi o’quvchilar mehnatning ijodiy tabiati, yuqori yutuqlarga intilish va noan’anaviy faoliyat turlariga jalb qilish haqida gapirishdi. Ular ijtimoiy taraqqiyotga hissa qo’shishni, yangi narsalarni yaratishni, odamlar ongidan ustunlik va hokimiyatga ega bo’lishni xohlashadi.

Maktab amaliyotida kreativ fikrlovchi bolalarni aniqlash alohida ahamiyatga ega, chunki bu bolalar o’zlarining imkoniyatlarini ro’yobga chiqarish uchun alohida ajralib turadigan o’quv uslubiga muhtoj.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayonida o’quvchilarning har tomonlama kamol toptirish ongi va xulq-atvorini shakllantirishda ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga alohida ahamiyat berish davr talabidir.

Adabiyotlar

1. Kadirova M.R. Tillarga ixtisoslashmagan oliy ta’lim muassasalari talabalariga chet tilini o’rgatishda ijodiy faollikni modernizatsiyalash 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent, 2018.

2. Saidova G.H. Bo’lajak o’qituvchining ijodiy imkoniyatlari. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti 2020 / 2 (78) 337-b.

3. Yakubova M.Y. Kreativ pedagogika zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo’nalishi sifatida, Academic research in educational sciences. Volume 2 | ISSUE 6 | 2021.

4. Zyoyeva D.K. Talabalarda kreativ tafakkurni shakllantirishning pedagogik asoslari// Педагогические и лингвopsихологические особенности развития, формирования и становления личности врача, сборник тезисов Международной конференции. -Самарканд, 2021 г. 198- 199 стр.
5. “O‘zbekiston Milliy Entsiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. - Toshkent: 2001-2006 y.
6. “Ma’naviyat: asosiy tushunchalar” izohli lug‘ati, 2010.
7. Даль В.И. Толковый словарь живого великорусского языка. Т.4. СПб.; -М., 1882. Репринтное издание. М., 1991.
8. Шульга Е.Н. Философия креативности: важнейшие вехи изучения творчества // Философия творчества. -М.: “Ежегодник”, 2016. Вып. 2.
9. Глазунова О,И. Отворчестве и креативности // Нева. 2014. No2. С.188–19
10. Кузнецова М.А. Творчество как социокультурный феномен // Вестник Ярославского гос.ун-та им. П.Г.Демидова. Сер. Гуманит. науки. 2011. No1(15). Электронная версия: www.culturalnet.ru/main/getfile/2510
11. Нельсон Р. Креатив - искусство прагматика, или... Как сотворить продающуюся рекламную идею [Электронный ресурс]. URL: http://www.kstyati.ru/cre_articles/cre_nilson.htm,
12. Odiljonova A.A. O‘quvchilarda kreativlik xususiyatlarini diagnostika qilishning ijtimoiy psixologik omillari, “Science and Education” Scientific Journal. Volume 1 Issue. 1, 256.
13. G‘oziyev E. Ontogenez psixologiyasi (Nazariy-eksperimental tahlil). Monografiya.–Toshkent: O‘zMU, 2010.

Gulbahor RAHIMOVA

Farg‘ona viloyati xalq ta’limi
xodimlarini qayta tayyorlash va malkasini
oshirish hududiy markazi o‘qituvchisi,
mustaqil tadqiqotchi

**O‘QUVCHILARNI KASBGA YO‘NALTIRISHDA AXBOROT VOSITALARI
MANBALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

Mazkur maqolada o‘smir yoshidagi o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini tashkil etishda, axborot vositalarining mavjud manbalaridan foydalanish va ularni dars mashg‘ulotlari davomida o‘qitishning interfaol usullariga to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: axborot vositalari, aqliy tafakkur, ilimiy ijod, axborot tahlili, fikrlovchi inson, foydalai axborot, “Konseptual jadval”, “Kouching”.

В данной статье речь пойдет об использовании доступных медиа-ресурсов в организации профориентационной работы подростков и интерактивных методах их обучения на уроках.

Ключевые слова: СМИ, интеллектуальное мышление, научное творчество, анализ информации, мыслящий человек, полезная информация, “Концептуальная таблица”, “Коучинг”.

This article focuses on the use of available media resources in the organization of career guidance for adolescents and interactive methods of teaching them during the lessons.

Key words: media, intellectual thinking, scientific creativity, information analysis, thinking person, useful information, “Conceptual table”, “Coaching”.

Kirish. Bugun yurtimizdagi millionlab yoshlarimiz ilm olish, ijod qilish, aqliy tafakkurni yanada rivojlantirish, intellektual salohiyatini zamon talablariga moslashtirish, dunyo yoshlari bilan bellasha olish ruhiyati ila yashayotgan bir davrda, imkoniyatlarning yanada samarali yechimli yo‘llarini yaratmog‘imiz, o‘quvchilarimizni aqlan yetuk, ma‘nan baquvvat qilib tarbiyalamog‘imiz zaruratga aylanib bormoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev yoshlarning axborotlarni olish va foydalanish madaniyatiga alohida e‘tibor qaratayotgani hamda ta‘lim olishlari uchun yetarli darajada sharoitlar yaratilayotganidan ma‘lumki, bu masala siyosat darajasigacha ko‘tarilgan. Zero, “Xalq ta‘limi sohasidagi ta‘lim standartlari va o‘qitish uslublarini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida, o‘quvchining individual qobiliyatini ro‘yobga chiqarish nuqtayi nazaridan qayta ko‘rib chiqish lozim. Farzandlarimizning qobiliyatini ro‘yobga chiqarishga bolalikdan e‘tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko‘plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar yetishib chiqadi” [1, 75].

Asosiy qism. Yoshlarning komil, erkin fikrlovchi inson bo‘lib kamol topishlarida o‘zi va o‘zgalarga to‘g‘ri va odilona baho berishga o‘rgatmog‘imiz zarur. Shunday ekan, erkin fikrlay oladigan o‘smir yoshidagi o‘quvchi shaxsini shakllantirish yoshlarini o‘z-o‘ziga hamda atrofdagilarga to‘g‘ri baho bera olishga, ularning bilishga qiziqishini kuchaytirishga va o‘z bilimlarini mustaqil to‘ldirish ko‘nikmalarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Inson o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholamog‘i, eng avvalo, boshqalarga to‘g‘ri fikr berish va ular bilan muloqot jarayonida boshqalarda kuchli taassurot qoldirishi kerak bo‘ladi.

Axborot inson ongida yaratilgan va jamiyat moddiy-ma‘naviy boyligiga aylangan turli bilimlarning bir ko‘rinishi hisoblanib, shaxsiy va jamoaviy faoliyatning yo‘nalishini belgilashda ta‘sir ko‘rsata oladigan “kuch”ga egadir. Garchi, axborot tahlilini amalga oshirishda siyosiy, psixologik, harbiy, pedagogik, texnik, huquqiy yoki tibbiy nuqtayi nazardan yondashilsa-da, bu axborot hali ijtimoiy ahamiyatga ega, degan hukm chiqarishga asos bo‘la olmaydi. Qachonki, axborot insonlarning foydasiga xizmat qilsa va uni ijobiy odatlar tarzida o‘ziga singdira olgandagina, mazmunan ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega bo‘la oladi. O‘z navbatida, bu ko‘rsatkich boshqa baholash mezonlariga qaraganda juda muhim hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonning milliy taraqqiyotidagi muhim omillaridan biri o‘sib kelayotgan o‘g‘il-qizlarimizni komilligiga erishishdadir. O‘z foliyati mazmuniga javob bera oladigan munosib mutaxassis kadrlarni tayyorlashdir. Ayni damda ilm-fan tarraqqiyotining rivojlanishi asosida mutaxassis kadrlarni tayyorlash muhim masalalardan biri hisoblandi. Bu esa ta‘lim jarayonida axborot vositalaridan foydalanish davomida, ilm-fanning rivojlanishiga xizmat qiladi va ta‘lim ishtirokchlarining zamonaviy kadr bo‘lishlarini ta‘minlaydi.

Inson qobiliyatlarini rivojlantirishga harakat qilinar ekan, avalambor, o‘smir yoshidagi o‘quvchining individualligini saqlab qoluvchi ustuvor qobiliyatlarni shakllantirish lozim. Tabiiy iste‘dodga asoslanmagan

fazilatlarini zo‘rma-zo‘raki rivojlantirishga intilish bor layoqatga ham putur yetkazadi, o‘z-o‘zini tarbiyalashda ko‘plab muammolarni keltirib chiqaradi. Avvalo, shunga alohida e‘tibor qaratish lozimki, ommaviy axborot vositalari bilim manbai hisoblanadi. Bilim va tarbiya bir-biridan ajralmas hodisalardir. Mavjud holatdan kelib chiqqan holda, pedagogik jarayonda ommaviy axborot vositalari o‘zida pedagogik xususiyatlarni ham mujassamlashtirsa, ayni muddao bo‘lar edi. Agarda, pedagog ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatini, bilish jarayonlarini, dunyoqarashini hamda qiziqish va mayllarini inobatga olib dars tashkil etsa va o‘quvchilarning qiziqqan kasblariga oid yangi bilimlarni, kasb sirlarini ommaviy axborot vositalirini kuzatib o‘rgansa, olgan ma‘lumotlar bilan, o‘tayotgan mavzu materiallarini qiziqarli va mazmunli qilib yoritib, bir-biriga aloqador jihatlarini ko‘rsatib bera olsa, o‘quvchini o‘ziga jalb eta olsa, dars samaradorligiga erisha oladi. Bu esa bevosita o‘smir yoshidagi o‘quvchini bir necha usullar yordamida mavzu materiallarini to‘g‘ri idrok etib, yodda saqlab qolishiga va tez o‘zlashtirishiga imkon beradi: birinchidan, o‘smir yoshidagi o‘quvchi o‘zi qiziqqan kasbning fanlararo aloqalari mavjud ekanligi haqida ma‘lumotga ega bo‘ladi va mukammal o‘rganishga hamda kasb sifatida egallashiga undasa, ikkinchi tomondan, ommaviy axborot vositalaridan fan-texnika taraqqiyotdagi innovatsion yondashuvlar, o‘rganilayotgan mavzular va o‘rganishga sabab bo‘layotgan muammolar, o‘rganilgan ishlarning natijalari hamda joriylanishi kabi ma‘lumotlarni olish, bunga nisbatan ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishiga, mantiqiy fikrlash imkoniyatlarini oshirishda va faol ma‘lumotlaridan foydalanuvchisini shakllantirishga zamin yaratadi.

Muhokamalar va natijalar. O‘smir yoshidagi o‘quvchi ilm-fan yangiliklarining mohiyatini bilgach, ularning yangidan yangi o‘rganilmagan jihatlarini o‘rganishga o‘zida xohish, istak, ko‘nikma va malakalarni hosil qilsagina, fikrlashi lozim bo‘lgan vaqtda mustaqil fikr bildirish saviyasini shakllantira oladi.

O‘smir yoshida bolalarni kasb-hunarga yo‘naltirish, kasbga oid ma‘lumotlar bilan qurollantirish, uning kelajakda muayyan kasbni egallashdagi zarur ma‘lumotlarni olishga oid ko‘nikma va malakalarni shakllantirish uchun, ta‘lim-tarbiya jarayonida pedagogik imkoniyatlarni yanada oshirish, mutaxassis kadrlarni tayyorlashning yangicha asoslarini joriy etish bugun har qachongidan ham dolzarb ahamiyatga ega.

Axborot vositalari va uning mavjud manbalaridan ta‘lim jarayonida o‘qitish imkoniyatlarida, xususan kasbga yo‘naltirish ishlarida, o‘quvchilarni faol foydalanishga o‘rgatishda, shu bilan birga audiovizual vositalarning imkoniyatlaridan zaruriy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda kuchli motivatsiya sifatida qo‘llash mumkin.

Maktab ostonasidan boshlab o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishlarini tashkillash bo‘lg‘usi kadrlar tayyorlash jarayonining dastlabki bosqichi hisoblanadi. Buning natijasida quyidagilarni amalga oshirishga erishish mumkin:

- birinchidan, pedagoglar darslarni qiziqarli, mazmunli ma‘lumotlarga boy tarzda tashkillashda;
- ikkinchidan, o‘quvchilarda egallashi mumkin bo‘lgan kasblar haqida ma‘lumotlar olishida;
- uchinchidan, o‘quvchilar orasida kreativlikni rivojlantirishda;
- to‘rtinchidan, kasbga yo‘naltirish ishlarini sifatini oshirishda va h.k.

Ayni vaqtda Ruspublika ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va keng ko‘lamni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor sur‘atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda o‘quvchiga yetkazib berishni yo‘lga qo‘yish ta‘lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta‘lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tatbiq etish yuqorida qayd etilgan dolzarb muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiladi [8, 7].

O‘qituvchi dars jarayonida, ijtimoiy tarmoqlardan, televideniye va radio vositalaridan foydalanish davomida, muayyan kasblar haqidagi ma‘lumotlarni, o‘tilayotgan mavzusiga integratsiya qilib borishi lozim. O‘qituvchi o‘quvchilarning ma‘lumotlarni o‘zlashtirishlarida turli metodlardan foydalanishlari mumkin. Ya‘ni “Konseptual jadval (Idrok xaritasi)” “SWOT”, “FSMU”, “Kouching” va boshqalar. Bunda o‘quvchilar mavzuni idrok etishlari va tushunishlarida bu metodlar katta yordam beradi.

Sinflarda muammoli vaziyatni yaratishda o‘qituvchi turli uslublardan foydalanishi mumkin: Telaevideniye, radio eshittirishi, internet, gazeta yoki jurnal sahifalarida e‘lon qilingan axborotga nisbatan munosabatlarini bildirishlariga imkon berish; o‘rganilayotgan muammoni o‘smir yoshidagi o‘quvchi shaxsi uchun, pedagogik faoliyat uchun, jamiyat kelajagi uchun ahamiyatini ko‘rsatish; istiqboldagi ta‘lim, maktab, o‘qituvchi qobiliyati haqidagi bashorat etish kabilardan foydalanish qo‘l keladi [2, 31].

Xulosa. Barkamol shaxsni shakllantirish muammosining ijtimoiy zaruriyat sifatida e‘tirof etilayotganligini nazarda tutadigan bo‘lsak, tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuvni qaror toptirish, mazkur jarayonni texnologiyalashtirishga erishish muhim pedagogik vazifalardan biri ekanligini yanada chuquroq anglaymiz [8].

Bu kabi interfaol metodlari asosida axborot vositalarining ma’lumotlaridan foydalanish, dars jarayonlarini tashkil etish, orqali o’quvchilarni kasbga yo’naltirish ishlarini samarali tashkil etish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. 75-bet.
2. Abdullayev X. Pedagogikani o‘qitish metodikasi. -Farg‘ona. 2008. 31-bet.
3. Yoziyeva U.L. Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarni zararli axborotlar tahdididan himoya qilishning takomillashtirilgan texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi. –Nukus. 2018. -156 b.
4. Yoqubova M. Jamiyat taraqqiyotida axborotlashuv va axborot texnologiyalarining ahamiyati: Falsafa fanlari nomzodi. ... diss. -T., 2008. -176 b.
5. Jo‘rayev N. O‘zbekistonda yangilanishlar konsepsiyasining yaratilishi, evolyusiyasi va amaliyotda qo‘llanilishi: Siyosiy. fanl. dok. diss... Avtoref. -T., 2001. -54 b.
6. Kaxxarova M. Jamiyatda ma’naviy-axloqiy muhit: muammo va yechimlar. Avtoref. ... fal.fan.dok. -T., 2012. -56 b.
7. Qosimova Z.Q. Talaba-yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning pedagogik asoslari (oliy o‘quv yurtlari ma’naviy-ma’rifiy ishlari misolida): Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. Avtoref. -T., 2004. -26 b.
8. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. –T.: O‘zbekiston Respublikasi FA “Fan” nashriyoti, T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zPFITI, 2006-yil. 7-bet.

Saidakbar MUTALOV
Namangan davlat universiteti
tayanch doktoranti

OLY TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOY FAOLLIK MUHITINI YARATISH ORQALI TALABALARDA LIDERLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Mazkur maqolada oliy o'quv yurtlarida yoshlar va jamoat tashkilotlarining ijtimoiy-pedagogik hamkorligi, yoshlar (talabalar) kengashi ko'magida talabalarning liderlik qobiliyatini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, o'zini-o'zi boshqarish tizimi orqali talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish, oliy ta'lim muassasalarining ta'lim-tarbiya funksiyasini amalga oshirishida O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatining muhim jihatlari, yoshlar loyihalari va tadbirlar asosida liderlik qobiliyatini rivojlantirishning metodologik jihatlari xususidagi ilmiy qarashlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *O'zbekiston yoshlar ittifoqi, talaba, jamoat tashkilotlari, yoshlar kengashi, oliy ta'lim muassasasi, yoshlar yetakchisi, liderlik qobiliyati, kasbiy kompetensiya, ijtimoiy faollik, ta'lim-tarbiya, tadbir, loyiha, ijtimoiy sifatlar.*

В данной статье рассматриваются социально-педагогическое сотрудничество высших учебных заведений с молодежными и общественными организациями, особенности развития лидерских способностей студентов при поддержке Совета молодежи (студентов), повышение социальной активности студентов через систему самоуправления, важные аспекты деятельности Союза Молодежи Узбекистана при осуществлении образовательно-воспитательных функций высших образовательных учреждений, вопросы, связанные с реализацией молодежных проектов и мероприятий. изложены научные взгляды на методологические аспекты развития лидерских способностей.

Ключевые слова: *Союз Молодежи Узбекистана, студенческие, общественные организации, Молодежный совет, высшее образовательное учреждение, лидер молодежи, лидерские качества, профессиональные компетенции, социальная активность, образование, мероприятие, проект, социальные качества.*

This article describes the socio-pedagogical cooperation of youth and public organizations in higher educational institutions, the peculiarities of the development of students' leadership skills with the support of the Council of youth (students), increasing the social activity of students through the self-management system, the important aspects of the activities of the Union of youth of Uzbekistan in the implementation of the educational

Key words: *Youth Union of Uzbekistan, student, public organizations, youth council, higher education institution, youth leader, leadership skills, professional competence, social activity, education, event, Project, social attributes.*

Kirish. *Yoshlarning shaxsini shakllantirish jarayonining ilk bosqichlari oila va maktab davrida namoyon bo'lib, shaxs poydevori va kelajakdagi xatti-harakatlarining stereotiplari mustahkamlanadi. Navbatdagi jarayon esa oliy ta'lim maydonida yuzaga keladi va shaxsning talaba qiyofasi orqali barkamollik sifatleri rivojlanishi kuzatiladi. Talaba shaxsi bu davrda talabchanlik, bilim olishga bo'lgan motivlarning yuqoriligi, o'zaro munosabatlarda andaza olish va, eng muhimi, o'zining yashirin qobiliyatini namoyon qilishga bo'lgan istaklarning kuchliligini kasb etadi.*

Talabalardagi mavjud sifatlar, yoshga doir fazilatlar va liderlik qobiliyatlarining rivojlanib borishi bevosita ta'lim sharoitida o'quv va auditoriyadan tashqari ta'lim-tarbiya kombinatsiyasi bilan amalga oshadi. Har ikkala ta'lim shakli istiqbolga erishish oliy ta'lim muassasasi tomonidan yaratilgan sifatli ta'lim-tarbiya muhiti va erkin ijodiy sharoitga bog'liq.

Oliy ta'lim muassasasi muhitida talabalar uchun pedagogik faoliyatni amalga oshirish – pedagogik vaziyatlarni rag'batlantirish, ularga faol ta'sir ko'rsatish, turli ijtimoiy rollarni va xulq modellarini o'zlashtirish imkoniyati ochiladi, bu oqibatda, hozirgi vaqtda ta'lim sohasida zarur hisoblangan, ularning liderlik imkoniyatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirishga ko'maklashadi.

Oliy ta'lim muassasasining tarbiyaviy muhitini tashkil etish tashabbuskorlari uning subyektlari hisoblanadilar. Ular alohida insonlar: talabalar, o'qituvchilar, ma'muriyat birlashmalari, talabalar kengashlari, shuningdek, ta'lim-tarbiya makonidan manfaatdor boshqa tashkilotlardan iborat [1].

Asosiy qism. *Respublikaning barcha oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiyani samarali tashkil etish maqsadida turli jamoat tashkilotlari bilan ijtimoiy-pedagogik hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Jumladan, siyosiy*

partiyalarning “Yoshlar qanoti” tuzilmalari, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, Xotin-qizlar qo‘mitasi, “Yosh olimlar” jamiyati, “Yoshlar kelajagimiz” jamg‘armasi, “Vatanparvar” tashkiloti, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi qoshidagi “Kelajak liderlari” klubi, O‘zbekiston volontyorlar assotsiatsiyasi, “Yuksalish” umummilliy harakati, “Qizil yarim oy jamiyati”, yoshlar markazlari va boshqa tashkilotlari o‘z tematik yo‘nalishidan kelib chiqqan holda hamkorlikni amalga oshiradi. Ayniqsa, talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish borasida talaba-yoshlar tuzilmalarining ahamiyati yuqori.

Ta’lim oluvchilar uchun sifatli ta’lim-tarbiyani ta’minlash, ularning faolligini oshirish, ijodiy iste’dodini shakllantirish va liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlar yaratish, jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga ko‘maklashish maqsadida nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlik qilish masalasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi [2] hamda “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunlarida mustahkamlab qo‘yilgan [3]. Ushbu yo‘nalishdagi vazifalarning ijrosi asosida oliy ta’limdagi yoshlar siyosatini O‘zbekiston yoshlar ittifoqi nodavlat notijorat tashkiloti amalga oshiradi.

Oliy ta’lim muassasasi ta’lim-tarbiya funksiyasini bajarishda O‘zbekiston yoshlar ittifoqining quyidagi vazifalariga tayanadi:

- talabalarni ma’naviy-axloqiy jihatdan va harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda tarixiy xotira, milliy g‘urur va o‘zlikni anglash, taraqqiyotga daxldorlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini shakllantirish;

- barkamol, mustaqil fikrlaydigan, o‘zining hayotiy pozitsiyasi va qat’iy e’tiqodiga ega, jamiyat hayotida munosib o‘rin egallash, mamlakatni isloh qilish, yangilanish jarayonlarida hal qiluvchi kuch va tayanch bo‘lishga qodir lider yoshlarni shakllantirish;

- talabalarning siyosiy madaniyati va huquqiy ongini yuksaltirish;

- iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ular o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishlari uchun shart-sharoitlar yaratish va ilmiy faoliyatga jalb qilish;

- talabalarning zamonaviy kasblarni egallashga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish;

- talabalar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi, ekologik madaniyatni shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishiga keng jalb etish va boshqalar [4].

Oliy ta’limda O‘zbekiston yoshlar ittifoqining tashkiliy tuzilmasiga ko‘ra asosiy faoliyatni tizimdagi quyi bo‘g‘in hisoblangan boshlang‘ich tashkilot yuritadi va unga “yoshlar yetakchisi” boshchilik qiladi. Yoshlar yetakchisi orqali ko‘ngilli talabalar jamoasi shakllanadi va ular o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmi asosida vakolatli ishchi organ - “Yoshlar kengashi” (talabalar kengashi) atrofida birlashadi.

Boshlang‘ich tashkilotlar yuqoridan turib tuziladigan rasmiy tashkilot emas, balki yoshlarning o‘z tashabbus va intilishlari asosida vujudga kelgan, o‘zini o‘zi nazorat etib, o‘zini o‘zi boshqara oladigan, barcha yoshlarni quyidan yuqoriga qarab birlashtirib boradigan tom ma’nodagi yoshlar harakati hisoblanadi.

Oliy o‘quv yurtida Yoshlar kengashini tuzishdan asosiy maqsad ham talaba-yoshlarning o‘zini o‘zi boshqarish tizimini shakllantirish, kengash ko‘magida talabalarga erkin fikrlash, masalalarni muhokama etish, mustaqil qarorlar qabul qilish, ishlarni to‘g‘ri rejalashtirish ko‘nikmalarini mustahkamlash va tabiiy liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratishdan iborat.

Ta’lim muassasasida boshlang‘ich tashkilotning o‘z maqsad va vazifalarini amalga oshirishi, o‘ziga xos pedagogik jarayonni yuzaga keltiradi. O‘zaro ijtimoiy-pedagogik hamkorlik asosida talabalarning faolligi ortadi, layoqati barqarorlashadi, refleksiv bilish imkoniyatlari va kognitiv ongi mustahkamlanadi, ularda zamonaviy ko‘nikmalarni egallashga bo‘lgan stimul paydo bo‘lishi barobarida liderlik qobiliyatlari rivojlanadi. Bu esa ta’lim-tarbiya ishini faqatgina oliy ta’lim tuzilmasigina emas, ijtimoiy institutlar, jamoat birlashmalari va eng asosiysi yoshlar tashkilotlarining hamkorligisiz tashkil etib bo‘lmagligini ifoda etadi.

Mazkur qarashlar professor B.Ziyamuhhammadovning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Uning fikriga ko‘ra, oliy o‘quv yurtidagi ta’lim-tarbiya shaxs rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Oliy ta’lim muassasasida shaxsning barcha ijobiy sifatleri maromiga yetkazilib, fazilat darajasiga ko‘tariladi. Buning uchun rasmiy ta’lim-tarbiya tizimidan tashqari madaniy-ma’rifiy muassasalar, ijtimoiy tashkilotlar va uyushmalar faoliyatidan foydalaniladi. Ularning ta’sirida talabalarning shaxsiy xislatlari jamiyatga va atrof muhitga muvofiqlashtiriladi.

B.Ziyamuhammedov ijtimoiy tashkilotlar ko‘magida ta’lim-tarbiya faoliyatini amalga oshirish orqali talabalarda quyidagi liderlik sifatlarini aniqlashtiradi:

- aqllilik;

- odoblilik;

- bilimlilik;

- mehnatsevarlik;
- salomatlik (jismoniy, aqliy, ijtimoiy va ruhiy) ;
- milliy g‘urur;
- vatanparvarlik;
- baynalmilallik;
- insonparvarlik;
- jasurlik;
- shiddatlilik;
- sabr-qanoat;
- saxovatlilik [5].

Mazkur sifatlarning talabalar shaxsida namoyon bo‘lishi, erkin intellektual muhit, muayyan ijodiy tayyorgarlik, o‘quv-seminarlar, trening va imitatsion mashg‘ulotlar, turli loyiha va tanlovlarning tizimli tashkil etib borishga bog‘liq. Uzluksiz amaliyot va o‘zaro ijtimoiy-pedagogik munosabatlar, ma‘lum vaqt oralig‘ida talabalardagi qobiliyatlarni bosqichma-bosqich rivojlanib borishiga imkoniyat yaratadi. Globallashuv ta‘sirida talabalarning liderlik qobiliyatlarini ifoda etuvchi sifatlarni ham takomillashib boradi. Ayrimlari o‘zining qiyofasini o‘zgartirib, bugungi ehtiyojga mos ravishda yangilanadi, yangi kompetensiyalar yuzaga keladi. Buning uchun ilg‘or pedagogik texnologiyalar va zamonaviy tendensiyalar asosida yangi metod va vositalarni amaliyotga tatbiq etish taqozo etiladi. Aynan oliy ta‘lim muassasasida pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etishda, yoshlar tashkiloti o‘ziga xos metodologik tuzilma sifatida xizmat qiladi.

Oliy ta‘lim muassasasida ta‘lim-tarbiya borasidagi hamkorlikni amalga oshirish asosida har bir talabaning o‘ziga xos ijtimoiy sifatlarni shakllanishi va yashirin qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga qaratilgan taktik faoliyatni amalga oshiradi. Shu ma‘noda talabalar orasida yoshlar kengashining boshlang‘ich tashkiloti – liderlik qobiliyatini shakllantiruvchi va uni takomillashtirishga xizmat qiluvchi signal mexanizm sifatida qayd etilgan.

Muhokamalar va natijalar. Liderlik qobiliyati uzluksiz ta‘limning boshqa bo‘g‘inlaridan farqli ravishda, oliy ta‘limda o‘ziga xos yetuklik va professional darajadagi mahoratlar majmuidan tarkib topgan motivlarga ehtiyoj sezadi. Shu nuqtayi nazardan oliy o‘quv yurtining boshlang‘ich tashkiloti, talabalar uchun quyidagi liderlik xususiyatlariga ega bo‘lishi imkon yaratadi:

- 1) qat‘iyatli;
- 2) tashabbuskor;
- 3) o‘ziga va boshqalarga nisbatan talabchan;
- 4) atrofdagilar bilan do‘stona munosabatda bo‘ladigan;
- 5) tashkilotchi;
- 6) g‘ayratli;
- 7) notiq;
- 8) xushmuomala;
- 9) jamoani o‘z ortidan ergashtira oladigan;
- 10) ijtimoiy-siyosiy bilimlarga ega bo‘lgan;
- 11) yuksak madaniyatli va salohiyatli;
- 12) boshqaruv madaniyati;
- 13) o‘z maqsadlariga to‘la erisha oladigan;
- 14) jamoa ishonchini qozona oladigan;
- 15) o‘z ishiga boshqalarda ishtiyoqni uyg‘ota oladigan;
- 16) favqulodda holatlarda tezkor qarorlar qabul qila oladigan;
- 17) asos va dalillarga tayanib ish yuritadigan;
- 18) mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanadigan [6].

Ko‘p hollarda oliy o‘quv yurtidagi yoshlar tashkilotining liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan faoliyatining samarali yo‘lga qo‘yilgani talabalarning ijtimoiy faolligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotchi O‘.Q.Utanovning qayd etishicha, ijtimoiy faollik – talabaning shaxsiy intilishi, hayotdagi maqsad-muddaolari, kelajakda qo‘lga kiritishi lozim bo‘lgan yetuklik darajasiga erishish yo‘lida o‘z imkoniyatlaridan maksimal foydalanish uchun qiladigan sa‘y-harakati. Mazkur jarayonda talabalarda tashabbuskorlik, tashkilotchilik qobiliyati hamda maqsad sari intilish kabi fazilatlar rivojlanadi [7].

Ijtimoiy faollik talabaning yashirin imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga yo‘l ochadi. Chunki bu jarayonda yangi ehtiyojlar va motivlar paydo bo‘ladi, ehtiyoj qondirish yo‘lida faol harakat vujudga keladi. O‘zini o‘zi kashf etishga bo‘lgan istak ortidan talaba liderlik pozitsiyasini egallashga kirishadi. Talabalar

o‘zidagi lider imijini yaratishga boshlang‘ich tashkilotning ish rejasida belgilangan loyihalarda hamda yoshlar kengashining quyidagi 10 ta yo‘nalishdagi chora-tadbirlarida ishtirok etish orqali erishadi.

1. *Tashabbus va yoshlar tadbirkorligi yo‘nalishi.* Yoshlar yetakchilari ko‘magida fakultetlar va akademik guruhlar kesimida “5 tashabbus haftaligi”, “O‘zbekiston uchun 100 g‘oya” tanlovlari, “Yoshlar startaplari” loyihasi, “Biznes akselerator” va “Yoshlar kelajagimiz” jamg‘armasi targ‘ibotlari o‘tkazilib, quyidagi ko‘nikmalarni egallashga sharoit yaratiladi:

- tashabbuskorlik;
- kreativlik;
- tadbirkorlik;
- ishbilarmonlik;
- tashkilotchilik.

2. *Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar va yoshlar turizmi yo‘nalishi.* “Yosh kitobxon”, “Yosh targ‘ibotchi”, “Kitobxon talaba” tanlovlari va “Talabalar teatr studiyalari”, “Quvnoqlar va zukkolar” bellashuvlari liderlikning quyidagi xususiyatlarini rivojlantiradi:

- ijodkorlik;
- tanqidiy fikrlay olish;
- targ‘ibotchilik;
- xarizma;
- o‘ziga ishontira olish;
- tezkorlik.

3. *Faol va iqtidorli yoshlar bilan ishlash yo‘nalishi.* “Zakovat” intellektual o‘yini, “Munozara” bellashuvi, “Yosh jurnalistlar”, “Yoshlar ittifoqi stipendiyasi” dasturi hamda “English-conversation club”, “Yosh olimlar” klublari faoliyati orqali quyidagi ko‘nikmalar rivojlanadi:

- hissiy intellekt (EQ)
- serqirralik;
- shaxsiy natijadorlik;
- istiqbolni ko‘ra olish (foresight);
- o‘zgarishlarni boshqarish (change management).

4. *Sport, salomatlik yo‘nalishi.* “Ittifoq kubogi”, “Talabalar shaxmat taxtasi” sport musobaqalari va “Sog‘lom turmush tarzi tarafdorimiz” shiori ostidagi tadbirlar quyidagi qobiliyatlarini mustahkamlaydi:

- faollik;
- jasurlik;
- tavakkalchilik;
- risklarni boshqarish;
- vaqtni to‘g‘ri taqsimlash (time management).

5. *Muddatli harbiy xizmatni o‘tab, o‘qishga qabul qilingan talabalar bilan ishlash yo‘nalishi.* “Jasorat” klubi, “Fidoi yoshlar otryadi” va boshqa harbiy vatanparvarlik tadbirlari talabalarga quyidagi ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga yordam beradi:

- jamoani shakllantirish va boshqarish;
- hissiyotni jilovlay olish;
- topshiriqlarni berish va nazorat qilish;
- samarali muloqot madaniyati;
- qo‘rquvni yengish;
- mehnatsevarlik.

6. *Ijtimoiy himoyaga muhtoj va imkoniyati cheklangan talabalar bilan ishlash yo‘nalishi.* Talabalardagi saxovat, ijtimoiy adolat, mehr-muruvvat – “Ta‘lim granti” dasturi, “Saxovat va ko‘mak” aksiyasi va boshqa volontyorlik tadbirlari orqali mustahkamlanib, ularning quyidagi sifatlarini rivojlantiradi:

- bag‘rikenglik;
- kamtarlik;
- insonparvarlik;
- nekinlik (optimizm);
- kechiruvchanlik.

7. *Tashkiliy nazorat va kadrlar yo‘nalishi.* “Yoshlar yetakchilari saylovi”, fakultet va akademik guruhlardagi yoshlar yetakchilari faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish orqali quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirishga erishiladi:

- rahbarlik kompetensiyasi;
- shaxsiy javobgarlik;

- kompaniya madaniyati;
- jamoani ruhlantira olish (motivasiya berish);
- talabchanlik.

8. *Ta'lim jarayoni sifatini monitoring qilish yo'nalishi.* “Davomat”, “Navbatchilik” tadbirlari va ta'lim-tarbiya faoliyatini sifatli tashkil etishga qaratilgan tashkiliy ishlar asosida quyidagi ko'nikmalar mustahkamlanadi:

- adolatparvarlik;
- tahlil qilish;
- o'zgarishlarni baholash;
- ensiklopedik bilimga egalik.

9. *Talabalar murojaatlari bilan ishlash yo'nalishi.* Pedagogik jarayonlarda talabalar bilan o'zaro tizimli munosabatni yo'lga qo'yib, samarali feedback(qayta aloqa)ni ta'minlash va ta'lim-tarbiya maydonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlari asosida talabalarda quyidagi ko'nikmalar rivojlanadi:

- muammolarni hal etish;
- favqulodda qaror qabul qila olish;
- kognitiv moslashuvchanlik;
- stressni boshqarish.

10. *Yoshlar media guruhi yo'nalishi.* Mazkur yo'nalishda “Yoshlar ittifoqi radiosi”, “Yoshlar press klubi” loyihalarini o'tkazish va fakul'tetlarning ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyati natijasida mazkur kommunikativ sifatlar rivojlanadi:

- notiqlik;
- muloqotga kirishuvchanlik;
- masalaga obyektiv qaray olish;
- o'zaro munosabatlarda tinglay olish.

Xulosa. Liderlik faol jarayon bo'lishi bilan birga, u murakkab va yaxlit hodisa hisoblanadi. Talabalarining liderlik qobiliyatini rivojlantirish o'ziga xos amaliyot, vaqt va tajriba talab etadi. Demak, muhim pedagogik qonuniyatlar asosida oliy ta'limda yoshlar tashkilotlarining ta'lim-tarbiya integratsiyasini mustahkamlash, yoshlarga oid loyiha va tadbirlarni tizimli tashkil etish, talabalar kengashi va yetakchilik muhitidagi eksperimental faoliyat hamda o'zini o'zi boshqarish tamoyili orqali professional ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar – talabalarda liderlik kompetensiyalari vujudga kelishiga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, oliy o'quv yurtlari va yoshlar tashkilotlarining istiqbolli hamkorligi, mamlakat taraqqiyoti va jamiyat ravnaqi uchun intellektual salohiyatli, vatanparvar, faol va serqirra liderlik mahoratga ega mutaxassislarni ta'minlash borasidagi muhim ijtimoiy-pedagogik vazifaning muvaffaqiyatli ijrosidir.

Adabiyotlar

1. Qodirov X.O. Oliy ta'lim muassasasi talabalarida liderlik sifatlarini rivojlantirish. Ped. fan. fal. (PhD) dok. ...dis. -T., 2020. -143 b.
2. <https://lex.uz/docs/5013007> – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
3. <https://lex.uz/docs/3026246> – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
4. O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatiga doir huquqiy-me'yoriy hujjatlar (I qism). -Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. -160 b.
5. Ziyamuhhammadov B. Pedagogika: Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma. – T.: “Turon-Iqbol”, 2006. -112 b.
6. Zayniddinov Sh., Olimov Sh., Ro'zimurotov A., Eshquvvatov J. Oliy ta'lim muassasalarida boshlang'ich tashkilot faoliyatini tashkil etish / uslubiy qo'llanma. -Toshkent: “Yoshlar” nashriyot uyi, 2021. -120 b.
7. Utanov O'.Q. Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar ma'naviyatini rivojlantirish texnologiyasi. Ped. fan. fal. (PhD) dok. ...dis. -T., 2018. -153 b.

Шахноз САМИЕВА

Кандидат педагогических наук, доцент

Рухсатой ШАМСУЛЛАЕВА

Магистрант Педагогический институт
Бухарского государственного университета

ПОДГОТОВКА СТУДЕНТОВ К ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КАК СОВРЕМЕННАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

В данной статье раскрываются педагогические проблемы инновационной подготовки студентов к духовно-просветительской деятельности в системе высшего образования, значение и сущность понятий духовность, просвещение. Также было подчеркнуто, что всесторонняя реализация функций духовно-просветительской деятельности в значительной степени поможет гармонизировать все аспекты человеческой жизни с процессом общественного развития, духовно-просветительское мировоззрение, сформированное в личности студента, послужит важным фактором развития мирового просвещения и подъема культуры. общество.

Ключевые слова: *духовность, просветительская деятельность, гармоничное поколение, учебный процесс, воспитание, система образования, интеллект.*

Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida talabalarni ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga innovation tayyorlashning pedagogik muammolari, ma'naviyat, ma'rifat tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar vazifalarini har tomonlama amalga oshirish inson hayotining barcha jabhalarini ijtimoiy rivojlanish jarayoni bilan uyg'unlashtirishga katta yordam berishi, talaba shaxsida shakllangan ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarash jahon ma'rifatini rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy dunyoqarashni yuksaltirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi ta'kidlandi. madaniyat. jamiyat.

Kalit so'zlar: *ma'naviyat, o'quv faoliyati, barkamol avlod, ta'lim jarayoni, tarbiya, ta'lim tizimi, aql-zakovat.*

This article reveals the pedagogical problems of innovative preparation of students for spiritual and educational activities in the system of higher education, the meaning and essence of the concepts of spirituality, enlightenment. It was also emphasized that the comprehensive implementation of the functions of spiritual and educational activities will greatly help to harmonize all aspects of human life with the process of social development, the spiritual and educational worldview formed in the student's personality will serve as an important factor in the development of world enlightenment and the rise of culture. society.

Key words: *spirituality, educational activity, harmonious generation, educational process, upbringing, education system, intelligence.*

Учитывая взаимодействие духовности в глобальном масштабе в жизни общества, особое внимание уделяется формированию духовно-просветительской деятельности, изучению национальных ценностей и внедрению в образовательный процесс. Каждая страна применяет свои собственные подходы к процессу прогнозирования, принимая во внимание особенности своего исторического и социально-экономического развития и совершенствуя их с учетом постоянно меняющихся условий.

Национальные ценности, национальное самосознание, национальная идея, духовно-нравственное воспитание, а также бесценное наследие наших предков составляют основу духовно-просветительской деятельности. Формирование личности гармоничного поколения на основе духовно-просветительской деятельности - одна из самых актуальных проблем современности.

В нашей республике в качестве приоритетной задачи отмечено развитие инфраструктуры, отвечающей духовным и просветительским требованиям определенного народа, общества, исторического периода, состоящей из единства национальных, общечеловеческих художественных ценностей, ее подготовки к служению и развитию общества. Проводится эффективная работа по применению инновационных стратегий при подготовке к обучению при организации духовной и воспитательной работы студентов в процессе профессионально-педагогического образования в высших учебных заведениях. Сотрудничество в области образования, науки, культуры и информации привело к проведению научных исследований по последовательному и устойчивому развитию всех сфер общества в соответствии с новыми социальными потребностями и современными требованиями. Это, в свою очередь, имеет важное значение для научного анализа развития духовно-просветительской работы в соответствии с достижениями науки и техники, основанного на передовом зарубежном опыте, особенно при разработке технологий подготовки студентов к организации духовно-воспитательной работы. В высших учебных заведениях страны обмениваются

опытом и инновационными идеями, создано усовершенствованное программное и методическое обеспечение организации образовательных процессов. В результате были разработаны эффективные организационно-педагогические механизмы, основанные на богатых национальнокультурных и исторических традициях, обычаях и общечеловеческих ценностях для подготовки студентов к организации духовно-воспитательной работы в процессе профессионально-педагогического образования, а также обеспечен приоритет гуманизации образования[3].

Духовно-просветительская деятельность является главным фактором дальнейшего углубления демократических преобразований в Узбекистане и формирования основ гражданского общества, обеспечения прав и свобод человека.

Поэтому, прежде всего, мы раскрываем суть понятий “духовность”, “просвещение” и “деятельность” и задумываемся о содержании духовно-просветительской деятельности. Потому что духовность воспитывает гармоничного человека. Совершенствуется система образования и профессиональной подготовки. Она служит важным инструментом в донесении идеи национальной независимости до сознания молодежи. Это также побуждает молодежь принимать активное участие в самой благородной работе по созданию великого будущего Узбекистана, приверженной идеологии национальной независимости, обретая безграничную любовь и привязанность к матери и отцу.

Сегодня духовное совершенствование молодежи, которое является главным отрицанием общества, считается актуальным. Потому что духовно сформированные молодые люди могут иметь правильное, справедливое отношение к обществу, организовывать работу в трудовых коллективах, иметь основательный научный и практический опыт повышения производительности труда.

В рамках подготовки будущих специалистов с высшим образованием к духовно-просветительской деятельности ученые-педагоги проводили научные исследования по проблеме формирования их знаний, умений и навыков в соответствии с современными требованиями. В научном исследовании Б.Х. Уазова были разработаны предложения по социально-педагогическим основам подготовки будущих учителей к духовно-просветительской деятельности и их применению на практике. Создана система педагогических и информационных технологий повышения эффективности духовно-просветительской деятельности, определен и обоснован ряд факторов и условий применения к образовательному процессу [8].

В исследованиях были изучены современные пути повышения эффективности образовательного процесса при подготовке специалистов с будущим высшим образованием, а также профессиональные качества и личностные качества преподавателя профессионального образования.

Духовность прямо и косвенно связана с понятием просветления. В конце концов, без просветления не будет духовности, и без бытия тоже. Духовность человека формируется светом просветления. Соответственно, ученый Ибн Аль-Арабий сказал: “Просветление посылается истиной. Это не мое мнение, это божественное вдохновение”, - указал он на просветление.

“Просвещение, - подчеркивается в толковом научно-популярном словаре независимости, (от арабского слова “арафа” – “знать”) - деятельность, направленная на культивирование сознания-знания, культуры людей на основе совокупности образовательных, экономических, политических, философских, религиозных идеи” [2].

Духовное совершенствование, новые мысли о воспитании интеллекта, пути восточного и западного опыта человеческого развития также являются путями духовной деятельности.

Суть работы духовно-просветительской деятельности заключается в том, что она является источником, который служит для того, чтобы почувствовать духовные корни, понять национальную гордость и самосознание, увеличить свой вклад в сокровищницу мировой культуры.

Масштабы, особенности и результаты приобретения духовного, научного, культурного наследия народа, общества во многом зависят от духовности независимости. Потому что в этом духовность служит “путеводной звездой”, которая находит правильное направление к общечеловеческим ценностям и играет важную роль в изучении духовного наследия нашего народа, в формировании духовной среды, необходимой нашему обществу сегодня и в будущем.

Духовность (арабское “духовность” – совокупность значений) - это совокупность философских, правовых, научных, художественных, нравственных, религиозных представлений и концепций людей. Духовность близка к понятиям идеологии, мышления, и они дополняют друг друга [4]. По определению, духовность - это источник, отражающий философско-правовые, религиозно-нравственные представления человека, соответственно это богатство, которое сближает людей друг с другом и помогает им достичь гармонии, открывает новые горизонты сотрудничества. Духовность дает человеку стабильность в жизни, его взгляды не позволяют ему видеть день таким образом, чтобы разбогатеть, духовность укрепляет волю в дни материальных трудностей.

Духовность - основа нашей истории и ценностей, она побуждает молодежь обращать внимание и развивать эти богатства, строить сильную страну с экономическим развитием в будущем, приобретать современные знания и высокий опыт у нашей молодежи. Суть концепции духовности заключается в том, что она показывает, что люди разных народов и стран являются кровными братьями. Наша духовность формировалась судьбами миллионов и миллионов людей на протяжении веков. Духовность необходима человеку, как воздух, как вода. Смысл духовности - это верность земле, народу, нашему независимому государству, семье, родителям, детям, родственникам, уважение к людям, совести, свободе. Духовность имеет очень глубокое и широкое значение, она делает человека личностью, сознание, которое радикально отличает и резко отличает его от других обычных живых существ, здравый смысл и созерцательность, человечность, благородство, сострадание, доброта, верность, патриотизм, честность, чистота, уважение к природе, любовь и почитание науки, литература, искусство и культура, верность национальным и общечеловеческим ценностям, верность себе и своим - это включает в себя такие замечательные качества и качества, как уважение и признательность своему народу, его языку, исторической культуре, обычаям и традициям. Суть слова “духовность” - это его значение. Человеком, который ищет смысл в окружающем мире, движет духовность.

В книге чувства Родины написано, что “Духовность - это концепция, которая воплощает внутреннюю жизнь общества, нации и какого-то отдельного человека, духовный образ жизни, умственные способности, восприятие. Духовность - это отрицание культуры Человека и общества, главный фактор определенного направления в жизни Человека и общества. Это оказывает сильное влияние на формирование, изменение или кризис конкретной системы экономической и социальной жизни” [6]. Если духовность становится богатой, общество становится процветающим, и наоборот, если духовность становится бедной, общество деградирует. Без духовности великое государство не может быть построено.

Духовность - это богатый фактор и основа процветания общества и нации. Следовательно, духовность - это невероятно широкое понятие, которое включает в себя Просвещение, культуру, мораль, искусство, литературу и т.д. Поэтому именно в этом причина того пристального внимания, которое уделяется вопросам духовности в независимом Узбекистане.

После обретения независимости нашей Родиной национальная духовность стала важным вопросом государственной важности. Независимость и духовность оставались взаимосвязанными [5].

В нашей стране государство является главным реформатором. Известно, что государство, опираясь на силу своих граждан, вносит только серьезные изменения. Поэтому в нашей национальной политике духовность считается важным фактором формирования гармоничных людей. Духовность играет важную роль в реформах и изменениях, происходящих в обществе.

Сущность духовности настолько глубока, настолько бесконечна, что даже измеряя ее, нельзя достичь конца.

Также глубоко проанализировано, что сущность человеческой духовности представляет собой целостную систему интеллектуальных, нравственных, научно-практических, идеологических качеств, которые неразрывно связаны друг с другом. Такие качества, как патриотизм, национализм, национальная гордость, уважение к родному языку, защита природы, поддержка духовности родной земли, независимость государства при любых обстоятельствах, уважение к нашим священным традициям, законам, национальным ценностям - все это связано с духовностью.

Это означает, что без духовности невозможно достичь ни материального благополучия, ни прогресса, духовная нищета ведет к национальной деградации. В истории не все времена можно назвать разделенными в рациональном отношении к духовности. Например, Туркестан понес большую духовную утрату даже во времена, когда он попал во власть Золотой Орды. Почти полтора века сельское хозяйство, животноводство находились в кризисе, торговые отношения были лишены международного статуса. Однако к семидесятым-девяностым годам XIV века, за короткий промежуток времени, Туркестан снова развивался и популяризировался во всем мире. Потому что экономическая, культурная и духовная жизнь в стране, которой правил Амир Темура, была взаимосвязана и развивалась неразрывно.

Накшбандия - мощный фактор, который вывел Туркестанское государство на путь великого экономического и культурного развития. Это означает, что если экономика с духовностью поднимаются в сотрудничестве, это становится мощным социальным фактором. Любая оппозиционная ему сила также не может быть препятствием. Духовность и экономика не отрицают друг друга, а поддерживают друг друга и развиваются между собой. Несмотря на то, что духовность является огромной социальной, экономической, духовной силой, она не может привлечь всех. К

сожалению, сегодня люди разных социальных слоев, некоторые трудовые коллективы и даже многие представители интеллигенции равнодушны не только к обществу, но и к собственному духовному совершенствованию.

Духовность прямо и косвенно связана с понятием просветления. В конце концов, без просветления не будет духовности. Духовность человека формируется светом просветления. Соответственно Ибн Аль-Араби: “Просветление посылается истиной. Это не мое мнение, это божественное вдохновение”, - указал он на просветление.

Отмечается, что “просвещение”, в толковом научно-популярном словаре независимости, (от арабского слова “арафа” – “знать”) - это деятельность, направленная на культивирование сознания-знания, культуры людей на основе набора образовательных, экономических, политических, философских, религиозные идеи” [7].

Просвещение - это образовательный и воспитательный процесс, направленный на передачу знаний, накопленных предками в ходе исторического развития человеческого общества, следующему поколению. В этом отношении трудно отделить понятия просветления и духовности друг от друга.

Значение духовности и просвещения в человеческом совершенствовании, социально-политическом развитии очень велико. Поскольку мировоззрение человека, в котором формируются понятия духовности и просвещения, меняется, содержание его деятельности видит такие задачи, как судьба независимости, содействие духовному совершенствованию народа, пропаганда национальной духовности, развитие народного просвещения, наслаждение из продукта созерцания народов с учетом этого духовно-образовательное содержание реализуется в деятельности.

“Деятельность” - это процесс, в ходе которого человек понимает, что то или иное действие направлено на определенную конкретную цель. Деятельность - это внутренняя (психическая) и внешняя (физическая) деятельность, которой человек руководствуется с понятной целью [96, 97].

Главной особенностью деятельности является то, что она отличается от воспринимаемой цели, которая является направлением деятельности, когда она возникает как потребность в источнике деятельности. Деятельность - это целенаправленное действие, направленное на удовлетворение потребностей индивида.

Понятия “духовность”, “просветление” и “активность” неразрывно связаны и относятся друг к другу. Вместе они образуют целостную концепцию.

Духовно-просветительская деятельность - это источник, который служит ощущению духовных корней, осознанию национальной гордости и собственного достоинства, увеличению своего вклада в сокровищницу Мировой культуры.

Суть духовно-просветительской деятельности заключается в создании возможностей для сотрудничества всех народов, проживающих в нашей республике, в формировании идеологии, объединяющей их в их стремлениях и процветании, которая может служить достижению великих общечеловеческих ценностей - мира нации и согласия граждан, верховенства закона, социальной справедливости, прав человека, развивать передовые национальные традиции.

Это взаимодействие культур Узбекистана и народов мира, совместные усилия, укрепление и развитие богатства друг друга.

Поэтому, учитывая, что на протяжении многих лет понятие духовно-просветительской деятельности глубоко не изучалось ни в учебном процессе, ни в научно-исследовательской работе, ощущается необходимость формирования у студента высшего учебного заведения навыков и умений приобретения и применения духовно-просветительских знаний. Ведь это важный инструмент формирования гармоничной личности на основе идеи национальной независимости.

Поэтому важно формировать национальное самосознание, национальную гордость, чувство самосознания, чувство гордости за личность гармоничного поколения, чувство национального достоинства, ответственности, патриотизма и национализма. В то же время внедрение национальных традиций, образовательного опыта в учебный процесс повышает интерес учащихся к изучению духовного наследия нашего народа. Это обеспечивает стабильность в обществе, мир, согласие между народами и гражданами, укрепление и развитие перспектив и независимости независимого Узбекистана. Способствует духовному очищению и вознесению человека. Человек обогащает свой внутренний мир.

Главная цель духовно-просветительской деятельности - вывести личность гармоничного поколения на взрослый уровень, превратив его в настоящего гражданина нашего общества, сознательного самопожертвования.

В процессе развития духовно-просветительской деятельности у студентов на основе инновационных технологий основное место занимают следующие принципы:

- процесс обучения от простого к сложному, от общего к специальному;
- анализировать личный опыт и на его основе выдвигать реальные доказательства с целью его исправления;
- использование индивидуальных приоритетов для обогащения содержания процесса;
- избегайте понятия “Я” при работе с командой и используйте его как пример, ориентир, показатель качества, не требуя от других.

Литература

1. Зиёмухаммедов, Б. (2006) Педагогика: Учебное пособие для вузов. - Т.: "Турон-Икбол" с.112. [Pedagogy: A textbook for universities]
2. Зиёмухаммедов, Б. Абдуллаева, Ш.(2001) Передовые педагогические технологии: теория и практика. - Т.: "Абу Али ибн Сина", с.80.[Pedagogy: A textbook for universities]
3. Кузьмина Н.В., Реан А.А. (1993) Профессионализм педагогической деятельности. – М.: “Педагогика”. – 172 с. [Professionalism of pedagogical activity]
4. Кинжаева Г.С. (2021) ПОДГОТОВКА СТУДЕНТОВ К ОРГАНИЗАЦИИ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ РАБОТЫ В ВУЗЕ // Наука и образование сегодня. №3 (62). [PREPARATION OF STUDENTS FOR THE ORGANIZATION OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL WORK AT THE UNIVERSITY].
5. Нишоналиев, У.(1990) Формирование личности учителя трудового обучения: проблемы и перспективы. –Т.: “Фан”, – 88 с.[Formation of the personality of a teacher of labor training: problems and prospects].
6. Олимов, Ш.Ш. (2015). Основа духовно-нравственного воспитания. (Монография). – Т.: “Fan va texnologiya”.с. 228. [The basis of spiritual and moral education]
7. Хўжаев Б.К., Олимов Ш.Ш. (2004). Новые педагогические технологии: теория и практика. – Бухоро, Ёкуб Довуд, с.164.[New pedagogical technologies: theory and practice].
8. Олимов Ш. Ш., Сайфуллаева Н. З. Основные принципы развития духовно-нравственного мировоззрения у студентов //Иновационная экономика: перспективы развития и совершенствования. – 2015. – №. 5 (10). – С. 45-51.

Zamira KURBANIYAZOVA

Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA IJTIMOY-PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDA OBYEKTGA DOIR PEDAGOGIK VAZIYATLARNING AHAMIYATI

Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash, ularning kelajak kasbiga ijtimoiylashuviga yo‘naltirish maqsadida ta‘lim jarayonida pedagogik vaziyatlarni samarali qo‘llash masalalari tahlil etilgan. Bunda talabalarda muloqotning ijtimoiy-perseptiv uslubining rivojlanganligi masalalari o‘rganilib, uning rivojlanganligini baholash mezonlari aniqlangan. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-pedagogik kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishda obyektga doir pedagogik vaziyatlarning ahamiyati va uning turlari aniqlanib, ta‘lim amaliyotida qo‘llash masalalari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak o‘qituvchilar, kasbiy tayyorgarlik, ijtimoiylashuv, ijtimoiy-pedagogik kompetentlik, pedagogik vaziyat, muloqotning ijtimoiy-perseptiv uslubi, idrok, tushunish, tahlil etish.

В данной статье анализируются вопросы эффективного использования педагогических ситуаций в образовательном процессе с целью профессиональной подготовки будущих учителей, направленного на их социализацию к будущей профессии. При этом были изучены вопросы развития социально-перцептивного стиля общения у студентов, выявлены критерии оценки его развития. Выявлено значение педагогических ситуаций и их видов, связанных объекту в формировании и развитии профессионально-педагогической компетентности будущих учителей, а также описаны вопросы их применения в образовательной практике.

Ключевые слова: будущие учителя, профессиональная подготовка, социализация, социально-педагогическая компетентность, педагогическая ситуация, социально-перцептивный стиль общения, познание, осмысление, анализ.

The issues and ways of solving the problems of development of socio-pedagogical competence of future teachers are analyzed in this article. This article analyzes the issues of effective use of pedagogical situations in the educational process in order to train future teachers, to direct them to the socialization of their future profession. At the same time, the issues of development of social-perceptual style of communication among students have been studied and the criteria for assessing its development have been identified. The importance of pedagogical situations in the formation and development of professional and pedagogical competence of future teachers and its types are identified and the issues of their application in educational practice are described.

Key words: prospective teachers, professional training, socialization, socio-pedagogical competence, pedagogical situation, socio-perceptual style of communication, perception, understanding, analysis.

Kirish. Oliy ta‘lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarda muloqotning ijtimoiy-perseptiv uslubini rivojlantiruvchi maxsus vaziyatlarni yaratishga alohida ahamiyat kasb etadi. A.V.Xutorskiyning vaziyat “ma‘lum bir sharoitni yaratuvchi shart-sharoitlar va holatlar uyg‘unligi” [1], I.S.Yakimanskayaning “vaziyat voqeliklar yig‘indisi” [2], 3.T.Saliyevaning “vaziyat voqealar rivoji yoki natijasi insonga qiziqish hosil qiluvchi aniq jarayonni aks ettiruvchi obrazli, verbal va analitik axborotlar yig‘indisidir” [3] tarzidagi ta‘riflariga tayangan holda, biz muloqot vaziyatlarini nazariy jihatdan tahlil qildik va ular orasidan tadqiqot faraziga muvofiq keladiganlarini tanlab oldik. Vaziyatlarni tanlashda biz quyidagi tamoyillarga asoslandik: ijtimoiy jihatdan maqsadga muvofiqlik, ma‘naviy salohiyatga egalik, vitagenlik (hayotiy tajribaga asoslanish), kreativlik, tizimlilik, strukturalash, qo‘shimcha axborotlar bilan boyitish.

O‘quv-tarbiya jarayoniga tabiiy yo‘l bilan kiritishga imkon beruvchi vaziyatlarni ishlab chiqish va muloqotning ijtimoiy-perseptiv uslubini tanlashga talabalarni o‘rgatish maqsadga muvofiqdir.

R.Safarova [4], M.Quronov [5], N.Avliyakov [6], J.Yo‘ldoshev [7], G.Asmolov [8], Y.Kulyutkin [9] va boshqa olimlarning tadqiqotlariga tayangan holda, ichki va tashqi imkoniyatlar asosida muloqotning ijtimoiy-perseptiv uslubini faollashtirishga doir vaziyatlar ikkita guruhga ajratildi. Birinchi guruh vaziyatlar ahamiyatiga ko‘ra tashqi sharoitlarga taalluqli bo‘lib, shartli ravishda “obyektga doir vaziyatlar” (shaxsning voqelik sifatida vaziyatlar bilan o‘zaro birgalikdagi harakati) deb nomlandi. Mazkur vaziyatlar shaxsning ijtimoiy-pedagogik voqelikni idrok etishiga ichki rag‘batni hosil qilishga imkon beruvchi o‘quv-tarbiya jarayonida yuzaga keluvchi shart-sharoitlarni yaratdi. Mazkur holatda talabalarda ijtimoiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish tashqi vaziyat-voqeliklar orqali amalga oshirildi. Ikkinchi guruh – “subyektga

doir vaziyatlar”ni talabalarning yosh bilan bog‘liq ehtiyojlarini hisobga olish asosida bevosita ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish, ijtimoiy persepsiya nuqtayi nazaridan muloqotning yangi, ko‘proq produktiv usullarini tanlashga imkon beruvchi individual uslubni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan voqeliklar tashkil etdi.

Asosiy qism. Muloqotning ijtimoiy-perseptiv uslubining namoyon bo‘lishini aniq aks ettirish uchun uning ko‘rsatkichlari va tavsifi aniqlashtirildi. O‘z-o‘zini va boshqalarni idrok etish hamda baholashning barqaror usuli sifatida ijtimoiy-perseptiv uslub tushunchasini ta’riflash orqali uning ko‘rsatkichlari aniqlashtirildi: mazmunga doir, yo‘naltiruvchi, faoliyatga doir hamda talabaning mustaqil ravishda o‘zining ijtimoiy-perseptiv uslubini baholash bo‘yicha kichik (mini) diagnostik metodika ishlab chiqildi (1-jadval).

Muloqotni ijtimoiy-perseptiv uslubining yuqori darajasi shubhasiz mavjud shart-sharoitlarga bog‘liq ravishda insonning ijobiy, samimiy va moslashuvchan sifatlarini o‘zida aks ettirdi. O‘rta daraja – shartli ravishda ijobiy tavsifga ega bo‘lib, talaba o‘z-o‘zini kashf etishda ma’lum bir qiyinchiliklarga duch keladi. Shuning uchun uning ijtimoiy-perseptiv uslubi yetarlicha namoyon bo‘lmaydi hamda talabaning erkin va mas’uliyatli tanlovi natijasini aks ettiradi. Past daraja o‘zida salbiy jihatni ifoda etadi: insonning mustaqil qaror qabul qilmasligi va o‘z-o‘ziga ishonchning pastligi bilan tavsiflanadi, bunday talaba muloqotda sust va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olmaydi.

1-jadval. Talabalarda muloqotning ijtimoiy-perseptiv uslubining rivojlanganligini baholash mezonlari

Darajalari	Ko‘rsatkichlar		
	Mazmunga doir	Yo‘naltiruvchi	Faoliyat turiga doir
Yuqori	Boshqa kishilarni idrok etish va tushunishda intellektual hamda intuitiv manbalarga tayanadi; o‘zi va boshqalarning his-tuyg‘usi va kayfiyatini to‘g‘ri baholay oladi; muloqotning pedagogik-psixologik jihatlari va o‘ziga xosliklarini tushunadi; hamkorlikdagi faoliyat va undagi o‘zining shaxsiy hissasi bo‘yicha xulq-atvori va natijani muntazam kuzatib, tahlil qilib boradi.	Insonni idrok etishda umuminsoniy qadriyatlarga tayanadi; shaxsiy tanlov uchun majburiyatni o‘z zimmasiga oladi; insoniyat yutuqlari, har bir insonning individualligini hurmat qiladi, kishilarga ishonch bildiradi; o‘zining real holatini his qiladi va o‘zi haqida qayg‘uradi.	Oddiy aloqa o‘rnatishdan chuqur muloqotga kirishishgacha turli darajadagi o‘zaro birgalikdagi harakatni muvaffaqiyatli amalga oshiradi; o‘zining xulq-atvorini modellashtiradi, hamkorlikdagi faoliyatning boshqa ishtirokchilarining nuqtayi nazarlarini inobatga olgan holda uni baholaydi va tuzatishlar kiritadi.
O‘rta	Boshqa kishilarni idrok etish va tushunishda hamma vaqt ham intellektual hamda intuitiv manbalarga tayanmaydi; o‘zi va boshqalarning his-tuyg‘usi va kayfiyatini hamma vaqt to‘g‘ri baholay olmaydi; muloqotning pedagogik-psixologik jihatlari va o‘ziga xosliklarini to‘liq tushunmaydi; hamkorlikdagi faoliyat va undagi o‘zining shaxsiy hissasi bo‘yicha xulq-atvori va natijani muntazam kuzatib, tahlil qilib bormaydi.	Insonni idrok etishda umuminsoniy qadriyatlarni yetarlicha hisobga olmaydi; shaxsiy tanlov uchun majburiyatni o‘z zimmasiga qiyinchilik bilan qabul qiladi; insoniyat yutuqlari, har bir insonning individualligini hurmat qiladi, biroq kishilarga ishonch bildirmaydi; o‘zining real holatini yetarli his qilmaydi va hamma vaqt o‘zi haqida qayg‘urmaydi.	Oddiy aloqa o‘rnatishdan chuqur muloqotga kirishishgacha turli darajadagi o‘zaro birgalikdagi harakatni yetarlicha muvaffaqiyatli amalga oshirmaydi; o‘zining xulq-atvorini modellashtirmaydi, hamkorlikdagi faoliyatning boshqa ishtirokchilarining nuqtayi nazarlarini inobatga olgan holda uni baholamaydi va o‘z vaqtida tuzatishlar kiritib bormaydi.
Past	Boshqa kishilarni idrok etish va tushunishda	Insonni idrok etishda egoistik qadriyatlarga	Turli darajadagi o‘zaro birgalikdagi harakatga

	<p>intellektual hamda intuitiv manbalarga tayanmaydi; o‘zi va boshqalarning his-tuyg‘usi hamda kayfiyatini to‘g‘ri baholashda xatolikka yo‘l qo‘yadi; muloqotning pedagogik-psixologik jihatlari va o‘ziga xosliklarini tushunmaydi; hamkorlikdagi faoliyat va undagi o‘zining shaxsiy hissi bo‘yicha holati hamda natijani muntazam kuzatib, tahlil qilib bormaydi.</p>	<p>tayanadi; shaxsiy tanlov uchun majburiyatni o‘z zimmasiga olmaydi; insoniyat yutuqlari, har bir insonning individualligini hurmat qilmaydi, kishilarga ishonch bildirmaydi; o‘zining real holatini yetarli his qilmaydi va o‘zi haqida yuzaki qayg‘uradi.</p>	<p>intilmaydi; o‘zining xulq-atvorini modellashtirmaydi, hamkorlikdagi faoliyatning boshqa ishtirokchilarining nuqtayi nazarlarini inobatga olgan holda uni baholamaydi va o‘z vaqtida tuzatishlar kiritib bormaydi.</p>
--	--	--	--

Muhokamalar va natijalar. Talabani ijtimoiy-perseptiv uslubi tavsifini aniqlash natijasida va yuqorida qayd etilgan tamoyillarga muvofiq vaziyatlar tizimlashtirildi hamda guruhlashtirildi.

Obyekt bilan bog‘liqlikda ma‘naviy hayotni idrok etish, tushunish, faoliyat va xulq-atvorni tahlil etishga doir quyidagi vaziyatlar aniqlashtirildi. Ularni uch variantdagi vaziyatlarga ajratish mumkin. Bular:

1. Idrok etish vaziyatlari. Tajriba-sinov ishlari “obyektga doir” vaziyatlar tahlilini amalga oshirishdan boshlandi. Idrok etish vaziyatlarining yaratilishi boshqa kishilar, ijtimoiy guruhlar haqida tushunchaga ega bo‘lish, kasbiy va shaxsiy sifatlarni to‘g‘ri talqin qilish va kundalik hayotda ishonarli munosabatlarni o‘rnatish maqsadida kuzatish metodlarini xolisona baholash hamda faollashtirishga yordam berdi. Bu guruh vaziyatlar boshqa bilish jarayonlari bilan ko‘plab o‘ziga xos bog‘liq bo‘lganligi sababli biz tadqiqotimiz doirasida “boshqa kishini anglash”, “o‘z-o‘zini anglash” atamalarini qo‘lladik. Bu jarayonlar muayyan vaziyatda o‘z aksini topdi. Tadqiqot doirasida “Videofokus”, “Intervyu”, “Kelishuv” kabi idrok etish vaziyatlaridan foydalanildi, ularda ijtimoiy-perseptiv muloqot uslubining mazmunga doir, yo‘naltiruvchi va faoliyatga doir jihatlari aks ettirildi va kuzatib borildi.

Masalan, “Intervyu” vaziyatining asosiy mohiyati talabalar kichik guruhlariga bo‘linib, muxbir rolini bajarishi va boshqa fakultet talabalaridan kichik intervyular olishidan iborat bo‘ldi. Buning uchun talabalarga qator ma‘naviyat bilan bog‘liq mavzular taklif etildi: “Muvaffaqiyatga erishishning 3 asosiy sharti mavjud:

- 1) boshqalardan ko‘ra ko‘proq bilish;
- 2) boshqalardan ko‘ra ko‘proq ishlash;

3) boshqalardan ko‘ra kamroq xohlash”, “Barmog‘ing bilan ko‘rsatma, o‘z yurish turishing bilan ko‘rsat”, “Yoshlik xato qilish imkonini berishi bilan emas, balki xatolarni to‘g‘rilashga ham vaqt borligi bilan afzal”, “Imkoniyatidan ortiqroq bergan sahiydir, ehtiyojidan kamroq olgan mag‘rurdir”, “Boshingga kulfat tushganda do‘stlaring qanday inson ekanini bilib olasan. Do‘stlaring boshiga kulfat tushganda esa o‘zing qanaqa inson ekaningni bilasan”, “G‘iybatchilar voqeaning bevosita guvohlaridan ham ko‘proq narsa biladigandek taassurot uyg‘otadi”, “Ba‘zi odamlar g‘am-anduh chog‘lari ovunish uchun birovning baxtsizligidan xabar topishi kerak”. Intervyu uchun mazkur mavzular mashhur bo‘lgan “Cho‘ntakdagi hikmatlar – 2” [10] kitobidan tanlab olindi.

Talabalardan respondent bilan o‘zaro muloqotda qoidalarga rioya qilish va to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga e‘tibor qaratish, iloji bo‘lsa texnik vositalardan (diktofon, videokamera) foydalanish so‘raldi. Auditoriyada intervyularni tomosha qilish va tinglash talabalarda unutilmas taassurot qoldirdi: ular tanish yuzlarni ko‘rishdi, do‘stlar, o‘qituvchilarning ovozlari eshitildi, ularning javoblari va mulohaza yuritishlaridan ba‘zan hayratlanishdi, qiziqarli fikrlarni diqqat bilan tinglashdi, avvaldan tanish kishilar haqidagi fikrlarini o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘lishdi. Mazkur vaziyatlar bilan ishlash nihoyasida yakuniy xulosalarga kelindi, ular orasidan muloqotga kirishishga qiyinchilik sezganlari yana bir marta qayta ko‘rib chiqildi: nosamimiy munosabat; imo-ishoralarning ifodaga ega emasligi; xayrixoh bo‘lmaslik; tashqi ko‘rinishiga qarab inson haqida fikr yuritish; boshqa kishining o‘ziga xosligini tushuna olishini namoyon eta olmaslik; atrofdegilar bilan munosabatining yomonlashuvi bilan bog‘liq tasavvurlar asosida kishilarni baholashga intilish.

Muhokamalar va natijalar. “Jamoaviy ijodiy ish” turidagi vaziyatlar turli mashg‘ulotlarda yaratildi, ularning asosiy mohiyati shundaki, talabalar shaxsiy imkoniyati va qobiliyatlari asosida biror bir topshiriqni bajarish uchun birlashtirildi. Talabalarga 3 yoki undan ko‘proq kishidan iborat ijodiy guruhlarni tashkil etish va ma‘lum bir topshiriqni bajarish so‘raldi. Masalan, “Shaxs psixologiyasi” tanlov fanida quyidagi topshiriq

berildi: mashhur psixologlar haqida ma'lumotlar to'plash; ulardagi asosiy g'oyalarni ajratish, ularni chizmatasviriy modellar (intellekt karta, infografika) ko'rinishida taqdim etish; shaxs psixologiyasiga doir asosiy yondashuvlarga doir psixologik hikoyalar yozish. Guruhga ijodiy ishni yaratishga qobiliyatli, kreativ talabalarning qo'shilishi taklif etildi. Talabalar tabiiy ravishda bunday guruhlariga qiyinchilik bilan birlashishdi. Biroq ish jarayonida hamma uchun umumiy bo'lgan murakkab topshiriqni bajarish jarayonida ularning qanchalik intellektual va emotsional qayg'urishganiga guvoh bo'ldik. Shu va shunga o'xshash vaziyatlarni yaratish orqali talabalarga butun guruh ishi muvaffaqiyatli yakunlanishi uchun istalgan, hatto kichik topshiriq ham vijdonan bajarilishi kerakligi uqtirildi. So'ngra psixologik holatini hisobga olib, boshqa kishini tushunish, aloqa o'rnatish uchun zarur nutqiy formulalarni egallashga doir vaziyatlar tashkil etildi: “Inson haqida o'ylar”, “Muqobillarini izlash”, “Boshqa kishini tushunish uchun qulay fursat”. Masalan, “Inson haqida o'ylar” vaziyatida talabalarga fotosuratiga qarab, kishining xarakteri, uning axloqiy sifatlarini bayon etish taklif etildi. Bunday vaziyatlarning ma'nosi oddiy – insonni tashqi qiyofasi orqali tavsif beriladi. Mazkur vaziyatlarda rolli o'yinlardan ham foydalanish mumkin: detektiv josus, mashhur yozuvchi, san'atkor va boshqalar.

2. Tushunishga doir vaziyatlari. Talabalarni tahlil etishga doir vaziyatlarga jalb etishda ularga boshqa kishilarni yaxshiroq tushunish yoki psixik faoliyatning tashqidan ichki doirasiga muloqotning ijtimoiy qulay namunalarni ko'chirib o'tkazishning yo'llari va usullarini ishlab chiqishga yo'naltirish taklif etildi. Mazkur guruhga doir quyidagi vaziyatlar taqdim etildi: “Nuqtayi nazar”, “Voqelikni bayon etish”, “Suhbatdoshni tinglash”. Taklif etilgan vaziyatlar atrof-borliq, tashqi olamga xos dalillar bilan ularni uyg'unlashtirish imkoniyati hisobiga talabalarning ichki o'ylari, qadriyatlarini, axloqiy ehtiyojlarini faollashtirish va boyitishga yo'naltirildi. “Nuqtayi nazar” vaziyatida talabalar guruh ichida sodir bo'lgan voqealar bo'yicha o'z fikrlarini bildirishdi, o'z qarashlari, turli vaqt oralig'idagi (semestr boshida, oxirida, yakuniy nazorat, norasmiy muloqot paytida va hakoza) professor-o'qituvchining xatti-harakatlarini qanday tushunishlarini namoyon etishdi. Talabalar guruhdagi turli stressli vaziyatlar, o'qituvchining “qattiq va yumshoq” talablariga munosabat bo'yicha katta qiziqish bilan o'z nuqtayi nazarlarini bayon etishdi. Mazkur vaziyatlar bundan tashqari “qayta aloqa” funksiyasini ham bajardi. O'qituvchilarning ma'naviy qo'llab-quvvatlashi, do'q-po'pisasi, talabalarni “xursand qilmaydigan” choralar, “e'tibor qilinmagan” haqorat, “xolis maslahatlar”, “guruh ichidagi g'iybatlar”ga o'z nuqtayi nazarlarini bildirishdi.

3. Tahlil etishga doir vaziyatlar. Voqeliklarni bayon etish bilan birga talabalar parallel ravishda sabab-oqibat aloqadorliklarni tahlil etishdi, istiqbolli yo'nalishlarni qayd etishdi, hayotidagi aniq voqeliklarning ahamiyati va kelgusidagi rejalari o'rtasidagi bog'liqlikni hosil qilishdi.

“Suhbatdoshni tinglash” vaziyatlari unga alohida e'tibor qaratishni talab etdi. Mazkur vaziyatlar turli fanlarni o'qitish jarayonida yaratildi, shuning uchun talabalarga suhbatdoshini tinglab, mazkur jarayonning o'ziga xosliklarini quyidagi parametrlar bo'yicha qayd etish taklif etildi: “Qanday ichki va tashqi omillar suhbat jarayonida sizni chalg'itdi?”; “Eshitganlaringiz orasidan nima sizni o'ziga jalb etdi?”; “Oraga gap qo'shmaslikni uddasidan chingdizmi?”; “Biror bir usul bilan ma'lumotga qiziqishni uyg'otishga muvaffaq bo'ldingizmi?” Mazkur vaziyatni mashg'ulotlar jarayonida amalga oshirish uchun quyidagi jihatlariga e'tibor qaratildi: guruh ikkiga ajratildi, birinchi qismi o'zi uchun qiziqarli biror bir mavzuda ma'lumot tayyorlashdi, ikkinchi guruh esa, ma'lumotlarni tinglashga jalb qilindi (juftliklarda ishlash). Keyin ular rollarni almashinishdi. Mazkur vaziyatlar nihoyasida ishtirokchilarning har biri yuqorida qayd etilgan ko'rsatkichlar bo'yicha suhbatdoshini tinglash holatiga o'z munosabatini bildirishdi. Ko'proq talabalar “Pedagogik mahorat”, “Ijtimoiy psixologiya” fanlaridagi “Pedagogik imij”, “Pedagogik takt”, “Stress: sabablari va oqibatlari” kabi mavzularni tanlashdi.

Xulosa. Demak, bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirishda ularning turli ijtimoiy vaziyatlarda o'zini tutishi, o'z-o'zini boshqarishi, ijtimoiy vaziyatlarga tug'ri munosabatda bo'lishi, vaziyatlarni obyektiv baholash hamda vaziyatlarni hal etish yo'llarini topish malakalari bilan qurollantirish kelajakda kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishga yo'naltirish yo'llaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Хуторской А.В. Практикум по дидактике и современным методикам обучения. -Питер, 2004.
2. Якиманская И.С. Личностно-ориентированное обучение в современной школе. – М.: “Сентябрь”, 2000. – 112 с.
3. Saliyeva Z.T. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: Fan doktori. diss. –T., 2017. –243 b.

4. Safarova R., Yusupova F. va b. O‘quvchilarning bilish faoliyatlarini kengaytirishga yo‘naltirilgan o‘quv vaziyatlarini loyihalashning nazariy-amaliy asoslari. –T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2012. – 118b.
5. Quronov M. Biz angelayotgan haqiqat. – T.: “Ma’naviyat”, 2008. – 152 b.
6. Avliyakov N.X., Musayeva N.N. Yangi pedagogik texnologiyalar. -T.: “Yangi asr avlodi”, 2003.
7. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: “O‘qituvchi”, 2004. – 104 b.
8. Асмолов А.Г. Психология личности: Принципы общепсихологического анализа. –М.: “Смысл”, 2001. – 416 с.
9. Игнатова В.В. Педагогические факторы духовно-творческого становления личности в образовательном процессе: Монография. – Красноярск: СибГТУ, 2000. – 272 с.
10. Ergashev P., Muxammadiyev B. Cho‘ntakdagi hikmatlar. – T.: “DAVR PRESS”, 2016. – 64 b.

Farhod MENGTO‘RAYEV

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
raqamli axborot texnologiyalari kafedrası
o‘qituvchi

Zarnigor SHARIPOVA

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi
1-kurs magistri

TA‘LIMDA KOMPYUTER DASTURIY VOSITALARINING TUTGAN O‘RNI

Hozirgi davrda hech bir sohani axborot texnologiyalarisiz, kompyuter, dasturlashtirilgan tizimlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ayniqsa, ta‘lim sohasida raqamli texnologiyalarning o‘rni alohida. Ushbu maqolada kompyuter dasturiy vositalarning imkoniyatlari, ta‘limdagi ahamiyati va qulayliklari, rivojlanish istiqbollari to‘g‘risida fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ta‘lim, axborot, axborot kommunikatsiya, kompyuter, pedagogik dasturiy vosita, multimedia, konferensiya.

В настоящее время ни одну отрасль невозможно представить без информационных технологий, компьютеров и программируемых систем. Роль цифровых технологий особенно важна в сфере образования. В данной статье рассматриваются возможности компьютерного программного обеспечения, его важность и удобство в образовании, перспективы развития.

Ключевые слова: учебная, информация, информационная коммуникация, компьютер, педагогическое программное обеспечение, мультимедиа, конференция.

At present, no industry can be imagined without information technology, computers and programmable systems. The role of digital technologies is especially important in the field of education. This article discusses the possibilities of computer software, its importance and convenience in education, development prospects.

Key words: educational, information, information communication, computer, pedagogical software, multimedia, conference.

Kirish. Jahon ta‘lim sohasidagi rivojlanish tendensiyalarini axborotlashgan jamiyatda o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini kengroq joriy etish va ularning samaradorligini yanada oshirishning dolzarbligini ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda dunyo miqyosida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining yuksak darajada rivojlanib borayotganligining guvohi bo‘lib kelmoqdamiz. Shu bois ham olimlarimiz XXI asrni axborot texnologiyalar asri deb bejiz aytishmagan.

Zamonaviy axborot texnologiyalari kun sayin barcha sohalarda rivojlanib borayotgani, jumladan, ta‘lim sohasida ham yangi axborot texnologiyalaridan keng foydalanilayotgani an‘anaviy o‘qitish usullaridan ko‘ra samarali va yuqori natijalarga olib kelayotgani buning yaqqol isbotidir. Hozirgi davrda ta‘limda innovatsion ta‘lim usullarini va dasturiy-texnik vositalarini qo‘llashga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu soha bo‘yicha 2013-2014-yillarning o‘zida bir qancha xalqaro anjumanlar o‘tkazilganki, ularda muhokama qilinayotgan masala va muammolar bu sohaning naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Misol sifatda O‘zbekistonda (oktabr), Tayvanda (avgust), Yevropa mamlakatlarida (may-iyun oylarida), AQShda (iyun) va Birlashgan Arab Amirliklarida (oktabr) o‘tkazilgan innovatsion texnologiyalarni ta‘lim jarayonida qo‘llash masalalariga bag‘ishlangan konferensiyalarni ko‘rsatishimiz mumkin.

Asosiy qism. Zamonaviy ta‘lim jarayonini tashkil etish katta kuch va salohiyat talab etadi. Pandemiya sharoiti ta‘lim tizimida raqamli texnologiyalar qo‘llanilishi yaxshi samara berishini isbotladi. Televideniya orqali berib borilgan onlayn darslarni raqamli ta‘limga o‘tishning bir debochasi sifatida qabul qilsak bo‘ladi. Bu jarayon o‘quvchiga uydan chiqmay turib ham ta‘lim olish mumkinligini isbotlab berdi. Raqamli ta‘limga o‘tishning boshqa afzalliklari to‘g‘risida fikr yuritadigan bo‘lsak, ularga quyidagilarni kiritish o‘rinlidir:

- darsliklar elektron holatda ekranlarga ko‘chadi;
- o‘quvchilar xohlagan joyida va xohlagan vaqtida ta‘lim olish imkoniga ega bo‘ladi;
- o‘quvchilar mutaxassis yetishmaydigan uzoq qishloqlarda ham fanlarni tanlash va uydan turib ta‘lim olish imkoniga ega bo‘ladi;
- internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi;
- ta‘lim tizimini yangi bosqichga ko‘taradi, vaqt va mablag‘ sarfini keskin kamaytiradi;
- “raqamli dunyo”da yo‘qolib qolmaslik va yaxshi ish topishda ustunliklarga ega bo‘ladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari oxirgi 30 yil ichida jamiyatni o‘zgartirdi. Axborot texnologiyalari vositalarining markazida turuvchisi kompyuterdir. Hozirgi kunga kelib, kompyuter savodxonligi madaniyatning muhim belgisiga aylanib ulgurdi. Kompyuterlarni ta‘lim tizimida qo‘llash g‘oyasi ancha ilgari paydo bo‘lgan bo‘lsada, ta‘lim tizimining barcha sohalarida axborot texnologiyalarini

qo‘llash, multimedia qurilmalari bilan jihozlangan kompyuterlar paydo bo‘lgach amaliyotga joriy etila boshlandi. Respublikamizda mustaqillik yillarida kadrlar tayyorlashning yangi tizimi yaratilib, mutaxassislar sifatiga quyiladigan zamonaviy talablarga javob beradigan yuqori malakali, raqobatbardosh, tanlagan ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha mustaqil ishlay oladigan, mamlakatning ilmiy-texnik, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga munosib hissa qo‘shishga qodir, jadal ilgariylayotgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sharoitiga moslasha oladigan, yuksak madaniy va ma‘naviy-axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan mutaxassislar tayyorlash izchil amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz ta‘lim tizimida kompetensiyaviy talablarga javob beradigan mustaqil va erkin fikrlaydigan, ilg‘or texnik-texnologik tajribalarni puxta o‘zlashtirgan, raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlash tizimi isloh qilinmoqda. Shu sababli bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilarida texnik fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish va rivojlantirishning amaldagi metodlari va vositalarini takomillashtirish hamda amaliyotga joriy etish borasidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Oxirgi yillarda ta‘lim tizimida zamonaviy internet texnologiyalaridan foydalanishga, xususan multimediaga asoslangan texnologiyalarga alohida e’tibor berilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur‘atlarda rivojlanishi ta‘lim tizimiga ham o‘z ta‘siri ko‘rsatibgina qolmasdan, uni tashkillashtirishning asosiy instrumentiga aylanib qolmoqda. Kun sayin hayotimizning har bir sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilib, kasbiy faoliyatimiz pedagogik dasturiy vositalar orqali o‘z samaradorligini oshirmoqda.

Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini qisman yoki to‘liq avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o‘qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o‘quv fani bo‘yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta‘minot, qo‘shimcha va yordamchi vositalar kiradi. Yuqori sifatli pedagogik dasturiy vositalar talabalarda ijodkorlikni tarbiyalash, axborotlarni qabul qilish, ularga ishlov berish, talabalar o‘zlashtirishini muntazam nazorat qilish, ta‘limning turli shakllarda olib borilishiga o‘zgartirishlar, qo‘shimchalar kiritish, ta‘lim natijasini uzluksiz tekshirib turish, talabalar faoliyatini tashhiz qilish va kelgusi mashg‘ulotlarni tashkil qilish bo‘yicha tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish, u yoki bu axborotning talabalar faoliyatida optimal takrorlash chegaralarini belgilash imkoniyatlarini oshiradi.

Pedagogik dasturiy vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin:

- o‘rgatuvchi dasturlar – talabalarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltiradi;
- test dasturlari – egallangan bilim, malaka va ko‘nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo‘llaniladi;
- mashq qildirgichlar - avval o‘zlashtirilgan o‘quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;
- o‘qituvchi ishtirokidagi virtual o‘quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar. Pedagogik dasturiy vositalar an‘anaviy o‘quv nashrlariga qo‘yilgan didaktik talablarga javob berishi kerak.

Biz quyida pedagogik dasturiy vositalarning didaktik imkoniyatlari haqida fikr yuritamiz:

1. Ta‘limda ilmiylik, fan-texnika va texnologiyalar so‘nggi yutuqlarining hisobga olinishi pedagogik dasturiy vositalar mazmunining chuqurligi va ishonchlilikini ta‘minlaydi. O‘quv materiallarini pedagogik dasturiy vositalar yordamida o‘zlashtirish jarayoni o‘qitishning zamonaviy usullari asosida amalga oshiriladi. Masalan tajriba, taqqoslash, kuzatish, abstraktlash, umumlashtirish, yaxlitlashtirish, o‘xshashlik, tahlil va sintez, modellashtirish metodi, shu bilan birga matematik modellashtirish va tizimli tahlil metodlari.

2. O‘qitishning erishuvchanlik talablari pedagogik dasturiy vositalar orqali amalga oshiriladi va ta‘lim oluvchilarning yoshi hamda individual xususiyatlariga xos o‘quv materialini o‘rganishning murakkablik va chuqurlik darajasini aniqlash zaruratini bildiradi. O‘quv materialini haddan ziyod murakkablashtirish va ortiqcha yuklash mumkin emas, aks holda ta‘lim oluvchi bu materialni egallashga ojizlik qiladi.

3. O‘qitishning muammoliligini ta‘minlanadi. Agar ta‘lim oluvchi muammoli topshiriqlar va mashqlarni bajarishga harakat qilsa, uning fikrlash faolligi ortadi. Ushbu didaktik talabning pedagogik dasturiy vositalar yordamida bajarilish darajasi, an‘anaviy darsliklar va qo‘llanmalardan ko‘ra, sezilarli ravishda yuqori bo‘ladi.

4. Pedagogik dasturiy vositalar asosida o‘qitishning ko‘rgazmaliligini ta‘minlash – ta‘lim oluvchilar tomonidan o‘rganilayotgan obyektlar, ularning maketlari yoki modellarini sezgili qabul qilish va shaxsan kuzatishini hisobga olish zaruratini bildiradi.

5. O‘qitishning ongliligi, ta‘lim oluvchining mustaqilligi va faolligini ta‘minlash talablari – o‘quv faoliyatining yakuniy maqsad va vazifalariga erishishda o‘quv axborotini jalb qilish bo‘yicha ta‘lim oluvchilarning mustaqil ishlashlari uchun pedagogik dasturiy vositalar bilan ta‘minlashni ko‘zda tutadi.

Bunda ta’lim oluvchi uchun o’quv faoliyati yo’naltirilgan maqsad va mazmuni anglatadi. Fanlar bo’yicha pedagogik dasturiy vositalar tizimli faoliyatli yondashuv asosida ishlab chiqilishi kerak.

6. Pedagogik dasturiy vositalardan foydalanishda o’qitishning tizimliliigi va ketma-ketligi – o’rganiladigan fan sohasidan bilim va ko’nikmalarning ta’lim oluvchilar tomonidan tizimli o’zlashtirilishini anglatadi. Pedagogik dasturiy vositalar tavsiya qilgan axborotlarni o’qitishning mazmuni va uslubi, ta’lim oluvchining shaxsiy qobiliyatiga bog’liq holda tanlanishi kerak, masalan, mazmunli o’yin holatlarini yaratish, amaliy tavsifdagi topshiriqlar va eksperimentlarni, haqiqiy jarayonlar va obyektlar modellarini tavsiya qilish yo’li bilan amaliy faoliyatga bog’lashni ta’minlash.

7. Pedagogik dasturiy vositalardan foydalanishda bilimlarni mustahkam o’zlashtirish – talabalarning o’quv materialini mustahkam o’zlashtirishlari uchun, ularning chuqur fikrlash, xotirada saqlash kabi qobiliyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

8. Pedagogik dasturiy vositalarda o’qitishning rivojlantiruvchi va tarbiyaviy funksiyalari bajarilishi ta’lim vazifasidagi an’anaviyligiga zamin yaratadi. Ta’limni kompyuterlashtirish ikki yo’nalishda davom etmoqda: kompyuter savodxonligini ta’minlash va kompyuterdan o’quv fanlarini o’qitishda foydalanish. Birinchi yo’nalish bo’yicha ma’lum natijalarga erishilganligini qayd etgan holda, ikkinchi yo’nalish bo’yicha amalga oshirilgan ishlarning qoniqarsiz ekanligini aytib o’tish joiz: amaliyotda o’rgatuvchi dasturlar deyarli yo’q; pedagogik dasturiy vositalarni yaratishga mutaxassis olimlar keng jalb qilinmagan; dastur vositalari va ulardan foydalanish texnologiyasidan maktab o’qituvchilari deyarli xabardor emas; pedagogik dasturiy vositani yaratish texnologiyasining o’zi haligacha psixologik, pedagogik, didaktik, uslubiy jihatdan mukammal tadqiq qilinmagan, ilmiy asoslanmagan, talabalarning real bilish imkoniyatlariga moslashtirilmagan. Shunday ekan, ikkinchi yo’nalishga e’tiborni sezilarli darajada kuchaytirish zamon talabiga javob bera oladigan pedagogik dasturiy vositalarni yaratish vaqti yetib keldi.

Muhokamalar va natijalar. Pedagogik dasturiy vositalarni qo’llash asosida o’quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko’nikma va malakalarini shakllantirishda o’quvchilarning funksional va psixofiziologik imkoniyatlari inobatga olinishi shart. Pedagoglarning pedagogik dasturiy vositalar asosida imkon qadar ko’proq ma’lumotlarni yoritishga intilishi o’quvchini ortiqcha toliqtirishga olib kelishi mumkin. O’z navbatida ma’lumotlarni uzatish tezligini oshirish esa ma’lumotlarni o’zlashtirish sifatining pasayishiga, xatoliklar sonining ortib borishiga, o’quvchining o’zini his qilishi va sog’ligiga salbiy ta’sir qiladi. Bugungi “Axborot asri” yoshlarning kompyuter savodxonligini oshiribgina qolmay, balki grafik ma’lumotlar bilan ishlash imkoniyatlarini amalga oshiradi. Ta’limda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilishi:

- fan sohalarni axborotlashtirishni;
- o’quv faoliyatni intellektuallashtirishni;
- integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni;
- ta’lim tizimi infratuzilmasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keladi.

Pedagogik ta’lim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish:

- masofaviy o’quv kurslarini va elektron adabiyotlarni yaratuvchi jamoaga pedagoglar, kompyuter dasturchilar, tegishli mutaxassislarning birlashuvini;
- pedagoglar o’rtasida vazifalarning taqsimlanishini;
- ta’lim jarayonini tashkil qilishni takomillashtirish va pedagogik faoliyatning samaradorligini monitoring etishni taqozo etadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’lim jarayonlariga joriy etilishi:

- talabaga kasbiy bilimlarni egallashiga;
- o’rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqur o’zlashtirilishiga;
- o’quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi hisobiga talabaning mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga;
- interaktiv muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o’qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyalashtirishga;
- sun’iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabaning o’quv materiallarini o’zlashtirish strategiyasini egallashiga;
- axborot jamiyati a’zosi sifatida unda axborot madaniyatining shakllanishiga;
- o’rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, talabalarda fan asoslariga qiziqishni va faollikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Hozirgi davrda barcha boshqa sohalar qatorida ta’lim tizimida ham turli fanlarni o’qitishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlarini joriy etish dolzarb masala hisoblanadi. Kompyuterning katta imkoniyatlari borligini unutmash kerak. Agar ilmiy asoslangan pedagogik dasturiy vositalarni tayyorlash yo’llari atroflicha tadqiq qilinsa, ta’lim subyektlari kompyuter bilan muloqot qilish

madaniyatini to‘liq o‘rgansa, yoshlarning ta‘lim-tarbiyasida ulkan yutuqlarga erishiladi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari nafaqat talabalarda bilim va malakalarini shakllantirishga, balki ularning shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish, bilishga oid qiziqishlarini oshirishga ham xizmat qiladi. Keyingi davrlarda ko‘plab psixologik va ilg‘or pedagogik sohalarda chop etilayotgan maqolalarda, axborot kommunikatsiya texnologiyalari talabalarlarning bilimi, ijodiy tafakkurini rivojlantirishi haqidagi fikrlar ta‘kidlanayotganining guvohi bo‘lmoqdamiz. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish ta‘lim jarayonida beriladigan axborotlar doirasini boyitish va talabalar tomonidan qiziqish bilan o‘zlashtirilishiga yordam beradi. Ta‘lim jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi bilan zamonaviy axborot muhitiga xos bo‘lgan ta‘limga yangicha yondashuv shakllana boshladi. Ta‘limda kompyuter texnologiyasini qo‘llash ta‘lim sifatining yanada o‘sishiga, zamonaviy ta‘lim turlarining keskin rivojlanishiga, xalqning savodxonlik darajasining ortishiga va asosiysi davlatning yanada taraqqiy topishiga katta hissa qo‘shadi.

Adabiyotlar

1. Ayupov R.H. Toshkent davlat pedagogika universiteti fizika-matematika fakulteti “Informatika va uni o‘qitish metodikasi kafedrasida ta‘limda axborot texnologiyalari fani bo‘yicha Magistratura o‘quv dasturi asosidagi ma‘ruza matnlari.
2. Pozilova Sh.X. 5350400 - akt sohasida kasb ta‘limi bakalavr talabalari uchun pedagogik dasturiy vositalar fanidan ma‘ruza mashg‘ulotlari bo‘yicha o‘quv qo‘llanma.
3. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta‘limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. -T.: “Fan”, 2007.
4. Qodirov B.G‘., Begimqulov U.Sh., Abduqodirov A.A. Axborot texnologiyalari. Elektron darslik. 2002.
5. Гейн А.Г. Изучение информационного моделирования как средство реализации межпредметных связей информатики с дисциплинами естественно-научного цикла: Автореф. .канд.пед.наук. - М., 2000.
6. Хамидов В.С. Методы и модели веб ориентированных адаптивных обучающих систем/ LAP LAMBERT Academic Publishing. -Germany. 228 стр.
7. Ishmammedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida o‘qitish samaradorligini oshirish yo‘llari. –Toshkent, 2000.
8. <http://ziyonet.uz> - O‘zbekiston Respublikasi axborot-ta‘lim portal.
9. <http://pedagog.tdpu.uz> - Respublika pedagogika ta‘lim muassasalari portal.

Murod XUSENOV

Buxoro davlat universiteti
axborot texnologiyalar kafedrası
o‘qituvchisi

Lobar SHARIPOVA

Buxoro davlat universiteti
umumiy va noorganik kimyo kafedrası
o‘qituvchisi

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA MASOFAYIV TA'LIMNI JORIV QILISH

Masofaviy ta'lim internetning paydo bo'lishi bilan mashhur bo'lib, uzoq aholi punktlari aholisi va ishbilarmon kishilar uchun jadal ish jadvali bilan yangi rivojlanish imkoniyatlarini ochib berdi. Dastlab masofaviy ta'lim faqat bilim olish yoki imtihonlarga tayyorgarlik ko'rishning qo'shimcha usuli sifatida qabul qilindi. Endi siz sayyoramizning istalgan nuqtasida turli mamlakatlardan nufuzli universitetlar, tijorat va notijorat kompaniyalaridan to'liq masofaviy kurslar va malaka oshirish dasturlarini olishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, pedagogik texnologiya, elektron ta'lim, o'quv kurslar, o'quv obyekt.

Дистанционное обучение стало популярным с появлением интернета, открыв новые возможности развития для жителей удаленных населенных пунктов и деловых людей с плотным рабочим графиком. Вначале дистанционное обучение воспринималось лишь как дополнительный способ приобретения знаний или подготовки к экзаменам. Сейчас можно пройти полноценные дистанционные курсы и программы повышения квалификации от престижных университетов, коммерческих и некоммерческих компаний из разных стран, находясь в любой точке планеты.

Ключевые слова: дистанционное обучение, педагогические технологии, электронное обучение, учебные курсы, учебная программа.

Distance learning has become popular with the advent of the Internet, opening up new development opportunities for residents of remote localities and business people with busy work schedules. In the beginning, distance learning was perceived only as an additional way to acquire knowledge or prepare for exams. Now you can take full-fledged distance courses and advanced training programs from prestigious universities, commercial and non-profit companies from different countries, from anywhere in the world.

Key words: distance education, pedagogical technology, electronic education, training courses, educational program.

Kirish. Hozirgi davrda mehnat bozorining rivojlanishida nafaqat professional ta'lim, balki Oliy ta'lim muassasalari tomonidan tayyorlanayotgan malakali kadrlarning roli katta hisoblanadi. Mamlakatning rivojlanishi uchun hamda ilg'or mamlakatlar safiga ko'tarilishi uchun barcha sohalar kabi ta'lim tizimini ham innovatsiyalashtirish lozimligini ta'kidlab o'tish mumkin.

Asosiy qism. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga asosan ko'pgina oliy ta'lim muassasalarida 2022/2023-o'quv yilidan boshlab akademik va tashkiliy-boshqaruv sohalarini bo'yicha mustaqillik taqdim etildi. Ushbu qaror oliy ta'lim muassasalariga akademik mustaqillik sohasi bo'yicha ko'pgina vakolatlarni ham berdi. Ya'ni, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llay oladigan va ilmiy izlanish olib boradigan mahalliy hamda xorijiy professor-o'qituvchi va mutaxassislarni shartnoma asosida jalb qilish, oliy ta'limning magistratura bosqichida ta'limning kechki, sirtqi hamda masofaviy shakllarini tatbiq qilish, xorijiy davlatlarning tajribasidan kelib chiqqan holda boshqa davlat fuqarolarini masofaviy ta'lim olish shaklida to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish kabi vakolatlarni berdi [1].

Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, hozirgi kunda ta'lim sohasini rivojlantirish hamda tubdan takomillashtirish davr talabiga aylangan. Ta'lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida ko'pgina qonun va qarorlar qabul qilinmoqda. Shu jumladan, 2020-yil 23-sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan. Mazkur qonunning 16-moddasiga ko'ra, masofaviy ta'lim o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan. Masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi [2].

Demak, oliy ta'lim muassasalari masofaviy, ya'ni elektron ta'limni joriy qilish davr talabi hisoblanadi. Masofaviy (elektron ta'lim) o'zi nima? – degan savol paydo bo'ladi.

Elektron ta'lim – bu informatsion va kommunikatsion texnologiyalar - shaxsiy kompyuterlar, smartfonlar va planshetlar, elektron pochta, internet, video konferensiya va multimedia o'quv qo'llanmalariga asoslangan uzoqdan turib o'qitish, o'rgatish orqali bilimlarni elektron shaklda olish. Bu audioyozuvlarni tinglash, Youtube, Vimeo video darslarini tomosha qilish yoki elektron o'quv kurslari

platformalaridagi kurslarda qatnashish demakdir. Elektron ta’limning elektron o’quv kurslari shakli ayniqsa mashhur, chunki ular soha mutaxassislari tomonidan foydalanuvchilarga bilimlarni qulay va foydalanish mumkin bo’lgan shaklda berish imkonini beradi. Har qanday masofaviy ta’lim uchta komponentdan iborat bo’ladi:

- o’quv vositasi;
- o’quv obyekti;
- masofaviy ta’lim tizimi.

Masofaviy ta’limning o’quv vositasiga kompyuter, planshet hamda smartfonlar kiradi. O’quv vositalardan planshet hamda smartfonlardan foydalanish qulay, chunki istalgan vaqtda va istalgan joyda kurslarni o’qish imkonini beradi.

Masofaviy ta’limning o’quv obyekti - bu turli shakldagi kontentlardan iborat bo’lgan kurslar hisoblanadi. Kontentga slayd kurslari, testlar, skrinkastlar, vebinarlar, video kurslar, VR simulyatorlarni misol qilib olsa bo’ladi.

Masofaviy ta’limni joriy qilish uchun masofaviy ta’lim tizimlari (LMS-Learning Management System)dan foydalaniladi. Masofaviy ta’lim tizimi bu muassasada elektron ta’limni tashkil qilish imkonini beruvchi tizim.

Masofaviy ta’limning kelajakdagi imkoniyatlari bevosita yangi texnologiyalarning rivojlanishiga bog’liq. eLearning Industry tadqiqotiga ko’ra, masofaviy ta’limning yangi bosqichga kirishi uchun asosiy e’tiborni talabalarning individual o’rganishi va materialni idrok etishiga qaratilishi kerak. Turli xil ta’limiy o’yinlar talabani o’rganishga jalb qilishga yordam beradi, chunki ular diqqatni jamlaydi va ma’lumotni idrok etishni yaxshilaydigan raqobatdosh elementlarni yaratadi.

Muhokamalar va natijalar. Hozirda ko’pgina xorijiy ta’lim muassasalari masofaviy ta’lim orqali bakalavr va magistrnlarni tayyorlab kelmoqda. Ma’lumki, masofaviy ta’limning o’ziga xos afzalliklari mavjud:

- talabalarining ishdan ajralmagan holda ta’lim olish imkoniyatini beradi;
- zarurat bo’lmaganda ta’lim muassasasiga borishning hojati yo’q, bu esa ayrim xarajatlarni tejash imkonini beradi;
- ta’lim muassasasiga borolmaydigan nogironligi bo’lgan talabalar ham o’qib diplom olish imkoniga ega bo’ladilar;
- talabalarining o’qishga bo’lgan munosabatlar darajasini oshiradi, ular o’z bilimlarining natijasi uchun mas’uliyatni his qila boshlaydilar, vaqt va kuchlarni oqilona taqsimlashni o’rganadilar;
- universitet uchun masofaviy ta’lim ko’proq talabalarni qamrab olishga imkon beradi, ya’ni maqsadli auditoriyani oshiradi.

Universitetda masofaviy ta’limni joriy etish katta moddiy xarajatlar bilan bog’liq: texnik jihozlar, dasturiy ta’minot va texnik vositalar bundan tashqari maxsus kadrlarni tayyorlashdan iborat. Masofaviy ta’limni tashkil etish maqsadida universitetda bir vaqning o’zida 10000 foydalanuvchi foydalanish imkonini beruvchi yuqori parametrlil zamonaviy Server kompyuterlari sotib olingan, hamda xorijiy tajribalarni o’rganilgan holda ikkita serverga <http://moodle.buxdu.uz> va <http://dist.buxdu.uz> tizimlari o’rnatilgan. <http://moodle.buxdu.uz> tizimi faqatgina professor o’qituvchilarning o’quv kurslarini yaratish uchun mo’ljallangan. <http://dist.buxdu.uz> esa talabalar tomonidan o’rganiladigan tayyor kurslar joriy qilingan. Bunday tashkil qilingan masofaviy ta’limning afzalligi shundan iboratki, masofaviy ta’lim tizimlaridan foydalanilganda, yuqori tezlikda ishlashni ta’minlaydi, hamda ko’pgina kurs tinglovchilarining bir vaqning o’zida kirish imkonini beradi.

Masofaviy o’qitish har bir ta’limning o’z rivojlanishi yo’lidagi yangi kommunikatsion va informatsion texnologiyalarga tayangan holda hamma formalari qonunlashtirilgan o’qitishni amalga oshirishdir. Shuning uchun hozirda masofaviy ta’lim formasi “XXI asr ta’limi” bo’lib kelmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki – masofaviy ta’lim bugungi kunda nafaqat o’quv maskanlari uchun zarur, balki bugungi kundagi globalizasilash jarayonida katta-katta korxonalar, muassasalarga o’zlariga mutaxassislarni tayyorlashda, ularni qayta tayyorlashda, ularning bilim darajasini va ko’nikmalarini yuqori darajada ushlab turishda muhim o’rin egallaydi. Masofaviy ta’limni qo’llagan holda aholining umumiy bilim darajasini va bilimning sifatini oshirish imkoni mavjud. Aholining barcha qatlamlarini bilim olishdagi ixtiyoriy talablarini qondirish mumkin bo’ladi. Bilimlarni o’z vaqtida keng aholiga tarqatish imkoni mavjud. Yagona ta’lim muhitini yaratib unda barcha bilimlarni mujassamlashtirish imkoni mavjud.

Masofadan ta’lim berish usulida talaba va professor – o’qituvchi bir-biridan masofa bilan ajralgan bo’lsa ham doimiy muloqot saqlanib qoladi. Bu o’qitishning nazorat qilishning alohida usuli bo’ladigan elektron pochta va internet texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. <https://lex.uz/docs/5793251>
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni <https://lex.uz/docs/5013007>
3. Анисимов А.М. Работа в системе дистанционного обучения Moodle. Учебное пособие. 2-е изд. испр. и дополн. –Харьков, ХНАГХ, 2009.
4. Андреев А.В., Андреева С.В, Доценко И.Б. Практика электронного обучения с использованием Moodle Издательство: ТТИ ЮФУ, 2008.
5. Xusenov M.Z., Jo‘rayev Q.I. Buxoro davlat universitetida masofaviy o‘qitish tizimlarini joriy qilish va qo‘lash samaradorligini oshirish Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yiliga bag‘ishlangan Magistrantlar va iqtidorli talabalarning “Tafakkur va talqin” ilmiy maqolalar to‘plami. –Buxoro, 2020. 37-40b.
6. Xusenov M.Z., Sharipova L. Yuksak ma’naviyatli yoshlar jamiyatning tayanchidir “Polish science journal” international science journal warsaw, poland Wydawnictwo Naukowe “iScience” 2020, B 177-181.
7. Sharipova L. Kimyo fanini o‘qitish jarayonida ekologik tarbiya. Pedagogik mahorat 2 (78) 2021.
8. Хусенов М., Шарипова Л. Цифровизация образования: проблемы и перспективы. Вестник интегративной психологии. 2021 Выпуск 22

Shirinboy OLIMOV

Buxoro davlat universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori

Yulduz SAIDOVA

Buxoro davlat universitetining
Pedagogika instituti magistri

TALABALARNI MA’NAVIY TARBIYALASH – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalarini ma’naviy tarbiyalash pedagogik muammo sifatida tavsiflanib, ma’naviyat tushunchasiga falsafiy, pedagogik, psixologik yondashuv asosida ta’rif berilgan. Shuningdek, talabalarni ma’naviy tarbiyalashning maqsad va vazifalari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: ta’lim, tarbiya, ma’naviyat, falsafiy, pedagogik, psixologik talqin, iqtidor, salohiyat, jamiyat ravnaqi, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, talaba.

В данной статье духовное воспитание студентов высших учебных заведений рассматривается как педагогическая проблема, основанная на философско-педагогическом, психологическом подходе к понятию духовности. Цели и задачи духовного воспитания школьников анализируются также с научно-педагогической точки зрения.

Ключевые слова: образование, воспитание, духовность, философское, педагогическое, психологическое толкование, талант, потенциал, социальное развитие, духовно-просветительская работа, ученик.

This article describes the spiritual education of students of higher education institutions as a pedagogical problem, based on a philosophical, pedagogical, psychological approach to the concept of spirituality. The goals and objectives of the spiritual education of students are also analyzed from a scientific and pedagogical point of view.

Key words: education, upbringing, spirituality, philosophical, pedagogical, psychological interpretation, talent, potential, social development, spiritual-enlightenment work, student.

Kirish. Mamlakatimizda bugungi kunda ta’lim tizimini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilib, yoshlarimizning jahon andazalariga mos sharoitlarda bilim olishini, jismoniy va ma’naviy jihatdan yetuk insonlar bo’lib ulg’ayishini ta’minlash, qobiliyat va iqtidorini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, qalbida ona-yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg’ularini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar zamirida ezgu maqsadlar mujassamlangan. Bu ezgu maqsadlarni amalga oshirishda ta’lim muassasalarining o’rni beqiyosdir. Demak, o’sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash zarur hodisa sanaladi. Chunki talaba-yoshlar chuqur nazariy va amaliy bilimlar hamda kasbiy ko’nikma va malakalarga ega bo’lishi bilan birga ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalar va muammolarni, vaziyatlarni baholashi, umuminsoniy fazilatlariga ega bo’lishi, o’z millati va vatanini sevishi, u bilan faxrlanishi, milliy urf-odatlar va qadriyatlarini hurmat qilishi, ma’naviy, ruhiy, jismoniy jihatdan sog’lom va barkamol, ma’naviy, axloqiy, siyosiy, ekologik madaniyati, fuqarolik burch va mas’uliyatini shakllantirish ma’naviy tarbiyaning asosini tashkil etadi.

Asosiy qism. O’zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan ta’lim sohasidagi islohotlar ta’lim muassasalarida olib borilayotgan tarbiyaviy, ma’naviy-ma’rifiy hamda targ’ibot-tashviqot ishlarining maqsad va vazifalarini belgilash hamda shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini yaratdi. Jamiyat hayotida mustaqillik mafkurasining shakllanayotganligi, yosh avlodning umuminsoniy qadriyatlar va eng yaxshi an’analar asosida tarbiya topayotganligi hamda mutafakkirlarning jahon madaniyati va ilm-faniga qo’shgan hissalarini haqidagi bilimlarning kengayayotganligi fikrimizning yorqin dalilidir.

Talabalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalasi murakkab va ko’p qirrali bo’lib, o’z mohiyati bilan nazariy va amaliy yondashishni taqozo qiladi. Buning uchun “ma’naviyat” tushunchasining mohiyatini chuqurroq anglashimiz va aniqlashimiz lozim.

Ma’lumki, ma’naviyat har tomonlama barkamol insonni tarbiyalaydi. Shuningdek, yoshlarni haqiqiy vatanparvar bo’lishi, ona-Vatanga cheksiz mehr-muhabbatni qaror toptirish, O’zbekistonning buyuk kelajagini yaratishda eng olijanob ishlarda faol qatnashishga undaydi. “Ma’naviyat (arabcha “ma’naviyat” – ma’nolar majmui) – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui. Ma’naviyat mafkura, tafakkur tushunchalariga yaqin va ular bir-birlarini taqozo etadilar” [5, 144].

Ta’rifga ko’ra, ma’naviyat insonning falsafiy-huquqiy, diniy-axloqiy tasavvurlarini aks ettiruvchi ma’naviy manba hisoblanadi, shunga asosan u kishilarni bir-birlariga yaqinlashtiradigan va ularni hamjihatlikka erishishga yordam beradigan, hamkorlikning yangi qirralarini ochadigan boylikdir.

Ma'naviyat tariximiz, qadriyatlarimiz asosini tashkil etib, u yoshlarni madaniy boylklarga hurmat-e'tibor va ularni yanada rivojlantirish, kelajakda iqtisodiy taraqqiyoti kuchli mamlakatni qurishga undab, zamonaviy bilimlarni, yuksak tajribalarni egallashga chorlaydi. Ma'naviyat so'zining o'zagi – ma'nodir. U “ma'ni” deb ham ishlatiladi. Dunyodan ma'no izlagan kishi ma'naviyat sari talpinadi. Ma'naviyat yuksalib borsa, jamiyat ravnaq topa boradi va aksincha, ma'naviyat qashshoqlansa, jamiyat bora bora tanazzulga yuz tutadi. Ma'naviyatsiz buyuk davlat qurib bo'lmaydi. Ma'naviyat jamiyat va millat ravnaqining muhim omilidir va poydevoridir. Demak, ma'naviyat nihoyatda keng tushuncha bo'lib, ma'rifat, madaniyat, axloq, san'at, adabiyot kabilarni o'zida mujassam etadi. Mustaqil O'zbekistonda ma'naviyat masalalariga kuchli e'tibor berilishining boisi ham ana shunda deb o'ylaymiz [7, 44].

Vatanimiz mustaqilligidan keyin milliy ma'naviyat davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Istiqloq va ma'naviyat bir-biriga bog'liq bo'lib qoldi. Mamlakatimizda davlat - bosh islohotchi sifatida fuqarolar kuchiga tayangan holda jiddiy o'zgarishlarni amalga oshira boshladi. Shu bois ham milliy siyosatimizda ma'naviyat - barkamol insonlarni shakllantiruvchi muhim omil deb qaralmoqda. Jamiyatda kechayotgan islohotlarda, o'zgarishlarda ma'naviyat muhim o'rin tutadi.

Ma'naviyatning mohiyati shu qadar chuqur, shu qadar cheksizki, uni o'lchab ham, poyoniga yetib ham bo'lmaydi. Ma'naviy kamolot va jamiyat ehtiyojining o'zaro bog'liqligini ta'minlashga ham ma'naviyat katta ta'sir qiladi. Agar jamiyatda ma'naviyatga ehtiyoj bo'lmasa, u hech qachon paydo ham bo'lmaydi. Ehtiyojning o'zi ham ma'naviyat darajasi bilan belgilanadi. Ma'naviy kamolotga intilish insonning mohiyati bilan belgilangan fazilatdir. Ma'naviyatning rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Milliy ma'naviyat bilan umuminsoniy ma'naviyat bir-biridan ajralmasdir. Har ikkalasi ham insonni, millatni kamolotga yetkazadi, jamiyatni taraqqiy ettiradi.

Inson ma'naviyati jamiyat, davlat va millat ma'naviyati bilan uzviy aloqadordir. Inson va jamiyat ma'naviyati mohiyati jihatdan yaqin bo'lib, bir-birini o'zaro boyitadi va to'ldiradi. Inson ma'naviyati millat, davlat va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismidir. Insonning ma'naviyati, shaxsning ma'naviy kamoloti jamiyatda mavjud bo'lgan ko'p qirrali munosabatlar, shart-sharoit va imkoniyatlar asosida shakllanadi va amalga oshadi. Millat, davlat va jamiyat madaniy-ma'naviy taraqqiyoti esa inson ma'naviy kamolotiga asos bo'ladi.

A.Ibrohimov va N.Jo'rayevlarning ta'kidlashicha, “Ma'naviyat -jamiyatning, millatning va ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha. Ma'naviyat inson va jamiyat madaniyatining negizi, inson va jamiyat hayoti ma'lum yo'nalishining bosh omilidir. U muayyan iqtisodiy-ijtimoiy hayot tizimining shakllanishi, o'zgarishi yoki inqirozga yuz tutishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi” [6, 46].

Faylasuf olim E.Yusupov “Ma'naviyat – inson axloqi va odobi, bilimi, iste'dodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e'tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarining bir-biri bilan uzviy bog'langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan mushtarak tizimdir”, - deb ta'rif beradi va ma'naviyat mohiyatini belgilovchi to'rt tarkibiy qismni: axloq-odob; bilim, ilm va amaliy malakalar, iste'dod, qobiliyat; axloqiy, ilmiy yetuklikning natijasi bo'lgan iymon, e'tiqod, vijdon, insof, ixlos; inson bilimlari, amaliy tajribasini umumlashtirishga, faoliyatiga yo'nalish berishga qaratilgan dunyoqarash va mafkuradir deb ko'rsatadi [9, 34].

Shuningdek, J.Tulenov va Z.G'afurovlar ham mustaqillik yaratib bergan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy shart-sharoitlar hamda umumbashariy qadriyatlar negizida ma'naviyatning yuksalib borishiga yaratilgan imkoniyatlar xususida fikr yuritadilar [8, 22].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib ma'naviyat tushunchasiga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin: ma'naviyat – bu insonning bilimliligi, vatanparvarlik tuyg'usiga egaligi, xulq-odob me'yorlari, mehnatsevarlik xislatlari mujassamlashgan hamda ezgulikni namoyon etuvchi botiniy tuyg'ular majmuidir, - degan xulosaga kelish mumkin. Chunki ma'naviyat insonni kamolotga yetkazuvchi eng noyob sifatlar va fazilatlar bo'lib, ana shu fazilatlar shakllangan barkamol inson jamiyat taqdirida muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokamalar va natijalar. Ma'naviyat – bu talabning iqtidori, qobiliyati, ijodkorlik, intellektual salohiyatini ro'yobga chiqaruvchi, huquqiy, jismoniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalaydigan, sog'lom fikrli, mustaqil, erkin, yetuk, e'tiqodli mutaxassis, hayotiy ko'nikma va malakani shakllantiradigan bilimlar va ijobiy sifatlar majmuidir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, inson ma'naviyatining asosini axloqiy tarbiya tashkil etadi. Vatanparvarlik, millatparvarlik, milliy iftixor tuyg'ulari, ona tiliga hurmat, tabiatni muhofaza etish, har qanday sharoitda ona-yurt ma'naviyatini, davlatimiz mustaqilligini qo'llab-quvvatlash, sharqona urf-odatlarimizga, qonunlarimizga, milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan qarash kabilar axloqiy tarbiyaga bog'liqdir.

Darhaqiqat, bugungi O'zbekistonda ma'naviyat va ma'rifat masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan mustahkam o'rin olmoqda. O'zbekiston Respublikasida ma'naviyatga bo'lgan talab va

ehtiyojning kun sayin o‘shib borishining asosiy sababi kelajagi buyuk davlatning barkamol insonlarini voyaga yetkazish, ularni ma’naviy tarbiyalashdir. Albatta, ularning negizida axloqiy idrok muhim o‘rin tutadi. Chunki, axloqiylik insonning doimiy izlanishida namoyon bo‘lib, fikri-zikri, xulq-atvoridagi kamchiliklarni bartaraf etishda takomillashib boradi. U insonning kundalik axloqiy holati bilan kelajakdagi yetuklik, ehtiyojlarini bir-biriga bog‘lovchi zanjiridir. Inson hayoti oqimining mohiyati shundaki, u doimo murakkablashib boradi. Bu esa insondan doimo axloqiy tasavvurlarini rivojlantirishni taqozo qiladi. Bu esa o‘z navbatida ma’naviyatning yuksalishidir. Shu o‘rinda e’tirof etish joizki, shaxs ma’naviyatini rivojlantirish, barkamol insonni voyaga yetkazishda ularning ma’naviy-axloqiy shakllanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, ma’naviy-axloqiy ruhda tarbiyalangan shaxs xalqimizning madaniyatini yuksaltirishda, milliy ongini uyg‘otishda, mamlakat ravnaqiga o‘z hissasini qo‘shib, millat va ona-Vatan oldidagi burch, mas’uliyatni teranroq anglashga harakat qiladi. Ya’ni, ma’naviy-axloqiy yetuklik shaxsdagi bunyodkorlik g‘oyalari yuqori darajada bo‘lishini ta’minlaydigan va komillikka yetaklaydigan aniq maqsaddir.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya ildizlari ta’lim-tarbiyaning qadimgi davrlariga borib taqaladi. Sharq mutafakkirlari aqliy salohiyat, ichki va tashqi mukammallik, benazir xulq-atvor va jismoniy yetuklik ma’naviy-axloqiy shakllanganlikning mezoni sifatida qaraydilar va o‘zlarining ilmiy ta’limotida, ta’limiy-axloqiy asarlarida, uning mazmuni, shakl va metodlari, vositalarini ifodalaydilar. Mutafakkirlarning insonni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash haqidagi ilmiy-amaliy tavsiyalaridan bugungi kunda ham barkamol inson tarbiyasida keng foydalanish mumkin.

Xulosa. Shaxs ma’naviyatini rivojlantirishda ham, barkamol insonni voyaga yetkazishda ham ularni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Chunki, ma’naviy-axloqiy tarbiyalangan shaxs xalqimizning madaniyatini yuksaltirishda, milliy ongini uyg‘otishda, mamlakat ravnaqiga o‘z hissasini qo‘shib, millat va ona-Vatan oldidagi burch va mas’uliyatni anglaydi. Ya’ni, ma’naviy-axloqiy tarbiya shaxsdagi bunyodkorlik g‘oyalari yuqori darajada bo‘lishini ta’minlaydigan va yetuklikka, komillikka yetaklaydigan, aniq maqsadni o‘zida mujassam etgan jarayondir.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-son Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4307-son Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son Qarori.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. -T.: “Ma’naviyat”, 2008. -176 b.
5. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug‘at. Ikkinchi nashri.-T.: “Sharq”, 2000. -320 b.
6. Ibrohimov A., Sultonov X, Jo‘rayev N. Vatan tuyg‘usi -T.: “O‘zbekiston”, 1996. -396 b.
7. Olimov Sh.Sh. Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari (Monografiya). – T.: “Fan va texnologiya”, 2015. -228 b.
8. Tulenov J., Qodirov B., G‘afurov Z. Ma’naviy yuksalish sari. -T.: “Mehnat”, 2000. -192 b.
9. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. -T.: “Universitet”, 1998. -184 b.

Maysara AXMEDOVA

Urganch davlat universiteti
pedagogika nazariyasi va tarixi
(faoliyat turi bo'yicha) 1-bosqich magistri

“AL-JOMI' AS- SAHIH” ASARINING YOSHLAR TA'LIM -TARBIYASIDAGI O'RNI VA UNING JAHON TILLARIGA TARJIMALARI

Ushbu maqolada Imom al-Buxoriyning ilmiy ma'naviy merosi, mashhur “Al-Jomi' as-Sahih” asarining jahon tillariga tarjimalari hamda hadisshunos olimlarning bu yo'nalishdagi tadqiqotlari haqidagi ma'lumotlar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, Qur'oni Karim, qo'lyozma, hadis, alloma, shogird, tarjima, jild, pokiza qalb, musnid, muhaddis, hofiz.

В данной статье содержится информация о научном и духовном наследии Имама ал-Бухари, также подробно проанализированы хадисы, где раскрывается суть воспитания подрастающего поколения и об роли молодёжи в построении социально просвещающего общества.

Ключевые слова: Центральная Азия, Священный Коран, рукопись, хадис, воспитание, образование молодого поколения, процветающее общество.

This article contains information about the scientific and spiritual heritage of Imam al-Bukhari, the translation of the famous work “Al-Jami ‘as-Sahih” into world languages.

Keywords: Central Asia, Holy Quran, Manuscript, Hadith, Scholar, Disciple, Translation, Volume, Pure Heart, Musnid, Muhaddith, Hofiz.

Kirish. Bugungi dunyo yoshlari insoniyat tarixining son jihatdan eng yirik avlodidir. Chunki, ular qariyb ikki milliard kishini tashkil etmoqda. Bu esa sayyoramizning ertangi kuni, faravonligi, yurtimizning jahon miqyosidagi o'rni va nufuzi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolatga yetishi bilan bog'liq. Shu boisdan ham o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi har qachongidan ham muhim masala bo'lib qolmoqda. Oilaviy munosabatlarga nisbatan yengil qarash kayfiyati bilan birgalikda faqat o'z manfaatini o'ylash va bu yo'lda insoniylikka xos bo'lmagan ko'plab illatlarning turli yo'llar bilan aholi, ayniqsa, hali oq-qorani farqlay olmaydigan yoshlar ongiga singdirilishi bizni yanada ogoh bo'lishga, o'zida o'tmish va bugunni aks ettiruvchi milliy tarbiyaning mazmum-mohiyatini o'quvchi-yoshlar ongiga to'g'ri yetkazib berish kabi kechiktirib bo'lmaydigan bir qator ustuvor vazifalarni yuzaga keltirmoqda. Shu ma'noda, bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olishga ulgiran va ayni kunda xalqimizning umummilliy harakatiga aylanib borayotgan “Yangi O'zbekiston” g'oyasining ham tub mohiyatini aynan barkamol avlod, komil inson tarbiyasi tashkil etadi. Yosh avlodni har tamonlama komil inson qilib tarbiyalashda islom dini, ulug' ajdodlarmizning boy milliy-ma'naviy merosi, umuman olganda, milliy tariximizda birinchi va ikkinchi uyg'onish davrlariga asos solgan buyuk allomalarimizning ilmiy va falsafiy qarashlari asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy qism. Insonlar e'tiqodini mustahkamlashda islom dinining o'rni beqiyos, albatta. Bugungi kunda islom sivilizatsiyasi “Uchinchi renessans” poydevori sifatida e'tirof etilayotgan bir paytda, uning faxri va g'ururi sanalmish buyuk muhaddis Imom al-Buxoriy nomining alohida qayd etishi alloma va uning ijodiga berilgan katta e'tirof bo'ldi. Xususan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 27-martdagi “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2855-sonli Qarorining qabul qilishi yuqoridagi fikrimizning ayni tasdig'idir [1]. Mazkur markazni tashkil etishdan maqsad muqaddas islom dini rivojiga beqiyos hissa qo'shgan, hadis ilmining sultoni bo'lmish Imom al-Buxoriy asarlarini va nafaqat, Imom al-Buxoriy, balki butun Markaziy Osiyo hududida yashab ijod qilgan buyuk mutafakkirlarning boy ma'naviy merosini o'rganish, ilmiy tadqiq qilish, yosh avlod ta'lim-tarbiyasida millatlararo va dinlararo bag'rikenglik, o'zaro hurmat, tinch-totuv yashash, hayotga intilish va asl insonparvarlik tuyg'ularning shakllanib borishida: milliy-ma'naviy, ruhiy ozuqa berish, ular qalblarga ezgulik urug'ini sochish va undan unib chiqqan nihollarning barq urib o'sishi uchun ilmiy zamin yaratib berishdan iborat. Tarixan bizga ma'lumki, butun islom olamida oltita ishonchli hadislar to'plami mavjud bo'lib, eng diqqatga sazavor bo'lgan tarafi mazkur to'plamlarni yaratgan muhaddislarning barchasi Markaziy Osiyo yetishib chiqqan allomalardir. Ular:

- Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810-870) “Al-Jomi' as-Sahih”;
- Imom Muslim an Nishopuriy (819-879) “As- sahih”;
- Imom Abu Abdulloh Muhammad inb Yazib ibn Mojja (824-886) “Sunnan”;

- Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoni (817-880) “Sunnan”;
- Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (824-892) “Aj-Jami al-kabir”;
- Imom Ahmad An-Nasoiy (830-915) “Sunnan”

Yuqorida nomlari zikr etilgan muhaddislarning barchasi islom olamida o‘z o‘rniga va nufuziga egadir. Hadis ilmi bilan shug‘illangan allomalar hadis to‘plash davomida juda ko‘plab mamlakatlarga sayohat qilishgan. Shu boisdan ulamolar hadis ilmini o‘rganish uchun sayohat qilganlarga uch xil nom qo‘yishgan:

- musnid;
- muhaddis;
- hofiz.

Shubhasiz, bu so‘zlar o‘zining lug‘aviy, hamda terminologik ma‘nosiga ega.

1. “Musnid” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi, hadisni isnod (arab. - tirgak, dalil, asos)ni bilan birga rivoyat qiluvchi degan ma‘noni anglatadi. Har bir hadis uni rivoyat qilgan shaxsning ismi bilan bog‘langan holda qayd etilgan.

2. “Muhaddis” arab. - hadis rivoyat qiluvchi ma‘nosini anglatadi. Muhaddislar hadislarni to‘plash, saralash va sharhlash bilan shug‘ullanishgan. Shuning uchun ulamolar uni roviy so‘zining sinonimi sifatida bilishgan, lekin ular orasida farq borligini ham ta‘kidlaganlar. Muhaddis musniddan ustundir. Chunki ular hadis hujjatlarini, yillari, roviylarining ismlarini, eng yuqori va eng pastki isnodlarni bilishgan.

3. “Hofiz” so‘zi yod olmoq ma‘nosini bildiradi. U martabalarning eng oliysi bo‘lib, u quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lgan:

- Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning sunnatlarini bilish;
- hadislardan xabardor bo‘lish;
- ularning isnod (roviylar zanjiri)ni farqlash [2, 78b].

Bundan tashqari, Imom al-Buxoriy nomi bilan bog‘liq “Amir ul-mo‘minin”, “Imom al- muhaddisiyn” (“Barcha muhaddislarning peshvosi”) nomlari ham mavjud. Mashhur alloma Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810-870) va uning asarlari xususida so‘z ketganda, al-Qastaloniyning fikrini keltirib o‘tish maqsadga muvofiq. Ya‘ni: “Imom Buxoriy asarlari quyosh yetgan joygacha yetib bordi. Dunyoning hamma joyini egalladi” deyдилar. Darhaqiqat, alloma asarlarining barchasi islom dini kirib borgan har qanday zaminga yetib borganligini ko‘rshimiz mumkin. Allomaning ma‘naviy merosi asarlar soni yigirmatadan ortiq. Ularga quyidagilar kiradi:

- ❖ “Al-Jomi’ as-Sahih” (“Ishonchli to‘plam”);
- ❖ “Al-Adab val-mufrad” (“Adab durdonalari”);
- ❖ “Raf al-yadayn fi as-sola” (“Namozda qo‘lni ko‘tarish haqida”);
- ❖ “Al-Qiroa xalf al-imam” (“Imomning ortidan namoz o‘qish”);
- ❖ “Birr al-validayn” (“Ota-onaga yaxshilik qilish”);
- ❖ “At-Tarix al-kabir” (“Katta tarix”);
- ❖ “As-Sag‘ir” (“Kichik tarix”);
- ❖ “Xalq afal al-ibad” (“Bandalar fe‘llarining yaratilishi”);
- ❖ “Az-Zua‘fa” (“Zaiflar”);
- ❖ “Al-Ashriba” (“Ichimliklar”);
- ❖ “Asmoi as-sahoba” (“Sahobalar ismlari”);
- ❖ “Al-Vuxdon” (“Yakkalik”);
- ❖ “Al-Mabsut”;
- ❖ “Al-Ilal” (“Illatlar”);
- ❖ “Al-Kunya” (“Kunyalar”);
- ❖ “Al-Favoid” (“Foydalar”);
- ❖ “Qazoya as-sahoba” (“Sahobalar muammolari”) [3, 14-15b].

Bundan tashqari uning yana quyidagi asarlari ham mavjud bo‘lib, lekin bizgacha yetib kelmagan:

- ❖ “Al-Avsat” (“O‘rta tarix”);
- ❖ “At-Tafsir al-kabir” (“Katta tafsir”);
- ❖ “Al-Hiba” (“Sovg‘a”);
- ❖ “Al-Jom‘i al-kabir” (“Katta to‘plam”) [4, 12].

Ushbu asarlarning ichida eng ulug‘i va islom olamida “Qur‘oni Karim”dan keyin turuvchi muqaddas manba “Al-Jomi’ as-sahih”dir. Unga 600 ming hadisdan 7275 ta eng “sahih” hamda 4000ta takrorlanmaydigan hadislar kiritilgan [5, 354]. Asarni alloma 833-yilda yozib boshlagan. Bu vaqtda Imom Buxoriyning yoshi 23da bo‘lib, mashaqqatli va zahmatli sa‘y-harakatlari zamirida 849-yil 39 yoshida mazkur shoh asarini yozishga muvassar bo‘ladi. Ushbu asarining dunyo yuzuni ko‘rish uchun 16 yil tinmasdan hadis to‘plash bilan mashg‘ul bo‘lgan alloma ilm o‘rganish davomida kechalari bir necha bor o‘chirgan

shamlarini qayta yoqqanligi haqidagi ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan. Bu esa allomaning ilm o'rganishga naqadar ixlosi baland ekanligidan dalolat beruvchi manbalardan biridir. Shu o'rinda haqli bir savol tug'iladi. Axir bu buyuk alloma xotirasi juda kuchli, zehni o'tkir bo'lgan. Nega endi shamni o'chirmasdan oldin ham o'z fikrini yozsa bo'lar ediku? degan savol tug'ilishi mumkin. Bu haqida rivoyat qilishlaricha, Imom Buxoriy har kuni uyquga ketish oldidan g'usul olib, ikki rakat namoz o'qib bo'lgach uyquga ketar ekanlar. Bunday qilishlarining sababi tushlarida payg'ambar sollallohu alayhi vasallam kelib, "ushbu hadis mendan" desalar, turib kitoblariga yozar ekanlar [6, 34-35]. Bunday qilishlarining sababi nosahih hadislarining ko'pligi bilan birgalikda hadis roviylarining orasidagi uzilishlar sababli ham alloma bu yo'lda qiychilikka uchragan. Bu vaziyatlarda alloma Alloh va uning Rasulidan yordam so'rab iltijo qilganliklari sababli ham allomaga tushlari orqali bu ulug' ishni amalga oshirish muyassar bo'lgan. Asarning bizgacha yetib kelishida esa Imom Buxoriyning shogirdi-Muhammad ibn Yusuf al-Firabiy (845-932)ning xizmati katta. Sababi u asarni og'zaki rivoyat qilish usulida va asldan ko'chirish yo'li bilan uning tarqalishiga o'z hissasini qo'shgan. Hozirda dunyoning ko'pgina kutubxonalarida asarning tarjima va qo'lyozma nusxalari saqlanib kelinmoqda. Ularni o'rganish va tahlil qilish maqsadida Samarqandda "Sahihul Buxoriy" asarning jahon kutubxonalarida saqlanayotgan qadimiy va nodir qo'lyozma nusxalari" mavzusi doirasida 2021-yil 15-iyul sanasida xalqaro onlayn konfrensiyasi bo'lib o'tdi. Bunda taniqli professor va olimlar o'zlarning ilmiy maqolalari bilan qatnashdilar. Bundan tashqari asar ko'plab xorij tillariga ham tarjima qilingan:

- ingliz tilga 1879-yil olim Kreyzon tomonidan Belk shahrida 10 jildda;
- nemis tilga 1935-yil nemis allomasi Muhammad Asad tomonidan muxtasar izoh va hoshiyalar bilan 2 jildda, asar tarjimasining katta bir qismi esa nufuzli Kembrij Universiteti tomonidan 1936-yilda bepul nashr etilgan;
- fransuz tilga 1903-1914-yillarda O.Xodas va V.Marsuys degan olimlar tomonidan 5 jildda tarjima qilinib, 1984-yilda Fransiya poytaxti Parij shahrida nashr etilgan;
- turk tilga dastlab 2 jildda Ahmad Naiym tomonidan, keyinchalik esa Komil Miyros degan olim tomonidan to'liq tarjima qilinib Turkiya poytaxti Istanbulda 1928-yilda nashr qilingan.

Mustaqillik sharofati bilan allomaning asari o'zbek tilga:

- 1991-yilda Zokirjon Ismoil tomonidan 1-jildi;
- 1991-yilda Xoja Muzaffar Nabixon o'g'li va Xoja Baxtiyor Nabixon o'g'li tomonidan 2-jildi;
- 1994-yilda Rahmatulloh Qori Qosim o'g'li va Xoja Baxtiyor Nabixon o'g'li tomonidan 3-jildi;
- 1992-yilda Abdulg'ani Abdulloh tomonidan esa 4-jildi arabchadan tarjima qilingan.

Muhokamalar va natijalar. Alloma asarlarining barcha jildlari "Qomuslar bosh tahririyati" tomonidan nashr etilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-iyundagi 519-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining kutubxona fondini xorijiy adabiyotlar bilan boyitish" to'g'risida qaroriga asosan Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi kutubxona fondiga xorijiy davlatlardan olib kelinadigan adabiyotlar ro'yxati ilovasi shakllantirildi. Ushbu ro'yxatda hadis ilmiga hissa qo'shgan allomalar asarlari, shuningdek, fransuz, ingliz, arab tillaridagi tarjima nusxalari ro'yxatidan iborat jami: 2512 jildni tashkil etuvchi 758 ta adabiyotlar nomi hamda uning mualliflari kiritilgan. Ro'yxatga nazar soladigan bo'lsak, uning eng boshida turuvchi asar ham aynan "Al-Jomi' as Sahih"dir. E'tirof etish lozimki, xalqaro miqyosda O'zbekistonning ma'naviy, madaniy va tarixiy merosini targ'ib qilish, islom dinining haqiqiy qadriyatlarini ochib berish maqsadida 2021-yilning iyun oyida, Buyuk Britaniyada ijtimoiy fanlar xalqaro festivali doirasida islom san'ati ko'rgazmasi keng miqyosda tashkil etildi. Ushbu ko'rgazmada buyuk muhaddis alloma Imom Buxoriy hadislaridan ilhomlangan ijodkorlar o'z ijod namunalari bilan qatnashdilar. Mazkur ko'rgazmani tashkil etishda Buyuk Britaniyaning "Dacore IT" kompaniyasi, Angliyaning Lester Universiteti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi hamda mamlakatimizning Malayziyadagi elchixonasi ko'magida uyushtirildi. Ko'rgazmadan ko'zlangan maqsad o'zida tinchlik, donolik va bag'rikenglikni aks ettirgan va mujassam qilgan ezgu din-islom g'oyalarini xalqaro darajada san'at muxlislariga taqdim etishdir. Namoyishga qo'yilgan san'at durdonlari va ijod namunalari barchasi aynan "Sahihul Buxoriy" asariga kiritilgan hadislar negizida yaratilgan [7, 4].

Hadislar insonlarni manan, axloqan va jismonan tarbiyalashga xizmat qiladi. Masalan, quyidagi hadisda: "Kunni kech qilsang, qachon tong otarkin deb intizor bo'lmag'il va tong ottirsang, qachon kech bo'larkin deb poylamag'il (ya'ni, doimo ildam yuraverg'il, bir lahza ham qadamingni ham susaytirmag'il, gar susaytirsang, maqsuding hosil bo'lmag'aydir), sog'ligingdan kasaligingga va tirikligingdan o'limingga chegirib olib qo'yg'il!" [8, 195] deyiladi. Ya'ni har bir vaqtning g'animatligini bilgan holda holda inson o'z oldiga qo'ygan maqsadlar sari qat'iyat va shijoat bilan harakat qilishga, har bir daqiqaning qadriga yetish, rejalashtirilgan ishni o'z vaqtida bajarishga odatlanish lozimligi ifoda etilgan. Yana bir hadisda esa "Boshliq bo'lmasingizdan avval ilmni chuqur o'rganing!" [8, 33-34] deyilgan. Ushbu hadisni oila misolida

o‘rganadigan bo‘lsak, oilada o‘sib kelayotgan yosh avlod ertami yo kech albatta “oila” deb atalmish qo‘rg‘onga bosh bo‘ladi. Bundan ko‘rinadiki, oilada ota-ona vazifasini bajarish uchun ham insondan ilm, salohiyat va hayotiy tajribaga ega bo‘lishni talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, tarbiya insonda o‘z-o‘zidan hosil bo‘lib qolmaganidek, uni insonda shakllantirib borishda ma‘naviy va moddiy meroslarimizning o‘rni beqiyosdir. Jamiyatimizning ijtimoiy faol qatlami, ya‘ni yoshlar o‘rtasida umummilliy, umuminsoniy qadriyatlarining shakllanib borishida bu kabi ma‘naviy meroslarni asrab avaylash, nafaqat asrash, ta‘lim-tarbiya jarayonida qo‘llash, uni kelgusi avlodga yetkazib berish har birimizning burchimizdir. Jumladan, bugungi glaballashuv jarayonida Imom al-Buxoriyning “Al-Jomi’ as-Sahih” asari ayrim muammoli masalalarni yechishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. PQ-2855-sonli Qaror. “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil, 27-mart.
2. Ibrahim Zöhrab o‘g‘lu Quliev. Hədisşünasliğin əsasları. -Boku, 2013.
3. Ubaydulla Uvatov, Otabek Muhammadiyev. Imom Buxoriy. -T.: “Sharq”, 2019.
4. G.Niyozov, Q.Ahmedov, Q.Tojiboev. Sharq allomalari va ma‘rifatparvar adiblarning barkamol avlod tarbiyasiga oid ma‘naviy-axloqiy qarashlari. -T.: “O‘zbekiston”, 2010.
5. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H., Matnazarova K.O., Kshirinov M., Hafizov S. Umumiy pedagogika. -T.: “Fan va texnologiya” nashiriyoti, 2018.
6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot. Muqaddima 1juz. –Toshkent: “Sharq” nashiriyot-matbaa aksiyodorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2004.
7. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi matbuot xizmati. “Buyuk Britaniyada Islom san‘ati durdonalari namoyish etilmoqda”. // “Xalq so‘zi”. 2021 yil 2 iyun, №115(7895).
8. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-Jomi’ as-Sahih. -T.: “Qomusiylar bosh tahririyati”, 1991-1992-yil. 1-4-jildlar.

Mashxura YULDASHEVA

Buxoro davlat universiteti
boshlang‘ich ta‘lim metodikasi
kafedra o‘qituvchisi

TIBBIY PEDAGOGIK YO‘NALISH TALABALARIDA MILLIY AN‘ANALAR ASOSIDA BAG‘RIKENGLIKNI RIVOJLANTIRISH

Maqolada talabalarda bag‘rikenglik tushunchalarini shakllantirish o‘ta muhim pedagogik jarayon ekanligi va bu jarayonni tashkil etishda esa o‘quv vositalari va o‘qituvchining o‘rni beqiyos hisoblanishi, bag‘rikenglik tushunchasi o‘z tarkibiga chidam, bardosh, o‘zgalarning hayot tarzi, fikrlashi, xatti-harakati, qadriyatlariga toqat qilish, ularga hurmat nazari bilan qarash, atrofdegilarni kamsitmaslik kabi tushunchalarni ham qamrab olganligi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: bag‘rikenglik, umuminsoniy qadriyatlar, talaba, mas‘uliyat va shaxsiy javobgarlik, jamiyat, mustaqillik, hurfikrlilik, mehribonlik, erkinlik, mustaqillik, hamdardlik va rostgo‘ylik, barkamol shaxs.

В статье подчеркивается, что формирование у учащихся понятия толерантности является чрезвычайно важным педагогическим процессом, а роль средств обучения и учителя в организации этого процесса неопределима, понятие толерантности включает в себя такие понятия, как терпимость, выносливость, терпимость к образу жизни, мышлению, поведению, ценностям других людей, уважительное отношение к ним, не дискриминация окружающих дано.

Ключевые слова: толерантность, общечеловеческие ценности, ученик, ответственность и личная ответственность, общество, независимость, предубеждения, доброта, свобода, независимость, сочувствие и правдивость, гармоничная личность.

The article covers the fact that the formation of the concepts of tolerance in students is an extremely important pedagogical process, and in the organization of this process the role of educational means and the teacher is considered incomparable, the concept of Tolerance also covers such concepts as tolerance, endurance, the way of life of others, tolerance of thinking, behavior, values, respect for them, non-discrimination

Key words: tolerance, universal values, Student, Responsibility and personal responsibility, society, independence, freedom, kindness, freedom, independence, empathy and honesty, harmonious personality.

Kirish. Biz asrlar davomida yaratilgan odob-axloq, ta‘lim-tarbiya, ma‘naviyat va ma‘rifat to‘g‘risidagi diniy hamda dunyoviy g‘oyalar va ta‘limotlardan qanchalik samarali foydalansak, milliy mustaqilligimiz shunchalik mustahkam bo‘ladi. Shunday samarador ta‘limotlardan biri - milliy an‘analar asosida bag‘rikenglikni rivojlantirish.

Asosiy qism. Bag‘rikenglik - bu boshqalarning fikrini eshitish va hurmat qila olish, o‘zganing fikrini do‘stona qabul qilish lozim. Bunday tushunchalarni talabalarga singdirish uchun ta‘lim jarayonida keng ko‘lamli pedagogik faoliyat hamda targ‘ibotni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Taraqqiyotning bugungi bosqichida davlatimiz tomonidan ma‘naviy, siyosiy, iqtisodiy yo‘nalishlarda olib borilayotgan islohotlar kontekstida jamiyat a‘zolarini o‘zaro hamkorlik, do‘stona muloqotga undab, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, mas‘uliyat va shaxsiy javobgarlik, erkinlik, mustaqillik, hurfikrlilik, mehribonlik kabi oliy tushunchalarni o‘zlashtirish uchun ehtiyoj sezdirmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda davlat va jamiyat qurilishining bag‘rikenglikka asoslangan shakli tanlanmoqda.

Aynan bag‘rikenglik bugungi kunda insonlar hayotini tartibga soluvchi kuchli vosita sifatida davlat tuzilishi, ijtimoiy tizimda va inson huquqlarining rivojlanishida yetakchi omil bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekistonda barcha millatlarning o‘z ona tilida ta‘lim olish imkoniyatini ta‘minlash darajasini oshirish maqsadida ta‘lim qardosh tillarda olib borilayotgan umumiy o‘rta ta‘lim maktablaridagi holat o‘rganib chiqildi. Natijada tayyorlangan ta‘lim 7 ta qardosh tilda olib borilayotgan umumiy o‘rta ta‘lim maktablarini badiiy adabiyotlar bilan ta‘minlash va kitobxonlikni targ‘ib qilish to‘g‘risidagi takliflar asosida hamijrochilar bilan birgalikda Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi elchixonalari, konsullik muassasalari va o‘zbek milliy madaniy markazlarini hamda ta‘lim qardosh tillarda olib borilayotgan umumiy o‘rta ta‘lim maktablarini badiiy adabiyotlar bilan ta‘minlash va kitobxonlikni targ‘ib qilish to‘g‘risida”gi Farmoyishi loyihasi ishlab chiqildi. Shu tufayli respublikamizda faoliyat yuritayotgan 38 ta do‘stlik jamiyati “xalq diplomatiyasi” mexanizmidan faol foydalangan holda, chet eldagi

vatandoshlarimiz bilan muntazam va o‘zaro foydali munosabatlarni yo‘lga qo‘ygan. Xorijiy mamlakatlar bilan do‘stona munosabatlarni va madaniy-ma‘rifiy aloqalarni har tomonlama rivojlantirishga salmoqli hissa qo‘shib kelmoqda.

Millatlararo munosabatlar sohasida tizimli asosda ilmiy, shu jumladan, ijtimoiy tadqiqotlar, shuningdek, mazkur yo‘nalishdagi jarayonlar rivojining monitoringi olib borilyapti.

Vazirlar Mahkamasi huzurida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi tomonidan millatlararo munosabatlar bo‘yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar o‘tkazish, ilmiy maqolalar, kitoblar, ilmiy-tadqiqot materiallari, axborot-tahliliy sharhlar tayyorlash maqsadida sohaga oid qator kitob va ilmiy maqolalar nashr qilinganligi ham tahsinga sazovor.

2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Prezident farmonida Ilm-fan sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish belgilangan edi. Shu munosabat bilan 2020-yil 29-oktabrda Prezidentimizning, “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi.

Shuni alohida ta‘kidlash joizki, mazkur farmon iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal rivojlantirish, ilmiy-intellektual hamda moliyaviy resurslarni to‘liq safarbar etgan holda ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish, istiqbolda ilm-fanni muntazam isloh qilib borishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy infratuzilmani modernizatsiya qilish ishlarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Qo‘mitaning taklifi asosida yurtimizda faoliyat yuritayotgan oliy ta‘lim muassasalarida bakalavriatning antropologiya va etnologiya ta‘lim yo‘nalishi va tegishli magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha kadrlar tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Muhokamalar va natijalar. Jamiyat taraqqiyotini ilm-fan rivojisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki ilm-fan ishlab chiqarish, uning moddiy asosini yaratish, texnologik rivojlantirish va, eng asosiysi, kadrlar bilan ta‘minlash vazifalarini o‘z zimmasiga oladi. Bu harakatlar samarasi o‘laroq, mamlakatimizdagi millatlararo munosabatlar masalalarini tahlil qilish, etnik nizolarning oldini olish va ularning salbiy oqibatlarini kamaytirishga erishish vazifalarini bajarishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun qator masalalar ko‘zda tutilgan.

Tibbiy pedagogik oliy ta‘lim jarayonida talabalarning o‘qituvchi, kursdoshlari bilan hamkorlik qilishini ta‘minlovchi ma‘naviy hamda ruhiy kechinmalar ham bag‘rikenglik xislatlarini ifodalovchi fazilatdir.

O‘quv–biluv jarayonida talabalarda bag‘rikenglik fazilatini rivojlantirib borilishi turli ijtimoiy pedagogik omillar, uzoq muddatli uzluksiz pedagogik jarayon natijasida hosil bo‘ladigan ruhiy, ijtimoiy, ma‘naviy holat. Talaba yoshlarda bag‘rikenglik tushunchalarini shakllantirishdan ko‘zda tutiladigan asosiy maqsad - jamiyat a‘zolari orasida barqaror ijtimoiy munosabatlarni tarkib toptirish, ularni ijtimoiy hayotga izchil tayyorlab borishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun esa ta‘limning barcha bosqichlari orasida uzviylik va izchillik ta‘minlanishi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, talabada bag‘rikenglik fazilatini izchil rivojlantirib borishga mo‘ljallangan ta‘lim jarayoni, birinchi navbatda, barkamol shaxs sifatida tarbiyalashni ko‘zda tutadi. Bu esa muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini uzluksiz rivojlantirish orqali shaxs ma‘naviyatini ijtimoiy jihatdan boyitishni nazarda tutadi va ularda bag‘rikenglik tushunchasini rivojlantirish ishlarini umumiy o‘rta ta‘limning ilk bosqichida, ya‘ni ularda yaxshilik, hamdardlik va rostgo‘ylik kabi fazilatlar poydevori endigina vujudga kelayotgan davrdan boshlash lozim.

Adabiyotlar

1. Yuldasheva M.M. Development of tolerance in the history of eastern culture. SJIF Impact Factor: 7.001| ISI I.F.Value:1.241| Journal DOI:
2. Yuldasheva M.M. The development of tolerance on the basis of national ideas and traditions in student., International Journal for Advanced Research In Science & Technology (IJARST) ISSN: 2457-0362, Volume-10 Issue-05, May 2020 (Page107-112).
3. Yuldasheva M.M. The Development of Tolerance and Its Efficiency Based on National Traditions., Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 8, January 2021., p-63-69.
4. Yuldasheva M.M. Development of tolerance medical pedagogical students on the basis of national traditions., Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 6, May 20 2021.

5. Yuldasheva M.M. Ways to develop tolerance in medical pedagogical students on the basis of national traditions., Scientific progress Volume 2 | issue 6 | 2021 ISSN: 2181-1601., 1097-1102.
6. Yuldasheva M.M. Development of Tolerance in Students of Medical Pedagogical Direction on the Basis of National Traditions., Pindus Journal Of Culture, Literature, and ELT ISSN: 2792 – 1883 Vol 2 No. 2 <https://literature.academicjournal.io>
7. Razvitiye tolerantnosti na osnove nasionalnix tradisiy u studentov medisinskogo obrazovaniya., <http://pem.esrae.ru/27>
8. Razvitiye tolerantnosti v istorii vostochnoy kulturi., Науковий вісник Ізмаїльського державного гуманітарного університету., DOI 10.31909/26168774.2020-(46)-18,Збірник наукових праць, Ізмаїл – 2020., 158-166 стр.
9. Yuldasheva M. Sharq madaniyati tarixida bag‘rikenglikni rivojlantirish., Pedagogik mahorat. - Buxoro, 2020.
10. Yuldasheva M. Tibbiy pedagogik yo‘nalish talabalarida milliy an‘analar asosida bag‘rikenglikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan jarayonning mazmuni. Pedagogik mahorat. 2021, 94-97b.

Gullola RAXMONOVA
Buxoro davlat universiteti
maktabgacha ta’lim kafedrası
mustaqil izlanuvchisi

TALABALARDA MA’NAVY-AXLOQIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI

Ushbu maqolada talabalarda ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning mazmuni va ularni ma’naviy-axloqiy va jismonan qilib tarbiyalash, ularni insoniylik, pedagogik ijodkorlik, yoshlarga ijobiy jihatdan namuna bo‘lishlik, vazminlik va jamoa joylarida va auditoriya(sinf)larda o‘zini tuta bilishi, o‘z-o‘zini nazorat qilishi, mehribonlik, o‘z shogirdlari uchun xavotirlanishi, haqqoniyligi (baholashda, tavsiflashda), talabchanlik, hazil-mutoyiba tuyg‘usiga egalik, quvnoq xarakterlik, hissiy-ijobiy kayfiyatga ega bo‘lish, o‘quvchilar bilan muloqotda kasbiy odob va axloqqa amal qilish, ta’lim oluvchilar shaxsini hurmat qilishi va tushinishi kabi fazilatlar haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, ma’naviy-axloqiy, islohot, g‘oya, mafkura, mafkuraviy immunitet.

В данной статье рассматриваются содержание развития у учащихся духовно-нравственных компетенций и их духовно-нравственное и физическое воспитание, их гуманность, педагогическое творчество, умение быть позитивным примером для молодежи, сдержанность и сдержанность в коллективных местах и аудиториях(классах), самоконтроль, доброта, забота о своих учениках, правдивость (при оценке, описании), требовательность, владение чувством юмора, веселый характер, эмоционально-позитивный настрой, умение использовать профессиональные навыки в общении с учащимися. соблюдение этикета и морали, написано о таких качествах, как уважение и понимание личности воспитателя.

Ключевые слова: компетентность, духовно-нравственная, реформа, идея, идеология, идеологический иммунитет.

This article examines the content of the development of students’ spiritual and moral competencies and their spiritual and moral and physical education, their humanity, pedagogical creativity, the ability to be a positive example for young people, restraint and restraint in collective places and classrooms (classes), self-control, kindness, caring for their students, truthfulness (when evaluating, describing), exactingness, possession of a sense of humor, cheerful character, emotionally positive attitude, the ability to use professional skills in communicating with students. observance of etiquette and morality, it is written about such qualities as respect and understanding of the educator’s personality.

Keywords: competence, spiritual and moral, reform, idea, ideology, ideological immunity.

Kirish. Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismonan sog‘lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Oliy ta’limda ma’naviy-axloqiy mazmuni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma’naviy g‘oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g‘oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish zarurati mavjud.

Yoshlarning bandligini ta’minlash va ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish bo‘yicha ishlarni mutlaqo yangi tizim asosida tashkil etish va amalga oshirish maqsadida “Yoshlar - kelajagimiz” Davlat dasturi qabul qilindi. Yosh avlod ongiga Vatanga sodiqlik va uning taqdiri uchun daxldorlik hissini singdirishga, ularda yot g‘oya va qarashlarning salbiy ta’siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar yetarli darajada samara bermayapti, shu nuqtayi nazarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, shuningdek, ma’naviy-axloqiy tarbiyani yoshlar ongida singdirish eng asosiy maqsadlarimizdan biridir.

Asosiy qism. Talabalarining bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun zarur bo‘lgan madaniy-ko‘ngilochar obyektlar, maktabdan tashqari ta’lim muassasalari, shu jumladan, joylarda turli ijodiy va ta’lim to‘garaklari, sport seksiyalarining yetishmasligi bolalarning sog‘lom ruhda tarbiyalanishiga va to‘g‘ri hayot yo‘lini tanlashiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa yoshlar ongida ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni shakllantirishni talab etmoqda.

Talabalarda ma’naviy axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda, avvalo, kompetensiya tushunchasiga e’tibor qaratish lozim.

Kompetensiya – lotin tilidan olingan bo‘lib, “kompetentsino” – “to‘g‘ri kelaman”, “erishaman” degan tushunchani anglatadi.

Kompetensiya - bilim, malaka va shaxsiy sifatlarni ma‘lum sohada namoyon bo‘lishi hisoblanadi.

Kompetentlik esa shaxsning muayyan ta‘lim yo‘nalishi yoki mutaxassisligi bo‘yicha olgan bilim, ko‘nikma, malakalari shakllangan shaxsiy sifatlarining mehnat faoliyatida qo‘llay olishidir.

Kompetensiyalar faoliyatning samarali bajarilishini ta‘minlaydigan harakatlarning umumlashtirilgan usullari. Bu insonning o‘z malakasini amalda qo‘llash qobiliyatidir.

Muhokamalar va natijalar. Kompetensiyalar keng ma‘noda qobiliyat, ko‘nima, imkoniyat malaka va tushunishni anglatadi. Kompetentli shaxs deganda ma‘lum bir sohada yetarli mahorat, bilim va imkoniyatlarga ega bo‘lgan insonni tushunish mumkin.

Kompetentli mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borish, yangi axborotlarni o‘rganish, muhim ijtimoiy talablarni anglay olish, yangi ma‘lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

Shaxsda kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma‘lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda.

Kompetensiyaga ega mutaxassis esa:

- o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o‘zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llay oladi.

N.G.Vitkovskayaning ta‘riflashicha kompetentlik - qo‘yilgan muammolarni hal etishga qaratilgan insonning ichki (bilim, ko‘nikma va malakalari, ma‘naviy sifatlari, psixologik xususiyatlari) va tashqi imkoniyatlari safarbar qila olishga qodirligidir.

L.M.Dolgova, P.V.Smonov va boshqalarning fikricha kompetentlik – olingan bilimlarga asoslangan holda harakat qila olish demakdir.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib talabalarda ma‘naviy axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari.



Yuqoridagi rasmda bo‘lajak o‘qituvchilarining ma‘naviy-axloqiy kompetensiyalarining shaxsiy xususiyatlari klaster asosida bayon etilgan. Bunday shaxsiy xususiyatlar nafaqat bo‘lajak o‘qituvchilarida, balki barcha jamiyat a‘zolarida shakllangan bo‘lishi lozim. Bizningcha, o‘qituvchi – universal, “o‘quvchilar bilan o‘quv va tarbiyaviy ishni olib boradigan” o‘ziga xos qobiliyatga ega bo‘lgan mutaxassisdir. O‘qituvchiga qo‘yiladigan asosiy talablar: uning umumiy rivojlanganligi, ma‘lumotliliigi, madaniyatliliigi, kommunikativ madaniyati, insonparvarlik, ijodkorlik, kasbiy kompetentlik va b.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda insoniylik, pedagogik ijodkorlik, yoshlarga ijobiy jihatdan namuna bo‘lishlik, vazminlik va jamoa joylarida va auditoriya(sinf)larda o‘zini tuta bilishi, o‘z-o‘zini nazorat qilishi,

mehribonlik, o‘z shogirdlari uchun xavotirlanishi, haqqoniyligi (baholashda, tavsiflashda), talabchanlik, hazil-mutoyiba tuyg‘usiga egalik, quvnoq xarakterlik, hissiy-ijobiy kayfiyatga ega bo‘lish, o‘quvchilar bilan muloqotda kasbiy odob va axloqqa amal qilish, ta’lim oluvchilar shaxsini hurmat qilishi va tushunishi kabi fazilatlar shakllangan bo‘lishi kerak.

Xulosa. Shunday ekan, talaba yoshlarning madaniyatini, ma’naviy-axloqiy salohiyatini yuksaltirish, milliy mafkurasini uyg‘otmoq zarur. Zero, o‘zini anglagan, millat ma’naviyatini tushungan insongina xalqini, millatini, Vatanini, oilasini taniydi. Xalq va millat oldidagi burchni, mas’uliyatini, majburiyatini anglaydi. Insonning ma’naviy-axloqiy barkamol bo‘lishi xalq, davlat, jamiyat ma’naviyatiga asos bo‘ladi. Talabalarda chuqur nazariy va amaliy bilimlar, kasbiy malaka, ko‘nikmalar hosil qilish, ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalari va muammolariga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga o‘rgatish, Vatanni sevish, ajdodlari yaratgan bebaho ma’naviy javohirlarni imkon qadar egallash, ularni asrab-avaylash va boyitish, mamlakatimiz kelajagini, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning bugungi holatini chuqur tahlil qilish, jahondagi va mamlakatimizdagi ma’naviy, aqliy bilimlardan foydalanib voqelikda faol ishtirok etish ruhida tarbiyalash bugungi kunimiz oldida turgan muxim vazifalardan hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Sh R. G. THE ROLE OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION IN THE SPIRITUAL FORMATION OF STUDENTS //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – T. 2. – №. 11. – С. 317-320.
2. Rakhmonova G. S. Development of Spiritual and Moral Competencies in Students as a Pedagogical Problem //International Journal of Culture and Modernity. – 2021. – T. 11. – С. 311-314.
3. Рахмонова Г. Ш. РАЗВИТИЕ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ: DOI: 10.53885/edinres. 2021.30. 30.038 Рахмонова ГШ, научный исследователь кафедры “Дошкольное образование” БГУ, Асадова Вазира, одарённый студент факультета Дошкольного образования БГУ //Научно-практическая конференция. – 2021. – С. 96-97.
4. Рахмонова Г. ТАЛАБАЛАРДА МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ //Материали конференций МЦНД. – 2021.
5. Shavkatovna R. G. Methods of formation of spiritual and moral competencies in the education of future teachers //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – T. 11. – №. 2. – С. 976-980.
6. Rakhmonova G. S. Development of Spiritual and Moral Competencies in Students as a Pedagogical Problem //International Journal of Culture and Modernity. – 2021. – T. 11. – С. 311-314.
7. Рахмонова Г. Ш. ЗНАЧЕНИЕ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ В ВОСПИТАНИИ УЧАЩИХСЯ И МЕТОДЫ ЕГО РАЗВИТИЯ //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 3.
8. Рахмонова Г. Ш. КОМПЕТЕНЦИЯ ВОСПИТАТЕЛЯ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 6 (51).
9. Каримова Л. Ф., Рахмонова Г. Ш. Интегрированные уроки как средство формирования студентов //Вестник магистратуры. – 2019. – №. 4-3. – С. 86.
10. Shavkatovna R. G. Formation of Spiritual and Moral Attitudes of the Student’s Personality //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 10. – №. 1.
11. Sh R. G. THE ROLE OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION IN THE SPIRITUAL FORMATION OF STUDENTS //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – T. 2. – №. 11. – С. 317-320.
12. Turdieva M. PRESCHOOL AGE IS AN IMPORTANT TIME TO FOCUS ON CREATIVITY //Материали конференций МЦНД. – 2021.
13. Расулова, Лазиза Гайбуллоевна. “Формирование и развитие логического мышления детей дошкольного возраста посредством математического развития”. *Проблемы педагогики* 1 (46) (2020).
14. Расулова, Л. Г. “СРАВНЕНИЕ ОСОБЕННОСТЕЙ ОБУЧЕНИЯ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ УЧРЕЖДЕНИИ И ШКОЛЕ.” *ВЕСТНИК МАГИСТРАТУРЫ* 12-2 (2019):
15. Gafurova D. K. FORMATION OF FLUID SPEECH IN PRESCHOOLERS //International Engineering Journal For Research & Development. – 2021. – T. 6. – №. 1. – С. 5-5.
16. Гафурова Д. Х., Курбанова М. Ф. ФОРМИРОВАНИЕ БЕГЛОЙ РЕЧИ У ДОШКОЛЬНИКОВ ПУТЁМ ЧТЕНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ //Проблемы науки. – 2021. – С. 81.

Gulnoza BOBOQULOVA

Buxoro davlat universiteti
Pedagogika instituti
pedagogika va psixologiya
mutaxassisligi I bosqich magistri

TARBIYASI OG‘IR O‘QUVCHILARNI TARBIYALASHDA OILA, MAKTAB, MAHALLA HAMKORLIGI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Mazkur maqolada bolalarda tarbiyasi og‘irlikning kelib chiqish sabalari va omillari, bola xulqidagi va xatti-harakatlaridagi og‘ishishlar, ta’lim jarayonida tarbiyasi og‘ir bolalarni tarbiyalash yo‘llari, tarbiyasi og‘ir o‘quvchilarni tarbiyalashda oila-maktab-mahalla hamkorligini yo‘lga qo‘yish, o‘zaro hamkorlikning samaradorligi, tarbiyasi og‘ir bolalarni tarbiyalashda ta’lim muassasasining vazifalari, tarbiyasi og‘ir bolalarni tarbiyalashda oilada sog‘lom muhit yaratishning asoslari to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: tarbiyasi og‘irlik, oila-maktab-mahalla hamkorligi, oilaviy tarbiya, xatti-harakatlardagi og‘ishishlar, sog‘lom oila muhiti, xulqi og‘ir o‘quvchi, tarbiya, ta’lim.

В данной статье рассматриваются причины и факторы отягощения воспитания у детей, отклонения в поведении ребенка, способы воспитания детей с особыми потребностями в образовательном процессе, семейно-школьно-соседское сотрудничество в воспитании учащихся с особыми потребностями. Роль образовательных учреждений в воспитании детей с особыми потребностями, основы создания здоровой семейной среды в воспитании детей с особыми потребностями.

Ключевые слова: вес воспитания, семейно-школьно-соседское сотрудничество, семейное воспитание, поведенческие отклонения, здоровая семейная среда, трудное поведение учащихся, воспитание, образование.

This article discusses the causes and factors of the burden of upbringing in children, deviations in the behavior of the child, ways of raising children with special needs in the educational process, family- school-neighborhood cooperation in the upbringing of students with special needs. The role of educational institutions in the upbringing of children with special needs, the basics of creating a healthy family environment in the upbringing of children with special needs.

Key words: weight of upbringing, family-neighborhood- school cooperation, family upbringing, behavioral deviations, healthy family environment, difficult student behavior, upbringing, education.

Kirish. Mamlakatimizda bolalarga oqilona va samarali ta’lim-tarbiya berish, ularni kelajagimizning yetuk bilimli, shijoatli, qolaversa, ishonchli vakillari qilib kamol toptirish dolzarb vazifamiz etib belgilangan bir paytda tarbiyasi og‘ir bolalarni tarbiyalashda oila, maktab, mahalla hamkorligida kattagina ehtiyoj sezilmoqda. Tarbiyasi og‘ir bola nafaqat oilaning, balki jamiyatning ham og‘riqli masalasidir.

Bugungi kunda tarbiyasi og‘ir bolalarni tarbiyalashning eng samarali usuli bu - oila-maktab-mahalla hamkorligini yo‘lga qo‘yishdir. Tarbiyasi og‘ir bolani tarbiyalashda birgina ta’lim muassasasiga tayanish to‘liq natija bermasligi mumkin, chunki bola darsdan uyga borganda yana oldingi odatlarini boshlaydi. Tarbiyasi og‘ir bolalarni tarbiyalash bizdan kompleks yondashuvni talab qiladi. Bunda bolalarda sog‘lom oila muhitini yaratish asosiy o‘rinda turadi.

Davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma’naviy islohotlarning bosh maqsadi inson, oila manfaatlarini qanoatlantirishdan iborat. Shu boisdan ham mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab oilani mustahkamlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab olindi.

Oila mahallada tarkib topadi, mahallada shakllanadi, rivojlanadi. Oilalardan tuzilgan mahalla institute - tarbiyasi og‘ir bolalarni tarbiyalashning kuchli tarbiyachisi va ajralmas bo‘g‘inidir.

Respublikamizda xalqimizning tinchligi va farovonligini ta’minlash, oilalarda sog‘lom ma’naviy muhitni yaratish, yoshlarga oid davlat siyosatini yanada samarali amalga oshirish, o‘sib kelayotgan yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, bizning qanday buyuk tarix va merosga ega ekanimizni anglab, ana shu bebaho boylikni qadrlab, zamon bilan hamnafas yashaydigan va qadam tashlaydigan, mamlakatimiz taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashaydigan yetuk shaxslar sifatida shakllantirish, ayniqsa, yoshlarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda mahallaning o‘rni juda kattadir.

Mahalla-jamoatchi-tarbiyachi sifatida bu pedagogik jarayonga xos barcha sifatlarga ega bo‘lgan maskanlardan biridir. Bugungi kunda “Oila-mahalla-ta’lim muassasasi” jamoatchilik tuzilmasi orqali shakllanayotgan yangicha dunyoqarash bilan o‘sib kelayotgan yoshlarda o‘z vataniga sadoqatni, milliy

qadriyat va an’analarga bo’lgan muhabbat, o’z oilasi va yaqinlariga mehribonlik, tanlagan yo’li, kasbi, maslagi va e’tiqodiga sodiqlikni tarbiyalashda muhim o’rin tutadi.

Mahalla, eng avvalo, sog’lom ijtimoiy muhitdir. Bu yerda kuchli ta’sirga ega bo’lgan jamoatchilik fikri mavjud bo’lib, u oilalarning xulq-atvori, o’zaro munosabatlarini adolat, bag’rikenglik, insonparvarlik kabi ma’naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi.

Asosiy qism. “Tarbiyasi og’ir” bolalar. Bu atama hammamizga ma’lum va afsuski biz allaqachon ko’nikib ham ketgan bu atamaning ortida nimalar turadi? Ko’cha-ko’yda janjallashayotgan, bir-biri bilan urishib-talashayotgan bolalarni ko’ramiz, biroq o’zimizga xos bo’lgan fikrimiz, xarakterimizdan kelib chiqib, “menga nima?”, “meni bolam emas-ku”, - degan gaplarni aytib o’tib ketamiz. “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona”, - deganidek, birortamiz borib bolalarga nasihat qilishga, ularni do’stlikka, o’zaro hurmatga chaqirishga jasorat topmaymiz. Aslida bolaning begonasi bo’lmasligini allaqachon unutib ulgurdik.

Tarbiyasi og’ir bola maktabda o’qituvchi uchun sinfdoshlariga salbiy ta’sir ko’rsatadigan tartibbuzar, bolalar bog’chasi tarbiyachisi uchun injiq, qaysar, qolaversa, ortiqcha dahmaza, millitsiya xodimi uchun ko’chada tentirab yuradigan qarovsiz bezori bola. Ota-onalar uchun-chi? Bu tushuncha har qaysisi uchun o’zgacha ma’no kasb etadi.

“Tarbiyasi og’ir” bolalar pedagogik qarovsizlik natijasidir. L.S. Vigotskiyning fikricha “og’ir” o’smir hayoti munosabatlar xarakterining natijasidir. Bular, avvalo, qaysar, injiq bolalar, ularni qiziqarli faoliyat turiga tortish, ularni tarbiyalashning asosiy usullaridan biridir. Ularning ma’lum bir qismi intizomsiz, qo’pol bolalardir. Ularning aktivligini maqsadga muvofiq o’zgartirish, ularga ba’zi huquqlarini berish yo’li bilan ularga ta’sir o’tkazish mumkin [4].

Xo’sh, o’zi “tarbiyasi og’ir bola”, - deganda qanday bolalar tushuniladi? Tarbiyasi og’ir bolalar – bular tarbiyada e’tibordan chetda qolgan, o’z holicha tashlab qo’yilgan bolalardir. Ular qayerdadir, qachonlardir, kimlarningdir tomonidan yo’l qo’yilgan xatolar, tarbiyalashda ularga individual yondosha bilmaslik oqibatida paydo bo’lgan. Boshqacha aytganda, normal ta’lim va tarbiya jarayonidan chetda qolgan, o’qituvchilar, ota-onalar, o’rtoqlari bilan normal munosabat o’rnata olmagan, qalb tug’yonlarini oshkor etishning to’g’ri yo’llarini topa bilmagan bolalar – tarbiyasi og’ir bolalar turiga kiradi. Bunday bolalarni o’z vaqtida payqab, ular bilan yaxshi ish olib borilmasa, ularga jamoatchilik ta’siri o’tkazilmasa, noxush ko’ngilsiz voqealar sodir bo’lishi mumkin.

“Oila-mahalla-ta’lim muassasasi” hamkorligiga davlatimiz tomonidan katta e’tibor qaratilgan, xususan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismonan sog’lom, ma’naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti, ota-onalar va fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlarining ta’lim muassasalari bilan o’zaro hamkorligini mustahkamlash to’g’risida” 2012-yil 27-fevraldagi PQ-1717-son Qarori ijrosini ta’minlash va bu borada kerakli vazifalarni aniqlashtirish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlarining ta’lim muassasalari bilan o’zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi Qarori 2012-yil 19-iyunda tasdiqlandi. Unda:

- oila, umumta’lim maktablari, o’rta maxsus, kasb hunar ta’limi muassasalari va mahalla hamkorligining samaradorligini ta’minlash;
- oila, mahalla, ta’lim muassasalari hamkorligini yanada kuchaytirishga doir uslubiy asoslarni yaratishni tashkil etish asoslari belgilab berilgan [2].

Tarbiyasi og’ir - shaxs ichki va tashqi munosabatlarida kompleks uyg’unlikning bo’lmasligi natijasi hisoblanib, shaxsning ichki noqulaylikni his qilishi, faoliyati, xulqi va atrofdagi kishilar bilan o’zaro munosabatlarining izdan chiqishida namoyon bo’ladi.

Hech narsa o’z-o’zidan paydo bo’lmaydi, shu jumladan, tarbiyasi og’irlik ham. Bolalarni tarbiyasi og’ir bo’lib qolishida oila muhiti, maktab muhiti, uni o’rab turgan ijtimoiy muhitning katta ahamiyati bor, bularning barchasi bola hayotining qaysidir jabhalarida o’z kamchiliklari bilan saqlanib qolgan.

Oila, mahallada va ta’lim muassasalari o’quv jarayonida tartib-intizomning buzilishi holatlari va giperfaol, ya’ni tarbiyasi og’ir bolalar sonining o’sishi kuzatilmoqda.

Tarbiyasi og’ir bolalarda:

- o’zining tengdoshlari bilan guruhlashishga;
- ko’chadagi guruhlar bilan vaqt o’tkazish va muloqot qilishga;
- qarama-qarshi jins vakillari bilan erta munosabat o’rnatishga qiziqish kuchli bo’ladi.

Tarbiyasi og’ir bolalarda o’zining yoshidan katta bo’lgan sudlangan kimsalardan olingan axborotlar yaxshigina qiziqish uyg’otadi. Sudlangan kimsalar jinoiy guruhlarning harakatlarini oqlaydilar, bunday holatlar bolalarda insoniy qadriyatlar to’g’risida noto’g’ri tasavvurlar, egoizm, o’qishga bo’lgan salbiy munosabatlar va huquqbuzarlik holatlarini keltirib chiqaradi.

Shuni unutmasligimiz kerakki, tarbiyasi og’ir bolalarda diqqat-e’tibor, sabr-toqat ko’rsatish yaxshi natija beradi.

Tarbiyasi og’ir bolalardagi fanni o’rganishga bo’lgan salbiy munosabatni bartaraf etish uchun bolalarga nisbatan rag’batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish, ularda o’qishga nisbatan hissiy va

intiluvchan sifatlarini shakllantirish lozim bo‘ladi. Oilaviy tarbiya - bu ota-ona qarindoshlar kuchi bilan, aniq oilaviy sharoitlarda amalga oshiriladigan, ko‘p qirrali, murakkab ta‘lim-tarbiya tizimi hisoblanadi. Oilaviy tarbiya - bolalarni hurmat qilishga asoslangan, maqsadga yo‘naltirilgan, oiladagi kattalarni kichiklarga ta‘sir etish jarayonidir [6].

Muhokama va natijalar. Oila bolaga tarbiya berishning asosiy o‘chog‘idir. Hamma narsa, hattoki, eng oddiy bo‘lib ko‘ringan oilaviy munosabatlar ham bolalarga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. “Oila, maktab, mahalla hamkorligi” bugungi kunning ma‘naviy, ma‘rifiy, mafkuraviy, tarbiyaviy zaruratidir.

Farzandlarimizni ma‘rifatli va ma‘naviyatli qilish, kasb-hunar egallab, jamiyatga nafi tegadigan inson bo‘lib kamol topishida ota-onalarga mahalla va ta‘lim muassasasi eng yaqin yordamchi hisoblanadi. Yoshlarimiz ma‘naviyatini shakllantirishda oiladagi muhit, ona tarbiyasi, otalar o‘giti, keyinchalik mahallada, umumta‘lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv yurtlarida beriladigan ta‘lim-tarbiya muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-iyundagi “Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ta‘lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori bu borada muhim huquqiy asosdir. Mazkur qaror ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas‘uliyatini kuchaytirish, o‘quv muassasalarida ta‘lim-tarbiya sifati va samaradorligini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi. Mamlakatimizda fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarida “Oila-mahalla-ta‘lim muassasasi” jamoatchilik kengashlari tashkil etilib, ular ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas‘uliyatini kuchaytirish, o‘quvchilarning darslarga qatnashishini o‘rganish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa‘yi-harakatlarini birlashtirish maqsadida vatanimizda 1993-yilda ishlab chiqilgan “Oila, mahalla, maktab hamkorligi” Konsepsiyasi yoshlarni istiqbol g‘oyalari sadoqatli, ma‘naviy barkamol, vatanparvar etib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida ma‘lum dasturamal bo‘ldi [5].

Yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqimizning boy milliy, madaniy, tarixiy an‘analariga, urf-odatlariga va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyaning ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishi; shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligini ta‘minlash; umumiy hamda milliy pedagogik madaniyatni oshirish - “Oila, mahalla, maktab hamkorligi” Konsepsiyasining asosiy maqsadidir. O‘zbekistonda yuz berayotgan o‘zgarishlar “Oila, mahalla, maktab hamkorligi” yo‘nalishida bola tarbiyasida oila, ota-ona, mahalla, maktabning asosiy vazifalarini mazmunan yangilab hayotga tatbiq etishni taqazo etadi.

Xulosa. Bugungi kunda tarbiyachilimiz va o‘qituvchilarimizning oldida turgan asosiy vazifasi bu bolalarimizni tarbiyali, bilimli, ma‘naviyatli, har tomonlama sog‘lom va jamiyatimizga nafi tegadigan komil avlodlar etib tarbiyalashdir.

Shunday ekan, bu borada oila va mahalla institutlarining ham o‘z o‘rni bor. Biz birgalikda harakat qilsak, kerakli natijaga erisha olamiz. Shuni unutmasligimiz kerakki, bolada xulqi og‘irlik namoyon bo‘lishining muhim omili - bu uning deviant xulqli tengdoshlaridir. Biz o‘zimizning bolamizga yaxshi tarbiya berib, uning yonidagi do‘stlariga nazar solmasdan, unga yuqori baho bera olmaymiz. Chunki maktab yoshiga yetgan bolalar kunining yarmini o‘qish faoliyatiga sarflaydi. Maktabda do‘stlari orasida turlicha axborotlarga, xatti-harakatlarga duch keladi, bu narsalar uning xulqiga qanday ta‘sir ko‘rsatishini oldindan aniqlay olmaymiz. Ta‘lim muassasasi ham bir oila bo‘lib, unda ta‘lim-tarbiya oladigan barcha o‘quvchilar bizning farzandlarimizdir. Ularni kamol toptirishda barchamiz birdek mas‘ulmiz.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismonan sog‘lom, ma‘naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti, ota-onalar va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ta‘lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini mustahkamlash to‘g‘risida” 2012-yil 27-fevraldagi PQ-1717-son Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ta‘lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori. 2012-yil 19-iyun 175-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-iyundagi “Barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ta‘lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

4. Выготский С.Л. Собрание сочинений. В 6 томах. Т. 2.-М.: “Педагогика”, 1984. -С.17

5. Taylakov N., Yaqubov J., Bo‘ronov M., Dehqonboyeva Z. “Oila va mahallalarda tarbiyasi og‘ir bolalar bilan ishlash” qo‘llanma. -T.: “Gold Print Nashr” nashriyoti, 2018-yil.

6. “Oquvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi” Konsepsiyasi. 1993.

7. <http://dd.gov.uz>- O‘zbekiston Respublikasi Davlat dasturlari portali.

8. <http://uz.infocom.uz>

Mavjuda NIGMATOVA
Buxoro davlat universiteti
maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYAVIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISHDA TEXNOLOGIK YONDASHUV

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy faoliyat jarayonini texnologiyalashtirishning afzalliklari, tarbiya jarayonini demokratik, ijodiy xarakter kasb etishida tarbiyalanuvchilarning faolliklarini ta'minlash, ularda erkin fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishning muhim pedagogik muammolari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish texnologiyasini qo'llash ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: *milliy ong, yuksak ma'naviyat, tarbiyaviy tadbir, ta'lim texnikasi, pedagogik texnologiya, ruhiyat, dunyoqarash, iroda, dadillik, matonat, intizom, jamoatchilik, do'stlik.*

В статье рассматриваются преимущества технологизации образовательной деятельности в дошкольном образовании, обеспечение активного участия учащихся в развитии демократического, творческого характера образования, формирование навыков свободного мышления, важные педагогические проблемы технологизации образовательного процесса. в дошкольном образовании, научно-методические рекомендации по организации воспитательной деятельности с использованием технологии организации и проведения.

Ключевые слова: *национальное самосознание, высокая духовность, воспитательное мероприятие, воспитательная методика, педагогическая технология, психика, мировоззрение, воля, мужество, стойкость, дисциплина, общность, дружба.*

The article discusses the advantages of technologization of educational activities in preschool education, ensuring the active participation of students in the development of a democratic, creative nature of education, the formation of free thinking skills, and important pedagogical problems of technologization of the educational process. in preschool education, scientific and methodological recommendations for the organization of educational activities using the technology of organization and conduct.

Key words: *national self-consciousness, high spirituality, educational event, educational methodology, pedagogical technology, psyche, worldview, will, courage, fortitude, discipline, community, friendship.*

Kirish. Ma'lumki, xalqning yetuk milliy ongi, yuksak ma'naviyati har qanday taraqqiyotning bosh omili hisoblanadi. Respublikamizda demokratik huquqiy davlat va jamiyat qurish borasida ildam olg'a qadamlar tashlanmoqda. Yurtimizning buguni va ertasi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, ma'naviy-madaniy turmush tarzi har tomonlama kamol topayotgan yoshlar qo'lidadir. Shu boisdan ham kadrlar tayyorlash sifatini ustuvor qo'yayotgan davlatimiz yosh avlodni har tomonlama rivojlangan, madaniyatli, komil inson qilib shakllantirish masalasiga katta e'tibor qaratmoqda.

Maktabgacha ta'lim – uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich poydevori hisoblanadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab tarbiyalanuvchilarga bilim berish, ularni maktab ta'limiga tayyorlashda samarali metodlardan foydalanish asosiy vazifa qilib belgilandi.

Sog'lom va har tomonlama rivojlangan, o'sib kelayotgan avlodning shakllanishini ta'minlashga qaratilgan samarali maktabgacha ta'lim tizimini tashkil qilish bo'yicha Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qaror va farmonlar chiqarildi. Jumladan, "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil 1-son, 11-modda, 35-son, 923-modda), "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami 2017-yil 18-sentabr, 37-son, 984-modda), "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami 2017-yil oktabr) Qaror va Farmonlarini misol qilib keltirish mumkin.

Asosiy qism. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimiga oid chiqarilayotgan qaror va farmonlar maktabgacha ta'limi tizimiga tubdan zamonaviy yondashuv va yangi pedagogik texnologiyalardan

foydalanishni talab etadi. Bu o‘z-o‘zidan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘tilayotgan mashg‘ulotlar sifati va samaradorligini baholashni zamon talabi darajasiga yetkazishni taqozo etadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy faoliyat jarayonini texnologiyalashtirish quyidagi afzalliklarga ega:

- tarbiya jarayoni demokratik, ijodiy xarakter kasb etadi;
- tarbiyalanuvchilarning faolliklari ta’minlanib, ularda erkin fikr yuritish ko‘nikmalari shakllanadi;
- tarbiyalanuvchilarga berilayotgan umumiy ma’lumotlar hajmining asosiy qismini amaliy bilimlar tashkil etadi, ularga nazariy ma’lumotlarni taqdim etish, mohiyatini amaliy faoliyat vositasida to‘laqonli ochib bepish bilan uyg‘unlashtirilgan holda olib bopiladi;
- tarbiyachining faoliyati faqatgina nazariy bilimlarni yetkazib bepishdangina iborat bo‘lib qolmay, balki tarbiyachilarni faol faoliyatga rag‘batlantirish hamda fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishlariga ko‘maklashish, shuningdek, ularning faoliyatini doimiy ravishda nazorat qilish, zarur o‘rinlarda tezkor metodik yordamni tashkil etish, ularning faoliyatlari natijasini obyektiv baholashga yo‘naltiradi;
- tarbiya jarayonining samaradorligi ortadi.

So‘nggi yillarda o‘zbek olimlari tomonidan ham ta’lim texnologiyasi nazariyasiga oid bir qator maqola, risola va qo‘llanmalar yaratildi. Xususan, pedagog olim M.O.Ochilov mazkur iborani “Pedagogik texnologiya -tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta’lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va obyektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o‘zaro ta’sirini inobatga olib, ta’lim maqsadlarini oydinlashtirib, o‘qitish va bilim o‘zlashtirish jarayonlarida qo‘llanadigan usul va metodlar majmuidir” deya sharhlaydi, H.Saidahmedov esa quyidagicha: “Pedagogik texnologiya bu o‘qituvchi (tarbiyachi) tomonidan o‘qitish (tarbiya) vositalari yordamida tarbiyaviy chilarga ta’sir ko‘rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni”, - degan ta’rifni beradi .

Pedagogik texnologiyalarni ta’lim amaliyotida qo‘llash bilan birga ularning samaradorligini ham baholashga alohida ahamiyat berish kepk.

Milliy ta’lim ravnaqini ta’lim-tarbiya amaliyotiga samarali va tejimli, yangi shakl, vositalarni qo‘llash, izlanish orqali yuqori natijalarga erishishni ko‘zlovchi pedagogik texnologiyalar ta’minlaydi. Maktabgacha tarbiya yangi pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanish tarbiyani ta’limga bog‘lash, har ikkisini tuzilishi va mazmun jihatdan yaxlitlashtirishga, tarbiyalanuvchi faoliyatini uyushtirishga, mustaqil fikrlashga yo‘llash uchun qulay sharoit yaratadi.

Pedagogik innovatsion texnologiya ta’lim-tarbiya jarayonini ilg‘or vositalar, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o‘qituvchi yoki tarbiyachi tomonidan yaratiladi, ta’lim-tarbiya bosqichlarini o‘zaro bog‘lashga xizmat qiladi. Uning mazmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta’lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, tarbiyalanuvchida shakllantirish ko‘zda tutilgan ma’naviy sifatlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarni rejalashtirish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Shuning uchun ta’lim jarayonida bolaning tutgan o‘rni, ya’ni bolaga kattalar tomonidan ko‘rsatilgan munosabat pedagogik texnologiyaning muhim xususiyatidir.

Mashg‘ulotlar orqali samarali natijalarga erishish ilg‘or innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali yuzaga keladi. Demak, pedagogik texnologiya ta’limga tizimli yondashuv asosida tatbiq etiladi.

Ushbu tizimda: tarbiyalanuvchining yoshi, ruhiyati, dunyoqarashi, bilimi, faollik darajasi va boshqalar e’tiborga olinadi.

Tarbiyachining bu jarayon tashkilotchisi, rahbari, ijodkor sifatidagi faoliyati asosini uning bilimi va mahoratini, texnik vositalardan foydalanib, bolaning qiziqish va intiluvchanligiga ta’sir ko‘rsatish, bolani eng ko‘p darajada faollashtirishga xizmat qiluvchi usullarni qo‘llab, kafolatlangan samaralarga erishish qobiliyati tashkil etadi.

Innovatsion texnologiyalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida – o‘yin, mashg‘ulot, sayr davomida qo‘llash yaxshi samara beradi.

Biz hozir innovatsion texnologiyalarni o‘yin va mashg‘ulot davomida qo‘llash usulini ko‘rib chiqamiz.

Ma’lumki o‘yin faoliyati bolalar hayotining mazmunini tashkil etish bilan birga, ularni atrofni, qolaversa, barcha yaqinlarini tanishga yordam beradi, kelgusi o‘quv faoliyatiga ruhan, aqlan tayyorlab boradi. Ayni paytda o‘yin bola uchun ermak, quvonch manbai hamdir. Bolaning diqqati, xotirasi, ijodiy tafakkuri va tasavvurini hamda dunyoqarashini shakllantirishga, o‘stirishga xizmat qiladigan vositadir. Bu jihatlar bolaning bundan buyongi hayotida muhim o‘rin tutadi.

Kichiktoylarda o‘yinga bo‘lgan qiziqish shu darajadaki, ba’zilar faqat o‘yin bilan band bo‘lg‘isi keladi. “Keling, birga o‘ynaylik”, “Dadajon, onajon, o‘yinchoq olib bering” kabi iltijolarni ko‘p eshitishimiz mumkin. Bu takliflarga ko‘nib, hamma ishimizni bir daqiqa nariga surib, charchoq‘imiz, tashvishlarimizga

qaramay: “Bo‘pti, qaysi o‘yinni o‘ynaymiz” desak bormi, bir onda biz yo‘lovchi, haydovchi, o‘quvchi, ochko‘z bo‘ri, ko‘rqoq quyvon, ukolli doktor va boshqa personajlarga aylanib, ularning quvonchlariga sabab bo‘lamiz. Bola bilan o‘ynar ekanmiz, biz ham o‘z oldimizga maqsad qo‘yib borishimiz kerak. O‘yin davomida albatta biz ularning xohishi, istagi bo‘yicha harakat qilishimiz, bizning shu paytdagi asosiy ishimiz bolaning aytganlarini bajarib, uni xushnud qilish, vaqtini chog‘lash va shu asosda muayyan ko‘zlagan niyatimizni amalga oshirib, bolani ma‘lum maqsadga yo‘naltirishdir. Masalan, biz bola idrokini rivojlantirishni o‘z oldimizga vazifa qilib qo‘yishimiz mumkin. Idrokni o‘stirishga qaratilgan o‘yinlar bolada narsalarning rangi, shakli, kattaligiga ko‘ra tahlil qilish malakasini shakllantiradi.

Maktabga tayyorlov davriga kelib, bolalar rang qatoridagi 7 xil rangni bemalol farqlay oladilar. Ular asosiy geometrik shakllar (doira, turtburchak, to‘g‘ri turtburchak, uchburchaklar)ni bilishlari lozim. Namunaga ko‘ra yoki nomi aytilgan ma‘lum bir shakldagi narsalarni ajrata olishlari kerak. Shundan kelib chiqib, sizlarga 3-4 yoshli bolalar uchun o‘yin mashg‘ulotlarini tavsiya etamiz.

“Nima dumalaydi?”

Bu o‘yin mashg‘uloti orqali bolalar narsalarning shakli bilan tanishadilar.

Shunday qilib bolalar bilan quvnoq o‘yin – musobaqa uyushtiriladi.

- Kim o‘z qo‘lidagi shaklni pol yoki stolga o‘rnatilgan o‘yinchoq darvozadan tezroq dumalatib o‘tkaza oladi?

Dumalatish uchun sharcha yoki kubni taqlif etamiz. Avvaliga bolalar uchun darvozaga nimani dumalatib kiritishning farqi bo‘lmas, lekin bir necha urinishdan so‘ng u sharchani tanlagan odam yutayotganligini tushunib qoladi. Ana shunda kelasi safar u ham sharchani olishga harakat qiladi. Xuddi shu paytda:

- Nega aynan shu shaklni, sharni dumalatmoqchisan – deb so‘raymiz. Unga xatti-harakatlarini asoslashiga, xulosa chiqarishiga yordamlashamiz: “sharcha dumalaydi, kubik dumalamay to‘xtab qoladi”. Bola e‘tiborini kubdagi o‘tkir qirralarga qaratamiz. Sharning tekisligini, qirralari yoqligini ko‘rsatamiz.

Rasmda oddiygina doira va to‘rtburchak shaklida namoyon bo‘ladi. Bolaga shar va kub rasmini chizishni taklif etamiz.

Ushbu o‘yinlar orqali bolalarda mantiqiy fikrlashni, diqqatni jamlashni, sezgini, bir narsani tezda idrok etishni, umumlashtirishni, chaqqonlikni rivojlantirish mumkin. Ta‘lim tizimi shaxsni shakllantirish uchun davlat talablari asosida o‘qituvchilar, tarbiyachilar shaxsini har tomonlama mukammal bo‘lishini talab qiladi. Yangilanayotgan maktabgacha ta‘limga davlat va jamiyat tomonidan qo‘yiladigan ta‘lab ta‘lim sohalari bo‘yicha o‘zaro muvofiqlik va mutanosiblik to‘la ta‘minlanishi lozim. Shu jihatdan maktabgacha ta‘lim davlat talablarini belgilashda shuni hisobga olish kerakki, ta‘lim jarayonining tarkibini, xuddi shu tarkibiy qismlarning mazmunini ham modernezatsiyalash, yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash imkonini beradi.

Muhokamalar va natijalar. Kuzatishlarimiz va tajribalarimiz shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta‘lim muassasalarida tashkil etiladigan tarbiyaviy tadbirlar asosan quyidagi yo‘nalishlarda tashkil etiladi:

- 1) vatanparvarlik va huquqiy tarbiya;
- 2) axloqiy va estetik tarbiya;
- 3) ekologik tarbiya;
- 4) jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish;
- 5) kasb-hunarga yo‘llash.

Birinchi – vatanparvarlik va huquqiy tarbiya yo‘nalishidagi tarbiyaviy tadbirlar maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarning davlat ramzlari, konstitutsiya haqidagi tasavvurlari va bilimlarini tarkib toptirishga yo‘naltirilgandir. Bugun amaliy faoliyatda maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida o‘rgatiladigan konstitutsiya moddalarining sharhi yaratilganligini alohida ta‘kidlab o‘tish lozim.

MTTlarida “Estetik tarbiya” yo‘nalishidagi tarbiyaviy tadbirlarga katta e‘tibor qaratiladi. Musiqa, badiiy adabiyot, mehnat va milliy qadriyatlar vositasida tarbiyalanuvchilarni estetik tarbiyalashga doir tadbirlar tizimli ravishda tashkil etib kelinadi.

Bolada bir yoshligida sensor-hissiy idroki rivojlanib boradi. Keyinchalik bola idroki yanada takomillashib, nafaqat ba‘zi predmetlar xususiyatlarini idrok etish, balki ba‘zi san‘at asarlarini estetik tomonlarini ham idrok etishni boshlaydi.

Bola atrofdagi hissiy ta‘sirni vujudga keltiruvchi narsalarni ko‘rish orqali nutqi rivojlanadi, bola lug‘ati estetik xususiyatlar bilan boyib boradi: go‘zal-chiroysiz, toza-iflos, katta-kichik, quvonchli-quvonchsiz va h.k. Bolalar badiiy faoliyatining (musiqa, tasvirlash, badiiy so‘z) ba‘zi turlarini birgalikda amalga oshiradi. Kichik yosh guruhi bolalari estetik didi sekin-asta rivojlanib, takomillashib boradi. Badiiy asarlar va ularning ritmi, rifma, rangi kabi elementlarini idrok eta boshlaydi. Bola badiiy asarda tasvirlangan o‘ziga tanish predmetlarni ko‘rganida juda quvonadi va ularni tasavvuridan o‘tkazishga harakat etadi. Shu

kabi uning badiiy faoliyati asta-sekin oddiydan murakkablikga o'tib boradi. Ular nafaqat tasvirlashda, balki musiqiy faoliyatida ham oddiy malakalarni egallaydi, buni esa ijodiy faoliyatining dastlabki alomatlari sifatida namoyon qila boshlaydi. Bular esa bolada kichik yosh davridayoq badiiy faoliyatning estetik sifatini shakllanayotganini ko'rsatadi.

O'rta yosh guruhida idrok etish ancha rivojlanadi, uning aniqligi va xilma-xilligi namoyon bo'ladi. Bu davrdagi estetik idrok etish bolaning xususiy tajribasiga va uning qiziqishlariga asoslanadi. Endilikda bola badiiy obrazlarni estetik baholash, ba'zi estetik vositalarni his qila olish, san'at asarlarini ma'nosiga tushuna olish ko'nikmalariga ega bo'la boshlaydi. Bolalar endilikda ashulani qora so'zdan, badiiy asar, musiqa va tasviriy san'at janrlarni bir-biridan farqlay oladi. Ularda ijodkorlikka intilish aniq namoyon bo'la boshlaydi, bola raqsni, qo'shiq aytishni va sahna ko'rinishlarni aniq tarzda obrazli etib berishga uquvli bo'ladi.

Katta yosh guruh bolalari musiqa va badiiy asarlarni quyi guruhlarga nisbatan diqqatli tinglashi, tasviriy san'at asarlarini tasavvur qilish, ularni chuqurroq tushinish, yaxshilikka quvonish, yovuzlikka murosasiz bo'lish imkoniga ega bo'lishadi. Bu davrda badiiy-ijodkorlik ko'nikmalari jadal rivojlanadi, topishmoqlar, qo'shiqlar, tarmoqlarni amalda ishlatadi, rasmlar chizadi, applikatsiyalar bilan shug'ullanadi. Bu yosh bolalari nafaqat o'z ijodkorligiga, balki boshqalar ijodkorligiga ham baho berish ko'nikmalarini egallaydi. Bolalar endi san'at asarlarining faqat estetik sifatlarini tasavvur etibgina qolmasdan, balki ularning ma'no-mazmunlarini ham anglay oladi. Bolalarda san'at asarlarini va kundalik turmushda uchraydigan go'zallikka qiziqishlari shakllanadi. Badiiy ijodkorlik ko'nikmalari zarurli shakldagi turg'un va aniq bo'lmasa ham ko'zga tashlana boshlaydi.

Musiqa mashg'ulotlarida tarbiyalanuvchilarning bilish va aqliy faoliyatlari ham faollashadi. Bolalar musiqani diqqat berib tinglar ekanlar ko'p narsalarni bilib oladilar. Biroq bunda ular musiqaning eng umumiy xususiyatlari eng yorqin obrazlarinigina idrok etadilar. Agar bolaning oldiga musiqani e'tibor berib tinglash, uning ifoda vositalarini farqlash, qiyoslash, ajratish vazifalari qo'yilgan bo'lsa emotsional munosabat o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Bu aqliy harakatlar bola hissiyoti va kechinmalari doirasini boyitadi hamda kengaytiradi, ularga onglilikni tarkib toptiradi.

Musiqali estetik tarbiyaning garmonikligiga musiqa faoliyatining maktabgacha yoshdagi bolalarga tushunarli bo'lgan barcha turlaridan, o'sib kelayotgan insonning barcha imkoniyatlaridan foydalanilgan taqdiridagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Shu bilan birga, pedagogning vazifalari murakkablashtirilgan ekan, bolalarning o'zlariga xos ta'sirchanliklarini suiste'mol qilmaslik lozim. Musiqa san'ati, uning o'ziga xos xususiyatlari pedagogning oldiga bir qator spesifik vazifalarni hal qilishni ko'ndalang qilib qo'yadi:

- musiqaga muhabbat va qiziqishni tarbiyalash. Faqat emotsional ta'sirchanlikni va moyillikni o'sitirishgina musiqaning tarbiyaviy ta'siridan keng foydalanish imkonini beradi;

- bolalarni muayyan uyushtirilgan sistema yordamida turli xildagi musiqa asarlari hamda unda foydalaniladigan ifoda vositalari bilan tanishtirib, ularning taassurotlarini boyitish;

- bolalarda musiqa hamda ashula aytish, ritmika, bolalar musiqa asboblarni chalish sohasida eng oddiy ijrochilik malakalarini shakllantirib, ularni musiqa faoliyatini xilma-xil turlarida qatnashtirish. Ularni musiqa savodining elementlari bilan tanishtirish. Bularning barchasi bolalarga ongli, bevosita, ifodali harakat qilish imkonini beradi;

- bolalarga umumiy musiqa qobiliyatini (sensor yuqori ladda eshitish, ritmni his qilish qobiliyatlarini) o'stirish, xonandalik ovozi va harakatlarning ifodalaligini tarkib toptirish. Agar mazkur yoshda bolani aktiv amaliy faoliyatga o'rgatilsa va qatnashtirilsa uning barcha qobiliyatlari shakllanadi va o'sadi;

- bolaning musiqa didini kamol topishiga yordam berish. Musiqa haqida olingan ta'sir va tasavvurlar asosida avvalo ijro etilayotgan asarlarga nisbatan tanlash, so'ngra esa baholash munosabatlari namoyon bo'ladi;

- bolalarda musiqaga, eng avvalo, ularning bunday faoliyatlari uchun qulay bo'lgan musiqa o'yinlari va xorovodlarga obrazlarni ifodalash tanish raqs harakatlarida yangi birikmalar qo'llash, xirgoyi qilish kabi faoliyatlarga ijodiy munosabatni o'stirish. Bu kundalik hayotda o'rganilgan repertuardan foydalanish, musiqa asboblarni chalish, ashula aytish, raqsga tushishlarni qo'llashdagi mustaqillikni tashabbus, ishtiyoqni aniqlash imkonini beradi. Albatta, yuqoridagilarning namoyon bo'lishi ko'proq o'rta va katta maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

MTTlarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning muhim yo'nalishlaridan biri - ekologik tarbiyadir. Bolalarning tabiat qo'ynidagi xulq-atvori va faoliyatini kuzatish shuni ko'rsatdiki, ularda eng avvalo tabiat boyliklariga nisbatan iste'molchilik munosabatlari vujudga keladi. Ular eng chiroyli va noyob gulni uzib olishga, hech bir zaruriyatsiz shox-shabballarni sindirishga, jonivorlarga ozor yetkazishga, gulxan yoqish uchun yosh nihollarni chopib qirqishga va hokazolarga intiladilar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida kichkintoylarni kasb-hunarga yo’naltirish ishlarini tevarak-atrof va tabiat bilan tanishtirish, nutq o’stirish va badiiy adabiyot, tasviriy faoliyatni tashkil etish mashg’ulotlarida, sayr va ekskursiya, suhbatlar va qiziqarli uchrashuvlar, xullas kun davomida olib borish imkoniyatlari bisyor. 2-3 yoshli guruh bolalari “Dehqon va ayiq” ertagini tinglab, ilk bor dehqon kasb-hunari haqida eshitadi. Keyingi mashg’ulotlarda dehqon mehnati, uning yetishtirgan sabzavotlari bilan tanishadi. O’rta va katta tayyorlov guruhlarda turli kasb egalarining mehnati bilan tanishish orqali, interfaol usullarda o’tkazilgan mashg’ulotlarda, sayr va ekskursiyalarda, kuzatishlar orqali turli kasb-hunarlar haqida bilim va malakalarni oshirishadi.

Guruhga yangi o’yinchoq olib kelishdi. Tarbiyachi uni bolalarga birinchi ko’rsatganidayoq, bu o’yinchoqning chiroyiga, bekamu-ko’st qilinganligini, uni asrab-avaylash lozimligi, o’yinchoqni yasaganda kattalar mehnati haqida so’z yuritadi, bolalarda kattalar mehnati mahsuliga zavq uyg’otadi.

6-7 yoshli bolalar bilan “Kim bo’lsam ekan?” mavzusida qiziqarli o’yin mashg’ulotlari davomida bolalarda shifokor, uchuvchi, shofyor, militsioner, kosmonavt, o’qituvchi, artist, dehqon, tikuvchi kabi kasb-hunarga bo’lgan qiziqishlarini rivojlantiriladi. Ayniqsa, o’zbek milliy hunarmandchilik bilan tanishtirish davomida bolalar nafaqat qadimiy kasb-hunarlar haqida ma’lumot olishlari bilan birga ularda gilamdo’zlik, etikdo’zlik, kulolchilik, chilangarlik, naqqoshlik, do’ppido’zlik kabi hunarlarga qiziqish paydo bo’la boshlaydi.

Bolalarni turli kasb-hunar mahsuloti namunalari bilan tanishtirish davomida bu kasb egalarining mashaqqati, og’ir mehnat tufayli yaratilganligi, har qanday buyum ko’p mehnat evaziga yaratilishini uqtirilishi maqsadga muvofiqdir.

Tashkilotda bolalarni mehnatsevar etib tarbiyalash, mehnatga bo’lgan munosabatlarini shakllantirishi ilk bor o’z-o’ziga xizmat qilishdan, guruhlarda navbatchilik qilish, gullarni parvarish, hovlidagi maydonchada tozalikni saqlash kabi topshiriqlardan boshlanadi. Ushbu topshiriqlarni bajarishi orqali bolada bu topshiriqlarni bajarishga ishtiyoq, havasni uyg’otish muhim. Bajarilgan topshiriq uchun, mashg’ulotda chizgan rasm uchun bola rag’batlantirilsa, unda shu kabi ishlarni yanada yaxshiroq, puxtaroq bajarishga ishtiyoq paydo bo’la boshlaydi, har qanday ishni tirishqoqlik bilan, bekam-u ko’st bajarish ko’nikmalari shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnat qilish insonga eng zarur xislat ekanligi haqida dastlabki fikr shakllanishda o’yin jarayoni katta ahamiyat kasb etadi. Turli xil suyetli-rolli o’yinlar davomida “Do’kon-do’kon”, “Maktab-maktab”, “Sartarosh”, “Bozor-bozor”, “Doktor-doktor” kabi o’yinlarda bolalar sotuvchi-xaridor, shifokor-bemor o’zaro munosabati haqidagi tasavvurlari kengayadi. Nutq o’stirish va badiiy-adabiyot mashg’ulotlarida bolalar turli topishmoqlar, maqol va tez aytishlar bilan tanishadi. O’zbek xalqi yaratgan topishmoqlar uning ijtimoiy hayoti va turmushining barcha tomonlarini qamrab oladi. Topishmoqlarning katta qismi dehqon mehnati, dehqonchilik, polizchilik, uy yumushlari bilan bog’liq bo’lib bolalarda bu kasb egalariga bo’lgan qiziqishlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Masalan: oshpaz kasbi bilan tanishtirish jarayonida uning mehnat qurollari va mahsulotlari haqidagi topishmoqlar bilan tanishtirib boriladi.

1. Bir qozonda, qirq tuya suv ichadi (chuchvara).
2. Bir kosada ikki xil ovqat (chuchvara).
3. Oq sandiq, og’zi yo’q sandiq (chuchvara).
4. Bir uyda ikki o’rtoq, biri sariq, biri oq (tuxum).
5. O’zi bitta, qulog’i to’rtta (qozon).
6. Yuzi yumaloq, lo’ppi, bir qulog’i bor, boshiga kiygan do’ppi (choynak).
7. Yangi idish, tagi teshik (elak).

Dehqonchilik kasbi bilan bog’liq topishmoqlar:

1. Momiqqina onasi, yog’liqqina bolasi (paxta).
2. O’zi jonsiz, ishga polvon (ketmon).
3. Yer tagida oltin qoziq (sabzi).

Guruhda bolalarning ilk mehnat faoliyatini tarbiyachi tashkillashtiradi, aynan tarbiyachi o’zi har bir bolani mehnat qilishga o’rgatadi, bolalar o’rtasida mehnat jarayonida paydo bo’lgan munosabatlarni shakllantiradi, har bir bola o’zining va o’rtog’ining mehnatini to’g’ri baholay olishga odatlantiriladi, bajargan ishini baholashda oxirgi natijaga ko’ra hamda bajarish jarayonida sabr-toqatli, tirishqoq bo’lishga, ishini nihoyasiga yetkazilishiga qarab rag’batlantiriladi.

Xulosa. Demak mashg’ulot davomida yoki berilgan topshirig’ini bajarish jarayonida bolalarning o’zaro to’g’ri munosabatlarini shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi. Tayyorlov guruhi bolalarida o’rtoqlarining fikr-mulohazalari bilan hisoblashish his-tuyg’ulari rivojlangan bo’ladi. Yosh bola uchun uning kichkinagina muvaffaqiyatlariga kimdir xursand bo’lganligini his etish, maqtashi juda muhimligini katta

yoshdagilar esdan chiqarmasligi zarur. Muvaffaqiyat bolaga kuch bag‘ishlaydi, o‘zining qobiliyatiga ishonch hosil qiladi, topshirilgan topshiriqlarni yanada ko‘proq va yaxshiroq bajarishga istaklar paydo bo‘ladi, bolada mehnatga bo‘lgan ijobiy munosabatlar shakllanadi.

1. Texnologik yondashuv globallashuv sharoitida maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari tomonidan qisqa vaqt oralig‘ida bilim, ko‘nikma va odatlarni o‘zlashtirish imkoniyatini beradi. Mazkur nazariya g‘oyalarini maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiya jarayoniga tatbiq etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

2. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga texnologik yondashuvni tatbiq etish borasida dastlabki tajribalar to‘plangan bo‘lsa-da, ularning ommalashganlik darajasi talablarga to‘liq javob bepmaydi.

3. Garchi maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyaviy faoliyatida texnologik yondashuv asosida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishning shakllanganligiga tarixan uzoq vaqt bo‘lmagan bo‘lsa-da, ayni vaqtda pedagogika nazariyasi ushbu yondashuv mohiyatini ochib bepishga xizmat qiluvchi salmoqli manbalarga ega.

4. Texnologik yondashuv va uning mohiyati bopasidagi metodik tavsiyalarning aksariyati ushbu ta‘limot yuzasidan nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga imkon bepadi.

5. Tarbiyaviy tadbirlar – turli xil moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarga javob beruvchi, tarbiyaviy maqsadlarining yagona majmuasiga bo‘ysundirilgan, bir-biri bilan o‘zaro hamkorlik qiluvchi, o‘zida bir butun ta‘limni ko‘zda tutuvchi tarbiyaviy ta‘sir majmuidir. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiya ish yo‘nalishining asosini tarbiyaviy tadbirlar tashkil etadi.

6. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda treninglar, mujassam mashg‘ulotlar, o‘yinlardan foydalanish tarbiyaviy ishni samarali tashkil etish va amalga oshirishga imkon beradi.

7. Pedagogika fanida bugungi kunga qadar olib borilgan ilmiy izlanishlar doirasida maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda texnologik yondashuv imkoniyatlaridan foydalanish muammosini tadqiq etishga yo‘naltirilgan tadqiqot ishlari amalga oshirilmaganligi ayon bo‘ldi. Shuningdek, pedagogik texnologiyalarning mohiyati haqida nazariy ma‘lumotlar berishga xizmat qiladigan ilmiy-metodik manbalar mazmunida ham maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish sohasidagi qarashlar bayon etilmagan.

8. Tadqiqot doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishlarining samarali yakunlanganligini tajriba so‘ngida olingan natijalar tasdiqladi.

Yuqorida bayon etilgan xulosalarga tayangan holda maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda texnologik yondashuvning imkoniyatlari borasidagi nazariy-amaliy bilimlarni tapg‘ib etish, ularda pedagogik faoliyat jarayonida ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, bu borada samaradorlikka erishish muvaffaqiyatini ta‘minlashga xizmat qiluvchi quyidagi tavsiyalarni ilgari suramiz:

1. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda texnologik yondashuv imkoniyatlaridan foydalanishning nazariy-amaliy asoslarini ishlab chiqish, uni respublikamiz hududida faoliyat olib borayotgan MTT tarbiyachilari o‘rtasida keng tapg‘ib etish.

2. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida texnologik yondashuv asosida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishning yaxlit tizimini yaratish.

3. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarbiyachilarini texnologik yondashuv asosida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishga oid manbalar bilan qurollantirish.

4. MTT tarbiyaviy faoliyatida foydalaniladigan manbalar mazmuniga texnologik yondashuv elementlarini singdirish.

Adabiyotlar

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta‘lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablari / Maktabgacha ta‘lim. –Toshkent, 2018. № 9. – B. 4-5.

2. Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat standarti.

3. Abdurahimova D. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarni axloqiy ruhda tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish: Ped.fan.nom. ... diss. avtoref. – T., 1998. – 18 b.

4. Muhamedov G., Ochilov S., Haydarov M., Ismoilova Z., Nurmuhamedova L. Bola tarbiyasi konsepsiyasi. O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Nizomiy nomidagi TDPU. “O‘qituvchi” NMIU, 2006. -32 b

5. Мавжуда Махмудовна Нигматова, Дилфуза Шавкатовна Мирзаева. 2022. [арт-терапия, как средство адаптации детей раннего возраста к доо](#) Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. № 2, 1209-1215 ст.

Zilola KURBONOVA

Buxoro davlat universiteti
maktabgacha ta’lim kafedrası
o’qituvchisi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASHNING ASOSIY MEXANIZMLARI

Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashning asosiy mexanizmlari va maktab ta’limiga sifatli tayyorlashning vazifalari, muammolari haqida muhim ma’lumotlar xulosa va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so’zlar: maktabga tayyorgarlik, shaxsiy tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik, aqliy tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik, maxsus tayyorgarlik, obrazli tafakkur.

В данной статье приведены важные сведения, выводы и рекомендации по основным механизмам подготовки дошкольников к школе, задачам и проблемам качественной подготовки к школьному обучению.

Ключевые слова: школьная подготовка, личностная подготовка, физическая подготовка, умственная подготовка, психологическая подготовка, специальная подготовка, образное мышление.

This article provides important information, conclusions and recommendations on the main mechanisms of preparing preschool children for school and the tasks and problems of quality preparation for school education.

Key words: school preparation, personal preparation, physical preparation, mental preparation, psychological preparation, special preparation, figurative thinking.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta’limni uyda, ota-onalarning mustaqil ta’lim berishi orqali yoki doimiy faoliyat ko‘rsatadigan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida, shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga jalb qilinmagan bolalar uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarda, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi. Bu yerda ular haftada 2-3 marta shug‘ullanishadi. Ota-onalarga maktabgacha ta’lim shaklini tanlash huquqi beriladi. 6-7 yoshli bolaning maktab ta’limiga tayyorligini aniqlashda maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchilar asosiy shart hisoblanmish – bolaning maktabga tayyorligi maktabgacha va maktab davridagi hayot tarzi hamda faoliyati uchun ko‘prik vazifasini o‘tashini, oila yoki maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim-tarbiya sharoitlarida maktab ta’limiga ozorsiz o‘tkazishni ta’minlash zarurligini hisobga olishlari lozim.

Asosiy qism. Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta’limiga o‘tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatlarida anchayin jiddiy o‘zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani uydayoq maktab ta’limiga tayyorlash, uni uncha qiyin bo‘lmagan bilim, tushuncha, ko‘nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo‘ladi. Yetakchi mutaxassislarning fikriga ko‘ra, “Maktabga tayyorgarlik” tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning quyidagi yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi:

- jismoniy;
- shaxsiy (ruhiy);
- aqliy;
- maxsus tayyorgarlik.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarni maktab ta’limiga har tomonlama sifatli tayyorlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli bu davr bolalar hayotidagi o‘yin faoliyatining nisbatan kamayishi va o‘qish faoliyatining ko‘payishi bilan xarakterlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta’limiga o‘tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatlarida anchayin jiddiy o‘zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shunday ekan maktabga ta’limiga tayyorlashning asosiy mexanizmlari nimalardan iboratligiga alohida to‘xtalib o‘tishimiz lozim.

Avvalambor 6-7 yosh bolalarning jismoniy rivojlanish xususiyatlariga alohida to‘xtalib o‘tishimiz lozim. Bola hayotining yettinchi yilida undagi harakatlar ko‘lami kengayadi va aniqlashadi, uning jismida harakatlarning o‘zaro moslashuvi boshlanadi. 6-7 yoshli bolalar o‘zini idora qilish va o‘z harakatlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘la boshlaydi. Bu yoshdagi o‘g‘il bolalarda mustaqil faoliyat ko‘rsatish, tashabbuskorlik rivojlanadi hamda kattalar fikrini tinglash ishtiyoqi shakllanadi. Bu davrda bolaning bo‘yi 120 cm ga yetadi, og‘irligi 22-24 kg bo‘ladi. Bu yoshda bola chiniqadi, qiziquvchan bo‘ladi, o‘z salomatligini nazorat qila oladi. Uning idrok kuchi va tafakkuri jadal rivojlanadi, moddiy borliqni bilishga

intila boshlaydi. Bolalarda gigiyenik malakalar shakllana boradi. Bolani maktabga tayyorlash jarayonida ularda faoliyatning yangi turi bo‘lgan ta‘lim olishga, o‘qishga ishtiyoq uyg‘otish lozim. Bu o‘rinda bolalarni ruhan ta‘lim jarayoniga kirishishga tayyorlash maqsadida dastlabki o‘quv elementlarini o‘rgatish lozim. Har qanday olti yoshli bola maktabga qabul qilinishi mumkin. Buning uchun u jismonan, ruhan hamda aqliy jihatdan ta‘lim olishga tayyor bo‘lishi kerak.

Jismoniy tayyorgarlik bolaning sog‘lomligi, harakat ko‘nikmalari va sifati, qo‘l mushaklari va ko‘rish-motor muvofiqligi rivojlanganligi bilan izohlanadi.

Bolaning maktabda o‘qishga jismoniy tayyorligi o‘qishning muvaffaqiyatli bo‘lishida katta ahamiyatga egadir. Maktabga chiqish munosabati bilan bola turmush tarzining qayta qurilishi, kun tartibining o‘zgarishi, jiddiy o‘quv mehnati, darslarning davomiyligi undan sezilarli jismoniy zo‘r berishni talab qiladi. Maktabga jismoniy tayyorlik ko‘pgina tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Bu, birinchi navbatda, bola salomatligining yaxshi bo‘lishi, organizmning chiniqqanligi, ma‘lum darajada chidamliligi va ish qobiliyati, kasalliklarga qarshilik ko‘rsata olishidir. Bolalarni maktabga tayyorlashda barmoq mayda muskullarining rivojlanishi alohida o‘rin egallaydiki, bu yozuvni muvaffaqiyatli egallashning zaruriy shartidir. Maktabga jismoniy tayyorlik, shuningdek, bola tomonidan madaniy gigiyenik malakalarni egallanishini, ularda shaxsiy gigiyena qoidalarga rioya qilish odatini tarbiyalashni nazarda tutadi. Jismoniy tayyorlik bolada maktabga yetuklikni shakllantirishning zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Maktabga yetuklikni aniqlashda bola sog‘ligining holati va organizmning biologik yetukligini baholash (antropometrik ko‘rsatkichlar, suyak, mushak, nafas olish va yurak-tomir tizimining) rivojlanganligini nazarda tutuvchi ko‘p omilli tahlildan, maktabga funksional tayyorlikning, “Maktabga yetuklik”ning asosiy ko‘rsatkichi va, eng avvalo, bir qator fiziologik funksiyalarining rivojlanish darajasini baholashdan foydalaniladi. Bularga: partada anchagina uzoq muddat o‘tirish uchun zarur bo‘ladigan tormozlanish qobiliyatining rivojlanganligi; harakatlarni yaxshi boshqarish, jumladan, yozish va rasm solishga aloqador grafik vazifalarni bajarishda zarur bo‘ladigan barmoqlarning mayda harakatlari; ijobiy va tormozlanishiga xos shartli aloqalarni nisbatan tez hosil qilish hamda mustahkamlash, shuningdek, ikkinchi signal tizimning yetarlicha rivojlanganligi kiradi.

Shaxsiy tayyorligi atrof-muhitga, kattalarga, tengdoshlariga, o‘simliklar dunyosiga, tabiiy hodisalarga, shaxsiy madaniyatni shakllanganligini nazarda tutadi.

Aqliy tayyorgarlik bola obrazli va mantiqiy fikrlashi, tasavvurning, odamiylikning, bilimga qiziqishning, mustaqilligining, o‘zini-o‘zi nazorat qilishga, hamda o‘quv faoliyatini kuzatish, eshitish, eslab qolish, solishtirish kabi asosiy turlarini bilishni o‘z ichiga oladi.

Maktabga aqliy tayyorlikning muhim tarkibiy qismi maktabga o‘qishga kirayotgan bolada atrof, dunyo haqida yetarlicha keng bilish boyligining mavjud bo‘lishidir. Bilimlarning bu fondi o‘qituvchi o‘z ishini tashkil etishda tayanadigan zarur asos hisoblanadi. Bolaning maktabga aqliy tayyorligida ular egallagan bilimlarning sifati ahamiyatlidir. Bilimlar sifatining ko‘rsatkichi birinchi navbatda ularni bolalar tomonidan ongli egallanganligi; tasavvurlarining aniq va tabaqalashtirilganligi; oddiy tushunchlar mazmuni va hajmining to‘liqligi; o‘zlariga tushunarli o‘quv va amaliy vazifalarni hal etishda bilimlarni mustaqil qo‘llay olish qobiliyatlari; muntazamlilik, ya‘ni maktabgacha ta‘lim yoshidagilarning narsa va hodisalar o‘rtasidagi tushunarli, muhim aloqa hamda munosabatlarni aks ettira bilish qobiliyatidir. Bola maktabga aqliy tayyorgarligining tarkibiy qismi bola bilish faoliyatini muayyan darajada rivojlangan bo‘lishidir. Bu o‘rinda, birinchidan, bilish jarayonining o‘sib boruvchi ixtiyoriyligi; materialni ma‘no jihatdan ixtiyoriy eslab qolish va takror ifodalash, narsa va hodisalarni rejali idrok etish, qo‘yilgan bilish va amaliy masalalarni maqsadga muvofiq hal etish qobiliyati va shu kabilar; ikkinchidan, bilish jarayonlari sifatini oshirish: sezgilarning aniqligi, idrokning to‘liq va tabaqalashtirilganligi, eslab qolish va takror ifodalashning tez va aniqligi; uchinchidan, bolada atrof-dunyoga bilish munosabatlari, bilimlarni egallash va maktabda o‘qishga intilishning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabga aqliy tayyorlikni shakllantirishda bo‘lajak o‘quvchi tafakkur faoliyatining umumiy darajasi muhim ahamiyatga ega. MTTning bolalarni aqliy tarbiyalashga oid olib borayotgan muntazam, maqsadga muvofiq ish sharoitlarida bolalarda (faoliyat) tafakkur faoliyatida narsalarning ko‘p tomonlama tahlil qilish qobiliyati, ijtimoiy tarkib topgan sensor etalonlardan fan hamda hodisalar xususiyat va sifatlarini tadqiq qilishda foydalana bilish narsa va hodisalaridagi asosiy aloqa, bog‘liqlik, belgilarni aniqlash asosida oddiy umumlashtirishlar qilish qobiliyati, o‘xshashlik va farqlanuvchi belgilarni izchil ajratish asosida narsalarni qiyoslashni amalga oshirish ko‘nikmasi tarkib toptiriladi. Bo‘lajak o‘quvchilarda aqliy faoliyatning elementar mustaqilligi: o‘z amaliy faoliyatni mustaqil rejalashtirish va uni reja asosida amalga oshirish ko‘nikmasi, oddiy bilish vazifasini qo‘yish va uni hal etish ko‘nikmasi va shu kabilar rivojlantiriladi. Maktabda aqliy tayyorlik, shuningdek, bolalar tomonidan o‘quv faoliyati elementlarining egallab olinishini ham o‘z ichiga oladi.

Maktagacha yoshdagi bolaning aqliy rivojlanishidagi asosiy o‘ziga xoslik - obrazli bilish shakllarini (idrok etish, obrazli fikrlash, tasavvur) egallashda yorqin namoyon bo‘ladi. Bolada rivojlanadigan bilish jarayonlari xilma-xil faoliyat turlarida aks etadi. Bolada tasavvurning rivojlanishi orqali u faoliyatning manzarasini ko‘z oldiga keltira oladi, amalga oshirishi lozim bo‘lgan ishni rejalashtiradi, undan nima talab qilinayotganligini aniqlay oladi. Bola o‘zlashtirayotgan bilimlar faqatgina uning fikrlash doirasini o‘stiribgina qolmay, balki kishilarga, ularning xatti-harakatlariga, tabiat, san‘at kabilarga munosabatni qaror toptiradi.

Bolaning maktabda ta‘lim olishi samarasi uning ona tilini bilishiga va nutqni qanchalik rivojlanganligiga ko‘proq bog‘liq bo‘ladi. Chunki butun o‘quv faoliyati shularga, ya‘ni nutqiy mantiqiy rivoji, bolaning kattalarning yordamisiz mustaqil fikrlashi, til rivojlanganligi yutuqlarida erkin foydalana olishi, hikoya qilish, mulohaza yuritish, o‘z tasavvurini izohlay olish, tushunarli qilib bayon etish kabilar.

Bugungi maktab bolasidan aniq bilimlarga emas, fikrlash ko‘nikmasi, kattalar hamda sinfdosh o‘rtoqlarini tushunish, ular bilan hamkorlik qilish talab etiladi. Shuning uchun bolaning maktabga qadam qo‘yayotganida nechog‘li bilimga ega ekanligi emas, balki uning yangi bilimlarni egallashga tayyorligi, atrof-olamga moslashish ko‘nikmasi, voqea-hodisani mustaqil ravishda tahlil etishi muhimroq hisoblanadi.

Bolani biror narsaga o‘rgatishgina emas, unda o‘z kuchiga ishonchni orttirish, o‘z g‘oyasini himoya qilish, mustaqil ravishda bir qarorga kelish ko‘nikmasini shakllantirish ham muhimdir.

Muhokamalar va natijalar. Maktabgacha yoshdagi bolalarning maktab ta‘limiga o‘tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqish va munosabatlarida jiddiy o‘zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta‘lim muassasasida yoki oilada maktab ta‘limiga tayyorlash, uni murakkab bo‘lmagan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo‘ladi. Bunday tanishtiruv moslashuv davrining jiddiy qiyinchiliklaridan xalos bo‘lishga yordam beradi.

Shunga binoan, MTT bilan maktab o‘rtasidagi bog‘liqlik bir tomondan, bolalarni maktab ta‘limi talablariga javob beradigan darajada umumiy rivojlantirib va odobli qilib tarbiyalagan holda maktabga o‘tkazishni, ikkinchi tomondan, o‘qituvchining katta maktabgacha yoshdagi bolalarning egallagan bilim, malaka sifatlariga va tajribalariga tayanib, ulardan o‘quv-tarbiyaviy jarayonda samarali foydalanishni taqozo etadi. MTT bilan maktab o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik katta maktabgacha yoshdagi bolalar va maktabning boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta‘lim-tarbiya berish sharoitini yaqinlashtirishga yordam beradi. Shunday ish tutilganda bolalarning maktab sharoitiga moslashishi ancha yengillik bilan o‘tadi. Bolalar maktab sharoitiga tabiiy moslashib ketadilar, bu esa o‘z navbatida maktabda o‘qishning birinchi kunidan boshlab ta‘lim-tarbiya ishining samarasini oshiradi. Zero, maktabgacha ta‘lim muassasasi xodimlari birinchi sinfda bolalar oldiga qo‘yiladigan talablarni yaxshi bilishlari, maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarni shunga muvofiq ravishda ta‘lim olishga tayyorlashlari kerak.

Maktabga umumiy tayyorgarlik MTTning maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashga oid davomli, maqsadga muvofiq ta‘lim-tarbiyaviy ishning muhim yakuni sifatida namoyon bo‘ladi. Maktabga umumiy tayyorgarlik bolaning maktabga borish vaqtiga kelib aqliy, ma‘naviy, estetik va jismoniy rivojlanishda erishgan shunday darajasidirki, u bolaning maktab ta‘limining yangi sharoitlariga va o‘quv materialining ongli egallashga faol kirib borishlari uchun zarur asosni yaratadi.

MTTning maktabga tayyorlov guruhlari bolalarda eng oddiy matematika tasavvurlarini tarkib toptirish, nutqni o‘stirish hamda savodni egallashga tayyorlanish yuzasidan o‘tkaziladigan jadal ish bolalarni maktabda o‘qishga maxsus tayyorlashning zarur darajasini ta‘minlaydi. Aksariyat hollarda bolaning aqliy rivojlanganlik darajasi haqida gapirilganda uning so‘z boyligi zaxirasi bilan aniqlanadigan aqliy bilimlari miqdoriga ko‘proq e‘tibor beriladi. Ota-ona, hattoki, ayrim o‘qituvchilar ham bola qanchalik ko‘p bilsa, u shunchalik rivojlangan bo‘ladi, deb o‘ylaydilar. Aslida esa unday emas, fan-texnika, ommaviy axborot vositalarining keng tarqalganligi tufayli bugungi kun bolalari go‘yo ma‘lumotlar ummonida suzib yurgandek bo‘lmoqdalar. Bu esa ulardagi so‘z boyliklarning keskin o‘sishiga asos bo‘lmoqda, lekin bu ularning tafakkuri ham shunday jadallikda rivojlanayapti, degan gap emas. Maktabda amal qilinayotgan o‘quv dasturlarini o‘zlashtirish boladan narsalarni taqqoslay bilish, tahlil qilish, umumlashtirish, mustaqil xulosalar chiqarish kabi bilish jarayonlarining yetarlicha rivojlangan bo‘lishini taqozo etadi. Shuning uchun ham hozirgi kunda maktab amaliyotchi psixologlari tomonidan bolalarni birinchi sinfga qabul qilish jarayonida keng foydalanilayotgan psixodiagnostik vositalar, testlar, so‘rovnomalar, asosan, bolada yuqorida keltirib o‘tilgan xususiyatning rivojlanganlik darajasini aniqlashga mo‘ljallangan metodikalardan iboratdir.

5-7 yosh bolaning maktabga intellektual (aqliy) tayyorligining yana muhim ko‘rsatkichlaridan biri bu ulardagi obrazli tafakkurning oliy darajada rivojlanganligidir. Bularga tayangan holda bola atrof-muhitdagi narsa-hodisalar o‘rtasidagi eng muhim xususiyatlarni, munosabatlarni farqlay olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu o‘rinda bolalar chizmalari tasvirlarni shunchaki tushunibgina qolmay, balki ulardan muvaffaqiyatli foydalana oladigan bo‘ladilar. Biroq ularning tafakkuri umumlashtirish xislatlariga ega bo‘la borsada,

predmetlar va ularning (tafakkuri) o‘rnini bosuvchilar bilan aniq xatti-harakati obrazligicha qolaveradi. Maktabgacha yosh davridayoq bola kichik maktab yosh davrida yetakchi faoliyat turi bo‘ladigan – o‘quv faoliyatiga tayyorlangan bo‘lishi lozim. Bunda bolada ma‘lum bir tegishli masalalarning shakllangan bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Bunday malakalarning asosiy xususiyatlaridan biri bolaning o‘quv topshirig‘ini ajratib olishi va faoliyatni mustaqil maqsadga aylantira olishidir. Bunday jarayonlar birinchi sinf o‘quvchilaridan topshiriqda o‘zi belgilagan o‘zgarish, yangilik alomatlarini qidirib topa bilish va ulardan hayratlanishni, qiziqishni talab qiladi. Bunday topshiriqlar amaliy ishlarga aylantirilsa yoki o‘yin tarzida bajarilsa, osonroq kechadi va bola o‘zlashtiradi.

Yuqorida to‘xtalib o‘tganimiz intellektual tayyorlik bolaning maktabda muvaffaqiyatli o‘qib ketishi uchun yagona zamin emas. Agar bola zarur malaka va ko‘nikmalar zaxirasiga ega bo‘lsa, unda intellektual rivojlanganlik darajasi ham yuqori bo‘lsa-yu o‘quvchilikning ijtimoiy holatiga shaxsan tayyor bo‘lmasa, maktabda o‘qib ketishi qiyin kechadi. Agar o‘qituvchi yoki ota-ona uni o‘qishga qiziqitira olmasalar, o‘quv vazifalarini zo‘rma-zo‘raki, sifatsiz, qo‘l uchida bajaradilar. Bunday hollarda zarur natijalarga erishish qiyin bo‘ladi. Eng yomoni, bu yoshda maktabga borishni xohlamaydigan bolalar ham uchrab turadi. Bu bolani maktab ta‘limiga tayyorlashning dolzarb muammosi desak to‘g‘ri bo‘ladi. 5-7 yoshli bolaning maktabga borishdan bosh tortishi asosan uni tarbiyalashda ota-onalar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatoning oqibati hisoblanadi. Ayrim ota-onalarda maktabgacha yosh davridagi bolani maktab bilan qo‘rqitish hollari ham kuzatiladi. Turli ta‘na-dashnomlar bolada maktabdan qo‘rqish, undan xavfsirashning shakllanishiga asos bo‘lishi mumkin. Shunday qo‘rquv bilan maktabga borgan bolalarning maktabga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish, ularda o‘ziga nisbatan ishonch uyg‘otish uchun haddan ziyod kuch, vaqt, mehnat, sabr-toqat, chidam, e‘tibor zarur bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlashda quyidagi tamoyillar ustuvor hisoblanadi:

1. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv.
2. Bolaga yo‘naltirilgan ta‘limiy yondashuv.
3. Pedagogning ilmiy-pedagogik-psixologik strategiyasi.
4. Rivojlantiruvchi yondashuv.
5. Ta‘limning rivojlantiruvchi muhiti.

1. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv ta‘lim jarayonini tashkil etishning asosi sifatida shaxsning jamoa oldidagi ustuvorlikni nazarda tutgan holda unda insonparvarlik munosabatlarining shakllantirilishini taqozo etadi. Bunda bola o‘zini shaxs sifatida his etadi, boshqa kishilarda shaxsga xos xislatlarni ko‘rishni (kattalarda va atrofdagilarda) o‘rganadi. Har bir bola imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish esa pedagogning qadriyatlar yo‘nalishlari xatti-harakatida namoyon bo‘ladigan moddiy va ma‘naviy qadriyatlarga munosabati, mo‘ljallar tizimi, xohish-istaklari bilan belgilanadi.

Bolaga yo‘naltirilgan ta‘limiy yondashuv bu - bolaning yosh xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari, talab-ehtiyojlari, uning ta‘lim maqsadlariga erishish uchun yordam beradigan maktabgacha ta‘lim tashkilotiga kelgunga qadar to‘plangan tajribasi e‘tiborga olingan ta‘lim shaklidir. Bunda:

- ta‘lim jarayoni bolaning eng odatiy tarzda rivojlanishi, ta‘lim olishiga oid bilimlarga asoslanishi lozim;

- ta‘lim muvaffaqiyatli pedagog tomonidan bolani rivojlantirish va o‘qitish uchun va yo‘l-yo‘riqlariga oid bilimlarni qay darajada egallaganiga bog‘liq.

Pedagogning asosiy vazifasi bolaning rivojlanishiga ko‘maklashishidir. Maktabgacha ta‘limning o‘ziga xos xususiyati - bolaning qadrini tushunish va vaqtdan oldin ulg‘ayishiga undamaslik. Pedagogdan quyidagilar talab etiladi: bolalar qanday bo‘lsa shunday qabul qilish; bolaning o‘z maqsadiga erishishiga yordam berish; bolalarning qanday qobiliyatga ega ekani va o‘z guruhida qanday ta‘lim olayotganini bilish, tarbiyachi ta‘lim jarayonini rejalashtirish va tashkil etish uchun boshlang‘ich asos bo‘lib xizmat qiladi.

Agar pedagog barcha bolalarga bir xil tarzda yondashadigan bo‘lsa, ular muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Pedagog bolalar faoliyatining barcha yo‘nalishlari turli mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishini muntazam kuzatib borish, ularning qobiliyati, qiziqishlari talab-istaklari haqida bilishga intilishi kerak. Pedagog ana shu ma‘lumotlarga tayangan holda bola rivojlanishida ijobiy o‘zgarishlarga erishishi uchun shu faoliyatini rejalashtiradi va qo‘llayotgan usullarini ta‘lim jarayoniga moslashtiradi. Materiallar va mashg‘ulotlar bolalar biladigan va qilishni o‘rgangan narsalargagina emas, balki yangi ko‘nikma va tushunchalar hosil qilish uchun ulardan muayyan harakat, intilish talab qiladigan mashg‘ulotlarga asoslangan ta‘limiga bolalarni maktabga tayyorlashda kutilgan muvaffaqiyatni keltiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta‘lim-tarbiya berishning asosiy maqsad va vazifalari bolalarni jismoniy va aqliy jihatdan rivojlantirish, ularning ruhiyat, shaxsiy qobiliyatlari, intilish va ehtiyojlarini qondirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, mustaqillik g‘oyalarga sodiq holda voyaga yetib borishni

ta'minlash, ularni maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yilgan davlat talablariga muvofiq maktab ta'limiga tayyorlashdan iborat.

Shunday ekan, yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi tavsiyalarni berish mumkin: bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda yuqorida sanab o'tilgan vazifalar va ularning ijrosini samarali ta'minlash ularni maktab ta'limiga sifatli tayyorlashning asosiy mezonini hisoblanadi. Har bir bolaning individual psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bolaga yondashib maktab ta'limiga tayyorlash ularning maktabga nisbatan qiziqish va xohishlarini uyg'otadi. Umumiy tayyorgarlik bola maktab ta'limiga o'tish davriga kelib erishadigan psixik rivojlanishning muayyan darajasi bilan ifodalanadi. Psixologik tayyorgarlik tushunchasi maktab ta'limi nuqtayi-nazaridan 1-sinfga borayotgan bola psixik rivojlanishidagi muhim sifat ko'rsatkichlarini muvoffaqqiyatli jamlaydi.

Maktab ta'limiga psixologik tayyorgarlik bolaning o'qishga intilishi o'quvchi bo'lish ishtirokida bilish faoliyati va tafakkur operatsiyalarining yetarlicha yuqori darajasi bolaning o'quv faoliyati elementlarini egallashi iroda va ijtimoiy rivojlanishning muayyan darajasida namoyon bo'lishda asoslangan tayyorlikni o'z ichiga oladi. Bolani maktabga psixologik tayyorgarligining barcha komponentlari bolani sinf jamoasiga olib kirish maktabda o'quv materialini ongni faol egallash keng doiradagi maktabga oid majburiyatlarni bajarishni kamrab oladi. Bolalarni maktabda o'qitishning samaradorligi ko'p jihatdan ularning tayyorgarlik darajalariga bog'liq bo'ladi. Maktabda o'qishga tayyorgarlik MTT va oilada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaga qo'yadigan talablar orqali aniqlanadi. Maktabga umumiy tayyorgarlik MTTning maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashga oid davomli, maqsadga muvofiq ta'limiy-tarbiyaviy ishning muhim yakuni sifatida namoyon bo'ladi.

Maktabga umumiy tayyorgarlik bolaning maktabga borish vaqtiga kelib aqliy, ma'naviy, estetik va jismoniy rivojlanishda erishgan shunday darajasidirki, u bolaning maktab ta'limining yangi sharoitlariga va o'quv materialining ongli egallashga faol kirib borishlari uchun zarur asosni yaratadi. Bunda esa maktabgacha ta'lim tashkilotlari muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash zarurki, davlatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohalarda tub islohotlarni olib bordi. Xususan, ta'lim sohasida tub islohotlar amalga oshirildi. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, ta'lim sohasidagi boshqa qonunlar buning yaqqol dalilidir. Bulardan ko'zlangan maqsad davlatimizga kerakli bo'lgan yetuk, har tomonlama kamol topgan barkamol shaxsni tarbiyalash va ularni jamiyatda o'z o'rnini topishga imkoniyatlar yaratib berishdan iborat qilib qo'yilgan. Albatta, bu xayrli ishlarni ta'lim-tarbiyaning birinchi va asosiy bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkilotidan olib borish maqsadga muvofiqdir, deb ko'rsatib o'tilgan. Shunday ekan, biz birinchi navbatda maktabgacha ta'lim tizimiga e'tibor berishimiz, ularni yetuk malakali mutaxassislar bilan boyitishimiz zarurdir. Tarbiyalanayotgan bolalarni har tomonlama bilimli odob-axloqli qilib tarbiyalash bizning oliy maqsadimizdir.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 802-sonli “Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning DAVLAT STANDARTI”. 22.12.2020-yil.
2. Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q., Qayumova N.M., A'zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. –T., 2019. 132-133 b.
3. Asqarova D.Q. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi. –T, 2020. 13-17b.
4. Qurbonova. Z.I. The Importance of the use of Educational Technologies Aimed at the Development of the Child's Personality in Preschool Education.” nomli Ilmiy maqola -International Journal of Culture and Modernity” ISSN 2697-2131, Volume 11 47,48,49 b . Испания 2021
5. Мирзаева Д.Ш., Курбанова З.И. “Арт-педагогические технологии коррекции страхов у детей дошкольного возраста” SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 7 | 2021. 1206-1212b.
6. Rakhimkulovich I.S. Specific Features of the Text in the Cognitive-Pragmatic Approach//Middle European Scientific Bulletin.-2021-T.8.
7. Mirzayeva D.Sh. Nasimova N.Q. and Hakimova N.S “ Арт –педагогика для дошкольников”. Scientific progress 2.7(2021) 1201-1205.
8. Raxmonova G.S., Hakimova.N.S. O'quvchilarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda interfaol metodlardan foydalanish// Oriental renaissance:Innovative, educational, natural and social sciences. -2022.-T.2.-C.67-72.
9. Muhidinovna, M. M. (2022). Preschool Education System and Family Cooperation in the Formation of Social Characteristics. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(2), 267-270.

Muxayyo ABDULLAYEVA

Buxoro viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazi ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi kafedrasida katta o’qituvchisi

Feruza XALILOVA

Buxoro davlat universiteti boshlang’ich ta’lim metodikasi kafedrasida o’qituvchisi

MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR - O‘ZBEKISTON KELAJAGINING ASOSI

Ushbu maqolada hozirgi vaqtda ta’lim tizimida, jumladan, birinchi bosqich maktabgacha muassasalarini tashkil etish va ularga rahbarlik qilish yo‘nalishida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning samarali olib borishini ta’minlash va bu jarayonlar ilmiy nuqtayi nazardan chuqur tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: davlat-xususiy sheriklik, islohot, zamonaviy ma’no-mazmun, ilm-ma’rifat, tarbiya, imtiyozli kredit mablag‘lari.

В данной статье проводится глубокий научный анализ действующей системы образования, в том числе эффективной реализации масштабных реформ в организации и управлении первой ступенью дошкольного образования.

Ключевые слова: государственно-частное партнерство, реформа, современный смысл, наука, образование, льготные кредиты.

This article provides an in-depth scientific analysis of the current system of education, including the effective implementation of large-scale reforms in the organization and management of the first stage of preschool education.

Key words: public-private partnership, reform, modern meaning, science, education, soft loans.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘qituvchi va murabbiylar kunida”gi nutqi va mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishida quyidagilarga to‘xtalib o‘tdi.

Maktabgacha ta’lim sifati ertangi kunimizni hal qiladigan masala. Maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirish faqatgina yangi tashkil etilgan vazirlikning vazifasi emas. Bu Prezident, Bosh vazir va uning o‘rinbosarlaridan boshlab, tuman hokimi, eng quyi idora rahbarigacha - barchamizning eng muhim vazifamiz bo‘lishi kerak, dedi davlatimiz rahbari [1, 2].

Albatta, yangi maktabgacha ta’lim muassasalari qurish, chiroyli qilib jihozlash, bezash mumkin, lekin ularni zamonaviy ma’no-mazmun, ilm-ma’rifat, tarbiya bilan to‘ldirish qo‘limizdan keladimi? Bu dolzarb masala ustida hokimlar bilan Vazirlar Mahkamasi, mutasaddi vazirliklar va idoralar rahbarlari birgalikda jiddiy ishlashlari talab etiladi.

Asosiy qism. Barchangiz xabardorsiz, bugun yurtimizda bir-biri bilan chambarchas bog‘langan muhim sohalarni, ya’ni maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalarini rivojlantirish bo‘yicha beqiyos o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Lekin sir emas, maktabgacha ta’lim sohasi bu boradagi islohotlardan yaqin vaqtgacha chetda qolib keldi.

Aslida, farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyatini hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Aynan maktabgacha ta’lim sohasiga bo‘lgan e’tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi. Shularni nazarda tutib, biz yurtimizda ilk bor Maktabgacha ta’lim vazirligini tashkil etdik.

Bugun yirik shaharlarimizdan tortib, chekka tumanlar, qishloq va ovullarimizda yangi-yangi zamonaviy bog‘chalar barpo etilmoqda.

Qisqa vaqt, ya’ni to‘rt yil ichida respublikamizda bog‘chalar soni 3 barobar oshib (5 ming 200 tadan 14 ming 200 taga), bolalarni qamrab olish darajasi 28 foizdan 54 foizga etgani ana shunday amaliy harakatlarimiz natijasidir.

Sohaga davlat-xususiy sheriklik mexanizmi joriy etilishi tufayli 223 mingdan ortiq o‘ringa ega bo‘lgan 7 ming 400 ta xususiy bog‘cha tashkil qilindi. Bu maqsadlar uchun 1 trillion 850 milliard so‘m imtiyozli kredit mablag‘lari yo‘naltirilib, 20 mingga yaqin yangi ish o‘rni yaratildi.

Mamlakatimizda “Kelajak bog‘chadan” degan shior ostida yosh avlod tarbiyasiga katta e’tibor berilmoqda.

2018-yilning o‘zida 3 mingdan ziyod bolalar bog‘chalari qurish rejalashtirildi. Bolalarni bog‘chalarga jalb etish 2017-yilda 27 foiz edi. 2018-yilda 34 foizga yetdi. 2019-yil oxirigacha ko‘rsatkich 44 foizga yetkazildi.

2018-yilda maktabgacha ta‘lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan qariyb 60 ming tarbiyachining atigi 21 foizi oliy ma‘lumotli, qolgani esa o‘rta maxsus ma‘lumotga ega ekanligini inobatga olib, qayta tayyorlash kurslarida MTMLar uchun oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash ham yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, bu masalani hal etish uchun 2018-2019-o‘quv yilidan boshlab, oliy o‘quv yurtlarida maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha kunduzgi bo‘limda bakalavr tayyorlaydigan 3 yillik tizim joriy etildi.

Bu yo‘nalish bo‘yicha sirtqi va kechki ta‘lim shaklida bakalavrlar tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yildi. 2018-yil 1 martdan boshlab bog‘cha xodimlarining ish haqi ikki bosqichda sezilarli darajada oshirildi.

2023-yilning 1-yanvarigacha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Navoiy, Qashqadaryo, Surxondaryo va Buxoro viloyatidagi iqtisodiy ahvoli og‘ir bo‘lgan ayrim tumanlarda maktabgacha ta‘lim muassasalarida bog‘cha to‘lovlari miqdori 50 foizga kamaytirildi.

Muhokamalar va natijalar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “2017-yil 9-sentabrda 2017-2021-yillarda ta‘lim muassasalarida tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari ito‘g‘risida” gi Qarorni imzoladi. Ushbu qaror asosida:

- qisqa muddatli guruhlar sonini ko‘paytirish natijasida har yili 5-6 yoshdagi 3950 nafar bolani maktab ta‘limiga tayyorlash uchun sharoit yaratiladi;

- qishloq joylarda maktabgacha ta‘lim muassasalarida bolalarning muassasasada bo‘lish vaqtini qisqartirish hisobiga ota onalarning badal to‘lovlari 30 foizga kamaytirildi;

- maktabgacha yoshdagi bolalarni qabul qilish yoshining 2 yoshdan 3 yoshgacha o‘zgartirishi bilan bolalarni maktabgacha ta‘limga qamrovi 1,5 barobarga oshirildi;

- bolalar bog‘chalarida ota-onalarning iqtisodiy imkoniyatlarini hisobi olib, kichik guruh tashkil etilishi, rejalashtiradi;

- maktabgacha ta‘lim muassasalarida davlat tili bilan bir qatorda rus tili va ingliz tillarni o‘rganish samaradorligi oshirildi.

Bugungi kunda maktabgacha ta‘lim qamrovini 60 foizga yetkazishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, ta‘lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta‘lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish bu yilgi davlat dasturidan o‘rin olgan ustuvor vazifalardan sanaladi. Avvalo, maktabgacha ta‘lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni qo‘llab-quvvatlash orqali bolalarni maktabgacha ta‘lim bilan keng qamrab olinishini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Prezidentining “Maktabgacha ta‘lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori imzolanganini alohida ta‘kidlash lozim [2, 3]. Qarorga ko‘ra, respublika bo‘ylab davlat-xususiy sheriklik asosida maktabgacha ta‘lim muassasalarini tashkil etish rag‘batlantirilib, tijorat banklari va xalqaro moliya institutlarining imtiyozli kreditlarini jalb qilish orqali tadbirkorlarga uzoq muddatli va imtiyozli kreditlar ajratish belgilab qo‘yildi. Joriy yilning o‘tgan davrida respublika bo‘yicha oilaviy tipdagi 631 ta maktabgacha ta‘lim tashkiloti (MTT) faoliyati yo‘lga qo‘yilib, ularda 19401 nafar bola qamrab olindi. Natijada nodavlat MTTlarning umumiy soni 1383 taga yetkazilib, ularda 80 ming nafardan ortiq bola ta‘lim-tarbiya olmoqda. Bolalarni boshlang‘ich ta‘limga majburiy bepul bir yillik tayyorlash bo‘yicha dastlabki loyihaning ijobiy tajribasini boshqa hududlarda ham tatbiq etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining “Bolalarni boshlang‘ich ta‘limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Joriy o‘quv yilida 2535 ta guruhda respublika miqyosida 6 yoshli bolalarning 54,2 foizini qamrab olish ko‘zda tutilgan, 2021-yil boshlarida esa mazkur ko‘rsatkich 75 foizga yetkazilgan edi.

“Ilk qadam” davlat ta‘lim dasturi asosida 6 yoshli bolalarda yozuv ko‘nikmalarini shakllantirish uchun ish daftarlari maketlarini, shuningdek, rivojlantirish markazlarida 3-7 yoshdagi bolalar uchun ishlatiladigan ko‘rgazmali didaktik plakatlar to‘plamini yaratish bo‘yicha ishchi guruh tasdiqlandi. Majburiy bepul maktabga tayyorlov guruhlarida ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda foydalaniladigan “Ilm yo‘li” rivojlantirish, tarbiyalash va ta‘lim berish variativ dasturi xorijiy ekspertlar ishtirokida ishlab chiqildi. Shu bilan birga, bu guruhlarda faoliyat yuritayotgan pedagoglarga metodik ko‘mak berish maqsadida pedagoglar va trenerlar uchun “Ilm yo‘li” variativ dasturini joriy etish qo‘llanmasi tayyorlandi. Koronavirus pandemiyasi davrida Maktabgacha ta‘lim vazirligi O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi bilan hamkorlikda ota-onalarga maktabgacha yoshdagi bolalarga tizimli, foydali va rivojlantiruvchi ta‘lim berishda uslubiy yordam sifatida “Onlayn bolalar bog‘chasi” dasturini ishlab chiqdi. Dastur o‘z ichiga 3-5 yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan “Ilk qadam” va 6 yoshdagi bolalarni maktabgacha tayyorlash uchun “Aqlvoy” ta‘lim loyihalarini qamrab oldi. Onlayn mashg‘ulotlar “Bolajon” telekanalida va internet resurslarda olib borildi. Joriy yilning o‘tgan davri mobaynida Maktabgacha ta‘lim vazirligi tizimidagi 2895 ta MTTni tezkor internetga ulash imkoniyati yaratildi.

Xulosa. Biz uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarmoqdamiz. Biz maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. O'qituvchi va murabbiylar - Yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. –T.: “Yangi O'zbekiston”, 2020-yil, 1-oktayabr.
2. “Xalq so'zi”, 2018-yil, 3-fevral.

Xolboy IBRAGIMOV

T.N.Qori Niyoziy nomidagi
O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy
tadqiqot instituti direktori,
pedagogika fanlari doktori, professor

Komila TODJIBAYEVA

O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy
tadqiqot instituti doktoranti

BO‘LAJAK TARBIYACHI VA BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA INKLYUZIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH IJTIMOVIY ZARURAT SIFATIDA

Mazkur maqolada respublikamiz maktabgacha ta’lim va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni tashkil etishning huquqiy-me’yoriy asoslari, bu boradagi mavjud muammolar hamda bo‘lajak pedagog va tarbiyachilarning inklyuziv kompetentligini rivojlantirish borasida muallifning bildirgan takliflari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, inklyuziv kompetentlik, eksklyuziya, segregatsiya, integratsiya, inklyuziya.

В статье описаны нормативно-правовые основы организации инклюзивного образования в дошкольных и общих средних образовательных учреждениях в нашей республике, рассматриваются существующие проблемы в этой сфере и приводятся предложения автора по развитию инклюзивной компетентности будущих педагогов и воспитателей.

Ключевые слова: инклюзивное образование, инклюзивная компетенция, эксклюзия, сегрегация, интеграция, инклюзия.

The article describes the regulatory framework for the organization of inclusive education in preschool and general secondary educational institutions in our republic, examines the existing problems in this area and provides the author's proposals for the development of inclusive competence of future teachers and educators.

Key words: inclusive education, inclusive competence, exclusion, segregation, integration, inclusion.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida nogiron bolalar bilan bog‘liq tahlil va dastlabki baholash ishlari 1966-yilda boshlangan. Hozirgi kunda O‘zbekistonda 250000ga yaqin turli ko‘rinishdagi nogiron bolalar (16 yoshgacha) ta’lim olish ehtiyojiga ega. Nogiron bolalar uchun ta’lim bilan birgalikda maxsus xizmatlar tashkil etish lozim. Mana shularni o‘z ichiga jamlagan ta’lim – inklyuziv ta’lim deb nomlanadi. Inklyuziv ta’limning maqsadi - alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo‘llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to‘siqsiz moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to‘laqonli uyg‘unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o‘rta ta’lim berishni ta’minlashdan iborat.

Asosiy qism. Maktablar alohida ta’lim olish ehtiyoji bo‘lgan bolalar va ularning ota-onalariga korreksion pedagogik yordam olishida va kasbga yo‘naltirishda har tomonlama yordam ko‘rsatadi.

“Inklyuziv ta’lim” tushunchasi adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi: “Inklyuziv ta’lim – inglizcha (inclusive, inclusion) so‘zdan olingan bo‘lib uyg‘unlashmoq, uyg‘unlashtirilgan, o‘ziga tortuvchi, qamrab oluvchi ma’nolarini anglatadi [1]. Lotinchada esa (include) qamrab olaman, jalb qilaman ma’nosini, ya’ni nogironligi bo‘lgan va oddiy bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etishni nazarda tutadi. Inklyuziv ta’lim barcha mamlakatlarda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan masalalardan biridir.

Bizningcha, inklyuziv ta’lim bu barcha o‘quvchilar (tarbiyalanuvchilar) uchun maxsus ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta’lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta’minlashdir.

Umuman olganda, jahon tajribasiga nazar tashlasak, alohida yordamga muhtoj bolalarni ta’lim bilan qamrab olish darajalari quyidagicha ko‘rinishlarda amalga oshirilishi mumkinligini ko‘ramiz:

Eksklyuziya – ta’lim bilan qamrab olinmagan, ya’ni ta’limdan tashqarida nogironligi bor bolalar. Bunday bolalar ta’limga jalb etilmaydi va o‘z-o‘zidan ularning ta’lim olish huquqlari ta’minlanmaydi.

Segregatsiya – alohida yordamga muhtoj bolalarni umumiy ta’limdan alohidalash va ularga maxsus maktab va internatlarda ta’lim berish.

Integratsiya – alohida yordamga muhtoj bolalar uchun umumta’lim maktablarida alohida sinflarni tashkil etish.

Inklyuziya – alohida yordamga muhtoj bolalar boshqa bolalar bilan umumta’lim maktablarida bir sinfda tahsil olishi.

Inklyuzivlik tamoyili ta’limda imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo’lishlari uchun oilada yashashlari va o’z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta’lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta’lim olishi, o’zlashtirishda qiynalayotgan bo’lsa, o’qish va yozishga o’rganish uchun maxsus yordamga ega bo’lishi, darslarga qatnamay qo’ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko’rsatilishini kafolatlaydi.

Ota-onalar va mutaxassis pedagoglar inklyuziv ta’limni nafaqat isalgan ta’lim muassasasi uchun ochiq eshik sifatida, balki ta’lim samaradorligi natijasi uchun mas’uliyat sifatida ham baholashlarini istar edik. Bunda ta’lim samaradorligi taqdim etilayotgan inklyuziv xizmat turlarining alohida yordamga muhtoj bolalar ehtiyojlariga mosligi bilan o’lchanadi.

Uzluksiz ta’lim tizimida inklyuziv ta’limning nazariy jihatlarini asoslash va amaliyotga tatbiq etish ham pedagogika fani oldida turgan dolzarb muammolardan sanaladi. O’zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida”gi Qonunining 17-moddasida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining turlari sanab o’tilgan bo’lib ular quyidagilardir [2]:

- umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti;
- ko’p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti;
- inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta’lim tashkiloti;
- qo’shma turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti.

Inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarning alohida ta’lim olish ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularni sog’lom muhitga uyg’unlashtirish orqali ta’lim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlar ta’minlanadi.

Qo’shma turdagi maktabgacha ta’lim tashkilotida rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo’lgan bolalarning va rivojlanishida nuqsonlari bo’lmagan bolalarning bitta tashkilotda alohida guruhlarda, shuningdek, inklyuziv guruhlarda birgalikda o’qishini hamda tarbiyalanishini tashkil etishga qaratilgan maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturi amalga oshirilishi ta’minlanadi [3].

Bolalarga, shu jumladan, o’ziga xos ehtiyojlari bor bolalarga yakka tartibda ta’lim dasturlaridan foydalanish, shuningdek, o’z vaqtida inklyuziv maktabgacha ta’lim va tarbiya olish imkonini beradigan qulay muhit yaratish maktabgacha ta’lim tashkilotining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi [4]

Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4860 sonli “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarori bilan 2020-2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi hamda 2020-2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo’yicha “yo’l xaritasi” tasdiqlandi [5]. Shuningdek, qarorda 2021/2022-o’quv yilidan boshlab tajriba-sinov tariqasida:

– shaharlarda hamda Toshkent shahrining tumanlarida joylashgan bittadan umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilish;

– Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan bittadan umumta’lim maktabida alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar uchun boshlang’ich tayanch korreksion sinflarni ochish;

– Qashqadaryo, Farg’ona va Xorazm viloyatlarida joylashgan bittadan kasb-hunar maktabida ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hamda alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan guruhlarini tashkil etish;

– inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilish, boshlang’ich tayanch korreksion sinflarni ochish va ixtisoslashtirilgan guruhlarini tashkil etish natijalarini hisobga olgan holda ijobiy tajribani respublikaning boshqa hududlariga bosqichma-bosqich tatbiq etish [7] vazifalari belgilab berilgan.

Ushbu qaror ta’lim tizimi oldida turgan bir qator muammolarga yechim topish majburiyatini ko’ndalang qo’yadi. Ushbu muammolar quyidagilar:

1. Inklyuziv ta’lim tizimi sohasidagi normativ bazaning sayozligi.
2. Inklyuziv ta’lim tizimi uchun malakali pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning inklyuziv kompetentligini uzluksiz rivojlantirib borish zaruriyatining yuqoriligi.
3. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari, umumiy o’rta va o’rta maxsus ta’lim, professional ta’lim, oliy ta’lim tizimida inklyuziv ta’lim berishning uzluksizligi va izchilligini ta’minlash muammosi.
3. Inklyuziv ta’lim joriy etilgan muassasalarni moddiy-texnika bazasini mustahkamlash ehtiyojining yuqoriligi.
4. Inklyuziv ta’lim muassasalarida o’qituvchi va tarbiyachilar uchun zarur adabiyotlar, metodik qo’llanmalarining yetarli emasligi.
5. Xavfsiz inklyuziv ta’lim muhitining yetarli darajada ta’minlanishi borasidagi muammolar va h.k.

Ushbu muammolarni hal etish har bir alohida yordamga muhtoj bolaning ta’limi, tarbiyasi, rivojlanishi, ijtimoiylashuvi jarayonini muvoffaqiyatli o’tishiga zamin yaratadi. Ushbu muammolar ichida mutaxassis tayyorlash muammosi ham borki, bu muammoni hal etish juda ko’p vaqt va kuch sarflanishni talab qiladi. Chunki ta’lim tizimi aynan inson faktori tufayli harakatga keladi va rivojlanadi yoki aksincha inqirozga yuz tutadi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2020-yil 30-sentabrda o’qituvchilar va murabbiylar kuni munosabati bilan o’tkazilgan tadbirda so’zlagan nutqida kadrlar masalasiga to’xtalar ekan “Bugun biz yashayotgan jamiyatga yangi fikr, yangi g’oya, eng muhimi, islohotlarni amalga oshirishga qodir bo’lgan yangi avlod kadrlari kerak. Har kuni seni nima qiynaydi, deb so’rashsa, hech ikkilanmasdan kadrlar qiynaydi, kadrlar zaxirasi qiynaydi, deb javob beraman” – deya ta’kidlaydi.

Inklyuziv ta’limni amaliyotga joriy etish o’z-o’zidan pedagoglar va tarbiyachilar faoliyatiga qo’yiladigan talabning ortishini, ularning funksional majburiyatlarini ko’payishini va professional malakalarini kengayishi ehtiyojini keltirib chiqaradi. An’anaviy bilim va malakalarning o’zigina bu ta’lim turida yetarli emas. Alohida yordamga muhtoj bolalar bilan ishlash pedagog va tarbiyachilardan maxsus professional kompetensiya ya’ni inklyuziv kompetentlikni talab qiladi.

Pedagog va tarbiyachilarning kasbiy kompetentligi muammosi ko’pgina tadqiqotlar predmetiga aylangan. Masalan, rossiyalik olim N.V.Kuzminaning tadqiqotlarida pedagogning kasbiy kompetentligi komponentlari metodik kompetentlik, pedagogik-psixologik kompetentlik va autopsixologik kompetentlik va ijtimoiy kompetentlikdan iborat deb sanab o’tilgan. Olimaning samaradorligi yuqori va samaradorligi sust bo’lgan pedagog haqida bildirgan mulohazalari diqqatga sazovor. Ushbu farq eng avvalo ta’lim oluvchilarning berilgan materialni o’zlashtirish jarayonidagi o’ziga hosliklarini hisobga olishi, ular faoliyatidagi individual farqlarni ko’ra olish qobiliyatida seziladi [6] – deya keltirib o’tgan.

A.K.Markovaning ta’kidlashicha, kompetentli pedagog o’z kasbiy faoliyatini yuqori darajada yo’lga qo’ygan, samarali pedagogik muloqotga kirisha oladigan, ta’lim va tarbiya jarayonida yuqori samaradorlikni namoyon qilib, shaxs va professional sifatida shakllanuvchi mutaxassisdir. A.K.Markova pedagoglar kompetensiyasining bir necha turlarini ajratib ko’rsatdi: shaxsiy, ijtimoiy, individual, maxsus. Olimning fikriga ko’ra o’qituvchining kasbiy kompetentligi kasbiy pedagogik pozitsiya, kasbiy bilim va ko’nikmalar, shaxsiy hususiyatlar kabilarni o’z ichiga qamrab oladi [7].

O.S.Borodina [8] o’z tadqiqotlarida o’qituvchining inklyuziv kompetentligi inklyuziv amaliyotni joriy etishga yordam beruvchi, samarali kasbiy faoliyatni ta’minlovchi shaxsiy-integrativ ta’lim mahsuli deya ta’rif beradi. Ushbu kompetentlik turi esa bo’lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida ya’ni inklyuziv ta’lim muhitida ishlashga to’g’ri kelgan vaqtdan ancha avval shakllantirilmog’i lozimligini ta’kidlaydi.

O.A.Kozyreva [9] inklyuziv kompetentlikni imkoniyati cheklangan va nogiron bolalarning ta’limiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur sharoitlar yaratishga yordam beruvchi; inklyuziv ta’lim muhitini modelashtiruvchi; imkoniyati cheklangan va nogiron bolalar o’qitish muammolarini hal etishga yordam beradigan metod va texnologiyalarni qo’llash; o’z-o’zini rivojlantirish trayektoriyasini loyihalashga imkon beruvchi pedagogik qobiliyatlar yig’indisi sifatida ta’riflaydi.

Shuni ta’kidlash lozimki, inklyuziv kompetentlikni shakllantirish uchun pedagog quyidagi muhim sifatlarga ega bo’lishi lozim: empatiya, refleksiya, mobillik va moslashuvchanlik, hamkorlik qobiliyati, ta’lim oluvchilar ehtiyojlariga nisbatan sezitivlik, muloqotchanlik, o’z-o’zini boshqara olish ko’nikmasi va boshqalar.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, maktabgacha va umumiy o’rta ta’lim maktabi tarbiyachi va pedagog kadrlarida inklyuziv kompetentlikni shakllantirish murakkab, uzluksiz va tizimli jarayob bo’lib, quyidagi tavsiyalar inklyuziv ta’lim muhitida ishlay oladigan zamonaviy kadrlarni tayyorlashda hisobga olinishini istar edik:

1. Inklyuziv ta’limni joriy etishda uzviylik va o’zaro aloqadorlik tamoyillariga rioya etish.
2. Inklyuziv ta’lim muammosi nafaqat bo’lajak defektolog mutaxassislar, balki bo’lajak boshlang’ich ta’lim, maktabgacha ta’lim yo’nalishi pedagog-tarbiyachilari to’qnash kelishi tayin bo’lgan muammo hisoblanar ekan (chunki bugun boshlang’ich ta’lim, maktabgacha ta’lim fakultetlarida oliy pedagogik ta’limni olayotgan talabalar, o’qishni tamomlab inklyuziv sinf raxbarlari yoki inklyuziv guruh tarbiyachilari bo’lib faoliyat olib borishlarini unitmasligimiz lozim) ushbu yo’nalishlar o’quv rejasidagi pedagogik turkum fanlar mazmuniga inklyuziv ta’lim mazmunini singdirish lozim.
3. Inklyuziv ta’lim berishning zamonaviy nazariyalarini talim amaliyotiga singdirish, bo’lajak boshlang’ich ta’lim, maktabgacha ta’lim pedagog-tarbiyachilariga ta’lim berishda shaxsga yo’naltirilgan yondashuvlar asoslarini egallashga sharoit yaratish.
4. Inklyuziv ta’lim tizimi joriy qilingan umumta’lim muassasalariga tyutor (yordamchi pedagog xodim) sifatida oliy ta’lim muassasalarining boshlang’ich ta’lim, maktabgacha ta’lim yo’nalishidagi yuqori kurs talabalarini pedagogik amaliyot davrida ixtiyoriylik asosida jalb qilish.

5. Pedagog va tarbiyachilar uchun alohida yordamga muhtoj bolalarga xavfsiz inklyuziv ta’lim muhitini yaratishga yordam beruvchi pedagogik, psixologik, metodik tipdagi adabiyotlar, qo‘llanmalar, tavsiya va dasturlarni ishlab chiqish lozim.

Adabiyotlar

1. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. [https://en.wikipedia.org/wiki/Inclusion_\(education\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Inclusion_(education))
3. <https://www.lex.uz/docs/-4646908>
4. <https://lex.uz/ru/docs/-4333062>
5. <https://lex.uz/ru/docs/-5044711>
6. Кузьмина О.С. Особенности организации подготовки педагогов к работе в условиях инклюзивного образования // В мире научных открытий. – Красноярск: Научноинновационный центр (Проблемы науки и образования). – 2013. – № 11.8. – С. 337-344.
7. Маркова А.К. Психология профессионализма. – М.: Издательство: Международный гуманитарный фонд “Знание”, 1996. – 308 с.
8. Бородина О.С. Формирование инклюзивной компетентности будущего учителя основ здоровья // Профессиональное образование в России и за рубежом. – 2014. – № 1 (13). – С. 75-79.
9. Козырева О.А. Изменения в структуре профессиональной компетентности педагога в условиях перехода к инклюзивному образованию // Сибирский вестник специального образования. – 2017. – №

Shaxlo NURULLAYEVA
Qarshi davlat universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari doktori (DSc)

TALABALARNING PEDAGOGIK JARAYONGA METODIK-REFLEKSIV TAYYORGARLIGINI AMALGA OSHIRISH YO‘LLARI

Maqolada pedagogika oliy o‘quv yurti talabalarini pedagogik jarayonga metodik-refleksiv tayyorgarligini amalga oshirish yo‘llari, usullari va pedagogik shart-sharoitlari haqida fikr yuritiladi. Metodik-refleksiv tayyorgarlikni talabalarning o‘zlashtirgan nazariy va amaliy bilimlari asosida “metodik fanlardan amaliy mashg‘ulotlar – pedagogik amaliyot – pedagogik refleksiya” sxemasi asosida amalga oshirish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: talaba, bo‘lajak o‘qituvchi, amaliy mashg‘ulot, pedagogik amaliyot, refleksiya, metodik tayyorgarlik, nazariy bilimlar, amaliy bilimlar, kasbiy kompetensiya.

В статье рассматриваются пути, методы и педагогические условия методической и рефлексивной подготовки студентов педагогического вуза к педагогическому процессу. На основе теоретических и практических знаний, полученных студентами, было разработано методико-рефлексивное обучение на основе схемы “практические занятия по методическим предметам – педагогическая практика – педагогическая рефлексия”.

Ключевые слова: студент, будущий учитель, практическая подготовка, педагогическая практика, рефлексия, методическая подготовка, теоретические знания, практические знания, профессиональная компетентность.

The article discusses the ways, methods and pedagogical conditions of methodical and reflexive preparation of students of a pedagogical university for the pedagogical process. On the basis of theoretical and practical knowledge gained by students, methodical and reflexive training was developed on the basis of the scheme “practical classes in methodological subjects - pedagogical practice - pedagogical reflection”.

Key words: student, future teacher, practical training, pedagogical practice, reflection, methodological training, theoretical knowledge, practical knowledge, professional competence.

Kirish. Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatga **metodik-refleksiv tayyorgarlik** jarayoni “metodik fanlardan amaliy mashg‘ulotlar – pedagogik amaliyot – pedagogik refleksiya” sxemasi asosida yo‘lga qo‘yiladi. Ya‘ni, metodik fanlardan amaliy mashg‘ulotlar davomida o‘zlashtirilgan kasbiy ko‘nikmalar pedagogik amaliyot davomida real pedagogik muhitda qo‘llab ko‘riladi. Ushbu jarayonda nazariya va amaliyotning birligi tamoyili asosida o‘zlashtirilgan bilimlar amalda sinovdan o‘tkaziladi, amaliy ko‘nikmalar takomillashtiriladi, hayotiy vaziyatlarda yuzaga kelishi mumkin holatlar o‘rganiladi, muammoli vaziyatlardan chiqish yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, refleksiv faoliyat davomida bo‘lajak o‘qituvchilar o‘zlaridagi metodik imkoniyatlarni aniqlaydilar va kamchiliklarini belgilab oladilar. Ya‘ni, o‘z faoliyatlarini tahlil qilish asosida kelajakda egallashlari lozim bo‘lgan metodik bilim va ko‘nikmalar doirasi aniqlashtiriladi.

Asosiy qism. Talabalarning metodik bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida har bir bosqichga xos bo‘lgan turli murakkablik darajalaridagi o‘quv-metodik topshiriqlar tizimidan foydalaniladi. Metodik tayyorgarlikning har bir bosqichida tayyorgarlik shakli va maqsadiga mos ravishda o‘quv-metodik topshiriqlar ishlab chiqiladi. Pedagogik amaliyot davomida metodik bilim va ko‘nikmalar tizimini amaliyot mazmuniga singdirish maqsadida quyidagi amaliy topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi:

- pedagogik jarayon va hodisalarni kuzatish hamda aniqlangan muammolarni o‘rganish hamda tadqiq etishga yo‘naltirilgan topshiriqlar;
- tizimli yondashuv asosida o‘quvchilar faoliyatini loyihalashtirish;
- boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tajribalarini o‘rganish va to‘plangan ma‘lumotlardan ijodiy foydalanish;
- metodik faoliyat samarasini oshirishga doir mualliflik dasturi asosida loyiha ishlab chiqish.

Bo‘lajak o‘qituvchilar metodik-refleksiv tayyorgarligini amalga oshirish uchun talabalarga foydalanish uchun pedagogik amaliyot dasturiga muvofiq dars kuzatish rejasi, o‘qituvchi faoliyatini o‘rganish dasturi, darsga tayyorgarlik rejasi, o‘z faoliyatini tahlil qilishga doir refleksiv dastur tavsiya etiladi.

Metodik-refleksiv tayyorgarlik yuqorida qayd etib o‘tilganidek, amaliy mashg‘ulotlar davomida o‘zlashtirilgan nazariy ma‘lumotlarni amalda qo‘llash, pedagogik amaliyot davomida ko‘nikmalarni real vaziyatda qo‘llashni o‘rganish hamda o‘z faoliyatini tahlil qilish natijasida amalga oshiriladi.

Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi mashg‘ulotlarida talabalar metodik tayyorgarlikni, ya‘ni darsga tayyorgarlik ko‘rish, didaktik ta‘minotni ishlab chiqishni o‘rganadilar. Metodik-refleksiv tayyorgarlik jarayoni tahlilidan avval refleksiya jarayoni haqida to‘xtalib o‘tamiz. Refleksiya lotin tilidagi “reflexio” so‘zidan olingan bo‘lib – “ortga qaytish”, “aks etish” ma‘nolarini anglatadi. Refleksiya kishining o‘z xatti-harakatlari va ularning asoslarini tushunib yetishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishning alohida shaklidir.

Biror bir jarayonni samarali yo‘lga qo‘yishni xohlagan har qanday inson o‘z faoliyatini tahlil qiladi, olib borgan ishlari xususida fikr yuritadi, ushbu jarayondagi o‘z faoliyati yoki imkoniyatlarini tahlil qiladi. Aynan mushohada yuritishning ushbu shakli refleksiya hisoblanadi. Demak, o‘qituvchi ham o‘z pedagogik faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilib borishi taqozo etiladi. Refleksiyaga tayyorgarlik esa oliy ta‘lim muassasalaridagi kasbiy tayyorgarlik, xususan, pedagogik amaliyot jarayonida amalga oshirib boriladi. Pedagogik amaliyot jarayonida bo‘lajak mutaxassisning pedagogik, metodik va texnologik tayyorgarligi metodist o‘qituvchilar, talabalar va o‘zi tomonidan tahlil qilib boriladi.

Metodik-refleksiv tayyorgarlik jarayonida quyidagi shart-sharoit inobatga olinishi muhimdir:

- pedagogik amaliyot uchun tanlangan obyekt haqida umumiy ma‘lumot (maktab va sinf haqida to‘liq ma‘lumot), sinf o‘quvchilarining umumiy tavsifi (o‘quvchilarning umumiy bilim darajasi, yosh psixologik xususiyatlari, o‘quvchilarning individual xususiyatlari va imkoniyatlari);

- dars o‘tish tanlangan predmet, mavzu, ta‘limning tashkiliy shakli va uning ta‘lim mazmuni hamda o‘quvchilar yosh xususiyatlariga mosligi;

- dars rejasi, texnologik xaritasini mukammal ishlab chiqish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash;

- ta‘lim metodlarini to‘g‘ri tanlash;

- o‘qituvchining kommunikativ qobiliyatini namoyon etishi, o‘quvchilarning ta‘lim jarayonidagi ishtiroki, faolligi;

- dars davomida o‘qituvchining harakati, faolligi, mahorati va kompetentligi;

- o‘quvchilarni baholash va rag‘batlantirish metodlaridan to‘g‘ri foydalana bilish;

- o‘z faoliyatini tahlil qilish va ta‘lim maqsadiga erishilganlik darajasini aniqlash;

- mashg‘ulot davomida erishilgan yutuqlar va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni tahlil qilish.

Muhokamalar va natijalar. Tadqiqotimiz davomida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirish maqsadida mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi bo‘yicha mashg‘ulotlar davomida ularning kasbiy o‘shishiga katta e‘tibor qaratdik. Kasbiy ko‘nikma va malakalarni takomillashtirish - bu oliy ta‘lim muassasalarida va keyinchalik o‘qituvchi sifatida mustaqil pedagogik faoliyat davomida amalga oshiriladigan, uzoq davom etadigan jarayondir. Shuning uchun talabalarning pedagogik amaliyotda olib borayotgan mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayoniga refleksiv munosabatini rivojlantirish va bu darslardan taassurotlardan foydalanishni belgilash o‘ta muhim. Amaliyotga chiqishdan oldin metodik tavsiyalar umumiy amaliyot oldi konferensiyalarida talabalar psixologik-pedagogik sikl fanlari bo‘yicha va o‘qigan metodikalari bo‘yicha quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari topshiriq sifatida beriladi:

1. Amaliyotning dastlabki haftasida metodist o‘qituvchi tomonidan o‘tkaziladigan darslarni kuzatish va ularni metodik jihatdan tahlil qilish.

2. Tematik reja asosida o‘tilishi lozim bo‘lgan darsga puxta tayyorgarlik ko‘rish.

3. Nazariy metodik tayyorgarlik jarayonida o‘zlashtirgan metodik bilimlari asosida tajriba va sinov darslarini tashkil etish.

4. O‘zi tashkil etgan mashg‘ulotni yozma metodik tahlil qilish.

Metodik tahlil quyidagi sxema asosida tashkil etiladi:

1. Mashg‘ulot maqsadiga to‘liq erishdingizmi?

2. Rejalashtirilgan vazifalarni to‘liq amalga oshira oldingizmi?

3. O‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi qanday bo‘ldi?

4. O‘quvchilarning darsdagi faolligi necha foizni tashkil etdi?

5. Siz tanlagan eng qiziqarli o‘quv materialiga o‘quvchilarning qiziqishi qanday bo‘ldi? Nima uchun?

6. O‘quvchilarga o‘quv dasturidagi barcha ma‘lumotlarni yetkaza oldingizmi?

7. Vaqtdan to‘g‘ri va unumli foydalana oldingizmi?

8. Didaktik vositalardan to‘liq va samarali foydalana oldingizmi?

9. Bolalarning mustaqil ishlashi davomida o‘qituvchining o‘rni. Bu nimada mujassam edi? Nima uchun bu ehtiyoj paydo bo‘ldi?

10. Faoliyatingizga berilgan baho: obyektiv va subyektiv baho, ularning mutanosibligi, farqi.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, birinchi darsga tayyorlanayotganda talaba hayajonlanadi. Bu odatiy hol. Bu hayajon bo‘lajak o‘qituvchi uchun birinchi darsga tayyorgarlik ko‘rishda ham ijobiy rol o‘ynaydi, chunki u talabani barcha shaxsiy sifatlarini yagona maqsadga - sifatli dars berishga qaratishga majbur qiladi. Bu esa

uni adabiy manbalar va qaydlarga e'tibor berishga, o'qituvchi va metodist bilan maslahatlashishga undaydi. Talaba birinchi darsni o'tganda va darsning ham ijobiy, ham salbiy tomonlarini, ularning sabablari va kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini tahlil qilganda ko'p narsa oydinlashadi.

Pedagogik amaliyot tugagan vaqtga kelib, talabalarda kasbiy o'z-o'zini tahlil qilish san'ati o'sishining eng muhim belgilaridan biri sifatida o'z pedagogik faoliyatiga refleksiv munosabat shakllanganlik darajasini ko'rsatishimiz mumkin. Bu esa talabalarning maktabda ishlashga tayyorgarligini tekshirishni sifatli tahlil qilish, talaba tomonidan oliy ta'limdan keyingi (pedagogik amaliyotdan keyingi) mashg'ulotlar uchun vazifalar va aniq savollar belgilash imkonini beradi.

To'laqonli pedagogik refleksiyaga tayyorgarlik payti - talabalarning pedagogik amaliyot davomida kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining texnologiya ta'limi bo'yicha sinfdagi va darsdan tashqari faoliyatlarini o'z-o'zini tahlil qilishni amalga oshirishdir.

Pedagogik amaliyot davomida talabalar mutaxassislikka oid turli faoliyat turlarini kompleks ravishda amalga oshirishlari uchun imkon beriladi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchi shaxsini shakllantirishga, o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini tarkib toptirishga yordam beradi. Talaba tomonidan amaliyot davomida amalga oshiriladigan jonli muloqot, kuzatish va hayotiy tajribalar asosida kasbiy va kasbiy-refleksiv ko'nikmalar tarkib topa boradi. Pedagogik amaliyotning asosiy maqsadi bo'lg'usi o'qituvchilarni umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quv-tarbiyaviy ishlarga kasbiy pedagogik va psixologik tayyorlash, ijodiy fikrlash, kasbiy mahorat va qobiliyatlarni rivojlantirishdan iborat.

Pedagogik amaliyot o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida quyidagi xususiyatlari bilan tavsiflanadi:

- aniq pedagogik jarayonda talabalarning ijtimoiy-kasbiy faollik ko'rsata olish qobiliyatining namoyon bo'lishi;
- pedagogik jarayonga va o'z faoliyatga ijodiy faoliyatning shakllanishi;
- tabiiy pedagogik vaziyatda kasbiy refleksiv madaniyatning tarkib topishi. Bu jarayon, ya'ni shaxsiy faoliyatni tahlil qilish amaliyotchi talabaga pedagogik faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlarni taxmin qilish va ulardan chiqish yo'llarini to'g'ri tanlashga o'rgatadi;
- bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik jarayonga har tomonlama yondashuv asosida nazariy va amaliy bilim, ko'nikma, kompetensiyalar bilan birgalikda tadqiqot faoliyatiga jalb etish;
- pedagogik texnologiyalarni mukammal o'zlashtirish va ushbu bilimlarni pedagogik tajriba bilan integratsiyalay olish qobiliyatini shakllantirish.

Metodik-refleksiv xususiyatlar malakaviy amaliyot davomidagi o'z pedagogik faoliyatini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash jarayonida shakllanib boradi. Ya'ni, malakaviy amaliyot davomida yuritiladigan asosiy ish hujjatlaridan biri bo'lmish amaliyot kundaligi o'z kunlik faoliyatini tahlil qilish va baholashning eng optimal yo'li hisoblanadi. Har bir mashg'ulot davomidagi va pedagogik muloqot jarayonidagi o'z yondashuvi, qarashlari va ishtirokini obyektiv baholash bo'lajak o'qituvchida metodik-refleksiv xususiyatlarini tarkib toptirib boradi. Buning uchun esa talabalar real pedagogik faoliyatga tayyor bo'lishlari va o'qituvchining barcha funksiyalarini bajarib ko'rishlari talab etiladi. Bo'lajak o'qituvchining bilim, ko'nikma va malakalarining tarkib topganlik darajasi, kasbiy rivojlanish ko'rsatkichlari va o'quvchilarning ijodiy faolligi o'quv jarayoni sifati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ta'lim samaradorligini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

Xulosa. Pedagogik amaliyot chog'ida kasbiy refleksiyani rivojlantirish muhim ahamiyat ega bo'lib, uning o'ziga xos jihatlari mavjuddir.

Amaliyotchi talabalar o'zida metodik-refleksiv sifatlarni shakllantirishda quyidagilarga e'tibor qaratishi talab etiladi:

1. Talaba pedagogik amaliyot davrida amaliyot kundaligida o'z-o'zini tanqid qiladigan holatlarni belgilash.
2. Darsni kuzatish davomida o'qituvchi pedagogik refleksiyani amalga oshirganlik darajasini aniqlash. Aniqlash usullarini qayd etish.
3. Dars o'tkazish va o'zi o'tkazgan darsini tahlil qilish: diqqatning taqsimoti, foydalanilgan muloqot usuli, tanlangan texnologiya va usullarning mashg'ulot mazmuniga mosligi va hokazo.
4. O'tkazgan darsida kasbiy malaka va mahoratining namoyon eta olganlik darajasi, yuz ifodasining o'zgartirishi.

Kasbiy refleksiyaning namoyon bo'lish jarayonini belgilash:

- a) darslardan birida;
- b) tarbiyaviy tadbirlarda;
- d) o'quvchilarning ota-onalari bilan suhbatda;
- e) hamkasblari bilan suhbatda;

- f) ustozlari bilan suhbatda;
- g) maktab amaliyoti davrida guruhdagi o‘rtoqlari bilan muloqotda.

Adabiyotlar

1. Nurullaeva Sh. Concept and model of the teacher self-development process in a virtual environment. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. Vol. 11, Issue 6, June 2021. P. 428-434.
2. Nurullaeva Sh., Rasulova H. The importance of game in children’s socialization. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. Vol. 11, Issue 6, June 2021. P. 227-233.
3. Yarmanova Y.B. Psychological mechanisms of the formation of collective relations in preschool children // “Débats scientifiques et orientations prospectives du développement scientifique” 5 Février 2021 • Paris, République Française. – P. 160-162.
4. Ярманова Ю.Б., Орипова Н. Проблема и перспектива воспитания детей дошкольного возраста в интересах всего общества // наука и мир. Международный научный журнал, № 4 (68), 2019, Том 2 ISSN 2308-4804. Science and world. – С. 48-49.
5. Nurullayeva Sh. Pedagogik faoliyatda o‘z ustida ishlash va mehnatni ilmiy tashkil etish – samaradorlik omili // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. №3. 2021. 136-145-betlar.

Xadicha MUXITDINOVA

O‘zbekiston davlat Jahon tillar universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA UZVIYLIK VA UZLUKSIZLIKNI TA‘MINLASH

Maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘zbek tilini o‘qitishdagi uzviylik haqida gap boradi. Sinflar kesimida “O‘zbek tili” fanidan nutq mavzulari uzviyligi va uzluksizligining ta‘minlanishi holati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinflar, o‘zbek tili, uzviylik, uzluksizlik, qo‘shimcha, yordamchi so‘zlar, dastur va darslik.

В статье рассматривается интеграция узбекского языка в начальной школе. На занятиях анализируется состояние преемственности и преемственности речевых тем по предмету «Узбекский язык».

Ключевые слова: начальная школа, узбекский язык, членство, преемственность, дополнительные, вспомогательные слова, программа и учебник.

The article discusses the integration of the Uzbek language in primary school. In the classroom, the state of continuity and continuity of speech topics in the subject "Uzbek language" is analyzed.

Key words: elementary school, Uzbek language, membership, continuity, additional, auxiliary words, program and textbook.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida [1] o‘zbek tilining mamlakatimiz hududida istiqomat qiluvchi barcha millatlar va elatlar tomonidan o‘rganilishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish masalalariga ham alohida e‘tibor qaratilgan bo‘lib, uning ijrosini ta‘minlash uchun o‘zbek tilidan tuzilgan dasturlarni yanada takomillashtirish, darsliklarni mazmunan va metodik tomondan tubdan yaxshilashni taqozo etadi.

Respublikamizda yashovchi fuqarolarning anchagina qismi ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar va rus guruhlarida ta‘lim oladilar. Ushbu maktablar va guruhlarda mamlakatimizning davlat tilini o‘qitish ishlarini samarali tashkil etishda boshlang‘ich ta‘limning o‘rni nihoyatda muhim bo‘lib, o‘zbek tilini boshlang‘ich sinflardan boshlab puxta o‘qitish ta‘lim mazmunini yanada takomillashtirishni, o‘zbek tilini zamonaviy texnologiyalar asosida intensiv o‘rganishni yo‘lga qo‘yish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Asosiy qism. Ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o‘zbek tilini o‘qitish 2-sinfдан boshlanadi. “O‘zbek tili” fani o‘quv dasturida 2-sinfda nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilish, o‘qish va yozishni o‘rgatish, talaffuz qilish, o‘qish va yozish faoliyatlari bo‘yicha, 3-4-sinfda o‘quv dasturida muayyan nutq mavzulari bo‘yicha so‘zlarni va nutq namunalarini o‘zlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish rejalashtirilgan [2].

O‘quv dasturining bu shaklda tarkiblanishi didaktik talablarga to‘la javob berishini ta‘kidlagan holda, nutqiy mavzularning berilishi va o‘quvchilarda amaliy nutq ko‘nikmalarini shakllantirishni taqvimiy rejalashtirishda ayrim kamchiliklarga yo‘l qo‘yilganini, bu esa mavzular uzviyligi va uzluksizligining ta‘minlanishida ayrim muammolarni yuzaga keltirganini qayd etish mumkin. Quyidagi jadvalda boshlang‘ich sinflarda nutq mavzulari uzviyligi va uzluksizligining tahlili keltirilgan:

2-4-sinflarda “O‘zbek tili” fanidan nutq mavzulari uzviyligi va uzluksizligining ta‘minlanishi holati

№	2-sinfda	3-sinfda	4-sinfda
1.	Tanishuv (1 soat)	Vatanim (3 soat)	Vatan (3 soat)
2.	A, O, N harflari (1 s.)	Sinfimiz (3 soat)	Qadrdon maktabim (3 soat)
3.	T, M harflari (2 s.)	Kuz (2 soat)	Ko‘chamiz (2 soat)
4.	I, B, L harflari (3 s.)	Mevalar (2 soat)	Uyimiz (2 soat)
5.	K, R harflari (2 soat)	Polizda (2 soat)	Bog‘da (3 soat)
6.	O‘, D harflari (2 soat)	Sabzavotlar (2 soat)	Kuzgi ishlar (3 soat)
7.	U, Y harflari (2 soat)	Oila (3 soat)	Kitob (3 soat)
8.	E, G harflari (2 soat)	Kun tartibi (3 soat)	Bozorda (3 soat)
9.	Ng harf birikmasi, S harfi (2 soat)	Qish (2 soat)	Do‘konda (3 soat)

10.	H, X harflari (2 soat)	Yangi yil bayrami (2 soat)	Maktab oshxonasi (2 soat)
11.	P, Q harflari (2 soat)	Sport (3 soat)	Ob-havo (3 soat)
12.	Sh, Ch harflari (2 s.)	Ob-havo (3 soat)	Bahor keldi (3 soat)
13.	J, G', Z harflari (3 s.)	Bahor (3 soat)	Assalom, Navro'z! (3 s.)
14.	F, V harflari va tutuq (') belgisi (3 soat)	Gullar (3 soat)	Orasta bo'ling (2 soat)
15.	Yangi yil bayrami (2 soat)	Bayramlar (3 soat)	Sport va salomatlik (2 soat)
16.	Sanaymiz (3 soat)	Uy hayvonlari va parrandalar (3 soat)	Har doim tinchlik bo'lsin! (3 soat)
17.	O'quv qurollari (2 soat)	Yovvoyi hayvonlar va qushlar (3 soat)	Yo'l harakati (3 soat)
18.	Ranglar (3 soat)	Hayvonot bog'ida (3 s.)	Ta'til rejasi (3 soat)
19.	Tana a'zolari (3 soat)	Yoz (2 soat)	
20.	Kiyimlar (3 soat)		
21.	Yil fasllari (3 soat)		
22.	Hafta kunlari (3 soat)		
23.	Oziq-ovqatlar (3 soat)		
24.	Idishlar (2 soat)		

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar amaldagi o'quv dasturi va darsliklarda nutq mavzularining rejalashtirilishida ayrim kamchiliklar mavjudligini, 2- va 3-sinflarda mavzular uzviyligi va uzluksizligiga deyarli rioya qilinmaganligini ko'rsatdi. Jumladan, “Yangi yil bayrami” mavzusi 2-sinfda ham, 3-sinfda ham takror berilgan; 2-sinfdagi “O'quv qurollari” (17-mavzu), “Tana a'zolari” (19-mavzu), “Oziq-ovqatlar” (23-mavzu), “Idishlar” (24-mavzu); 3-sinfdagi “Sinfirmiz” (2-mavzu), “Oila” (7-mavzu), “Kun tartibi” (8-mavzu), “Bayramlar” (15-mavzu) mavzulari orasida uzviylik yo'q.

Xususan, 2-sinfda “Yil fasllari” va “Hafta kunlari” mavzularidan keyin “Oziq-ovqatlar” va “Idishlar” (23-24-mavzular) mavzularining berilishi; 3-sinfda “Mevalar”, “Polizda”, “Sabzavotlar” mavzularidan so'ng “Oila” mavzusining berilishi buning isbotidir. Lekin ayni vaqtda 4-sinfda mavzular uzviyligi va uzluksizligi nisbatan ta'minlanganligini, faqat 7-mavzuda berilgan “Kitob” mavzusi oldingi va keyingi mavzular bilan uzviylik bog'liqlikda berilmaganligini ko'rsatib o'tish mumkin [3, 4, 5].

Muhokamalar va natijalar. Boshlang'ich sinflar uchun “O'zbek tili” fanidan tuzilgan o'quv dasturida grammatikadan nazariy ma'lumotlar, qoidalar, ta'rif-tavsiflar berish rejalashtirilmagan, faqat nutq faoliyatining tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini amaliy shakllantirib borishgina ko'zda tutiladi. Ushbu ko'nikmalar darsliklarga kiritilgan mashqlar va matnlar tarkibida berilgan qo'shimchalar, ularning so'zlar tarkibida qo'llanishi, topshiriqlarda berilgan so'roq so'zlarni o'quvchilar nutqiga asta-sekin singdirib borish vositasida shakllantirib boriladi. Biroq bu o'rinda ham uzviylik va uzluksizlikning ta'minlanishida, ya'ni nutq faoliyatining tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozishga oid ko'nikmalarni o'quvchilarning yosh xususiyatidan kelib chiqib bosqichma-bosqich rivojlantirib borilishida muayyan kamchiliklar mavjudligini ko'rish mumkin. Quyida grammatik ma'lumotlarning 2-4-sinflar kesimida berilgan qiyosiy tahlilini keltiramiz [3, 4, 5].

Boshlang'ich sinflarda “O'zbek tili” fanidan berilgan grammatik ma'lumotlarning uzviyligi va uzluksizligi

Sinflar	Qo'shimchalar va yordamchi so'zlar	So'roqlar
2-sinf	-ta qo'shimchasi, esa so'zi	nechta? qancha? qaysi rang? qanday rangda? kim nima qilyapti? nima bilan? nechta? qancha?, nechanchi? qaysi?, qayerga qo'yay? nima qilay? so'roqlari
3-sinf	ha, yo'q so'zlari, -dan, -sin qo'shimchasi, -ni qo'shimchasi-ning egalik shakllari bilan qo'llanishi, -ga, -ka, -qa qo'shimchalari	qayerdan?, qayerga? so'roqlari
4-sinf	-miz qo'shimchasi, -nchi, -inchi, -ga, -ka, -qa, -gan -dan, -da qo'shimchalari, ko'plik sondagi shaxs-son qo'shimchasi, sifat+ekan tuzilishli fe'l shakllari, -sh, -ish, -dilar, -(i)shdi qo'shimchalari, -jon, -lik qo'shimchasi, buyruq-istak maylining -sin qo'shimchasi	qayer?, nechanchi?, qayerda? qayerga?, kimdan? qayerdan? qachon?, nima? nimani? nima qilasiz?, kim? nima? qayerda? so'roqlari

Mazkur qiyosiy tahlillar sinflar kesimida grammatik ko‘nikmalarning shakllantirilishi masalasida qaytariqlar va takrorlarning ko‘p uchrashini, qo‘shimchalar va savollarning berilishida tadrijiylikning yo‘qligi, masalan, *qayerga?* so‘rog‘i 2-, 3-, 4-sinfda, *qayerdan?* so‘rog‘i 3-,4-sinfda, *kim? nima?* so‘roqlari 2- va 4-sinfda berilgani, kelishiklardagi *-ga, -ka, -qa* qo‘shimchalari, fe‘llardagi *-sin* qo‘shimchasi 3-sinfga ham, 4-sinfda ham yangi o‘quv materiali sifatida berilayotgani holatlarini kuzatish mumkin.

Dastur va darslikdagi eng jiddiy kamchiliklardan biri - bu sinflar kesimida grammatik shakllarning murakkablik darajasi e‘tiborga olinmagan holatlar bo‘lib, jumladan, *kim? nima?* so‘roqlari 4-sinfga kiritilgani holda, murakkab tuzilishli *kim nima qilyapti?* so‘rog‘i 2-sinfga kiritilgan. *sifat+ekan* tuzilishli fe‘l shakllarining, buyruq-istak maylini ifodalovchi *-sin* qo‘shimchasining boshlang‘ich sinflar o‘quvchilariga berilishini umuman to‘g‘ri deb bo‘lmaydi. Grammatik shakllar hajmining sinflar kesimida rejalashtirilishida ham mutanosiblikning buzilganini, 3-sinfda shakllantiriladigan ko‘nikmalar miqdori 2-sinfdagidan ham kamligini ko‘rish mumkin.

Xulosa. Bugungi kunda respublikamiz ta‘lim tizimida yuz berayotgan yangilanishlar orasida maktabgacha ta‘limni uzluksiz ta‘limning boshlang‘ich ilk bosqichi sifatida qarash, ushbu bosqichning umumiy o‘rta ta‘lim uchun mustahkam poydevor vazifasini o‘tashi uchun maktabgacha ta‘lim muassasalarini kuchaytirish, ayniqsa, chet tillarni o‘rgatishni bolalarning kichik yoshidan boshlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shu bois darsliklarni modernizatsiyalash, ulardagi kamchiliklarni bartaraf etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Adabiyotlar

1. “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 5850-sonli Farmon. –Toshkent, 2019-yil 21-oktabr.
2. “O‘zbek tili” fani o‘quv dasturi (ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun). –Toshkent: RTM, 2017.
3. Rafiyev A. va b. O‘zbek tili (ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 2-sinfi uchun darslik). –Toshkent: “O‘zbekiston”, 1915.
4. Rafiyev A. va b. O‘zbek tili (ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 3-sinfi uchun darslik). –Toshkent: “O‘zbekiston”, 1915.
5. Rafiyev A. va b. O‘zbek tili (ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 4-sinfi uchun darslik). –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1917.

Mehrixon RAXMONOVA

Farg‘ona viloyati Xalq ta’limi xodimlarini
qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazi
pedagogika va psixologiya, ta’lim
texnologiyalari kafedra o‘qituvchisi

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHISINING TA’LIM JARAYONIDAGI
INNOVATSION POTENSIALLIGINI TAKOMILLASHTIRISH**

Maqolada yangi O‘zbekiston sharoitida ta’lim samaradorligiga erishishning dolzarb masalalari to‘g‘risida fikr yuritilgan. Xususan, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilar potentsialligini hamda ta’lim berishning sifati va samaradorligini oshirishning zamonaviy innovatsion talablari to‘g‘risida tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy kompetentligi, innovatsiya, intellektual, potentsial, ijodkor shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi.

В статье рассмотрены актуальные вопросы достижения эффективности образования в условиях нового Узбекистана. В частности, даны рекомендации по деятельности учителей начального образования и современным инновационным требованиям, предъявляемым к учителям начальных классов образовательных учреждений.

Ключевые слова: компетентность, новизна, диалектика, интеллектуальность, потенциал, креативность.

The article gives an idea of the actual issues of achieving educational efficiency in the conditions of new Uzbekistan. In particular, recommendations were made on the activities of primary education teachers, as well as modern innovative requirements for primary school teachers of the educational institution.

Key words: competence, innovation, dialectics, intellektual, potential, creative.

Kirish. Yangi O‘zbekiston va uning mustahkam poydevori ta’lim muassasalarida yaratilishini hamda ta’lim-tarbiya sohasini takomillashtirish, fanlarni o‘qitish sifati va samaradorligini oshirish, ta’lim maskanlarida zamonaviy shart-sharoitlar yaratish, pedagog kadrlar salohiyatini yuksaltirishga doir qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliy ishlar olib borilmoqda.

Asosiy qism. Hozirgi kunda ta’lim muassasasi pedagog xodimlarni ta’lim sifatini boshqarishning konseptual muhim usullaridan biri - kasbiy ta’lim mazmunini modernizatsiyalashda kompetentli yondashuvni amalga oshirishdir. Respublikamiz mustaqilligi tufayli iqtisodiyotimizning barcha sohalari, jumladan, ta’lim tizimi isloh qilinmoqda. Zamonaviy jamiyatga va keyingi hayotga kirisha oladigan, oldida paydo bo‘lgan har qanday hayotiy va kasbiy muammolarni amaliy hal eta oladigan pedagoglar zarur. Davlat ta’lim standarti va yangi o‘quv dasturlari asosida darsliklarning yangi avlodi yaratildi. O‘quvchilarni zamonaviy milliy o‘quv darsliklar bilan ta’minlashga erishildi.

Mantiqan olib qaralganda ham, “ta’lim” so‘zi - insonga o‘qitish, tushuntirish asosida bilim berish; unga tarbiyaning nazariy fazilatlarini, ma’lum hunarni egallash uchun zarur bo‘lgan xulk normalarini va amaliy malakalarini o‘rgatishdan iborat. Mana shu o‘rinda shvetsariyalik pedagog, boshlang‘ich ta’lim nazariyasi asoschisi I.G.Pestalossi katta didaktik material asosida o‘quv fanlarining turli yo‘nalishdagi o‘zaro bog‘liqliklarini yoritib berdi. Bunda u quyidagi tamoyillarga amal qildi: shaxsning o‘z qadr-qimmatini anglashi; bolani tabiat ato etgan qobiliyat va imkoniyat asosida tarbiyalash; bolani har tomonlama tarbiya etishga qaratilgan ko‘rgazmalilikni asoslab berdi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga muvofiq, ta’lim-tarbiyaviy jarayonda jamiyat va atrof-muhit o‘rtasidagi aloqalarni uyg‘unlashtirish, atrof-muhitga ijodiy munosabatni o‘rnatish va shakllantirish muammolari muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunga kelib, an’anaviy o‘qitish o‘rnini innovatsion shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar egallamoqda. Shu nuqtayi nazardan, o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini muntazam nazorat qilib borish, o‘quvchilarning olayotgan bilimlaridagi bo‘shliqlarni o‘z vaqtida to‘ldirib borish, iqtidorli o‘quvchilardagi intellektual potentsialning muntazam rivojlanishiga shart-sharoit yaratish, kattalar bilan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishga qiziqtirish, ularning salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlashga qaratilgan pedagogik yondashuvlar va tajribalarni boyitish, sinfdan tashqari pedagogik tadbirlar rejasini ishlab chiqish, o‘quv-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan hamda pedagogika fanining ilg‘or yutuqlaridan muntazam foydalanish ya’ni ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiya elementlarini olib kirish, ulardan samarali foydalanish, o‘qituvchilarning ota-onalar bilan hamkorlikda faoliyat yuritishini yo‘lga qo‘yish,

boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini qayta tayyorlash va malakalarini muntazam oshirib borishda zamonaviy usullardan foydalanish kabi vazifalarni amalga oshirish dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Potensial (lot. potentia - salohiyat) - biror vazifani hal etish va ko‘zlangan maqsadga erishishda foydalaniladigan manba, imkoniyat, ayrim shaxs, jamiyat, davlatning muayyan sohadagi salohiyatlarini anglatadi. Maktabga ilk qadam qo‘ygan o‘quvchi qarshisida yangi, jozibali o‘zga bir dunyo paydo bo‘ladi. Bola maktabda mo‘jizakor olam yangiliklari bilan tanishadi, hayot haqidagi his-tuyg‘ularini boyitadi, iroda va xarakterini tarbiyalaydi, o‘rtoqlari, katta yoshdagilar bilan muloqotda bo‘lishga o‘rganadi. O‘qituvchi endigina qutlug‘ ostonaga qadam qo‘ygan murg‘ak bolaga razm solar ekan, unga alohida e‘tibor, mehr, qalbiga yo‘l topa bilishi lozimligini tushunib yetadi va kasbiy faoliyati davomida o‘quvchilarning aqliy qobiliyatini, irodasini mustahkamlab, xarakterini tarkib toptira boradi.

Muhokamalar va natijalar. Hozirda boshlang‘ich ta‘lim jarayonini rivojlantirishda o‘qituvchining kasbiy kompetentligi va o‘qimishlilik darajasi, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi va bu sohadagi ilg‘or tajribalar, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim konsepsiyasi va kompetensiyaviy yondashuv asoslarini bilishi boshlang‘ich ta‘lim sifati va samaradorligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda boshlang‘ich ta‘lim oldiga bir qator vazifalar qo‘yilmoqda:

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish, o‘rganish, o‘zlashtirgan bilimlarni qo‘llash istagi va ko‘nikmalarini shakllantirish.

2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yuqori darajada shakllangan bilish jarayoniga, bilish faoliyatiga intilishni kuchaytirish.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy-siyosiy va madaniy sohalardagi islohotlarning asl maqsadi o‘ziga kelayotgan yosh avlodni jamiyatimiz uchun munosib – bilimli, yuksak intellektual salohiyatga ega, ma‘naviy jihatdan barkamol insonlar qilib voyaga yetkazish bo‘lib, bu vazifalar har tomonlama salohiyatli, boy tajribaga ega, zamon talablari asosida faoliyat yurituvchi sharaflilar kasb egalari – o‘qituvchilar zimmasiga yuklanadi.

Hozirgi zamon o‘qituvchisi ta‘lim maqsadlarini amalga oshirishda o‘quvchilarning pedagogik-psixologik tabiatiga e‘tiborini qaratishi va ta‘lim jarayoniga innovatsiyani olib kirishi, hamkorlik asosidagi bahs-munozaraga imkon yaratishi, hamkorlik asosidagi iroda mustahkamligini, muomala madaniyatini, iste‘dodini tarbiyalashi lozim. Boshlang‘ich ta‘limning samaradorligini ta‘minlashda o‘qituvchining shaxsiy sifatlari va pedagogik mahorati ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi ko‘p jihatdan o‘quvchi uchun o‘rnakdir. Shuning uchun ham, u birinchi navbatda, ularni o‘ziga jalb eta olishi kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z kasbining mutaxassisi sifatida takomillashib borishi quyidagilarda namoyon bo‘ladi. Aniq maqsad, intilish asosida pedagogik jarayon samaradorligini, o‘zining ishchanlik faolligini oshirish, izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o‘zlashtirib faoliyatiga joriy etish, ilg‘or texnologiyalar, metod hamda vositalardan xabardor bo‘lish, faoliyatiga fan-texnikaning so‘ngi yangiliklarini samarali tadbiiq etish, kasbiy malakalarni takomillashtirish, ko‘nikma salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash yo‘lida olib boriladigan amaliy harakati uning o‘z ustida ishlashi va kasbiy kompetentligi takomillashtirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ta‘limning tashqi ehtiyojlarga nisbatan ochiqligi, liderlarni aniqlash va namoyon etishning tanlovga asoslanganligi, yangi yondashuvlarning amaliyotga muvaffaqiyatli tadbiiq etilishi, kompleks yechimlarning manzilli yo‘naltirilganligi va qabul qilinadigan qarorlarning yaxlitlik xarakteriga egaligi muhim ahamiyatga molik.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta‘limni o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirish va kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan holda tashkil etishning alohida yo‘nalishlari milliy loyihalash ko‘lamida tadbiiq etilishi lozim. O‘zbekiston Respublikasining ta‘lim siyosatidagi strategik maqsadi – sifatli ta‘limning qulayligini oshirish, bunda shaxs taraqqiyoti va jamiyat etiyojlarini hisobga olishdan iborat.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Ta‘lim sohasidagi muammolar, ularni hal etish va ta‘lim sifati oshirish. -T., 2020.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar.
3. Fayzullaeva N. Pedagogik bilimlar – o‘qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi // Uzluksiz ta‘lim. – T., 2006. 6-son. – 102-b.
5. Slastenin A. V. Pedagogika. -M., 2000.

Gulchehra SO‘FIBOYEVA

Namangan davlat universiteti
tayanch doktoranti (PhD)

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING FAZOVIIY TASAVVURINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Hozirgi kunda odamlar, ayniqsa bolalar, ijodkorlarga emas, balki iste‘molchilarga aylangan, ular hech narsa yaratmaydilar faqat ixtiro qilingan tayyor mahsulotlar orqasidan ergashadilar. Muammo shuki, ularda loyihalash, dizaynerlik qobiliyati rivojlanmagan. Bunga sabab, kichik maktab yoshida o‘quvchilarning geometrik fazoviy tasavvurini shakllanmaganligidadir. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fazoviy tasavvurini rivojlantirishda bir qator pedagogik muammolar aniqlandi.

Kalit so‘zlar: fazoviy tafakkur, fazoviy tasavvur, rivojlantirish, qobiliyat, pedagogik muammo.

В наши дни люди, особенно дети, стали потребителями, а не творцами, они ничего не создают, они просто следуют придуманной готовой продукции. Проблема в том, что у них нет возможности конструировать. Это связано с тем, что в младшем школьном возрасте у школьников отсутствует геометрический пространственный образ. В данной статье определяется ряд педагогических проблем в развитии пространственного воображения учащихся начальной школы.

Ключевые слова: пространственное мышление, пространственное воображение, развитие, способности, педагогическая проблема.

Nowadays, people, especially children, have become consumers, not creators, they do not create anything, they just follow the invented finished products. The problem is that they do not have the ability to design. This is due to the fact that at a young school age, students do not have a geometric spatial image. This article identifies a number of pedagogical challenges in developing the spatial imagination of primary school students.

Keywords: spatial thinking, spatial imagination, development, ability, pedagogical problem.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta‘lim tizimini takomillashtirish, ta‘lim sifatini yaxshilash va samaradorligini ta‘minlashda moddiy omillar bilan bir qatorda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fazoviy tasavvurini rivojlantirish darajasi, salohiyati muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fazoviy tasavvurini rivojlantirish ta‘lim jarayonida diqqat va e‘tiborni talab qiladigan, o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydigan, ta‘lim sifatini yaxshilash va samaradorligini ta‘minlashga qaratilgan pedagogik muammodir.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari fazoviy tasavvurini rivojlantirishning asosiy maqsadlaridan biri – o‘quvchilarni har tomonlama yetuk, mustaqil, erkin fikrga ega, ijodkor, mustaqil izlanuvchi, jamiyatimiz taraqqiyoti uchun hissa qo‘shadigan barkamol inson qilib tarbiyalashdir. Bundan tashqari o‘quvchilarning fazoviy tasavvurini rivojlantirishda sharq mutafakkir allomalarimizning falsafiy-ta‘limiy qarashlariga tayanib ish ko‘rilsa ta‘lim jarayonida o‘sish, rivojlanish va mukammallik gavdalanadi. O‘quvchilarning fazoviy tasavvurini shakllantirishda sharq mutafakkir allomalarimizdan Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Fitrat, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abu Rayhon Beruniy kabi ko‘plab mutafakkirlarimizning pedagogik qarashlariga tayanishimiz mumkin.

Asosiy qism. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fazoviy tasavvurini rivojlantirish zarurati 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta‘lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-sonli Farmoniga asoslangan [1], hamda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi, Respublika ta‘lim markazi, UNICEF tashkiloti hamkorligi tomonidan tayyorlangan umumiy o‘rta ta‘limning Milliy o‘quv dasturida ham qayd etilgan bo‘lib, uning talablari XXI asr ko‘nikmalariga ega raqobatbardosh, vatanparvar, mustaqil fikrga ega, fazoviy taffakkuri shakllangan, kreativ shaxsni tarbiyalash maqsad qilib olingan.

XXI asrda butun jahon bo‘ylab ta‘lim-tarbiyaga e‘tibor kuchaytirilmoqda va imkoniyatlar yaratilmoqda. Bugungi kunda respublikamizning ta‘lim sohasida axborot texnologiyalaridan foydalanishning me‘yoriy-huquqiy bazasini tubdan takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalar, ilmiy izlanishlar va zamonaviy texnologiyalarni boshlang‘ich ta‘lim jarayoniga integratsiya qilish, bilish faoliyatini shakllantirish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘stirish ustuvor vazifa qilib belgilangan. O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim sifatini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Ta‘lim jarayonida natijaviylikka erishish bo‘yicha o‘quvchilarning aqliy va ijodiy tafakkurini oshirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini ta‘minlash, pedagog

va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish”[2] kabi muhim vazifalar belgilangan. Ta’lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematika fanini o‘rganishda axborot ta’lim resurslari, iqtidorli o‘quvchilarning intelaktual salohiyatini o‘stirish uchun ijodiy materiallar tizimini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish, fanga bo‘lgan qiziqishini o‘stirish bilan bir qatorda, Davlat ta’lim standartida matematika fani doirasida keltirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni hayotda qo‘llay olish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fazoviy tafakkurini rivojlantirishga alohida e’tibor berilishi kerak, bu yoshda shaxsning barcha kognitiv jarayonlari: nutq, fikrlash, xotira, idrok, tasavvurning faollashishi bilan bog‘liqdir. Fazoviy tasavvurlarning rivojlanishi, umuman, bolaning intellektual rivojlanishining eng muhim qismidir, chunki u nafaqat o‘quv fanlarini o‘rganishda, balki shaxsning rivojlanishida ham muhim rol o‘ynaydi

Batova va Stoylova fazoviy tafakkurni rivojlantirishda ushbu turdagi tafakkur tuzilishini tarkibiy qismlarga ajratdi; fazoviy idrok, fazoviy tasvir, fazoviy tasavvur (tasvirlarni qayta tiklash qobiliyati) [3, 4].

Pestalotsi kuzatishlar natijasida bolada ko‘rish, eshitish sezgilari va boshqa sezgilar hosil bo‘ladi, bu sezgilar bolada fikrlash va so‘zlash ehtiyojini tug‘diradi, deydi. Odamning sezgi a‘zolari yordamida tashqi dunyo to‘g‘risida hosil qilgan tasavvurlari dastlab ravshan va aniq bo‘lmaydi. Ta’limning vazifasi ham shundan iboratki, u mana shu tasavvurlarni tartibga solishi va aniqlashi, ravshan tushunchalar darajasiga yetkazishi, “tartibsiz tasavvurlarni ravshan tasavvurlarga va ravshan tasavvurlarni ochiq ko‘rinib turgan tasavvurlarga” aylantirishi kerak [4, 90-96].

Yangi taassurotlar har doim yangi imkoniyatlarni ochib, tasavvurni rivojlantiradi. Fazoviy tasavvurni rivojlantirish orqali bolaning atrofdagi dunyo obyektlari haqidagi shaxsiy g‘oyalari kengayadi, tasvirlarni ongli ravishda o‘zgartirish ko‘nikmasi rivojlanadi. Ularda loyihalash, dizaynerlik qobiliyati shakllanadi.

Tasavvurlari tufayli bolalar o‘tgan narsalarni bemalol eslay oladilar, masalan, bolaga ko‘z o‘ngida bo‘lmagan narsaning nomini aytasangiz, u ko‘zlari bilan chor atrofga qarab shu narsani izlay boshlaydi [5, 58]. Ular yod olgan qoidalar yoki she‘rlar ma’lum vaqt o‘tganidan so‘ng takrorlab turilmasa yodidan ko‘tarilishi ehtimoli katta. Lekin ko‘rganlarini eslab qolishlari va xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Shunday ekan, “Geometriya yodlashdan ko‘ra kashf qilish va tushuntirish kerak degan tushunchani ishlab chiqish mumkin” [6].

O‘quvchilarning geometrik tayyorgarlikka erishishlari uchun chuqur fundamental bilimlarni olish, fazoviy tasavvurni rivojlantirish, yangi materialni mustaqil o‘rganishni ta’minlash kerak. Matematikada kirish imtihonlari natijalari yuqori emasligi, maktab o‘quvchilarining geometrik tayyorgarlik darajasi pastligi ta’kidlangan, juda ko‘p talabgorlar geometrik topshiriqlarni bajara olishmagan. Ushbu kuzatuvlar bir qator muhim muammolarni aniqlaydi:

- boshlang‘ich bilimlarni o‘zlashtirishda fazoviy tasavvur shakllanmaganligi;
- mantiqiy fikrlashning rivojlanmaganligi;
- mavjud bilimlarning mohiyati yo‘qligi;
- o‘quvchi o‘z nutqini erkin ifoda etib bera olmasligi (uyalish, tortinish yoki nutqiy faoliyati rivojlanmaganligi);
- bolalarda ijodkorlikka intilish yo‘qligi (bolalar ijodkorlarga emas, iste’molchilarga aylanib qolishlari. Ular hech narsa yaratmaydilar faqat ixtiro qilingan tayyor mahsulotlar orqasidan ergashadilar). Shu kabi muammolar hozirgi kunda dolzarb va yechimi topilishi kerak bo‘lgan muhim masalalardir.

Matematika o‘qitish jarayonining eng muhim jihatlaridan biri bo‘lib, tushunchalarni shakllantirish, harakat usullarini o‘zlashtirishdan iborat, shu bilan birga, tegishli o‘qitish vositalarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Matematika fani o‘quvchini fikrlashga, tasavvur qilishga, tasvirlashga, modellashtirishga undovchi fan hisoblanadi. O‘quvchilarning geometriya fanidan o‘zlashtirish darajasi past bo‘lishining asosiy sababi geometrik fazoviy fikrlash darajasining pastligi bilan bog‘liqligini yuqorida aytib o‘tdik. Fazoviy fikrlash aqliy faoliyatning bir turi hisoblanadi, uni rivojlantirish dunyoni yangi ranglarda ko‘rishga, tasavvuringizni kengaytirishga va har qanday hayotiy qiyinchiliklarda munosib yo‘l topishga yordam beradi. Fazoviy tasavvur orqali bolada geometrik shakllarni tasvirlay olish, yangi-yangi naqshlarni chizish, yangi tasvirlarni yaratish qobiliyati rivojlanadi.

Fazoviy tasavvur va geometriyani bir yo‘nalishda birlashtirsak adashmaymiz, chunki fazoviy tasavvur va geometriya tabiatan bog‘langan. Geometriya “Yerni o‘lchayman” deb tarjima qilingan va fazodagi, tekislikdagi obyektlarni o‘lchash bilan shug‘ullanadi. Bu esa fazoviy ko‘nikmalarni talab qiladi.

Fazoviy tasavvurlarni shakllantirish jarayonini maqsadli amalga oshirish bilan o‘qituvchi nafaqat o‘quv fanlarini chuqur o‘zlashtirishi kerak, balki mavzu, o‘qitish usuli, shuningdek, fazoviy tasavvurlar shakllanishining psixologik va fiziologik xususiyatlarini bilishi: tuyg‘ularning paydo bo‘lishi, idrok va sezgining rivojlanishi, fikrlash tuyg‘ulari va hokazo... Bu nafaqat geometriya kursini o‘zlashtirishda o‘zining

ichki vazifasi, balki yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishlari uchun zarur bo’lgan asosiy maqsadlardan biridir. O’qituvchi matematika darslarida geometriyaga ko’proq ahamiyat berishi orqali o’quvchilarning fazoviy tasavvurini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo’lishlari mumkin. Lekin, afsuski, boshlang’ich sinflarda geometrik materiallar va ularni o’qitishni takomillashtirish muammosi ko’p olimlarimiz tomonidan o’rganib kelingan bo’lsada, turli xil metodlar yaratilgan bo’lsada, o’quvchilarning geometrik o’zlashtirish darajasi pastligicha qolmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri geometriyani o’rganishga kam vaqt ajratilishi va natijada o’quvchilarning o’zlashtirgan geometrik shakllar bo’yicha ham tasavvurga ega emasligini kuzatishimiz mumkin. Bu kimning aybi va kimning xatosi?

Muhokamalar va natijalar. Bolada fazoviy tasavvurni shakllantirishda ota-onaning ro’li muhim sanaladi. Bolani tarbiyalash va ta’lim olishga to’g’ri yo’naltirish ota-onaning asosiy vazifasidir. Bolalarda fazoviy tasavvurni rivojlantirish uchun murakkab bo’lmagan bir qator vazifalar belgilangan [7, 5]. Bolaning o’yin faoliyatida ham ular bilan fazoviy so’zlar orqali muloqotda bo’lish. Xorij tajribalariga ko’ra ota-onalarning fazoviy so’zlardan foydalanishlari ularni farzandlarining fazoviy tasavvuriga bog’liqligini ko’rsatadi va fazoviy so’zlarni ko’p eshitgan va amalda bajargan bolalar fazoviy vazifalarni yaxshiroq bajarganlar. Fazoviy so’zlarga joy, masofa, yo’nalish bilan bog’liq so’zlar kiradi. Masalan, o’ng, chap, yuqori, past, ustida, ostida, baland, qisqa.

Buni sinab ko’ring: Qo’lingizga qog’oz va qalam oling. Oppoq qog’oz ichiga farzandingiz yoqtirgan narsalarning rasmini chizishga harakat qiling (u yoqtirgan mevalar yoki multfilm qahramonlari). Chizgan tasviringiz orqali farzandingizni quvontirishga va diqqatini shu tasvirga jamlashga harakat qiling. Rasmlarni shunday tasvirlangki ular qog’ozning turli tomonlarida joylashgan bo’lsin. Rasm tayyor bo’lgach farzandingiz bilan birgalikda ularning joylanishini kuzating.

Qushlar qayerda? (Yuqorida), odamlar qayerda? (pastda).

Qizil mashinani toping. Mana! U qayerda? (o’ngda).

Qora mashinachi? (chapda).

Quyvonlar qani? (o’rtada) bolalarichi? (ona quyvonning orqasida).

Rasmni soat yo’nalishi bo’ylab bir marotaba aylantiring. Rasmdagi tasvirlarning joyi o’zgardi, Qushlar qayerda? (chapda). Ikkinchi urinishda bolani mustaqil fikrini tinglang. Ushbu mashg’ulotni muvaffaqiyatli tamomlagach keyingi bosqichda rasm chizishni bolaning o’ziga topshiring. U sizning so’zlaringizni eshitish, tasavvur qilish orqali rasm chizishga urinadi. Siz fazoviy so’zlardan foydalanmasangiz ham ular quyoshni yuqoriga, baliqlarni pastga chizadi, chunki ularda obyektlarni ongli ravishda joylashtirish ko’nikmasi tasavvurida shakllanadi.

Ushbu mashg’ulotlar farzandingizning fazoviy so’zlarni o’rganishlari uchun yordam beradi. Ota-onalar farzandlari bilan mashg’ulot o’tkazishlari uchun 5-10 daqiqa vaqt ajratishlari lozim. Kun tartibining istalgan vaqtida fazoviy so’zlardan foydalanishlari mumkin (o’yin o’ynashda, ovqatlanishda, kiyinishda).

Fazoviy tasavvurlar vaqt o’tishi bilan rivojlanib boraveradi va tobora mustahkamlanadi. Psixologik va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish natijasida olimlar, pedagoglar va psixologlarning bu mavzuga yondashuvlari o’rganildi, boshlang’ich sinf o’quvchilarining fazoviy tasavvurini rivojlantirish xususiyatlari ochib berildi.

Bir qator muammolarni o’rganib chiqish va tahlil qilish natijasida quyidagi tavsiyalarni keltirib o’tamiz.

- oila va maktab hamkorligini doimiy yo’lga qo’yish;
- bo’lajak yosh kadrlarning pedagogik, psixologik va fiziologik bilim salohiyatini yanada kengaytirish;
- fazoviy tasavvurni shakllantirish jarayonini maqsadli amalga oshirish: o’quvchining psixologik va fiziologik xususiyatlarini bilishi;
- o’quvchilarda fazoviy tasavvurni shakllantirish jarayonida tahlil qilish, umumlashtirish, taqqoslash, tasniflash, tushuntirish kabi aqliy faoliyatini rivojlantirish;
- boshlang’ich sinflarda geometrik materiallarni o’qitishni takomillashtirish orqali ularda loihalash ko’nikmasini shakllantirib borish;
- boshlang’ich sinf o’quvchilarining fazoviy tasavvurini rivojlantiruvchi turli xil amaliy mashg’ulotlarni ishlab chiqish va ulardan matematika darslarida foydalanishni yo’lga qo’yish;
- boshlang’ich sinflarda matematik fakultativ mashg’ulot rejalariga geometrik mazmundagi materiallar va amaliy topshiriqlar kiritilishini ta’minlash;
- yangilangan Milliy o’quv dasturida geometrik materiallarni o’rganish, o’quvchining fazoviy tasavvurini rivojlantirish maqsadi ilgari surilgan. Shu dastur asosida matematik mazmunda sinfdan tashqari mashg’ulotlarda foydalanish maqsadida darsliklar tayyorlash.

Xulosa. Yuqorida keltirib o‘tilgan tavsiyalar o‘quvchilarni ijodkorlikka, tasavvurni rivojlantirishga, mantiqiy fikrlashga, g‘ayritabiiy narsalarni yaratish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan. Besh yoshdan o‘n ikki yoshgacha bo‘lgan bolalarni tarbiyalashga alohida e‘tibor qaratish lozim. Bu davrda olimlar aql-idrokni, ya‘ni majoziy fikrlash va tasavvurni rivojlantirish uchun eng maqbul yo‘l deb atashadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. PF-4947-son. 2017-yil 7-fevral. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son qaroriga 1-ILOVA. – Toshkent, 2020 yil 7-may, PQ- 4708-son.
3. Батова А.А., Стойлова Л.П. Особенности развития пространственного мышления в младшем школьном возрасте. Педагогическое образование 2021. Том 2. №2 4 б.
4. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. –Toshkent: “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi” nashriyoti, 2005. 90-96 b.
5. Nishanova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. –Toshkent: “O‘zbekiston yozavchilar uyushmasi adabiyot jamg‘armasi” nashriyoti, 2006. - 58 b.
6. David Fuys, Dorothy Geddes and Rosamond Tischler Brooklyn College (2013). The Van Hiele Model of Thinking in Geometry among Adolescents National Council of Teachers of Mathematics Accessed: 03/11/2013 19:54 <http://www.jstor.org/page/info/about/policies/terms.jsp>
7. So‘fiboyeva G. Developing imagination about space of primary school students in the learning process . International scientific and current research conferences. “Pedagogy and modern education: tradition, experience and innovation” Hawaii USA. Doi - https://doi.org/10.37547/iscrc-intconf15_30-11-2021.5-p.
8. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. –Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2009. 34-bet.
9. Roza Leikin.(2016) What Is Special About the Brain Activity of Mathematically Gifted Adolescents? Advances in Mathematics Education. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-319-38840-3_11
10. So‘fiboyeva G. Boshlang‘ich sinflarda geometrik materiallarni o‘qitishda yangi imkoniyatlar. Ta‘lim tizimida innovatsiya, integratsiya va yangi texnologiyalar VI Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. -Namangan, 26-aprel 2021. 37-40 b.
11. Carr M., Alexee N., Wang L., Barned N., Horan E. and Reed A. (2018), The Development of Spatial Skills in Elementary School Students. Child Dev, 89: 446-460 p. <https://doi.org/10.1111/cdev.12753>
12. Swoboda E., Vighi P. Early Geometrical Thinking in the Environment of Patterns, Mosaics and Isometries. <http://www.springer.com/series/14352> ICME 13 Hamburg 2016.4-5 p.

Nodirabegim RAJABOVA

Buxoro davlat universiteti
boshlang‘ich ta‘lim metodikasi
kafedrası o‘qituvchisi

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING TADQIQOTCHILIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Har qanday ilmiy tadqiqot - bu maxsus tashkil etilgan bilish jarayoni bo‘lib, unda voqelik haqidagi nazariy bilimlar o‘rganiladi, o‘zlashtiriladi va tizimlashtiriladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishga bir qancha omillar ta‘sir ko‘rsatadi. Ta‘sir etuvchi omillardan biri axborot bilan ta‘minlash va uni maqsadli pedagogik boshqarish bilan bog‘liq. Har qanday tadqiqot jarayoni bir necha bosqichlardan iborat: muammoning yechimiga erishishning umumiy yo‘nalishini belgilovchi konsepsiyani aniqlash; vaziyatni aniqlash va muammoni hal qilish uchun ma‘lumot to‘plash; muammoni hal qilish usulini tanlash va uni sinab ko‘ring. Maqolada shu haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *ilmiy tadqiqot, ijodiy-yaratuvchanlik, qobiliyat, pedagogik va psixologik bilimlar, axborot ta‘minoti.*

Любое научное исследование есть специально организованный процесс познания, в котором теоретические знания о действительности изучаются, усваиваются и систематизируются. На формирование исследовательских навыков у будущих учителей начальных классов влияет несколько факторов. один из влияющих факторов связан с предоставлением информации и ее целенаправленным педагогическим управлением. Любой исследовательский процесс состоит из нескольких этапов: определение концепции, определяющей общее направление достижения решения проблемы; сбор информации для определения состояния и решения проблемы; выбрать метод решения проблемы и протестировать его.

Any scientific research is a specially organized process of cognition, in which theoretical knowledge about reality is studied, assimilated and systematized. Several factors influence the development of research skills in future primary school teachers. one of the influencing factors is related to the provision of information and its purposeful pedagogical management. Any research process consists of several stages: defining a concept that defines the overall direction of achieving a problem solution; collection of information to determine the condition and solution of the problem; select a problem-solving method and test it.

Key words: *scientific research, creativity, ability, pedagogical and psychological knowledge, information support.*

Kirish. Oliy ta‘limni 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida bo‘lajak mutaxassislarining o‘z yo‘nalishlarida tadqiqotchilik ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi oliy ta‘limni rivojlantirishning strategik vazifalari qatorida keltirilgan [1]. Dunyoning xalqaro ilmiy markazlarida maktab o‘quvchilarining ijodkorlik, ijodiy-yaratuvchanlik, texnik loyihalashga tayyorlash mexanizmlari, tadqiqotchilik faoliyati, umumilmiy bilimlar tizimini shakllantirish texnologiyalari, tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllanish xususiyatlari, o‘quv-tadqiqotchilik faoliyatining o‘zish imkoniyatlariga oid ilmiy izlanishlar olib borilmoqda [2].

Asosiy qism. Oliy ta‘lim tashkilotlarining o‘quv jarayoniga qo‘yilgan talab ta‘lim oluvchilarning zarur ko‘nikma, kompetensiyalarini shakllantirishga sharoitlar yaratib berishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Chunki, o‘qituvchi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha chuqur va puxta ilmiy bilimlarga asoslanib o‘quv jarayoniga kirishar ekan, pedagogik va psixologik bilimlarni ham mukammal bilishi, jarayonga ijodiy yondashishi, faoliyatini tadqiqotlar ko‘rinishida olib borishi lozim. Oliy ta‘lim tashkilotlarida olib boriladigan tadqiqotlar ilmiy tadqiqotlar hisoblanib, ilmiy tadqiqotga berilgan ta‘riflarni aniqlashtirib olish lozim. “Ilmiy tadqiqot – yangi bilimlar va nazariyalarni aniqlash jarayoni” [3].

“Har qanday ilmiy tadqiqot bu – bilishning maxsus tashkil qilingan jarayoni bo‘lib, unda voqelik haqidagi nazariy bilimlar o‘rganiladi, o‘zlashtiriladi va tizimga solinadi” [4].

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga bir qancha omillar ta‘sir etadi. Ta‘sir etuvchi omillardan biri axborot ta‘minotiga va uni maqsadli ravishda pedagogik jihatdan boshqarishga bog‘liq. Har qanday tadqiqotchilik jarayoni bir necha bosqichlardan iborat: masala yechimiga erishishning umumiy yo‘nalishini belgilovchi konsepsiyani aniqlash; masala sharti va yechimini aniqlashga oid axborotlar yig‘ish; masalani yechish uslubini tanlash va uni tekshirib ko‘rish [5].

Tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishda talabalarning individual-shaxsiy sifatлари.

Tadqiqotning maqsadlaridan biri oliy o‘quv yurtlarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining holatini, talabalarning bu faoliyatga munosabatini, unda qatnashish choralarini, uning shakllari va texnologiyalari bilan tanishligini aniqlash edi. Bunda birinchi navbatda, vaziyatni talabalarning o‘zlari subyektiv baholashiga ahamiyat qaratildi.

Birinchi blokda savollar (o‘qish kursi, kelib chiqishi, maktab ko‘rsatkichlari va boshqalar) bilan tuzilgan. Ular o‘quvchilarni boshqa savollarga javoblarining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash maqsadida ba’zi obyektiv parametrlar bo‘yicha guruhlashda ishlatilgan.

Ikkinchi blok o‘quvchilarning ta’lim faoliyati doirasidagi o‘z holati haqidagi tasavvurini aniqlashga yordam beradigan savollardan iborat edi (kasb va universitet tanlash sabablari, ta’limga bo‘lgan munosabat, ko‘nikmalari, ilmiy bilishi, o‘rganishdagi obyektiv va subyektiv qiyinchiliklar va boshqalar).

Uchinchi blok tadqiqot ishlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan savollardan iborat edi (ularga talabalarning javoblari keyingi tahlil qilinadi).

To‘rtinchi blokda talabalarning qarashlari, ularning kasbiy va hayotiy kelajagi haqidagi tasavvurlari, ularning istiqbollarini idrok etish va hayotdan qoniqish bilan bog‘liq umumiy savollar o‘rin olgan. Anketaning bunday tuzilishi nafaqat talabalarning tadqiqot ishlarida ishtirok etishi haqida ma’lumot olish, balki unda ishtirok etish (yoki qatnashmaslik) ta’limga va umuman hayot haqidagi tasavvurga qanday ta’sir qilishini aniqlash imkonini berishi nazarda tutilgan.

Tadqiqot bo‘yicha tahlilga ko‘ra, katta qiziqish uyg‘otadigan kasb tanlash sabablari haqidagi ma’lumotlar bilan boshlash maqsadga muvofiqdir: kasb tanlash sabablari, kasbning obro‘si, ish haqi, mehnat tarkibi, ishga qabul qilish imkoniyatlari, ishga joylashish imkoniyatlari, tanlov yetishmasligi, boshqalar.

Olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘p talabalarda kasb tanlashning uchta sababi bor: bu kasbning ijtimoiy obro‘si, bu kasbning jozibadorligi va oliy ma’lumotli diplom.

Bunda yerda ikkita holatni hisobga olish kerak. Birinchidan, hozirgi vaqtda mamlakatdagi ta’lim xizmatlari bozori hali boshlanmagan. Shu sababli, talabalar har doim ham ta’limni daromad bilan bog‘lashmaydi. Hozirgi kunda odamning daromad darajasi uning kasbi va malakasiga emas, balki iqtisodiyotning qaysi sohasida: davlat yoki xususiy sektorda ishlashiga bog‘liq.

Birinchidan, bunday bozor asta-sekin paydo bo‘ladi. Xususan, kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, kasb tanlash motivlari bo‘yicha turli kurslarda o‘qiyotgan talabalar o‘rtasida farqlar mavjud. Bundan tashkari, ma’lum bo‘lishicha, talabalarning tadqiqot ishlariga qiziqishi yoki ishtiroki ta’limning asosiy motivlarining nisbiy kuchi bilan bog‘liq emas.

Ikkinchidan, talabalarga motivlar darajasining pasayishi ta’lim sifatining pasayishiga olib keladi.

Uchinchidan, olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarni yaxshiroq ishlash uchun yetarlicha rag‘bat yo‘q. Xususan, o‘qitishdagi muvaffaqiyat va bitiruvchining keyingi ishga joylashuvi o‘rtasidagi bog‘liqlik deyarli butunlay yo‘qoldi.

Bularning barchasi bizni oliy ta’limning kelajagi haqida jiddiy o‘ylashga majbur qiladi. Biz talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini ularning ta’lim faolligini oshirishga yordam beradigan muhim omillardan biri deb hisoblaymiz. Shubhasiz, unda ishtirok etayotganlarning hammasi ham olim bo‘lolmaydi, lekin ilmiy muammolarni o‘rganish talabaning bilimini kengaytiradi va chuqurlashtiradi, olingan bilimlarni amalda qo‘llashning turli sohalari bilan tanishtiradi, qo‘shimcha ta’lim motivatsiyasini va boshqalarni yaratadi.

Muhokamalar va natijalar. Talabalarning ta’lim faoliyati va ularga bo‘lgan munosabat ham turli xil. Universitetga kirishdan oldin talabalarning asosiy qismi bo‘lajak kasblari haqida tasavvurga ega bo‘lmagan. Tadqiqot ishiga qiziquvchilar va ular bilan shug‘ullanadiganlar soni nisbatan yuqori. Kasb -hunar ta’limiga ko‘proq e’tibor qaratganlar, unga kamroq qiziqish bildirishadi.

Mutaxassisligingiz bilan bog‘liq qo‘shimcha adabiyotlarni talabalarning qiziqishi ijobiy.

Qo‘shimcha adabiyotlarga kamdan-kam murojaat qilish sabablari quyidagicha:

o‘rganilayotgan fanlarga qiziqishning yo‘qligi;

imkoniyatlarning yetishmasligi (shu jumladan, tijorat o‘quv yurtlari uchun kutubxonalarning yetarli darajada ta’minlanmaganligi);

vaqtning yetishmasligi (asosan, o‘qishni ish bilan birlashtirish natijasida);

o‘z tartibsizligi.

Yuqorida tahlil qilingan turli xil salbiy holatlar tufayli talabalarning kam fozisi yaxshi mutaxassis bo‘lishlariga ishonishadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining, ta’lim jarayonida sodir bo‘layotgan ijobiy o‘zgarishlarni aks ettiradi va sezadi. Ushbu o‘zgarishlarning progressiv tabiatini tushunish unga ijobiy his-tuyg‘ularni keltirib chiqaradi.

Ammo shuni ta’kidlaymizki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining paydo bo‘ladigan o‘zini

o‘zi rivojlantirish hissi ham uning, ham o‘qituvchilarning, ta‘lim muassasasi rahbarlarining sa‘y-harakatlari natijasidir. Shunga qaramay, bo‘lajak o‘qituvchilarning noroziligiga sabab bo‘ladigan o‘quv materialini tushunishga qiziqishning yo‘qligi va qiyinchilik bilan solishtirdik.

O‘qishdan mamnun bo‘lishning navbatdagi eng muhim sababi - muloqot. Odamlar muloqot qilish, ma‘naviy va hissiy aloqalarga bo‘lgan ehtiyojlarini iloji boricha qondirishadi va bunday imkoniyatlarga ega bo‘lishlari juda muhimdir.

Uchinchi sabab - yaxshi ta‘lim sharoitlarining mavjudligi. E‘tibor beraylik, so‘rovda qatnashgan talabalarining deyarli yarmi uchun o‘qish shartlari qoniqarli bo‘lgan. Umuman olganda, o‘qish sharoitlari ko‘proq odamlarning noroziligiga sabab bo‘ladi. Eng asosiysi, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta‘lim va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlik zaifligidan xavotirda. Bu muammo, ta‘lim shakli va shaklidan qat‘iy nazar, barcha oliy o‘quv yurtlari talabalarini tashvishga solmoqda va ayniqsa, uchinchi kursdan boshlab dolzarbdir. Qoniqarsizlikni keltirib chiqaradigan ikkinchi shart - bu o‘quv jarayonini tashkil etishdagi kamchiliklar, uchinchi o‘rinda - o‘quv jarayonining moddiy -texnik ta‘minlanishining zaifligi. Bu kamchiliklarning barchasi, qoida tariqasida, hammaga ma‘lum, lekin bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ham ular haqida yaxshi bilishlariga e‘tiborni qaratish ortiqcha bo‘lmaydi.

Ta‘lim sifati qoniqishdan ko‘ra ko‘proq norozilikni keltirib chiqaradi. Yana bir omil - o‘zingizni va qobiliyatingizni isbotlash qobiliyati - ko‘proq qoniqish bilan bog‘liq. Ya‘ni, o‘z imkoniyatlarini inkor qilgan talabalarga qaraganda, bunday imkoniyatlarga ega ekanligiga ishongan talabalar ko‘p.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta‘lim faoliyati bilan bog‘liq savollarga javoblarini tahlil qilishni yakunlab, “Sizningcha, yaxshiroq o‘qish mumkinmi?” degan savolga javoblarga to‘xtalib o‘tamiz. Bu javoblarning bir qismini (“hech narsa”, “xohish yo‘q”, “sabr –toqat”, “dangasalik”, “bilim yetishmasligi va boshqalar”) kabi javoblarni olamiz. Bu barcha javoblarning yarmidan ko‘pi. Ular to‘g‘ridan -to‘g‘ri shaxsiy, subyektiv xarakterdagi aralashuvni ko‘rsatadi. Ko‘rib turganingizdek, talabalar o‘zlarini tanqid qilishadi, ular o‘qituvchilar va ta‘lim muassasalariga o‘z qiyinchiliklari uchun to‘liq javobgarlikni yuklamaydilar. Shunga qaramay, quyidagilarga e‘tibor bering: ko‘pchilik odamlar o‘z faoliyatini yaxshi tashkil etilgan, obyektiv va qat‘iy nazorat yaxshiroq o‘rganadi va yaxshiroq ishlaydi.

Shuningdek, talabalarining hayoti va kasbiy kelajagi haqidagi g‘oyalarini tahlil qilindi. Ya‘ni, hayotning turli sohalarining subyektiv ahamiyati o‘rganildi. Bunda muhim xulosa shuki, tadqiqot ishlari talabalar uchun subyektiv ahamiyatiga ko‘ra juda past o‘rinni egallaydi.

Tadqiqotlar asosida ma‘lum bo‘ldiki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etishda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

ta‘lim jarayonini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish;

talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyatining zarurligini (qiymatini) ularning malakasini oshirish omili sifatida anglashi;

bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining uslubiy tayyorgarligi;

individuallik va farqlash;

uzluksizlik;

samarali o‘rganish;

tadqiqot jarayonida ishtirok etish;

kasbiy yo‘nalish;

tadqiqot o‘zaro ta‘siri subyektlarining psixologik muvofiqligi.

Albatta, tadqiqot faoliyatining talabalar hayotidagi rolini aniqlash qiyin. Biz bu yerda oliy ta‘lim muassasalarida shakllantirish va rivojlantirish mumkin bo‘lgan tadqiqot ko‘nikmalarini ko‘ramiz.

Xulosa. Talabalarining hayoti va kelgusi kasbiy faoliyatidagi umumiy fikrlari bilan birga ularning muvaffaqiyatga erishish qanday omillar muhim ro‘l o‘ynashi o‘rganildi. Ular, hayotda muvaffaqiyat qozonishning ikkita muhim omilini ko‘rsatishadi, ular buni yaxshi ta‘lim, iste‘dod va qobiliyatlarning mavjudligi deb bilishadi. Darhaqiqat, muvaffaqiyatga erishish usullari haqida turlicha qarashlarga ega. Masalan, faqat omad va omadga, yoki nufuzli yaqinlarning qo‘llab-quvvatlashiga ishonadiganlar ko‘p. Ta‘lim faolligini oshirish va o‘quvchilarning o‘qishdan qoniqishining muhim vositalaridan biri bu ularning tadqiqot faoliyatida ishtirok etishidir. Bu talabalar uchun eng ustuvor mashg‘ulotlardan biri emasligiga qaramay, ko‘pchilik uchun bu nafaqat qo‘llab-quvvatlanishi, balki ishlab chiqilishi va ishlatilishi mumkin bo‘lgan qiziqish uyg‘otadi.

Adabiyotlar

1. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Qarori. - <https://lex.uz/docs/4545884>

2. Mirzaeva N, Bektayeva X. O‘quvchilarda biologiya fanidan tadqiqotchilik ko‘nikmalari orqali ilmiy ijodkorlikni rivojlantirish. Analytical Journal of Education and Development. ISSN: 2181-2624.
3. Pedagogik atamalar lug‘ati. – T.: “Qori Niyoziy” nomi-dagi O‘zPFITI, 2017. –B.26
4. Педагогическое исследование: содержание и представление результатов / Е.В. Яковлев, Н.О. Яковлева. – Челябинск.: Изд-во РБИУ, 2010. – С.5.
5. Turmatov J.R. O‘quvchilar tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishga bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisi tayyorgarligini shakllantirish jarayonini modellashtirish. // “Pedagogik mahorat” nazariy va ilmiy-metodik jurnali. -Buxoro: BuxDU, 2012, 2-son. -19-23-b.
6. Rajabova N., Fayziyeva D. FOLKLORISM IN THE WORKS OF DILSHOD RAJAB //АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ. – 2021. – С. 212-214.
7. Komilovna R. N. METHODS AND TOOLS OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF THE CONCEPT OF FIGURE FACE IN STUDENTS. – 2021.
8. Kamilovna R. N. Coaching approach at a mathematics lesson in grade 3 in the educational structure “equal partner” //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2021. – Т. 10. – №. 1. – С. 228-234.
9. Komilovna R. N. METHODS AND TOOLS OF EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF THE CONCEPT OF FIGURE FACE IN STUDENTS. – 2021.

Dilorom YULDASHEVA

Buxoro davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasini professori,
pedagogika fanlari nomzodi

Madina RO'ZIYEVA

Buxoro davlat universiteti
o'zbek tilshunosligi kafedrasini magistri

LISON-TAFAKKUR-NUTQ MUNOSABATI – SUBSTANSIAL TILSHUNOSLIKNING BOSH MAVZUSI

Milliy istiqlol o'zbek xalqiga nafaqat siyosiy va iqtisodiy mustaqillik bag'ishladi, balki milliy o'zligini anglash va, eng muhimi, uni jahonga yoyib, IX-XIV asrlardagi shuhrati-yu an'anasini sharaf bilan davom ettirish imkoniyatini ham berdi. Zero, grammatik qurilishning chuqur milliy tabiati va mohiyati, eng avvalo, til va lisonning farqlanishi, lison va nutq o'rtasidagi tafovut, shundan keyin til-lison -tafakkur-nutq munosabatidagi uzviylik va uzluksizlik bilan ochib beriladiki, bu o'zbek substansial tilshunosligining bosh mavzusi bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur maqolada bugungi kun milliy substansial, ya'ni mohiyat tilshunosligining bosh mavzusi bo'lgan lison, tafakkur, nutq qarashlar xususida mulohaza yuritilgan. Yuqoridagi tushunchalar tasnifiga mustaqil holda atroflicha yondashilgan.

Kalit so'zlar: lison, tafakkur, substansiya, formal tilshunoslik, substansial tilshunoslik.

Национальная независимость не только дала узбекскому народу политическую и экономическую независимость, но и дала ему возможность осознать свою национальную идентичность и, самое главное, распространить ее по всему миру и достойно продолжить славу и традиции IX-XIV веков. Действительно, глубокая национальная природа и сущность грамматического построения выявляются, прежде всего, в различии языка и языка, различии языка и речи, а затем в преемственности и преемственности связи язык-язык-мышление-речь, которая составляет сущность узбекского субстантивного языкознания, служит темой.

В данной статье рассматриваются язык, мышление и речь, которые сегодня являются основными темами отечественной субстантивной лингвистики.

Ключевые слова: язык, мышление, субстанция, формальная лингвистика, содержательная лингвистика

National independence not only gave the Uzbek people political and economic independence, but also gave them the opportunity to realize their national identity and, most importantly, spread it around the world and worthily continue the glory and traditions of the 9th-15th centuries. Indeed, the deep national nature and essence of grammatical construction are revealed, first of all, in the difference between language and language, the difference between language and speech, and then in the continuity and continuity of the connection language-language-thinking-speech, which is the essence of Uzbek substantive linguistics, serves as a theme.

This article discusses language, thinking and speech, which today are the main topics of Russian substantive linguistics.

Keywords: language, thinking, substance, formal linguistics, content linguistics.

Kirish. Jahon tilshunosligida til va nutqqa xos kategoriyalarni farqlash asosida tekshirish, ularning tadqiqiga "til va nutq", "til, tafakkur va nutq", "til, me'yor va nutq", "til, lison, tafakkur va nutq" kabi prizmalar nuqtayi nazaridan yondashish hamda bu boradagi ilmiy-nazariy qarashlarni umumlashtirishga keng e'tibor qaratilgan. Hozirgi zamon tilshunosligi til (lison) mohiyatini ochishda dialektik falsafa, lisoniy birliklar haqida ilmiy-nazariy hukm chiqarish jarayoni dialektik gnoseologiya, jumladan, dialektik-logik kategoriyalardan onglilik va izchillik bilan foydalanishni taqozo etadi. Tilga falsafiy yondoshish deganda dealektikaning umumiylik~xususiylik, mohiyat~hodisa, imkoniyat~voqelik, sabab~oqibat kategoriyalarining til tizimi birliklariga bevosita amaliy tatbiqini tushunish zarur.

Asosiy qism. Dunyo tilshunosligi hamda uning ta'limida til va nutqqa doir turli kategoriyalarning ta'limi, xususan, til, lison va nutq trixotomiyasining vazifaviy xususiyatlarini oliy ta'lim tizimida o'qitishga doir bir necha fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan. Shunga qaramasdan, oliy ta'lim tizimida lison-tafakkur-nutq trixotomiyasi orasidagi munosabat masalasi ta'limi bugunga qadar hozirgi o'zbek tilini o'qitish metodikasida alohida tadqiqot obyekti bo'lmagan. Substansial tahlillarga ko'ra bir-biridan keskin farq

qiluvchi, ayni paytda o‘zaro tizim hosil etuvchi til va lison, lison va tafakkur, tafakkur va nutq birliklarining mohiyatini sohaning bo‘lajak mutaxassislariga yetkazish yo‘llarini aniqlash mavzuning dolzarbligini namoyon etadi.

Respublikamiz aholisining qariyb oltmish besh foizini yoshlar tashkil etadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda milliy istiqoldan keyin O‘zbekiston Respublikasida asosiy e‘tibor yoshlarga, ularning ta‘lim-tarbiyasi masalasiga qaratildi [1, 2]. Yoshlarga g‘amxo‘rlik borasida amalga oshirilayotgan barcha ijobiy o‘zgarishlar zahirida har tomonlama barkamol – jismonan sog‘lom, aqlan yetuk, bir necha tillarda gaplasha oladigan, bilimli, o‘zi tanlagan muayyan kasb-hunarni puxta egallagan, ayni paytda, mustaqil va ijodiy fikrli, intellektual salohiyati yuksak yosh avlodni tarbiyalash va jamiyatga yetkazib berishdek ustuvor maqsad mujassam. E‘tirof joizki, O‘zbekiston ayni paytda o‘z taraqqiyotining yangi bosqichi – milliy yuksalish davriga qadam qo‘ydi. Mamlakatimizning bugungi mavqeyi, jahon hamjamiyatida tutgan o‘rni, qolaversa, globalizm fenomeni bilan bog‘liq turli omillar yoshlar ta‘lim-tarbiyasi masalasiga jiddiyroq yondashuvni kun tartibiga qo‘ydi. Agar respublikamiz yoshlarining katta qismi ona tilida ta‘lim olishlarini, shuningdek, o‘qitish o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida ona tili ham o‘rganish, ham o‘rgatish vositasi ekanligini inobatga olsak, ta‘limda ona tili ta‘limi barcha o‘quv predmetlari ichida birlamchi o‘ringa o‘tishi kundek ravshan bo‘ladi. Zero, “bugungi globalashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatini ta‘minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir” [2].

Demak, yurtimiz ravnaqi, xalqimiz kelajagi uchun yoshlar tarbiyasiga, ularga berilayotgan ta‘lim sifati va samarasiga bog‘liqqi, bu, xususan, til ilmida milliy o‘zlikni anglashga qaratilgan har bir mavzuni alohida ko‘rib chiqilishini talab etadi.

Lison va nutqsiz fikrni ifodalash mumkin bo‘lmaganidek, tafakkursiz lison ham o‘z ifodasini shakllantira olmaydi. Demak, oliy ta‘limda mazkur mavzu ta‘limini qulay va soz metodikaga solish bo‘yicha izlanishlar samarasidan avval mavzuning nazariy jihatiga e‘tibor qaratamiz.

O‘zbek tilshunosligi tarixiga mohiyat tilshunosligi nomi bilan kirgan substansial tilshunoslik jahon lingvistikasida qariyb to‘rt asrdan beri, o‘zbek tilshunosligida esa 1970-yillardan boshlab shakllangan. Ushbu yo‘nalishning hozirgi o‘zbek tilshunosligiga kirib kelishi va taraqqiyoti turkolog olimlar, professor S.N.Ivanov hamda shogirdi buxorolik tilshunos olim H.G‘.Ne‘matov nomlari bilan bog‘liq. Keyinchalik Hamid Ne‘matovning yuzlab shogirdlari ilmiy izlanishlari natijasida yangi paradigmadagi lingvistik maktab yaratildi. O‘zbek substansial tilshunosligining o‘zagini, asosan, lisoniy bosqich tadqiqi (masalan, til-lison-nutq, lisoniy birliklar, lisoniy birlik orasidagi munosabat va ziddiyat turlari, lisoniy birliklar valentligi kabi tushunchalar) tashkil etadi. Tadqiq metodologiyasi vazifasini dialektikaning umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab (UMIS) va alohidalik, hodisaviylik, voqelik, oqibat (AHVO) kategoriyalari, shuningdek, dialektikaning miqdor–sifat–miqdor, spiralsimon rivojlanish, inkorni inkor, qarama-qarshiliklar birligi qonuniyatlari bajaradi.

(Dialektika - yunoncha dialektike (techne) so‘zidan olingan bo‘lib, “suhbat olib borish”, “bahslashish san‘ati” degan ma‘nolarni anglatadi. Dialektika borliqning vujudga kelishi, uning taraqqiyoti haqidagi falsafiy ta‘limot, fan hamda voqelikni bilish va unga asoslangan tafakkur uslubi hamdir. *Kategoriya* so‘zi esa qadimgi yunon tilidan olingan bo‘lib, “izohlash”, “tushuntirish”, “ko‘rsatish”, degan ma‘nolarni anglatadi. Falsafa tarixida mazkur tushunchani Arastu “Kategoriyalar” kitobida ilk marta obyektiv voqelikning umumlashgan in‘kosi sifatida talqin etgan. Dialektikada xususiylik umumiylikning, voqelik imkoniyatning, hodisa mohiyatning, oqibat sababning, tasodifiylik zaruratning yuzaga chiqish, voqelanish shakli ekanligini bilamiz) [4].

Shu o‘rinda savol tug‘iladi, substansiyaning o‘zi nima?

Sharq faylasufi Forobiy: “Har narsaning asli substansiya (javhar) - mohiyatidadur”, deb yozgan edi. Uning tasnifi, eng avvalo, tabiatni tafakkur va nutqni, til va mantiqni o‘rganishga qaratilib: “Fanlar va umuman bilimlar borliqdan kelib chiqib, borliqni uzoq vaqt o‘rganish asosida to‘planib boradi. Turli ilmlar bir-birini inkor qilmaydi, balki o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq holda rivojlanadi”.

Internet qomusida mazkur tushunchaga shunday izoh beriladi:

“Substansiya (lotincha *substantia* - mohiyat) – narsa/hodisalarning mohiyatini, asosini ifodalovchi tushuncha. Odatda, materiya, modda so‘zining sinonimi sifatida qo‘llaniladi” [12].

Substansiya falsafada tarkibi bir-biri bilan o‘zaro aloqadorlik tizimida bo‘lgan moddiy olamning nazariy in‘kosi, bilish nazariyasining asosiy tushunchasi sifatida talqin etiladi. Falsafa tarixida substansiya – zot, substansiya – umumiylik, substansiya – barcha mavjudliklarning o‘zgarimas tub mohiyati yoki, aksincha, substansiya – mavjudliklarning o‘zgaruvchan (o‘tkinchi) tomonlari yaxlitligi degan qarashlar ham mavjud. Gegel fikricha: “substansiya – har qanday haqiqiy rivojlanishning asosi”.

Sharq falsafasida mazkur tushuncha xususida o‘z fikrini bildirmagan faylasuf deyarli uchramaydi. Bu borada Forobiy, Beruniy, Ibn Sinolar tomonidan aytilgan jo‘yali fikrlar hamon o‘z mohiyatini yo‘qotgani yo‘q.

O‘zbek substansial tilshunosligi tilga xos bo‘lgan jamiki xususiyatlarning jamlanmasini, nutqiy voqeliklarning yuzaga chiqishiga sabab bo‘luvchi imkoniyat va shu imkoniyatlarning mavjudligini ta‘minlab turuvchi (paradigmatik, sintagmatik, ierarxik) munosabatlar, mazkur munosabatlar muvozanatini saqlab turuvchi (to‘liq, privativ, teng qiymatli kabi) ziddiyatlarni va ularning yashash qonuniyatlarini substansiya tushunchasi ostida birlashtiradi.

E‘tiborli jihati shundaki, o‘zbek substansial tilshunosligi an‘anaviy (formal), tavsifiy, antroposentrik paradigmalarni rad etmaydi, aksincha, mohiyatga turlicha yondashuv sifatida qabul qiladi [3, 4] va o‘z tadqiq usullarida falsafiy kategoriyalardan foydalanadiki, bu fanlarni o‘rganishda hamisha to‘g‘ri yondashuvni yuzaga keltirishini asriy tajribalar isbotlab kelgan.

Demak, substansial tilshunoslik tilga umumiylik, lisonga esa xususiylik sifatida; lisonga nisbatan esa lison umumiylik, nutq esa xususiylik xarakterida bo‘lishini e‘tirof etadi. Asosan, lisoniy bosqich tadqiqi bilan shug‘ullanadigan mazkur yo‘nalish erishgan yutuqlar (tilning milliy tabiatidan kelib chiqqan holda) nutqiy bosqich hodisalarini o‘z o‘rniga qo‘yish va talqin etish imkonini beradi. Unutmaslik kerakki, jahonning taraqqiy etgan mamlakatlari (Angliya, Fransiya, Yaponiya, Germaniya, Rossiya va b.lar)da uzoq yillardan buyon tilshunoslikka oid tadqiq usullari “til va nutq” farqlanishi asosida olib boriladi [4].

Substansial tilshunoslik tarixan qisqa muddat ichida qator yutuqlarga erishdi, hatto uning tadqiq natijalari dunyo miqyosiga ham chiqdi.

Lison – tilning xususiy ko‘rinishi. Umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab tabiatli, ma‘lum millatga xos (o‘zbek lisoni, ingliz lisoni...), o‘ziga xos birliklarga ega, moddiylikdan xoli, takrorlanuvchan butunlik. Bir so‘z bilan aytganda, nutqimizda voqelanuvchi jamiki birliklarning majmuyi, bazasi (ombori). Shu o‘rinda aytish kerakki, lison muayyan jamiyat a‘zolari uchun umumiy, lekin uning nutqiy voqelanishi har bir shaxs uchun xususiy. Masalan, [o‘] fonemasi o‘zbek millatiga mansub barcha shaxs uchun umumiy, tayyor. Uning lisoniy birlik sifatida fonema ekanligi, nutqda takrorlanmas “o” tovushini berishi faqat soha vakillari– biz tilshunoslar uchun ma‘lum. Yoki ingliz lisonida keng ishlatiluvchi frazema “head in the clouds” (boshi bulutda), ya‘ni xursand iborasi o‘zbek lisonida boshqa shaklda “boshi ko‘kka yetmoq” mavjud. Bizda ushbu ibora (faza) boshi osmonda/og‘zi qulog‘ida kabi variantlarda ham qo‘llaniladi. Yoki o‘zbek lisonida [non] leksemasining sintagmatik qatorida birinchi bo‘lib, [choy] birligi tursa (non-choy); rus lisonida [чай] leksemasining sintagmatik qatorida, avvalo, [сыр] (ya‘ni pishloq); fransuz lisonida [thé] va uning qurshovida dastlab [culpabilité] (ya‘ni vino) turadi. Demak, lison – shunday betakror (ammo ma‘lum jamiyat a‘zolari uchun takrorlanuvchan (boshi osmonda iborasi o‘zbek millatiga mansub har bir shaxs uchun lisonida tayyor), ko‘zga ko‘rinmas (moddiylikdan xoli) butunlik.

Lison tafakkurda yashaydi, ammo u tafakkurning birligi ham yoki uning o‘zi ham emas. Lison va nutqsiz fikrni ifodalash mumkin bo‘lmaganidek, tafakkursiz lison ham o‘z ifodasini shakllantira olmaydi. Tafakkur qanchalik boy bo‘lsa, lison ham shuncha boyib, kengayib boradi. Bilamizki, tafakkur o‘qish, o‘rganish, izlanish, mehnat asosida yuksaladi. Har bir millat lisonini yangi jumlar, birliklar bilan boyituvchi, asosan, ijodkorlardir. Masalan, oxirgi modernizm she‘riyatida oldin uchratmagan so‘zlarimiz *qizzor, qahvarangko‘z, vataniston, asaliston* kabi okkazionalizm(individual yasalma)larni ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari lison iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy aloqalar, atrof-muhit va undagi o‘zgarishlar ta‘sirida paydo bo‘luvchi birliklar bilan ham to‘lib, boyib, kengayib borveradi.


Tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli, obyektiv voqelikning ongda aks etishi. (Ong – inson zotining fikrlash qobiliyati, tafakkurga nisbatan umumiy. Tafakkur esa onga nisbatan xususiy xarakterda mavjud.) Inson bosh miyasining alohida funksiyasi sifatida amalga oshuvchi o‘ziga xos tizim.

Tafakkur til va nutq bilan zich bog‘liq. Fikrlash faoliyati (tafakkur) lisonida moddiylashadi va nutqda yuzaga chiqadi. Tafakkur bo‘lmasa, nutq ham bo‘lmaydi yoki, aksincha, nutq bo‘lmasa, tafakkur o‘zini to‘la namoyish etolmaydi.

Muhokamalar va natijalar. Lison har bir shaxs tafakkurida bo‘lak-bo‘lak tarzda yashaydi. Ushbu shaxsning yashash tarzi, kundalik faoliyatidan kelib chiqib uning lisoniy zaxirasi kengayib boyib boradi. Yoki aksincha. Shaxs ma‘lum bir faoliyat bilan shig‘ullanmas, atrof-muhit bilan muloqotda bo‘lmas ekan, u lisonidagi tayyor birliklardan ham unumli foydalana olmaydi. Masalan, Robinzo Kruzo jamiyatdan uzilib, sahroga tushib qolganda insongagina xos qobiliyat – so‘zlashni unutmaslik uchun to‘tiqush bilan suhabatlashadi. Demak, lison ham, tafakkur ham, nutq ham ijtimoiy hayot uchun uzviy aloqadorlikda bo‘lib, jamiyatdagi o‘zaro muloqotda o‘zining kommunikativ, akkumulyativ va ekspressiv xususiyatlarini namoyon etadi. Substansial tilshunoslik yuqoridagi tushunchalarni bosh mavzu sifatida o‘rganishining sababi ham aynan shunda. Har bir shaxsning asl mohiyatini ko‘rsatuvchi – *tafakkur*, tafakkurning moddiylashuv shakli

sifatida inson uchun oldindan tayyor holga keltirib qo‘yilgan, bevosita kuzatishda berilmagan, chegaralangan, takrorlanuvchan *lison* va bizning jamiyat a‘zolari orasida madaniyatlilik chegamizni darajalab beruchi *nutq* birgalikda shu jamiyat a‘zolari uchun xizmat qilmas ekan, muloqot mavjud bo‘lmas ekan, insonning hayvondan farqi qolmaydi.

Zero, Forobiy ta’kidlaganidek: “Inson tafakkur va nutq orqali hayvondin ajralib turadi”.



Xulosa shuki, tilshunoslik ilmini o‘rganishga kirishgan har bir bo‘lajak mutaxassis substansial tilshunoslikning bosh mavzusi bo‘lgan lison-tafakkur-nutq va ularning o‘zaro munosabatini aniq tushunib, o‘zlashtirib olsagina shu sohada ilgarilaydi. Yoki, aksincha. Ayniqsa, filologiya yo‘nalishidagi talabalar mavzu mohiyatini “hazm qilish”gach o‘z bilimlarini quyidagi nostandart topshiriqlar orqali sinovdan o‘tkazishlari mumkin:

1-nostandart topshiriq. *Berilgan til, nutq va tafakkur birliklariga mos hosilalarni aniqlang va ularni o‘zaro mos raqamlarda juftlang.*

Til, nutq va tafakkur birliklari	Hosilalar	Raqamlar
Fonema—1	qizil olma—1	
Hukm—2	[a], [o], [b]—2	
Morfema—3	kitobxon—3	
Nutq tovushlari—4	[ma’naviyat]—4	
Qo‘shimcha—5	Qor yog‘yapti.—5	
Leksema—6	[-ning], [-loq] —6	
So‘z —7	D, m, ng, sh, o —7	
So‘z birikmasi —8	-ga, -da, -dan —8	
Frazema —9	[tongni kutib]—9	
[T+H]—10	[WPm]—10	
Qolip—11	ho‘l, shalabbo—12	
Gradonumiya—12	[yeng shimarib]—11	

2-nostandart topshiriq. *Quyida berilgan fikrlarning qaysilari to‘g‘ri? Javoblar jadvaliga “ha” yoki “yo‘q” so‘zlarini yozing.*

A. O‘zbek dialektologiyasining fan sifatida yuzaga kelishi va rivojlanishida E.D.Polivanov, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, G‘ozi Olim Yunusov, V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov, F.Abdullayev, U.Tursunov, M.Mirzayev va ular izdoshlarining xizmatlari beqiyos.

B. Til – tafakkurni shakllantirishga (kodlashtirishga), xotirada qat’iy sistemaga tizib saqlashga, axborotni uzatish va qabul qilishga imkoniyat beruvchi muhim (birlamchi) insoniy ijtimoiy-ruhiy kommunikatsiya vositasi.

C. Lison – UMIS tabiatli lisoniy birliklarning serqirra, ko‘p qavatli sathlaridan tashkil topgan barqaror, tashqi muhit ta‘siriga o‘ta sezgir, o‘zgarish, rivojlanish va moslashish immanent qobiliyatini o‘z ichida mujassamlashtirgan murakkab qurilishli iyerarxik sistemadir.

D. Me‘yor – lisonning ichki qurilish tizimiga nisbatan tashqi omil bo‘lib, lisoniy imkoniyat – sinonimik qator, lisoniy birliklarning dublet, allovariant va variantlari, sohaviy birliklardan har birining voqelanish o‘rni va xususiyatini belgilaydi.

E. Nutq – lisonning me‘yor elagidan o‘tgan muayyan ma’naviy shakllaridan birida voqelanishi.

F. Ferdenand de Sossyur lison-nutq munosabatini shatranj o‘yini qoidalari asosida tushuntirib berishga harakat qilgan.

G. Lison bilan nutqning o‘zaro munosabatini teran anglamoq uchun, avvalo, nutqning o‘zini, uning qanday qurilma ekanligini aniq tasavvur etmoq lozim.

Javobi:

A	B	C	D	E	F	G

3-nostandart topshiriq. Tilga va nutqqa xos atamalarini aniqlang hamda ularni jadvalga raqamlar asosida joylashtiring.

1) sillabema 2) frazema 3) intonatsiya 4) fonografema 5) privativ 6) [H+T] 7) prosodemografema 8) leksema 9) sonorlar 10) morfema 11) simvollar 12) logografemalar 13) valentlik 14) assotsiativ munosabat 15) [WPM] 16) partonimiya 17) kommunikatsiya 18) korrelyativ belgi 19) [a] 20) [-cha]

Javobi:

Tilga xos

Nutqqa xos

Til-tafakkur-nutq munosabati bilan bog‘liq nostandart topshiriqlarni bajarishda talaba taxminiy javob tanlay olmaydi. Va yana ular bitta javob bilan ham chegaralanib qolishmaydi va h.k. [6].

Substansial tilshunoslik tilning ham, nutqning ham tizimli butunlik ekanligini isbotladi va til sistemalar sistemasi (Sossyur) ekanligini o‘zbekona paradigmatlarda yoritib bera oldi.

Tafakkur, til, lison, uning nutqiy voqelanishi, inson omilida tilning ahamiyati serqirra hodisalar bo‘lib, aslida, yuqorida qisman sharhlab o‘tgan izohlarimiz til mohiyatiga substansial yondshuvning natijasidir.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni <https://lex.uz>
2. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni <https://lex.uz>
3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o‘zbek tili. Darslik. – Buxoro: “Durdona”, 2021. –555 b. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/119110>
4. Sayfullayeva R., Abuzalova M., Mamadaliyeva N., Yuldasheva D. Tilshunoslikka kirish. Darslik. – Buxoro: “Durdona”, 2021. –296 b. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/119111>
5. Yuldasheva Dilorom Nigmatovna. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. -Buxoro: “Durdona”, 2021.–428 b. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/119112>
6. Yuldasheva D., Yusupova D. Tilshunoslik mavzulariga oid nostandart topshiriqlar. Metodik qo‘llanma. –Toshkent: “Paradigma”, 2018. –48 b.
7. Yuldasheva D., Gulomova Sh. “Til va nutq munosabati” modulini o‘qitishda grafik organayzerlardan foydalanish. Metodik qo‘llanma. -Toshkent: “Paradigma”, 2018. – 92 b.
8. Йўлдошева Д.Н. Синтактик хусусият синтактик омил билан баҳоланиши зарур// ВухДУ илмиy axboroti (ISSN 2181-6875). –Buxoro, 2019, № 4 (75). – 124-130-b. http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/721
9. Юлдашева Д.Н. Особенности некоторых профессиональных фразеологизмов узбекского и английского языков// “Сўз санъати” халқаро журнали. Том 4 № 1-2 (2021) / art.tadqiqot.uz/index.php/art/article/view/446/416
10. Dilorom YO‘LDOSHEVA. Eskidan voz kechib, yangiga ko‘nikish mashaqqati// <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/3832.htm>
11. Юсупова Д.Ю. Х.Худойбердиеванинг сўзларни кўчма маънода кўллаш маҳорати//НамДУ илмий ахборотномаси - Научный вестник НамГУ 2021 йил 6-сон. – 395-402-б.
12. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-s/substantsiya-uz/>

Nigora ADIZOVA

Buxoro davlat universitetining

Pedagogika instituti dotsenti,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

BOLALARNI O'SIMLIKLAR DUNYOSI BILAN TANISHTIRUVCHI QIZIQMACHOQLAR

Qiziqmachoqlarning asosiy mazmuni bola va uni o'rab turgan tevarak-atrof bilan bog'liq bo'ladi. Qiziqmachoqlar bolalarni hayot bilan tanishtiradi, ularga axloqiy o'g'it berish vazifasini bajaradi. Shuning uchun ular bolalarning ma'naviy kamolotida muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: bolalar folklori, o'zbek folklori, bolalar qo'shig'i, an'ana, janr, qiziqmachoq, topishmoq, aytishuv, ovutish, poetika.

Основное содержание увлечений связано с ребенком и окружающей его средой. Курьезы знакомят детей с жизнью и служат для обучения их нравственности. Поэтому они играют важную роль в духовном развитии детей.

Ключевые слова: Детский фольклор, узбекский фольклор, детская песня, традиция, жанр, любопытство, загадки, дискуссия, отдых, поэзия.

The main content of hobbies is connected with the child and his environment. Curiosities introduce children to life and serve to teach them morality. Therefore, they play an important role in the spiritual development of children.

Key words: Children's folklore, uzbek folklore, children's song, tradition, genre, curiosity, puzzles, debating, relaxation, poetry.

Kirish. Qiziqmachoqlar mazmuni boshqa suyish qo'shiqlari janrlari mazmunidan boyroqdir. Bunga ularning mavzu mundarijasi rang-barangligi misolida ishonch hosil qilish mumkin. Shunday bo'lsa-da, ular murakkab mazmunga ega emas. Qiziqmachoqlar shunchaki o'yin qo'shiqlari sifatida emas, balki tarbiyaviy mohiyatga ega jiddiy qo'shiqlar sifatida qabul qilinadi. Ba'zan qiziqmachoqlarda ayrim tarixiy voqealilar bayoniga ishora seziladi. Ularda o'tmish hayot manzaralari, boylar, xonlar tanqidi uchraydi.

Asosiy qism. O'simliklar dunyosi bilan tanishtiruvchi qiziqmachoqlarga “Yugurib bordim shotutga”, “Savat-savat qalampir” singari qiziqmachoq matnlarini misol qilish mumkin. Masalan, “Yugurib bordim shotutga” qiziqmachog'i bejiz yaratilmagan. Bolalar tut pishig'i davrida tutga chiqib, tut yeyman deb, yiqilib tushgani yoki og'ir shikast topganlari ham bo'lgan. Shundan ogohlantirish maqsadida tut pishig'i bilan bog'liq o'yin-qo'shiqlar, qiziqmachoqlar paydo bo'lgan.

Yugurib bordim shotutga,

Qo'ynim to'ldi murutga

Borib ayting, ayting,

Oq jiydali yigitga.

Oq o'tovi bor emish.

Oq o'tovning ichida

Oy kelinchak bor emish.

Oy kelinchak oldida

Tilla beshik bor emish.

Tilla beshik ichida

Oy chaqaloq bor emish.

Oy chaqaloq qo'lida

Chinni piyola bor emish.

Chinni piyola ichida

Naqsh olmalar bor emish,

Naqsh olmani bir tishlang,

Makkaga borib bir kishnang.

Makka yo'li uzoqdur,

Ichgan suvim buloqdir.

Icha-icha mast bo'ldim,

Qizlar bilan do'st bo'ldim.

Qizlar ketdi qir oshib,

Bizlar qoldik adashib.

Bu qiziqmachoq vositasida bolalarga uch xil daraxt: shotut, murut, jiyda nomi eslatib o'tilmoqda.

Savat-savat qalampir,

Achchiq demang, Jabborxon.

Jabborxonim o'libdi,

Shoyi to'ni qolibdi.

Shoyi to'ni – ipak paxta,

Ichi to'la tilla halqa.

Tilla halqa loy bo'ldi,

Dadajonim boy bo'ldi.

Qalampir ko'rinishidan juda chiroyli, lekin u achchiqligi bois bolalarga tavsiya qilinmaydi. Shuning uchun kattalar qalampir juda ko'p, ya'ni savat-savat bo'lsa-da bolalarga berilmasligini bolajonlarga alohida uqtirishgan.

Umuman aytganda, bolalarni o'simliklar dunyosi bilan, tevarak-atrof va maishiy turmush bilan tanishtiruvchi qiziqmachoqlar o'ziga xos o'g'it mazmunida bo'lishi bilan alohidalik kasb etadi. Ular bolalarni

hayot bilan tanishtiradi, ularga axloqiy o‘g‘it berish vazifasini bajaradi. Shuning uchun ularda hayot hodisalari ko‘p obrazlilikda o‘z ifodasini topganligi e‘tiborni tortadi. Binobarin, ularda kambag‘al dehqonning turmush sharoitidan tortib, to insoniy va sinfiy munosabatlargaacha talqin qilinganligi kuzatiladi. Bunday qiziqmachoqlarda hukmron sinf vakillari hamma vaqt satirik tarzda tasvirlanadi. Mehnatkash xalqning nochorligi haqida so‘z borganda, qiziqmachoqlarda achchiq kinoya yangraydi. Lekin bu motivlarning barchasi hayot haqida yangi ma‘lumotlarni beradi. Qiziqmachoqlar orqali bolalarga kўprok xaeтий xodisalarнинг moxiyati, insoniy muomala-munosabatlar, odob-axloq koidalari, ularga amal qilishning ahamiyati va samarasi tўg‘risida tushunchalar berilgan:

Uyatli – to‘g‘ri,
Uyatsiz – o‘g‘ri,
Yo‘lchi – yo‘ng‘iz,
Dinsiz – to‘ng‘iz,
Imonsizga ishonma,
Kofirga tayanma,
Suvga suyanma!

Tazod va o‘xshatish asosiga qurilgan ushbu misralar orqali yoshlarga hamisha to‘g‘ri, aql-idrokli, elu yurt g‘amini yeydigan, imon-e‘tiqodli bo‘lish zarurligi uqtirilmoqda. Chunki inson o‘ziga qancha umr berilganligini bilmaydi. Shu boisdan u o‘ziga berilgan umrdan mazmunli va samarali foydalana olmog‘i lozim.

Qirq – odam yoshi,
Oltmish – eshak yoshi,

Sakson – sak yoshi,
Oryoni – Xudo qarq‘ishi!

Bu qiziqmachoqda insonning yoshi ulg‘aygan sayin, kundan-kunga uning kuch-quvvatdan qolib borishi, madori qurishi bildirilmoqda.

Quyidagi kabi qiziqmachoqlar vositasida, odatda, bolalarga salomlashish va so‘rashish odobini singdirish nazarda tutilgan:

Yoxshimisiz –
Boxshimisiz?
Pishika moyo,
Ita soyo varmin,
Cho‘pni yo‘ndirmin,
Qo‘shni qo‘ndirmin,
O‘tganni urkizib,
Qurruqni qo‘rqizib,
Chivin tutib,
Peshsha yutib yuribmisiz?
– Ey balomat!
Ubo jamaat,
Bor valomat.
Bolo-chog‘o,

Uka – og‘o.
Ulli-kichchi,
Taka, gechchi.
Tuya daroz,
Dikki xo‘roz,
Toy – to‘yloq,
Damir to‘ynoq,
Eshak – ishvoy,
Sichon – do‘shvoy,
Ho‘p-ho‘p yengga,
Mir-mir bika,
Bori-buri,
Cho‘pi-chori...

Sog‘u-salamatmi? Bolalarga ovqatlanish odobi haqida o‘g‘it beruvchi qiziqmachoqlar ham bor. Ularda, asosan, ochko‘zlik qoralanadi. Ovqatni shoshmasdan, sekin-sekin chaynab yeyish lozimligi uqtiriladi. Chunki aksariyat yosh bolalar ovqatni to‘kib-sochib, chaynamasdan, shoshib-pishib yemoqchi bo‘lishadi. Quyidagi kabi qiziqmachoqlar ana shunday bolalarga ruhan tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatish maqsadida aytilgan: Тутиб келдим,

Ovloq yerdan.
O‘tib keldim,
Qoplon qirdan.

Ochko‘z bo‘lma, sekin yegin,
Chaynab yutgin birdan-birdan.

Bolalardagi turli kamchiliklarni, ayrim illatlarni bartaraf qilishda qiziqmachoqlarning o‘z o‘rni, ta‘siri va ahamiyati bor. Ularning ayrimlarida bolalar xarakterida uchrab turadigan har xil kamchiliklar xususida so‘z boradi. Masalan:

Borma shuning qoshiga,
Qizg‘anadi oshini.
Qo‘shib ichar oshiga,
Ko‘zdan oqqan yoshini.

Yuz-qo‘lini yuvmaydi,
Chivin yig‘ar toshiga.
Bir chivinni quvmaydi,
Qo‘shib ichar oshiga!

Bu qiziqmachoqda qizg‘anchilik, dangasalik, befarqlik, tozalikka rioya qilmaslik holatlari keskin tanqid qilinayotir. Ba‘zi bolalarda ayrim xatti-harakatlar odat tusini olib, uning doimiy qilig‘iga aylana borishi kuzatiladi. Jumladan, ba‘zilari bo‘lar-bo‘lmasga qashinaverishi yoki burnini tortaverishi, yoxud

g‘ashlik qilaverishi mumkin. Shunda kattalar o‘ziga xos qiziqmashoqlar aytib, bolani uyaltirishga, uni ogohlantirishga urinishgan. Masalan, «Jon burgam» qiziqmashog‘i faqatgina ijtimoiy mazmuni bilan emas, balki mana shunday tarbiyaviy-ta‘siriy kuchga egaligi bilan ham e‘tiborni tortadi. Uni bo‘lar-bo‘lmasga qashinaveradigan va buni o‘ziga bilmagan holda odatga aylantirib olgan bolalarga nisbatan ham aytishadi:

“Jon burgam” qiziqmashog‘i qadimiyligi va an‘anaviyligi bilan e‘tiborlidir. Unda mehnat ahlining o‘tmishdagi nochor turmush tarziga mubolag‘ali kinoya aks etgan.

Qiziqmashoqlarning “Olatoy, bulatoy, Man sani yo‘rg‘alatay” deb boshlanuvchi silsiladagi namunalari ko‘pincha yurish yoshiga yetgan bo‘lsa-da, mustaqil yurishdan cho‘chib, dadid-dadil qadam tashlash o‘rniga yo‘rg‘alab-yo‘rg‘alab yuradigan bolalarga kinoya qilish maqsadida ijro qilingan. Bunday bolalarning yurish holatini jonli tasvirlash uchun bangi timsoliga kinoyadan foydalanilgan. Chunki bangilar ham to‘g‘ri yo‘lda to‘g‘ri qadam tashlay olmasdan, gandaraklab va yo‘rg‘alab yurishadi. Bang tufayli jismoniy ojiz holatga tushib qolgan kimsalar ko‘pincha befarzand bo‘lib qolishadi. Hatto xotini ham uning fe‘l-atvoridan norozi bo‘lib, tashlab ketishi mumkin. Natijada o‘z tirikligini xor qilgan bunday kimsalarning o‘ligi yanada xor bo‘ladi. Shuning uchun she‘rda o‘lgan yo‘rg‘a ot – bangi – uning chochvog‘ida uchi yo‘q xotini va befarzand turmushi haqida ketma-ketlikda, tadrijiylik asosida so‘z yuritilmoqda.

Olatoy, bulatoy,	Xotining kuchi yo‘q,
Man sani yo‘rg‘alatay.	Chochvog‘ining uchi yo‘q,
Yo‘rg‘a otim o‘libdi,	Kashta tikar qizi yo‘q,
Go‘shini kimga sotay.	Oshiq o‘ynar o‘g‘li yo‘q,
Bangi ketarmon bo‘pti,	Ha-yu, kuchi yo‘q,
Xotin olarmon bo‘pti.	Ha-yu, kuchi yo‘q!

Xulosa. Qiziqmashoqning so‘nggi satrlarida takror ifodalangan “Ha-yu, kuchi yo‘q” ta‘kidi aslida kuchsizlikning tanqidi sifatida yangramoqda. U orqali bolaga hamisha kuchli bo‘lish lozimligini, turli illatlardan uzoq yurish kerakligini uqtirish ko‘zda tutilgan.

Adabiyotlar

1. Адизова Нигора Бахтиёровна. Оксоқол Бува, Бола Ва Хон Образлари Қизикмашоқлар Талқинида. Journal of innovations in social sciencesjournal of innovations in social sciences. 02 Issue: 01 | 2022.
2. Adizova Nigora Bakhtiyorovna. The Arrival of Great, Child and Khan Images in Interesting. European journal of life safety and stability (ejlss). Www.ejlss.indexedresearch.org Volume 14, 2022 |
3. Nigora Adizova Baxtiyorovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qo‘llanadigan tayanch kompetensiyalar. Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 02 Issue: 01 | 2022
4. AB Rakhmonovich, AN Bakhtiyorovna. [THE MAIN MOTIVES AND TASKS OF CHILDREN’S FOLKLORE](#). Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)
5. Нигора Бахтиёровна Адизова, Ҳилола Худойбердиева. [ҚИЗИКМАШОҚЛАРДА ОКСОҚОЛ ВА ХОН ОБРАЗЛАРИ](#). Scientific progress
6. Nigora Baxtiyorovna Adizova. [Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqini o‘stirishda mustaqil ishlarning o‘rni va ahamiyati](#). Scientific progress
7. NB Adizova, M Raimqulova. [Use of alisher navoi’s spiritual and enlightenment views in textbooks for grades 1-4](#). Актуальные вопросы современной науки и образования, 121-123
8. . NA Bakhtiyorovna, NA Bakhtiyorovna. [Anvar obidjon is a children’s poet](#). Middle European Scientific Bulletin
9. AN Bakhtiyorovna, E Dilsora. [Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The Use Of Didactic Games](#). The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (31), 540-545
10. AN Bakhtiyorovna, AN Bakhtiyorovna. [The role of the fun genre in children’s spiritual development](#). Middle European Scientific Bulletin 4, 38-40.
11. Adizova Nigora, Adizova Nodira. [Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari](#). Conferences.

Дилором ЮЛДАШЕВА

Профессор кафедры узбекского языкознания
Бухарского государственного университета
кандидат педагогических наук

Дилобар ГУЛАМОВА

Магистрант кафедры узбекского языкознания
Бухарского государственного университета

ОБУЧЕНИЕ РОДНОМУ ЯЗЫКУ В ШКОЛЕ И ЕГО РЕЗУЛЬТАТЫ

Основная цель обучения родному языку в средних школах состоит в том, чтобы развить у учащихся навыки самостоятельного мышления, то есть посмотреть на образование на родном языке с совершенно иной точки зрения, чем это требуется традиционно. Ведь каждый, живущий в условиях конкурентной рыночной экономики, должен быть предпринимателем, самостоятельным творческим мыслителем, способным решить любую проблему своим умом, сильным народным духом в мышлении. Ожидаемый результат будет достигнут только тогда, когда школа станет вопросом жизни и смерти, делом будущего, главной задачей всего общества.

Ключевые слова: школа, родной язык, цель обучения родному языку, формирование и развитие творческого мышления, система творческих заданий

Umumiy o'rtta ta'lim maktablarida ona tili o'qitishning bosh maqsadi ta'lim oluvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. Bu ona tili ta'limi masalasiga an'anadagidan farqli ravishda butunlay boshqacha ko'z bilan qarashni taqozo etadi. Zero, raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti sharoitida yashayotgan har bir kishi tadbirkor, mustaqil ijodiy tafakkurli, har qanday muammoni o'z aql-idroki bilan yecha oladigan, tafakkurida milliylik ruhi mustahkam bo'lishi zarur. Jamiyatda maktab hayot-mamot, kelajak masalasiga, butun jamiyatning asosiy ishiga aylangandagina bu borada kutilgan natijaga erishiladi.

Калит so'zlar: maktab, ona tili ta'limi, ona tili ta'limi maqsadi, ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ijodiy topshiriqlar tizimi.

The main goal of mother tongue teaching in secondary schools is to develop students' independent thinking skills, that is, to look at mother tongue education from a completely different point of view than traditionally required. After all, everyone living in a competitive market economy must be an entrepreneur, an independent creative thinker, able to solve any problem with his mind, a strong national spirit in thinking. The expected result will be achieved only when the school becomes a matter of life and death, a matter for the future, the main task of the whole society.

Key words: school, mother tongue, purpose of mother tongue teaching, formation and development of creative thinking, system of creative tasks.

Нам необходимо различать два аспекта обучения родному языку в средних школах и его результаты. Эти-

- 1) в процессе обучения родному языку прививать обучающемуся уникальный потенциал языка, то есть умение демонстрировать высокий уровень коммуникативной и практической ценности языка;
- 2) обучить учащегося основам языкознания в процессе обучения родному языку, подготовить для общества человека, знающего правила языкознания.

На сегодняшний день школа официально является первой в области родного языка (“прививать учащимся уникальный потенциал языка в процессе обучения родному языку, т.е. способность демонстрировать высокий уровень коммуникативной и практической ценности языка”). На практике, к сожалению, мы достигаем второй цели (“регулярное преподавание основ языкознания студенту в процессе родного языка, по сути, подготовка человека, знающего правила языкознания для общества”).

Школьники изучают родной язык, как правило, в естественной социальной среде, среди членов семьи, говорящих на этом языке, по соседству, в одноязычном сообществе. С годами родной язык стал не только средством передачи и получения информации, но и первостепенным фактором формирования национальной идентичности. Ведь не секрет, что родной язык является основным источником формирования человеческого мышления, развития человека как личности, обеспечения его духовной зрелости и совершенства. Вот почему каждый народ, каждый народ, осознающий себя в мировой цивилизации, прежде всего стремится повысить ценность своего родного языка, повысить эффективность своего образования.

Это означает, что неуважение человека к родному языку приведет к его употреблению, что лишает человека национальных чувств, а утрата национальных чувств приведет к маникюру.

Поэтому, где бы человек ни жил, начальное и среднее образование лучше получать как можно больше на родном языке.

Ведь государство накладывает на систему образования определенный порядок в зависимости от уровня развития общества и целей и задач, поставленных перед его развитием. Этот порядок повышает социально-экономический потенциал общества (определяемый в первую очередь экономическими, а затем духовно-культурными потребностями), гармонизирует духовно-воспитательный облик граждан в стремлении к единой цели, поставленной государством, к развитию, “решает насущные задачи”. Это, в свою очередь, способствует общему благополучию общества. Государственный заказ ориентируется на состояние развития и интеграции науки и образования, уровень управления, уровень системы снабжения, общие стремления общества и личности и оформляется в конкретном документе. К ним относятся Закон об образовании и Новая стратегия развития Узбекистана на 2022-2026 годы.

Эти официальные документы устанавливают определенные требования к системе образования. Действительно, требования Закона об образовании, принятого в 1997 г., к настоящему времени определили цели, задачи, виды и этапы образования, общие и содержание порядка в каждом предмете квалификационных требований). Поскольку образование является приоритетом политики Республики Узбекистан, социально-педагогическим вопросом государственной важности, его главная цель поставлена государством: “С первых шагов на пути к независимости восстановить и еще больше укрепить нашу большую духовность. Мы должны придавать большое значение цели совершенствования национальной системы образования, укрепления ее национальной базы, доведения ее до мировых стандартов и навыков на основе адаптации к современным требованиям.

“Исходя из принципа “От национального возрождения к национальному подъему”, развитие школьного образования должно стать для нас великой национальной целью, общенациональным движением”.

В системе образования общая цель образования всегда определяется государственным заказом. Цель образования является единым приоритетом государственной политики, и эта целостность определяется отношениями между государством, обществом и его членами. Поэтому общей целью образования в нашей стране является воспитание личности творческой и самостоятельно мыслящей, чей духовно-мировоззренческий образ находится в гармонии с основной идеей общества. Сегодня гармонично развитое поколение определяется как *“физически здоровое, умственно и интеллектуально развитое, независимо мыслящее, верное Отечеству, с твердыми взглядами на жизнь”*. Однако у нас одна цель в образовании и воспитании: вырастить наших детей.

Общая цель образования требует определения целей и задач каждого предмета, что, в частности, отражено в цели обучения на родном языке, которая является ярким выражением нашей национальной идентичности: “Цель обучения на родном языке в школе воспитывать человека, правильно и бегло выражающего свое мнение устно и письменно, обладающего культурой чтения, способного мыслить самостоятельно и творчески, понимающего мнение других - культура общения и речи”. Цель обучения на родном языке соответствует общей цели образования и воплощает в себе два его требования: развитие навыков творческого и самостоятельного мышления и, как следствие, развитие учащегося как полноценного взрослого [2].

Это означает, что способность учащегося овладеть родным языком и на этой основе развиваться как всесторонне развитая личность оказывает большое давление на преподавание этой науки. В частности, как определено в действующих квалификационных требованиях к общему образованию в системе среднего образования (Ташкент, 2020 г.), работа, проводимая в образовательных организациях, направлена на развитие необходимых умений и навыков обучающихся. Метод обучения, содержание, средства воспитания должны быть ориентированы на ясное и всестороннее выполнение этих великих и великих задач.

Аксиоматично, что духовно-мировоззренческое воспитание личности в целях образования находится в соответствии с национальной идеологией и национальной идеей. Потому что духовно-идеологический облик образованного человека соответствует единой и общей духовно-идеологической политике общества, которая является залогом развития общества. Также вопрос воспитания творческой и самостоятельно мыслящей личности, являющийся ключевым компонентом цели родного языкового образования, определяется требованиями внутренней политики государства и экономической системы, движущей силой ее мышления.

Конкурентоспособная рыночная экономика требует воспитания предпринимателя, человека с высоким творческим потенциалом, человека, способного пережить любую сложную ситуацию собственным умом, независимым творческим мышлением, сильным национальным духом.

Поскольку политика нашего государства основана на обеспечении благополучия и счастья личности, то воспитание личности не может быть организовано ни для какой другой цели, кроме указанной выше. В этом процессе школа должна стать делом будущего страны, долгом всего общества. Таким образом, в то время как наша главная цель состоит в том, чтобы «развить навыки самостоятельного мышления учащихся», нам необходимо взглянуть на обучение на родном языке, которое является одним из основных инструментов, с совершенно иной точки зрения, чем традиционная.

Действующие квалификационные требования к общему среднему образованию определяют основные задачи преподавания предмета «Родной язык» следующим образом:

1) развитие устной компетенции, направленной на осмысление личности учащегося, понимание мнения других, умение выражать свое мнение устно и письменно;

2) развитие знаний учащихся по грамматике (фонетике, лексикологии, структуре слова, словообразованию, морфологии, синтаксису, письму и орфографии, пунктуации, речевым приемам, стилистическим понятиям);

3) формирование языковых компетенций, направленных на развитие умения точно и бегло изъясняться, эффективно используя огромный потенциал родного языка [2, 7].

Если ориентироваться на задания, то задания 1 и 3 полностью соответствуют основной цели обучения родному языку, а задание 2 частично. Скорее, в то время как Задания 1 и 3 требуют, чтобы учащиеся обучались языковым навыкам, Задание 2 требует, чтобы учащийся обучался основам лингвистики на регулярной основе. То есть задания 1 и 3 направлены на подготовку ребенка к социальной жизни и браку. Задача 2, напротив, отрывает его от естественного образа жизни. К сожалению, это можно увидеть в преподавании всех школьных предметов.

Лингвист Б. Менглиев рассказывает: “Все мы в школе изучали физику, химию, математику и биологию. Мы получили от них пятерку. Но в большинстве случаев мы не можем просто установить электрическую лампочку, привить дерево, определить время по звездам, как наложить мазь на рану или рассчитать размер чего-либо. Мы просто не понимаем циркуляцию воды в системе отопления. Почему? Потому что полученное нами образование было оторвано от жизни. Не каждый может быть физиком, математиком, биологом! Поэтому на первое место должна выйти жизненная компетентность учащегося” [3]. Вот так. Мы не можем отрицать ни одного слова мнения ученого. Разве это не причины, по которым дети уходят из школы?!

Как обстоит дело с преподаванием родного языка в школах в этом отношении? Нет ни начала, ни конца, и нам напоминают о множестве научных (лингвистических) правил, которые меняются от учебника к учебнику, от класса к классу. Анализируем текст от нити до иглы, вынимая ауру заданных предложений. Но мы не задумываемся о том, в какой мере это “знание” влияет на наше устное и письменное общение”. Горько, но верно!

Мы знаем, что дух, мысль и язык неразрывно связаны. Отсюда видно, что роль и характер родного языка и системы его образования, а также составляющих его средств неопределимы в воспитании творческой и самостоятельно мыслящей личности. Напрашивается закономерный вопрос: Нужен ли сегодня нашему обществу образованный человек или тот, кто знает и умеет применять с десятков способов достижения цели, какой из них может быть наиболее эффективным в той или иной ситуации?

Правила грамматики в нынешних школьных учебниках по родному языку, такие как “Учиться” и “Помни”, превышают норму. Общее количество правил около 800.

В одном из хадисов говорится: “Обучать знанию того, кто не имеет интереса к знанию, - значит впадать в грех, а учить знанию напрасно - значит совершать два греха”. Не зря ли мы учим наших студентов науке?! Говоря словами профессора Б. Менглиева: принуждение к запоминанию бесчисленных научных (языковых) правил” дает ребенку?!

Когда мы проводим различие между обучением языку наших студентов и основами лингвистики? До каких пор мы будем лишены награды за обучение наших детей “ненужным знаниям”? [2; 7]

Определенные требования к системе образования в официальных документах определяют цели, задачи, виды и этапы образовательного процесса. Содержание приказа по каждому предмету отражается в виде государственных образовательных стандартов (квалификационных требований). Не секрет, что общая цель образования определяется государственным заказом.

Особенно это касается обучения на родном языке, которое является ярким выражением нашей национальной идентичности: Цель обучения на родном языке в школе состоит в том, чтобы правильно и свободно выражать свое мнение как устно, так и письменно. Речь идет о развитии

человека, который обладает культурой чтения, умеет самостоятельно и творчески мыслить, понимает чужое мнение - культурой общения и речи.

Духовный уровень, нравственность, уровень культуры, благородство и вообще богатство внутреннего мира человека определяются в первую очередь его речью. Положительное или отрицательное поведение говорящего также возникает в его речи на основе определенных языковых средств. В нашем народе пословица “Хорошо говорит, говорит дурно” также указывает на положительную или отрицательную сторону поведения говорящего. Иногда, когда мы немного разговариваем с людьми, которые очень хорошо одеты и воспитаны, а иногда и с людьми, которые для нас являются “звездами”, нам может не захотеться говорить об этом снова. Или наоборот.

Существует множество лексических единиц, регулирующих культуру речи у человека. Одним из них являются эвфемизмы.

Эвфемизмы, представляющие собой мягкие и нежные выражения слов, неуместных или неудобных для произнесения под влиянием морально-эмоциональных требований, образуют отдельную систему языка. Например, в “Последних днях” Абдуллы Кадири письмо Кумушбиби гласит: “Сизни ва отамни жуда согиндим, агарда оғир оёқ бўлмасам эди, қиш бўлишига қарамасдан Маргилонга жўнар эдим, қудангиз, қайин онамнинг сўз(лар)ига қараганда, келаси ойда кўзим ёрир эмши”. (Абдулла Кадири. Последние дни)

Эвфемизмы на письме, такие как *оғир оёқ*, *кўзи ёримоқ* отражающие значение беременности, являются языковыми единицами, отражающими национальный дух, этикет и деликатность нашего народа. Эвфемизмы в основном отражают психику человека, взаимоотношения, взаимоуважение, уважение. В некотором смысле правильное использование эвфемизмов культивирует речь и избавляет как говорящего, так и слушающего от смущения. Поэтому при их использовании требуется осторожность. Правильное использование этих единиц важно для каждого, кто считает себя цивилизованным членом общества. Естественно, это выражение культуры речи.

На протяжении жизни человек изучает разные языки, в зависимости от обстоятельств, а также свой родной язык. Обучение родному языку в общеобразовательных средних школах основано на навыках говорения, приобретенных учащимися с рождения до поступления в школу, и в то же время навыки говорения учащихся литературны, соответствуют языковым нормам.

Короче говоря, на уроке родного языка учащийся должен уметь читать по трем параметрам: правильное чтение, письмо без ошибок и понимание читаемого (услышанного). Важно отметить, что “правильное понимание” ученика отражается в его или ее культурном дискурсе. Культурный дискурс же есть не непосредственное высказывание (запись) услышанного, известного или понятого от человека, а преобразование этого в нормы, т. е. его переработка, приспособление к моральным правилам. общества требует конкретного анализа и синтеза. Эвфемизмы являются ближайшим инструментом к читателю в этом процессе.

На самом деле важно иметь в виду, что использование прагматических ценностных заданий на уроках родного языка в общеобразовательной школе является фактором эффективности, и это должно в полной мере отражаться в содержании родного языка (программах и учебниках). Одной из единиц прагматического значения для учащегося являются речевые эвфемизмы, которые могут служить для формирования и развития культуры речи у учащихся.

Короче говоря, на уроке родного языка учащийся должен уметь читать по трем параметрам: правильное чтение, письмо без ошибок и понимание прочитанного (услышанного). Важно отметить, что «правильное понимание» ученика отражается в его или ее культурном дискурсе. Культурный дискурс же есть не непосредственное высказывание (запись) услышанного, известного или понятого от человека, а преобразование этого в нормы, т. е. его переработка, приспособление к моральным правилам. общества требует конкретного анализа и синтеза. Эвфемизмы являются ближайшим инструментом к читателю в этом процессе.

Это подчеркивает необходимость и важность обогащения речи школьников эвфемизмами.

Литературы

1. Bunday ona tili ta’limi o‘zimizni aldashdan boshqa narsa emas! Tilshunos olim bilan suhbat/ 27.08.2019. kun.uz

2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o‘zbek tili. Darslik. –Buxoro: “Durdona”, 2021.–555 b. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/119110>

3. Юлдашева Дилором Нигматовна. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури талаблари асосида таълим мақсадини белгилашнинг дидактик асослари: педагогика фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, 2007.–124 б.

4. Yuldasheva D.N. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi (OO‘MTV tasdiqlagan darslik). –Buxoro: “Durdona”, 2021. -445 b. <http://library.ziyonet.uz/ru/book/119112>

5. Yuldasheva D.N. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining ona tili o‘qituvchilariga ochiq xat: Maktab partasida o‘tirgan bolalarimizning barchasi tilshunos bo‘lishi kerakmi?// “Ma‘rifat” gazetasi 2020-yil 4-mart, chorshanba –№ 10 (9283)-son. 10-11-sahifalar.

6. Дилором Юлдашева (Dilorom YULDASHEVA). Профессиональные фразеология (Professional Phraseology). International conference on academic studies in philology (BICOASP) 26-28 September 2019 Bandirma <https://d1wqtxst1xzle7.cloudfront.net/60539392/>

7. Dilorom Nematovna Yuldasheva. Problems of national language education at school. Volume 4 Issue 3 BSU 2020 (3) Published by 2030 Uzbekistan Research Online, 2020 <https://uzjournals.edu.uz/buxdu/vol4/iss3/15/>

8. DN Yuldasheva. [BASIC NON-VERBAL COMPONENTS OF SPEECH](#). CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758) 3 (01), 17-24.

9. AN Istamovna. [Leksik birliklarning milliy o‘zlik ruhini ifodalashdagi roli \(Erkin Vohidov dostonlari asosida\)](#). Conferences, 2021.

10. G.T.Chullieva. Intonema and its Types. Middle European Scientific Bulletin. Volume 10, March 2021. ISSN 2694-9970. Pag. 91-95. <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/314>

11. DY Yusupova. Poetess Khalim Khudoyberdieva and his skill in use of the word. International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 01, volume 93 published January 30, 2021.–Pag.238-241. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=44644284>

12. Dildora Yunus kizi Yusupova. About Polisemantic Words (on the example of the poems of the Uzbek poetess Khalima Khudoyberdiyeva). Middle European Scientific Bulletin. Volume 10, March 2021. ISSN ISSN 2694-9970. Pag.384-389. <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/367>

O‘ZBEK XALQ PAREMALARIDA QUYUQ OVQAT NOMLARINING ETNOLINGVISTIK TADQIQI

Ushbu maqolada o‘zbek xalq paremalari tarkibida uchrovchi quyuq taom nomlarining etnolingvistik tadqiqi amalga oshirilgan, turlari tasniflangan.

Kalit so‘zlar: etnolingvistika, parema, quyuq taomlar, xamirli quyuq taomlar, don mahsulotlari.

В данной статье проводится этнолингвистическое исследование названий густых блюд в узбекских народных паремах, классифицируются их виды.

Ключевые слова: этнолингвистика, парема, густая пицца, густое тесто, крупы.

In this article, an ethnolinguistic study of the names of thick dishes in Uzbek folk parems is carried out, their types are classified.

Key words: ethnolinguistics, parema, thick food, thick dough, cereals.

Quyuc ovqat nomlarini, o‘z navbatida, ikkiga ajratish mumkin:

I.1. Xamirli quyuq ovqatlar.

I.2. Don mahsulotlaridan tayyorlanadigan quyuq ovqatlar.

I.3. Sut mahsulotidan tayyorlanadigan quyuq ovqat.

Hayvonlar uchun yemoq-ichmoq mazaliligining mutlaqo ahamiyati yo‘q, ular o‘z ozuqasini faqat qorin to‘ydirish uchungina iste‘mol qiladi. Insonlar esa har bir yeydigan taomlarining xushbo‘y hidli, laziz mazali, tashqi ko‘rinishi chiroyli bo‘lishi kabi ishtaha qo‘zg‘atadigan sifatleri, sihat-salomatlik uchun ham, mehnat qobiliyatining orta borishi uchun ham g‘oyat muhim ahamiyat kasb etishiga e‘tibor beradi [6, 7]. Ajdodlarimiz juda qadimdan ovqatlanish tarziga, ovqatlarning ahamiyatlilik darajasiga va kunning qay paytida iste‘mol qilinayotganiga e‘tibor qaratishgan. Tib ilmining bilimdoni Ibn Sino sog‘likni saqlash, turmush gigiyenasi va to‘g‘ri-oqilona ovqatlanish masalalariga diqqat qaratgan, uning bu sohadagi maslahatlari hozirgacha ham o‘z qiymatini yo‘qotgan emas [2]. Iso Jabborov o‘zbek quyuq ovqatlarini quyidagi guruhlariga ajratadi: jazlab pishiriladigan (palov va shavlalar), qovurib pishiriladigan (qovurmalar, kaboblar, qisman Farg‘ona vodiysida va Toshkentda pishiriladigan palovlar), bug‘lab tayyorlanadigan (manti, xunon, ajabsanda, kabob va boshqalar), dimlab pishiriladigan (dimlama oshqovoq, dimlama baliq, qozon kabob) va boshqalar [5, 167].

O‘zbek taomlari asosini donli, go‘shli, sutli mahsulotlar va sabzavotlar tashkil qiladi [4, 342].

I.1. Xamirli quyuq ovqatlar

O‘troq xalqlarning taomlarida xamir ovqatlar alohida o‘rin turgan. Bug‘doy, arpa, makkajo‘xori unlaridan tayyorlangan xamir ko‘plab an‘anaviy taomlar pishirishda asosiy mahsulot hisoblangan [1, 69].

Chuchvarani xomligida sanama, Jo‘jani kalligida sanama.

I.1.1. Chuchvara – ichiga qiyma solib tugilgan, mantidan ko‘ra kichikroq xamir ovqat [10, 516]. Ma‘lumotlarida keltirilishicha, *chuchvara* o‘zbek oshxonasining xarakterini buyuk o‘zbek palovidek ochib beradi [14].

Ko‘p izlagan – *ko‘mma* ustidan chiqadi.

I.1.2. Ko‘mma – qo‘rga ko‘mib pishiriladigan taom [12, 387]. Ko‘mma – cho‘g‘ga (o‘tga) ko‘mib tayyorlanadigan, pishiriladigan. *Qo‘y suti, qo‘y moyiga Upadek unni qorib, Yiltillama xamirni Qo‘shova aro solib, Ko‘mma qiladi darrov, Shuvoq ildizin yoqib.* Q.Muhammadiy. Bobo bo‘lar xotirjam, Pishirar “*ko‘mma kulcha*”. Q.Muhammadiy [10, 456]. “Ko‘mma” nomi bilan atalgan boshqa taom nomlari ham mavjud bo‘lgan. Bu haqida taomshunos K.Mahmudov quyidagilarni qayd etib o‘tgan: “*Ko‘mma tuxum* – bu ibtidoiy ovqatlardan bo‘lib tuxumni qo‘rga ko‘mib pishirish va “paq etib” yorilganida olib iste‘mol etilgan, so‘ngra buni yana ho‘l lattaga o‘rab ko‘mib pishiriladigan variantlari ham bo‘lgan” [6, 73]. “Ko‘mma shirvoz. Bu tansiq taom ibtidoiy chorvadorlarga xos bo‘lishi kerak, negaki qozonda emas, qo‘rga ko‘milib pishiriladi. Bizda, hatto chorvador qabilalarining keyingi avlodlari o‘rtasida ham mutlaqo unutilib ketgan [6, 119].

Misol va keltirilgan ma‘lumotlardan ko‘rinadiki, *ko‘mma* ota-bobolarimizning milliy taomlaridan bo‘lib, bu nom ostida nafaqat non, balki tuxum, yosh qo‘zi go‘shli ham cho‘g‘ga ko‘milgan holda pishirilgan. Ammo faqatgina ko‘mma non turigina maqoldan o‘rin olgan. Bu, birinchidan, ko‘mma non ajdodlarimiz hayot tarzida asosiy iste‘mol mahsuloti bo‘lganligini ko‘rsatsa, ikkinchidan, paremalarning

yaratuvchisi oddiy xalq ekanligidan guvohlik beradi. Hozirgi vaqtda bunday taomlar iste'molda bo'lmaganligi yoki boshqa nom ostida yashayotganligi bois ularning nomi unutilgan. Ammo o'zbek xalq maqollarida, badiiy asarlarda “ko'mma non” atamasi milliy-madaniy kulturema sifatida yashab kelmoqda.

Yurganga yo'rg'am yo'liqar.

I.1.3. Yo'rg'am.

Shoir Sidqiy (Xondayliqiy) bu maqolni quyidagicha izohlagan: “Eng lazzatli bir turli osh erurkim, echkining yo qo'ying charvisini yoyib, murch, zira, zirk, turli dorivorlarni qiymaga qo'shib, qiymani mazkur charvi bilan o'raydilar. So'ngra charvini tozalangan ichak bilan ham o'rab pishiradilar, yeydilar. Bu osh eng qimmatli ko'rilgan bir osh erurkim, bu kunlarda barham topgan (yo'qolgan) erur. Bu – aziz mehmonlar uchun tortib berilur [12, 387].

Karim Mahmudovning ishida ushbu taom nomi qayd etilgan, xolos: “Tansiq taomlarning tayyorlash usuli unutilayotgan yoki masallig'i noyob, ba'zi-ba'zidagina tayyorlanadigan xillari ham bor, bular: og'iz oshi, sutli o'pka, so'k oshi, yo'rg'am, tuxum do'lma, dimlama hasip, po'stdumbali moshkichiri, moshkichiri muxashshir, xandon pistali turp salati, qo'ziqorin palov, laqqa palov, qaymoq sho'rva, bedana sho'rva, shaxlut (charvi do'lma), kaklik palov, kaklik kabob, po'stdumba o'ramasi, charvi-jigar kabob, jigar do'lma, ilvasin palov, yong'oq murabbos, oftob gulqand, zog'ora non, patrak non, jirish non kabilardir” [6, 9]. Ammo tadqiqotchi qirg'iz va qozoq pazandachiligida hozirgi kunda mavjud bo'lgan “ko'mma shirvoz” taomi haqida quyidagicha ma'lumot beradi: “Shirvozni so'yib, terisi shilingach, ich a'zolari olinadi, kallasi ajratilib, paychoqlari chopiladi. So'ngra tanani shapaloqday-shapaloqday keladigan bo'laklarga bo'lib tuz, murch va zira sepiladi. Go'shtni teriga solib o'raladi. Orasiga butun sarimsoq, piyoz va sabzi ham solinadi. Yerda chuqurligi bir qarich, kengligi bir kvadrat metr keladigan chuqur qaziladi. Chuqurning ichiga qattiq o'tin (saksovol) qalab gulxan yoqiladi. Cho'g'i kerakli miqdorda to'planganligidan keyin o'rtasiga o'ralgan qo'zi go'shtini qo'yib tepasidan tuproq tortiladi” [6, 120]. Demak, aytish mumkinki, “yo'rg'am” deb atalgan taom qo'shni davlat xalqlari orasida “ko'mma shirvoz” nomi ostida tayyorlanadi.

Qayd qilingan taom nomi o'tmishda ajdodlarimiz orasida keng ommalashgan bo'lsa-da, hozirgi kunda tarixiy so'zga aylangan. Shu sababli “O'zbek tilining etimologik lug'ati”da ham, “O'zbek tilining izohli lug'ati”da ham izohlanmagan.

Katta changal bir *dasta* qiladi, kichik changal ikki *dasta* qiladi.

I.1.4. Dasta – yoyilgan xamirni ugra qilib kesib bo'lgach, uzun-uzun bo'lib qolgan xamirlarning birmunchasini qo'lga dastalab, yopishib qolgan unni qo'l bilan sidirib, supraga qoqib-qoqib tashlaydilar. Ana shu kesilgan ugrani “dasta” deb ataydilar. Bir zuvala xamirni katta changalli odam bir dasta qilsa, kichik changalli odam ikki dasta qiladi [12, 172]. Dasta – o'qlovda yoyilib, dasta-dasta qilib, maydalab to'g'ralgan lag'mon turi [12, 350]. Hozirgi kunda bu taom lag'mon nomi ostida milliy pazandachiligimizda yashab kelmoqda. Lag'mon – [*xit*. “cho'ziq xamir”] Xamirni cho'zib yoki uzun ingichka kesib tayyorlanadigan, yuziga qayla solib yeyiladigan ovqat [10, 492]. *Dasta* omonim so'z bo'lib, “O'zbek tilining izohli lug'ati”da to'rt ma'noda izohlangan:

I. [f - sop, tutqich] turli asboblarning qo'l bilan ushlanadigan qismi;

II. [f] Keli (o'g'ir)da narsa oqlashda ishlatiladigan tutqichli asbob, kelisop.

III. [f] *shv*. Chillak.

IV. [f guruh; to'da; bog'lam, to'p] 1. Bir tutam yoki bog'lam qilib terilgan yoxud bog'langan narsa; bog', bog'lam. 2. Ustma-ust qilib terilgan, taxlangan yoki taxlab bog'langan yoxud qutichaga joylashtirilgan narsa; pachka. 3. *Maxs*. Ipak qurti pilla o'rashi uchun so'kchakka bostiriladigan g'o'zapoya va sh.k. bog'lami. 4. Guruh, ansamb. 5. To'p, guruh, otryad [10, 571].

Ensiklopedik lug'atda **dasta** so'zi ikki ma'noda:

DASTA – ipak qurti o'rashi uchun so'kchakka qo'yiladigan material. U o'tlardan, poxol va boshqa narsalardan tayyorlanadi.

DASTA – (muzikada), kamonli va chertib chalinadigan torli muzika asboblarining bo'yni (uzun ensiz qismi) [3, 228].

Navoiy asarlari lug'atida ikki ma'noda izohlangan:

DASTA – f.1. Tutqa, sop (eshik, idish, qamchi kabilar haqida);

Bir tutam, bir to'p, bir dasta (gul haqida); Siymgun dasta – Kumush sopli [11, 182].

Ko'rinadiki, uchala lug'atda ham taom nomini beruvchi “dasta” so'zi izohlanmagan. Holbuki, ushbu so'z xalqimizning milliy madaniyatini, turmush tarzini, hayot faoliyatini o'zida ifodalovchi mental birlik sifatida lug'atlarimizdan o'rin olishga haqli.

Urvog'iga chidagan *yupqa* qilsin.

I.1.5. Yupqa – ot. Xamirni chalpakka o'xshatib yoyib ustiga yog'da qovurilgan qiyma, sabzi solib, qozonda pishiriladigan taom; cho'zma [9,470]. Yupqa – xamirni yupqa yoyib, qizdirilgan qozonda har ikki

tomonini ag‘darib pishirib, so‘ng ichiga qiymali piyozdog‘ solib, to‘rt burchak shaklda taxlab tayyorlanadigan ovqat. Bu ot ma‘no taraqqiyoti natijasida *yupqa I* sifatidan o‘sib chiqqan: “belgi” – “shunday belgiga ega narsa” [7, 187]. *Yupqa* – deb ataluvchi taom tayyorlanayotganda urvoq uchun nisbatan ko‘proq un sarf bo‘ladi [12, 350].

Yog‘ bo‘lmasa, *chalpak* qil, un bo‘lmasa – patir.

I.1.6. *Chalpak* – *dial.* Xamirni *yupqa* yoyib yog‘da pishiriladigan ovqat [9,352]. *Chalpak* – “xamirni *yupqa* yoyib, yog‘da pishiriladigan ovqat”. Bu ot o‘zbek tilida чўл – fe‘lining “parchala” ma‘nosidan kuchaytirish (takror) ma‘nosini ifodalovchi -пў qo‘shimchasi bilan hosil qilingan shakliga -k qo‘shimchasini qo‘shib yasalgan: ($чўл + нў = чўлнў$) + $κ = чўлнўκ$ [7, 409]. Olim T.Tog‘ayev bu so‘z haqida quyidagilarni yozadi: “*Chalpak* – bunga “*Vaqfiya*”dan misol keltirishimiz mumkin: “...barot, bo‘lg‘ay, *chalpak* o‘ttuz botmon, halvo yigirmi botmon, qishning to‘rt oyidakim, qavs va jadi va dalv va hut bo‘lg‘ay, har kuni o‘tmak yuz adadkim, yigirmi botmon uch tangalik et bilan murattab qilg‘aylar. Tadqiqotchi S.Artaqbayev Toshkent vohasi hududidagi o‘zbek va qozoq xalqlarining an‘anaviy taomlari to‘g‘risida tayyorlangan *chavati*, *qoturma*, *chalpak*, *cho‘zma*, *qatlama* XX asrda ham aholi o‘rtasida keng tarqalgan. Ularni tayyorlash usullari o‘zbek, qozoq, tojik va boshqa etnik jamoalarda juda o‘xshash. O‘zbeklardagi *chalpak* qozoqlarda *shalpak* deb yuritiladi”[8,29]. Internet ma‘lumotlariga ko‘ra *chalpak* asosan oddiy oshxamirdan tayyorlanib, *yupqa* yoyiladi va bu *yupqa* pishiriqlar ko‘proq yog‘da qovurib olinadi [13].

Hamma hamma bilan, Mulla *g‘umma* bilan.

I.1.1. *G‘umma* – bukma somsa [12, 225]. *G‘umma* leksemasi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da, “Ensiklopedik lug‘at”da, “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da izohlanmagan. *Mullasi ko‘p elning to‘qlisi haromga chiqar, Mullaning qorni ochsa, namozi tugar, Er yigitga iyarsang, obro‘ying ortar, Domla-imomga iyarsang, bor-yo‘g‘ing ketar* kabi maqollar qatorida ushbu parema ham mullalarning xudbinligi, ochko‘zligi singari salbiy xususiyatlarini tanqid qilishga qaratilgan.

G‘umma un va go‘sht mahsulotlaridan tayyorlanib, ba‘zan taom o‘rnida iste‘mol qilinganligini maqoldan anglash mumkin. Shu sababli bu taom nomini quyuq xamirli ovqatlar sirasida berishni lozim ko‘rdik. Xulosa qilib aytganda, xalq paremalarida milliy taom turi hisoblanmish quyuq ovqatlar ham etnolingvistika obyekti sifatida o‘rin olgan va milliy kulturema yashab kelmoqda.

Adabiyotlar

1. Abdulhatov N., Toshpo‘latov I., Nosirova U., Jurabayeva U., Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridagi leksik birliklar tadqiqi. – T., Yangi asr avlodi. 2013. – 69 b.
2. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Uch jildlik saylanma. 1-jild. – T.: “Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi” nashriyoti, 1993.
3. Ensiklopedik lug‘at. 2 tomlik. 2. N - H. O‘zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi. – T., 1988. –560 b.
4. Fayzullayeva M. O‘zbek milliy taomlariga xos ijtimoiy-madaniy an‘analar. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti “Kelajak ovozi” yoshlar tashabbuslari markazi Professor Roziya Mukminova nomidagi Respublika Yosh tarixchilar ilmiy seminari “Shahidlar xotirasi” xayriya jamg‘armasi. – T. -342 b.q
5. Jabborov I. O‘zbek xalq etnografiyasi. –T.: “O‘qituvchi”, 1994. –331b.
6. Mahmudov K. O‘zbek tansiq tomlari. –T.: “Mehnat”, 1989. – 344 b.
7. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (turkiy so‘zlar). – T.: “Universitet”, 2000. – 600 b.
8. Tog‘ayev T. M. Alisher Navoiy asarlari tilidagi taom nomlari. “O‘zbek xorijiy tillar” ilmiy - metodik elektron jurnal. 2019, 5-son. – 35b.
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikki jildlik. 2-jild. C–H. – M.: “Rus tili”, 1981. –715 b.
10. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. To‘rtinchi jild. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2020. –592b.
11. Shamsiyev P. Navoiy asarlari lug‘ati. – T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at”, 1972. – 784 b.
12. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma‘nolar mahzani. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. –448 b.
13. <https://zira.uz/uz/recipe/chalpak/>

Madina SA’DULLAYEVA

Buxoro davlat universiteti

lingvistika (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi

1-bosqich magistri

MUHABBAT KONSEPTINING GENDER XUSUSIYATLARI

Erkak va ayolning nutqida, kiyinishida, voqelikka munosabatida o‘ziga xoslik bilan birga umumiy belgilar kuzatiladi. Ayni bir vaqtda, bir xil voqea-hodisaga ikki jins vakilining munosabati turlichadir. Ular bir makon va zamonda yashayotgan bo‘lsalar ham o‘y-fikrlarida alohidalik sezilib turadi. Ushbu maqolada o‘zbek xalq maqollarini tahlil qilish asosida erkak va ayollarning muhabbatga munosabati, psixologik va biologik xususiyatlari, alohidalik bilan birga umumiy belgilari o‘rganiladi. Muhabbat konseptida ayol va erkak psixologiyasini ifodalovchi leksemalar paradigmasi shakllanadi, ikki jins vakilining etikasi, aloqa o‘rnatish xususiyati yuzaga chiqadi.

Kalit so‘zlar: gender, xarakter, psixologiya, ruhiyat, tuyg‘u, jins, parema.

В речи и одежде мужчин и женщин, в их отношении к действительности наряду со спецификой есть общие черты. При этом отношение представителей двух полов к одному и тому же событию различно. Несмотря на то, что они живут в одном месте и в одно и то же время, мысли у них все равно разные. В данной статье проводится анализ узбекских народных пословиц и рассматриваются отношения мужчин и женщин к любви, их психологические и биологические особенности, а также их общие черты. Концепт любви образует парадигму лексем, репрезентирующих психологию женщины и мужчины, этику противоположного пола, характер общения.

Ключевые слова: пол, характер, психология, парема, психика, эмоция, пол.

There are commonalities in the speech and dress of men and women, as well as in their attitude to reality. At the same time, the attitudes of the two sexes to the same event are different. Even though they live in the same place and time, they still have different thoughts. This article analyzes the Uzbek folk proverbs and examines the attitudes of men and women to love, their psychological and biological characteristics, as well as their common features. The concept of love forms a paradigm of lexemes that represent the psychology of women and men, the ethics of the opposite sex, the nature of communication.

Key words: gender, character, psychology, psyche, emotion, gender, parema.

Kirish. Gender – bu ijtimoiy jins, insonning jamiyatdagi xulq-atvori. Gender sistemalarini o‘rganish jinslar orasidagi ijtimoiy tashkillashtirilgan munosabatlarni tushunishga yordam beradi [4, 43]. Erkak va ayolning nutqida, kiyinishida, voqelikka munosabatida o‘ziga xoslik bilan birga umumiy belgilar kuzatiladi. Ayni bir vaqtda, bir xil voqea-hodisaga ikki jins vakilining munosabati turlichadir. Hatto ular bir makon va zamonda yashayotgan bo‘lsalar ham o‘y-fikrlarida alohidalik sezilib turadi. Ushbu maqolada o‘zbek xalq maqollarini tahlil qilish asosida erkak va ayollarning muhabbatga munosabati, psixologik va biologik xususiyatlari, alohidalik bilan birga umumiy belgilari o‘rganildi.

Asosiy qism. Muhabbat konseptida ayol va erkak psixologiyasini ifodalovchi leksemalar paradigmasi shakllanadi, ikki jins vakilining etikasi, aloqa o‘rnatish xususiyati yuzaga chiqadi.

Muhabbat – qalb gavhari, dilni dilga bog‘lovchi tuyg‘u. Ikki shaxsning hissiy, biologik, fiziologik holatidan kelib chiqadigan hissiyotlar majmuasidir.

Muhabbat konseptini ifodalovchi leksemalar erkak va ayolda quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

1. Umumiy muhabbat konseptini ifodalovchi leksemalar.
2. Erkak va ayol muhabbatini xarakterlovchi metaforalar.
3. Emotsional psixologiyaning genderga aloqadorligi.

O‘zbek xalq paremalarida “muhabbat” ma’nosini o‘zida ifodalaydigan otlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Atoqli otlar:

Laylini ko‘rish uchun, Majnunni ko‘zi kerak [erkak – Majnun] [ayol – Layli].

Ishqda Tohir bo‘l, ishda mohir bo‘l [erkak – Tohir].

2. Shaxs otlari:

Ma‘shuq qayda bo‘lsa, oshiq shunda bo‘lar [ayol – ma‘shuq, erkak – oshiq].

Oshiqning dardi – ma‘shuqning vasli [ayol – ma‘shuq].

Qizni – oshig‘iga ber [erkak – oshiq].

Tog‘ga chiqmasang do‘lona qayda, jon chekmasang jonona qayda [ayol – jonona].

Har kim suyganining – quli [erkak – qul].

Sevganga – sultonsan, Sevmaganga – ultonsan [erkak – sulton, ulton].

Suygan ham – qo‘shiqchi,

Kuygan ham – qo‘shiqchi [erkak – qo‘shiqchi].

Kuygan – o‘lanchi bo‘lar, Suygan – laparchi [ayol – laparchi, o‘lanchi].

Jon nima kerak – jonona bo‘lmasa. Uy nima kerak – g‘amxona bo‘lmasa [ayol – jonona].

Och – moy tanlamas, Qari qiz – boy [erkak – boy] [5, 476].

3. Zoonimlar:

Parvonani ishq etmasa mast, urg‘aym-u o‘zini o‘tga payvast [erkak – parvona].

Sening yuraging guli qayda ochilur bo‘lsa, bulbuli shunda sayrar [erkak – bulbul].

4. Fitonimlar:

Ko‘ngil gulini sevgi suvi sug‘orur [ayol – gul].

Chiroying borida chinoringni top [erkak – chinor].

5. Belgi bildiruvchi otlar:

Qozon qayda bo‘lsa – suv shunda, suluv qayda bo‘lsa – ko‘z shunda [ayol – suluv].

Ko‘ngil kimni desa, go‘zal o‘sha [ayol – go‘zal].

Sochingni kunda tara,

Yoringga kunda qara.

Yor – har ikki jins vakiliga birdek qo‘llaniladi.

O‘zbek xalq maqollarda erkak “mardlik”, “sinovchi”, “sinalovchi” timsol sifatida gavdalanib, erkak psixologiyasida jasorat, o‘zini ko‘rsatishga moyillik xususiyatlari sezilib turadi. Xususan, maqollarda “chinor” metaforasi erkakning bardoshi, mardligiga ishora tarzida qo‘llanib, “Farhod”, “Rustam”, “Tohir” kabi afsonaviy obrazlarga qiyoslanadi. “Gul” metaforasi esa ayolning nozikligi belgisidir.

Ayol psixologiyasidagi boshqaruvchilik xususiyati muhabbatda ustunlik qiladi. Har qanday vaziyatda erkakdan yuqori bo‘lishga intilish, ortidan ergashtirish xususiyatlari ayol genida ko‘zga tashlanadi.

Sevganga – sultonsan, sevmaganga – ultonsan [5, 228].

Sevdim deb maqtanma, sevildim deb maqtan kabi.

Ushbu maqoldan shuni anglash mumkinki, oshiq ma‘shuqani suysa, u “sultonlik” maqomiga ega bo‘ladi. Oshiq – jafu chekuvchi, ishq yo‘lida o‘rtanuvchi kishi. Har qanday qiyinchilikka bardosh beruvchi shaxs. Ayol genidagi iffat va hayo mujassami ekani muhabbat konseptida to‘liq namoyon bo‘ladi. Uni ifodalovchi leksemalarda ayolning g‘ururi, or-nomusi birinchi qadam tashlashga qo‘ymaydi va u g‘ururli, shu bilan birga sirli inson qiyofasida aks etadi.

Ayol psixologiyasida ehtiros kuchli bo‘lishi bilan birga, u hayo chegarasidan chiqmaydi, o‘zini idora qila oladigan shaxs hisoblanadi. Erkak tezroq visolga yetishish yo‘lini izlaydi, ayoldan shuni talab qiladi. Maqsadi yo‘lida har narsaga tayyor turadi:

Oshiqning dardi,

Ma‘shuqaning – vasli.

Yolg‘izlikda – yor yaxshi.

Bola suysang – beshikda,

Xotin suysang – to‘shakda.

Ho‘kiz ho‘pda semirar,

Qiz – quchoqda.

Alisher Navoy sevgining visoliga to‘ymagan oshiqni quyidagicha tasvirlaydi:

Novaking ko‘nglimga gar yitdi, hamul andoz ila,

Oni topmoq estasang, jono, yana bir novak ot.

Bu bilan shoir: “Otgan kiprik o‘qing ko‘nglimda yo‘qoldi, agar uni topishni istasang kelib yana novak ot, “jonim”, demoqchi bo‘ladi.

Muhokamalar va natijalar. Muhabbat konseptida ayol va erkak jinsini birlashtiruvchi, umumiy g‘oya tashuvchi maqollar ham borki, ular vafo, go‘zallik, mansab-martaba, makon-zamon mazmunini o‘zida singdirgan maqollarda o‘z aksini topadi: “Muhabbat – boylikka boqmas”. Ushbu maqolda qiz va yigit uchun boylik oxirgi o‘rinda turadi. Agar qiz va yigitning muhabbati chin bo‘lsa, u boylikka qaramaydi. “Muhabbat – chiroy tanlamas” ushbu maqol ham umumiy bo‘lib, go‘zallik tuyg‘usi birlamchi tuyg‘u emas, “Ko‘ngil kimni sevsan, g‘o‘zal o‘sha”, “Laylini ko‘rish uchun Majnunning ko‘zi kerak”, “Suluv suluv emas, suygan suluv”, “Suluv bo‘lgan bilan yor bo‘la bilmas, Tuya bo‘lgan bilan nor bo‘la bilmas”, “Har kim suygan oshini ichar”. Erkak ayol uchun joyning ham ahamiyati yo‘q, qayerda bo‘lmasin suygan kishisi bilan birga bo‘lsa, shuning o‘zi kifoya: “Qozon qayda bo‘lsa – suv shunda”, “Suluv qayda bo‘lsa – ko‘z shunda”; “Sevganing qoshingda bo‘lsa, Senga cho‘l – bog‘i-eram”, “Sevganing bilan bo‘lsang qora uy ham – ola bargoh ko‘rinar”

kabi. Sevgan qalb nuqson ko‘rmaydi, bu ikki jins vakili uchun birdek umumiy xususiyatdir: “Muhabbatning ko‘zi ko‘r, qulog‘i – kar”. Ayol va erkak genidagi yana bir umumiylik nasl-nasab tanlamasligi: “Boqmagin nasliga, boqqin asliga. Vafo tuyg‘usi ham umumiylik belgisiga ega tushunchalardan biri:

Bevafo yordan vafodor it yaxshi.

Bevafo yordan osilgan dor yaxshi.

Bevafoning asli ko‘ngli begona,

Bevafoga ko‘ngil qo‘ygan devona.

Umumiy tushunchalarda yana biri rashk tuyg‘usi hisoblanadi: Achchig‘i yo‘q qalampir bo‘lmas, Rashki yo‘q xotin bo‘lmas.

Ishq bilan rashk – egizak kabi.



Muhabbatning bir tomonlama ko‘rinishini ham o‘zbek xalq maqollarida uchratamiz. Ularda o‘tkinchi hayollarga berilmaslik maslahat beriladi. Bir tomonlama muhabbat xalqimiz tomonidan qoralanadi:

Suymaganga suykalma.

Suymaganga suykalma – bahong ketar, Ming tillolik boshingni bir pul etar.

Hamma narsaning ikki tomoni bo‘lganidek, muhabbat ham erkak va ayolning jismoniy va ruhiy birikuvidan hosil bo‘ladi: Ikki yorti – bir butun.

Tegirmon ikki toshdan, Muhabbat ikki yoshdan kabi.

Xulosa qilib aytganda, ayol va erkak psixologiyasida muhabbatga munosabat xususiy va umumiy belgilarda yaxlit butunlik ko‘rinishini oladi. Xususiy belgilarida bir-birini inkor etsa, umumiy belgilarda bir-biriga yaqinlashadi. Yakka o‘zi butunlik hosil qilolmaydi.

Adabiyotlar

1. Насруллаева Н.З. Гендерная роль матери в английской и узбекской фразеологии //Замонавий тилшунослик ва дериватсион қонуниятлар// – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2018. – 270 б.
2. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. -T., 2019. -248 b.
3. Худайназаров Худайназаров И.Тилда гендер хусусиятларнинг фарқлари // Фан ва Жамият //№1 2021. – 43-45 б.
4. G‘aniboyeva Madina G‘aniboy qizi, Jo‘rayeva I.A. “To‘y marosim” konseptida genderning o‘rni // Journal of innovations in scientific and educational research, // Volume 1. Issue 1, May 2021 . – 10-18b.
5. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Ma‘nolar mahzani. –T., 2001. -448 b.
10. www.google.ru
11. www.google.uz
12. www.harvard.edu

Khilola MAKSUDOVA
National University of Uzbekistan
Faculty of Foreign Philology
(PhD) Department of Practical
English and Literature

BLENDING LEARNING IN ESP INSTITUTION OF PHARMACY DIRECTIONS

Nowadays using pedagogical technologies and information and communication technology in language teaching is tendency. Blended learning is new method in English for specific purposes courses in Uzbekistan. Teaching ESP students demands huge responsibility for ESP teachers as teaching content is not easy every time and BL can be useful in this case.

ESP students' and teachers' attitudes, advantages of conducting online courses in pharmacy directions were observed. This study was conducted with the 1st and 2nd year students of Tashkent pharmaceutical institute. Participants of this study were 100 students, ranging from 18-30, and 20 ESP teachers. In order to find the pharmacy students' attitudes towards using blended learning, all participants were interviewed. Data analysis revealed that ESP students of Uzbekistan have positive attitude to have blended courses in learning English.

Key words: English language teaching (ELT), English specific purposes (ESP), information communication technology(ICT), Blended learning (BL).

Hozirgi kunda tilni o'qitishda pedagogik texnologiyalar va axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish tendensiyadir. Aralash ta'lim - bu ingliz tilida aniq maqsadlar uchun O'zbekistondagi kurslar yangi usul. ESP talabalarini o'qitish ESP o'qituvchilari uchun katta mas'uliyatni talab qiladi, chunki har safar o'qitish mazmuni murakkablashadi va BL bu holda bo'ladi.

Esp talabalari va o'qituvchilarning munosabati, dorixona yo'nalishlari bo'yicha onlayn kurslarni o'tkazishning afzalliklari kuzatildi. Ushbu tadqiqot Toshkent farmatsevtika institutining 1-va 2-kurs talabalari bilan olib borildi. Ushbu tadqiqot ishtirokchilari 100 nafar talabalar, tortib 18-30, va 20 ESP o'qituvchilar. Dorixona talabalarining aralash ta'limdan foydalanishga bo'lgan munosabatini topish uchun barcha ishtirokchilar bilan suhbatlashildi. Ma'lumotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, ESP talabalari ingliz tilini o'rganish bo'yicha aralash kurslarga ijobiy munosabatda bo'lishdi.

Kalit so'zlar: ingliz tilini o'qitish (ELT), ingliz tilining o'ziga xos maqsadlari (ESP), axborot kommunikatsiya texnologiyalari(AKT), aralash ta'lim (BL).

В настоящее время использование педагогических технологий и информационно-коммуникационных технологий в обучении иностранным языкам является тенденцией. Смешанное обучение - это новый метод обучения на курсах английского языка для специальных целей в Узбекистане. Обучение студентов ESP требует огромной ответственности от преподавателей ESP, поскольку содержание обучения не всегда легко, и BL может быть полезен в этом случае.

Было отмечено отношение студентов и преподавателей ESP, преимущества проведения онлайн-курсов по фармацевтическим направлениям. Данное исследование было проведено со студентами 1-го и 2-го курсов Ташкентского фармацевтического института. Участниками этого исследования были 100 студентов в возрасте от 18 до 30 лет и 20 преподавателей ESP. Чтобы выяснить отношение студентов'фармацевтов к использованию смешанного обучения, все участники были опрошены. Анализ данных показал, что студенты ESP из Узбекистана положительно относятся к смешанным курсам изучения английского языка.

Ключевые слова: обучение английскому языку (ELT), специальные цели английского языка (ESP), информационно-коммуникационные технологии (ИКТ), смешанное обучение (BL).

Introduction. Development of science and technology requires specialists of different fields to be competent in English and ICT skills. To improve teaching and learning ESP in various fields ELT teachers and researcher are conducting many projects. ESP teachers implement different approaches as CLIL (content and language learning), task based approach, CLT (communicative language teaching) and BL is new method in language teaching. It is obvious that students are eager to use technology and sometimes more competent than teachers.

Literature review. The first distance education began in the 1840's and in the 21st century, mixed education became a major part of education. Mixed Learning The term “blended learning” is a modern teaching method online lessons with face to face classes with interactive lessons, auditorial exercises interacting with one another online. Teaching ESP in blended learning settings was discussed and piloted by

many ESP teachers and researchers as P.Sharma (2010), B.Tomlinson and C.Whittaker (2013), A.Daragmeh, S.Chirimbu and D.Tafazoli (2014), G. Kavaliauskiene (2011), I.Arguelles and L. Peco (2014). They discussed challenges and advantages of blended learning courses in ESP field. According to Sharma blended learning is a combination of technologies or a combination of methodologies as he considers blended learning is method. A. Daragmeh discusses challenges in implementing and using online courses in Palestinian tertiary institutions. As computer illiteracy of teachers and learners, wrong instructions of e-learning tasks demotivate learners to learn language. Another researchers S.Chirimbu and D.Tafazoli held research in Iran higher education’s institutions and about 85% of students preferred learning language with technology and only 15% traditional classes. G. Kavaliauskiene shared with experience using blended learning to improve listening skill of ESP learners. According to I.Arguelles and L. Peco “blended learning courses is communication between instructor and learner is not only physical or necessarily immediate, as it allows a more flexible learning which adapts to the learner’s disposition”.

This is not just a matter of using computer technologies during the lesson, but also as a way to teach and learn a foreign language that is closely linked to classroom tutoring and online training in effective foreign language teaching. Its basic principles include:


- computer technology availability;
- the course has clear goals and objectives;
- online training sessions with audiences;
- compliance with the language needs of the learners;

Harker and Kautanthon (2007) have been shown to have had the effect of teaching English at an academically targeted English language, a network of specific learning environments. During the course of the mixing training course, online tutoring can be organized to develop reading and writing activities, to write reviews of relevant scientific articles, and to organize debate online forums.

Russian foreign language teachers say that the writing skills of future English teachers are reflected in students’ comprehension of the essays included in the online platform by the students themselves.

There are three main purposes of using blended courses in ESP institutions:

Table -1



1. It can be used as extra activities to improve grammatical, phonetic, lexical competence. Most ESP institutions allocate less hours for language learning because of subjects of specialty. In this case, student can do exercises and learn language.

2. It can also be used as independent work and it is assessed by teacher

Objectives of study. The objectives of this research is to evaluate pharmacy students’ and English language teachers’ attitudes and difficulties to conducts cooperative ESP classes.

Methodology. The data collected through the questionnaire and interview among 1st and 2nd year 100 students and 20 teachers Tashkent pharmaceutical institute. The questions of the questionnaire consist of 10 statements, to which students responded on a 3-pont, 1(agree), 2(not sure) and 3(disagree).

Results. 10 statements of the blended learning questionnaire are shown in the table

Statements		Agree	Not sure	Disagree
1.	Technology-based tools can be an effective method for learning English language.			
2.	Technology-based tools will enhance teacher –student interaction.			
3.	There are too many issues to use technology in ESP			

	classes.			
4.	I prefer traditional classrooms rather than online courses.			
5.	Using technology is costly and ineffective in learning English for specific purposes.			
6.	Students can improve my listening and reading skills by blended learning courses.			
7.	Students can improve writing and grammar by blended learning courses.			
8.	Students can do extra activities and improve level of English.			
9.	I would like to participate in technology-based tools workshops for learning how to use these tools.			
10.	Teachers and students need administrative support to technology-based devices.			

Literature

1. Basturkmen H. Developing courses in english for specific purposes. University of Auckland, New Zealand. 2010. P-154.
2. Belcher D. English for specific purposes in theory and practice. / University of Michigan press. 2009. P-297.
3. Belyaeva A. English for Specific Purposes: Characteristic features and curriculum planning steps. // Sustainable multilingualism №7. 2015.-P.73-91.
4. Benavent G.T., Penamaria S.S. Use of authentic materials in the ESP classroom. // Encuentro 20, 2011. P. 89-94.
5. Berardo The Use of Authentic Materials in the teaching of Reading. The Reading Matrix 6.2: 2006. P.-60-69.
6. Canale, M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing / M.Canale & M.Swaine // Applied Linguistics. – 1980. – №1. – P.47–54.
7. Carter D. Some propositions about ESP// The ESP journal 2. 1983. –P.131-137.
8. Carter. R., Nunan D. The Cambridge guide to teaching English to speakers of other languages. / Cambridge university press. 2001. P. 274.
9. Chalekandy, Muhammed Ali. A comprehensive method for teaching English Specific Purpose. //Arab world English journal Vol. 4. 2013. P.- 310-322.
10. Gatehouse K. Key issues in English for Specific Purposes (ESP) curriculum development. // The internet TESL Journal 7(10). 2001. P.1-7.
11. Graves, K. A framework of course development processes.// In D.R. Hall, & A. Hewings (Eds.), Innovation in English language teaching. London: Routledge. 2001. P. 178-196.
12. Hymes, D. On Communicative Competence. In J.B.Pride and J.Holmes (eds.), Sociolinguistics. Harmondsworth: Penguin, 1972, – P.269-293.

Shahlo MERAJOVA

Buxoro davlat universiteti
differensial tenglamalar kafedrası katta o'qituvchisi

Nilufar SAIDOVA

Buxoro davlat universiteti
differensial tenglamalar kafedrası o'qituvchisi

ARALASH MASALALARNI O'ZGARUVCHILARNI AJRATISH USULI BILAN YECHISH BO'YICHA BA'ZI METODIK TAVSIYALAR

Ushbu maqolada matematik fizika tenglamalariga qo'yilgan aralash masalalarni o'zgaruvchilarni ajratish usuli bilan yechish bo'yicha metodik tavsiyalar berilgan. Bir jinsli bo'lgan va bir jinsli bo'lmagan tenglamalarda aralash masalani yechishning o'ziga xos tomonlari ko'rsatilgan

Kalit so'zlar: matematik fizikaning klassik tenglamalari, aossiy masalalarning qo'yilishi, aralash masala, o'zgaruvchilarni ajratish usuli, bir jinsli tenglama, bir jinsli bo'lmagan tenglama, Furiye qatorlari, funksional qator yaqinlashishi.

В статье даны методические рекомендации по решению смешанных задач для уравнений математической физики методом разделения переменных. Показаны особенности решения смешанной задачи для однородных и неоднородных уравнений.

Ключевые слова: классические уравнения математической физики, основные задачи, смешанные задачи, метод разделения переменных, однородные уравнения, неоднородные уравнения, ряд Фурье, сходимость функциональных рядов.

The article gives guidelines for solving mixed problems for equations of mathematical physics by the method of separation of variables. The features of the solution of the mixed problem for homogeneous and inhomogeneous equations are shown.

Key words: classical equations of mathematical physics, basic problems, mixed problems, method of separation of variables, homogeneous equations, inhomogeneous equations, Fourier series, convergence of functional series.

Kirish. O'zgaruvchilarni ajratish usuli boshqacha Furiye usuli deb ham atalib, differensial tenglamalarga qo'yilgan chegaraviy masalalarni yechishda keng qo'llaniladi. "Matematika", "Amaliy matematika va informatika", "Fizika" yo'nalishlari talabalariga ushbu usulni o'rgatishda nimalarga e'tibor berish kerak? Qanday o'rgatish kerak? Bu usulning mohiyati nimada? Usulning xususiyati? Bu savollarga javob berish kerak.

Dastlab, matematik fizika tenglamalariga qo'yiladigan asosiy masalalarni qaraymiz.

Jarayon sodir bo'layotgan soha $G \in R^n$ bo'lib, S uning chegarasi bo'lsin. S ni bo'laklari silliq sirt hisoblaymiz [1].

Differensial tenglamalar uchun, asosan, 3 tipdagi masalalar bir biridan farq qiladi.

A. Koshi masalasi. Bu masala, asosan giperbolik va parabolik tipdagi tenglamalar uchun qo'yiladi; G soha butun R^n fazo bilan ustma-ust tushadi, bu holda chegaraviy shartlar bo'lmaydi.

B. Chegaraviy masala elliptik tipdagi tenglamalar uchun qo'yiladi; S da chegaraviy shartlar beriladi, boshlang'ich shartlar tabiiy bo'lmaydi.

D. Aralash masala giperbolik va parabolik tipdagi tenglamalar uchun qo'yiladi; $G \neq R^n$ bo'lib, boshlang'ich va chegaraviy shartlar beriladi.

Biz ushbu maqolada aralash masalalarning qo'yilishi va yechish usuliga to'xtalamiz.

Asosiy qism. Chegaraviy masalalar, asosan, chegarada berilgan shartlarga qarab farqlanadi. Oddiylik uchun biz bir o'lchovli holda aralash masalalarni mos boshlang'ich shartlar bilan ko'rib chiqamiz. Masala boshlang'ich va chegaraviy shartlar birgalikda qaralgan holda aralash masala ham deb yuritiladi, aralash masala turi chegaraviy shartga qarab farqlanadi. Matematik fizikaning ko'pgina chiziqli masalalari o'zgaruvchilarni ajratish usuli bilan hal qilinadi.

Dastlab bir jinsli tenglama uchun qo'yilgan aralash masalani o'zgaruvchilarni ajratish usuliga bilan yechish masalasiga to'xtalamiz.

Uchlari $x=0$ va $x=l$ nuqtalarda mahkamlangan tor tebtanishi tenglamasi masalasi uchun Furiye yoki o'zgaruvchilarni ajratish usulini bayon qilamiz. Bu masala quyidagicha bo'ladi:

$$\frac{\partial^2 u}{\partial t^2} = a^2 \frac{\partial^2 u}{\partial x^2} \quad , \quad (1)$$

boshlang‘ich shartlar:

$$u|_{t=0} = \varphi(x), \quad u_t|_{t=0} = \psi(x), \quad (2)$$

chegaraviy shartlar:

$$u|_{x=0} = 0, \quad u|_{x=l} = 0. \quad (3)$$

O‘zgaruvchilarni ajratish usulida tenglamaning xususiy yechimlarini quyidagi ko‘rinishda qidiramiz:

$$u(x,t) = X(x)T(t), \quad (4)$$

bu funksiyalar aynan nolga teng emas va (3) chegaraviy shartlarni qanoatlantirsin.

Demak, biz quyidagi oddiy differensial tenglamalarga kelamiz:

$$T''(t) + a^2 \lambda T(t) = 0, \quad (5)$$

$$X''(x) + \lambda X(x) = 0, \quad (6)$$

bu yerda $\lambda > 0$, $\lambda = const$.

Shunday qilib, chegaraviy shartlar quyidagicha bo‘ladi:

$$X(0) = 0, \quad X(l) = 0. \quad (7)$$

Natijada biz (6)-(7) Shturm-Liuwill masalasi hosil bo‘ladi.

Har bir chegaraviy masala uchun o‘ziga xos Shturm-Liuwill masalasi hosil bo‘ladi. Shunga e‘tibor qaratish kerak!

Bu masalaning xos sonlari:

$$\lambda_k = \left(\frac{\pi k}{l}\right)^2 \quad k = 1, 2, \dots$$

va bu xos sonlarga quyidagi xos funksiyalar mos keladi:

$$X_k(x) = \sin \frac{\pi k x}{l}.$$

$\lambda = \lambda_k$ bo‘lganda (5) tenglama quyidagi umumiy yechimga ega:

$$T_k(t) = a_k \cos \frac{k\pi a t}{l} + b_k \sin \frac{k\pi a t}{l},$$

shuning uchun

$$u_k(x,t) = X_k(x)T_k(t) = \left(a_k \cos \frac{k\pi a t}{l} + b_k \sin \frac{k\pi a t}{l}\right) \sin \frac{k\pi x}{l}$$

funksiya har qanday a_k va b_k uchun (1) masalani va (3) chegaraviy shartlarni qanoatlantiradi.

(2)-(3) shartlarni qanoatlantiruvchi (1) masalaning yechimini qator ko‘rinishida qidiramiz:

$$u(x,t) = \sum_{k=1}^{\infty} u_k(x,t) = \sum_{k=1}^{\infty} \left(a_k \cos \frac{k\pi a t}{l} + b_k \sin \frac{k\pi a t}{l}\right) \sin \frac{k\pi x}{l}. \quad (8)$$

Agar bu qator tekis yaqinlashuvchi bo‘lib, uni hadma-had ikki marta differensiallash mumkin bo‘lsa, u vaqt qator yig‘indisi (1) tenglamani va (3) chegaraviy shartlarni qanoatlantiradi.

Differensial tenglamalar kursida quyidagi teorema isbotlanadi:

Teorema [2]. Agar u_k ($k = 1, 2, \dots, n, \dots$) funksiyalar chiziqli va bir jinsli $L(u) = 0$ (oddiy differensial tenglama yoki xususiy hosilali differensial tenglama) tenglamaning xususiy yechimlari bo‘lsa, u holda $u = \sum_{k=1}^{\infty} C_k u_k$ qator ham berilgan tenglamaning yechimi bo‘ladi, agar tenglamada qatnashadigan hosilalarni, qatorni hadma-had differensiallash yo‘li bilan hisoblash mumkin bo‘lsa.

Hadma-had differensiallash imkonini, qator va uni differensiallash natijasida hosil qilingan qatorlarning tekis yaqinlashishi beradi.

Faraz qilamiz (8) qatorni hadma-had differensiallash mumkin. U vaqtda a_k va b_k doimiy koeffitsiyentlarni shunday aniqlaymizki (8) qator yig‘indisi (2) boshlang‘ich shartlarni qanoatlantirsin, natijada quyidagi tengliklarga kelamiz:

$$\varphi(x) = \sum_{k=1}^{\infty} a_k \sin \frac{k\pi x}{l} \quad , \quad (9)$$

$$\psi(x) = \sum_{k=1}^{\infty} \frac{k\pi a}{l} b_k \sin \frac{k\pi x}{l} \quad . \quad (10)$$

(9) va (10) formulalar $\varphi(x)$ va $\psi(x)$ funksiyalarning $(0, l)$ intervalda sinuslar bo'yicha Furye yoyilmasini beradi. Bu yoyilmalarning koeffitsiyentlari quyidagi formulalar bilan topiladi:

$$a_k = \frac{2}{l} \int_0^l \varphi(x) \sin \frac{k\pi x}{l} dx,$$

$$b_k = \frac{2}{k\pi a} \int_0^l \psi(x) \sin \frac{k\pi x}{l} dx,$$

ya'ni, $a_k = \varphi_k, b_k = \frac{l}{k\pi a} \psi_k$, ular yordamida (8) formula bilan aniqlangan funksiya masalaning yechimini to'liq beradi.

(8) qatorning umumiy hadi uchun quyidagi tengsizlik o'rinni:

$$|u_k(x, t)| \leq |a_k| + |b_k|.$$

Quyidagi sonli qator

$$\sum_{k=1}^{\infty} (|a_k| + |b_k|)$$

(8) funksional qator uchun mojaranta qator bo'ladi. Agar mojaranta qator yaqinlashsa, (8) funksional qator tekis yaqinlashadi va uning yig'indisi uzluksiz funksiya.

(8) qatordan t va x o'zgaruvchilar bo'yicha ikki marta differensiallash natijasida olingan qatorlar quyidagicha bo'ladi:

$$\frac{\partial^2 u}{\partial t^2} = \sum_{k=1}^{\infty} \frac{\partial^2 u_k}{\partial t^2} = -\frac{\pi a}{l} \sum_{k=1}^{\infty} k^2 \left(a_k \cos \frac{k\pi a t}{l} + b_k \sin \frac{k\pi a t}{l} \right) \sin \frac{k\pi x}{l},$$

$$\frac{\partial^2 u}{\partial x^2} = \sum_{k=1}^{\infty} \frac{\partial^2 u_k}{\partial x^2} = -\frac{\pi}{l} \sum_{k=1}^{\infty} k^2 \left(a_k \cos \frac{k\pi a t}{l} + b_k \sin \frac{k\pi a t}{l} \right) \sin \frac{k\pi x}{l}.$$

Ushbu qatorlar uchun quyidagi sonli qator mojaranta qatorlar bo'ladi:

$$\sum_{k=1}^{\infty} k^2 (|a_k| + |b_k|).$$

Boshlang'ich berilgan funktsiyalar quyidagi shartlarni qanoatlantirsa (8) qator va uni differensiallash natijasida hosil bo'lgan qatorlar tekis yaqinlashuvchi bo'ladi:

1) $\varphi(x)$ funksiyadan 2-tartibgacha olingan hosilalar uzluksiz, 3-tartibli hosilasi bo'lakli-uzluksiz bo'lib, quyidagi shart bajarilsa:

$$\varphi(0) = \varphi(l) = 0; \quad \varphi''(0) = \varphi''(l) = 0.$$

2) $\psi(x)$ funksiya uzluksiz differensiallanuvchi, 2-tartibli hosilasi bo'lakli-uzluksiz bo'lib, quyidagi shart bajarilsa:

$$\varphi(0) = \varphi(l) = 0.$$

Biz (1)-(3) aralash masalani yechish usulini to'liq tahlil qildik.

Muhokamalar va natijalar. Endi bir jinsli bo'lmagan hol uchun o'zgaruvchilarni ajratish usulini parabolik tenglamalarga qo'yilgan aralash masala misolida qaraymiz. Quyidagi

$$\begin{cases} u_t = a^2 u_{xx} + f(x, t) & (0 < x < l, t > 0) \\ u(x, 0) = \varphi(x) & 0 < x < l \\ u(0, t) = \mu_1(t), u(l, t) = \mu_2(t) & t > 0 \end{cases}$$

aralash masalani yechish talab qilinsin.

Dastlab, quyidagi bir jinsli tenglamani bir jinsli chegaraviy shartlar bilan yechamiz:

$$\begin{cases} u_t = a^2 u_{xx} & 0 < x < l, 0 < t \leq T \\ u(x, 0) = \varphi(x) & 0 < x < l, \\ u(0, t) = 0, u(l, t) = 0 \end{cases} \quad (I)$$

Yuqoridagi kabi yechimni o'zgaruvchilarni ajratish usuli bilan yechamiz. $X(x)$ topish uchun biz Shturm-Liuivill masalasini hosil qilamiz:

$$X'' + \lambda X = 0, \quad X(0) = X(l) = 0.$$

Bundan $\lambda_n = \left(\frac{\pi n}{l}\right)^2$ ($n = 1, 2, \dots$). λ xos sonlarga mos xos funktsiyalar: $X_n(x) = \sin \frac{\pi n}{l} x$.

$T(t)$ funksiya uchun tenglamani yechib, $T_n(t) = C_n e^{-a^2 \lambda_n t}$.

Bir jinsli tenglamaga qo‘yilgan masala xususiy yechimlari:

$$u_n(x, t) = X_n(x)T_n(t) = C_n e^{-a^2 \lambda_n t} \sin \frac{\pi n}{l} x$$

Superpozitsiya prinsipiga asosan xususiy yechimlarning yig‘indisi masala yechimi:

$$u(x, t) = \sum_{n=1}^{\infty} u_n(x, t) = \sum_{n=1}^{\infty} C_n e^{-\left(\frac{\pi n}{l}\right)^2 a^2 t} \sin \frac{\pi n}{l} x. \quad (11)$$

$u(x, t)$ funksiya chegaraviy shartlarni qanoatlantiradi. Boshlang‘ich shartni ham qanoatlantirishini talab etamiz: $\varphi(x) = u(x, 0) = \sum_{n=1}^{\infty} C_n \sin \frac{\pi n}{l} x$.

ya’ni C_n - $\varphi(x)$ funksiya Furiye koeffitsiyentlari

$$C_n = \varphi_n = \frac{2}{l} \int_0^l \varphi(\xi) \sin \frac{\pi n}{l} \xi d\xi. \quad (12)$$

Endi koeffitsiyentlari (12) formula bilan aniqlanadigan (11) qatorni qaraymiz va bu qator (I) masalaning barcha shartlarini qanoatlantirishini qo‘rsatamiz.

Buning uchun (11) qator bilan aniqlanuvchi $u(x, t)$ funksiya differensiallanuvchi bo‘lib, tenglamani $0 < x < l$, $t > 0$ sohada qanoatlantirishini va bu sohaning chegaralarida ($t = 0$, $x = 0$, $x = l$) uzluksiz bo‘lishini ko‘rsatishimiz kerak.

Tenglama chiziqli bo‘lgani uchun superpozitsiya prinsipiga asosan xususiy yechimlardan iborat qator ham yechim bo‘ladi, agar u yaqinlashuvchi bo‘lsa, uni x bo‘yicha ikki marta, t bo‘yicha bir marta differensiallash mumkin. $t \geq \bar{t} > 0$ (\bar{t} - ixtiyoriy yordamchi berilgan son) da xususiy hosilalarning $\sum_{n=1}^{\infty} \frac{\partial u_n}{\partial t}$

va $\sum_{n=1}^{\infty} \frac{\partial^2 u_n}{\partial x^2}$ qatorlari ham tekis yaqinlashadi.

Haqiqatan [2],

$$\left| \frac{\partial u_n}{\partial t} \right| = \left| -C_n \left(\frac{\pi}{l} \right)^2 a^2 n^2 e^{-\left(\frac{\pi n}{l}\right)^2 a^2 t} \sin \frac{\pi n}{l} x \right| < |C_n| \left(\frac{\pi n}{l} \right)^2 a^2 e^{-\left(\frac{\pi n}{l}\right)^2 a^2 t}.$$

Faraz qilamiz, $\varphi(x)$ funksiya chegaralangan bo‘lsin, ya’ni $|\varphi(x)| \leq M$.

U holda

$$|C_n| = \left| \frac{2}{l} \int_0^l \varphi(\xi) \sin \frac{\pi n}{l} \xi d\xi \right| < \frac{2}{l} \int_0^l M d\xi = \frac{2}{l} \cdot M \cdot l = 2M; \text{ chunki } \left| \sin \frac{\pi n}{l} \xi \right| \leq 1.$$

U vaqtda $\left| \frac{\partial u_n}{\partial t} \right| < 2M \left(\frac{\pi n}{l} \right)^2 a^2 e^{-\left(\frac{\pi n}{l}\right)^2 a^2 t}$, $t \geq \bar{t}$ uchun. Shunga o‘xshash:

$\left| \frac{\partial^2 u_n}{\partial x^2} \right| < 2M \left(\frac{\pi n}{l} \right)^2 a^2 e^{-\left(\frac{\pi n}{l}\right)^2 a^2 t}$, $t \geq \bar{t}$ uchun. Umuman: $\left| \frac{\partial^{k+l} u_n}{\partial t^k \partial x^l} \right| < 2M \left(\frac{\pi n}{l} \right)^{2k+l} a^{2k} e^{-\left(\frac{\pi n}{l}\right)^2 a^2 t}$, $t \geq \bar{t}$ uchun.

$\sum_{n=1}^{\infty} \alpha_n$ - majoranta qatorning yaqinlashishini tekshiramiz, $\alpha_n = N n^q e^{-\left(\frac{\pi n}{l}\right)^2 a^2 t}$. D’Alembert alomatiga asosan:

$$\lim_{n \rightarrow \infty} \left| \frac{\alpha_{n+1}}{\alpha_n} \right| = \lim_{n \rightarrow \infty} \left| \frac{N(n+1)^q e^{-\left(\frac{\pi}{l}\right)^2 (n+1)^2 a^2 t}}{N n^q e^{-\left(\frac{\pi}{l}\right)^2 a^2 t}} \right| = \lim_{n \rightarrow \infty} \left(1 + \frac{1}{n} \right)^q e^{-\left(\frac{\pi}{l}\right)^2 (2n+1) a^2 t} = \frac{1}{\infty} = 0.$$

Bundan (11) qatorni $t \geq \bar{t} > 0$ sohada hadma-had differensiallash mumkin degan xulosa chiqadi. Superpozitsiya prinsipidan foydalanib, bu qator issiqlik o‘tkazuvchilik tenglamasini qanoatlantirishini isbotlash mumkin. Shu bilan $t > 0$ da (11) qator yetarlicha marta differensiallanuvchi va tenglamani qanoatlantiradi.

Endi bir jinsli bo‘lmagan issiqlik o‘tkazuvchanlik tenglamasini nol boshlang‘ich va nol chegaraviy shartlar bilan qarab chiqaylik:

$$\begin{cases} u_t = a^2 u_{xx} + f(x,t) & (0 < x < l, t > 0) \\ u(x,0) = 0 \\ u(0,t) = 0, u(l,t) = 0 \end{cases} \quad (\text{II})$$

Bu masalaning $u(x,t)$ yechimini xos funksiyalarning, ya’ni $\left\{ \sin \frac{\pi n}{l} x \right\}$ funksiyalarning Furiye qatori ko‘rinishida qidiramiz:

$$u(x,t) = \sum_{n=1}^{\infty} u_n(t) \sin \frac{\pi n}{l} x. \quad (13)$$

Agar $u_n(t)$ funksiya topilsa, berilgan masala yechilgan bo‘ladi. $f(x,t)$ funksiyani ham xos funksiyalar bo‘yicha qatorga yoyamiz:

$$f(x,t) = \sum_{n=1}^{\infty} f_n(t) \sin \frac{\pi n}{l} x, \quad (14)$$

bu yerda $f_n(t) = \frac{2}{l} \int_0^l f(\xi,t) \sin \frac{\pi n}{l} \xi d\xi$.

(13) va(14) ni etib (II) ga qo‘yamiz: $\sum_{n=1}^{\infty} \sin \frac{\pi n}{l} x \left\{ \left(\frac{\pi n}{l} \right)^2 a^2 u_n(t) + u'_n(t) - f_n(t) \right\} = 0$.

Yoyilmadagi barcha koeffitsiyentlar nolga teng bo‘lsa, bu tenglik o‘rinli bo‘ladi: $u'_n(t) = -\left(\frac{\pi n}{l} \right)^2 a^2 u_n(t) + f_n(t)$.

$u(x,t)$ funksiya uchun boshlang‘ich shartdan foydalanib, $u_n(t)$ funksiya uchun boshlang‘ich shartni olamiz: $u_n(0) = 0$.

Natijada oddiy differensial tenglamaga qo‘yilgan Koshi masalasini hal qilamiz, uning yechimi:

$$u_n(t) = \int_0^t e^{-\left(\frac{\pi n}{l} \right)^2 a^2 (t-\tau)} f_n(\tau) d\tau.$$

Ushbu funksiyani (13) ga etib qo‘yib (II) masalaning yechimini hosil qilamiz.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bu usuldan nafaqat parabolik, elliptik va aralash tipdagi differensial tenglamalarga qo‘yilgan chegaraviy masalalarni, balki klassik va chiziqli bo‘lmagan tenglamalarga qo‘yilgan to‘g‘ri va teskari masalalarni yechishda ham foydalanish mumkin [3, 4].

Adabiyotlar

1. Saloxiddinov M.S. Matematik fizika tenglamalari. –Toshkent: “O‘zbekiston”, 2002.
2. Тихонов А.Н., Самарский А.А. Уравнения математической физики. -М.: Изд-во МГУ. 2004.
3. Меражова Ш.Б. Понятие прямой и обратной задачи в математической физике. “Pedagogik mahorat” maxsus son (2020, iyun).
4. Merajova Sh.B., Mardonova F.Ya. Xususiy hosilali differensial tenglamalar” fanini interfaol usullardan foydalanib o‘qitish samarasi haqida. “Pedagogik mahorat” 2019-yil. 5-son, 131-133b.

UMUMIY OʻRTA TAʼLIM MAKTABLARIDA MATEMATIKA FANINI OʻQITISHDA INTEGRATIV YONDASHUVLAR METODOLOGIYASINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Ushbu maqolada umumtaʼlim maktablarida matematika fanini integrativ yondashuv asosida oʻqitish metodologiyasining konseptual asoslari bayon qilingan.

Kalit soʻzlar: innovatsiya, uzviylik, integratsiya, aniq fanlar tizimi, taʼlim, oʻqitish, fan, matematika, pedagogik texnologiya, integrativ yondashuv, konseptual, metodologiya.

В настоящей статье изложены концептуальные методы организации преподавания математики на основе интегративных подходов в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: инновация, зависимость, интеграция, система точных наук, образование, обучение, предмет, математика, педагогик технология, интегративный подход, концептуал, методология.

This article outlines the conceptual methods for organizing the teaching of mathematics based on integrative approaches in secondary schools.

Key words: innovation, dependency, integration, system of exact sciences, education, teaching, subject, mathematics, pedagogical technology, integrative approach, conceptual, methodology.

Kirish. Bugungi kunda yuz berayotgan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy oʻzgarishlar xalq taʼlimi tizimida ham oʻz aksini topmoqda. Uzluksiz taʼlim-tarbiya tizimini takomillashtirish, shu asosda taʼlim sifatini jahon andozalari darajasiga yetkazish taʼlim sistemasining eng dolzarb vazifasiga aylandi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Buyuk bobolarimizning munosib davomchilari boʻladigan yetuk avlodni tarbiyalash muhim masala hisoblanadi” [1, 4-5.] degan soʻzlari Oʻzbekiston taraqqiyotining keyingi bosqichida barcha sohalarida, jumladan, oʻta muhim strategik jabha-yoshlar tarbiyasida ham amal qilinishi zarur boʻlgan bosh maqsadimizni belgilab berdi. Hozirgi davrda taraqqiy etgan davlatlarning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy ravnaqi fan taraqqiyoti bilan chambarchas bogʻliqdir. Oʻzbekiston Respublikasida taʼlim tizimini takomillashtirish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishi deb eʼtirof etilishi, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida demoratik, insonparvarlik gʻoyalariining yetakchi oʻrin yegallashi ustida olib borilayotgan amaliy harakatlar respublikada uzluksiz taʼlim tizimini jahon standarti darajasiga koʻtarish uchun zarur shart-sharoit yaratishi lozimligini koʻrsatadi. Uzluksiz taʼlim tizimini istiqbolini belgilab beruvchi meʼyoriy hujjat Oʻzbekiston Respublikasi “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonun talablariga muvofiq taʼlim tizimini takomillashtirish, uni mazmunini boyitish, taʼlim oluvchilarni chuqur bilim olishga erishish maqsad qilib qoʻyilgan. Buning uchun umumiy oʻrta taʼlim maktablarida matematika fanini oʻqitishda amaliy yoʻnalishini kuchaytirish, unga amaliy tadbirlarga boy boʻlimlarni kiritish va amaliy (tadbiqiy) masalalarga koʻproq eʼtiborni kuchaytirish kerak. Yaʼni, uzluksiz taʼlimning har bir bosqichida matematikani oʻqitishda oʻrganilayotgan tushunchalardan qayerda, qachon va qanday qilib foydalanish mumkinligini oʻquvchilar ongiga singdirish kerak.

Asosiy qism. Matematika oʻquvchilarda iroda, diqqatni toʻplab olishni, qobiliyat va faollikni, tasavvurini, shaxsning axloqiy sifatlarini (qatʼiyatli, aniq maqsadga intilish, ijodkor, mustaqil, masʼuliyatli, mehnatsevar, intizomli va tanqidiy fikrlash) hamda oʻzining qarash va eʼtiqodlarini dalillar asosida himoya qila olish koʻnikmalarini rivojlantiradi. Matematika fani - maktab matematika kursining asosini tashkil qiladi. Maktab matematika kursining maqsadi - oʻquvchilarga psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda matematik bilimlar sistemasi maʼlum usulda (metodika) orqali oʻquvchilarga yetkaziladi. Matematika metodikasi haqidagi tushunchani birinchi boʻlib shveysariyalik pedagog-matematik G.Pestalossining 1803-yilda yozgan “Sonni koʻrgazmali oʻrganish” asarida bayon qilingan. Hozirgi dastur asosida oʻqitilayotgan maktab matematika fanining metodikasi bilan professorlardan V.M.Kolyagin, J.Ikromov, R.S.Cherkasov, N.Gʻaybullayev, T.Toʻlaganov va boshqa metodist olimlar shugʻullanganlar.

Biz taʼlim deyilganda oʻqituvchi bilan oʻquvchilar orasidagi ongli va maqsadga tomon yoʻnaltirilgan bilishga doir faoliyatni tushunamiz. Har qanday taʼlim oʻz oldiga ikkita maqsadni qoʻyadi.

1. Oʻquvchilarga dastur asosida oʻrganilishi lozim boʻlgan zarur bilimlar sistemasini berish.
2. Matematik bilimlarni berish orqali oʻquvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish.

Taʼlim jarayonidagi ana shu ikki maqsad amalga oshishi uchun oʻqituvchi har bir oʻrgatilayotgan tushunchani psixologik, pedagogik va didaktik qonuniyatlar asosida tushuntirishi kerak. Buning natijasida

o‘quvchilar ongida bilish deb ataluvchi psixologik jarayon hosil bo‘ladi. V.N.Maksimova integratsiyaning ikki darajasini ajratib ko‘rsatadi: yangi turdagi o‘quv muassasalarini yaratish (maktab-gimnaziya, maktab-kompleks, maktab-oliygoh va hokazo) va integrativ ta‘lim dasturlari, o‘quv predmetlarining bloklari va o‘zaro bog‘langan predmetlar bo‘yicha darslar bloklarining paydo bo‘lishi turli darajalarda integratsiyaning ta‘limda namoyon bo‘lishi quyidagi jihatlar bilan bog‘liq: maqsadli, institutsional, protsessual. Respublikamiz pedagog olimlaridan B.M. Mirzaaxmedov, E.O.Turdiqulov, M.M.Mamadazimov, O.D.Quvondiqov, Y.M.Maxmudov, P.Musayev, M.R.Jumaniyozova, M.Aripov, O.Abduquddusov, A.I.Avazboyev, R.T. Safarova, U.Y.Yuldashev, A.Abduqodirov, N.Tayloqov, M.Mamarajabov va boshqalar o‘qitishni integrativ yondashuv mazmundagi bilimlar asosida tashkil etishga alohida e‘tibor berilgan. Integrativ jarayonlarning institutsional jihati shaxsning (xususan, fizika o‘qituvchisini) yaxlit rivojlanishida va yangi pedagogik texnologiyalarni (xususan, pedagogik ta‘limni) yaratishdagi yangi imkoniyatlarga ega bo‘lgan ta‘lim komplekslarini (masalan, maktab-oliygoh) yaratish, pedagogik ta‘lim turli tizim ostilarining yaqinlashishida namoyon bo‘ladi. Ushbu jihatda “vertikal” va “gorizontal” integratsiya ko‘zga tashlanadi. Birinchisi (“vertikal” integratsiya) ta‘lim bo‘g‘inlari, pog‘onalarning izchilligini, vazifalar, vositalar va ularning faoliyat ko‘rsatish natijalarining bosqichlar va darajalar bo‘yicha muvofiqligini, ta‘limning muddati va davomiyligi bo‘yicha uyg‘unligini nazarda tutadi. Ikkinchisi (“gorizontal” integratsiya) bilimlarning fundamentalligi va tizimiyligining kuchayishi bilan bog‘liq bo‘lgan mazmundagi o‘zgarishlarni, oxir-oqibatda barcha o‘zlashtirilgan bilimlarning biz ta‘lim deb aytadigan jarayonga integratsiya bo‘lishiga olib keladigan fanlararo aloqalarning amalga oshirishini talab qiladi.

O‘qituvchining aloqalarni hisobga olgan holda materialni tanlab olish bo‘yicha loyihalashtirish faoliyatini quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

- uslubiy masalaning qo‘yilishi, aloqalar mazmunini aniqlashtirish;
- o‘quv predmeti mavzusining muayyan mazmunini hisobga olgan holda qo‘yilgan uslubiy masalani yechishning turli variantlarini tahlil qilish;
- integrativ aloqalar turli ko‘rinishlarini aniqlash;
- fanning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlab olingan aloqalarni amalga oshirishning optimal variantini tanlab olish.

Matematika tabiiy-ilmiy fan hisoblanib, boshqa fanlar bilan uzviy bog‘lanadi. Fanlararo bog‘lanishlarni to‘g‘ri amalga oshirish uchun o‘qituvchi har bir fan xususiyatlarini hisobga olishi juda muhimdir. Integratsiyalashgan darslar yosh avlodga tabiat va jamiyat haqidagi yaxlit tasavvurlarni shakllantirishga yordam beradi. Ta‘lim tizimini modernizatsiyalashda integratsiya masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta‘limning barcha bo‘g‘inlarida tobora faol qo‘llanilayotgan pedagogik integratsiyaning turli yo‘nalishi, tur va shakllari o‘quvchilarning ma‘naviy kuchi, qobiliyatlarini ochish uchun maqbul sharoit yaratib, ta‘lim tizimiga innovatsion yo‘nalishlar olib kiradi.

Integratsiya atamasi bir butunlik degan ma‘noni anglatadi, matematik fanlar integratsiyasi deganda fanlar mazmunining o‘zaro singishi va aloqalari nazarda tutiladi. Integratsiya muammosi fanning rivojlanishi bilan bog‘liq” [4, 92]. Bu esa matematikani o‘qitishda integrativ yondashuvlar asosida tashkil etish va boshqa fanlar doirasida ham qisman o‘zlashtirilgan bo‘lib ularni o‘zlashtirish o‘quvchilar uchun qiyinchilik tug‘dirmaydi va ularni bilim darajasini to‘ldirishga yordam beradi.

Respublikamiz pedagog olimi E.O.Turdiqulov integratsiyaga quyidagicha ta‘rif bergan: “Integratsiya-tarqoq, bo‘lak-bo‘lak ayrim-ayrim holdagi narsalarni bir butun, yaxlit, tizimlashgan holatga keltirish, tabiat haqidagi bir butun bilimlar majmuasi, turli fanlarga oid bilimlarni yagona maqsadni hal etishga yo‘naltirishdir. U olamning yaxlitligi (bir butunligi)ni ifodalaydi”.

Matematik fanlar integratsiyasi, xususan, ularning tarkibi bir-biriga o‘tishi va o‘zaro aloqasini anglatadi. Maktab matematika fanlari integratsiyasiga oid muammolarning tahlili, asosan, ichki va fanlararo aloqalarni amalga oshirish (I.D.Zverov, V.Maksimova, V.N.Fedorova, V.A.Gusev, V.A.Dalinger, V.M.Monaxov, N.F.Borisenko, T.R.Tulaganov, A.L.Musurmanov, A.D.Salomov va boshqalar) integrativ kurslar ishlanmasini yaratish (V.F.Butuzov, Y.M.Kolyagin, G.L.Lukankin va boshqalar) amaliy yo‘nalishni kuchaytirish (N.R.G‘aybullayev, N.O.Eshpulatov va boshqalar.), matematik ta‘limda izchillikni ta‘minlash (Yu.M.Kolyagin, L.Y.Nesterova, N.O.Alimov va boshqalar) kabi uslubiy matematik yunalishlar doirasida amalga oshirilgan. Demak, umumta‘lim maktablarida matematika fanini integrativ yondashuvlar asosida o‘qitish orqali o‘quvchilarning matematik dunyoqarashini kengaytirish, ularning o‘z salohiyatini namoyon eta olishiga erishamiz. Zero, integratsiya yetarlicha namoyon bo‘la olgan, turi xarakterli mazmunning singdirilishi natijasiga yangi sifatli holatga o‘tishda asosiy omil bo‘lib yuzaga chiqqan oluvchi faktor hisoblanadi. “Integratsiya-chuqur noan‘anaviy ta‘lim bilan tavsiflana oluvchi, turfa xarakterdagi katta hajmli o‘quv materialining uyg‘unlashuvini o‘zida namoyon etadi” [2, 108].

Muhokamalar va natijalar. Integratsiya - ayrim bo‘laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo‘shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir. “Integratsiya tushunchasi XVIII asrdayoq ingliz filosofi va sotsiologi Gerbert Spenser tomonidan izohlangan edi” [3, 67]. Integrativ ta’limni yo‘lga qo‘yishdan oldin uning tasnifi - integrativ ta’limning sinflarga bo‘linishi (klassifikatsiya) borasida ma’lum tushuncha hosil qilish lozim bo‘ladi. Umumta’lim maktablarida matematika darslarini integratsiyalashgan usulda tashkil etayotgan o‘qituvchi umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilarining yoshi, aqliy rivojlanish darajasi va, albatta, qiziqishlari doirasiga mos tarzda vosita va usullar tanlaydi

Integratsiyalashgan dars - bunday dars usuli fanlararo aloqani bog‘lash, qo‘llash maqsadida o‘tkazilib, umumiy bilimdonlik darajasini aniqlash. Shunday ekan, matematikani o‘qitishda integratsion yondashuvlar metodologiyasini yaratib, matematika darslarida foydalanilsa o‘quvchilar matematika fani bilan boshqa fanlarning o‘zaro bog‘liqligini anglaydi va his qiladilar. Bu bilan esa biz o‘quvchilarga matematika fanini yanada chuqurroq o‘rgatishga zamin yaratamiz. Matematikani o‘qitishda integrativ metodlar uslubiy yondashuvda o‘quvchilar bilish va o‘rganish jarayoniga butunlay sho‘ng‘ib ketadilar, ular o‘zlari bilgan va o‘ylayotganlari xususida bahslashishlari ham mumkin. Matematikani o‘qitishda integrativ yondashuvlar asosida tashkil etish va o‘qitish mavzular boshqa fanlar doirasida ham qisman o‘zlashtirilgan bo‘lib, ularni o‘zlashtirish o‘quvchilar uchun qiyinchilik tug‘dirmaydi va ularning bilim darajasini to‘ldirishga yordam beradi. Integratsion dars odatdagi darslardan:

- aniqligi, ixchamligi, o‘quv materialining zich ko‘lami;
- darsning har bir bosqichida integratsiyalanayotgan o‘quv fanlarning har tomonlama mantiqiy uzviyligi;
- berilayotgan o‘quv ma’lumotlarning keng ko‘lamli axborotga egaligi bilan ajralib turadi.

Integratsiyalashgan darsda maqsadni bir necha fanlarning aloqadorligini inobatga olgan holda belgilash lozim bo‘ladi. Mashg‘ulotni olib boruvchi bir necha o‘quv fanlari o‘qituvchilarining darsdagi faoliyati, xatti-harakati muvofiqlashtirilishi shart. Integratsiyalashayotgan fanlarning bittasi asosiy deb olinishi darkor. Umumiy o‘rta maktab matematika darslarini integratsion-interfaol shaklda tashkil etishda, fizika va astronomiyadan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lib, shu turdagi o‘yinlar ko‘magida o‘qituvchi hamda o‘quvchining kreativligi oshadi. Shuningdek, dars jarayonida muayyan matematika dars topshirig‘ini bajarish jarayoniga oid elektron taqdimotlar, darsning integratsion qiyofasini ta’minlovchi: algebra, geometriya, fizika, kimyo, informatika va axborot texnologiyalari singari fanlararo bog‘liqlikka ishora qiluvchi turli videoroliklarni namoyish etish o‘rinlidir. Shunday qilib, integratsion ta’limning samarasi ta’lim shaklining to‘g‘ri, pedagogik asoslangan tarzda tanlash bilan keskin ravishda bog‘liq bo‘lib, bunda har uch turdagi: ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarning chuqur tahlili talab qilinadi. Fanlararo integratsiyani, shuningdek, sog‘lom muhit, o‘zaro hurmat va ijodiy hamkorlik hukm surgan pedagogik jamoadagina amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Integratsion darsning yutuqli jihatlari quyidagilardan iborat:

1. Bu turdagi mashg‘ulotlarda o‘quvchi olamni bir butun yaxlit holda tasavvur etishni boshlaydi.
2. O‘quvchi potentsiali rivojlanadi, tevarak-atrofni katta qiziqish bilan o‘rganishga kirishadi, hodisalar uning ongida mantiqiy, fikriy, sababli yechimni qidirib topishga unday boshlaydi. Natijada, muloqot qobiliyati, taqqoslash-qiyoslash, umumlashtirish va xulosa qilish qobiliyatlari taraqqiy eta boradi.

Demak, darslarni integratsion shaklda tashkil etish nafaqat darsning maroqli va sermazmun o‘tishini, balki o‘quvchilar dunyoqarashining har tomonlama rivojlanishini kafolatlaydi. Fanlararo, bog‘liqlik, fanlararo falsafiy masalalarni shaxsan his etmay turib, o‘quvchiga integratsion mashg‘ulotni taqdim etmaslik to‘g‘ri bo‘ladi, zero, anglanmagan integratsiya o‘quvchi ongidagi bilish jarayonini mavhum holatga, u orqali chalkash xulosalarga taqab qo‘yadi. Buning uchun matematika fanlarini o‘zlashtirishda fanlararo bog‘liqliklarni chuqur tahlil qilib, ularning uzviyligi hamda uzluksizligini ta’minlash maqsadga muvofiqdir. Bu odatda fanlararo bog‘lanish orqali amalga oshiriladi. Bunda ta’lim oluvchilar yosh xususiyatga mos keladigan ta’lim mazmunini tanlash, tanlangan ta’lim mazmunini uzviylik tamoyiliga asosan joylashtirish va uni pedagogik jihatdan asoslash muhim ahamiyatga ega. Umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich sinflarida matematika fanini o‘qitish boshlanadi. Yuqori sinflarda matematika negizidan bir nechta fanlarni ajratilib, o‘qitiladi. Jumladan, algebra va geometriya kabi fanlar. Bu fanlardan matematika fanlarining uzviyligi, uzluksizligini ta’minlash masalasiga quyidagicha yondashish mumkin:

- o‘quvchi shaxsining yosh psixologik xususiyatlarining inobatga olinishi;
- darslikdagi mavzular mazmunidagi matn, rasm, chizma, jadvallar, qo‘shimcha xaritalarning uzviyligi;
- mavzular bayonida o‘quvchilar doirasi, tahsil olish sharoiti va qobiliyatlarining e’tiborga olinishi;
- darslikdagi mavzular mazmunini yorituvchi bilimlarning o‘quvchilarni faollikka undash darajasi;
- o‘quv predmeti mazmunining boshqa o‘quv predmetlari bilan uyg‘unlashuvi va mavzular ketma-ketligining ta’minlanganligi;

- o‘quv fanlari bo‘yicha berilayotgan xaritalarning rang-barangligi va uzviyligi va o‘quv fanlarini o‘qitishda ko‘proq innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

Matematika o‘quv predmeti ta‘limi jarayonining mazmunli amalga oshirish va uning samarali bo‘lishini ta‘minlashda har bir pedagog sanab o‘tilgan ta‘lim mazmuni tarkibiy qismlarini mukammal bilishi va mashg‘ulot jarayonida ular orasidagi uzviylikka amal qilishi juda muhim. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, matematika mavzularini o‘quvchilar ongiga singdirishda o‘qituvchi ta‘lim mazmuni komponentlarini alohida-alohida qismlar sifatida emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi yaxlit bir tizim sifatida anglash tavsiya etiladi. Matematika o‘quv predmetida uzviylik nisbatan quyidagi turlarda amalga oshiriladi.

Birinchidan, ta‘lim turlari (masalan, fizika, tabiiy geografiya boshlang‘ich kursi, kimyo, astronomiya va boshqa aniq fanlar) orasidagi uzviylik.

Ikkinchidan, matematika fanini o‘qitishdagi mavzulararo va bo‘limlar orasidagi uzviylik.

Uchinchidan, fanlararo bog‘lanish orqali amalga oshiriladi.

Xususan, matematika fanini o‘qitishdagi uzviylikni ta‘minlashning ilmiy-pedagogik va psixologik asoslarini yangi tarixiy ijtimoiy sharoitdan kelib chiqqan holda yaratish masalasi o‘z yechimini kutib turgan dolzarb muammolardan biridir. Ana shunday kurslar asosida V-IX sinflar o‘quvchilariga integratsiyalashgan ta‘limning uzviyligi ta‘minlansa, o‘quvchilarda milliy ma‘naviyat shakllanadi. Natijada ta‘lim samaradorligi oshadi, o‘quvchilarning matematika, algebra va geometriya fanlariga bo‘lgan munosabati yanada ijobiy tomonga o‘zgaradi. Bundan kelib chiqqan holda, darslarni tushunarlilik, qiziqarlilik, muntazam va izchillik tamoyillariga asoslanib o‘tilgan har qanday dars ta‘limning negizini tashkil etar ekan, nazariyani amaliyot bilan bog‘lashda, o‘quvchini mustaqil fikrlash, izlanish, ijodga yo‘naltirish, tashabbuskorlik, ijodiy faolligini oshirishning bosh mezonidir. Hozirgi davr ta‘lim jarayoni darslarda innovatsion texnologiya va integrativ yondashuvlar metodologiyasini keng qo‘llash mas‘uliyatini talab qilmoqda. Bunday interfaol usullar o‘quvchilarni matematika darsi jarayonida va unga doimiy tayyorgarligini shakllantirish, o‘qishning doimiylikiga erishish, shu asnoda ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, jamoatchilik ruhiyatini muntazam his qilib turish va ijodkorlik tuyg‘usini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bunda ta‘limning an‘anaviy usullaridan farqli o‘laroq, dars jarayonida uning mavzusiga mos yangi ma‘lumotlarni kirita olish, ta‘lim mazmuni va ta‘sirchanligini oshirishga qaratilgan integrativ yondashuvlar metodologiyasi asosida o‘qitishning texnologik usullardan foydalaniladi. Matematika darslarini integrativ yondashuvlar asosida o‘qitish o‘qituvchiga yuksak pedagogik mahorat hamda ta‘lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Shuning uchun umumta‘lim maktablarida matematika darslarini malakali kasb egalarining ish tajribalaridan keng foydalanib dars o‘qitish bu o‘quvchilarning matematika darsiga bo‘lgan qiziqishini ortirish bilan birga ta‘limning sifat va samaradorligini oshiradi. O‘qituvchi alternativ, o‘quvchini faollikka chorlovchi savollar orqali o‘quv xonasida ijodkorlik, izlanuvchanlik, qiyoslash, o‘xshashlik va farqini topish singari xususiyatlarni rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. O‘quvchilarga matematik savollar berish bilan birgalikda o‘quvchilarda fikrlashga majbur qiluvchi savollar tuzish qobiliyatini ham shakllantirib boradi. Matematika fanlaridan yaratilayotgan elektron darsliklar o‘qituvchilarni pedagogik va axborot texnologiyalaridan hamda zamonaviy o‘quv adabiyotlari va vositalaridan ta‘lim jarayonida foydalanishlariga imkoniyat yaratadi. Tajribalardan ma‘lumki, inson eshitish orqali 15%, ko‘rish orqali 25%, eshitish bilan birga bir vaqtda ko‘rganida esa 65% axborotni qabul qiladi.

Xulosa qilib aytganda, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida matematika fanini integrativ yondashuv asosida o‘tilgan dars o‘quvchilarga ijobiy taassurotlar uyg‘otadi va ularda turli fanlardan olingan bilimlari ortasidagi tafovutlar, bog‘liqlarni bilib olishga qiziqish hosil qiladi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2017-yil. -36 bet.

2. Islomov X., Avliyoqulov A., Xurramov N. Matematik ta‘limda algebraik va geometrik metodlar integratsiyasi masalasini mavjudligi va uning yechimlari haqida//“PEDAGOGIK MAHORAT” nazariy va ilmiy-metodik jurnal. 2014-yil 3-soni. –Buxoro: “Poligraf nashr” nashriyoti. -116 bet.

3. Кукушин В.С., Болдырева-Вараксина А.В. Педагогика начального образования. -Москва: ИКЦ “Март”, 2005 год. -251 страница.

4. Shorustamova D.S. Boshlang‘ich ta‘lim darslarini integratsiyalashda pedagogik-psixologik yondashuv. Magistr akademik darajasini olish uchun yozigan dissertatsiya. –Toshkent, 2014-yil. -98 bet.

Baxriddin IZBASAROV Navoiy davlat pedagogika instituti professori, fizika-matematika fanlari nomzodi	Ixtiyor KAMOLOV Navoiy davlat pedagogika instituti professori, texnika fanlari nomzodi	Axat AXMEDOV Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi	Asqar ISMATOV Navoiy davlat pedagogika instituti magistri
---	---	---	---

MOLEKULAR FIZIKA FANIDAN TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Ushbu maqolada mualliflar tomonidan pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini mustaqil ta'lim mashg'ulotlari orqali rivojlantirish metodikasi takomillashtirilgan.

Kalit so'zlar: molekulyar fizika, fan dasturi, mustaqil bilim, o'lchov asboblari, laboratoriya xonalari, ichki energiya, issiqlik sig'imi, molyar issiqlik sig'im, Richard metodi, o'quv-metodik, energiya, qattiq jism, o'quv qo'llanma.

В данной статье авторами рассмотрено усовершенствование методики развития профессиональной компетентности будущих учителей педагогических вузов с учётом самостоятельных учебных занятий.

Ключевые слова: молекулярная физика, предметная программа, самостоятельные знания, измерительные приборы, лабораторные помещения, внутренняя энергия, теплоемкость, молярная теплоемкость, метод исследования, метод обучения, энергия, твердое тело, учебное пособие.

In this article, the authors consider the improvement of the methodology for the development of professional competence of future teachers of pedagogical universities, taking into account independent training sessions.

Key words: molecular physics, subject program, independent knowledge, measuring instruments, laboratory facilities, internal energy, heat capacity, molar heat capacity, research method, teaching method, energy, solid, textbook.

Kirish. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarining “Fizika va astronomiya” ta'lim yo'nalishi uchun tasdiqlangan o'quv rejasida, molekulyar fizika faniga umumiy 300 soat ajratilgan, shu jumladan 44 soat ma'ruzaga, 46 soat amaliy mashg'ulotga, 60 soat laboratoriya mashg'ulotlariga va mustaqil ta'lim uchun 150 soat. 2021-yildan boshlab ta'lim modul kredit tizimida olib borilmoqda. Molekulyar fizika fani uchun tuzilgan fan dasturida ko'rsatilgan mavzular uchun 10 kredit ajratilgan. Har bir kreditga 30 soat o'quv mashg'uloti ajratilgan va tasdiqlandi.

Asosiy qism. Professor-o'qituvchilar tomonidan auditoriyada o'tilgan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar qanchalik yuqori darajada o'tkazilmasin, talabalar bilimining sifati, ularning mustaqil ishlashlariga bevosita bog'liq.

Molekulyar fizikadan talabalarining mustaqil ta'limining asosiy maqsadi: darslik, o'quv qo'llanma, ma'ruza matnlari, o'quv-uslubiy majmualar bilan ishlashga, laboratoriya mashg'ulotlarida esa o'lchov asboblari bilan talabalarni ishlashga o'rgatish orqali ularning bilimini kengaytirish hamda chuqurlashtirish, mustaqil bilim olish malaka va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Fizika va astronomiya kafedrası professor-o'qituvchilari tomonidan molekulyar fizika fanidan talabalar mustaqil ta'lim olishlari uchun quyidagi o'quv-metodik materiallar va adabiyotlar tayyorlangan.

1. Molekulyar fizikadan darslik [1].
2. Molekulyar fizika va termodinamika asoslari, o'quv qo'llanma [2].
3. Molekulyar fizikadan laboratoriya ishlari uchun o'quv qo'llanma [3].
4. Molekulyar fizika fanidan o'quv-uslubiy majmua [4].
5. Axborot-resurs markazida talabalar uchun yetarli darajada boshqa mualliflarning ham darslik o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlangan.
6. Laboratoriya xonalari va kabinetlar hozirgi zamon asbob va uskunalar bilan jihozlangan hamda dasturda ko'rsatilgan laboratoriya ishlarini bajarishga sharoit yaratilgan.
7. Shu fanga oid ko'rgazmali didaktik qurollar, tajriba ishlarini namoyish qilish uchun barcha sharoitlar qilingan va elektron materiallar dasturiy ishlanma, videofilmlar tayyorlangan.

Molekulyar fizika fanini: ichki energiya, termodinamika qonuni, ideal gazning issiqlik sig'imi moduli bo'yicha talabalar mustaqil ishlarini tashkil etish yo'li bilan tanishaylik.

Bu modulda ma’ruza mashg’ulotlariga 6 soat ajratilgan, ma’ruzachi tomonidan ichki energiya,

$$U = \frac{m}{\mu} \frac{i}{2} RT \quad (1)$$

Termodinamikaning birinchi qonuni

$$dQ = dU + PdV \quad (2)$$

Issiqlik sig’imi

$$C = \frac{dQ}{dT} \quad (3)$$

$$C_{MV} = \frac{dQ}{\frac{m}{\mu} dt} \quad (4)$$

$$C = \frac{dQ}{M dT} \quad (5)$$

R.Mayer teglamasi

$$C_{MP} = C_{MV} + R \quad (6)$$

Issiqlik sig’imining klassik va kvant nazariyasi

$$C_{MV} = \frac{i}{2} R \quad (7)$$

$$C_{MV} = \frac{5}{2} R + R \left(\frac{h\nu}{kT} \right)^2 \frac{e^{\frac{h\nu}{kT}}}{\left(e^{\frac{h\nu}{kT}} - 1 \right)^2} \quad (8)$$

formulalari keltirilib chiqariladi va fizik ma’nosi tushuntiriladi, bu formulalarda U – ichki energiya R – universal gaz doimiysi, T – absolyut temperatura, dQ – issiqlik miqdori, P – gaz bosimi dV – gaz hajmi, C – issiqlik sig’imi, C_{MV} – hajm doimiy bo’lganda molekulyar issiqlik sig’im, M – gaz massasi, m – molyar massa, ν – tebranish chastotasi C_{MP} – bosim doimiy bo’lganda molyar issiqlik sig’imi.

Talabalar bu modul bo’yicha auditoriyada bilimlarini o’zlari mustaqil ravishda yuqorida keltirilgan darslik, o’quv qo’llanmalar va tegishli materiallar yordamida batafsil qayta tahlil qilib, o’rganib chiqishlari zarur. Bunda ideal gaz ichki energiyasining o’zgarishi va issiqlik jarayonlariga qo’llay bilishi, fizik ma’nosi va o’lchov birliklari to’g’risida kengroq hajmda konspekt tayyorlashlari kerak. Issiqlik jarayonlarida energiyaning saqlanish va aylanish qonunini o’rganib, hayotiy misollarda tushuntira bilishi, o’rganishi va tadbiiq etishi lozim.

Issiqlik sig’im, molyar issiqlik sig’im, solishtirma issiqlik sig’im, Robert Mayer tenglamasini fizik ma’nosi, o’lchov birliklari to’g’risida tushunchalarga ega bo’lishi va adabiyotlar ustida ishlab, bilimni kengaytirishi zarur.

Issiqlik sig’imining klassik va kvant nazariyasi yaratilishi tarixi, g’oyasi va ular asosida formulalarni keltirib chiqara bilishi, uning fizik ma’nosini bilishi kerak va batafsil konspektlab olishi kerak. Jami mustaqil ish uchun 6 soat ajratish kerak. Yuqorida bayon qilingan nazariy olgan bilimlarini amaliy mashg’ulotlarda, ya’ni eksperimental nazariy masalalar yechishni auditoriyada 6 soat hajmda o’qituvchi tomonidan ko’rsatiladi va tushuntiriladi. Talaba amaliy darslarda ko’rsatilgan masalalar yechishni o’zlari mustaqil shu mavzularga mos o’quv qo’llanmalardan masalalar yechishni bajaradi va tegishli topshiriqlarni yozib o’qituvchiga ko’rsatadi.

Muhokamalar va natijalar. Yuqorida ko’rsatilgan mavzularga mos laboratoriya mashg’ulotlari ham o’tkaziladi. Laboratoriya mashg’ulotlari o’qituvchi rahbarligida dars jarayonida ko’rsatilgan vaqtda laboratoriyada o’tkaziladi. Bunda gazlarning solishtirma issiqlik sig’imlari nisbatini aniqlash, qattiq jismlarning solishtirma issiqlik sig’imini aniqlash, Richard metodi bilan havo uchun Sr/SV nisbatni aniqlash.

Talabalar o’qituvchi rahbarligida bajarilgan laboratoriya ishlari natijalarini asboblarni ko’rsatishidan yozib olib, matematik hisoblab, olingan fizik kattaliklarning son qiymatini o’qituvchiga ko’rsatadi. Talaba barcha laboratoriya mashg’ulotlarini olingan natijalari bo’yicha jadvallarni to’ldirishi, grafiklarni chizishi, mustaqil ta’lim vazifalarini auditoriyadan tashqari individual bajaradi. Har bir laboratoriya mashg’ulotlarini bajargandan so’ng, xar bir ishga nazorat savollari keltirilgan. Barcha nazorat savollariga yuqorida keltirilgan darslik va o’quv qo’llanmalardan foydalanib mustaqil yozma javob yozib tayyorgarlik qiladi. Har bir laboratoriya bo’yicha tayyorlangan yozma hisoboti bo’yicha talaba professor-o’qituvchilar oldida himoya qiladi. Talaba mustaqil ta’limni tashkil etish va o’tkazishda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- amaliy mashg‘ulot bo‘yicha uy vazifalari uchun berilgan masalalarni mustaqil yechish;
 - laboratoriya ishlarini topshirishga tayyorgarlik ko‘rish va olingan natijalarga matematik ishlov berib, ish hisobotini tayyorlash;
 - laboratoriya ishi hisobotni himoya qilishda darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha mavzularga berilgan nazorat savollariga tayyorlanish;
 - mavzuning nazariy qismini o‘zlashtirishda zarur tarqatma va ko‘rgazmali materiallarni tayyorlash orqali fanni o‘zlashtirish;
 - fan dasturida berilgan asosiy adabiyotlar bilan ishlash orqali mavzuni yanada mustahkamlash;
 - fan dasturida berilgan qo‘shimcha adabiyotlardan foydalangan holda bilimlarni oshirish;
 - mustaqil o‘zlashtirish orqali mavzu matnini boyitish va qo‘shimcha konspekt kiritish;
 - alohida ijodiy yondashuv talab etilmagan mavzular asosida referatlar tayyorlash;
 - mustaqil ta‘lim dars jadvali asosida mavzular kesimida savol-javoblar o‘tkazish.
- Mustaqil ta‘limni tashkil etishda talaba bunda auditoriyada hamda mustaqil bajargan ishlari, mavzularni o‘zlashtirganiga qarab baholanadi.

Talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etish:

- talabalar mustaqil ishini tashkil qilishga tizimli yondashish;
- talabalar mustaqil ishining barcha bosqichlarini muvofiqlashtirish va uzviylashtirish;
- talabalar mustaqil ishini bajarilishi ustidan qat‘iy nazorat o‘rnatish;
- talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirib borish.

Xulosa qilib aytganda, molekulyar fizika faniga ajratilgan 300 soatning 50 %, ya‘ni 150 soati talabalar mustaqil ta‘lim olishga ajratilgan. Yuqorida keltirilgan har bir modulga nazariy amaliy laboratoriya mashg‘ulotlariga mos ravishda talabalar aniq bir tuzilgan jadval asosida mustaqil bajargan ishlarini, professor-o‘qituvchilarga kelib ko‘rsatish va himoya qilishi shart. Mana shunday izchillikda ta‘lim olib borilsa, talabalar bilimni sifat ko‘rsatkichi oshadi va ularning nazariy hamda eksperimental kompetentligi rivojlanadi.

Adabiyotlar

1. Djoyev M. Fizika o‘qitish metodikasi//O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: “ABU MATBUOT-KONSALT” nashriyoti, 2015.
2. Izbosarov B.F., Kamolov I.R. Molekulyar fizika va termodinamika asoslari. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: “Yurist-Media” nashriyoti, 2008.
3. Izbosarov B.F., Kamolov I.R. Molekulyar fizika//Darslik. –Toshkent: “Turon-Iqbol” nashriyoti, 2010.
4. Izbosarov B.F., Kamolov I.R. Umumiy fizikadan laboratoriya ishlari//O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: “Voriz” nashriyoti, 2007.
5. Izbosarov B.F., Kamolov I.R., Axmedov A.A., Bekpo‘latov U.R., Kamolova D.I. Molekulyar fizikadan laboratoriya ishlari//O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: “Iqtisod-Moliya” nashriyoti, 2021.
6. Axmedov A.A. va boshqalar. Fizika ta‘limini modernizatsiyalashda mustaqil ta‘limning o‘rni. “Pedagogik mahorat” 2013-yil, №2, 65-67 betlar.

Axror ESHEMIROV

Toshkent kimyo texnologiyalar instituti
Shahrisabz filiali o‘qituvchisi

FIZIKAGA OID MASALALARNI YECHISHDA MODELLASHTIRISH METODINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ushbu maqola ta’lim jarayonidagi fizik masalalardan muammoni qo‘yish va muammoli vaziyatni yaratish, yangi ma’lumotlarni yetkazish, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, bilimlarning teranligi va puxtaligini tekshirish, o‘quv materialni mustahkamlash, umumlashtirish va takrorlash, ijodiy qobiliyatlar, bilishning turli usullarini o‘rgatishni rivojlantirish uchun foydalaniladi. Maqolada o‘quv fizik masalalarni yechish bosqichlari va modellashtirish metodi o‘rtasidagi mos kelishlar, texnika oliy o‘quv yurtlari talabalariga fizikadan turli xil murakkablikdagi masalalarni yechishda modellashtirish ko‘nikmalari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: modellashtirish, o‘quv jarayoni, fizika, masala, bilim, ko‘nikma.

В данной статье речь идет о проблеме и проблемном решении физических задач в учебном процессе, передаче новой информации, формировании практических навыков и компетенций, изучении глубины и достоверности знаний, закреплении, обобщении и повторении. учебных материалов. В статье рассматривается взаимосвязь этапов решения физических задач и метода моделирования, навыков моделирования у студентов технических вузов при решении задач различной сложности по физике.

Ключевые слова: моделирование, учебный процесс, физика, проблема, знания, умение.

This article deals with the problem-solving and problem-solving of physical problems in the educational process, the transmission of new information, the formation of practical skills and competencies, the study of the depth and validity of knowledge, the consolidation, generalization and repetition of learning materials. The article discusses the relationship between the stages of solving physical problems and the method of modeling, modeling skills for students of technical universities in solving problems of different complexity in physics.

Key words: modeling, learning process, physics, problem, knowledge, skill.

Kirish. Ta’lim sohasidagi islohotlar o‘rganib chiqish va tahliliy xulosalariga ko‘ra, ta’lim-tarbiya metodlarining yangilanish jarayoni juda sekin borayotganligi ta’kidlash mumkin. Gap ta’lim texnologiyalari va ularning tub mohiyati haqida borar ekan, shuni aytish kerakki, o‘qitish va ta’lim berishning har qanday metod va metodikalariga muayyan o‘rganish obyekti xosdir. Demak, dars berish metod va metodikasini ishlab chiqishda o‘quv fanining o‘ziga xosligi va o‘quvchilarning yosh bo‘yicha toifasi hisobga olinishi shart.

Asosiy qism. Texnika oliy o‘quv yurtlari talabalarida fizikadan turli xil murakkablikdagi masalalarni yechishda modellashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish: nazariy, eksperimental, sifatli, miqdoriy, oddiy, murakkab, ijodiy, mavhum va aniq masalalarni yechish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Fizikadan o‘quv masalalariga birinchi ta’rif quyidagicha berilgan: “O‘quv amaliyotidagi fizikaga oid masalalar odatda unchalik katta bo‘lmagan muammo deb atalib, u fizikaning qonun va metodlariga asoslangan mantiqiy xulosalar, matematik harakatlar va tajribalar yordamida yechiladi.

Metodik va o‘quv adabiyotlarida masalalar odatda to‘g‘ri tanlangan mashqlar, ularning asosiy maqsadi fizik hodisalarni o‘rganish, tushunchalarni shakllantirish, o‘quvchilarning fizik tafakkurini rivojlantirish va ularda o‘z bilimlarini kundalik turmushda amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat” [3, 6].

Shunday ta’riflash orqali mualliflar o‘quv amaliyotida, metodik va o‘quv adabiyotlarida masalani tushunishni turlicha shaklda angladilar.

Fizika ta’limi masalasini vaziyat sifatida talqin qilinib, talabalardan fizika haqidagi bilimlarni o‘zlashtirishga, ularni amaliyotda qo‘llash va tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan fizikaviy qonun va metodlardan foydalanishga asoslangan aqliy va amaliy harakatlarni talab qilishini ta’kidlangan [1, 16].

“Fizik masala-axborot jarayonlari majmuasi, ularning o‘zgarishiga bo‘lgan ehtiyojni keltirib chiqaradigan noaniq yoki hatto qarama-qarshi munosabatlar yig‘indisidir” [2, 17].

Bunday ta’rif shuni ko‘rsatadiki, berilgan tizim obyekti fizik masala sifatida o‘ziga xos tarkibiy tuzilishga egadir. masalaning tarkibiy tuzilishi taqdim etilgan.

Shart - kirish ma’lumotlarining yig‘indisi bo‘lsa, talab - izlanishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar to‘plamini taqdim etadi.

Operatorning tarkibiy elementi orqali axborot jarayonlarining to‘liq bo‘lmagan tavsifidan eng to‘liq‘iga o‘tish jarayoni ya‘ni aniq bo‘lmagan obyektlar, hodisalar, jarayonlarga xos bo‘lgan qonuniyatlarni aniqlash bilan dastlabki ma‘lumotlarni o‘zgartirishning aniq belgilanmagan jarayoni amalga oshiriladi.

Xuddi shuningdek, shart, operator va talablarni masalalar tuzilishining elementlari sifatida aniqlanib, operator tomonidan “... uning talabini bajarish uchun masala sharti bilan bajarilishi kerak bo‘lgan harakatlar amallar tushuniladi [4, 9].

“Fizik masala - fizik hodisa, aniqrog‘i, ushbu hodisani tavsiflovchi ba‘zi ma‘lum va noma‘lum fizik kattaliklarga ega bo‘lgan og‘zaki modeli yoki hodisalar to‘plamidir. Fizik masalani yechish - noma‘lum bog‘liklarni, fizik kattaliklarni va boshqalarni topish demakdir” [8, 13].

Boshqa tomondan, fizik masala deganda o‘qitish, tarbiyani va rivojlantirish maqsadida maxsus ishlab chiqilgan mashqni bajarish tushuniladi.

Ta‘lim jarayonidagi fizik masalalardan muammoni qo‘yish va muammoli vaziyatni yaratish, yangi ma‘lumotlarni yetkazish, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, bilimlarning teranligi va puxtaligini tekshirish, o‘quv materialni mustahkamlash, umumlashtirish va takrorlash, ijodiy qobiliyatlar, bilishning turli usullarini o‘rgatishni rivojlantirish uchun foydalaniladi.

Qator mualliflar tomonidan masalani yechishning o‘qitish metodikasi bo‘yicha umumiy bir qator masalalarni yechish qoidalari [4, 11], masalalarni yechish jarayonining tuzilishi [5, 27], masalani yechish bosqichlari, masalalarni yechimini topishning umumlashtirilgan usullari o‘rganilgan.

Fizik masalaning yechimi murakkab dinamik tizim sifatida qarab chiqilgan. Bu tizimda o‘zgartiriladigan obyekt sifatida masala qaraladi. Uning talabini hal qilish va faoliyatning o‘zini egallash masala yechimining natijasi deb hisoblaydilar.

Kognitiv faoliyatni tahlil qilish asosida masalalarni yechishning umumlashtirilgan metodi belgilab berilgan bo‘lib, fizikadan masalalarni yechishda quyidagilarni:

- 1) obyektini tanlash;
- 2) obyekt holatini ajratib ko‘rsatish;
- 3) ta‘sirni (shartlar, jarayonlar)ni ajratib ko‘rsatish;
- 4) oqim holatini ajratib ko‘rsatish;
- 5) tenglamalar tizimini tuzish;
- 6) tenglamalar sistemasini yechish;
- 7) natija yechimini tahlil qilish kabi ketma ket harakatlarni o‘z ichiga oladi [6].

Masalani yechishning yaxlit jarayonini quyidagi: 1-bosqich - masalalarni tahlil qilish; 2-bosqich - masalaning sxematik yozuvi; 3-bosqich - masalaning yechimini topish; 4-bosqich - masalaning yechimini amalga oshirish; 5-bosqich - masalaning yechimini tekshirish; 6-bosqich - masalani tadqiq qilish; 7-bosqich - masalaning javobini shakllantirish; 8-bosqich - masalaning yechimini tahlil qilish kabilarga ajratilgan [7].

Keltirilgan masalani yechish jarayonining tuzilishi, taxminiydir, chunki masalaning haqiqiy yechimida bu bosqichlar odatda bir-biridan ajralib turmaydi, bir-biri bilan chambarchas bog‘liq va ba‘zida ularning tartibi o‘zgarishi mumkin xolos.

Masalalar yechishni o‘qitish metodikasiga oid ishlarning faqat kichik bir qismini tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatdiki, ularni yechish ketma-ketligi deyarli bir xil va modellashtirish usulining asosiy bosqichlari bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lishi mumkin (1-jadval).

Fizikaga oid o‘quv masalalari bosqichlarini modellashtirish metodiga mos kelishini namoyon bo‘lish

Asosiy bosqichlarning mos kelishi	
Fizika oid o‘quv masalalarning yechimi	Modellashtirish metodi
Masala mazmunini tahlil qilinishi: 1. Masala sharti bilan tanishish. 2. Obyekt, jarayon, hodisalarni ajratib olish. 3. Masala shartini qisqacha ifodalab olish. 4. Bajarilgan belgilash asosida masala mazmunini qayta ifodalash.	Masalani qo‘yilishi: 1. Modellashtirish maqsadini ifodalash. 2. Obyekt aslini ajratib ko‘rsatish va tahlil qilish. Asl obyekt modelini tanlash yoki yaratish.
Masalani yechish rejasini tuzish: 1. Obyektlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni ifodalovchi fizikaviy qonun-qoidalarni tanlab olish. 2. Noma‘lumlar va topilishi lozim bo‘lgan kattaliklar bilan bog‘liq tenglamalar tizimini tuzish.	Modelni tadqiq etish.
Yechimni matematikadan foydalanib tadqiq etish: 1. Tuzilgan tenglamalar tizimidan foydalanib	

hisoblash formulalarini keltirib chiqarish. 2. Javobning raqamlardagi ko‘rinishini toppish.	Tadqiqot modeli natijalarini tahlil qilish.
Masala yechimini tekshirib ko‘rish.	Modelni tadqiq etish natijasida hosil qilingan bilimlarni asl obyektga nisbatan talqin qilish.

Muhokamalar va natijalar. Shunday qilib, talabning amaliy mashg‘ulotlarda masalalarni yechishda, umumiy fizika kursini o‘rganishda bajaradigan harakatlari modellashtirish jarayonining harakatlari bilan bevosita bog‘liq deb qarash mumkin.

Turli xil murakkablikdagi fizika masalalari orasida yechish usuli bo‘yicha birlashtirilgan masalalar guruhi ajralib turadi.

Bunday masalalarga og‘zaki, hisoblash, grafik va eksperimental masalalar kiradi.

“Bu ko‘rinishdagi bo‘linish shartlidir, chunki ko‘p masalalarni yechishda uchun bir necha metodlardan foydalaniladi. Masalan, eksperimental masalani yechishda og‘zaki fikr yuritish, shuningdek, ko‘p hollarda hisoblashlar va grafikalar bilan ishlash talab qilinadi” [8, 10].

“Eksperimental masalalarga shunday fizik masalalar kiradiki, ularning tuzilishi va yechimi organik ravishda tajriba bilan bog‘liq” [3, 5].

Eksperimental masalalar, u yoki bu maqsadda eksperimentdan foydalaniladigan masalalardir deb ta’riflangan .

Berilgan fizik masalaning ta’rifidan, masalalarni eksperimental va nazariy masalalarga ajratish mumkin “agarda masalani yechish uchun o‘lchovlardan foydalanilsa, bunday masala eksperimental deb ataladi”.

“Tajriba va o‘lchovlarni amalga oshirmasdan yechib bo‘lmaydigan masalalarga eksperimental masalalar kiradi”. Ijodiy yondashuvni talab etadigan masalalargina eksperimental masalalar vazifasini bajarishi mumkin.

Shartli ravishda fizikaga oid ijodiy masalalarni ikkiga: “tadqiqotchilik” - nima uchun? degan savolga javob talab qiluvchi va “konstruktorlik” - buni qanday bajarish kerak? degan savolga javob talab qiladigan turlarga ajratilgan [9, 10].

Ushbu turdagi masalalarni yechishdagi faoliyatni quyidagi:

- muammoning ifodalash;
- muammoning nazariy yechimi;
- yechimning to‘g‘riligini tekshirish va agar talab etilsa moddiy jihatdan amalga oshirish yoki topilgan yechimni tajribada tekshirib ko‘rish kabi asosiy bosqichlarga ajratilgan.

“Eksperimental masala” tushunchasini tahlil qilish, uning yechishda eksperiment o‘tkazish zarur degan xulosaga kelishga imkon beradi.

Masala shartini tuzish bosqichida yoki uni yechishda foydalaniladigan ma’lumotlarni olish uchun eksperiment xizmat qilishi mumkin. U masalani yechishning usuli va nazariy jihatdan olingan yechimning tekshirish usuli sifatida ham xizmat qilishi mumkin.

Eksperimental masalalarni yechishda modellashtirish, aslida, eksperimental faoliyat vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. “Odatiy” eksperimentdan farqli o‘laroq “Ilmiy bilish, obyektiv qonuniyatlarni kashf etish va maxsus qurilma hamda asboblardan yordamida o‘rganilayotgan obyektga yoki jarayonga ta’sir ko‘rsatishdan iborat bo‘lgan faoliyat turi” eksperimentning maxsus shakli mavjud bo‘lib, u eksperimental tadqiqot vositasi sifatida mavjud moddiy modellardan foydalanish bilan tavsiflanadi. Modelli eksperimenti deb nomlangan bunday eksperimentda tadqiqot obyektini bilan emas, balki uning o‘rnini almashtiruvchi bilan tajriba o‘tkaziladi. Bunda, o‘rnini bosuvchi - obyekt va eksperimental qurilma o‘rganilayotgan modelda bir butunga birlashtiriladi. Modellardan foydalanish eksperimentining o‘ziga xosligi nafaqat amaliy harakat mavjudligida, balki maxsus modeli vaziyat - tabiatan tabiiy va sun’iy elementlaridan tashkil topgan eksperimental qurilmani yaratishda namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotchi, bunday qurilmani yaratib, undagi elementlar tartibini o‘zgartirib, ularni yangilariga almashtirib uning ishlashini o‘rganadi, ya’ni, unga o‘rganish obyektini, tuzilishini o‘zgartirish orqali ta’sir qiladi. Shunday qilib, eksperimental qurilmaning yaxlit funksiya ko‘rsatishi - o‘rganilayotgan bilish obyektini modellashtirish vositasi hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘quv fizik masalalarni yechish bosqichlari va modellashtirish metodi o‘rtasidagi mos kelishlar, texnika oliy o‘quv yurtlari talabalariga fizikadan turli xil murakkablikdagi masalalarni yechishda modellashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Антипин И.Г. Экспериментальные задачи по физике в 6-7 классах. Пособие для учителей. - М.: “Просвещение”, 1974. -126 с.
2. Беликов Б.С. Решение задач по физике: Общие методы: Учеб. пособие для студентов вузов. - М.: “Высш. шк.”, 1986. -256 с.
3. Каменецкий С.Е., Орехов В.П. Методика решения задач по физике в средней школе. -М.: “Просвещение”, 1971. -448 с.
4. Майер Р.В. Проблема формирования системы эмпирических знаний по физике: дис. д-ра пед. наук: 13.00.02/ Р.В. Майер. – СПб., 1999. 350 с.
5. Разумовский В.Г. Творческие задачи по физике в средней школе. -М.: “Просвещение”, 1966. - 156 с.
6. Усова А.В., Тулькибаева Н.Н. Практикум по решению физических задач: Учеб. пособие для студентов физ.-мат. фак. -М.: “Просвещение”, 1992. -209 с.
7. Фридман Л.М., Турецкий Е.Н. Как научиться решать задачи: Пособие для учащихся. – 2-е изд., перераб. и доп. -М.: “Просвещение”, 1984. -175 с.
8. Штофф В.А Моделирование и философия. -М.: “Наука”, 1966. -301 с.
9. Эсаулов А.Ф. Психология решения задач. -М.: Изд-во “Высшая школа”, 1972. -216 с.

Nazokat ABDULLAYEVA

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston
milliy universiteti stajyor-tadqiqotchisi

**“DISKRET TUZILMALAR” KURSINI KOMPYUTER INJINIRINGI
YO‘NALISHIDA ZAMONAVIY MUHANDISLAR TAYYORLASHDAGI O‘RNI
(O‘QITILADIGAN BOSHQA FANLAR BILAN INTEGRATSIYASI VA MAZMUNI)**

Maqolada kompyuter injiniringi yo‘nalishi bakalavrlarini tayyorlashda diskret tuzilmalar fanining o‘rni va ahamiyati to‘g‘risida fikr va mulohazalar yuritilgan. Shungdek, o‘quv rejadagi ayrim fanlarning mavzulari va diskret tuzilmalar mavzularining bo‘g‘liqligi tahlil qilingan. Diskret tuzilmalar faninig asosiy bo‘limlari mazmun mohiyati keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Matematik mantiq, kompyuter ilmlari (Computer Science), diskret tuzilmalar, matematik modellashtirish.

В статье рассмотрены вопросы о роли и значении дискретной математики в подготовке бакалавров направлении компьютерной инженеринг. Также, проанализирован взаимосвязь между некоторыми предметами учебной программы и дискретной структуры.

Ключевые слова: математическая логика, компьютерные науки, дискретные структуры, математическое моделирование.

The article deals with questions about the role and importance of discrete mathematics in the preparation of bachelors in the field of computer engineering. Also, the relationship between some subjects of the curriculum and discrete structure analyzed.

Keywords: discrete structures, mathematical logic, computer science, mathematical modeling.

Kirish. Diskret obyektlar asosan sonlar (butun, kasr sonlar) bilan amal bajarish orqali namoyon bo‘ladi. Rasmiy ravishda, Diskret matematika sifatida matematikaning hisoblanuvchi to‘plamlar bilan shug‘ullanadigan bo‘limi tavsiflanadi. Biroq, "Diskret matematika" atamasining aniq, umumiy qabul qilingan ta‘rifi yo‘q.

Diskret matematika va uzliksiz matematika matematikaning ikkita asosiy qirrasini deb tushuniladi. Bugungi kunga kelib ayrim texnika yo‘nalishlarida “Diskret matematika” fani mazmuni yanada kengaytirilib “Diskret tuzilmalar” deb yuritilmoqda. Diskret tuzilmalar barcha soha muhandislari uchun muhim vosita hisoblanadi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi diskret tuzilmalarning roliga urg‘u berish bilan birga uning fanlar orasida tutgan o‘rni va ahamiyatini, hamda fanlar aro bog‘lanishini ko‘rsatishdir.

Turli fanlar bilan matematika qanday bog‘langan bo‘lsa, diskret tuzilmalar kompyuter ilmlari bilan va ularning keskin rivojlana borayotgani bilan chambarchas bo‘liq. Ayniqsa kompyuterlarning misli ko‘rimagan rivojida ham diskret tizimlar hardware va softwareda muhim joy olib kelmoqda. Diskret tuzilmalarning rivoji o‘z navbatida boshqa fanlar bilan integratsiyalashihni kuchaytiradi. Shuning uchun, uning yordamida tabiiy fanlarda uchraydigan va turli muhandislik muammolarini hal qilish mumkin

Diskret tuzilmalar yordamida olingan ilmiy natijalar muhandis uchun eng foydali vositalardan biridir. Turli masalalarni kompyuterda yechishda algoritmlarni tushunish kabi muammolarini hal qilish va tahlil qilish uchun, dasturlash yoki dasturiy ta‘minot tizimini loyihalash, spetsifikatsiyalashda, mantiqiy yechimlarni yaratishda muhim rol uynaydi. Kompyuter ilmlari (Computer science)da diskret matematikani qo‘llash juda ko‘p uchraydi, ammo kompyuter injiniringi talabarlari ko‘pincha diskret matematikani sof matematik ilovalar kontekstida o‘rganadilar. Diskret matematika g‘oyalarini hisoblash masalalariga qanday qo‘llashni ular o‘zlari aniqlashlari kerak bo‘ladi. Aksariyat talabalar ushbu sohada katta muvaffaqiyatlarga erisha olmasliklari sababi ham shunda, chunki diskret matematika qonuniyatlari muhandislik sohasidagi eng muhim muammolariga matematikani qo‘llash vositasidir [1, 5b.].

Diskret tuzilmalar muhim materiallarni o‘z ichiga oladi. Bular to‘plam nazariyasi, topologiya, Tyuring mashinalari nazariyasi, matematik mantiq, graflar nazariyasi, kompyuter grafikasi nazariyasi, kombinatorika, ehtimollar nazariyasi va statistika, informatika. U matematik modellashtirishning uzliksiz modelga mos diskret modeli asosiy bosqichi hisoblanadi. Diskret tuzilmalar nazariyasidan olingan ma‘lumotlar nafaqat ma‘lumotlar tuzilmalari va algoritmlarida, balki kompyuter fanining boshqa barcha bo‘limlarida ham keng qo‘llaniladi. Diskret tuzilmalar kompyuter fanining asosiy yadrosidir. Shuning uchun zamonaviy muhandislikning turli sohalarida ishlaydigan mutahassislari diskret tuzilmalar bilan yaqin oshno bo‘lishlari zarur.

Diskret matematika kompyuter ilmlari va nazariy informatikaning nazariy va amaliy asosi hisoblanadi. Diskret matematikani o‘rganmasdan, biz kompyuter ilmlarini mazmunini tushunmaymiz. Diskret matematika ob’ektlarini diskret to‘plam ko‘rinishida ekanligi dasturlashtirish muammolarini aniq va ravshan ifodalash imkoniyatini beradi. Shu sababli, Kompyuter injiniringi yo‘nalishida tahsil o‘luvchi bakalavrlarga diskret matematika fanining ahamiyati beqiyosdir. Bakalavriat bosqichidagi talabalarning ilmiy-texnikaviy dunyoqarashini shakllantirish, zamonaviy texnika vositalari bilan tanishtirish hamda undan foydalanishga zamin yaratish uchun ularga matematik fanlarni o‘rgatish talab qilinadi. Jumladan, diskret matematika fanini o‘qitish bugungi kun talabiga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashda muhim hisoblanadi.

Diskret matematika fani matematik va tabiiy-ilmiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, mazkur fan “Hisoblash matematikasi”, “Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika”, “Matematik modellashtirish”, “Sxemotexnika”, “Raqamli qurilmalarning matematik va mantiqiy asoslari”, “Axborot xavfsizligi”, “Mobil aloqa tizimlari” kabi fanlarning nazariy va uslubiy asosini tashkil qilib, o‘z rivojida ushbu fanlar uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda diskret matematika fanini oliy ta‘lim muassasalari hamda o‘rta maxsus talim tizimida oqitilishi muammolari, uslubiyoti va ahamiyatli jihatlari ilmiy-nazariy hamda uslubiy jihatdan tadqiq etilgan.

[1] ish komputer yordamida diskret matematikani o‘qitishga [2] ish esa komputer engineering kursining o‘quv rejasi va dasturiga, C. Ribinning [3] ishi esa muhandislik mutaxassislari uchun diskret matematikani o‘qitishga bag‘ishlangan.

Rossiyalik olimlar A.S. Alfimovning “Tabiiy-matematik fanlarga ixtisoslashgan yuqori sinflarda “Diskret matematika elementlari” tanlov kursini o‘qitish ixtisoslikka kirish vositasi sifatida”, O.I. Melnikovning “Diskret matematikani o‘qitishning zamonaviy aspektlari”, S.V. Rybinning “Muhandislik mutaxassisliklari talabalariga diskret matematikani o‘qitish”, V.P. Karelinning “Iqtisodiyot va boshqaruvda kombinator optimizatsiya modellari va usullari” sarlavhali ilmiy maqolalarida tadqiq etilgan.

X.T. To‘rayevning “Diskret matematika va matematik mantiq” darsligi, N.X. Kasimov, R.N. Dadajanov F.N. Ibragimovlarning “Diskret matematika va matematik mantiq asoslari” o‘quv qo‘llanmasi, S.S. Sadaddinova, Yu.M. Abduraxmanova, F.S. Raximovalarning “Diskret matematika” o‘quv qo‘llanmasi diskret matematikani u‘qitish uslubiyatiga bag‘ishlangan bu‘lsa, E. Urunbayev, P. Karimov va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlarida diskret matematikaning turli muammolari tadqiq qilingan.

Asosiy qism.

Kompyuter injiniringi akademik soha sifatida elektrotexnika yoki elektronika muhandisligi va kompyuter ilmlari (computer science)ning keng yo‘nalishlarini qamrab oladi. Kompyuter injiniringi (KI)yo‘nalishi - zamonaviy hisoblash tizimlari, kompyuter yordamida boshqariladigan uskunalar va aqlli qurilmalar tarmoqlarining dasturiy va apparat qismlarini loyihalash, qurish, joriy etish va texnik xizmat ko‘rsatish fan va texnologiyasini o‘zida mujassamlashtirgan holda hisoblash tizimlari va elektrotexnikani birlashtiradigan yo‘nalish hisoblanadi. Ushbu yo‘nalish, talabalarni kompyuter tizimlarini loyihalashdan tortib, ularni ishlab chiqish bilan shug‘ullanadigan darajaga qadar tayyorlaydi.

Kompyuter injiniringi bo‘yicha o‘quv dasturlari bo‘yicha qo‘shma ishchi guruhining Hisoblash mashinalari assotsiatsiyasi (ACM) va IEEE Kompyuter jamiyati bo‘yicha 2016 yilgi hisobotida “...diskret tuzilmalar bo‘yicha bir yoki bir nechta kurslar kompyuter injiniringi yo‘nalishidagi barcha talabalar uchun muhimdir - boshqaruv qo‘mitasi uni kompyuter injiniringining muhim tarkibiy qismi deb hisoblaydi” deb takidlab o‘tilgan [2, 55b.]

Diskret tuzilmalar kursini kompyuter injiniringi yo‘nalishida o‘qitilishi ahamiyati va o‘rni asosan uchta omil bilan belgilanadi:

1) diskret matematikaning konstruktiv qismi "Informatika" fani predmet sohasining metodologik bazasini tashkil etadi, ya'ni informatikaning matematik asosi hisoblanadi;

2) diskret matematikaning modellari va usullari fizik tabiatidan qat'i nazar iqtisodiy, biologik, kimyoviy, genetik tizimlarning katta sinfini tadqiq qilishda qo‘llaniladi. Jumladan sun'iy intellekt tizimlarida (semantik tarmoqlar, freym modellari, deklarativ bilimlar, protsedurali bilimlar, relyatsion graflar, tavsiflovchi modellar va boshqalar) ma'lumotlar va bilimlarni namoyish etish uchun diskret modellardan foydalaniladi;

3) diskret matematikaning tili nihoyatda tushunarli hamda qulaydir, va u kompyuter ilmlari tushunchalarini tavsiflash vositasiga aylangan.

Shu o‘rinda kompyuter injiniringi yo‘nalishidagi talabalar uchun Diskret tuzilmalar fani o‘quv dasturida keltirilgan ma‘ruza mashg‘ulotlarining tavsiya etiladigan mavzulari va bo‘limlarini keltirib o‘tamiz:

- To‘plamlar nazariyasi (To‘plamlar. Qism to‘plamlar. To‘plamlar ustida amallar. Munosabatlar. Binar munosabatlar va ularning matrisasi. Munosabatlar turlari. ekvivalent munosabatlar. Akslantirishlar va funksiyalar. In'ektiv, syur'ektiv, biektiv funksiyalar);

- Kombinatorika (Kombinatorikaning asosiy qoidalari. Takroriy bo‘lmagan o‘rinlashtirish, o‘rin almashtirish va guruhlashlar. Takroriy o‘rinlashtirish, o‘rin almashtirish va guruhlashlar);

- Bul algebrasi. (Mulohaza tushunchasi. Mulohazalar ustida ikkilik mantiqiy amallar. Bul funksiyalari. Bul ayniyatlari. Formulalarning teng kuchliligi. Bul funksiyalari. Bul ayniyatlari. Formulalarning teng kuchliligi. Aynan chin, aynan yolg‘on, bajariluvchi formulalar. Funksiyalarni formula ko‘rinishda ifodalash. Formulalarning chinlik to‘plami. Teng kuchlimas formulalar soni. Bul funksiyalarini berilish usullari. Bul funksiyalari soni. Bul funksiyalarinig normal shakllari (DNSh, KNSh, MDNSh, MKNSh). Bul funksiyalarining xossalari. Funksiyalar sistemasining to‘liqligi va yopiqligi. Post teoremasi va uning natijalari. Predikatlar ustida mantiqiy amallar. Umumiylik va mavjudlik kvantorlari. Ikkilik mantiqiy elementlarining qo‘llanilishi. Mulohazalar algebrasi formulasini minimallashtirish muammosi);

- Graflar nazariyasi. (Graflarning ba'zi turlari Grafning berilish usullari. Qo‘shnilik va insidentlik matrisalari. Graflarning izomorfligi. Yo‘l, zanjir, sikl. Eyler va Gamil'ton graflari. Planar graflar. Tekis graflar haqida Eyler formulasi. Gomeomorfizm. Pontryagin-Kuratovskiy teoremasi. Graflarni bo‘yash. Grafning xromatik soni. Kyonig teoremasi. O‘rmon. Daraxtlar. Daraxtlarning xossalari. Ostov daraxti. Minimal ostov daraxti. Ildiz daraxt. Yo‘naltirilgan graf. Yo‘naltirilgan graf uchun qo‘shnilik matrisasi. Yo‘naltirilgan graflarda marshrut, zanjir, sikl. Eng qisqa yo‘l topish algoritmlari).

Tahlil va natijalar.

Ushbu maqolada biz kompyuter ilmlarini o‘rganish uchun zarur bo‘lgan diskret tuzilmalarning asosiy postulatlarini ko‘rib chiqamiz.

Kompyuter injiniringi yo‘nalishida tahsil oluvchi bakalavrlar o‘quv rejasiga kiritilgan ko‘pchilik asosiy blok fanlari mavzulari diskret tuzilmalarning asosiy tushunchalari va mantiq qonunlari bilan uzviy bog‘liqdir. Quyidagi jadvalda kompyuter injiniringi yo‘nalishi o‘quv rejasidagi ayrim fanlarning mavzulari va diskret tuzilmalar fani mavzularning bo‘g‘liqligini tahlil qildik (1-jadval).

1-jadval. Kompyuter injiniringi yo‘nalishi o‘quv rejasiga kiritilgan asosiy blok fanlari mavzulari va bu mavzularni o‘zlashtirish uchun lozim bo‘lgan diskret matematikaning asosiy tushunchalari

Blo k	Kod	Fan nomi	Diskret tuzilmalarga bo‘g‘liq bo‘lgan mavzular ro‘yxati	Mos mavzularni o‘zlashtirish uchun lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar
3	CAO1316	Kompyuter ni tashkil etish	Kompyuterlarni raqamli-mantiqiy tashkil etish. Ventillar va Bul algebrasi.	Mulohazalar ustida ikkilik mantiqiy amallar. Bul funksiyalari.
			Asosiy raqamli-mantiqiy sxemalar. Integral, kombinatsion va arifmetik sxemalar.	Ikkilik mantiqiy elementlar. Ikkilik mantiqiy elementlarining qo‘llanilishi. Mantiqiy sxemalarda analiz va sintez masalalari
			Xotira elementlarining mantiqiy strukturasi.	Bul algebrasi. Mantiqiy sxemalarda analiz va sintez masalalari
			Processorlarni tuzilishi (tashkil etuvchilari). Kompyuter shinalari tashkil etuvchilari.	Mantiqiy sxemalarda analiz va sintez masalalari
			Xotira modeli. Registrlar. Buyruqlar.	Mantiqiy sxemalarda analiz va sintez masalalari
3	SWD1316	Ma'lumotlar tuzilmasi va algoritmlar	Ma'lumotlarning daraxt tuzilmalari ta'riflari va xususiyatlar.	Daraxtlarning xossalari. Daraxtlar haqidagi teoremlar.
			Binar daraxtlar. Binar daraxtni qurish.	Ostov daraxti. Grafning siklomatik soni. Minimal ostov daraxti. Ildiz daraxt.
			Ma'lumotlarning tarmoqli tuzilmalari. Graf tushunchasi va uning ko‘rinishlari.	Graflar nazariyasining asosiy tushunchalari. Uch, qirra tushunchalari. Oddiy graf. Multigraf. Psevdograf. To‘la graf.
			Graflarni tasvirlash usullari	Grafning berilish usullari. Qo‘shnilik

				va insidentlik matrisalari. Graflarning izomorfligi
			Grafda eng qisqa yo‘lni aniqlash algoritmlari	Eng qisqa yul topish algoritmlari. Qidiruv algoritmlar. Eng qisqa yo‘lni topish. Deykstra algoritmi. Ford algoritmi. Floyd algoritmi
4	DIG1416	Raqamli qurilmalarni loyihalashga kirish	Raqamli qurilmalarni arifmetik asosi va integral mikrosxemalar	Bul algebrasi. Ikkilik mantiqiy elementlar. Ikkilik mantiqiy elementlarining qo‘llanilishi. Mantiqiy sxemalarda analiz va sintez masalalari
			Mantiqiy funksiya va Bul algebrasini asosiy qonunlari. Mantiqiy elementlar	Bul funksiyalari. Bul ayniyatlari. Formulalarning teng kuchliligi.
			Kombinatsion HAM, YOKI HAM-EMAS, YOKI-EMAS ISTISNO-YOKI mantiqiy elementini o‘rganish va loyihalashtirish	Bul algebrasi. Mulohaza tushunchasi. Sodda va murakkab mulohazalar. Mulohaza o‘zgaruvchilari. Asosiy mantiqiy bog‘liqliklar. Kon'yunksiya, diz'yunksiya, inkor, implikasiya, ekvivalentlik amallari
			Kombinatsion mantiqiy qurilmalar. Shifrorlar va deshifrorlar	Bul algebrasi. Bul funksiyalari. Bul ayniyatlari. Formulalarning teng kuchliligi. Ikkilik mantiqiy elementlar. Ikkilik mantiqiy elementlarining qo‘llanilishi.
			Multipleksor va demultipleksorlar	Mantiqiy sxemalarda analiz va sintez masalalari. Funksiyalar sistemasining to‘liqligi va yopiqligi. Post teoremasi va uning natijalari. Rele kontakt sxemalari. Sxemalarni soddalashtirish. Mantiqiy to‘rlar. Mantiq to‘rlarini minimallashtirish. Ikkilik mantiqiy amallariga mos sxemalar tuzish. Karno kartalari
			Ketma-ket mantiqiy qurilmalar	
			Trigger va ularning turlari. Mantiqiy elementlardan foydalanib R-S triggerini, J-K triggerini, D- triggerini loyihalashtirish va ish tartibini tadqiqot qilish.	
			Hisoblagich va ularning turlari. Yarim jamlovchi va jamlovchi qurilmalarni loyihalashtirish va ish tartibini o‘rganish	
			Registrlar va uning asosiy vazifalari	
Arifmetik va dasturlanuvchi mantiqiy qurilmalar				

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki diskret tuzilmalar ko‘pchilik fanlarning nazariy va uslubiy asosini tashkil qiladi. Bu jadvalni “Sun‘iy intellekt”, “Elektronika va sxemalar” kabi bir qator fanlar uchun davom ettirish mumkin. Biz yuqoridagi uchta fan bilan cheklanish barobarida diskret tuzilmalarning ayrim bo‘limlarini ilm fan sohasida keng qo‘llanishining ustivor jihatlari aytib o‘tishni lozim deb topdik.

Diskret tuzilmalar fani elementlarini qo‘llanishi:

To‘plamlar nazariyasi.

To‘plamlar nazariyasi – matematikaning {ko‘k, oq va qizil} kabi obyektlar to‘plami yoki barcha tub sonlarning (cheksiz) jamlanmasi bo‘lgan to‘plamlarni o‘rganadigan bo‘limidir. Qisman tartiblangan to‘plamlar va boshqa munosabatlarga ega bo‘lgan to‘plamlar bir nechta sohalarda qo‘llaniladi.

Diskret tuzilmalarda asosan sanoqli to‘plamlar (shu jumladan chekli to‘plamlar)ga e’tibor qaratiladi. To‘plamlar nazariyasining matematikaning bir bo‘limi sifatida taraqqiy etishi Georg Kantorning trigonometrik qatorlarni o‘rganishga asoslangan cheksiz to‘plamlarning turli xil turlarini ajratish bo‘yicha ishi bilan belgilanadi. Cheksiz to‘plamlar nazariyasining keyingi rivojlantirishi diskret matematikaning o‘rganish sohasiga kirmaydi, tavsiflovchi to‘plamlar nazariyasidagi zamonaviy ishlanmalar an’anaviy, uzluksiz matematikadan keng o‘rganiladi.

Kombinatorika.

Kombinatorika - diskret tuzilmalarning ma’lum bir to’plam elementlarini berilgan qoidalar va cheklolarga muvofiq tanlash va joylashtirish masalalarini echishga qaratilgan bo’limi hisoblanadi. Kombinatorikaning har bir qoidasi qandaydir kombinator konfiguratsiyani qurish usulini belgilaydi, shuning uchun kombinator tahlil (kombinatorika) kombinatsion konfiguratsiyalarning xususiyatlarini, ularning mavjudligi shartlarini, ushbu algoritmlarni qurish va optimallashtirish algoritmlarini o’rganadi.

Kombinatorika diskret tuzilmalarning boshqa bir qator bo’limlari bilan chambarchas bog’liq: mulohazalar algebrasi, graflar nazariyasi va boshqalar.

Matematik mantiq va Bul algebrasi.

Matematik mantiq usullari va zamonaviy kompyuterlar o’rtasidagi yaqin aloqani quyidagi ikki yo’nalishda kuzatish mumkin. Birinchidan, matematik mantiqdan kompyuterlarni fizik loyihalash va yaratishda foydalaniladi (mulohazalar algebrasi va mantiqiy funksiyalar kompyuterlarning element bazasini tashkil etuvchi kommutatsiya va funksional sxemalarni loyihalash uchun matematik apparatdir).


Ikkinchidan, zamonaviy kompyuterlarning dasturiy ta’minotida matematik mantiqdan keng foydalaniladi. Ko’pgina dasturlash tillari algoritmlar nazariyasiga, rasmiy tizimlar nazariyasiga va predikatlar mantiqiga asoslanadi.

Mantiqiy (Prolog tili) va funksional dasturlash (Haskell tili) kabi dasturlash paradigmalari mantiqiy nazariyalarni qo’llashga asoslangan: mos ravishda avtomatik teoremani isbotlash va lambda hisobi.

Bundan tashqari, mantiq va kompyuterlarning sintezi bilim bazalari va ekspert tizimlarining paydo bo’lishiga olib keldi, bu sun’iy intellektni yaratish yo’lidagi eng muhim qadam bo’ldi - inson onginging mashina modeli [4, 40b.].

O’zining kashfiyotchisi nomi bilan atalgan Boolean algebra mantiqni hisob deb hisoblaydigan birinchi tizim bo’ldi. Shuning uchun mantiqiy algebrani matematik mantiqning peshqadami deb hisoblash mumkin. Mantiqiy algebra standart arifmetikaga o’xshaydi - ikkita qiymat: 0 va 1 (yolg’on va chin) va ikkita amal: ko’paytirish va qo’shish (konyunksiya va dis’yunksiya). Bul mantiqni matematikaning bir tarmog’i deb hisoblamadi, balki algebraning ramziy usuli bilan mantiqiy shakllar va sillogizmlarni ifodalashning ramziy usuli o’rtasida chuqur o’xshashlik topdi [4, 35b.].

Bul algebrasi – diskret tuzilmalar fanining asosli mulohaza qilish va xulosa chiqarish, shuningdek, izchillik, asoslilik va to’liqlik tamoyillarini o’rganadigan bo’limidir. Masalan, mantiqning aksariyat tizimlarida (intuitsion mantiqdan tashqari) Pirs qonuni $((P \rightarrow Q) \rightarrow P) \rightarrow P$ teorema hisoblanadi. Matematik mantiqda buni chinlik jadvali yordamida tekshirish oson. Matematik isbotni o’rganish mantiqda muhim ahamiyatga ega va Teoremlarni isbotini avtomatlashtirish uchun, shuningdek dasturiy ta’minotni formal tekshirish uchun ilovalarga ega bo’lish imkonini beradi. Bundan tashqari, ikkilik mantiqiy elementlar va ularning qo’llanilishi, mantiqiy sxemalarda analiz va sintez masalalari, dasturlanuvchi mantiqiy integral sxemalar va kombinatsion mantiqiy qurilmalarni loyihalashda asos bo’lib xizmat qiladi. Misol sifatida sinxron RS trigger sxemasi va ishlash prinsipini ifodalovchi chinlik jadvalini olish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Sinxron RS trigger mantiqiy sxemasi va chinlik jadvali

Daraxt-graflar.

Daraxtlar - ma’lumotlar orasidagi ayrim shajaraviy bog’lanishlarni ifodalash uchun qo’llaniladi.

Diskret matematika fani talabalarida mantiqiy va algoritmik fikrlashni, matematik ko’rinishda formallashtirilgan masalalarni o’zlashtira olishni, matematik ko’rinishda formallashtirilgan masalalarni

yecha olishni, olingan yechimlarni tahlil etishni, diskret tuzilmalar va uning tatbiqlari bo'yicha o'quv adabiyotlarini mustaqil o'rganishni, diskret matematikaga doir asosiy tushunchalarning mutaxassislik fanlari bilan bog'liqligini o'rgatish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantiradi. Diskret matematika va informatika usullarining uyg'unligi ko'plab iqtisodiy, texnik, texnologik jarayonlarni tahlil qilish, tadqiq qilish va modellashtirishga imkon beradi. Bundan kelib chiqadiki, ilm fan sohasining barcha yo'nalishlarida mantiqiy qonunlar keng qo'llanishi uning ahamiyatini oshiradi.

Diskret tuzilmani o'rganish orqali dasturlarning to'g'riligini isbotlash g'oyasini ko'rib chiqishdan oldin tadqiqotchi va talabalar isbotlash usullari bilan tanishadilar. Ular ba'zi elementar sxemalarni o'rganishdan va qarorlarni boshqarish tuzilmalari va mantiqiy o'zgaruvchilarni o'rganishdan oldin taklif mantiqi va mulohazalar algebrasini o'rganadilar.

Talabalar dasturlashni va o'zgaruvchilarni o'rganishni boshlaganlarida predikatlar mantiqi bilan tanishadilar. Sikllar va ichki o'rnatilgan sikllarni tahlil qilishni boshlashdan oldin funksiya o'sishi va katta O yig'indisi haqida bilib oladilar va iterativ konstruksiyalarni o'rganishni boshlagan paytdan boshlab algoritmi tahlil qilishni boshlash uchun vositalarga ega bo'ladilar. Raqamlar nazariyasiga kirish bilan birgalikda ular butun son algoritmlari to'plamini o'z ichiga olgan laboratoriya va dasturlash mashqlarini bajaradilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Diskret tizimlar fanini o'rganish, "Kompyuter injiniringi" yo'nalishida tahsil olayotgan bakalavrlarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo'lishiga qaramay, fan uchun o'quv dasturida ajratilgan soatlar nisbatan oz. Shu bilan bir qatorda talabalardan ijodkorlikni talab qiladigan va rivojlantiradigan ikkilik mantiqiy elementlar va ularning qo'llanilishi, mantiqiy sxemalarda analiz va sintez masalalari, dasturlanuvchi mantiqiy integral sxemalar va kombinatsion mantiqiy qurilmalarni loyihalashga asos bo'lib xizmat qiladigan mavzularni kiritish lozim deb hisoblaymiz. Shuning uchun, diskret matematikani o'qitish metodikasi dasturiga axborot texnologiyalarini so'nggi yutuqlariga asoslangan, an'anaviy usullar va texnologiyalar qo'llash bilan birga kompyuter simulyasiyasi va masofali ta'lim texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz. Bu esa talabalarning mustaqil fikrlashga va masalalarni ijodiy yondashuv asosida o'zlashtirish uchun omil bo'lib hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. O'Donnell.J., Hal C., Rex Page (2007) Discrete Mathematics Using a Computer : Springer Science & Business Media
2. Computer Engineering Curricula 2016 CE2016, Curriculum Guidelines for Undergraduate Degree Programs in Computer Engineering, A Report in the Computing Curricula Series, Joint Task Force on Computer Engineering Curricula, Association for Computing Machinery (ACM), IEEE Computer Society, 2016 December 15
3. С.В. Рыбин Преподавание дискретной математики студентам инженерных специальностей - Компьютерные инструменты в образовании, 2015 № 3: 39–44
4. В. М. Зюзьков. Математическая логика и теория алгоритмов : учебное пособие / — Томск : Эль Контент, 2015. — 236 с..

Laziz NEMATOV

Buxoro muhandislik – texnologiya instituti
energetika kafedrası stajyor-tadqiqotchisi

TEXNIKA YO‘NALISHIDAGI OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA “ELEKTROTEXNIKA VA ELEKTRONIKA” FANINI O‘QITISH MUAMMOLARI

Ushbu maqolada oliy ta‘lim muassasalarida “Elektrotexnika va elektronika” fanini innovatsion texnologiyalar asosida o‘qitishning zarurati, uning mavjud holati va muammolari to‘g‘risida fikr yuritiladi. Shuningdek, maqolada “Elektrotexnika va elektronika” fanini zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar asosida o‘qitish imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: ta‘lim, tarbiya, fan, integratsiya, modernizatsiya, rivojlanish, islohot, pedagogik texnologiya, multimedia, iqtisodiyot, energetika, elektronika, dastur, o‘quv jarayoni.

В данной статье рассматривается необходимость преподавания предмета “Электротехника и электроника” в высших учебных заведениях на основе инновационных технологий, его современное состояние и проблемы. Также в статье раскрываются возможности преподавания предмета “Электротехника и электроника” на основе современных технологий.

Ключевые слова: образование, обучение, наука, интеграция, модернизация, развитие, реформа, педагогические технологии, мультимедиа, экономика, энергетика, электроника, программное обеспечение, образовательный процесс.

This article discusses the need for teaching the subject “Electrical Engineering and Electronics” in higher education institutions on the basis of innovative technologies, its current state and problems. The article also reveals the possibilities of teaching the subject “Electrical Engineering and Electronics” on the basis of modern technologies.

Key words: education, training, science, integration, modernization, development, reform, pedagogical technology, multimedia, economics, energy, electronics, software, educational process.

Kirish. Mamlakatimizda fan, ta‘lim-tarbiya va ishlab chiqarish integratsiyasini ta‘minlash, oliy ta‘lim tizimini rivojlantirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta‘lim shakllari va mazmuni takomillashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar o‘quv jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Xususan, 2021-yil 20-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev elektr energetikasi tarmog‘ida investitsiya loyihalarini amalga oshirish va sohani rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazdi. Jamiyat taraqqiyotida muhim soha bo‘lgan elektr energetikasi iqtisodiyot rivoji, hayot sifatini ta‘minlaydigan asosiy manbalardan biri. Bu tarmoqda qator kamchiliklar mavjudligi belgilangan islohotlarni samarali amalga oshirish va mamlakatimizni innovatsion rivojlantirishga xalaqit qilayotgan edi. Aynan tarmoqdagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etishni shu sohada tahsil olayotgan kadrlar sifatini yaxshilashdan boshlash samarali natija beradi. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “mehnat bozori”ning zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, oliy ta‘lim tizimida fanlarni o‘qitishni zamonaviy tendensiyalar asosida tashkil etish masalasiga alohida etibor qaratilgan.

Asosiy qism. Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish jarayonida talabalarni o‘qitishga yangicha yondashish, o‘qituvchilarni o‘z kasbiga va ta‘lim oluvchilarga o‘ta talabchanlik bilan munosabatda bo‘lishini taqozo etadi. O‘quv materiallarini multimedia ko‘rinishida tayyorlash va laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarini kompyuter tarmoqlaridan foydalangan holda samarali tashkil etish mumkin. Kompyuter texnologiyalarining ta‘lim tizimiga keng joriy etilishi barcha turdagi o‘quv materiallarini qaytadan ko‘rib chiqishni talab etadi. Bu esa, biz pedagoglarga xorijiy davlatlar ta‘lim muassasalarining kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘qitish texnologiyalarini o‘rganishdek vazifalarni o‘rtaga tashlaydi. Axborot kommunikatsion texnologiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llash jahon amaliyotida keng qirrali bo‘lib, unga pedagogik, psixologik, didaktik, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa nuqtai nazarlaridan yondashish lozim. Dars jarayoni murakkab ijodiy mashg‘ulotdir. Uning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘quvchilarning faolligiga bog‘liq. Ularni faollashtirish uchun axborot texnologiyalari, o‘yin, bahs, suhbat, musobaqa, sayohat, konferensiya, davra suhbat, rolli o‘yinlarni qo‘llash, kitob bilan ishlash, kompyuter mashg‘ulotlariga ko‘proq vaqt ajratish kerak.

O‘quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash ta‘lim metodlarining samaradorligini oshirishga, o‘qituvchilar mehnat faoliyatining o‘zgarishiga, ularning pedagogik mahoratlarini takomillashtirishga, pedagogik tizimlarning tarkibiy o‘zgarishiga samarali ta‘sir etadi. Bu esa pedagogik jarayonlarni axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarishda o‘ziga xos vazifalarni qo‘yadi.

Oliy ta’lim muassasalari talabalariga “Elektrotexnika va elektronika” fanini o’qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarni tadbiq etish va ta’lim samaradorligini oshirish maqsadida ta’limning turli usul va vositalari qo’llaniladi.

Texnikaning hozirgi zamondagi rivojlanishi energiyaning ko’p miqdordagi iste’moli bilan tavsiflanadi va shu sababli ilmiy-texnika inqilobi davri bo’lib, oldingi rivojlanishlardan sifat darajasi bilan farq qiladi. Sifat darajasi birinchi navbatda ishlab chiqarish kuchlarining yirik inqilobiy siljishlarida keng miqiyosda yuqori samarador avtomatika bilan jihozlangan mehnat qurollarida namoyon bo’ladi. Texnikaviy taraqqiyot va sivilizatsiyaning rivojlanishi qadimgi tarixiy davrlardan bevosita foydalanilgan energiya qiymati bilan bog’liq.

Agarda insoniyat rivojlanishining birinchi bosqichlarida o’z mushaklarining va hayvon mushaklarining energiyasiga ega bo’lgan bo’lsa, keyinchalik ishning katta qismini mashinalar yordamida bajariladigan bo’ldi. Tabiat sirlariga kira borib, odamlar ularni o’z ehtiyojlari uchun ishlatishga harakat qilganlar. “Elektrotexnika va elektronika” fanining zamirida elektrotexnik, radiotexnik, elektromexanik va avtomatik uskunalar, shu jumladan hisoblash texnikasi tez sur’atlar bilan rivojlandi. Elektrotexnikaning yuzaga kelishi o’zgarmas tok manbaining yaratilishi va elektr va magnetizm sohasidagi kashfiyotlar bilan bog’liq.

Amaliy mashg’ulotlarning samarasini oshirishda IT dasturlarining ahamiyati kattadir. Bu axborotni qabul qilishga, mavzuni chuqurroq tushunishga, o’quv materialni xotirada uzoq saqlanishga yordam beradi.

Texnika oliy ta’lim muassasalarining muhandislik yo’nalishlarida o’qitiladigan “Elektrotexnika va elektronika” fanidan virtual breadboard dasturining imkoniyati kata hisoblanadi. Dastur, yarimo’tkazgichli asboblardan, tranzistorlardan, mantiqiy elementlarning xususiyatlari va ularni sxemada ulash jarayonlarini o’rganish imkoniyatini beradi. Dasturda talaba laboratoriya va amaliy mashg’ulotlarni bajarishda masalan, ixtiyoriy mantiqiy sxemani yig’ishda turli xil elementlardan foydalana olish imkoniyatiga ega bo’libgina qolmasdan hamda yasalgan qurilmanni ishlashini kuzatish imkoniga ham ega bo’ladi. Bunday mashg’ulotning elektron ko’rinishi quyidagilarga imkon beradi:

- talabalarining o’quv ishlarida faolliklari va mustaqilliklarini oshiradi;
- o’quv materialining multimediyaga ko’rinishidagi bilan uni qabul qilishni osonlashtiradi;
- har bir talabaning materialni o’zlashtirishi bo’yicha to’liq nazoratni ta’minlaydi;
- talabalar o’quv faniga doir materiallar bilan mustaqil ishlashga, izlanishga, o’qitishning samarali shakl va uslublaridan ijodiy foydalanishga odatlanib boradi.

Noan’anaviy ta’lim – talabalarni o’z kasbiga qiziqtiruvchi, bilim doiralarini kengaytiruvchi, ularda hozirjavoblik xususiyatlarini tarbiyalovchi, faollashtiruvchi va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi kabi didaktik funksiyalarni bajaradi. Tajribalarda ta’kidlanganidek, agar mashg’ulot odatdagi – faqat tinglab o’tirishga asoslangan usulda o’tkazilganda, talabalar axborotning ko’pi bilan 20 foizini o’zlashtirgan bo’lsa, ilg’or pedagogik usullardan foydalanilganda esa, bu ko’rsatkich 80-90 foizgacha oshganligi tasdiqlangan [4].

Noan’anaviy ta’limning samaradorligi yana shundan iboratki, uning qatnashchilari yaxlit tizimli bilimga ega bo’ladi va mustaqil – ijodiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanishi negizida bo’lajak kasbiy faoliyatga oid boshlang’ich ko’nikmalar shakllantirilib, o’quv-tarbiyaviy jarayonni amaliyot bilan bevosita bog’lab olib borishni ta’minlaydi. Shuning uchun ham u, rivojlantiruvchi o’qitishning yuqori samarali usullaridan biri bo’lib hisoblanadi [2].

Y.A.Komenskiy “Buyuk didaktika” asarida o’quv mashg’ulotlarini guruh shaklida tashkil qilish, o’quv yili va o’quv kunini bir vaqtda boshlash, mashg’ulotlar orasida tanaffuslar berilishini, guruhlardagi bolalarning yoshi va soni bir xil bo’lishiga alohida e’tibor berdi. Dars davomida o’quvchilar diqqatini to’plash, materiallarni batafsil tushuntirish, o’quvchiga savollar berish, o’zlashtirish jarayonini nazorat qilish zarurligini ta’kidlaydi [3]. Aynan shu sababli ham ta’lim tizimida besh kunlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish bilan bog’liq sohalarda ko’proq amaliyot mashg’ulotlarini sohaga tegishli bo’lgan ob’ektlarga tashkil etish samaralidir. Albatta, avloddan-avlodga o’tib borgan sari ijtimoiy tajriba hajmi demak bilimlar hajmi ham ortib boradi. Fan va texnikaning rivoji ham ilmiy bilimlarning hajmiga va xarakteriga ta’sir ko’rsatadi. Bularning hammasi esa o’z navbatida ta’lim tizimida o’z aksini topadi. Ta’lim tizimi har bir jamiyatning rivojlanish asosi bo’lib xizmat qiladi. Chunki aynan ta’lim tizimi jamiyatning har bir a’zosini ma’naviy, ilmiy dunyoqarashini shakllanishida eng asosiy o’rinni egallaydi. Shuning uchun ham barcha tarixiy yuksalish, yangilanish bosqichlarida aynan ta’lim tizimini isloh qilish muhim o’rin tutgan. Ta’lim tizimi har bir jamiyatning rivojlanish darajasidan hamda shu jamiyatning talabalaridan kelib chiqqan holda shakllanadi. O’sib kelayotgan yosh avlod ta’lim jarayonida:

- zarur bilimlar bilan qurollantiriladi;
- kerakli malakalarga ega bo’ladi;
- ko’nikmalar hosil qiladi.

Bu qayd etilganlarni e'tiborga olib texnika oliy ta'lim muassasalarida muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda “Elektrotexnika va elektronika” fanini zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida o'qitishdagi dasturiy-metodik ta'minotining fundamental asoslarini tayyorlashga oid vazifalarni belgilab oldi va ularni quyidagi ketma-ketlikda asoslab chiqildi.

1. Texnika oliy ta'lim muassasalarida “Elektrotexnika va elektronika” fanidan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida dasturiy-metodik ta'minotni asosiy tashkil etuvchilarini aniqlab olish. Bunda asosan raqamli texnologiyalar negizida muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga “Elektrotexnika va elektronika” fanini zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida o'qitishda majmuaviy yondashuv qilinishi talab etiladi. Bunga sabab, birinchidan, raqamli texnologiyalar negizida muhandislarni tayyorlashda kasbiy kompyuterli va didaktik o'yinlardan, intellektuallashtirilgan o'qitish tizimlaridan, ta'limni axborotlashtirish vositalaridan, intellektuallashtirilgan texnologik xaritalardan, kompyuterli trenajyorlardan va shu kabilardan samarali foydalanish nazarda tutilsa va ikkinchidan, tayyorlanayotgan muhandislarning o'quv rejasiga “Elektrotexnika va elektronika” fanini zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida o'rganishdagi mazmun va maqsad kasbiy faoliyatni takomillashtiruvchi innovatsion metod va texnologiyalar, maqsad va vazifalari bilan uyg'un holatda bo'lishi, ular doimo bir-birini boyitishi va to'ldirishi talab etiladi.

2. Texnika oliy ta'lim muassasalarida muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda “Elektrotexnika va elektronika” fanidan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida mavzularini aniqlash va ular mazmuniga ma'lumotlarni integratsiyalash mexanizmini ishlab chiqish. “Elektrotexnika va elektronika” fanidan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida dastlab integratsiyalanadigan ma'lumotlar to'planadi va ular tadqiqot maqsadiga qarab tizimlarga ajratiladi. Ulardan dasturiy-metodik ta'minot uchun ishlab chiqiladigan raqamli texnologiyalar, xususan intellektuallashtirilgan o'qitish tizimlarida foydalanishga oid ma'lumotlar bazasi tashkil etiladi.

3. Texnika oliy ta'lim muassasalarida muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda “Elektrotexnika va elektronika” fanidan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida innovatsion integrativ ta'limni tashkil etish.

Ma'lumki, innovatika, pedagogik innovatika, innovatsiya, pedagogik innovatsiya, innovatsion ta'lim kabi atamalar hozirda zamonaviy pedagogikada to'liq iste'molga kirib kelmoqda. Bu borada innovatsion dasturiy didaktik majmualar ham tayyorlanmoqda. Bunday majmualarning o'qitishdagi samarasi ancha yuqori bo'ladi. Bu borada quyidagi manba ham ahamiyatlidir:

“Innovatsion dasturiy didaktik majmua” – bu muayyan o'quv predmetini samarali o'qitish maqsadida ishlab chiqilgan majmua bo'lib, uning yordamida qaralayotgan predmetni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi-talabalarning faolligini oshirishga qaratilgan eng yaxshi uslubiyatga asoslangan, o'quv materialini maxsus dasturiy ta'minot va multimediali informatsion texnologiyalar yordamida didaktik ishlab chiqarish natijasida yoritilgan o'quv jarayonini tashkil etuvchi ko'p funksiyali dasturiy vosita”.

Texnika oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan muhandislarga “Elektrotexnika va elektronika” fanini zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida o'qitishdan asosiy ko'zlangan maqsad:

- texnika oliy ta'lim muassasalarida muhandislarni innovatsion rivojlangan, raqobatbardosh, yetuk kadr qilib tarbiyalash;

- texnika oliy ta'lim muassasalarida muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashni optimallashtirish;

- texnika oliy ta'lim muassasalarida muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda “Elektrotexnika va elektronika” fanidan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida dasturiy-metodik ta'minotini takomillashtirish.

4. Texnika oliy ta'lim muassasalarida muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda “Elektrotexnika va elektronika” fanidan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar asosida dasturiy vositalar tayyorlash. Bunda asosan quyidagi yo'nalishlarga kuchli e'tibor berilishi kerak;

• texnika oliy ta'lim muassasalarida muhandislarni tayyorlashda “Elektrotexnika va elektronika” fanidan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari, shu jumladan kompyuterlardan o'quv jarayonida samarali foydalanish; kompyuterlarning dasturiy, ashyoviy, matematik tashkiliy ta'minotlari bilan; muloqotli ishchi dasturlar (amaliy va xizmat ko'rsatuvchi dasturlari) bilan ishlash malakasini hosil qilish;

• texnika oliy ta'lim muassasalarida muhandislarni tayyorlashda “Elektrotexnika va elektronika” fanidan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida pedagogik dasturiy vositalarning turlari bo'yicha dasturlar yaratish ko'nikmalarini yanada rivojlantirish;

• texnika oliy ta'lim muassasalarida muhandislarni tayyorlashda “Elektrotexnika va elektronika” fanidan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida namoyish etuvchi dasturlar, ta'lim beruvchi dasturlar, nazorat qiluvchi dasturlar, axborot-qidiruv dasturlari, ekspert-baholash dasturlarini tuzish malakalarini tarkib toptirish;

• texnika oliy ta'lim muassasalarida muhandislarni tayyorlashda “Elektrotexnika va elektronika” fanidan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida pedagogik dasturiy vositalar ssenariysini

yaratish texnologiyasi va maqsadini aniqlash, pedagogik dasturiy vositalardan o‘quv faoliyatini boshqarishda foydalanish haqidagi bilimlar bilan qurollantirish va shu kabilar.

Bundan ko‘zlangan maqsad, texnika oliy ta‘lim muassasalarida muhandislarni tayyorlashda “Elektrotexnika va elektronika” fanidan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish jarayonini optimallashtirishga ko‘maklashishdan iborat: zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari, hamda ularning ta‘minotini bilishiga; kompyuterning dasturiy ta‘minotini bilishiga; o‘quv jarayonida axborot texnologiyalarini qo‘llash haqida nazariy bilimlarga ega bo‘lishi va ularni amaliyotda qo‘llay olish; zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari, shu jumladan internet, elektron pochta kabilardan foydalana olishi; multimedia texnologiyasi; tarmoq texnologiyalari; internet texnologiyasi va uning xizmatlari, masofaviy ta‘limdan foydalana olishi; pedagogik dasturiy vositalari va ularning turlarini bilishi; ekspert o‘rgatuvchi tizimlar, avtomatlashtirilgan o‘qitish tizimlari va ulardan foydalana olish; pedagogik dasturiy vositalar yaratish tamoyillarini, pedagogik dasturiy vositalar ssenariysini yaratish texnologiyasini bilishi va yarata olishi; dasturlash tillarida pedagogik dasturiy vositalar yaratishni bilishi; pedagogik dasturiy vositalar yaratishning texnik vositalaridan foydalana olishi; elektron pedagogika asoslari va elektron ta‘lim vositalarini bilishi; ilmiy-texnik ishlarida pedagogik dasturiy vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini anglagan bo‘lishi; hisoblash eksperimentlarini shakllantirish va tashkil etish usullarini bilishi; matematik modellash va hisoblashda loyihalash usullarini uddalay olishi kerak va h.k.

Muhokamalar va natijalar. O‘quv jarayonida ta‘lim oluvchilar va pedagoglar o‘rtasida o‘ziga xos munosabatlar o‘rnatilib bu jarayon ikki tomonning birgalikdagi faoliyati natijasida boradi. Shuning uchun ham ta‘lim jarayoni ikki tomonlama xarakterga ega deyiladi. Pedagoglar va talabalarning faollik darajasi ta‘lim jarayonining samarasini belgilaydi. Albatta bu jarayonda pedagog yo‘naltiruvchi sifatida maydonga chiqadi. Pedagog aniq maqsadni ko‘zlab reja va dastur asosida bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi. Talabalar esa ularni faol o‘zlashtirib olishlari kerak. Ta‘lim jarayonida pedagog o‘rgatish, bilim, malaka, ko‘nikma hosil qilish vazifasini bajarsa, talabalar o‘zlashtirish jarayonini o‘z boshidan kechiradilar. Bu murakkab psixik jarayon bo‘lib, sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur kabilar ishtirokida boradi. O‘qish talabalarning o‘zlashtirish, bilish qobiliyatlari, fikrlash operatsiyalari va harakatlarini hosil qilish jarayonidir. Bu passiv tomoshabinlik jarayoni emas, balki talabaga noma‘lum bo‘lgan haqiqatlarni ochib beradigan faol, ijodiy faoliyat jarayonidir. Ta‘limning asosiy vazifalaridan biri insoniyat hozirgacha erishgan ilmiy bilimlar va fan texnikaning yutuqlari bilan yosh avlodni qurollantirishdir. Yosh avlodda shunday bilimlar tizimini yaratish lozimki, bu bilimlar ularning keyingi rivoji uchun asos bo‘lib xizmat qilsin. Hozirgi kunda bilimlar hajmi, axborotlar hajmi tobora oshib borayotgan bir davrda ta‘lim tizimi talabalarga berilishi kerak bo‘lgan bilimlar, malaka va ko‘nikmalar hajmini belgilash hamda bu jarayonda qaysi omillarni hisobga olish kerak degan masalalarni yechimini topish ustida bosh qotirmoqda. Zaruriy bilimlar hajmini belgilash va shu bilan bir qatorda o‘qish muddatini aniqlash eng muhim masalalardan biri. Ta‘lim jarayonida biror fan sohasidagi insoniyat tomonidan erishilgan hamma narsalarni o‘rganish kerak deb o‘ylash mutlaqo noto‘g‘ri bo‘lar edi. O‘quv jarayonida eng asosiy, eng muhim bilimlar – fanlarning asoslari o‘rganiladi. Ammo shunga qaramay hozirda o‘rganish zarur bo‘lgan energetikadagi yangi-yangi fanlarning tarmoqlari vujudga kelmoqdaki ular ta‘lim hajmini benihoya kengayishiga sabab bo‘lmoqda. Bunday muammolar hozirda deyarli barcha davlatlarda mavjud va har bir davlat bu muammolarni o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda hal etishga harakat qilmoqda. Biz bu muammolarni ta‘lim tamoyillarini (prinsiplarini) buzmaganda, yosh avlodning sog‘ligiga ziyon etkazmagan holda echimini topishga harakat qilmoqdamiz.

Xulosa. Oliy ta‘lim muassasalarida “Elektrotexnika va elektronika” fanining zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitishdan maqsad – zamonaviy ilmiy bilimlarni egallagan, mustaqil fikrlash va muammolarni yechish imkoniyatiga ega bo‘lgan ma‘naviy jihatdan boy shaxslarni shakllantirishdir.

Adabiyotlar

1. “Ta‘lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884 sonli Qarori.
2. Avliyoqulov N.X. O‘qitishning modul tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslari, – Buxoro, 2000. -213 b.
3. Komenskiy Yan Amos. Buyuk didaktika.-T., 1992. -246 b.
4. Olimov Sh.Sh., Durdiyev D.Q. Pedagogik texnologiya. –Buxoro: “Sadridin Salim Buxoriy” Durdona nashryoti, 2019. -184 b.

Erkin BOZOROV

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi
Yadro fizikasi instituti
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy
universiteti

Asqar ERGASHEV

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi
Yadro fizikasi instituti
Samarqand Davlat tibbiyot instituti

**“TIBBIYOTDA MAGNIT REZONANS TOMOGRAFIYASI” MAVZUSINI YANGI
PEDAGOGIK TEXNALOYAGIYASI ASOSIDA O‘QITISH**

Zamonaviy tibbiyotning asosiy maummolaridan biri, shifokorga murojaat qilgan bemorning dardiga aniq tashxis qo‘yish va unga samarali davo kursi belgilashdan iborat. Bu borada fizika fanining yutuqlaridan foydalanish yuqori samara beradi. Chunki, KT, MRT, YMR, UZI dopplerografiya kabi usullar fizika qonunlari asosida ishlovchi asboblardan yordamida amalga oshiriladi. Tibbiyot oliygo‘hlariga talabalariga ushbu usullarni o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llanilishi talabalar ongida yaqqol tasavvur uyg‘otishi shubhasiz.

Kalit so‘zlar: *KT, MRT, yangi pedagogik texnologiya, B/B/B jadvali, interfaol*

Современной медицины одна из главных проблем, поставить четкий диагноз состояния пациента и назначить ему эффективный курс лечения. Использование достижений физики в этом плане весьма эффективно. Это связано с тем, что такие методы, как КТ, МРТ, ЯМР УЗИ доплерография и т. Д., Выполняются с использованием инструментов, которые работают в соответствии с законами физики. Применение новых педагогических технологий в обучении этим методикам студентов медицинских вузов, несомненно, вызовет у студентов впечатление.

Ключевые слова: *КТ, МРТ, ЯМР, новая педагогическая технология, Б/Б/Б таблица, интерактивная*

One of the main problems of modern medicine is to make a clear diagnosis of the patient's condition and prescribe him an effective course of treatment. The use of the achievements of physics in this regard is very effective. This is because methods such as CT, MRI, NMR ultrasound, Doppler, etc. are performed using instruments that work in accordance with the laws of physics. The use of new pedagogical technologies in teaching these techniques to medical students will undoubtedly impress students.

Keywords: *CT, MRI, NMR, new pedagogical technology, B / B / B table, Interactive.*

Kirish. Tibbiyot institutlarida amaliy darslar ma‘ruzadan oldin o‘tkazilganligi uchun talabalarda magnit rezonans tomografiyasi to‘g‘risida ma‘lumotlar to‘plangan bo‘ladi. Shuning uchun ham ushbu usulni qo‘llash menimcha ijobiy natija beradi. Ta‘lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo‘nalishlardan biri interfaol ta‘lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo‘llash natijasida talabalarni mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o‘z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog‘lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko‘nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

B/B/B jadvali. Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim.

Mavzu, matn, bo‘lim bo‘yicha izlanuvchanlikni olib borish imkonini beradi.

Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Bunda talabalar:

1. Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Kichik guruhlar tashkillashtiriladi va har bir guruhchalarda jadval alohida to‘ldiriladi.

2. “Mavzu bo‘yicha nimalarni bilasiz?” va “Nimani bilishni xohlaysiz?” degan savollarga javob beradilar. Jadvalning 1- va 2-ustunlari to‘ldiriladi.

3. Matnni tinglaydilar, mustaqil o‘qiydilar.

4. Mustaqil, kichik guruhlarda jadvalning 3-bo‘limni to‘ldiriladi.

5. O‘qituvchi har bir guruh ishlari bilan tanishib xulosa qiladi, baholaydi va rag‘batlantiradi.

Asosiy qism. Yadroning magnit momenti yadro tarkibidagi nuqsonlar magnit momentlarining yig‘indisiga teng bo‘ladi. Odatda bu momentni yadro magnetonlarida ifodalanadi (μ_n); $1\mu_n=5,05\cdot 10^{-27}A\cdot m^2$. Protonning magnit momenti taqriban $P_{pm}=2,79\mu_n$ ga; neytronning magnit momenti esa $P_{pm}=-1,91\mu_n$ ga teng bo‘ladi. Bu yerga „—“ ishora neytronning yoki yadroning magnit momenti spinga nisbatan qarama-qarshi yo‘nalganligini ko‘rsatadi. Ba’zi bir yadrolarining magnit momenti qiymatlarini keltiramiz.

1-jadval.

	μ_{ya}		μ_{ya}
${}^4_2\text{He}$	0	${}^{12}_6\text{C}$	0
${}^{9}_{44}\text{Be}$	-1.2	${}^{115}_{49}\text{In}$	5.5

Magnit maydonga joylashtirilgan yadroning magnit momenti faqat diskret yo‘nalishga ega bo‘lishi mumkin. Bu degan so‘z, yadro energiyasining qiymati magnit maydon induksiyasining kattaligiga bog‘liq sathchalarga mos keladi. Agar shu sharoitda yadroga elektromagnit maydon ta‘sir etsa, sathchalararo o‘tishni yuzaga keltirish mumkin. Bu o‘tishlarni amalga oshirish uchun, shuningdek, elektromagnit maydon energiyasi yutilishini hosil qilish uchun (250) ga o‘xshash bo‘lgan quyidagi shart bajarilishi lozim:

$$h\nu = g_{\pi}\mu_{\pi}B \quad (1)$$


bu yerda g - Lande yadro ko‘paytuvchisi.

O‘zgarimas magnit maydonda yadrolarning magnit momentlari yo‘nalishlarining o‘zgarishi natijasida vujudga keluvchi tayin chastotali elektromagnit to‘lqinlarining moddaga yutilishiga yadro magnit rezonansi (MR) deb ataladi.

Yuqoridagi (1) shart bajarilgan holda MR hodisasini faqat erkin atom yadrolarida kuzatish mumkin. Tajribada aniqlangan molekula va atomdagi yadrolarning rezonans chastotalari (1) shartga mos kelmaydi. Bunda tashqi magnit maydon ta‘sirida atomning ichida yuzaga keladigan elektron toklari hosil qiluvchi lokal (kichik bir joydagi) magnit maydon ta‘siri natijasida yuzaga keladigan “kimyoviy siljish” kuzatiladi. Bunday “diamagnit effekt” natijasida qo‘shimcha magnit maydon hosil bo‘ladi. Bu magnit maydon induksiyasi tashqi magnit maydon induksiyasiga proporsional, ammo yo‘nalish jihatdan qarama-qarshi bo‘ladi. Shuning uchun yadroga ta‘sir etuvchi to‘la effektiv magnit maydonning induksiyasi

$$B_{ef}=(1-\sigma)B \quad (2)$$

tenglama bilan ifodalanadi; bu yerda σ – kattalik tartibi bo‘yicha 10^{-6} ga teng bo‘lgan, yadroning electron qobig‘iga bog‘liq bo‘lgan ekranlash doimiysi.



1-rasm

Bundan ko‘rinadiki, turlicha o‘ralgan (turli molekular bilan o‘ralgan yoki bitta molekulaning turli, noekvivalent joylarida bo‘lgan) tipdagi yadrolar uchun rezonans turli chastotalarda kuzatiladi. Mana shu hol kimyoviy siljish yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Kimyoviy siljish kimyoviy bog‘lanish tabiatiga, molekularning elektron tuzilishiga, mazkur moddaning konsentratsiyasiga, erituvchining turiga, haroratiga va boshqalarga bog‘liq bo‘ladi. Agar molekuladagi ikki yoki undan ortiq yadro turlicha ekranlangan bo‘lsa, ya‘ni bu yadrolar molekularlarda kimyoviy noekvivalent holatlarni egallagan bo‘lsa, u holda ular turli kimyoviy siljishga ega bo‘ladilar. Bunday molekulaning MR spektri unda kimyoviy noekvivalent yadro guruhlarining soni nechta bo‘lsa, shuncha rezonans egri chizig‘idan tashkil topgan bo‘ladi. Bunda har bir chiziqning intensivligi shu guruhdagi yadrolar soniga proporsional bo‘ladi.

MR spektridagi chiziqlar kengligiga ko‘ra ikki turga ajratiladi. Qattiq jismlarning spektrlari katta kenglikka ega bo‘ladi va MRning bu qo‘llanilish sohasi keng chizikli YMR deb ataladi. Suyuqliklarda ingichka chiziqlar kuzatiladi va buni yuksak ajratuvchanlik MR deb ataladi.

1-rasmda qattiq jismlar uchun (a) hamda suyuqliklar uchun (b) yadro magnit rezonansi egri chiziqlari tasvirlangan. Suyuqliklar uchun cho‘qqining o‘tkir bo‘lishi quyidagi sabab tufaylidir. Har bir yadro qo‘shni yadrolar bilan o‘zaro ta‘sirlashadi. Mazkur turdagi yadroni o‘rab turuvchi yadro magnit momentlarining yo‘nalishlari moddada nuqtadan nuqtaga o‘tganda o‘zgarishi tufayli turli bir turdagi yadrolarga ta‘sir qiluvchi to‘liq magnit maydon ham o‘zgaradi. Bu yadrolarining butun majmuasi uchun rezonans sohasi keng chiziqdan iborat bo‘lishi lozimligini bildiradi. Biroq suyuqlikdagi molekular tez ko‘chishi tufayli lokal magnit maydonlar turg‘un bo‘lmaydi. Bu suyuqliklar yadrolari birgina o‘rtacha magnit maydon ta‘sirida bo‘lishiga olib keladi, shuning uchun rezonans egri chizig‘i cho‘qqisimon shaklni hosil qiladi.

Molekulada kimyoviy ekvivalent o‘rinlarni egallovchi yadrolar YMRi kuzatiluvchi kimyoviy birikmalar uchun yakalangan chiziq kuzatiladi. Murakkabroq birikmalar tuzilmasi spektri ko‘p chizikli bo‘ladi. Kimyoviy siljish, spektral chiziqlarining soni va joylashishiga qarab molekular strukturasi aniqlash mumkin.

Kimyogar va biokimyogarlarning MR usulini noorganik moddalarining eng sodda molekularidan tortib to tirik obyektlarning o‘rta murakkab molekularigacha bo‘lgan barcha molekular strukturasi o‘rganishda, shuningdek, kimyoviy reaksiyalarining kechishi bilan birlamchi moddalarining hamda shunday

reaksiyalar natijasida hosil bo‘luvchi mahsulotlarining strukturasi o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab masalalarni yechishda keng qo‘llamoqdalar. Bunday tahlilning afzal tomonlaridan biri shundaki, u, masalan, kimyoviy analizda bo‘ladiganidek o‘rganish obyektini buzmaydi.

To‘qimalarining ko‘p nuqtalaridagi MR spektri parametrlarini aniqlash tibbiyot uchun juda qiziqarli imkoniyatlar berishi mumkin. Butun to‘qimani birin-ketin qatlam-qatlam o‘tib (skanirlab) tarkibida, aytaylik, vodorod yoki fosfor atomlari bo‘lgan molekularining fazoviy taqsimoti haqida (mos ravishda fosfor protonlari yoki yadrolari magnit rezonansida) to‘liq tasavvur olish mumkin.

Bu tekshirishlarning bari tekshiriluvchi moddaga shikast yetkazmay bajariladi va shuning uchun tekshirishlarni tirik organizmlarda ham o‘tkazaverish mumkin. Bu usul MR-introskopiya deb ataladi. U suyaklar, qon tomirlari, sog‘lom hamda kasallangan to‘qimalarni ajratish imkoniyatini beradi. MR-introskopiya usuli yordamida yumshoq to‘qimalarining tasvirini farqlash, masalan, miyadagi kulrang va oq moddalarni ajrata olish, sog‘lom va o‘smali hujayralarni farqlash mumkin. Bunda kasallangan “o‘simtalar” millimetrlarning o‘nlaridan biri ulushini tashkil qilganda ham ularni aniqlash mumkin bo‘ladi. Tana va to‘qimalar holatining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan kasalliklar diagnostikasida MR-introskopiya juda foydali usul bo‘lib qoladi, deb umid qilish mumkin.

MR hodisasida energetik o‘zgarishlarni vujudga keltiruvchi elektromagnit to‘lqinlarining chastotasi radioto‘lqin chastotasiga mos keladi. Shuning uchun bu ikkala hodisalar radiospektroskopiyaga taalluqlidir.

MR-TOMOGRAFIYA

▪ magnit-rezonans hodisasiga asoslangan – biologik to‘qimalar kuchli magnit maydonida rezonans radioto‘lqinlar yutadi va qaytaradi;

▪ MR hodisa 1946-yil Bloch va Parsell tomonidan ochilgan;

▪ 1- MRT 1982-yil Damadiyan, Lauterbur va Mansfield tomonidan yaratilgan;

▪ radioto‘lqinlar tanamizdagi kichik magnitchalar bilan yutiladi. Bular – N, P, Na, N, C;

▪ N suv tarkibiga kiradi, kuchsiz magnit va faqat kuchli magnit maydonida (30-40 ming yuqoriroq)

magnit xususiyatlarini ko‘rsatadi;

▪ qaytgan radioto‘lqinlar tahlil qilinadi va ulardan T1 va T2 vaqtlari sanalib – tasvirga aylantiriladi;

▪ MRT kamida 3 xil tasvir bor – T1, T2, va proton zichligi (suv miqdori) + Noinvaziv angiografiya

Noinvaziv mielografiya, xoleografiya, uroografiya;

▪ nurlanish yo‘q, magnit maydoni va radiotulkinlar zarari hozirgacha tasdiqlangani yo‘q;

▪ 3 proeksiyada tasvir.

Yuqori yumshoq to‘qimali kontrast

- suyaklardan artefakt yuk, miyacha va gipofiz sohasi uchun eng yaxshi usul;

- to‘qimalardagi metabolik jarayenlarni – MR-spektroskopiya;

- EKG sinxronizatsiya

Kamchiliklari:

- uzoq tekshirish vaqti;

- eng qimmat usul;

- nafas bilan sinxronizatsiya qilib bo‘lmaydi;

- harakatlanish (nafas, qon oqimi, peristaltika), metall va yog‘ to‘qimasi artefaktlari;

- KT nisbatan fazoviy farqlash kichikroq – 3 mm kesmalar;

- suyak bo‘lakchalari, suyak kortikal qavati, kalsinat, o‘pka to‘qimasi yaxshi tasvirlanmaydi;

- MRT klassifikatsiyasi – magnit kuchiga karab – kichik (0.3 Tgacha), o‘rta (0.3-0.5 T) va yuqori

maydonli (1.0-3.0 T).

2-jadval. To‘qimalarni T1 va T2 vaqtlari bo‘yicha xarakteristikalar

To‘qima	T1-tasvirda	T2-tasvirda
1. Suyuqlik	Qora	Oq
2. Yog‘ (suyak ko‘migi), koloid kistalar	Oq	Oq
3. Kalsinat, pay, boylam, kortikal suyak, havo (o‘pka)	Qora	Qora
4. O‘tkir osti gematoma	Oq	Oq
5. Harakatlangan qon	Qora	Qora
6. Boshqa to‘qimalar	O‘rta	O‘rta

MR-tomografiyaga qat‘iy qarshi ko‘rsatmalar:

1) sun‘iy peysmekler, 2) ko‘z, bosh, umurtqa ichidagi metallik yod tanalar, 3) qon tomirlaridagi ferromagnit klipsalar.

Nisbiy qarshi ko‘rsatmalar:

1) klaustrofobiya, 2) homila 1-3 oyligi, 3) reanimatsion sun‘iy ventilyatsiyadagi kasallar, 4) tekshirish sohasida metallik obyektlar.

3-jadval. Matnni belgilash tizimi

Tushunchalar	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
Mazmuniga ko'ra	Magnit rezonans tomografiyasi	<ul style="list-style-type: none"> ▪ magnit-rezonans hodisasiga asoslangan – biologik to'qimalar kuchli magnit maydonida rezonans radioto'lqinlar yutadi va qaytaradi. ▪ MR hodisa 1946-yil Bloch va Parsell tomonidan ochilgan 	
Magnit rezonans tomografiyasi tibbiyotda qo'llanilishiga ko'ra	Davolashda qo'llanilishi, tashxisda qo'llanilishi, Nur diagnostikasining yangi turlari (kompyuter tomografiyasida), momografiyasida	Noinvaziv angiografiya Noinvaziv mielografiya, xoleografiya, uroografiya tekshirishda kontrastli moddalardan foydalanish, fotoximik ta'siri xususiyati, rentgen tasvirlarini hosil qilish, og'ir element tuzlarining suvli bo'tqalari, yodli va suvli eritmalari, , KTning ishlash prinsipi, KTda qo'llaniladigan datchiklar.	
Magnit rezonans tomografiyasi	MRT	O'zgarmas magnit maydonda yadrolarning magnit momentlari yo'nalishlarining o'zgarishi natijasida vujudga keluvchi tayin chastotali elektromagnit to'lqinlarining moddaga yutilishiga yadro magnit rezonansi (MR) deb ataladi.	

Xulosa va takliflar:

1. Amalda “Tibbiyot yo'nalishidagi ta'limning bakalvriat va magistratura yo'nalishlari o'quv rejalaridagi ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bloki mazmuniga qo'yilgan davlat talablari”ni hozirgi kun talabidan kelib chiqqan holda modul tizimini tatbiq qiliniyotganligini hisobga olib hamda ilg'or xorijiy tajribalar, sohaga oid innovatsiyalardan kelib chiqib unga qo'shimchalar kiritish va o'zgartirishlar kiritish kerak.

2. Fanning o'quv dasturi me'yoriy hujjat sifatida Tibbiyot institutlarida ta'lim faoliyatining asosi bo'lib hisoblanadi, unda o'quv fanlari bo'yicha talabalar tomonidan o'zlashtiriladigan asosiy bilim, zaruriy ko'nikma va malakalar nazarda tutiladi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida fanlar bo'yicha o'quv dasturlarini tuzishda aniq yo'naltirilgan metodik ko'rsatmalar va yo'riqnomalarning mavjud emasligi hozirgi kunda o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. “Fan dasturi nima?”, “Fan dasturining qanday turlari mavjud?”, “Fan dasturining tuzilishi va mazmuni qanday bo'lishi kerak?”, “Fan dasturi kim tomonidan ishlab chiqiladi?”, “Fan dasturi kim tomonidan tasdiqlanadi?”, “O'quv va ishchi o'quv dasturlarining farqi nimalardan iborat?” degan savollarga oliy ta'lim muassasalarining mutassaddi xodimlari va professor-o'qituvchilari tomonidan bir necha xil javoblar berilmoqda.

3. Tibbiyot institutlarida “Magnit rezonans tomografiyasi” Mavzusini o'qitish jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish uchun ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarga innovatsion ta'lim texnologiyalarini optimal qo'llash masalalari bo'yicha o'z sohasini yetuk mutaxassislarini jalb etgan holda maxsus seminar-treninglar tashkil etish lozim. Bu esa o'qitish samaradorligini oshiradi.

4. Fan va texnikaning rivojlanishi tibbiyot sohasiga yangi tashxis va davolashda qurilmalarining kashf qilinishiga va uning tibbiyotga tezda tatbiq qilinishiga undayapti. Bu esa professor o'qituvchilarni tezkor qayta tayyorlashga jalb qiladi.

Adabiyotlar

1. Moodle.sammi.uz. Модуль 2. “Медицинская физика”. Занятия 6. Тема 30.
2. Ремизов А.Н. Максина А.Г. Потапенко А.Я. Медицинская и биологическая физика. -506-536с.
3. Федорова В.Н., Фаустов Е.В. Медицинская и биологическая физика. -520-571 с.
4. Марценюк В.П., Дидух В.Д., Ладыкам Р.Б., Баранюк И.А. Сверстюк., Сорока И.С. Медицинская бифизика и медицинская аппаратура. Учебник. -Тернополь: “Укрмедкнтгп”, 2008. - 356с.
5. Емич Л.Ф., Кмит Я.М. Медицинская и биологическая физика. –М.: “Мир”, 2003. -592с.
6. Злепко С.М., Ковалли Л.Г., Гавриково Н.Н., Тумач И.С. Медицинская аппаратура специального назначения. –Винница: ВНТУ, 2010. -158 с.
7. Терешенко Н.Ф. Стельмах Н.В. Осадчий О.В. Лучевая техника. -М., 2008.
8. Блохина М.Е., Эссаулова И.А. Руководство к лабораторным работам. -М., 2002.

Fazliddin ATOYEV

Buxoro muhandislik –texnologiya instituti
axborot kommunikatsiya texnologiyalari
kafedrası assistenti

**ELEKTRON TA’LIM RESURSLARI ORQALI TALABALARNING O’QUV
JARAYONINI TASHKIL ETISH IMKONIYATLARI**

Ushbu maqolada texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarining ta’lim jarayonida, xususan, mustaqil ishni bajarishda elektron ta’lim resurslaridan hamda axborot texnologiyalaridan yuqori darajada foydalanganda samaradolik yaxshi natajalarni ko’rsatishi xususida fikrlar yuritilgan. Bu borada o’qituvchining roli va talabaning bajaradigan vazifalari alohida ko’rsatilgan.

Kalit so’zlar: oliy ta’lim, talaba, o’qituvchi, elektron ta’lim resurslari, axborot texnologiyalari.

В данной статье рассматривается тот факт, что студенты высших учебных заведений показывают хорошие результаты в образовательном процессе, особенно в самостоятельном использовании электронных образовательных ресурсов и информационных технологий на высоком уровне. В связи с этим выделены роль учителя и роль студента.

Ключевые слова: высшее образование, студент, преподаватель, электронные образовательные ресурсы, информационные технологии.

This article discusses the fact that students of higher educational institutions show good results in the educational process, especially in the independent use of electronic educational resources and information technology at a high level. In this regard, the role of the teacher and the role of the student are highlighted.

Key words: higher education, student, teacher, electronic educational resources, information technology.

Kirish. Elektron ta’lim resurslaridan foydalanish ta’lim tizimiga ham ijobiy ta’sir ko’rsatib kelmoqda. Shu munosabat bilan ta’lim tizimi oldida oliy o’quv yurtlari talabalarining samarali bilish faoliyatiga xizmat qiluvchi yangi pedagogik mexanizmlardan foydalanishni taqozo etuvchi yangi vazifalar turibdi.

Ta’lim rivojlanishining hozirgi bosqichida Davlat ta’lim standartlarida zamonaviy axborot texnologiyalari, shuningdek, talabalarining mustaqil ishlarini rivojlantirish juda muhim rol o’ynaydi. Talabalarga bilim berishning bunday usullaridan foydalanish har bir o’qituvchi uchun qiziqarli. Talabalarining qiziqishi ularga yashirin potentsiallarini ochib berishga va rivojlantirishga imkon beradi, bu har kimga hayotda munosib o’rin egallashga yordam beradi.

Axborot texnologiyalari bir joyda turmaydi. Jamiyat hayotining barcha sohaları muntazam modernizatsiya qilinmoqda. Ta’lim tizimi ham bundan mustasno emas. Respublikada elektron texnologiyalardan foydalanish asosida talabalarining o’quv faoliyatini individuallashtirishning ko’plab amaliyotlari qo’llanilmoqda, ular muntazam o’zgarib turadi.

Hozirgi vaqtda elektron ta’lim resurslari axborot ta’lim muhitining asosiy tarkibiy qismidir. Talabalarga bilim berishning to’g’ri yo’llarini topish va zamonaviy axborot texnologiyalarini qo’llash orqali ularning salohiyatini yuzaga chiqarish muammosini hal etish psixologik-pedagogik tadqiqotlarning eng muhim yo’nalishi hisoblanadi [1, 18].

O’zbekistonning ta’lim sohasidagi davlat siyosatining strategik maqsadlaridan biri zamonaviy jamiyat talabalariga va har bir fuqaroning shaxsiy ehtiyojlariga javob beradigan ta’limning mavjudligi va sifatini oshirishdan iborat. Shu munosabat bilan oliy ta’lim muassasalari zimmasiga talabalarda o’z faoliyatini mustaqil boshqarish ko’nikmalarini shakllantirish vazifasi yuklatilgan.

Asosiy qism. Hozirgi vaqtda har qanday o’qituvchi zamonaviy talabaga o’z salohiyatini ro’yobga chiqarish va jamiyatda munosib o’rin egallash imkonini beradigan aniq ma’lumot va bilimlarni berishdan manfaatdor. Shu bilan birga, talabalar o’qituvchi tomonidan berilgan ma’lumotlarni mustaqil qabul qilish va uni amaliy mustahkamlashi kerak.

Zamonaviy ta’lim jarayonida amalga oshirilayotgan islohotlar ilg’or yondashuvlarni ishlab chiqishni tashkil etishdan ajralmas bo’lib, uning eng muhim vazifasi talaba va o’qituvchining birgalikdagi faoliyati asosida talabaning mustaqil rivojlanishiga intilishini faollashtirishdan iboratdir [2, 56].

Bizning fikrimizcha, “talaba faqat faollik orqali o’zini shakllantirishi mumkin, lekin shu bilan birga o’qituvchining rahbarlik ta’siri ham muhimdir”. Yangi axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan o’qituvchi va talabaning roli o’zgarib borayotganiga qaramay, ularning o’zaro ta’siri ta’lim jarayonining

asosi bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, o‘qituvchi faoliyatning tashkilotchisi, talaba esa o‘z bilimining faol moderatori sifatida ishlaydi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda shuni ta’kidlash joizki, talabalarning mustaqil ishi o‘qituvchi tomonidan talabalarga berilgan bilimlarni samarali o‘zlashtirishning asosiy elementlaridan biridir. Shunday qilib, eng muhim yo‘nalishlar qatorida talabalarning o‘zini o‘zi bilish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z taqdirini o‘zi belgilash qobiliyatini rivojlantirish, o‘quv faoliyatini mustaqil rejalashtirish va amalga oshirish ko‘nikmalarini shakllantirish va o‘qituvchilar va tengdoshlar bilan ta’lim hamkorligini tashkil etish, individual ta’lim yo‘nalishini qurish, individual loyihalarni tayyorlash va himoya qilish bo‘yicha mustaqil ishlash uchun sharoit yaratish, shuningdek, keyingi ta’lim va kasbiy faoliyatni ongli ravishda tanlashga tayyorgarlik ko‘rish. Shu munosabat bilan talabalarning mustaqil ishlarining mohiyatini o‘quv jarayonining tarkibiy qismi sifatida o‘rganish dolzarb va zarurdir.

Muhokamalar va natijalar. Talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish muammolarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy va psixologik-pedagogik adabiyotlarning tahlili ushbu tushunchani talqin qilishning noaniqligini ko‘rsatdi. Hozirgi vaqtda barcha mutaxassislarining g‘oyalariga javob beradigan “mustaqil ish” atamasining umumiy qabul qilingan ta’rifi yo‘q. Bu borada olimlarning fikrlari quyidagicha: “talabalarning bilim olish uchun o‘qituvchi rahbarligida topshiriqlarni bajarish vositasi” deb, “o‘qituvchining bevosita yoki bilvosita rahbarligi ostida amalga oshiriladigan, talabalar bilimlarni rivojlantirish maqsadida turli xil vazifalarni mustaqil ravishda bajaradigan talabalarning o‘quv faoliyatini tashkil etish shakli, ko‘nikmalar, qobiliyatlar va shaxsiy fazilatlar”.

Bizning fikrimizcha, eng keng qamrovlisi o‘rganilayotgan tushunchaning quyidagi talqinidir: mustaqil ish - bu o‘qituvchining topshirig‘iga binoan, o‘qituvchining bevosita ishtirokisiz bajariladigan talabaning individual ishi bo‘lib, unda talaba ongli ravishda o‘z sa’y-harakatlari va aqliy yoki jismoniy faoliyatni amalga oshirish orqali aniq natija shaklida maqsadga erishishga intilib amalga oshiradi.

Mustaqil ishning mohiyati talabaning yangi bilim olishga intilishini uyg‘otish, olingan bilimlarni turli vaziyatlarda ongli ravishda qo‘llashdan iborat.

Binobarin, talaba mustaqil ishini yuqorida bayon etilgan tamoyillarga asoslanib, tizimlashtirish talabalarning tili, nutqi, muloqot ko‘nikmalari va malakalarini, jumladan, o‘z-o‘zini tashkil etish, o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, talabalar ta’lim jarayonining faol mustaqil subyektiga aylanadi.

Talabalarning mustaqil ishi chuqur va mustahkam bilimlarni o‘zlashtirishga, talabalarning bilish qobiliyatini rivojlantirishga, shuningdek, bilimlarni mustaqil ravishda egallash, kengaytirish va chuqurlashtirish, ularni amaliy qo‘llash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Inson hayotining barcha jabhalarida qo‘llaniladigan axborot texnologiyalari zamonaviy ta’lim muhitining ajralmas elementi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda axborot texnologiyalari ko‘lami nazorat qilib bo‘lmaydigan darajada kengaymoqda, to‘plangan ma’lumotlar miqdori kundan-kunga oshib bormoqda. Endi kerakli ma’lumotlarni olish uchun o‘z mohiyatiga ko‘ra turli xil mavzulardagi ma’lumotlarning global ombori bo‘lgan Internetga kirishning o‘zi kifoya.

Talabalar shaxsiy kompyuter va raqamli texnologiyalar orqali sozlanishi mumkin bo‘lgan turli gadgetlarning ishonchli foydalanuvchilari. Shu munosabat bilan real voqelikda bo‘lgan o‘qituvchi ta’lim jarayonini raqamlashtirish tendensiyasiga amal qilishi, o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishi zarur.

Uzoq muddatli amaliyot shuni ko‘rsatadiki, o‘qitishning ananaviy texnologiyalari talabalarning individual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun to‘liq imkoniyat bermaydi, shuning uchun o‘quv jarayonini tashkil etish va uni qayta qurishga yondashuvni so‘zsiz o‘zgartirish talab etiladi [3, 2].

Shu munosabat bilan, hozirgi vaqtda oliy ta’lim muassasasidagi o‘quv jarayonining turli vazifalarini ta’minlashga mo‘ljallangan axborot texnologiyalaridan foydalanmasdan tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Raqamli ta’lim muhiti resurslaridan foydalanish o‘quv jarayonida o‘qituvchi oldiga qo‘yilgan muhim vazifalarni hal etishga erishish imkonini beradi, xususan:

- o‘quv jarayonini axborot-metodik ta’minlash;
- ta’lim jarayonining borishini rejalashtirish, shuningdek, uning resurslarini tanlash imkonini beradi;
- ta’lim faoliyatini monitoring qilishga hissa qo‘shadi;
- ta’lim jarayonida axborot oqimlari bilan ishlashning zamonaviy tartib-qoidalaridan (axborotni yaratish, qidirish, to‘plash, tahlil qilish, qayta ishlash, saqlash va taqdim etish) foydalanishni taminlaydi;
- ta’limning barcha ishtirokchilarining onlayn rejimda o‘zaro hamkorligi, shuningdek, ta’lim muassasasining boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorligi uchun sharoit yaratadi.

O‘quv jarayoniga elektron resurslarni joriy etish to‘g‘ri ta‘kidlangani talabalar uchun talab qilinadigan axborot materiallarini qidirish va ulardan foydalanish vaqtini qisqartirish, o‘quv jarayoni mazmunini yangilash sur‘atlarini tezlashtirish va ta‘limni individuallashtirish darajasini oshirishdan iborat yangi imkoniyatlarni ochadi. Oliy ta‘lim muassasalarning raqamli ta‘lim muhitini rivojlantirish ta‘lim sifatini oshirish, o‘quv jarayonini individuallashtirish, talabalarining samarali faoliyat yuritishi uchun turli vositalar bilan ta‘minlash orqali ularning ta‘lim mustaqilligi va mas‘uliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Shuni ta‘kidlash kerakki, axborot texnologiyalari o‘quv jarayonining asosiy elementlaridan biri - axborotni olish va uzatish usullarini o‘zgartirishga olib keldi. Shu munosabat bilan shuni aniq aytish mumkinki, elektron ta‘lim resurslari o‘quv jarayonini axborotlashtirishning uzoq vaqtdan beri shakllangan tarkibiy qismidir.

Texnika fanlarini o‘qitishda elektron ta‘lim resurslaridan foydalanishning asosligi quyidagilardan iborat:

- elektron ta‘lim resurslari, talaba shaxsining har tomonlama rivojlanishiga foydali ta‘sir ko‘rsatadi;
- elektron ta‘lim resurslari “jonlantirilgan jarayon”ni ko‘rish orqali materialning vizualizatsiyasiga hissa qo‘shadi;
- elektron ta‘lim resurslari yangi bilimlarni uzatish uchun o‘zgaruvchan jarayonni taklif qiladi;
- elektron ta‘lim resurslari talabalarining uzatilgan materialga e‘tibor berish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

O‘quv jarayonida elektron ta‘lim resurslaridan foydalanish ma‘lumotni uzatish va o‘zlashtirish uchun individual sxemalarni tanlashda o‘zgaruvchanlik omborining bir turi hisoblanadi.

Elektron ta‘lim resurslari ta‘lim jarayoni ishtirokchilariga quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- giperhavolalar orqali qo‘shimcha ma‘lumotlarni izlash imkoniyatini kengaytirish;
- talabaning individual xususiyatlari uchun ma‘lumotni taqdim etishning muqobil shakllari.

Guruhda elektron ta‘lim resurslaridan faol foydalanishning afzalliklari sinfda ma‘lumotni qiziqarli, dinamik va ajoyib tarzda taqdim etishda ifodalangani, yangi bilimlarni o‘rganishga, hatto, eng qiziqmaydigan ko‘rinadigan talabalarining ham e‘tiborini tortadi. Bunday holda, elektron ta‘lim resurslari vosita sifatida yorqin va qiziqarli kompyuter slaydlaridan foydalanish juda dolzarbdir.

Bundan tashqari, darsda diagramma va jadvallardan foydalanish samaralidir, bu vaqtni tejaydi, shuningdek, talabalarga taqdim etilgan materialni tuzish uchun vizual ko‘rish uchun yanada estetik jihatdan yoqimli. Ko‘pincha darsda taqdimotlardan foydalanish o‘z samarasini beradi. Shuningdek, qiziqarli o‘quv jarayoni ma‘lumotlarni taqdim etish va bilimlarni tekshirishning bunday shakllaridan foydalanadi, masalan: krossvord, illyustratsiya, chizma, turli xil qiziqarli vazifalar, ilova, testlar. Shu bilan birga, talabalarining o‘zlari ham yangi mavzuni o‘rganish uchun kerakli ma‘lumotlarni internetda ham, turli xil ommaviy axborot vositalaridan ham topishlari mumkin [4, 3]. Binobarin, elektron ta‘lim resurslari pirovardida quyidagi natijalarga olib keladi:

- yangi o‘quv materiali talabalar tomonidan samaraliroq o‘zlashtiriladi, chunki ular qayta-qayta sinovdan o‘tkazilishi mumkin, bu esa olingan ma‘lumotlarni birlashtiradi;
- o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi va talabaning fan bo‘yicha qo‘shimcha bilim miqdorini olishi;
- kattaroq hajmdagi ma‘lumotlarni uzatish mumkin, elektron ta‘lim resurslari hajmi ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlar hajmidan ancha kattaroq;
- o‘quv jarayoni individuallashtiradi, chunki elektron ta‘lim resurslari vositalari turli xil talabalar uchun turli darajadagi vazifalarni sinab ko‘rishga imkon beradi: oddiy, o‘rtacha qiyinlikdagi va murakkab;
- talabalarining bilim olish sifatini oshirish imkonini beradi.

Elektron ta‘lim resurslari turli sabablarga ko‘ra darslarni o‘tkazib yuborganlarga ulardan mustaqil foydalanishdagi bo‘shliqlarni to‘ldirishga imkon beradi. Shuningdek, elektron ta‘lim resurslari talabalarga mustaqil ravishda laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish, fanlarning katta hajmdagi materiallarini o‘zlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish sifati sezilarli darajada yaxshilanadi, chunki talabalar elektron ta‘lim resurslari yordamida ularga mustaqil ravishda oldindan tayyorgarlik ko‘rishlari mumkin.

Darsda elektron ta‘lim resurslaridan foydalanish talabalarining mustaqil ishlashi imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi, masalan, dunyoning istalgan yuqori texnologik korxonalarini ko‘rish, ilmiy tajriba o‘tkazish va shu bilan birga o‘z bilimlarini sinab ko‘rish uchun virtual imkoniyat. Bundan tashqari, o‘qituvchi uchun elektron ta‘lim resurslaridan foydalanish talabalar bilan muloqot qilish vaqtini va, eng muhimi, o‘quv jarayonida – suhbat ko‘rinishida emas, balki muhokama ko‘rinishini ko‘paytirish imkonini beradi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy davri bilimli odamlardan axborot makonida mustaqil harakat qilish, har qanday standart va nostandart vaziyatni o‘rganish va tushunish

qobiliyatini talab qiladigan ko‘plab turli xil vazifalarni hal qilish qobiliyati kabilarni rivojlantirishni talab qiladi [5, 4].

Elektron ta‘lim resurslari talabalarning ijodiy salohiyatini kengaytirish imkonini beradi, ularning ta‘lim faoliyati samaradorligini oshirishga yordam beradi va, shu bilan birga, an‘anaviy ta‘lim tizimi chegaralaridan tashqariga chiqadi. Ko‘rinib turibdiki, talabalar ishi jarayonida hayotiy ko‘nikma – mustaqil bilim olish malakasiga ega bo‘ladilar.

Binobarin, texnik fanlari doirasida o‘quv jarayonida elektron ta‘lim resurslaridan foydalanish talabaga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- talabalarning fan bo‘yicha muvaffaqiyati o‘shishiga yordam beradi;
- talabalarga uning uchun yangi darajada o‘zini namoyon qilish imkonini beradi;
- talabalarda mustaqil samarali faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishni ta‘minlaydi;
- har bir talaba uchun samarali mehnat sharoitini yaratishga hissa qo‘shadi;
- ularga motivatsiya beradigan qiziqarli mashg‘ulotlar o‘tkazishga imkon beradi;
- talabalarning bajarilgan vazifalarga ijodiy yondashishini shakllantirishni ta‘minlaydi, bu esa ularning o‘ziga ishonchini oshiradi.

Xulosa. Shunday qilib, elektron ta‘lim resurslaridan samarali foydalanish talabalarga o‘quv qiyinchiliklarini yengishda foyda keltiradi, shuningdek, o‘quv jarayonida o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida yanada yaqinroq va samarali hamkorlik qilish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi, ularning yangi bosqichda o‘zlarini qulay his qilishlarini kafolatlaydi. Ta‘lim formati, talabalarning rivojlanishida ilg‘or bo‘lishiga yordam beradi, ularga mustaqil ta‘lim uchun axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini beradi, ularni mustaqil va tadqiqot faoliyatini olib borishga undaydi.

Adabiyotlar

1. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta‘lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti.: Ped.fan.dokt. ... diss. avtoref. - T., 2007. - 37 b.
2. Olimov Q.T., Ashurova S.Y., O‘rinov U.A. Zamonaviy ta‘lim texnologiyalari: Monografiya. – Toshkent, 2007. - 96 b.
3. Urinov U.A. Organizational structure of relations between technical higher education institutions and industrial enterprises and students. Current research journal of pedagogics. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-02-12-11>
4. Urinov U.A. Social psychological priorities of social cooperation. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 2, 2020 Part II ISSN 2056-5852 Progressive Academic Publishing, UK Page 62 www.idpublications.org.
5. Urinov U. “Status and problems of cooperation with higher educational enterprise enterprises”, International Journal of Psychosocial Rehabilitation, vol. 24, no. 8, pp. 5277-5282, 2020. ISSN: 1475-7192.
6. Urinov U. Organization Of Production Training And Formation Of Practical Skills. European Journal of Molecular & Clinical Medicine ISSN 2515-8260 Volume 07, Issue 07, 2020.

Shaydulla MENGLIYEV

Termiz davlat universiteti
amaliy matematika va informatika
kafedrası dotsenti

VEB SAYTDA SUN'IY INTELLEKTNING AFZALLIKLARI

Maqolada masofaviy ta'limning mustaqil ta'lim sifatini oshirishdagi imkoniyatlari ko'rsatilib berilgan. Masofaviy ta'lim jarayoni o'qitish samaradorligi rag'batlantirish masalalari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, elektron qo'llanma, sayt.

В статье рассмотрены вопросы связанные с дистанционным образованием. Дано обоснование эффективности и повышения качества образования посредством дистанционного обучения.

Ключевые слова: дистанционное обучение, электронный гид, сайт.

The article deals with issues related to distance education. The rationale for the effectiveness and improvement of the quality of education through distance learning is given.

Key words: distance education, electronic guide, site.

Kirish. Butun dunyoda sun'iy intellekt keng ko'lamda rivojlanmoqda. Xususan, mamlakatimizda sun'iy intellekt tizimlari va uning inson hayotida tutgan o'rni kun sayin kengayib bormoqda. Hozirgi kunda juda ko'p rivojlangan davlatlarda sun'iy intellekt sohasini takomillashtirishga alohida urg'u berilmoqda. Globallashuv jarayonida ko'p axborotlar elektron tarzda qabul qilinmoqda, lekin axborotlarni tahlil qilishda inson idroki ojizlik qiladi. Shuning uchun ham veb saytlarda sun'iy intellekt qo'llanilmoqda. Bunga misol tariqasida siz endi veb saytlarda axborotlarni qidirish, xarid qilish va boshqa jarayonlarni ovozli tarzda amalga oshirishingiz mumkin bo'ladi [8-11].

Asosiy qism. Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev qator vazifalarni belgilab berdi. Bu vazifalarga “Raqamli O'zbekiston - 2030” Strategiyasiga muvofiq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini mamlakatimizda jadal joriy etish va ularni keng qo'llash, raqamli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta'minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta'minlash hamda ta'limning moddiy-texnik bazasini yangi o'quv adabiyotlari, zamonaviy jihozlar va jumladan, kompyuter texnikasi bilan ta'minlashni keltirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2021-yil 17-fevraldagi PQ - 4996-son Qarori vazifalarni qatorida keltirilgan:

sun'iy intellektni qo'llashning asosiy yo'nalishlari va tamoyillarini, shuningdek, yaqin va uzoq istiqbolda ushbu sohani kompleks shakllantirish uchun shart-sharoitlarni belgilovchi sun'iy intellektni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish;

iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada, davlat boshqaruvi tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishda yagona talablar, javobgarlik, xavfsizlik va shaffoflikni belgilovchi normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish;

aholi manfaatlari yo'lida davlat xizmatlari ko'rsatish sifatini yaxshilash, shuningdek, ma'lumotlarni qayta ishlashda davlat organlarining samaradorligini oshirish uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalanish;

foydali texnologik yechimlarni ishlab chiqish bo'yicha fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish va ularni keyinchalik tijoratlashtirishni rag'batlantiruvchi sun'iy intellekt sohasida innovatsion ishlanmalarning mahalliy ekotizimini yaratish;

sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llovchi dasturiy ta'minot ishlab chiquvchilariga raqamli ma'lumotlardan foydalanish uchun sharoit yaratish, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining tegishli ma'lumotlarini tezkor raqamlashtirishni ta'minlash;

sun'iy intellekt sohasidagi ilmiy ishlar va ishlanmalarning investitsion jozibadorligini shakllantirish, shu jumladan tovarlarning (ish va xizmatlarning) ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish;

mahalliy korxonalar va mutaxassislarining sun'iy intellekt sohasidagi axborot resurslari va bilimlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash, shuningdek, zarur ta'lim muhitini rivojlantirish;

qo'shma xalqaro tadqiqot faoliyatini amalga oshirish, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, respublikamizning nufuzli reytinglar va indekslarda pozitsiyasini yaxshilash maqsadida sun'iy intellekt va uni qo'llash texnologiyalari sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;

Elektron hukumat sohasida elektron davlat va moliya xizmatlarini ko'rsatishda foydalanuvchilarni

masofadan turib biometrik identifikatsiyalash (Face-ID) uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash;

sun'iy intellekt texnologiyalari asosida boshqaruv va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha innovatsion mahsulotlarni hamda ularning modellari, algoritmlari va dasturiy ta'minotini ishlab chiqish;

sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha yetakchi xorijiy innovatsion va ilmiy muassasalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish va qo'shma loyihalarni amalga oshirish.

Respublikamizda ham zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalari sohasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Fan va ta'limning barcha sohalariga infokommunikatsion texnologiyalarni keng miqyosda qo'llash, yuqori malakali dasturchi mutaxassislar tayyorlash darajasini oshirish, xalqaro axborot tizimlarini joriy etish, shu jumladan, internetni kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida 2019-yilning 19-mart kuni bo'lib o'tgan yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari, yoshlarning kitob o'qishga qiziqishini oshirish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni amalga oshirish to'g'risidagi videoselektorda respublika viloyatlarining barcha shahar va tumanlarida “Raqamli texnologiyalar o'quv markazlari”ni tashkil etish belgilab berilgan. 2019-yilning 21-noyabr kuni Toshkent shahridagi Inha universitetida “Bir million o'zbek dasturchilar” deb nomlangan loyiha ishga tushurildi. Yuqorida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan qo'yilgan masalalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zamonaviy o'quv adabiyotlar bazasini yaratish talab etiladi. Bu boradagi ishlar Respublikamizda fan va ta'limni yanada rivojlantirish imkonini berdi [1-4].

Masofaviy ta'lim tizimida barcha fundamental bilimlar asosan an'anaviy bosma shaklda tayyorlangan o'quv adabiyotlar, ovozi variantlar va video ishlanmalar orqali olinadi. Masofaviy ta'lim esa mustaqil bilim oluvchilarning tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarini rivojlantirishga va chuqurlashtirishga, yangi qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldirib borishga mo'ljallangan bo'lib, ixtiyoriy fanlar bo'yicha saytlar yaratiladi [12-13].

Hozirgi zamon mutaxassisi qaysi sohada ishlamasin, uning oldida o'zining sohasiga tegishli hodisa va voqealarni bilib turishi bilan birga, bilim saviyasini ham doimiy ravishda oshirib borishini shu bilan birgalikda o'z bilimini internet tarmog'i orqali yosh avlodga yetkazib berishni davr talab etmoqda.

Bu quyidagilardan iborat:

1. Jamiyat va fanning global rivojlanishining o'sish darajasi.
2. Ilmiy, uslubiy va boshqa turdagi materiallarning chop etish suratining o'sishi va ilmiy izlanishlarning murakkablashib rivojlanib borishi.

Ma'lumki, dunyoda ilmiy izlanishlar bo'yicha axborotlar doim o'sib, ularni tahlil qilish jarayoni tobora murakkablashib bormoqda.

Hozirgi kompyuter asosidagi telekommunikatsion aloqa orqali, ya'ni veb saytda an'anaviy o'qitish uslubidan foydalanib yuqori saviyada o'quvchilarga bilim berish va har-xil ko'rinishdagi o'quv materiallarni va video ishlanmalarni yetkazib berish imkoniyati mavjud.

Internetda sayt yaratish ijobiy axborotni tarqatishdagi vaqtni tejaydi va moliyaviy to'siqlarni yo'qotadi. Ta'lim olish tizimining samaradorligi oshadi va o'qitish tezlashadi. COVID 19 pandemiya vaqtida masofaviy o'qish jadal rivojlandi va o'z isbotini topdi.

Internetda axborot dunyosiga sayohat qilishda davlat chegaralari degan tushuncha yo'q. Salbiy axborotlarga eshikni yopsang derazadan kirib kelaveradi, salbiy axborotlarni chegaralab bo'lmaydi. Hozir internetda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo'lib borayotgan davrdir. “Ommaviy madaniyat”ning eng xunuk illatlari, olg'a surgan g'arazli g'oyalaridan biri bu, ko'ngilxushlik g'oyasidir. Ko'ngilxushlik g'oyasi deganda, insonning turmush tashvishlaridan bir oz bo'lsa-da chalg'ish, o'zining bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishni tushunish ham mumkin, agar buni xolis, samimiy izohlasak. Har qanday sog'lom ma'naviyatli insonlar o'z hayotining har bir daqiqasidan oqilona foydalangani holda, o'zi va boshqalarga foyda keltiradigan fa'oliyat bilan shug'ullanishga intiladi. Sof niyatda, ezgu mashg'ulotlar bilan o'zining bo'sh vaqtini fayzli, o'z talant, qobiliyatidan unumli foydalanishga harakat qiladilar. Ammo biz ushbu mavzuda tilga olayotgan ko'ngilxushlik g'oyasi tamomila boshqa, insonning insonligiga zid, ma'naviy olamini tubanlikning eng chuqur jarliklari sari yetaklashga qaratilgan, aqlsiz ko'ngilning tuban mayllarini qondirishga intilgani bilan o'ziga xos xarakterlanadi. Bugungi “ommaviy madaniyat”, buzg'unchi kuchlar tomonidan og'iz ko'pirtirib jar solinayotgan ko'ngilxushlik g'oyasi insonning hayot lazzalaridan xohlagan vaqt, istagan yerda va istagancha lazzatlanish, huzur qilish, bu yo'lda hech narsadan qaytmaslikni targ'ib qilish orqali maishatga izn beradi. Oqibatda g'arbni ma'naviy tubanlik sari undab, jar yoqasiga etaklab kelgan ko'ngilxushlik g'oyasi bugun Markaziy Osiyoga ham ma'naviy tahdid bo'lib turibdi [5].

Masofaviy ta'lim saytiga kiritilgan har bir ma'lumot markaziy manbadan kirishga imkon beradi. Qidiruv tizimlaridan bir nechta so'rovlarni bajarishingiz va kerakli ma'lumotlarni topishingiz mumkin, agar shu ma'lumot saytda mavjud bo'lsa, qidiruv tizimlari kalit so'zlar yordamida kerakli ma'lumotni topib

beradi, aynan kerakli bo‘lgan manba oz yoki bo‘lmasligi ham mumkin. Qidiruv tizimlari daromadni saytlar va reklamalardan topadi. Qidiruv tizimlari tushgan daromadni fanga sarflashga harakat qiladi, lekin davlat tili nuqtayi nazaridan bu tabaqalashtirilgan. Bu esa hamma foydalanuvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratilmaganligidan ayrim cheklovlar qo‘yadi. Agar shu zaylda ish tutiladigan bo‘lsa, kelajakda shu davlat tilida qidiruv tizimlari daromadi kamayib boradi.

Internetda tartibga solingan va tartibga solinmagan axborotlar oqimi ko‘payib bormoqda. Tartibga solingan axborotlar oqimiga veb saytlar kiradi. Tartibga solinmagan axborotlar oqimiga ijtimoiy tarmoqlar kiradi. Shu bilan birgalikda, asoslangan va asoslanmagan axborotlar mavjud. Asoslanmagan axborotlar oqimi ijtimoiy tarmoqlarni qamrab olgan. Internetda ko‘pchilik foydalanuvchilar bozorida hali ham ta‘limda foydalanuvchilar kam, ammo ko‘ngilochar foydalanuvchilar hukmronlik qilmoqda.

Bugungi kunda internetda salbiy axborotlar ko‘lami kengayib bormoqda, yosh avlodni axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida, ularning hayot yo‘llarini to‘g‘ri yo‘lga boshlaydigan va jamiyat talablariga javob beradigan axborotga to‘la bo‘lgan veb saytlar ko‘lamini kengaytirishimiz maqsadga muvofiqdir [14].

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilarni hisobga olib mamlakatimizda barkamol avlodni komil shaxs sifatida shakllantirishda axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida quyidagilarni tavsiya etish mumkin [14].

Birinchidan, ijobiy axborotga to‘la bo‘lgan veb saytlarni ko‘paytirish uchun har chorakda o‘qituvchilar va talabalarni rag‘batlantirish dasturini ishlab chiqish (o‘qituvchi va talaba veb sayti).

Ikkinchidan, har bir soha nominatsiyalarini foydalanuvchilarning quyi, o‘rta va yuqori pog‘onalarda ishlab chiqishni amalga oshirish muhimdir.

Uchinchidan, interaktiv xizmatlar ko‘lamining kengaytirilganligi va www.uz saytdan o‘tganligi va foydalanuvchilar reytingining nazoratini va ko‘rishlar sonini hisobga olish maqsadga muvofiqdir (shu sayt reytingi orqali baholash amalga oshiriladi).

To‘rtinchidan, mobil aloqa asosida global tarmoqdan ta‘lim oluvchilarning ko‘lami kengayganligini hisobga olib, veb saytni mobil aloqa vositalariga mosligi va yuklanish (tezlikni) darajasini hisobga olish.

Beshinchidan, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda, ayniqsa, yoshlar tarbiyasida turli xil mafkuraviy tahdidlarning oldini olish zarur bo‘lib, buning uchun ularning dunyoqarashida zamonaviy axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish lozimdir.

Oltinchidan, taraqqiyotning talabidan kelib chiqib, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishga turtki bo‘ladigan farmon va qarorlarni takomillashtirish.

Xulosa qilib aytganda, XXI asr fan-texnika asrida o‘sib kelayotgan yosh avlodni voyaga yetkazishda oilada, maktabda, kasb-hunar kolleji va akademik litseylarida hamda oliy o‘quv yurtlarida ularga chuqur bilim berish va odob-axloq qoidalarini ham birga olib borish bugungi kunda zamon talabi hisoblanadi. Buning uchun mamlakatimizda shart-sharoitlar yaratilgan bo‘lib, faqatgina buni amalga oshirish yoshlarimiz dunyoqarashining qanchalik shakllanganligi bilan bog‘liqdir [6-7].

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq -Toshkent, 2016. 56-b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruza, 2017-yil 14-yanvar. –Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. -104-b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruza. 2016-yil 7-dekabr. –Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. 48-b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 1-noyabrdan 24-noyabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. –Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. 488-b.

5. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. T.6. -T.: “O‘zbekiston”, 1998. 240-241-betlar.

6. Mengliyev Sh.A., G‘ulomqodirov K.A., Qoraxonov S.X. Uzluksiz ta’lim tizimida zamonaviy ta’lim texnologiyalardan foydalanish bilan bog‘liq muammolar. O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzluksizligi va uzviyligini ta’minlash yutuq va muammolari Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma’ruza tezislar to‘plami II-qism. -Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2012-y. 207 b.

7. Mengliyev Sh.A., Qoraxonov S.X., Uzluksiz ta’lim tizimida zamonaviy ta’lim texnologiyalardan foydalanish bilan bog‘liq muammolar. O‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi: “Uzviylik va uzluksizlik” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy seminarining maqolalar va ma’ruza tezislar to‘plami. -Toshkent moliya instituti, 2012. 252 b.

8. Менглиев Ш.А., Гуломқодиров К., Жўраева З.Қ., Масофавий ўқитишда web сайтларининг ўрни. IX Международная научно-практическая интернет-конференция, “Актуальные научные исследования в современном мире”. -Украина, 2016 г. -95 с.

9. Mengliyev Sh.A., Bozorov A.X., Xolliyev F.B. Elektron darslikdan foydalanishda ta’lim sifatini oshirish omili // Педагогика ва психологияда инновациялар. 2019.- №3 –Б.20-24.

10. Mengliyev Sh.A. Elektron darslik yordamida sayt yaratish texnologiyasi // Yosh olimlar va talabalar ishtirokida “XXI ASR – INTELLEKTUAL AVLOD ASRI” shiori ostida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari hududiy ilmiy-amaliy anjumani. 2016-yil 6-7 iyun. 321-324 b.

11. Mengliyev Sh.A., Xolto‘rayev X.F. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda veb saytning o‘rni // Namangan davlat universitetida o‘tkazilgan “Algebra, amaliy matematika va axborot texnologiyalari masalalari” respublika ilmiy konferensiyasi, 2016-yil 20-21-dekabr. -53 bet.

12. Mengliyev Sh.A. Ta’limda elektron darslikdan foydalanish usuli // Наманган давлат университетида ўтказилган “Algebra, amaliy matematika va axborot texnologiyalari masalalari” respublika ilmiy konferensiyasi, 2016-yil 20-21-dekabr. -208 b.

13. Normurodov Ch.B., Mengliyev Sh.A. PHP7 dasturlash tili O‘quv qo‘llanma. -Termiz: “Xamidi xususiy firmasi”, 2020. 218 bet.

14. <http://tami.uz/> - Kompyuter uchun qo‘llanma.

Gulbahor Xudonazarova
Buxoro davlat universiteti
umumiy va noorganik kimyo
kafedrasida dotsenti

Nargiza Amonova
Buxoro davlat universiteti
kimyo yo‘nalishi I bosqich magistranti

MAKTAB KIMYO FANINI O‘QITISHDA GRAFIK ORGANAYZERLARNING ROLI

Maqolada umumta’lim o‘rta maktablarda kimyo fanini o‘qitishda grafik organayzerlarning roli hamda dars jarayonida ma’lumotlarni tartiblashtirish va qayta tarkiblashtirishga doir “Insert” texnologiyasi, “Konseptual” va “Toifalash” jadvallaridan foydalangan holda o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatini o‘stirish, ijodiy izlanish, muayyan farazlarni ilgari surish, ma’lum xulosalarga kelish kabi ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan muhim ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etishi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim tizimi, tizimli fikrlash, grafik organayzer, “Insert” texnologiyasi, “Konseptual” va “Toifalash” jadvallari, amaliy ko‘nikma

В статье рассматривается роль графических органайзеров в обучении химии в общеобразовательных школах, а также раскрыто важное воспитательно-образовательное значение использования технологии “Insert”, концептуальных и классификационных таблиц для сортировки и перестановки данных во время урока в развитии творческих способностей, в формировании таких навыков и компетенций, как творческое исследование, выдвижение определенных гипотез, приход к определённым выводам.

Ключевые слова: система образования, структурное мышление, графический органайзер, вставная технология, концептуальные и классификационные таблицы, практические навыки

The article discusses the role of graphic organizers in the teaching of chemistry in secondary schools, as well as the development of creative abilities of students on the organization and reorganization of data in the classroom using the technology of “Insert”, “Conceptual” and “Classification” which play an important educational and pedagogical role in shaping skills and competencies such as creative research, advancing certain hypotheses, and coming to certain conclusions.


Key words: education system, structural thinking, graphic organizer, Insert technology, Conceptual and Classification tables, practical skills

Kirish. Mamlakatimizda kimyo va biologiya fanlarini rivojlantirish, ushbu yo‘nalishlarda ta’lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish maqsadida 2020-yil 12-avgustda Prezident Shavkat Mirziyoyev “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorini qabul qildi. Qarorda ta’kidlaganidek, “Umumta’lim maktablaridagi kimyo va biologiya fanlarini o‘qitish sifati bugungi davr talablariga javob bermasligini, o‘qitish metodologiyasi va laboratoriyalar ma’nan eskirganligini, o‘qituvchilarning mehnatini munosib rag‘batlantirish mexanizmlari joriy qilinmaganligini alohida qayd etish zarur” [1, 3].

Asosiy qism. Ta’lim tizimini tubdan isloh etish o‘quvchi-yoshlarimizning ongi, tafakkur va dunyoqarashini o‘zgartirish, kelajagiga bo‘lgan ishonchini oshirishning eng muhim omili va mustahkam asosiga aylantirishda o‘qituvchilarning ham hissasi katta hisoblanadi.

Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishida yana bir omilning mavjudligi, ya’ni uzluksiz ta’lim tizimi xodimlari, pedagog-o‘qituvchilar tomonidan zamonaviy ta’lim texnologiyalarining mohiyatidan xabardorliklari hamda ularni ta’lim jarayonida samarali qo‘llay olishlari, shuningdek, ta’lim jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvning qaror topishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shundan kelib chiqib, ta’lim jarayonida ham dars samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi grafik organayzerlarni qo‘llashga to‘g‘ri keladi [4]. Maktab kimyo darslarida grafik organayzerlardan foydalanishi uchun, o‘z navbatida, ma’lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo‘lib chiqish, o‘rganilayotgan tushunchalar (hodisa, voqealar, mavzular va shu kabilar) o‘rtasida aloqa va aloqadorlikni o‘rnatishning yo‘li va vositalarini bilish lozim [5]. Chunki bularni amalga oshirishda “Insert” jadvali, “Toifalash jadvali” va “Konseptual jadval”lardan foydalangan holda ish yuritilsa, o‘quvchilarning ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda dars samaradorligiga erishish imkoniyatlari vujudga keladi.(1-rasm)



1-rasm. Ma'lumotlarni tartiblashtirish va qayta tarkiblashtirish vositalari

Quyida umumta'lim o'rta maktablarda kimyo fanini o'qitishda grafik organayzerlarning roli hamda dars jarayonida ma'lumotlarni tartiblashtirish va qayta tarkiblashtirishga doir "Insert", "Konseptual" va "Toifalash" jadvallardan foydalangan holda dars ishlanmalarini havola etamiz.

"Insert" jadval – mustaqil o'qish vaqtida olingan ma'lumotlarni, eshitgan ma'ruzalarni tizimlashtirishni ta'minlaydi, olingan ma'lumotni tasdiqlash, aniqlash, chetga chiqish, kuzatish, avval o'zlashtirilgan ma'lumotlarni bog'lash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

O'quv faoliyatini tashkillashtirish jarayonida talabalar insert jadvalini to'ldirish qoidasi bilan alohida tanishadilar. Buning uchun o'qish jarayonida olingan ma'lumotlarni o'zlari tizimlashtiradilar va matnda belgilangan quyidagi belgilarga muvofiq jadval ustunlariga «kiritadilar»

“V” – men bilgan ma'lumotlarga mos

“ - ” – men bilgan ma'lumotlarga zid

“ + ” – men uchun Yangi ma'lumot

“ ? ” – men uchun tushunarsiz yoki ma'lumotni aniqlash, to'ldirish talab etiladi.

Insert jadvali

V	+	-	?

Kutiladigan natija: o'quvchilar yangi mavzu bilan tanishadilar, ta'lim texnologiyalarining ilmiy-nazariy asoslari haqida ma'limot oladilar.

Umumta'lim o'rta maktablarning 8-sinf kimyo fanidan “Eng muhim asosiy mineral o'g'itlar” mavzusini o'tishda o'quvchilarga eng muhim asosiy mineral o'g'itlar haqida nazariy ma'lumotlar berish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga darsni boshlashdan oldin “Insert“ jadvalini daftarlariga chizib qo'yishni topshirilgan holda jadvalni to'ldirib borishadi. Darsni mustahkamlash bosqichida o'quvchilar tomonidan to'ldirilgan “Insert“ jadvali tahlil qilinadi, bunda o'tilgan yangi mavzu bo'yicha o'qituvchi “Insert“ jadvalining “ - ” – men bilgan ma'lumotlarga zid va “ ? ” – men uchun tushunarsiz yoki ma'lumotni aniqlash, to'ldirish talab etiladi degan qismlariga e'tiborini qaratadi.

“Insert“ jadvalidan uyga vazifa berishda yoki yangi mavzunu o'tishdan oldin o'quvchilarga jadvalni to'ldirib kelishda ham foydalanilsa bo'ladi.

Toifalash jadvali – xususiyat va munosabatlarning muhimligini namoyon qiluvchi (umumiy) alomat. Ajratilgan alomatlar asosida olingan ma'lumotlarni birlashtirishni ta'minlaydi. Tizimli fikrlash ma'lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bunda o'quvchilar sharhlashni tuzish qoidasi bilan tanishadilar.

O'quvchilar toifalarni jadval ko'rinishida rasmiylashtiradilar. G'oyalarni, ma'lumotlarni toifaga mos ravishda bo'ladilar. Ish jarayonida toifalarning ayrim nomlari o'zgarishi va yangilari paydo bo'lishi mumkin. Jarayonning oxirida ish natijalarining taqdimoti ko'riladi.

Toifalash sharhini tuzish qoidasi quyidagilardan iboratdir:

- toifalar bo'yicha ma'lumotlarni taqsimlashning yagona usuli mavjud emas;

- bitta mini (kichik) guruhda toifalarga ajratish boshqa guruhda ajratilgan toifalardan farq qilishi mumkin;

- ta’lim oluvchilarga oldindan tayyorlab qo’yilgan toifalarni berish mumkin emas, bu ularning mustaqil ishlari bo’la qolsin.

Umumta’lim o’rta maktablarning 8-sinf kimyo fanidan “Eng muhim asosiy mineral o’g’itlar” mavzusini o’tishda o’quvchilarga eng muhim asosiy mineral o’g’itlar haqida nazariy ma’lumotlar berilgach, mustaqil ravishda “Toifalash jadvali”ni to’ldirilishi topshiriq sifatida beriladi

Toifalash jadvali

Mineral o’g’itlarning sinflanishi				
O’g’itlar	O’g’itlar nomi	Kimyoviy tarkibi	Ozuqa miqdori,%	Agregat holati
Azotli o’g’itlar (ozuqa elementi N)	Natriy nitrat (natriyli selitra)	NaNO ₃	15 - 16	Oq, kulrang, gigroskopik modda. Suvda yaxshi eriydi
	Kaliy nitrat (kaliyli selitra)			
	Ammoniy nitrat (ammoniyli selitra)			
	Ammoniy sulfat			
	Karbamid (mochevina)			
Fosforli o’g’itlar (ozuqa elementi P ₂ O ₅)	Oddiy superfosfat	Ca(H ₂ PO ₄) ₂ *2H ₂ O*CaSO ₄ *2H ₂ O	20	Kulrang, mayda donador kukun
	Qo’sh superfosfat			
Kaliyli o’g’itlar (ozuqa elementi K ₂ O)	Kaliy xlorid	KCl	52 - 60	Oq mayda kristall modda
Murakkab o’g’itlar	Ammoniy digidrofosfat	NH ₄ H ₂ PO ₄	N va P ₂ O ₅	Oq kristall modda
	Ammoniy gidrofosfat			

“Eng muhim asosiy mineral o’g’itlar” mavzusini o’tishda grafik organayzerlardan “Konseptual” jadvalni ham qo’llash mumkin. Buning uchun mavzuni o’tib bo’lgach yoki uyga vazifa sifatida ham berish mumkin.

Konseptual jadval – o’rganilayotgan hodisa, tushuncha, fikrlarni ikki va undan ortiq jihatlarini bo’yicha taqqoslashni ta’minlaydi. Tizimli fikrlash, ma’lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko’nikmalarini rivojlantiradi. Konseptual jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Taqqoslanadiganni aniqlab, olib boriladigan taqqoslanishlarga xos xususiyatlarni ajratadilar. Alohida yoki kichik guruhlarda konseptual jadvalni to’ldiradilar.

- uzunlik bo’yicha taqqoslanadigan fikr, nazariyalar joylashtiriladi;
- vertikal bo’yicha taqqoslashda olib boriladigan turli tavsiflar yoziladi;
- ish natijalarining taqdimoti

O’quvchilarga mineral o’g’itlarning toifalari bo’yicha taqsimlash ham mumkin, yani guruh o’quvchilari 3 guruhga bo’linadi va har bir guruhga alohida mineral o’g’itlar haqidagi ma’lumotlarni topib, quyidagi “Konseptual jadval” to’ldiriladi.

Azotli o’g’itlar	Xossalari	O’simliklar ga ta’siri	ishlatilishi	Grafik tuzilishi
(NH ₄) ₂ SO ₄				
NH ₄ NO ₃				
Ca(NO ₃) ₂				
CO(NH ₂) ₂				

Umumta’lim o’rta maktablarda kimyo fanini o’qitishda grafik organayzerlarning roli hamda dars jarayonida ma’lumotlarni tartiblashtirish va qayta tarkiblashtirishga doir “Konseptual” va “Toifalash” jadvallaridan foydalangan holda o’quvchilarning ijodiy qobiliyatni o’stirish, ijodiy izlanish, muayyan farazlarni ilgari surish, ma’lum xulosalarga kelish kabi ko’nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan muhim ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etishi ko’rsatilgan.

Konseptual” va “Toifalash” jadvallari o‘quvchilar tomonidan to‘dirilgach, o‘qituvchi mavzuni yakunlaydi va mustahkamlaydi. So‘ngra o‘qituvchi tomonidan berilgan vazifalar tekshirilib baholanadi.

Xulosa. Shunday qilib, umumta’lim o‘rta maktablarda kimyo darslarida grafik organayzerlardan foydalanishi uchun, o‘z navbatida, ma’lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo‘lib chiqish, o‘rganilayotgan tushunchalar (hodisa, voqealar, mavzular va shu kabilar) o‘rtasida aloqa va aloqadorlikni o‘rnatishning yo‘li va vositalari orqali dars tashkil etish o‘quvchilarning yangi mavzuni o‘zlashtirishlari hamda mustaqil fikrlashiga mustahkam zamin tayyorlaydi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyul “Innovation faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-630-sonli Qonuni.
2. 2020-yil 12-avgustda Prezident Shavkat Mirziyoev “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabr “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.
4. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. - Toshkent, 2010. - B.147.
5. Xudoynazarova G.A. Kimyo darslarini o‘tishda qo‘llaniladigan innovatsion texnologiyalar. –Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2020. -160 b.
6. Xudoynazarova G.A. O‘quvchilarni kimyo fanini o‘qitishda kitob bilan ishlashga o‘rgatish. “O‘zbekistonda ilmiy – amaliy tadqiqotlar” mavzusidagi Respublika miqyosida o‘tkaziladigan 16-ko‘p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya. 2020-yil 20-may. B.166-1687.
7. Xudoynazarova G.A., Nurmurodova M.A. Kimyo darslarida muammoli o‘qitish orqali o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish. “Mahalliy xomashyolar va ikkilamchi resurslar asosidagi innovatsion texnologiyalar” Respublika ilmiy-texnik anjumani materiallar to‘plami. 1-jilt/Urganch. 2021-yil 19-20-aprel.B.306-307
8. Xudoynazarova G.A., Nurmurodova M.A. Kimyo fanini o‘qitishda muammoli ta’lim texnologiyalarini ahamiyati. Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2021. №6 B.187-191
9. Amonova N.M., Xudoynazarova G.A. O‘quvchilarga kimyoviy bilimlarni berishda “Nima uchun?” sxemasidan foydalanish. “Biologik kimyo fanining zamonaviy tibbiyotdagi o‘rni – kecha, bugun va erta” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. -Buxoro, 2022. 15-16-aprel. B.133 -135
10. F.Sh.Ergashova., G.A.Xudoynazarova. Kimyo darslarida kechlardan foydalanish. “Biologik kimyo fanining zamonaviy tibbiyotdagi o‘rni – kecha, bugun va erta” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – Buxoro, 2022. 15-16 aprel.B.142 -144

Maxmuda TOYIROVA

Buxoro viloyat xalq ta’limi xodimlarini
qayta tayyorlash va ularning malakasini
oshirish hududiy markazi
aniq va tabiiy fanlar metodikasi
kafedrası o‘qituvchisi

**UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA O‘QUVCHILAR KREATIV
SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI**

Maqolada O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA xalqaro baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish maqsadidan kelib chiqib, umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarida kreativ sifatlarni shakllantirish muhimligi, bu borada o‘quv jarayonini kreativ yo‘naltirish masalalari hamda “Suv va eritmalar” mavzusidagi amaliy mashg‘ulot ishlanmasi misolida o‘quvchilarda kreativ sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish yo‘llari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: PISA, kreativ sifatlarni, ijodkorlik, anomal xossa, termoregulyator, erituvchi, eruvchanlik, diffuziya, geterogen, gomogen.

В статье рассматривается важность формирования творческих качеств у учащихся средних школ, с целью выхода Республики Узбекистан к 2030 году в число 30 лучших стран мира в рейтинге международной оценочной программы PISA. направленность учебного процесса и разработка практических занятий по теме “Вода и растворы” показывают пути формирования и развития творческих качеств у учащихся.

Ключевые слова: PISA, творческие качества, креативность, аномальные свойства, терморегулятор, растворитель, растворимость, диффузия, гетерогенный, гомогенный.

Article indicates that, shaping the creative qualities of students in general secondary schools plays an important role in development of the public education system of the Republic of Uzbekistan until 2030, which aims to make the Republic of Uzbekistan one of the top 30 developed countries in the world, according to PISA international assessment program by 2030. PISA assignments require students to take a creative approach based on their theoretical knowledge, and organization of the learning process (lessons) in this direction.

Key words: PISA, creative qualities, creativity, anomalous properties, thermoregulator, solvent, solubility, diffusion, heterogeneous, homogeneous.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish maqsadi belgilab qo‘yilgan [1]. Ushbu maqsadga erishish uchun bugungi kunda tabiiy fanlarni o‘qitishning ko‘proq amaliyotga asoslangan hamda shu asosda o‘quvchilarda kreativ sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan metodlar keng qo‘llanilmoqda.

Asosiy qism. PISA – bu 15 yoshli o‘quvchilarning matematika, tabiiy fanlar va o‘qish savodxonligini baholashga qaratilgan xalqaro dastur bo‘lib, o‘tgan yillarda xalqaro PISA tadqiqotlarida qo‘llanilgan testlar o‘rganilganda ulardagi topshiriqlarning aksariyati nazariy bilimlarni amalda qo‘llashga qaratilgani, topshiriqlarni bajarishda o‘quvchilarni ijodiy, kreativ sifatlarga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etishi ma’lum bo‘ldi. Hozirda o‘quvchilarda kreativ sifatlarni shakllantirish faqat bu kabi xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish uchun emas, balki mamlakatimiz ko‘p tomonlama rivojlanishi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

“Create” - lotincha so‘z bo‘lib, - yaratuvchanlik, ijodkorlik degan ma’noni bildiradi. Agar ta’lim jarayoni o‘quvchi-talabalar faolligiga asoslangan muammoli, dasturlangan, loyihalar jadallashtirilgan holda kechsa, u holda kreativ yo‘nalishga ega bo‘lib, o‘quvchi-talabalarning faolligi tufayli u yangilik, ijodkorlik sari yetaklaydi [2, 449].

O‘quv jarayonini kreativ yo‘naltirish uchun:

1. O‘quv jarayoni o‘quv materialini berib borish, boshqa qiziqarli qo‘shimcha materiallarni taklif etish va o‘quvchilarni izlanishga, ijodkorlikka yo‘naltiruvchi material asosida ularni o‘z ehtiyoji, xohishi bilan yangilik sari yetaklash.

2. O‘quv jarayonini ham shunday o‘zgartirish kerakki, o‘quvchilar o‘quv materiallarining yaratuvchisiga aylanib, berilgan o‘quv materiali o‘sha yaratuvchilikka xizmat qilsin.

3. O‘quv materiallariga yangi qo‘shimchalar kiritish orqali evristik strategiya, taktika, metod va usullar taklif etish orqali o‘quvchilarning ijodiy fikrlashga bo‘lgan qiziqishini oshirish kerak [2, 451].

Hozirgi kun ta‘lim tizimining bosh va asosiy maqsadi ham ijodiy fikrlaydigan malakali mutaxassislarni va yuksak darajadagi fikr yurituvchi shaxsni tarbiyalash va tayyorlashdan iborat.

Ijodkor yaratuvchi shaxsni, malakali mutaxassisni tarbiyalash - fanga ma‘lum bo‘lgan bilimlarning o‘zinigina o‘zlashtirish bilan kifoyalanmay, olingan bilimlar zahirida yangi bilimlarni kashf etishlari bilan muhimdir.

Hozirgi zamon ta‘limining bosh va asosiy vazifasi – o‘quvchilarning intellektual darajasini, yaratuvchanligini, ijodkorligini, izlanuvchanligini takomillashtirish orqali ularni yangi bilimlarni olish, yaratishga ruhlantirishga qaratilmog‘i kerak.

Ma‘lumotlarga qaraganda (yoshlar psixologiyasiga ko‘ra) olti yoshgacha bo‘lgan bolalar 40% iste‘dod potensialiga ega ekanlar. Bolalar eng kichik yoshdanoq ijodkorlik, yaratuvchanlikka juda moyil bo‘lar ekan. Agar shu davrda u bilan olib borilayotgan ta‘lim jarayoniga faqat an‘anaviy ta‘lim asosida yondashilsa, undagi ijodkorlikka moyillik so‘nib boradi. O‘quv-biluv ijodkorlikka yo‘naltirilsa - uning faolligi, yaratuvchanlik qobiliyati oshib boradi [2, 449]. Shu tufayli, o‘quvchilarda nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llash jarayonida mashg‘ulot kreativ sifatlarini rivojlantirish maqsadida turli tajribalarni amalda bajarishga asoslanishi lozim. Quyida “Suv – erituvchi” mavzusiga oid amaliy mashg‘ulot misolida o‘quvchilarda kreativ sifatlarini shakllantirish masalalarini qarab chiqamiz.

Tirik organizmlarning to‘qimalarida, hujayralarida suv bo‘ladi. Masalan, inson tanasining o‘rtacha 65%ini suv tashkil etadi. Agar inson o‘z tanasidagi suvning 10-12%ini yo‘qotsa, halok bo‘lishi mumkin.

Suv o‘simliklar, hayvonlar va insonlar hayotida juda katta ahamiyatga ega. Hayotning o‘zi, kelib chiqib rivojlanishi ham dengiz suvi bilan bog‘liq.

Suvning anomal fizik xossalari ham hayotiy jarayonlarni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Agar suyuqlikdan qattiq holatga o‘tishda suvning zichligi boshqa moddalarniki kabi ortganda edi, suv yuzasi 0°C da muzlab, tagiga cho‘kardi. Natijada hamma suv muzga aylanib, hayotning ko‘plab shakllari qirilib ketar edi. Lekin suv +4°C da eng yuqori zichligiga ega bo‘lishi bu kabi hodisaning yuz berishiga yo‘l qo‘ymaydi. Kam zichlikka ega bo‘lgan muz suv yuzasida qoladi va pastki iliq qatlamlarni muzlashdan saqlab turadi, hayot shakllarini sovuqdan himoya qiladi.

Suvning yuqori issiqlik sig‘imiga egaligi ham yerdagi hayot uchun foydali. Yer yuzining 3/4 qismini egallagan dunyo okeani suvi quyoshdan olgan energiyani o‘zida saqlab turadi. Bu esa yer shari yuzasida normal hayotiy faoliyatni ta‘minlovchi o‘ziga xos termoregulator rolini bajaradi.

Sanoat, asosan, chuchuk suv bilan ishlashga moslashgan. Ma‘lumotlarga ko‘ra, har yili kishi boshiga o‘rtacha 8000 l suv ishlatiladi. Bu qatorga xo‘jalik ehtiyojlari ham, qishloq xo‘jaligi va sanoat ehtiyojlari ham kiradi.

Chuchuk suvning 10 foizi uy ehtiyojlari uchun, qolgan qishloq xo‘jaligi va sanoat uchun sarflanadi. 1 kg qand olish uchun 400 l, 1 kg bug‘doy olish uchun 1500 l, 1 kg sintetik rezina olish uchun 2500 l atrofida suv sarflanadi.

Suv ko‘plab sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda sovitkich, erituvchi muhit, tozalov vositasi kabi vazifalarni bajaradi. Suvning qishloq xo‘jaligidagi roli hammamizga ma‘lum: o‘simliklarni, hayvonlarni sug‘orishda faqat chuchuk suvdan foydalaniladi [3, 83].

Eritma - erituvchi, erigan modda va ularning o‘zaro ta‘sirlashuv mahsulotlaridan iborat bir jinsli tuzilmadir. Eritmada modda molekula yoki atom o‘lchamlarida bo‘lgani uchun erituvchi molekulari orasida taqsimlangan va tarqalgan bo‘ladi. Masalan, dorixonalardagi yodning spirtidagi eritmasida yod molekulari spirt molekulari orasida tarqalgan bo‘ladi. Bu eritma tiniq, filtdan o‘tganda hech narsa qolmaydi. Bunday eritmalar haqiqiy eritmalar deb ataladi [3, 88].

Suyuq eritmalarda erituvchini aniqlash qiyinchilik tug‘dirmaydi. Birinchidan, erituvchi erigan moddaga nisbatan muhit sanaladi. Erituvchi molekulari soni erigan modda molekulariga nisbatan ko‘proq bo‘ladi. Ikkinchidan, erituvchi muhit sifatida eritmaning agregat holatini belgilaydi: agar eritma suyuq bo‘lsa, demak muhit ham suyuq bo‘lgan. Turli qattiq moddalarning suvda erishidan, masalan tuzlarni, tuzning suvdagi eritmasi hosil bo‘ladi, suvning tuzdagi eritmasi emas.

Tabiatda suvli eritmalar juda keng tarqalgan. Hattoki, tabiatda suv mavjud emas, faqat suvli eritmalar mavjud deyish mumkin. Suv erituvchi sifatida tirik organizmlarning suyuq muhitining asosi hisoblanadi. Juda ko‘p o‘simlik va hayvon tiplari uchun suv yashash muhiti hisoblanadi [4, 95].

Suv inson hayoti va amaliy faoliyatida katta ahamiyatga ega. Oziq-ovqat mahsulotlarini o‘zlashtirish jarayoni oziq moddalarni suv yordamida eritma holiga o‘tkazish bilan bog‘liq. Barcha muhim fiziologik

suyuqliklar (qon, limfa va b.) suvli eritmalaridir. Asosida kimyoviy jarayonlar yotadigan ko‘plab ishlab chiqarish sohalarida suvli eritmalaridan foydalaniladi.

Suyuq eritmalar ikki yoki undan ortiq tarkibiy qismlardan iborat suyuq gomogen (bir jinsli) tuzilmalaridir.

Tabiatda suv juda ko‘plab tuzlarni eritgan holda bo‘ladi. Umuman olganda, suvda deyarli barcha moddalar eriydi. Ba’zi moddalar juda yaxshi, ayrimlari o‘rtacha, yana bir xillari yomon eriydi.

Yomg‘ir suvi atmosferaning quyi qavatlaridan o‘tadigan qisqa vaqt ichida o‘zida sezilarli darajada turli moddalarni erita oladi va bug‘latilganda 1000 g yomg‘ir suvidan 3-5 g qattiq qoldiq qoladi. Tuproqqa tushgan suv tarkibida erigan moddalar tuproq va tog‘ jinslaridagi tarkibiy qismlar bilan kimyoviy ta’sirlashib, tabiatda uzluksiz davom etadigan tuproq hosil bo‘lishi, tog‘ jinslarining yemirilishi va yangi minerallar hosil bo‘lish jarayonlarida faol ishtirok etadi.

Suv shunday erituvchi moddaki, u gazlarni ham (kislorod, vodorod, karbonat angidrid va b.), suyuq moddalarni ham (spirt, kislotalar va b.), qattiq moddalarni ham (tuzlar, minerallar va b.) erita oladi.

Eruvchanlik - moddaning erish qobiliyati.

Suvda biror modda, masalan, qand erishini kuzatamiz. Xona haroratida (20°C) 100 g suv 200 g qandni erita oladi. Undan ortiq miqdor qand bu haroratda boshqa erimaydi. Bunday eritma to‘yingan eritma deb ataladi, chunki unda ortiqcha miqdor qandni eritib bo‘lmaydi.

Eruvchanlik o‘lchami moddaning ma’lum sharoitda to‘yingan eritmadagi miqdori bilan belgilanadi.

To‘yingan eritma - ayni haroratda eruvchi moddadan ortiqcha erita olmaydigan eritma.

Eruvchanlik 100 g erituvchida moddadan qancha erishi bilan belgilanadi.

Agar 100 g erituvchida modda 10 g dan ortiq erisa - yaxshi eruvchan, 10 g dan kam erisa - oz eruvchan, 0,01 g dan kam erisa - amalda erimaydigan modda hisoblanadi [3, 85-87].

Qattiq moddalarning suyuqliklarda eruvchanligi - erigan modda, erituvchi modda tabiatiga va temperaturaga bog‘liq bo‘ladi. Qattiq modda suyuqlikda eritilganida, eritma ma’lum konsentratsiyaga yetganidan keyin qattiq jism erishdan to‘xtaydi va eritma bilan qattiq modda orasida muvozanat qaror topadi. Bu darajaga kelgan eritma - to‘yingan eritma deb ataladi. Ayni temperaturada har qanday moddaning to‘yingan eritmasi konsentratsiyasi o‘zgarmas kattalik bo‘lib, o‘sha qattiq moddaning eruvchanligini xarakterlaydi. Ma’lum sharoitlarda ayni moddaning to‘yinish darajasidan yuqori konsentratsiyaga ega bo‘lgan eritmasini tayyorlash mumkin: bunday eritma o‘ta to‘yingan eritma deb ataladi. Lekin bunday eritmalar juda beqaror bo‘ladi: ularni chayqatilganida, silkitilganida yoki ularga biror kristall zarracha tushib qolganida ortiqcha erigan qattiq moddani chiqarib yuborilsa, eritma to‘yingan eritma holatiga o‘tadi.

Erish jarayoni issiqlik chiqarish yoki issiqlik yutish bilan sodir bo‘ladi, chunki erish vaqtida ikki jarayon amalga oshadi - biri kristall panjaraning yemirilishi, ikkiinchisi solvatlanish, erituvchi sifatida suv bo‘lsa, gidratlanish sodir bo‘ladi [6, 113-114].

Osh tuzi oz eruvchan modda. Agar 200 g 20%li osh tuzi (natriy xlorid) eritmasiga yana 20g osh tuzi qo‘shilsa, birozdan so‘ng ozroq miqdorda -2,4 g erimaydigan cho‘kma tushadi. Osh tuzining maksimal konsentratsiyali eritmasi hosil bo‘lgani tufayli erish to‘xtadi. Bu eritma to‘yingan eritma hisoblanadi. Tajribani yana davom ettirish mumkin: olingan eritmaga yana 10g (yoki biron bir boshqa miqdorda) osh tuzi qo‘shiladi. Cho‘kma massasi ortadi, lekin eritma konsentratsiyasi o‘zgarmaydi. Erigan modda massasi cho‘kma massasiga bog‘liq emas. Bu to‘yingan eritmaning muhim xossasi hisoblanadi. Shu kabi eritmalar konsentratsiyasi asosida moddalarning eruvchanligi bo‘yicha hukm chiqarish mumkin [4, 97].

Ko‘pchilik qattiq moddalarning eruvchanligi harorat ortishi bilan ortadi. Masalan, ayni haroratda tuzning eruvchanligi 30ga teng. Bu degan so‘z 100 g suvda ayni haroratda shu tuzdan 30 g eriy oladi degan ma’noni anglatadi. Demak, moddaning ayni sharoitdagi to‘yingan eritmasini haroratni oshirish bilan to‘yinmagan eritmaga yoki aksincha, haroratni kamaytirish bilan to‘yinmagan eritmani to‘yingan eritmaga aylantirish mumkin [3, 87].

Qattiq moddalarning ko‘pchiligi suvda eruvchanligi harorat ortishi bilan ortadi, chunki ko‘pchilik qattiq moddalar eriganda issiqlik yutiladi. Shuning uchun harorat ko‘tarilishi bilan ularning eruvchanligi ortadi.

Masalan: tuzli suv tayyorlanganda, 1 stakan sovuq suvga tuz solib aralashtirsak, tuz sekin-asta eriydi, ba’zan erimay qolgan tuz idish tagida qolib ketishini ko‘rganmiz. Endi shunday miqdordagi tuzni 1 stakan issiq suvga solib aralashtirsak, tuz tezda erib ketadi. Ushbu misoldan xulosa qilib aytishimiz mumkin-ki, qattiq moddalarda harorat eruvchanlikka to‘g‘ri proporsional ya’ni harorat ko‘tarilganda tuzlarning eruvchanligi ham ortib boradi va ko‘proq miqdorda tuz suvda eriydi [7, 66].

Lekin tuzlarning eruvchanligiga harorat ortishining ta’siri turlicha ekanligini mis sulfat (CuSO_4), natriy xlorid (NaCl , osh tuzi) va litiy sulfat (Li_2SO_4) tuzlarining eruvchanligi misolida ko‘rishimiz mumkin.

Harorat ma'lum darajaga ko'tarilganda mis sulfatning eruvchanligi shiddatli ortadi, natriy xloridning eruvchanligi shu harorat intervalida deyarli o'zgarmaydi, litiy sulfatning eruvchanligi esa harorat ortishi bilan kamayadi [8, 142].

To'yinmagan eritmada ayni moddadan yana qo'shimcha miqdor eritish mumkin. Bir bo'lak qand bir stakan suv yoki choyga solinganda erishni boshlaydi va qandning barchasi erib, konsentratsiyasi oshib borgunga qadar to'yinmagan eritma hosil qiladi. Bu stakanda yana bir necha qand bo'lagini eritish mumkin [4, 97].

Agar biror shisha silindr tagiga biror moddani, masalan, kaliy bixromatning quyuq eritmasi solinib, uning ustiga ehtiyotlik bilan suv quyilsa, modda zarrachalari vaqt o'tishi bilai asta-sekin yuqoriga ko'tarilib, butun suyuqlik hajmiga baravar tarqala boshlaydi. Modda zarrachalari garchi suv zarrachalaridan og'ir bo'lsa ham, ular yuqoriga ko'tarilaveradi. Bu o'zaro aralashish jarayoni butun hajmda moddalarning konsentratsiyasi bir xil bo'lguncha davom etadi: bunda diffuziya hodisasi sodir bo'ladi. Lekin, eritmada diffuziya gazlardagi diffuziyaga qaraganda sekin boradi. Ammo suyuqliklardagi va gazlardagi diffuziyaning sababi bitta, u ham bo'la, zarrachalarning tartibsiz harakatidir [6, 116].

Eritmalar fizikaviy kimyo fani tomonidan o'rganiladigan eng asosiy sistemalardan biri hisoblanadi. Bu sistemalar hayotda va texnikada juda katta ahamiyatga ega, shu sababli ham fizikaviy kimyo fan sifatida eritmalar nazariyalarini yaratish natijasida vujudga kelgan. Shunga qaramasdan eritmalar nazariyasi hozirgi kungacha ham mukammal emas. Buning sababi, birinchi qarashda oddiy ko'ringan ushbu sistemalarning juda ham murakkabligi bilan bog'liq.

Deyarli har bir texnologik jarayonlarda eritmalar qo'llaniladi. Insonlar iste'mol qiladigan oziq-ovqat mahsulotlarining ko'pi ham suvli eritmalaridir. Hayvon va o'simliklardagi asosiy biokimyoviy jarayonlar hamda kimyoviy reaksiyalarning asosiy qismi ham eritmalarda boradi. Suvning hayotdagi beqiyos ahamiyati mana shular bilan belgilanadi.

Fizik-kimyoviy nuqtayi nazardan eritma deganda nima tushuniladi? Eritma kamida ikkita moddadan (komponentdan) iborat bo'ladi, demak eritma bir necha moddalarning aralashmasidir. Lekin har qanday aralashma ham eritma bo'la olmaydi. Tabiatda uchraydigan barcha aralashmalarni ikkiga bo'lish mumkin: geterogen va gomogen.

Geterogen aralashmalarga suspenziya va emulsiyalarni misol qilish mumkin. Bunday ko'p fazali sistemalar turli qismlarda turlicha fizik-kimyoviy xossalarga ega bo'ladi. Bunday mexanik aralashmalarning komponentlari oddiy usullarda (masalan, filtrlash orqali) bir-biridan ajratilishi mumkin.

Gomogen aralashmalar bir jinsli bo'lib, ularning hamma qismlari bir xil fizik-kimyoviy xossalarga ega bo'ladi. Ularning komponentlari orasida chegara sirt bo'lmaydi va shu sababli oddiy mexanik usullarda bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Eritmalar bir jinslili undagi komponentlarning alohida molekulalargacha yoki molekulalarning (ayrim hollarda ionlar yoki atomlarning) kichik assotsiatlarigacha bo'linganligi bilan bog'liq. Mana shuning uchun ham chin eritmalar molekulyar-dispers sistemalar ham deb atashadi.

Eritmalar o'zining tarkibi ma'lum chegarada uzluksiz o'zgarishi mumkinligi bilan kimyoviy birikmalardan farq qiladi. Erish jarayoni moddalarning oddiy aralashish jarayonidan murakkabroq jarayondir, bunda erituvchi bilan eriyotgan modda o'rtasida o'zaro ta'sirlar bo'ladi. Bunday ta'sirlar kimyoviy ta'sirlardan o'z xususiyatlari bilan farq qiladi va bir oz kuchsizroq bo'ladi. Lekin ba'zi hollarda erish jarayonidagi o'zaro ta'sirlar natijasida xuddi kimyoviy reaksiyalardagi kabi issiqlik effektlari kuzatiladi.

Demak, eritma mexanik aralashma bilan kimyoviy birikma o'rtasidagi holatni egallaydi va uni quyidigacha ta'riflash mumkin: chin eritma-tarkibi ma'lum chegarada uzluksiz o'zgartirilishi mumkin bo'lgan bir jinsli molekulyar-dispers sistemadir.

Muhokamalar va natijalar. Eritmalarga berilgan ta'rifdan ularning turli-tuman bo'lishi mumkinligi ko'rinib turibdi. Haqiqatdan ham, eritmalar gaz, suyuq va qattiq agregat holatlarida mavjud bo'lishi mumkin. Suyuq agregat holatidagi, ayniqsa suvdagi eritmalar juda katta amaliy ahamiyatga ega. Shuning uchun ham ba'zi olimlar suyuq agregat holatida bo'lgan gomogen aralashmalarni chin eritmalar deb nazarda tutishni taklif qilmoqdalar. Qattiq holatda ham bir jinsli bo'lgan aralashmalar (aralash kristallar, ayrim qotishmalar, minerallar) mavjud bo'lib, mineralogiya va metallurgiyada ularning ahamiyati katta [5, 27-28].

Suvdan sanoatda keng ko'lamda foydalanish - oqova suvlar tozaligini va atrof-muhitni himoya qilishni ta'minlash muammosini keltirib chiqarmoqda. Bu masala muammoga kompleks yondashilgandagina ijobiy hal etilishi mumkin.

Insonlarni toza ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun ochiq suv havzalaridagi tarkibi turli xil tuzlar, gazlar, bakteriya va viruslar hamda mexanik aralashmalardan iborat bo'lgan tabiiy suvni tozalash zarur. Buning uchun ochiq suv manbalaridagi suv uch bosqichda tozalovdan o'tadi.

1-bosqich: suv mexanik unsurlardan tozalanadi. Buning uchun koagulyatsiya usulida loyqa va turli xildagi qo‘shimchalardan tozalanadi.

2-bosqich: birinchi bosqichdan o‘tgan tiniq suv toza qum yordamida filtrlanadi va kolloid holdidagi qo‘shimchalar hamda zararli mikroblardan tozalanadi.

3-bosqich: Ikkinchi bosqichdan o‘tgan tiniq va toza suv xlorlanadi. Aholiga tarqatiladi.

Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma‘lumotiga ko‘ra, bugungi kunda jahonda 1,2 milliard odam toza ichimlik suvi bilan yetarli ta‘minlanmagan.

2050-yilga borib yer yuzi aholisining 75 foizi toza ichimlik suvi yetishmasligi bilan aziyat chekishi mumkin [3, 84-85].

Suv ayrim o‘simlik, hayvon va mikroorganizmlar uchun yashash muhiti bo‘lish bilan birga u erituvchi hamdir. Suvda deyarli barcha moddalar turli xil vaqtlarda eriydi. Moddalarning suvda erishidan erimalar hosil bo‘ladi.

Darsning maqsadi: suvning erituvchilik xossasini o‘rganish. Erish jarayoniga haroratning ta‘sirini o‘rganish.

Kerakli jihozlar: stakanlar, temir qoshiqcha, o‘lchov silindri, shisha tayoqcha, soat.

Kerakli moddalar: suv (issiq va sovuq), shakar, osh tuzi, qum, quruq choy, ichimlik sodasi, bo‘r.

Ishning borishi: 6 ta stakan qora yoki ko‘k rangli marker yordamida raqamlanib, ularga 10 ml dan sovuq suv solinadi va 1-stakanga 1 qoshiqcha shakar, 2-stakanga 1 qoshiqcha osh tuzi, 3-stakanga 1 qoshiqcha qum, 4-stakanga 1 qoshiqcha quruq choy, 5-stakanga 1 qoshiqcha ichimlik sodasi, 6-stakanga 1 bo‘lak bo‘r solamiz va shisha tayoqcha yordamida aralastiramiz. O‘zgarishlarni kuzatamiz.

Kuzatishlar asosida quyidagi jadvalni to‘ldiramiz:

T/r	Modda nomi	Erish darajasi (sovuq suvda)	Erish darajasi (issiq suvda)	Erish vaqti (sovuq suvda)	Erish vaqti (issiq suvda)	Farqi	Eritma rangi
1	Shakar						
2	Osh tuzi						
3	Qum						
4	Quruq choy						
5	Ichimlik sodasi						
6	Bo‘r						

Xulosa:

So‘rov savollari:

1. Eritma nima?
2. Erish jarayoniga haroratning ta‘siri qanday?
3. Barcha moddalarning eruvchanligi bir xilmi?
4. Suv har qanday moddani erita oladimi?
5. Tevarak atrofingizda qanday moddalar eriganini ko‘rgansiz?
6. Qish, yoz, bahor va kuzda moddalar erishida farq bo‘ladimi?

O‘rganish natijalari:

Bilim	Ko‘nikmalar	Munosabat va qadriyatlar
1. Tabiatda erish jarayonining ahamiyatini tushuntiring. 2. Eritmalarga misollar keltiring. 3. Eritmalarning tashqi ko‘rinishiga ko‘ra farqlarini tavsiflash. 4. Erish jarayoniga haroratning ta‘sirini o‘rganish. 5. Suvning erituvchanligini o‘rganish.	1. Tabiatda erish jarayonini kuzatadi va o‘rganadi. 2. Eritma tayyorlay oladi. 3. Eritmalarning tashqi ko‘rinishiga ko‘ra farqlarini tavsiflay oladi. 4. Erish jarayoniga haroratning ta‘sirini biladi. 5. Suvning erituvchanlik xossasini namoyish qiladi.	1. Atrofdagi tabiat hodisalariga qiziquvchanlik ortadi. 2. Tabiatda erish jarayonining ahamiyatini anglash. 3. Moddalarni erish jarayonidan zararli ta‘silardan asrash.

Shakllantiriladigan kompetensiyalar:

Ilmiy kompetensiya:

Tabiatda suvning erituvchilik xossasini va haroratning erish jarayoniga ta‘sirini kuzatish muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligini anglaydi.

Amaliy kompetensiya:

Suvning erutuvchilik xossasi va moddalarning eruvchanlik xossasidan foydalanib, eritmalar tayyorlaydi;

Haroratning erishga ta’sirini amalda namoyish qiladi.

Fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash:

Biologiya – o‘simlik tarkibidagi moddalarning erishi (choy misolida);

Fizika – issiqlikni ta’sirini o‘rganish, erishning fizik jarayon ekanligi;

Matematika – erish vaqtlari orasidagi farqni hisoblash;

San’at- eritmalarini ranglariga ko‘ra farqlash, rangli eritmalar tayyorlash uchun ijodkorlikka chorlash;

Tarbiya – tabiatga hurmat, atrof-muhitni muhofaza qilish.

Baholash:

T/r	Baholanadigan jihatlar	Ball	Izoh
a	Mashg‘ulot rejasini mustaqil tuzish	2 ball	
	O‘qituvchi yoki boshqa o‘quvchi yordamida tuzish	1 ball	
b	Mustaqil bajarish	2 ball	
	Guruhda hamkorlikda bajarish	3 ball	
	O‘qituvchi yoki boshqa o‘quvchi yordamida bajarish	1 ball	
s	Natijalarni mustaqil asoslash	2 ball	
	O‘qituvchi yoki guruhdagi boshqa o‘quvchi yordamida asoslash	1 ball	
d	Mustaqil xulosalash	2 ball	
	O‘qituvchi yoki guruhdagi boshqa o‘quvchi yordamida xulosalash	1 ball	

Umuman, o‘quvchilar faoliyatida yaratuvchanlik, ijodiy fikrlash har qanday muammoni, vazifani, loyihani yechishda sermahsul jarayon hisoblanadi. Shunday ekan, o‘quv jarayonida o‘quvchilar mustaqil ravishda masalaning yechimiga intilsa, o‘qituvchi muammoli vaziyatni o‘z vaqtida tashkil etsa, o‘quvchilarda sekin-asta ko‘nikma va malakalar shakllana boradi [2, 450].

Xulosa qilib aytganda, nazariy olingan bilimlarni amalda qo‘llash jarayonida o‘quvchilardagi kreativ sifatlarning shakllantirilishi mamlakatimizni kelajakda nafaqat Xalqaro PISA baholash dasturi bo‘yicha kuchli 30 talik davlatlar qatoriga kirish, balki yosh avlodni kundalik turmushdagi har qanday muammoni yechishga qodir, barkamol avlod sifatida shakllanishiga olib keladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi ”O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni.
2. Atayeva N., Salayeva M., Hasanov S. Umumiy pedagogika (Pedagogika nazariyasi va amaliyoti asoslari). O‘quv qo‘llanma. II kitob. H. Boboyevning umumiy tahriri asosida. -T.: “Fan va texnologiya”, 2013. -860 bet.
3. Asqarov I. R., To‘xtaboyev N.X., G‘opirov K. G‘. Kimyo. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. -Toshkent: “Sharq”, 2017. -160 b.
4. Анфиногенова И.В., Бабков А.В., Попков. В.А. Химия для непрофильных направлений. Учебник и практикум для академического бакалавриата.2-е издание.Москва: “Юрайт”, 2018. -299 б.
5. Eshmamatova N.B., Akbarov H.I. Kimyo (Fizikaviy va kolloid kimyo). Biologiya-tuproqshunoslik fakulteti talabalari uchun uslubiy qo‘llanma. –Toshkent, 2018. -112 b.
6. Olimov N.Q. Fizik va kolloid kimyo. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 2001. -336 b.
7. Masharipov S., Mutalibov A., Murodov E., Islomova H. Umumiy kimyo. O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik. –Toshkent, 2018. -160 b.
8. Коржуков Н.Г. Общая и неорганическая химия. Учебное пособие.Под ред. В.И.Деляна. - М.: “Мисис:Инфра- М”, 2004. -512ст.

KIMYO DARSLARIDA MINERAL O‘G‘ITLAR MAVZUSINI O‘QITISHDA BARQAROR TARAQQIYOT TA‘LIMI TUSHUNCHALARINI RIVOJLANTIRISH

Barqaror taraqqiyot ta‘limi tushunchalarini o‘quvchilarga o‘g‘itlar mavzusini o‘qitishda rivojlantirish, yerga beriladigan o‘g‘itlarning me‘yoridan oshishi yoki kamayishining ekologiyada qanchalik ahamiyatli ekanligi yoritilgan. O‘quvchi avvalo barqaror taraqqiyot, barqaror taraqqiyot tushunchalari orqali barqaror ta‘lim tushunchalariga ega bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: barqaror taraqqiyot, barqaror ta‘lim, mineral o‘g‘itlar- kaliyli, fosforforli, azotli, eutrofikatsiya, o‘lik zona(hudud), tuproq unumdorligi.

The development of the concept of sustainable development education in teaching students the topic of fertilizers, the importance of increasing or decreasing the amount of fertilizers applied to the land in the environment. The student first acquires the concepts of sustainable education through the concepts of sustainable development, sustainable development.

Key words: sustainable development, sustainable education, mineral fertilizers- potassium, phosphorus, nitrogen, eutrophication, dead zone, soil fertility.

Разработка концепции устойчивого развития образования при обучении студентов теме удобрений, важности увеличения или уменьшения количества удобрений, вносимых на землю в окружающую среду. Студент сначала усваивает концепции устойчивого образования через концепции устойчивого развития, устойчивого развития.

Ключевые слова: устойчивое развитие, устойчивое образование, минеральные удобрения- калийный, фосфорный, азотистый, эвтрофикация, мертвая зона, плодородие почвы.

Kirish. Barqaror taraqqiyot – bu kelajak avlodlarning o‘z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga putur yetkazmasdan, bugungi kun ehtiyojlariga javob beradigan rivojlanishdir [1].

Barqaror taraqqiyot uchun talim tushunchalari - bu o‘quvchilarning ongiga barqaror taraqqiyot tushunchalarini kimyo fani orqali bog‘lab, elementlar, moddalar, reaksiyalar kabi kimyoviy tushunchalar bilan bir qatorda tabiat, undagi resurslar, ulardan oqilona foydalanishni o‘rgatish metodi hisoblanadi [2, 13].


Asosiy qism. Yer yuzida aholi miqdori oshib boryapti. 2006-yil adabiyotlarida 2050-yilga borib dunyo aholisi 8 mlrd ga yetadi [3, 6] deb bashorat qilingan edi, ammo dunyo aholisi 2020-yilning o‘zida 7mlrd 873mlnga yetdi [4]. Demak, dunyo aholisi shu darajada ko‘payayotganini ularning kiyim-kechak, ichimlik, oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini ko‘payadi. Kiyim-kechakning asosiy qismi o‘simliklardan, oziq ovqatning ham asosiy qismi o‘simliklar hisoblanadi. Dehqonchilik mahsulotlarining unumdorligini oshirish uchun o‘g‘itlardan foydalaniladi. O‘g‘itlar tarkibida o‘simliklar oziqlanishi uchun zaruriy makro (H, N, P, K,) va mikro (Fe, Mn, B,Cu, Zn, Mo, Co) elementlari mavjud. Azot, fosfor va kaliy elementlari o‘simlik o‘sishi uchun muhim ahamiyatga ega. O‘g‘it tuproqni unumdor qilish uchun zarur bo‘lgan azot, kaliy va fosfor kabi ozuqa moddalarini o‘z ichiga olgan kimyoviy moddadir. O‘g‘itlarning mashhur namunalari karbamid, kaliy va ammoniy sulfatdir.

O‘g‘itlar o‘simlik o‘zlashtira oladigan elementlarning mavjudligiga qarab oddiy (KCl, NaNO₃ ozuqaviy elementi bitta) va kompleks (NH₄H₂PO₄ ozuqaviy elementi ikki yoki undan ortiq) o‘g‘itlarga bo‘linadi. Mineral o‘g‘itlarning quyidagi turlari mavjud: Natriy nitrat (natriyli silitra) NaNO₃ (Farg‘ona), Kaliy nitrat(kaliyli selitra) KNO₃ (Chirchiq), Ammoniy nitrat (ammiakli silitra) NH₄NO₃ (Chirchiq), Ammoniy sulfat (NH₄)₂SO₄ (Chirchiq), Karbamid (mochevina) CO(NH₂)₂ (Chirchiq), Oddiy superfosat Ca(H₂PO₄)*2H₂O*CaSO₄*2H₂O(Navoiy), Qo‘sh superfosat Ca(H₂PO₄)*2H₂O(Navoiy), Kaliy xlorid KCl (Dehqonobod, Qarshi), Ammoniy digidrofosfat NH₄H₂PO₄, Ammoniy gidrofosfat (NH₄)₂HPO₄*(NH₄)₂SO₄.

O‘g‘itlarning afzalligi nimada degan savol tug‘ilishi tabiiy.

Ular o‘simliklarni oziq moddalar bilan ta‘minlashda va tuproq unumdorligini tiklashda tezdin. Ular tashish uchun qulay. O‘simliklar o‘g‘itlarni osongina o‘zlashtiradi. O‘g‘itlar bug‘doy, makkajo‘xori, sholi kabi ko‘plab ekinlarning hosildorligini yaxshilaydi va oshiradi. Biroq, bu kimyoviy moddalar bo‘lib, ular doimo ishlatilsa, tuproq unumdorligini pasaytirish potensialiga ega. undan tashqari, u suv havzalarini ham ifloslantiradi.

Goʻnglar va oʻgʻitlar, ikkalasi ham tuproq unumdorligini oshirish va oʻsimliklarning oʻsishini yaxshilash uchun qoʻshiladi, lekin u yoki bu tarzda ajralib turadi. Goʻng va oʻgʻitlar oʻrtasidagi asosiy farq quyida keltirilgan:



Oʻgʻitlar kimyoviy moddalardir va tabiiy emas. U azot, fosfor va kaliy kabi tuproq ozuqaviy moddalariga boy.

Oʻsimliklar tomonidan osongina soʻriladi. U tuproqqa chirindi bermaydi. Ular zavodlarda tayyorlanadi. Bu tuproqning jismoniy holatini yaxshilaydi. Oddiy oʻgʻit sifatida qoʻllaniladigan N ning 40-70% va P ning 80-90% atrof-muhitga yoʻqoladi yoki tuproqda kimyoviy bogʻlanadi. Koʻp miqdorda yetkazib berilsa, tuproq va oʻsimlikka salbiy taʼsir qiladi.

Azot, fosfor, kaliy elementlari oʻsimlikning oʻshishi, rivojlanishi, gullab meva berishi uchun zaruriy elementlar hisoblanadi. Ularni oʻsimlik oʻzlashtira oladigan shakllarda oʻsimlikka berishimiz kerak. Masalan havo tarkibidagi azotni N_2 shaklida oʻsimlik oʻzlashtira olmaydi, shuning uchun bu elementlarni oʻsimlik oʻzlashtira oladigan shaklda qilib oʻsimlikka meʼyorida berish zarur. Fosfor oʻsimlik hayotida zarur boʻlgan oksidlanish-qaytarilish, energiya almashinuv jarayonlarida idrok etuvchi moddalar tarkibiga kirib, oʻsimlik oʻsishi va rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Fosfor hayot va tafakkur elementi hisoblanadi. Oʻsimlikning oksidlanish-qaytarilish jarayonini boshqarsa, inson va nabotot olami uchun tayanch vazifasini bajaruvchi suyaklarning mustahkamligini beruvchi hamda energiya almashinuvida ishtirok etadi.

Oʻsimliklarda azot yetishmasa oʻsimlikning sargʻayib boradi, xlorofill donachalari oʻrnini ksantofil donachalari egallaydi. Natijada oʻsimlik fotosintez qila olmaydi, bu esa oʻsimlik oziqlanishiga xalaqit berib, mevalarida shirin taʼm beruvchi glukoza vakraxmal, selyuloza hosil boʻlmaydi hamda oqsil sintezlanishi kamayib boradi. Ayniqsa, donli ekinlar uchun azotning oʻrni beqiyos. Donli ekinlarimiz tarkibidagi proteinlarning asosiy qismi azot hisoblanadi. Donli oʻsimliklarda oqsil kamayganda boshogʻi kichik boʻlib qoladi, natijada katta yer maydonidan kam miqdorda hosil olinadi, yaʼni unumdorlik pasayadi [4].

Kaliy oʻsimliklarda fotosintez jarayonini tezlashtiradi, oʻsimliklarda glukoza hosil boʻlishini tezlashtiradi. Glukozadan keyin kraxmal, selluloza kabi polisaxaridlarni hosil boʻlishiga yordam berib, membrana sistemasiga taʼsir koʻrsatib, oʻsimlik tanasiga mustahkamlik beradi.

Yer yuzida fosforning aylanishi boshqa elementlardan farqli ravishda ancha qiyinroq kechadi tuz shaklidagi fosforitlar suvda erib, tuproqqa bir qismi oʻtadi. Quruqlikda va suvda yashovchi oʻsimlik va hayvonlari organizmiga oʻtadi. Ularni insonlar isteʼmol qilib inson organizmiga suyaklar tarkibiga oʻtadi va yana sekin-asta tuproqqa qaytadi, buning uchun 20000-100000 yil kerak boʻladi. Shunday qilib, tabiatda fosforning tabiatda aylanishi juda uzoq vaqtni talab etadi [5].




Azotning aylanishi esa fosfordan koʻra ancha osonroq, buning asosiy sababi azotning gaz agregat holatidir. Havo tarkibidagi erkin azotni oʻsimliklar oʻzlashtira olmaydi, ularni asosan tugunak bakteriyalari va azotni fiksatsiyalovchi prokariotlar oʻzlashtirib yerga ozuqaviy azot shakliga keltirib beradi, oʻsimlik azotni oʻzlashtirgach u bilan hayvonlar oziqlanadi, chorva mahsulotlari bilan esa insonlar oziqlanadi, inson organizmida DNK, oqsil, vitaminlar va mochevina hosil boʻlib tashqariga chiqadi, havoga qaytadi. Shu tariqa azot yana

tabiatda aylana boshlaydi.

Kaliy oʻsimliklarda tuproqdan oʻzlashtirilgandan soʻng, masalan, donli oʻsimliklarda donidan koʻra somonida koʻproq kaliy boʻladi, uni hayvonlar isteʼmol qilganidan soʻng maʼlum qismi oʻzlashtirilib, qolgan qismi chiqariladi va tuproqqa qaytadi.

Bizning organizmimizda fosfor DNK tarkibida suyaklarimiz tarkibida uchraydi. Organizm oʻsib borarkan suyaklar ham oʻsib boradi, fosforgia boʻlgan ehtiyojlar oshib boradi. Bizning organizmimiz fosforni oziq-ovqat mahsulotlaridan oʻzlashtiradi. Hayvonlarning aksariyati oʻsimliklar bilan oziqlanadi, oʻsimlik esa ozuqa moddasini tuproq va suvdan oʻzlashtiradi. Fosfor



(P) biologiyada muhim, almashtirib bo‘lmaydigan ozuqa moddasi bo‘lib, cheklangan global zahiralarga ega. Tuproqlar tarkibida o‘simliklar o‘shishi uchun zarur bo‘lganidan bir necha ming marta fosfor ko‘p bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, o‘simliklarni qabul qilish uchun faqat juda kam eruvchan fraksiya mavjud. Fosfor kam hududlar cheklangan ozuqa ekotizmi yuzaga keladi. Cheklangan ozuqa asosan chuchuk suv iste‘mol qiladigan hududlarda yuzaga keladi, inson iste‘moli tarkibida fosfor kam miqdorda bo‘ladi. Shuning hisobidan o‘simlik o‘shishini cheklaydi, shuning uchun fosforni o‘shishni cheklaydi, shuning uchun fosforni o‘shishni cheklaydigan ozuqa moddasi deiyshadi.

Muhokamalar va natijalar. Azot va Fosforning tuproqda yetarli miqdorda bo‘lishi o‘simlik biomassasining oshishiga olib keladi. Bu albatta barcha dehqonlarimizning ayni maqsadi hisoblanadi, ammo undan ya‘ni fosforli o‘g‘itlardan me‘yorida foydalanmaslik ayanchli holatlarga olib kelishi mumkin. Masalan:

1. O‘simlik, dehqonchilik mahsulotlarining tarkibi buzilishiga.

2. Eutrofikatsiya va o‘lik zonalarining ko‘payishiga olib keladi.

3. **Tuproqning degradatsiyasi** - o‘g‘itlarni haddan tashqari ko‘p ishlatish kislotalilik darajasini sezilarli darajada oshirishi, makroelementlar bilan to‘yinganligini yaratishi yoki uni tuproqning turli xil oziq moddalarga sezgirligi va singdiruvchanligini yo‘qotadigan darajada o‘zgartirishi mumkin.

4. **Yer osti suvlarining ifloslanishi** - o‘g‘itning haddan tashqari dozasini qo‘llash ildiz zonasi ostidagi maydonga oqib, yer osti suvlariga yetib borishi mumkin.

5. **Tuz kuyishi** - bu kuyishlar kimyoviy o‘g‘itlardan ortiqcha foydalanishni ko‘rsatadi. Yuqori sho‘r ko‘rsatkichli o‘g‘itlar va natriy nitrat kabi kimyoviy moddalar tuzdan kuyishini oldini olish uchun eng ko‘p e‘tiborni tortadigan yoki kuzatadiganlardir.

6. **Haddan tashqari o‘shish** - kimyoviy o‘g‘itlarning haddan tashqari va nazoratsiz qo‘llanilishi tufayli o‘simliklarning nisbati va o‘shishi odatiy mezonlardan oshib ketishi mumkin. Bu nuqtaga erishilganda, hosildorlikni oshirish o‘rniga, o‘simliklarning hosili va omon qolishi xavf ostida qoladi.

Dehqonchilik mahsulotlari tarkibi buzilib, ularning ta‘mi, hidi, o‘zgaradi. Tarvuz, pomidor, bodring va boshqa meva va sabzavotlarning tarkibi buzilishiga, ularni iste‘mol qilgan aholida esa botulizm kasalligi rivojlanishiga olib keladi.

Global fosforli o‘g‘itlardan foydalanish 1961-yildagi 4,6 million tonnadan 2015-yilda taxminan 21 million tonnagacha oshdi va yashil inqilob va oziq-ovqat xavfsizligiga hissa qo‘shdi. Kelajakdagi global talabni baholash 2050-yilga kelib ekin maydonlari uchun 22-27 million tonna va yaylov uchun qo‘shimcha 4-12 million tonna fosfor yiliga ishlatilishi mumkin. Biroq, so‘nggi yigirma yil ichida ba‘zi adabiyotlarda fosfor zaxiralari taxminan 70-300 yil ichida tugashi mumkinligi haqida bashorat qilinmoqda, fosforgia bo‘lgan talabning eng yuqori darajasi 2030-yilga to‘g‘ri keladi. Tuproqqa mineral o‘g‘itlar yoki organik o‘g‘it sifatida qo‘llaniladigan fosforning katta qismi tuproq bilan bog‘lanib, o‘simlikka o‘tadi, o‘zlashtirilmay qolgan fosfor esa tuproq eroziyasi natijasida yo‘qoladi va suv havzalariga yetib borsa, evtrofikatsiyaga olib kelishi mumkin [6].

Qishloq xo‘jaligida me‘yordan ortiqcha miqdorda foydalaniilgan o‘g‘it tarkibidagi fosfor va azot bo‘ladi, ular suvning yuza oqimi orqali suv ekotizmiga o‘tadi, ya‘ni yerlarni sug‘orilganda, suvga erigan fosfor ilgari fosfor manbalaridan cheklangan suv o‘tlari, yoki boshqa mikroblarning ko‘payishiga olib keladi, buni eutrofikatsiya deyiladi.

Nega eutrofikatsiya zararli hisoblanadi? Ba‘zi suvo‘tlar suvning ta‘mi yoki hidini yomonlashtiradi yoki zaharli birikmalar hosil qiladi. Bundan tashqari, barcha suvo‘tlar nobud bo‘lganda va mikroblar ularni parchalaganda, parchalash jarayonida ko‘p miqdorda kislorod sarflanadi. Kislorod iste‘molining bunday tez oshib ketishi suvda erigan kislorod miqdorini keskin pasaytiradi va gipoksiya – kislorod yetishmovchiligiga olib kelib, mollyuska va baliqlarning qirilishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Kislorod yetishmovchiligiga uchragan ko‘llar va okeanlarning hududlari *o‘lik zonalar* deb nomlanadi. O‘lik zonalar soni bir necha yillar davomida o‘sib bordi va 2008-yilda 400 dan ortiq o‘lik zonalar mavjud edi. Eng yomon o‘lik zonalaridan biri AQSH sohillaridagi Meksika ko‘rfazida joylashgan. Mississipi daryosi havzasidan o‘g‘itlarning oqib o‘tishi 15674 kvadrat kmdan ortiq o‘lik zonani yaratdi.

Eutrofikatsiyani qanday kamaytirish yoki oldini olish mumkin? O‘g‘itlardan me‘yotida foydalanish, fosforli yuvish vositalarini yo‘q qilish va oqova suvlarning, masalan, kanalizatsiya oqovalarining suv yo‘llariga qo‘shilmasligini eutrofikatsiyani kamaytirishda qo‘llashi mumkin bo‘lgan usullardir [7].

Xulosa. Tuproq unumdorligini aniqlash uchun tuproq tarkibi tekshiriladi, agar azot, fosfor, kaliyning miqdori kam bo‘lsa me‘yorida mineral o‘g‘it solish lozim, aks holda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining unumdorligi kamayishiga olib keladi, agarda me‘yoridan oshib ketsa dehqonchilik mahsulotlarining tarkibining buzilishiga, yoxud yuqorida qayd etilgan o‘lik zonalarining ko‘payishiga olib keladi, bu hayot tizimiga katta xavf solishi mumkin. Bunday ko‘ngilsiz hodisalarning oldini olish uchun o‘quvchilarga kimyo

dashlari davomida, o‘g‘itlar haqida tushunchalar berib, ularning bilimni oshiribgina qolmay, tabiatga putur yetkazmaslik, uning qonuniyatlarini buzmaslikka o‘rgatish bizning oldimizdagi oliy maqsadimiz.

Kimyo darslarini o‘tgan paytda o‘quvchilarga ta’lim bilan birga ekologik tarbiya berish, kelgusida tabiatimizni asrashga bo‘lgan qadamlardan biridir.

Tabiatda har bir moddaning o‘z o‘rni mavjud, biz insonlar undan me’yorida va to‘g‘ri foydalansak kelajakda resurslarni o‘z avlodlarimizga yetkaza olamiz. Agarda pala-partish foydalansak tabiat qonunlarini qo‘pol buzilishiga olib keladi, albatta, tabiat ham bunga o‘z javobini qaytarmasdan qolmaydi.

Hozirgi kunda kimyogarlar tomonidan iloji boricha tabiatni ifloslantirmaydigan nanokompozitli o‘g‘itlar yaratilmoqda, kelajakda biz ham kimyogarlar sifatida tabiatni ifloslantirmaslik, avlodlarimizga bekamu ko‘st yetkazish hamda barqaror taraqqiyotga erishishimiz lozim. Buning uchun esa barqaror ta’limni yo‘lga qoymog‘imiz darkor.

Adabiyotlar

1. <https://www.uz.undp.org/content/uzbekistan/uz/home/post-2015.html>
2. Issues and trends in education for sustainable development, Leicht, Alexander, Heiss, Julia, Won Jung Byun 2018. 276b.
3. Ergashev A., Rudenko I., Davletov S., Azizov A., Akinshina N., Eshchanov R., Karimov B., Saruk O., Volkov A., Botman Y., Raximov A., Salixov P., Mambetullaeva S., Xodjaeva G., Begdullaeva Barqaror taraqqiyot va tabiatshunoslik asoslari. –Toshkent: “Baktria press”, 2016. -300b.
4. Consuelo M. Perez, Bienvenido, Juliano, Samuel P. Liboon, Jovencio M. Alcantara, Kenneth G. Cassman/Effects of Late Nitrogen Fertilizer Application on Head Rice Yield, Protein Content, and Grain Quality of Rice/Cereal Chem. 73(5):556-560
5. Internet ma’lumoti. <https://uz.petmynet.ru/2089-the-phosphorus-cycle-in-nature.html>
6. (Prem S. Bindraban, Christian O. Dimkpa & Renu Pandey /Exploring phosphorus fertilizers and fertilization strategies for improved human and environmental health/[Published: 08 January 2020/ *Biology and Fertility of Soils* volume 56](#), pages299–317 (2020)[Cite this article](#))
7. <https://uz.khanacademy.org/science/biology/ecology/biogeochemical-cycles/a/the-phosphorous-cycle>

TASVIRIY SAN'AT VA MUSIQA TA'LIMI

Akmal BEGMATOV

O'zbekiston davlat konservatoriyasi

musiqiy pedagogika

kafedra katta o'qituvchisi

USTOZ-SHOGIRD MUNOSABATINING MUSIQIY TA'LIMDA TUTGAN O'RNI

Bizga ma'lumki, azal-azaldan respublikamizda ustoz-shogirdlik an'anasi rivojlanib kelmoqda. Cholg'u ijrochiligi bo'yicha o'qitish individual xarakterga ega bo'lganligi sababli barcha o'quvchilarga ta'lim berish bir xil bo'lmasligi hammaga ma'lum, sababi, shogirdlarning o'ziga xos mahorati bo'ladi. Shunga qarab ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Kalit so'zlar: ustoz, murabbiy, shogird, tarbiya, qobiliyat, an'ana, individual, cholg'u.

Как известно, испокон веков в нашей республике развивается традиция наставник-ученик. В связи с тем, что обучение инструментальному исполнению имеет индивидуальный характер, обучение всех учеников не может быть одинаковым. Так как у каждого ученика есть своеобразное мастерство. Исходя из этого, целесообразно развивать исполнительские навыки.

Ключевые слова: наставник, наставник, ученик, воспитание, способность, традиция, индивид, инструмент.

As you know, in our republic from ancient times, the tradition of mentor-student has been developing. Due to the fact that teaching instrumental performance has an individual character, the teaching of all students cannot be the same. So each student has a peculiarity of skill. According to this, it is advisable to develop performing skills.

Key words: teacher, coach, Apprentice, upbringing, ability, tradition, individual, instrumental.

Kirish. So'nggi yillarda respublikamizda o'rta maxsus va oliy ta'limning barcha yo'nalishlarida iqtidorli talabalar bilan ishlash, "ustoz-shogird" an'alarini qayta tiklash, uni rivojlantirish va amaliyotga keng tatbiq qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Ilm-fan va texnika o'zining yuqori taraqqiyot cho'qqisiga erishgan, elektron darsliklar, masofadan o'qitish damda yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'quv jarayonlariga kengroq tatbiq etilayotgan, kompyuter va internet tizimining qamrov doirasi kundan kunga kengayib borayotgan davr o'qituvchisi qanday bo'lishi kerak?

Asosiy qism. XXI asr-axborot asri deb bejiz aytilmagan. Hozirgi zamon o'quvchilari televidenie, radio va video texnikalari hamda internet orqali juda ko'plab axborotlardan xabardor bo'lish imkoniyatlariga ega bo'lganliklari bois, ularning fikrlash doirasi juda ham keng. Shuning uchun hozirgi zamon o'qituvchisi shu o'quvchilarning qiziqishlaridan xabardor bo'lishi, ularning mustaqil fikrlarini eshita bilishi va inobatga olishi, shu bilan birga ularning xato va kamchiliklarini ko'rsatib, to'g'ri yo'lga yo'naltirishi lozim bo'ladi. Bu borada dars jarayoniga doimo ijodiy yondashib, dars o'tish uslublarini va texnologiyalarini zamonaviy ruhda rivojlantirib borishi kerak.

Har bir o'qituvchining o'z uslubiyati bor. Lekin shunga qaramay o'qitishning dastlabki davrlaridanoq o'quvchilarda o'qitilayotgan cholg'uga nisbatan qiziqish uyg'ota olishi muhimdir. Agar o'qituvchi o'quvchilar hurmatini qozongan bo'lsa, shu o'qituvchiga bo'lgan hurmat orqali o'quvchidan o'rganayotgan cholg'usiga nisbatan mehr paydo bo'ladi. Cholg'u ijrochiligi bo'yicha o'qitish individual xarakterga ega bo'lganligi sababli barcha o'quvchilarga bir xil qarab bo'lmasligi hammaga ma'lum [1].

O'quvchilarning xarakteri, zehni va qobiliyati har xil. Ularning ba'zilar musiqiy qobiliyatlarini yoshligidanoq namoyon qilishsa, ba'zilariniki birmuncha keyinroq ko'zga tashlanishi mumkin. Ba'zilar o'ta qobiliyatli, shu bilan birga juda sho'x, o'yinqaroq bo'lishsa, ayrimlari vazmin, o'rtacha qobiliyatli, lekin mehnatsevar bo'lishlari mumkin. O'quvchilarning xarakterlari qanchalik xilma-xil bo'lmasin, lekin ta'lim-tarbiyaning talablari barchaga barobar bo'lib qolaveradi. Shuning uchun ham aynan har bir o'quvchiga alohida e'tibor bo'lib, o'qituvchi o'quvchining psixologiyasini chuqur o'rganishi kerak bo'ladi.

Cholg'u ijrochiligi o'qituvchisi boshqa fan o'qituvchilarga nisbatan talabalarning ta'lim-tarbiyasi bilan yaqindan shug'ullanadigan shaxs. Chunki o'qituvchi talaba-o'quvchilar bilan cholg'uda ijro etish va uning sirlarini o'rgatib borishida yakka tarzda o'rgatishi kerak bo'ladi. Shuning uchun ham o'quvchidagi salbiy sifatlarni ta'lim-tarbiyaning turli shakllaridan foydalanib, asta-sekinlik bilan yo'qotib, uning ijobiy sifatlarini rag'batlantirib borish, repertuar tanlashda, ijro ustida ishlaganda, mashg'ulotlar jarayonida o'quvchining shu

sifatlarini inobatga olib ish ko‘rishi yaxshi samara beradi.

Bulardan tashqari, talaba-o‘quvchilarni ruhlantirish, kelajakka bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, uni rag‘batlantirish orqali ham o‘quvchining ijro o‘z ustida ishlashga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Chunki tajribada ehtiyotsizlik bilan aytilgan biron-bir so‘z yoki nojo‘ya harakat tufayli qobiliyatli o‘quvchilarning bu sohadan umuman uzoqlashib ketishlari yoki o‘qituvchiga nisbatan, musiqaga nisbatan salbiy fikrlarga ega bo‘lib qolish holatlari kuzatiladi. O‘quvchilar xoh boshlang‘ich maktablarda, litsey-kollejlarda yoki oliy o‘quv yurtida bo‘lsin cholg‘u ijrochiligidan ta‘lim beradigan o‘qituvchisiga hurmat va ishonch bilan qaraydi. Bu ishonchga o‘qituvchi avvalo o‘zining yuqori darajadagi ijrochilik mahorati, puxta bilimi, o‘z ishiga mas‘uliyatliliigi va madaniyati bilangina erishishi mumkin [2].

O‘qituvchi har qanday vaziyatlarda ham o‘zining oqilona fikrlari bilan o‘quvchilarning diqqatiga sazovor bo‘ladi. O‘quvchilar oldida boshqa o‘qituvchilarga nisbatan salbiy munosabatlar bildirish nafaqat o‘sha o‘qituvchining, balki o‘zining ham obro‘sigga putur yetkazadi. Aksincha, xalqimizning “ustoz-otangdek ulug‘” degan naqlida o‘quvchi-talabalarni doimo ustoz-o‘qituvchilar mehnatini qadrlab, ularga nisbatan hurmat-e‘tiborda bo‘lishi kerakligini o‘qitirib bormoq kerak. Ish jarayonida yuzaga keladigan ko‘plab muammoli holatlarda o‘qituvchining fikri haqiqiy faktlarga asoslangan holda bo‘lishi lozim. O‘quvchilar bilan samimiy munosabatda bo‘lish juda muhim ahamiyatga ega. Bunday munosabat o‘quvchilarda shu cholg‘uga nisbatan mehr va qiziqish uyg‘onadi. Natijada o‘quvchilarning dars jarayonidagi va mustaqil ishlash jarayonidagi faolliklariga imkoniyat yaratadi. Aksincha, nosamimiy bo‘lgan har qanday harakatni o‘quvchilar tez ilg‘aydilar. Ularning o‘qituvchi bilan bo‘lgan munosabatida majburiylik, o‘zlarining haqiqiy munosabatlarini berkitish holatlari paydo bo‘ladi.

Muhokamalar va natijalar. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samimiy munosabat natijasida o‘quvchini qiziqtirgan savollar tufayli o‘zaro fikr almashish, o‘z fikrini mustaqil bayon qilish ko‘nikmalari shakllanadi, bu cholg‘u ijrochilik sinfida boshlang‘ich musiqa maktabidan tortib, oliy o‘quv yurtidagi o‘quv jarayonida nafaqat ijrochilik ko‘nikmalari-yu, ma‘lum ijrochilik repertuari ustida ishlash, balki o‘quvchi, bo‘lg‘usi sozanda va muallimlarni har tomonlama musiqaviy rivojlanishida katta ahamiyatga ega.

O‘quvchi-talabalarda paydo bo‘ladigan ijodiy intilishlarga, ijodiy takliflarga monelik qilish kerak emas. Aksincha, ularni doimo qo‘llab-quvvatlab, imkoniyat darajasida bunday takliflarni amalga oshirishga harakat qilishi, o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatini yanada yaxshilanishiga olib keladi.

Avvalo, o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘zi o‘rnak bo‘lishi kerak. O‘qituvchidagi talabchanlik, qat‘iyatlilik, har bir ishni o‘z vaqtida bajarishi o‘quvchilarga o‘zining ta‘sirini o‘tkazadi. Bundan tashqari o‘quvchilarga berilgan vazifalarni doimo o‘z vaqtida bajarilishini talab qilish va nazorat qilish, konsertlarga, har-xil tanlovlarga tayyorlanish va ularda ishtirok etish o‘quvchilardagi unga qo‘yilgan mas‘uliyatga javobgarlik hissini tarbiyalab boradi. Biron bir cholg‘u ijrochiligidan dars beradigan o‘qituvchi nafaqat mohir sozanda bo‘libgina qolmay, balki, umumiy pedagogika-psixologiyadan va barcha zamonaviy axborotlardan xabardor bo‘lishi hamda maxsus adabiyotlar bilan qiziqishi, professor-o‘qituvchilar tajribasini o‘rganishi, shaxsiy tajribasini doimo tahlil qilib, umumlashtirib borishi lozim.

Professor-o‘qituvchilar o‘qituvchilik mahoratining muhim taraflaridan biri, har bir o‘quvchidagi yaxshi xislatni vaqtida topib, unga e‘tibor berish bilan birga ularning iroda kuchiga aloqador bo‘lmagan kamchiliklarini yuziga solish noo‘rin ekanligini va umuman o‘quvchi-talabalar shaxsini haqoratlaydigan ko‘rsatmalarga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini ta‘kidlaydilar. “O‘qituvchining dunyoqarashi, ijrochilik mahorati, ta‘lim metodikasi va uning ijrochilik to‘g‘risidagi fikrlari bo‘ljak sozandani shakllantirish uchun hal qiluvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. O‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri-o‘quvchining bilim va qo‘nikmalarini o‘zgartirishiga rahbarlik qilishdir” [3]. O‘zbek milliy musiqasi va ijrochilik san‘ati bizning avlodlarimizdan og‘zaki an‘anada “ustozdan-shogirdga” o‘tib, bizgacha yetib kelgan.

Xulosa. “Ustoz-shogird” uslubi o‘zining qadimiy an‘analari, afzallikga ega bo‘lganki, hozirda cholg‘u ijrochiligi sinfida o‘qituvchi va o‘quvchi munosabati “ustoz-shogird” an‘anasining zamonaviy ko‘rinishi desak ham bo‘ladi. Demak, hozirgi zamon cholg‘u ijrochiligi o‘qituvchisi “ustoz-shogird” uslubining qadimiy an‘analari sirlaridan boxabar bo‘lishsa foydadan holi bo‘lmas edi. Shunday ekan o‘qituvchi va o‘quvchi munosabati o‘quvchi talabaning oddiy shogirdlikdan mohir sozanda darajasiga yetib kelishida hal qiluvchi omillardan biridir.

Adabiyotlar

1. O‘quv uslubiy majmua. –T.: Nizomiy nomli TDPU, 2018.
2. O‘zDSMI xabarlarlari - 2018/1(5)
3. Sharipov N. Rubob primada ijro etishni o‘rgatish metodikasi. -T., 1990.

Mehrididdin ABDULLAYEV

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti
jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti
kafedrasini mudiri, p.f.f.d. (PhD), professor

YOSH YENGIL ATLETIKACHILARNING TAYYORGARLIK JARAYONLARIDA JISMONIY TAYYORGARLIK DINAMIKASINI ANIQLASH (umumiy o'rta ta'lim maktablari 3-sinf o'g'il bolalari misolida)

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining yengil atletika bo'yicha to'garak mashg'ulotlarida shug'ullanib kelayotgan 3-sinf o'quvchilarning mashg'ulotlari jarayonida jismoniy sifat ko'rsatkichlari, tayyorgarlik darajalari, yuklamalarning hajmi va shiddati o'quvchilarning yoshi, jinsi, fiziologik ko'rsatkichlari, psixologik holatlaridan kelib chiqib qay darajada rivojlanganligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy sifat darajalari, kuch, tezkorlik, chidamkorlik, egiluvchanlik, rivojlanish ko'rsatkichlari.

В данной статье представлена информация об учащихся 3-классов общеобразовательных школ, занимающихся лёгкой атлетикой в кружках. Раскрываются данные о степени показателях их физических качеств, уровень подготовленности, объем и интенсивность нагрузок, которые развивались в процессе занятий по лёгкой атлетике и обусловленные возрастом, полом, физиологическими показателями, психологическим состоянием учащихся.

Ключевые слова: физическая культура, физическая подготовка, уровни качества физической подготовленности, сила быстроты, выносливость, гибкость, показатели развития.

This article provides information about the level of development of physical ability indications, level of preparation, volume and intensity of workload, related to pupil's age, gender, physiological indications, psychological state of 3rd grade students in secondary school's athletic clubs.

Keywords: Physical fitness, level of physical quality, strength, agility, endurance, indication of development.

Kirish. Maktab yengil atletika to'garaklarida olib boriladigan mashg'ulotlar umum ta'lim maktablarida tahsil olib kelayotgan o'quvchilarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini yaxshilash, jismoniy rivojlanish darajalarini takomillashtirish va shakllantirib borish jarayonlarini o'z ichiga oladi. O'tkazilgan tadqiqot ishida umumiy o'rta ta'lim maktablarining yengil atletika bo'yicha to'garak mashg'ulotlarida shug'ullanib kelayotgan 3-sinf o'g'il bolalarining jismoniy sifat ko'rsatkichlari qay darajada rivojlanib borayotgani, ulardagi tayyorgarlik jarayonlarining olib borilish yo'llari qay darajada samarali ekanligi aniqlanadi.

Asosiy qism. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tahsil olib kelayotgan o'quvchilarning jismoniy sifat darajalarini aniqlash maqsadida ko'plab olimlarimiz o'z izlanishlarini olib borishgan. Jumladan; V.K.Balsevich, T.S.Usmanxodjayev, V.A.Bogdanova va boshqalarning ilmiy ishlarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Lekin barcha o'rkazilgan ilmiy izlanishlar va tadqiqotlarning olib borilganiga qaramay umumta'lim maktablarida tahsil olib kelayotgan 3-sinf o'g'il bolalarining jismoniy sifat ko'rsatkichlarida shakllanib borish darajalari sustligi aniqlandi. O'tkaziladigan tadqiqot zamirida 3-sinf o'g'il bolalarining tayyorgarlik darajalari, jismoniy sifat ko'rsatkichlari ularning funksional holatlaridan kelib chiqib to'g'ri talqin etilishi va o'zgartirishlar kiritish zaruriyati ko'zda tutiladi.

Tadqiqotning maqsadi: umumiy o'rta ta'lim maktablarining yengil atletika bo'yicha to'garak mashg'ulotlarida shug'ullanuvchi 3-sinf o'g'il bolalarida jismoniy tayyorgarlik darajalari qay darajada shakllanib borayotganligini aniqlash.

Tadqiqotning vazifasi:

- o'tkazilgan tadqiqot ishlari bo'yicha adabiyotlar tahlilini qilish;
- 3-sinf o'g'il bolalarida jismoniy sifat darajalarini aniqlash, ulardagi kamchilik va muammolar bo'yicha kerakli tavsiyalarni ishlab chiqish;
- 3-sinf o'g'il bolalarining funksional holatlarini baholash.


Tadqiqotning obyekti: umumiy oʻrta taʼlim maktablarining yengil atletika boʻyicha toʻgarak mashgʻulotlarida shugʻullanib kelayotgan 3-sinf oʻgʻil bolalarining mashgʻulot jarayonlari.

Tadqiqotning predmeti: toʻgarak mashgʻuloti jarayonlarida qoʻllaniladigan umumiy jismoniy tayyorgarlik jarayonlarini oʻrganish hamda tahlil qilish.

Tadqiqot usullari: ilmiy-uslubiy adabiyotlar maʼlumotlari boʻyicha muammoning holatini oʻrganish va tahlil qilish, pedagogik kuzatuvlar, pedagogik testlash, matematik statistik tahlil.

Tadqiqotni tashkillashtirish: tadqiqotlarda Buxoro viloyati Buxoro shahar xalq taʼlim boʻlimiga qarashli 35-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumtaʼlim maktabi, 31-sonli umumiy oʻrta taʼlim maktabi, 29-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumtaʼlim maktabi, 8-sonli umumiy oʻrta taʼlim maktabi, 11-sonli umumiy oʻrta taʼlim maktabi, 1-sonli umumiy oʻrta taʼlim maktablarida yengil atletika boʻyicha toʻgarak mashgʻulotlarida shugʻullanuvchi 3-sinf oʻquvchilari ishtirok etishdi.

Oʻtkazilgan tadqiqot natijalari tahlili: umumiy oʻrta taʼlim maktablari orasida yengil atletika toʻgaraklariga oʻquvchilarning qarashlari, mashgʻulot jarayonlarida ulardagi harakat koʻnikmalarining sustligi, koʻplab yoshlar sport toʻgaraklarida faol emasligi ularning jismoniy tarbiya darslarida mashgʻulot tizimi past darajada boʻlganligidan dalolat beradi. 3-sinf oʻquvchilari orasida jismoniy sifat darajalarini aniqlash maqsadida ularning mashgʻulot jarayonlari va sport toʻgaraklari oʻrganib chiqildi. Oʻtkazilgan tadqiqot natijalari yuzasidan 3-sinf oʻgʻil bolalarining jismoniy sifat darajalari, jismoniy tayyorgarlik koʻrsatkichlari turli amaliy sinov mashqlari orqali tekshirildi. Ulardan dastavval past turnikda tortilish nazorat sinovi olindi (1 rasm).



1-rasm. 3-sinf oʻgʻil bolalarida jismoniy sifatlarning rivojlanish koʻrsatkichlari

Muhokamalar va natijalar. Past turnikda tortilish sinov mashqida 3-sinf oʻgʻil bolalarining 25% qismi belgilangan vazifani bajara olishmadi va kuch jismoniy sifat darajalari past deb topildi. Ishtirokchilarning 30% esa qoniqarli natija bilan mashgʻulotni bajarishdi hamda kuch jismoniy sifat koʻrsatkichlari sust darajada rivojlanib borayotganligi aniqlandi. Oʻtkazilgan tadqiqot sinovining dastlabki bosqichi yakuniga koʻra 3-sinf oʻgʻil bolalari orasida 55% oʻquvchilarda jismoniy tayyorgarlik jarayonining pastligi, kuch jismoniy sifat darajalari qoniqarsiz ekanligi aniqlandi (1-rasmga qarang).

Navbatdagi jarayon argʻamchida 1 daqiqa davomida sakrash sinov mashqi orqali oʻtkazildi. Unga koʻra 20% oʻquvchilar argʻimchoqda 1 daqiqa davomida sakray olishmadi va bu koʻrsatkich past baho bilan qayd etildi. Oʻgʻil bolalarning 25% sinov mashqini qoniqarli natija bilan yakunlashdi. Umumiy natijaga koʻra argʻamchida 1 daqiqa davomida sakrash sinov mashqini 50% ga yaqin 3-sinf oʻgʻil bolalari past natijalar bilan yakunlashdi.

Egiluvchanlik va chidamkorlik jismoniy sifat darajalarini aniqlash maqsadida gardishni belda 1 daqiqa aylantirish sinov mashqi olindi. Unga asosan oʻgʻil balalarning 20% belgilangan vazifani bajara olishmadi.

25% o‘quvchilar esa qo‘yilgan topshiriqni qoniqarli bajarib jismoniy sifat ko‘rsatkichlari sustligi aniqlandi. Umumiy jismoniy sifat ko‘rsatkichlari 45% o‘quvchilarda past deb topildi.

Keying nazorat sinov mashqi 30 m masofaga yugurish orqali o‘tkazildi. Ushbu nazorat sinov mashqi tezkorlik jismoniy sifat darajalarini aniqlash uchun xizmat qiladi. Olingan natijalarga asosan 25% 3-sinf o‘g‘il bolalari belgilangan masofaga yugura olishmadi. Tezkorlik jismoniy sifat darajalari 25% o‘g‘il bolalarda qoniqarli ko‘rsatkichda ekanligi aniqlandi. Umumiy natijalarga asosan tezkorlik jismoniy sifat darajalari 50% o‘g‘il bolalarda past ko‘rsatkich bilan rivojlanayotganligi qayd etildi.

Maktab yoshdagi bolalarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlanishga harakatli o‘yinlar, milliy o‘yinlar, sport estafetalari, yengil atletika to‘garak mashg‘ulotlari ta’siri o‘rganib chiqilib, pedagogik tajribada asoslab berilgan. Asosiy jismoniy harakat turlari bo‘yicha belgilab berilgan taqvimiy reja asosida maktab yoshdagi bolalarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha tajribada amaliyot sinovlari o‘tkazilmoqda.

Tezkorlik jismoniy sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash maqsadida 60 m masofaga yugurish sinov mashqi ham o‘tkazildi (1-rasm). Tajriba yakuniga ko‘ra 3-sinf o‘g‘il bolalarining tezkorlik jismoniy sifati 25% o‘g‘il bolalarda qoniqarsiz deb topildi va belgilangan masofani o‘z vaqtida bosib o‘ta olishmadi. Ushbu sinov mashqi 30% o‘g‘il bolalarda qoniqarli darajada erkanligi aniqlandi. Tezkorlik jismoniy sifat darajalarining umumiy yakuniga ko‘ra, 50%dan ortiq 3-sinf o‘g‘il bolalarida ushbu jismoniy sifat past darajada rivojlanib kelayotgani aniqlandi.

Turgan joyda uzunlikka sakrash. Bu sinov mashqi orqali kuch jismoniy sifat darajalari aniqlanadi. Natijaga asosan 20% o‘g‘il bolalar belgilangan masofaga sakray olishmadi va past baholar bilan qayd etildi. Qoniqarli baholar bilan 3-sinf o‘g‘il bolalarining 25% bahondi. Bu ko‘rsatkichlar o‘quvchilarda kuch jismoniy sifat darajalarining sust darajada ekanligini anglatadi.

Kuch jismoniy sifat ko‘rsatkichlari yugurib kelib uzunlikka sakrash nazotar sinov mashqi orqali ham aniqlandi. Unga ko‘ra 20% o‘g‘il bolalarda kuch jismoniy sifati past darajada va 30% o‘g‘il bolalarda sust darajada rivojlanayotgani aniqlandi. Ushbu ko‘rsatkichni qayd etgan 3-sinf o‘g‘il bolalari baholash mezonlariga asosan 2 va 3 baholar bilan baholandilar. Yakuniy 50% 3-sinf o‘g‘il bolalarida kuch jismoniy sifat darajalari past ekanligi aniqlandi.

Navbatdagi nazorat sinov mashqi chidamkorlik jismoniy sifat darajalarini aniqlash maqsadida 1000 m masofaga yugurish amaliyoti o‘rkazildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘quvchilarning 25% qo‘yilgan masofani bosib o‘ta olishmadi va ularning chidamkorlik jismoniy sifat ko‘rsatkichlari past darajada ekanligi aniqlanib, qoniqarsiz baho bilan qayd etildi. Ushbu amaliy sinov mashqi davomida o‘quvchilarning 35% qismi amaliyotni qoniqarli yakunlab rivojlanish ko‘rsatkichlari sust darajada deb topildi. Chidamkorlik jismoniy sifat ko‘rsatkichlari amaliyot yakuniga ko‘ra 60% 3-sinf o‘g‘il bolalarida past darajada ekanligi aniqlandi (1-rasmga qarang).

Maktab yoshdagi bolalarda chaqqonlik qobiliyatining rivojlanish darajasi harakat faoliyati davomida o‘zgaruvchan muhitga kerakli vaziyatlarda tez moslashish qobiliyati va zarur bo‘lgan faoliyat turlarida muhim rol o‘ynaydi.

Jismoniy sifatlarning shakllanib borishi tayyorgarlik jarayonlariga uzviy bog‘liq hisoblanadi. To‘pni uzoqqa uloqtirish nazorat sinov mashqida ham kuch jismoniy sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash muammosi yotadi. To‘pni uzoqqa uloqtirish amaliyotida o‘quvchilarning 20%da qoniqarsiz natija qayd etildi va sinov mashqidan o‘ta olishmadi. Qoniqarli natijani qayd etgan 25% o‘quvchilar esa past baho bilan topshiriqni yakunlashdi. Umumiy 45% o‘quvchilarda kuch jismoniy sifat darajalari past deb topildi.

Tezkorlik jismoniy sifat darajalarini aniqlash uchun navbatdagi 4x10 mokisimon yugurish (boshlang‘ich 3x10) sinov mashq amaliyoti o‘tkazildi. Natijalarga ko‘ra 20% o‘quvchilarning ko‘rsatkichlari qoniqarsiz 30% o‘quvchilarning ko‘rsatkichlari qoniqarli baholanib, umumiy 50% o‘g‘il bolalarning tezkorlik jismoniy sifat darajalari past ko‘rsatkichlarda shakllanayotgani aniqlandi (1-rasm).

Tadqiqotning yakuniy bosqichida egiluvchanlik jismoniy sifat ko‘rsatkichlarining o‘sib borish darajalari aniqlandi. Yakuniy natijalarga ko‘ra egiluvchanlik jismoniy sifat ko‘rsatkichlari 3-sinf o‘g‘il bolalarining 20% qismida qoniqarsiz darajada ekanligi aniqlandi. O‘quvchilarning 30%da esa ushbu ko‘rsatkich qoniqarli ekanligi aniqlanib past baho bilan qayd etildi. 3-sinf o‘g‘il bolalarining 50%ida o‘z tengqurlariga nisbatan o‘sib borish ko‘rsatkichlari pastligi aniqlanib, egiluvchanlik jismoniy sifati sust darajada deb topildi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot ishlarida olingan natijalarga asosan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining yengil atletika bo‘yicha to‘garak mashg‘ulotlarida shug‘ullanuvchi o‘quvchilarining jismoniy holati va tayyorgarlik darajalarini ijobiy shakllanitirish maqsadida yengil atletika to‘garaklarini individual va jamoaviy talqinda sport o‘yinlari, milliy va harkatli o‘yinlar, yengil atletika mashg‘ulotlaridan foydalanib to‘g‘ri tashkillashtirish o‘z samarasini ko‘rsatadi.

Umumta’lim maktablarida tahsil olib kelayotgan 3-sinf o’g’il bolalarining yengil atletika bo’yicha to’g’arak mashg’ulotlarida jismoniy sifat darajalari, jismoniy tayyorgarlik ko’rsatkichlarining shakllanib borishi va rivojlanish darajalari aniqlandi. Natijalar yakuniga ko’ra 3-sinf o’g’il bolalarining umum jismoniy tayyorgarligi 50%dan ortiq bolalarda, quyida ko’rsatilgan o’quvchilarga nisbatan jismoniy sifat darajalari qoniqarsiz ekanligi aniqlandi. Ushbu ko’rsatkich darajalari umumiy o’rta ta’lim maktablarida tahsil oluvchi o’quvchi yoshlarning jismoniy holati va salomatlik darajalariga o’z tasirini ko’rsatadi.

Organizmning yoshga oid rivojlanishi davrida jismoniy qobiliyatlarning turli ko’rinishlarini mashg’ulot jarayonlarida takomillashtirish va tizimli joriy etish ko’rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanadi, ayniqsa, ehtimolli vaziyatlarda psixomotor faoliyat samaradorligi oshadi.

Aniqlangan ma’lumotlarga asoslanib 3-sinf o’g’il bolalarida jismoniy sifat ko’rsatkichlari past deb baholandi va o’tkazilgan pedagogik tadqiqot natijalari olingan ko’rsatkichlar orqali taqdim etildi (1-rasm).

Adabiyotlar

1. Abdullayev, M. J. (2018). Boshlang’ich tayyorgarlik bosqichida shug’ullanuvchi o’smir yengil atletikachilarning jismoniy tayyorgarligi dinamikasi. *Fan-Sportga*, (2), 13-15.
2. Abdullaev, M. J. (2020). Characteristicsages. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(11).
3. Abdullayev, M. J., Berdiyev, O. I., & Omonova, N. R. (2021). Methodology Of Organization Of" Physical Education And Sports" Lessons In Higher Educational Institutions. *The American journal of social science and education innovations (TAJSSEI) SJIF-5.857 DOI-10.37547/TAJSSEI*, 3(02), 312-320.
4. Abdullaev M. J. Methodology of application games in the training of young athletes //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – T. 8. – №. 11.
5. Abdullaev M. J. Characteristics, forms and methods of extracurricular activities with athletes of different ages //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2020. – T. 8. – №. 11.
6. Tajibaev, S. S., Abdullaev, M. J., Niyazov, A. T., & YuNiyazova, O. (2020). This article scientifically analyzes and substantiates the methodology of using movement games in the development of physical and psychological training of 11-12-year-old athletes in the primary training group. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(6), 2907-2914.
7. Junayduloevich, A. M. (2021). METHODOLOGY OF TEACHING ATHLETICS FOR CHILDREN OF DIFFERENT AGES. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 2(05), 49-59.
8. Salamov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. 1 tom. Darslik. -T.: “ITA PRESS”, 2014-y. -269 b.
9. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. 1-tom. Darslik. -T.: “ITA-PRESS”, 2015. -220 b.
10. Aholining jismoniy tayyorgarligi va salomatligi darajasini belgilovchi “Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlarini qabul qilish va musobaqalarini o’tkazish tartibi to’g’risida Nizom (O’zR VM 29.01.2019 y. 65-son qaroriga 1-ilova).
11. Богданова В.А. Дифференцированный подход в физкультурном образовании младших школьников. Автореф. дис. кан. пед. наук. -Тюмень, 2001. - 22 с.
12. Губа В.П. Оценка физического развития детей по данным морфологических наблюдений // Теория и практика физической культуры, №3. – М., 1998. – С. 32-33.
13. Гужаловский А.А. Развитие двигательных качеств у школьников. – Минск: Нар.расцветы, 1978. – С. 88.
14. Karimov X.A., Yususpov G.A., Toshmurodom M.X., Jonqobilov O.A., Umarov X.X., Abdullayev B.B. Sport pedagogik mahoratini oshirish (Gimnastika) darslik. -Toshkent: “Barkamol Fayz media” nashryoti, 2017-y. 326 b.
15. Бальсевич В.К., Лубышева Л.И. Физическая культура: молодежь и современность //Теор. и практ. физ. культ, - Т., 1995.-2-7 б.
16. Усманходжаев Т.С. Научно-педагогические основы физического совершенствования детей в связи с их двигательной активностью. Автореф. дис. д-ра пед. наук. – Т., 1995. – 42 с.

Nuriddin NAZAROV

Samarqand davlat universiteti
tayanch doktoranti

O‘QUV-MASHG‘ULOT GURUHI O‘RTA MASOFAGA YUGURUVCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI TUZILISHI DINAMIKASI

Ushbu maqolada o‘quv mashg‘ulot guruhi o‘rta masofaga yuguruvchilarni jismoniy tayyorgarlik tuzilish dinamikasi jismoniy sifatlarini ifodalovchi maxsus testlar asosida jismoniy tayyorgarligi aniqlangan. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida olingan maxsus testlar asosida olingan natijalarni yoritishga etibor berilgan. Olingan natijalarni yetakchi olimlar tomonidan berilgan pedagogik tadqiqot natijalari bilan qiyosiy tahlili berilgan va ishning yakunida xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: o‘quv mashg‘ulot guruhi, yuguruvchilar, jismoniy tayyorgarlik, funksional ko‘rsatkich, tana indeksi, total o‘lcham, qiyosiy tahlil, jismoniy tayyorgarlik dinamikasi, yillik mashg‘ulot.

В этой статье тренировочная группа фокусируется на определении физической подготовленности на основе специальных тестов, представляющих физические характеристики о динамике физической подготовленности бегунов на средние дистанции. Это дало уверенность пролить свет на результаты, полученные на основе специальных тестов, полученных на основе проведенных исследований. Полученные результаты представлены в сравнительном анализе с результатами педагогических исследований, проведенных ведущими учеными, и подчеркнуты выводами, сделанными в конце работы.

Ключевые слова: тренировочная группа, бегуны, физическая подготовленность, функциональный индекс, индекс массы тела, общий улчам, сравнительный анализ, динамика физической подготовленности, ежегодная тренировка.

In this article, the training group focuses on determining physical fitness based on special tests representing the physical characteristics of the dynamics of the physical fitness of middle-distance runners. This gave confidence to shed light on the results obtained on the basis of special tests obtained on the basis of the studies conducted. The results obtained are presented in a comparative analysis with the results of pedagogical research conducted by leading scientists, and are highlighted by the conclusions made at the end of the work.

Key words: training group, runners, physical fitness, functional index, body mass index, general ulcham, comparative analysis, dynamics of physical fitness, annual training.

Kirish. Yurtimizda yengil atletika sport turini rivojlantirish, ommaviylikini oshirish, iqdidorli yosh sportchilarni saralab olish, ularni ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlariga yo‘naltirish va yuksak sport natijalariga erishtirish kabi ustuvor vazifalarni amalga oshirish lozim [1, 2]. Albatta, ushbu yuksak natijalarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan jismoniy tarbiya va sportga oid chiqarilayotgan Farmon va Qarorlarning o‘rni beqiyosdir. Jumladan, 2024-yil Parij shahrida bo‘lib o‘tadigan XXXIII Yozgi Olimpiya va XVII Parolimpiya o‘yinlariga puxta tayyorgarlik ko‘rish vazifalarni belgilab berilganligi soha xodimlarini yanada samaraliroq mehnat qilishga undaydi.

Asosiy qism. Bugungi kunda o‘quv mashg‘ulot guruhi o‘rta masofaga yuguruvchilarni musobaqalarga tayyorlash bo‘yicha juda ko‘pchilik olimlar tamonidan tadqiqot ishlari olib borilgan va hozirda ham tadqiqotlar olib borilmoqda [3, 4, 5]. F.P.Suslov, A.I.Polunin, O.Pavlova, V.Nikitushkin, Y.G.Travin, V.N.Verxoshanskiy, M.S.Olimov, H.T.To‘xtaboyev, B.T.Haydarov, I.R.Soliev va boshqalar tamonidan yillik va ko‘p yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarini rejalashtirish, musobaqa oldi tayyorgarligi, saralash va yo‘naltirish, ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlariga sportchilarni tayyorlash va mashg‘ulot jarayonini boshqarish masalalariga e‘tibor qaratilgan bo‘lsada [6, 7], ammo o‘quv mashg‘ulot guruhi o‘rta masofalarga yuguruvchi sportchilarni tayyorlash bo‘yicha yetarlicha tadqiqotlar yurtimizda olib borilmaganligi tadqiqot jarayonida aniqlandi.

Ma‘lumki, bolalar, o‘smirlar sport maktablari bugungi kunda milliy terma jamoa uchun zaxira sportchilarni tayyorlashda yetakchilik qiladi [8].

O‘tkaziladigan tadqiqotda o‘rta masofaga yuguruvchilarning sport natijalarini tahlili shuni ko‘rsatadiki, Jahon va Osiyo chempionatlari hamda Olimpiya o‘yinlarida O‘zbekiston sportchilarini ko‘rinmayotganligi va sport natijalarining past darajada shakllanganligi o‘rta masofaga yuguruvchilarni tayyorlash tizimida yetarlicha kamchiliklar borligini ko‘rsatadi [9, 10]. Qolaversa, tayyorgarlikning ko‘p yillik

dasturlarining takomillashtirilgan optimal variantlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish bugungi kunda sohada dolzarb vazfalardan sanaladi.

Tadqiqod maqsadi: mashg‘ulot jarayonida o‘rta masofaga yuguruvchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish samaradorligi.

Tadqiqot vazifalari:

- o‘rta masofalarga yuguruvchi o‘quv mashg‘ulot guruhi sinaluvchilarni tadqiqot oldidan jismoniy tayyorgarligi va jismoniy rivojlanishini aniqlash;

- o‘quv mashg‘ulot guruhi, o‘rta masofalaraga yuguruvchilarining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish.

Tadqiqod natijalari va unlarning muhokamasi. Jismoniy tayyorgarlik o‘rta masofaga yuguruvchilarning mashg‘ulot jarayonida vositalarni qo‘llash nazariyasi va usuliyotining tarkibiy qismi sifatida mutaxassislar e‘tiborini ko‘pdan buyon tortib keladi. Murabbiy ish tajribasini umumlashtirish asosida olimlar tomonidan ko‘p sonli qo‘llanmalar nashr etilgan, jumladan, asosiy uslubiy qonuniyatlarning tizimlashtirilgan va jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun mashqlar majmuasi ishlab chiqilgan. Ularning ko‘pchiligida gimnastika, akrobatika, yengil atletika, sport va harakatli o‘yinlardan olingan yo‘nalishdagi vositalar ustunlik qiladi deb hisoblanadi.

Biroq hozirgi zamon sport amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, o‘quv mashg‘ulot guruhlari o‘rta masofaga yuguruvchilarning turli tayyorgarlik bosqichlarda sport mashg‘ulotlarini yanada samaraliroq tashkil etish va vosita usullarini qo‘llash ularning jismoniy sifatlarni rivojlantirishni talab etmoqda.

O‘quv mashg‘ulot guruhlari o‘rta masofaga yuguruvchilarni birinchi, ikkinchi tayyorgarlik yillarida yuqori darajada funuksional tayyorgarlikka ega bo‘lish hamda jismoniy sifatlarning rivojlanishiga ularni yugurish texnikasini egallashida va musobaqa tajribasiga ega bo‘lishida katta ahamiyatga ega.

Sportchi shakllanishining ilk bosqichidagi umumiy jismoniy tayyorgarlik shunday poydevor hisoblanadiki, u yosh sportchiga o‘z mahoratini takomillashtirishda zarur bo‘lgan harakat ko‘nikma va malakalarining jismoniy sifatlarning har xil turlarini hosil qilishga imkon yaratadi.

Mashg‘ulot jarayonida turli xil vositalarini muntazam ravishda ko‘p marotaba bajarish mushak tolalari, suyak to‘qimalari, ichki organlarda morfofunksional o‘zgarishlarga, harakat vegetativ va energiya bilan ta‘minlovchi funksiyalar orasidagi o‘zoro aloqalarning optimallashtiruviga olib keladi.

Biz o‘quv mashg‘ulot guruhi o‘rta masofalarga yuguruvchilarning jismoniy tayyorgarligini maxsus testlar yordamida aniqlashga e‘tibor qaratdik. Biz tomonimizdan o‘quv mashg‘ulot guruhi o‘rta masofaga yuguruvchilarning jismoniy tayyorgarligini aniqlash bo‘yicha tadqiqod oldidan testlash o‘tkazdik. Unda jismoniy rivojlanishni aniqlashda bo‘y, vazn, bo‘y vazn indeksi, ko‘krak qafas aylanasi bo‘yicha tananing total o‘lchamlari aniqlandi va, shu bilan birgalikda, jismoniy tayyorgarlik darajasini 12 ta ko‘rsatkichlar asosida aniqladik. Tezkorlikka bo‘lgan kuch sifatini 100-200 metr masofaga yugurush, tezkor chidamlilikni 300-400-800-1000-1500 metr masofaga yugurush va maxsus chidamlilikni 3000 metrga yugurush, oyoqning portlovchanlik kuchini joyidan turib uzunlikka sakrash, uch va o‘n hatlab sakrash, qo‘l kuchini 2 kg lik to‘ldirma to‘pini uloqtirish testlaridan foydalangan holda aniqlashga e‘tibor qaratdik. Olingan natijalar 1-jadvalda berildi.

O‘quv mashg‘ulot guruhi o‘rta masofaga yuguruvchilarning tadqiqod oldi jismoniy tayyorgarlik darajasini shakllantirish
DINAMIKASI

T/r	Nazorat testlari Familya ismi Sh.	Bo‘yi (sm) n=16	Vazni (kg) n=16	Tana indeksi n=16	KKKtotal ulchami			Jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari												
					Tinch. h	Nafas olganda	Nafas chiqarganda	100 m	200 m	300 m	400 m	800 m	1000 m	1500 m	3000 m	Turgan joyidan uzunlikka sakrash	Turgan joyidan uch xatlab sakrash	Turgan joyidan o‘n xatlab sakrash	2-kg li tuldirma tupni uloqtirish	
1	Ye. S.	159	51,0	16,35	78,8	80,5	75,3	13,30	31,21	52,12	71,00	158	198	301	681	2,18	601	20,15	6,35	
2	B. Sh.	162	53,5	17,66	78,0	81,0	75,8	13,70	32,18	50,28	72,28	162	195	305	683	2,30	603	20,25	6,50	
3	R. Z.	171	49,0	14,04	79,5	82,0	76,1	13,45	30,45	51,12	73,14	159	197	308	678	2,15	605	20,30	6,41	
4	Ye. Sh.	158	48,5	14,88	76,5	80,5	75,5	14,20	29,58	49,88	70,12	155	205	298	671	2,21	600	20,20	6,71	
5	Ye. Sh.	159	55,0	19,02	78,2	81,5	75,8	13,05	29,75	51,25	70,85	156	201	299	684	2,18	598	20,35	6,95	
6	A. R.	152	51,0	17,11	78,5	80,8	74,7	13,10	32,10	52,59	71,95	159	206	300	680	2,30	596	20,30	5,60	
7	S. Sh.	165	49,5	14,85	77,5	81,5	74,9	13,95	31,75	53,11	71,68	157	196	310	681	2,21	594	20,35	6,20	
8	B. B.	170	55,5	18,11	77,9	81,8	74,0	12,85	29,05	50,21	71,09	154	199	307	686	2,15	601	20,35	6,40	
9	R. D.	160	49,0	15,00	78,5	82,2	75,8	12,45	28,48	53,10	71,28	162	195	311	688	2,28	620	20,15	6,20	
10	I. Sh.	155	51,5	17,11	78,9	80,9	76,0	13,20	30,95	48,75	65,12	160	198	295	684	2,20	603	19,45	6,00	
1	M. O.	171	53,5	16,73	77,5	81,0	76,0	12,95	29,95	50,19	68,69	157	207	298	670	2,17	597	19,90	6,10	
12	F. B.	163	48,0	14,13	78,6	81,2	76,2	13,85	33,20	51,21	70,21	162	201	315	675	2,24	592	20,45	5,95	
13	F. S.	167	47,5	13,51	79,0	81,0	75,7	13,80	32,15	51,96	71,00	147	203	299	676	2,31	591	19,00	6,45	
14	M. M.	52	50,0	16,44	78,5	81,5	75,0	13,65	30,58	52,00	67,14	161	200	305	680	2,12	599	19,40	6,25	
15	Z. K.	58	48,5	14,88	76,8	81,5	75,2	13,75	31,12	53,12	68,25	151	201	307	676	2,00	593	20,50	6,80	
16	Sh. J.	57	49,0	15,29	78,3	80,5	76,0	14,00	33,08	50,21	69,23	155	198	310	695	2,25	605	20,55	6,45	
	x- o‘rtacha ko‘rsatkich	161	50,5	15,94	78,3	81,5	75,5	13,45	30,97	50,98	70,18	157	200	305	680	2,20	600	20,10	6,33	

Jismoniy tayyorgarlik va funksional ko‘rsatkichlarini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan pedagogik tajribada o‘quv mashg‘ulot guruhi o‘rta masofaga yuguruvchilarning jismoniy tayyorgarligini B.T.Haydarov tamonidan berilgan ma‘lumotlar bilan qiyosiy tahlil etganimizda [8], sportchilar bo‘yi, vazni, tana indeksida va jismoniy tayyorgarlik natijalar o‘rtasida sezilarli farqlar kuzatilmadi.

Xulosa. O‘quv mashg‘ulot guruhi o‘rta masofaga yuguruvchilarning jismoniy rivojlanganligini total o‘lchamlari va tayyorgarlik darajasini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijasi quyidagi xulosalarni qayd etish imkonini berdi:

- 15 yoshli o‘quv mashg‘ulot guruhi o‘rta masofaga yuguruvchilardan olingan jismoniy rivojlanish bo‘yicha total o‘lchamlarining yetakchi olimlar tomonidan berilgan ma‘lumotlar bilan qiyosiy tahlil etilganda, ular o‘rtasida bo‘yining o‘sishi va vaznlarida farqlar borligi kuzatildi;

- o‘quv mashg‘ulot guruhi o‘rta masofaga yuguruvchilarda jismoniy tayyorgarligini rivojlanganligini B.Haydarov tamonidan berilgan ma‘lumotlar bilan qiyosiy tahlil qilganimizda ular o‘rtasida sezilarli darajada farqlar borligi ko‘z atildi;

- o‘quv mashg‘ulot guruhi o‘rta masofaga yuguruvchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish bo‘yicha olingan tayyorgarlik dasturlarini, eskirganligi o‘rta masofaga yuguruvchilarni tayyorlash samaradorligi oz bo‘lsada ta‘sir etayotganligi tadqiqod jarayonida aniqlandi.

- yuqoridagilarni inobatga olib, o‘quv mashg‘ulot guruhi o‘rta masofaga yuguruvchilar bilan o‘tkazilgan yillik mashg‘ulot yuklamalarini rivojlantirishda ularning tayyorgarlik darajasi, funksional holatini inobatga olgan holda tayyorgarlik dasturini ishlab chiqish lozim. Shundagina ko‘zlagan natijaga erishish uchun zamin yaratiladi.

Adabiyotlar

1. Ивочкин В.В., Травин Ю.Г., Королев Г.Н., Семаева Г.Н. Легкая атлетика: бег на средние и длинные дистанции, спортивная ходьба: Примерная программа спортивной подготовки для детско-юношеских спортивных школ, специализированных детско-юношеских школ олимпийского резерва. – М.: “Советский спорт”, 2009. - 108 с.

2. Шакиржанова К., Солиев И., Олимов М., Баратов А., Акманов Б., Сайдкулов З., Педагогисал течнологиес анд интерастиве метходс ас а фактор оф инсреасинг спесиал кноуледге оф студенц. Жоурнал оф Сритисал Ревиеус., 2020; 7(6): 42-46. doi:10.31838/жр.07.06.10.

3. Полунин А.И. Школа бега Вячеслава Евстратова. Советский спорт. – М., 2013 й. 135 с

4. Soliyev I.R. Qisqa masofalarga yugurishda sportchilarni texnik tayyorgarlik davrida start reaksiyalarini takomillashtirishni tahlil qilish. // FAN-SPORTGA ilmiy – nazariy jurnal. –Toshkent, 2018-yil, 2-son. 56-60 betlar.

5. Soliyev I.R. Yuqori malakali uzoq masofaga yuguruvchi sportchi qizlarni tayyorgarlik mashg‘ulotlari va musobaqa jarayonining qiyosiy tahlili. // O‘zMU XABARLARI. –Toshkent, 2018 yil №1/1. 2018-y. 171-174 betlar.

6. Olimov M.S., Soliyev I.R., Haydarov B.Sh. / Darslik. Sport pedagogik mahoratini oshirish. – T., 2017. –318 b.

7. Olimov M.S., To‘xtaboyev N.T., Soliyev I.R., Ortiqov X.T. /O‘rta va uzoq masofalarga yugurish uslubi. O‘quv qo‘llanma.–T.: “Fan va texnologiya”, 2016. -156 bet.

8. Хайдаров Б.Т., Легкая атлетика: программа для детского-юношеских спортивных школ, специализированных детско-юношеских школ олимпийского резерва. – Т.: “ИЛМИЙ ТЕХНИКА АХБОРОТИ – ПРЕСС НАШРИЙОТИ”, 2017. – 148 с.

9. Солиев И., Кхайдров Б., Мирзатиллаев И., Кхужамкелдиев Г., Зияев Ф., Функционал тренинг левел оф руннерс студент-атлетес спринтерс. // Интернационал Жоурнал оф Псайхососиал Реабилитатион, Вол. 24, Иссуе 05, 2020,

10. Суслев Ф.П., Гиппенрейтер Е.Б., Холодов Ж.К. Спортивная тренировка в условиях среднегорья. - М.: 1999, - 202 с.

11. Павлова О.И. Современная тренировка юных легкоатлетов. -М., 2004. -160 с.

Ulug‘bek ABDURAXMANOV

Toshkent davlat pedagogika universiteti
jismoniy madaniyat kafedrasida o‘qituvchisi

KURASHCHILARNING KUCH SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI VA VOSITALARI

Ushbu maqolada kurash mashg‘ulotlari orqali kurashchilarning kuch sifatlarini rivojlantirish tamoyillari, usullari, texnik-taktik jihatlari, yuklamani doimiy o‘zgartirib borish qoidasi, kurashchilar jismoniy tayyorgarligining makrotuzilmasi ta‘sir haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, maqolada kurashchilar organizmidagi moslashish (adaptatsiya) va o‘zgarishlar uchun zarur shart-sharoitlar ta‘minlash, umumjismoniy tayyorgarlikning eng muhim tamoyillaridan biri kuch yuklamalarini asta-sekin, izchil oshirib borishdan iboratligi, yuklamalarni keskin oshirib yuborish muqarrar jarohatlanish va ortiqcha zo‘riqlashlarni keltirib chiqarishi haqida ilmiy ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: kurash, jismoniy tarbiya, sport, organizm, metod, tamoyil, adaptatsiya, kuch, tayyorgarlik, makrotuzilma, yuklama, raqobat, musobaqa, federatsiya, rivojlanish, mashq, vosita.

В данной статье рассматриваются принципы, методы, технические аспекты развития силовых качеств борцов посредством борцовской подготовки, правило постоянного изменения нагрузки, влияние макроструктуры физической подготовки борцов. В статье также приведены научные сведения о том, как обеспечить необходимые условия для адаптации и изменения в организме борцов, одним из важнейших принципов общей физической подготовки является постепенное, постепенное увеличение силовых нагрузок, резкое увеличение нагрузок неизбежно приводит к травме.

Ключевые слова: борьба, физическое воспитание, спорт, организм, метод, принцип, адаптация, сила, подготовка, макроструктура, нагрузка, соревнование, федерация, развитие, упражнение, инструмент.

This article discusses the principles, methods, technical aspects of the development of the power qualities of wrestlers through wrestling training, the rule of constant load change, the influence of the macrostructure of the physical training of wrestlers. The article also provides scientific information on how to provide the necessary conditions for adaptation and changes in the body of wrestlers, one of the most important principles of general physical training is a gradual, gradual increase in power loads, a sharp increase in loads inevitably leads to injury.

Key words: wrestling, physical education, sport, organism, method, principle, adaptation, strength, preparation, macrostructure, load, competition, federation, development, exercise, instrument.

Kirish. So‘nggi yillarda dunyo miqyosida o‘tkazilib kelinayotgan nufuzli sport musobaqalarida, jumladan, Olimpiada va Osiyo o‘yinlari, Jahon va Osiyo chempionatlari, an‘anaviy xalqaro turnirlarda sport natijalarining uzluksiz o‘tib borishi, raqobatni yanada keskinlashayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Zamonaviy sport amaliyotida yuksak sport natijalariga erishish maqsadida yuklamalar hajmi va shiddatini me‘yorida oshirish ko‘ngilsiz oqibatlar, hatto shikastlanishlarga olib kelishi mutaxassis-olimlar tomonidan ta‘kidlanib kelinmoqda. Bugungi kunda bu borada bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ilmiy manbalar kurashda qo‘llaniladigan texnik-taktik usullarni bajarishda mushaklar kuchini rivojlantirish uslub va texnologiyalarini ilmiy jihatdan yetarlicha ochib berilmagan. Bu esa mutaxassislar tomonidan ilmiy asoslangan izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Asosiy qism. Kurashchilarining nufuzli arenalarda qo‘lga kiritayotgan yutuqlarini muntazam oshirib borish va sportchilar tayyorlash tizimini intensiv ravishda innovatsion, zamon talablari doirasida rivojlantirish borasida ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, Xalqaro kurash assosiyasi IKA tomonidan bugungi kunda sayyoramizning beshta qit‘asidagi 129 ta milliy federatsiyani birlashtirganligi va kurash sport turini yanada rivojlantirish, uning nufuzini oshiri, kurash usullari rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va texnik imkoniyatlarini takomillashtirish, kurashchilarning musobaqalardagi yuqori yutuqlarini erishish imkoniyatlarini hamda samaradorligini oshirish yo‘llarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy va amaliy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Respublikamizda kurash sport turining ommaviyligini oshirish, uning milliy qadriyatimiz ekanligini, targ‘ib qilish va yoshlar ongida kurash milliy sport turiga bo‘lgan immunitetini oshiri, “6-sentyabrni O‘zbekistonda “Kurash” milliy sport turi kuni deb e‘lon qilinishi” Prezidentimiz tomonidan o‘z vaqtida kurashga bo‘lgan e‘tiborning davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligidan dalolat beradi. Kurash xalqaro

assotsiatsiyasining 2017-yilning 27-mayda bo‘lib o‘tgan navbatdan tashqari Kongressida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevni kurash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining doimiy Faxriy Prezidenti etib saylanganligi kurash sportchilarini va xalqimizda kurashga bo‘lgan ishtyoqni yanada oshirdi. Kurash milliy sport turini 2030-yilgacha yangi bosqichga olib chiqish konsepsiyasi, 2020-2030-yillarda kurash milliy sport turining xalqaro nufuzini yanada oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”, 2030-yilga qadar kurashni ommalashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarni baholash mezonlari tasdiqlanganligiga o‘ta ahamiyatli hisoblanadi. Olib borilgan bu ishlarning bosh maqsadi, respublikamizda kurash bo‘yicha yosh sportchilarni tayyorlash samaradorligini oshirish musobaqa va mashg‘ulot yuklamalarini nazorat qilish tizimining ilmiy asoslab ularning texnik-taktik va funksional tayyorgarligi oshirishga qaratilgan. Shuningdek, Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 5-martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-son Farmoni, 2017-yil 2-oktabrdagi PQ-3306-son “Kurash” milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 3-iyundagi PQ-3031-son “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari va sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ko‘zda tutilgan ustuvor vazifalarni bajarishga mazkur dissertatsiya tadqiqot ishini muayyan darajada xizmat qiladi [1, 2, 3].

Kurashchilarning kuch jihatlarini optimal rivojlantirishga erishish – zamonaviy mashg‘ulot jarayonining o‘ta muhim muammolaridan biri. Kurashchilarning kuch tayyorgarligi hamda sog‘lomlashtirish mashg‘ulotlari tamoyillariga tayangan holda talabalarning kuch imkoniyatlarini tarbiyalashning moslashtirilgan uslubiyatini ishlab chiqish zarurligini taqazo qilmoqda. Kurashchilarning zamonaviy kuch tayyorgarligi, Y.V.Verxoshanskiy (1988) fikriga ko‘ra, o‘quv-mashg‘ulot jarayonining (O‘MJ) uzluksizligini, jismoniy yuklamalarning siklliligi va to‘lqinsimon qurilishini ta‘minlash tamoyilini hisobga olgan holda quriladi. O‘MJning uzluksizligi avvalgi yuklamadan so‘ng sportchining ish qobiliyati tiklanishidan kuch yuklamalari muntazam bajarib borilishi bilan ta‘minlanadi. Navbatdagi har bir mashg‘ulot ta‘siri avvalgisining “iziga tushib”, uni tobora chuqurlashtirib va mustahkamlab boradi. Quyidagi ikki tamoyil: jismoniy dinamikaning siklliligi va to‘lqinsimonligi mashg‘ulotlar jarayonini tartibga solish, ulardagi asosiy bosqichlar va davrlarni belgilab olish imkonin beradi.

Davriylik (sikllilik) deganda mashg‘ulotlar jarayoni alohida to‘siqlarining nisbatan tugallangan doirasi (aylanasi) anglanadi. Kuch yuklamalari sur‘atining to‘lqinsimon ko‘rinishdagi hajmi va intensivligiga ko‘ra, turlicha yuklamalardan foydalanish ko‘zda tutiladi. Bu bilan kurashchilar organizmidagi moslashish (adaptatsiya) o‘zgarishlari uchun zarur shart-sharoitlar ta‘minlanadi. UJTning eng muhim tamoyillaridan biri kuch yuklamalarini asta-sekin, izchil oshirib borishdan iborat. Yuklamalarni keskin oshirib yuborish muqarrar jarohatlanish va ortiqcha zo‘riqishlarni keltirib chiqaradi [4, 5, 6, 8].

Yuklamani doimiy o‘zgartirib borish qoidasiga muvofiq talabalar tayyorgarligining UJT makrotuzilmasida ta‘sir yo‘nalishi har xil bo‘lgan, davomiyligi taxminan 6 haftadan bo‘lib, bir-birini izchil tarzda almashtirgan uchta kichik davrga ajratib olindi. Birinchi kichik davr kuch chidamliligini, ikkinchisi – kuchni, uchinchisi – tezlik-kuch sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Vaqt yetishmasligi hamda bir mashg‘ulot davomida barcha mushak guruhlari bilan ishlash o‘ta murakkab va ko‘p kuch talab qilganligi tufayli, biz asosan “ajratilish” sxemasi bo‘yicha ishladik. Bunda, qoidaga ko‘ra, bir mashq mashg‘uloti o‘tkazib bajariladigan mashqlar majmui tuzildi. Mikrosiklning birinchi mashg‘ulotida ikki guruh mushaklar (masalan, yelka qatori va qorin mushaklari), ikkinchisida – kuch mashqlari majmualarining birinchi mashg‘ulotda ishga solinmagan, ularni mashqqa qo‘shish va ular bilan ishlash tartibi avvalgisining aksi (teskarisi) bo‘lgan boshqa mushak guruhlari (oyoq, bel mushaklari) bilan ishlandi. Kuch chidamliligini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar takroriy maksimal darajaning 50-55 %gacha yuklama bilan, turkumdagi 8-10 ta takrorlash va 3-5 dan ko‘p bo‘lmagan urinishlar soni bilan bajarildi. Undan so‘ng ikkinchi kichik davrga kelib, uning mashqlarida og‘irligi 70-85 %igacha bo‘lgan yuk bilan ishlanib, 6-8 ta takrorlash bilan, jihatga 2-3-5 marta yondashildi. Uchinchi kichik davrda asosiy mushak guruhlari bilan tezlik-kuchni rivojlantiradigan mashq majmualari tanlab olindi. Og‘irligi yuqori darajadagi takrorlanishning 30 %igacha bo‘lgan yuk bilan ishlaganda 25-30 ta takrorlash bilan, 3 – 5 ta yondashish bajarildi [4, 5, 6, 8].

Kuch tayyorgarligi bo‘yicha nazorat normativlarini va mushak massasi o‘sishi va uning yog‘ komponenti kamayishi sur‘atlarini hisobga oladigan o‘smirlar tanasi tarkibini test sinovidan o‘tkazishni ichiga olgan nazorat musobaqalarini o‘tkazish maqsadga muvofiq. Kushadagi mashg‘ulotlar kuch imkoniyatlarini rivojlantirish vositalari bo‘lib, ularni uch katta guruhga bo‘lish qabul qilingan: tashqi qarshilik bilan mashqlar (buyumlar og‘irligi, sherikning qarshiligi, qayishqoq buyumlar, trenajorlar qarshiligi, tashqi muhit qarshiligi); o‘z tanasi og‘irligini yengish bilan bajariladigan mashqlar va kombinatsiyalangan mashqlar [4, 5, 6, 8].

Muhokamalar va natijalar. Biz tadqiqotimizda kurashchi talabalarning kuch tayyorgarligi imkoniyatlarini rivojlantirishning quyidagi uslublarini qo‘lladik: maksimal kuch ishlatish uslubi, takroriy kuch ishlatish uslubi, dinamik kuch ishlatish uslubi va izometrik uslub. Maksimal kuch ishlatish uslubi asosan kuch tayyorgarligining 2- va 4-bosqichlarida, talabalar kuch yuklamasiga birmuncha moslashganidan so‘ng qo‘llanadi. U kuch mashqlarini chegaraviy yoki shunga yaqin og‘irliklar bilan yuqori darajadagi takrorlanishni bir-ikki marta takrorlash orqali bajarilishi bilan tavsiflanadi. Mashq qilishning takror-turkumli uslubi asosan mushak massasi va kuchni ko‘paytirish maqsadida qo‘llanadi. U yuqori darajada takrorlanishning 50-80 %i atrofida og‘irliklar bilan kuch mashqlari bajarilishini ko‘zda tutib, ular bir yondashuvda 5-12 tadan takrorlash bilan turkumli tarzda bajariladi. Bir mashq mashg‘ulotida ko‘pi bilan 3-5 turkum ishlatiladi. Mashqlar o‘rtacha sur‘atda ancha charchagunga qadar bajariladi [4, 5, 6, 8].

Dinamik kuch ishlatish uslubi asosan kurashchilarning tezkorlik-kuch jihatlarini rivojlantirishda qo‘llanib, kattaligi bo‘yicha yuqori darajada takrorlanishning 30% idan oshmaydigan kichik va o‘rtacha og‘irliklar qo‘llanishi bilan tavsiflanadi. Mashqlar bir yondashishda tez sur‘atda 15-30 marta takrorlash turkumlari tarzida bajariladi. Bir mashg‘ulotda ko‘pi bilan 3-5 turkum bajariladi. Seriyalar orasida dam olish vaqti – 2-4 daqiqa.

Izometrik mashqlar uslubi turli mushak guruhlariga 4-8 soniya davomida maksimal statik yuklama tushirishni nazarda tutadi. Bir mashg‘ulotda mashq 3 tadan 5 martagacha, har bir zo‘riqishdan so‘ng 30 dan 45 soniyagacha dam olish bilan takrorlanadi. Izometrik mashqlar asosan qo‘shimcha vositalar sifatida qo‘llaniladi. Kurashchilarning kuch tayyorgarligi tayanch-harakatlanish a‘zolarining barcha mushak guruhlarini har tomonlama va uyg‘un rivojlantirishni, bog‘lamlarni mustahkamlashni nazarda tutadi. Yuqorida bayon etilganlar, talabalarga kurashning taktik-texnik harakatlarini dastlabki o‘rgatish uslubi samarali ekanligidan va uni amaliyotda qo‘llash mumkin ekanligidan dalolat beradi [4, 5, 6, 8].

Xulosa sifatida aytishimiz mumkin, kurashning kuch sifatlarini rivojlantirish uslubi hozirgi vaqtda kam o‘rganilgan va ilmiy ishlarda yetarlicha aks ettirilmaganligini ko‘rsatdi. Texnik harakatlarni dastlabki o‘rgatish ko‘proq yuzaga kelgan anxanalarga tayanadi va to‘planib bo‘lingan tajribaga tayanishni, shuningdek o‘rgatishda yangi texnologiyalarni qo‘llashni talab qiladi. Hozirgi vaqtda kurashchilarning kuch texnik tayyorgarligidagi juda muhim bo‘limlarga tayanuvchi musobaqalashish faoliyatining tuzilishi o‘rganilmagan ko‘rsatmoqda. Kurashdagi musobaqalashuv faoliyatini tahlil qilish natijasida, bellashuvlarida kurashchilarning kuch sifatleri yaxshi rivojlanlaganligidan dalolat beradi. Barcha bellashuvlarning birinchi daqiqasidan uchinchi daqiqasigacha oshishi, to‘rtinchi daqiqaga kelib pasayish dinamikasi kuzatilishi aniqlandi. Nisbatan bir xil jismoniy va funksional tayyorgarlikka ega bo‘lgan kurashchilar o‘rtasida musobaqalashuv faoliyati ko‘rsatgichlari bo‘yicha kuch ishonchligi va sport natijasi – sport mahorati darajasining integral ko‘rsatgichi sifatida farqlar aniqlandi. Bu esa talabalarga taktik-texnik harakatlarni dastlabki o‘rgatish uslubi samarali ekanligini va uni kurash kurashchilarini tayyorlash amaliyotida qo‘llash mumkin ekanligini tasdiqladi.

Pedagogik kuzatuv va izlanishlarning nazariy tahlili natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ilmiy yo‘nalishlar aniqlandi. Keyingi izlanishlarni esa kurashchilarning kuch sifatlarini rivojlantirishning dasturiy-uslubiy ta‘minotni ishlab chiqish va o‘rganish uslubini asoslab berishga yo‘naltirish mumki taqazo etadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-oktyabrdagi PQ-3306-son “Kurash” milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi PQ-3031-son “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-son Farmoni.
4. Muxamadiyev K.B. Jismoniy tarbiya ta‘limi jarayoni samaradorligini oshirish va talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning nazariy asoslari: Monografiya / “Innovatsion rivojlantirish nashriyoti-matbaa uyi”. – Toshkent, 2021. -413 b.
5. Мухаммадиев К.Б. Спортивное воспитание студентов на основе сочетания средств борьбы и игрового метода // Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. УДК/UDC 796.011.2:5:012.33. – Москва, № 9, 2021. С. 23-24.
6. Nurshin J.M. – Milliy kurash usullari. O‘quv uslubiy qo‘llanma. -Toshkent, 1987.
7. Nurshin J.M. – O‘zbek milliy kurashi. –Toshkent, 1993.
8. Туманян Г.С. Спортивная борьба, теория, методика, организация тренировки. Учеб.пособ. В 4-х кн. Кн. II. Кинезиология и психология. –М.: “Советский спорт”, 1998 г. С.280.
9. Yusupov K.Y. Milliy kurash qoidalari. Monografiya. –Toshkent, 1992.

Абдулло ИНОЯТОВ
Бухарский государственный
университет
преподаватель факультета
физической культуры,
доктор философии по педагогике
(PhD)

Эркин ЭШОВ
Преподаватель кафедры
психологии педагогического
факультета
Бухарского государственного
университета

Миршод САТТОРОВ
Студент Бухарского
государственного
университета
факультет физической
культуры

КЛАССИФИКАЦИЯ НАПРАВЛЕНИЙ ОЗДОРОВИТЕЛЬНОЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ДЛЯ СРЕДНИХ И СТАРШИХ ВОЗРАСТНЫХ ГРУПП

В данной статье показаны направления занятий в области физической культуры и спорта лиц средних и старших возрастных групп.

***Ключевые слова:** спорт, оздоровление, занятие, пожилые люди, метод, классификация, результат.*

Ushbu maqolada o'rta va katta yoshdagi shaxslarning jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mashg'ulotlar yo'nalishlari ko'rsatilgan.

***Kalit so'zlar:** sport, sog'lomlashtirish, kasb, keksalar, usul, tasnif, natija.*

This article shows the directions of classes in the field of physical culture and sports of persons of middle and older age groups.

***Key words:** sport, health improvement, occupation, elderly people, method, classification, result.*

При организации оздоровительных занятий с любыми категориями граждан, и пожилые люди не исключение, необходимо учитывать их мотивацию. От мотивации зависит наиболее привлекательная для занимающихся форма занятий, применяемые средства и методы.

В соответствии со своими потребностями и желаниями люди используют упражнения с различной целью. Таким образом, сформировались несколько направлений занятий. Ниже представлены те основные из них, которые фактически существуют в области физической культуры и спорта лиц средних и старших возрастных групп.

1. *Спортивное:* спорт ветеранов гораздо более популярен в мире, чем это может казаться. Существует своя международная и российская федерация, проводятся (всемирные) игры, спартакиады и соревнования по очень многим видам спорта. В это движение вовлечены десятки тысяч российских граждан. Есть другая категория пожилых граждан, которых следует отнести к разряду «спортсменов». Даже если такой занимающийся ветеран не ставит своей целью победы или рекорды в какой-то конкретном виде спорта, то он вполне в соответствии со своими желаниями хочет и по своим физическим и временным возможностям может тренироваться с прицелом на достижение максимально возможных результатов в области развития, например, мышечной силы, «строительства тела», выносливости, гибкости и координационных способностей, всестороннего развития основных физических качеств и т.п. Он это делает только потому, что ему нравится сам процесс достижения физического совершенства и связанная с этим возможность периодического участия в самых различных соревнованиях.

2. *Кондиционное:* задачей, которую ставят перед собой приверженцы этого направления, является улучшение физических кондиций, например, нормализация массы и состава тела, «подтягивание» (повышение тонуса) мышц, изменение пропорций тела, улучшение силовых показателей, выносливости, гибкости, приобретение некоторых двигательных навыков (например, из области боевых единоборств, танцев) и т.п. Как правило, это основные мотивы тренировок занимающихся молодого возраста (18-30 лет). Однако и среди ветеранов немало людей, для которых основной смысл занятий, это достижение хороших физических кондиций, под которыми подразумевают хороший «моложавый» внешний вид, достаточно высокий уровень развития основ физическими качествами и, главное, их баланс.

3. *Оздоровительное:* очевидно, что несмотря на популярность первых двух направлений, подавляющее число занимающихся граждан старших возрастных групп, не очень интересуется, например, наращивание мышечной массы, улучшение их силовых возможностей, перспективы участия в Нью-Йоркском марафоне и т.п., но они четко понимают, что основное богатство жизни, это здоровье и ждут от занятий, прежде всего, зримых признаков его улучшения, явного появления сдвигов в своем физическом состоянии в сторону лучшего самочувствия, меньшей утомляемости,

большей подвижности и активности. Как уже многократно отмечалось оздоровительная тренировка предоставляет для этого богатейшие возможности.

4. *Реабилитационное*: подавляющая часть тех, кто хотел бы начать вести более активный образ жизни, собираются это сделать по одной простой причине: появления ощущения, что тело “стареет раньше души”, а также факта постоянного появления все новых хронических заболеваний и отклонения в здоровье, которые «мешают жить» и плохо поддаются лечению или коррекции традиционными медицинскими методами. Таким образом, занятия с целью избавления от “букета” хронических заболеваний и связанного с ними резкого ухудшения качества жизни, вполне могут быть отнесены к категории реабилитационных. Несмотря на то, что традиционно термин «физическая (двигательная) реабилитация» относят к случаю физической или социальной реабилитации инвалидов или тогда, когда лечебная физическая культура (ЛФК) используется для лечения определенных заболеваний.

5. *Рекреационное*: достаточно большая доля людей тренируются ради «хорошего настроения», ради развлечения, активного отдыха, возможности пообщаться в неформальной обстановке с друзьями или семьей, отвлечения от стрессов рабочего дня или недели. Их мало прельщают тренировки “до седьмого пота”. Их желание – “расслабиться в хорошей компании” (даже если это – он сам, любимый), пассивно, но с пользой для здоровья отдохнуть или - повеселиться, потанцевать и т.п. Работа с этой категорией должна строиться, исходя из этого ведущего мотива.

6. *Гигиеническое*: это различные формы физической активности и тренировки, включенные в рамки повседневного быта (утренняя гимнастика, прогулки, физические упражнения в режиме дня, не связанные со значительными нагрузками). Ее основная функция - оперативная оптимизация текущего функционального состояния организма в рамках повседневного быта и расширенного отдыха.

Целесообразно рассмотреть принципы в разрезе этих основных направлений ОФК.

Литература

1. Иващенко Л.Я., Пирогова Е.А. Программа оздоровительных занятий //Здоровья-1985. -N5. - С.26-27.
2. Содикова Ш.М. Қарияларни кадрлаш мезонлари ва тамойиллари. Монография. – Тошкент: Akademiya, 2011. 12,0 б.т.

Mansurbek MA'RUF OV

O'zbekiston davlat jismoniy
tarbiya va sport universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

EKOLOGIK OG'IR HUDUDLARDA TALABALAR BILAN TABAQALASHTIRILGAN JISMONIY TARBIYA MASHG'ULOTLARINI OLIB BORISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Mazkur maqolada atrof-muhit omillarining jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilarning jismoniy, ruhiy, axloqiy va irodaviy fazilatlariga ta'siri haqida fikr yuritilgan. Sportchilarning shug'ullanishi va ularning mashg'ulot olib borish uchun sport majmuasidagi sharoitlari barcha ekosanitariya-gigiyenik talablarga javob berishi kerakligi, yashil maydonlar, tog' yonbag'rida, daryo bo'ylarida joylashgan bo'lishi, shunda sportchilar mashg'ulotlar va musobaqalar jarayonida yuqori natijalarni qo'lga kiritishining samaradorligi ortishi haqida ilmiy fikrlar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya va sport, organizm, jismoniy mashqlar, sog'lom turmush tarzi, malaka, jismoniy madaniyat, rivojlantirish, ommalashtirish, atrof-muhit omillari, ekosanitariya, gigiyena, jismoniy ta'yyorgarlik.

В данной статье рассматривается влияние факторов внешней среды на физические, психические, морально-волевые качества лиц, занимающихся физической культурой и спортом. Существует научное мнение, что условия спортивного комплекса для занятий и тренировок спортсменов должны отвечать всем эколого-санитарным и гигиеническим требованиям, располагаться на озелененных территориях, склонах, реках, чтобы спортсмены могли достигать высоких результатов на тренировках и соревнованиях.

Ключевые слова: физическая культура и спорт, организм, физические упражнения, здоровый образ жизни, навыки, физическая культура, развитие, популяризация, экологические факторы, экостанация, гигиена, физическая культура.

This article discusses the influence of environmental factors on the physical, mental, moral and volitional qualities of people involved in physical culture and sports. There is a scientific opinion that the conditions of a sports complex for sports and training of athletes must meet all environmental, sanitary and hygienic requirements, be located on green areas, slopes, rivers, so that athletes can achieve high results in training and competitions.

Key words: physical culture and sports, body, physical exercises, healthy lifestyle, skills, physical culture, development, popularization, environmental factors, environmental sanitation, hygiene, physical culture.

Kirish. So'nggi yillarda mamlakatimiz pedagogika fanida talabalarga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiyani rivojlantirish bo'yicha faol qadamlar qo'yildi. Shaxsni rivojlantirishning asosiy tarkibiy qismi sifatida respublikamiz fuqarolarning sog'lig'ini muhofaza qilish to'g'risida bir qancha qonun osti hujjatlarda o'z aksini topgan salomatlik ustuvorligi tamoyili belgilab berildi.

Asosiy qism. Hozirgi vaqtda talabalar salomatlik holat masalasi dolzarb bo'lib, bu zamonaviy jamiyatning rivojlanish tendensiyasiga mos kelmaydi. Mamlakatimizning turli hududlarida o'tkazilgan kompleks tibbiy ko'rik natijalari talabalarda patologik ko'rsatgichlarning yuqori ekanligini ko'rsatadi. Bu borada olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki talabalarning atigi 14 foizi amalda sog'lom, 50 foizdan ortig'i turli funksional normadan chetga chiqish (anomaliya) larga ega, 30-40 foizi surunkali kasalliklarga chalingan. Me'yordagi jismoniy rivojlanishga ega bo'lgan talabalar ulushi atigi 10-12% ni tashkil qiladi. 18-20 yoshga yetgan, talabalarida tayanch-harakat tizimi kasalliklarining chastotasi 6-7 baravar ortadi, ko'rishning buzilishi chastotasi 15 marta, ovqat hazm qilish organlari va siydik yo'llarining patologiyasi 4 marta, asab-mushak kasalliklari. buzilishlar 3-5 mart, immunitetning buzilishi 50-80% hollarda qayd etgan [2].

Olingan ma'lumotlarning ko'rishimiz mumkinki, Respublikamiz hududining yarmidan ko'pi sog'lom turmush tarzi uchun ekologik jihatdan noqulay sharoitlar bilan ajralib turadi - ichimlik suvi manbalarining qariyb 60 foizi normativ ma'lumotlarga javob bermaydi, 20 foizdan ko'p tuproq normalariga javob bermaydi. Bakteriologik ko'rsatkichlar va zaharli moddalar miqdori bo'yicha gigiyenik me'yorlarga javob beradi, aholining qariyb 70 foizi sanitariya-gigiyena sharoiti noqulay ekologik ta'sirlangan hududlarda doimiy yashaydi, 20 foizi esa ekologik ofat zonasida yashaydi [2]. Shu sababli, talabalarning sog'lig'ining

yomonlashishi va asosiy patologiyalarining rivojlanishida atrof-muhit komponentining ulushi ilgari, 20-30% emas, balki 40-60% va undan ko'proqni tashkil qilmoqda [2].

Bu muammo atrof-muhitning ifloslanishiga sezgir bo'lgan talabalar uchun alohida ahamiyatga ega. Shu bilan birga, bu ekologik muammolar talabalarining organizmiga salbiy ta'sirini oldini olishning har doim ham imkoniyati yo'q. Hozirgi vaqtda va kelgusi yillarda umumiy profilaktika vazifasini Respublikamizda atrof-muhitning ifloslanishini bartaraf etishning iloji yo'q, chunki uni amalga oshirish barcha sanoat investitsiyalarining 30% gacha kamaytirishni talab qiladi. Bundan tashqari, mavjud texnologiyalar bilan atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlarining iqtisodiy samaradorligi belgilab qo'yilgan.

Yuqoridagilar bilan bog'liq holda, noqulay ekologik sharoitga ega bo'lgan hududlarda yashovchi talabalarining sog'lig'ini yaxshilash, ekologik sabab bo'lgan patologik reaksiyalarining oldini olish va xavfini kamaytirish yo'llarini izlash ayniqsa dolzarb bo'lib qolmoqda. Buning uchun talabalar salomatligini saqlash, mustahkamlash va shakllantirish tushunchasini rivojlantirish kerak. Agar yaqin vaqtgacha kasallikning rivojlanishini faqat tanaga salbiy ta'sir etuvchi omilni yo'q qilish orqali oldini olish yoki, organizmning o'zini uning organlari va tizimlarini, tashqi muhit ta'sirini moslashtirish orqali sog'lomlashtirib borish mumkin deb hisoblasak bo'ladi.

Muayyan sharoitlarda atrof-muhitning talabalar sog'lig'iga salbiy ta'sirini kamaytiradigan omillardan biri bu jismoniy tarbiya, chunki harakat faoliyati insonning moslashuvchan qobiliyatlarini shakllantirishga yordam berishi isbotlangan. Jismoniy faollikka o'rgatilgan talabalarining organizmi o'zgaruvchan muhit sharoitlariga chidamli bo'lishi aniqlangan. Bundan tashqari, jismoniy faoliyatni insonning morfologik va funksional xususiyatlarining keng doirasi uchun filogenetik, deterministik asos sifatida ko'rib chiqish mumkin [4].

Afsuski, bugungi kunda mamlakatimizda talabalar salomatligini saqlash va mustahkamlashda jismoniy tarbiya va sportning sog'lomlashtirish imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayapti. Oliy ta'lim muassasalari uchun mavjud jismoniy tarbiya o'quv dasturlarida atrof-muhit sharoitlari, hisobga olinmagan, garchi talabalarining tanasi nosog'lom atrof-muhit ta'siriga eng sezgir ekanligi ma'lum. Respublikamiz talabalari uchun jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining tashkiliy va uslubiy jihatlari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligidan dalolat beradi, bu talabalarining jismoniy takomillashishi jarayoniga salbiy ta'sir qiladi. Chunki ekologik jihatdan noqulay hududlarda atrof-muhitning ifloslanish darajasi talabalarda kasallanishning 25-40% ni keltirib chiqaradi [2].

An'anaviy jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida birinchi navbatda yuklamalarning mazmuni, hajmi va intensivligi jihatidan o'quv muammolarini hal qilishga, shu bilan birga talabalar organizmining rivojlanishi va funksional imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog'liq bo'lgan salomatlik muammolarini hal qilishga qaratilganligi isbotlangan. Jismoniy tarbiya darslarining asosan tarbiyaviy yo'nalishga ega bo'lishining sababi ekologik jihatdan noqulay hududlarda yashovchi talabalar bilan sog'lomlashtirish mashg'ulotlarini dasturiy va uslubiy jihatdan ta'minlanmaganligidir.

Muhokamalar va natijalar. Bizda mavjud bo'lgan adabiyotlarda ekologik jihatdan noqulay hududlarda yashovchi talabalarining jismoniy tarbiya xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar mavjud emas. Bu sohalarida talabalar salomatligini mustahkamlashda jismoniy tarbiyaning eng samarali vositalaridan foydalanish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar mavjud emas. Ekologik keskinlik hududlarida yashovchi talabalarining sog'lig'i, jismoniy rivojlanishi, jismoniy va funksional tayyorgarligi masalasi hali ham o'rganilmagan [4].

Demak, yuqorida aytilgan fikrlar bilan bog'liq holda, dolzarblik o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning kuchayishi bilan belgilanadigan ilmiy muammo mavjudligini tan olish kerak, xususan:

atrof-muhit ifloslanishining talabalar salomatligiga zararli ta'sirining kuchayishi va ekologik muammoli hududlarda joylashgan ta'lim muassasalarida talabalar salomatligini mustahkamlash yo'llarining nazariy va amaliy jihatdan yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;

atrof-muhitning noqulay omillarining talabalar organizmiga ta'sirining tizimli ekologik sabablarga ko'ra ular sog'lig'ining yomonlashishini oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar;

jismoniy tarbiya yordamida talabalar salomatligini saqlash, mustahkamlash va shakllantirish uchun real imkoniyatlar hamda noqulay ekologik sharoitlarda doimiy yashovchi talabalar uchun ilmiy asoslangan sport va sog'lomlashtirish texnologiyalari ishlab chiqilmaganligi.

Ushbu muammoning zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatidan kelib chiqib, yosh avlod salomatligini mustahkamlash va saqlashda eng dolzarb deb hisoblashimiz mumkin.

Tadqiqotning maqsadi: mintaqaning ekologik jihatdan noqulay hududlarida yashovchi talabalar uchun tabaqalashtirilgan jismoniy tarbiyaning mashg'ulotlarini ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti: ekologik muammoli hududlarda talabalarining jismoniy tarbiyasi.

Predmeti: ekologik noqulay hududlarda jismoniy tarbiya vositasida orqali talabalar salomatligini mustahkamlash jarayoni.

Tadqiqot quyidagi farazlarga asoslanadi:

hududlarda atrof-muhitning ifloslanish darajasi va talabalarining jismoniy holatini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar (jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik, funksional holat) o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligi; talabalarining jismoniy faolligi tananing moslashuvining zaiflashgan bo‘g‘inlarining barqarorligini, shu jumladan noan’anaviy tiklanish vositalarini tanlab oshiradigan jismoniy tarbiya vositalarini o‘z ichiga olishi kerak;

agar oliy ta‘lim muassasasidagi mavjud jismoniy tarbiya dasturi mazmuni jismoniy tarbiyaning an’anaviy va noan’anaviy vositalarining kombinatsiyasi asosida o‘zgartirilsa, bu jismoniy holatni yaxshilaydi va talabalarining kasallanishini kamaytiradi.

Tadqiqot maqsadi va ilgari surilgan farazdan kelib chiqib, biz quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

oliy ta‘lim tizimida tabaqalashtirilgan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining nazariy shart-sharoitlarini o‘rganish;

viloyatlarning turli ekologik hududlarida joylashgan oliy ta‘lim muassasasi talabalarining jismoniy holatini o‘rganish;

jismoniy holat ko‘rsatkichlarining tahlil qilish asosida turli ekologik hududlarda organizmning moslashuv xususiyatlarini aniqlash;

viloyatlarning ma‘muriy hududlarini atrof-muhit omillari va oliy ta‘lim muassasasi talabalarining jismoniy holati ko‘rsatkichlari yig‘indisi bo‘yicha ekologik hududlariga ajratish;

jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining ekologik xavfli hududlarda yashovchi talabalar bilan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini mazmuni va tashkil etish bo‘yicha xabardorlik darajasini aniqlash;

jismoniy tarbiya mashqlari yordamida ekologik noqulay hududlardan kelgan talabalarining salomatligini mustahkamlash imkoniyatlarini aniqlash;

ekologik xavfli hududlarda joylashgan oliy ta‘lim muassasasi talabalar uchun tabaqalashtirilgan jismoniy tarbiya tizimining algoritmini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish.

Ilmiy jihatdan mintaqadagi atrof-muhit havoning ifloslanishi, birinchi navbatda, yurak-nafas olish tizimi va to‘qimalarning nafas olish tizimiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu tananing qarshiligini oshirish uchun yetarli vositalar va usullarni topish zarurligini belgilaydi. Jismoniy faollik tana rivojlanishining tabiiy shakli sifatida ekologik jihatdan noqulay hududlarda doimiy yashovchi talabalar salomatligi uchun xavf omillariga qarshi kurashishning samarali vositalaridan biri bo‘lishi mumkin. Haftada jismoniy tarbiya darsiga asoslangan jismoniy tarbiyaning umumiy qabul qilingan shakllari yashash joylarining mintaqaviy, shu jumladan ekologik xususiyatlarini hisobga olmaydi. Bunday sharoitda maktab jismoniy tarbiyaning mazmunini o‘zgartirish, unga ko‘proq sog‘lomlashtiruvchi yo‘nalish berish, ushbu mintaqadagi eng keng tarqalgan kasalliklarning profilaktikasini hisobga olish kerak. Ko‘rinib turibdiki, jismoniy tarbiya dasturi talabalarining moslashuv jarayonlarining eng zaif qismlariga tanlab ta‘sir ko‘rsatishga imkon beradigan vositalarni o‘z ichiga olishi kerak. Bularga, birinchi navbatda eng katta stress bilan ishlaydigan tizimlar: nafas olish, yurak-qon tomir, mushak-skelet tizimini aytishimiz mumkin. Qayta tiklashning noan’anaviy vositalariga nafas olish mashqlari, o‘z-o‘zini massaj qilish, elementlari kiradi). Jismoniy tarbiyaning sog‘lomlashtiruvchi ta‘sirini oshirish uchun jismoniy faoliyatning an’anaviy va noan’anaviy vositalarini birgalikda qo‘llash kerak. Demak, noqulay ekologik hududlarda jismoniy tarbiya dasturi atrof-muhitni majburiy hisobga olgan holda farqlanishi kerak.

Pedagogika, jismoniy tarbiya va sport, falsafa, psixologiya, fiziologiya, sotsiologiya, genetika, ekologiya, valeologiya fanlari inson shaxsining fundamental tarkibiy qismi sifatidagi salomatlik haqidagi klassik va zamonaviy qoidalari tadqiqotning metodologik va nazariy asosini tashkil etadi.

Ilmiy yangilik:

birinchi marta nazariy va uslubiy darajada yuqori ekologik xavf sharoitida yashovchi talabalarining tabaqalashtirilgan jismoniy tarbiya tizimi asoslandi;

viloyatlarning ma‘muriy hududlarini farqlash imkonini beruvchi hamda yuqori sog‘lomlashtiruvchi ta‘sirga ega bo‘lgan jismoniy tarbiya vositalarini tanlash va ulardan foydalanishga ilmiy asoslangan yondashuvlarni talab qiluvchi yangi ma‘lumotlar olindi;

birinchi marta korrelyatsiya tahlili asosida muayyan hududdagi ekologik vaziyatning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda talabalarining moslashish mexanizmlarida sezilarli farqlar aniqlandi;

nafas olish tizimining ekologik kasalliklariga moyil bo‘lgan talabalar bilan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun model ishlab chiqilgan;

jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining atrof-muhit sharoitlaridan tabaqalashgan jismoniy tarbiyaning xususiyatlari to‘g‘risida xabardorlik darajasi aniqlandi;

ekologik xavfli hududlar miqyosda birinchi marta talabalarining jismoniy rivojlanishi, jismoniy tayyorgarligi, organizmining funksional holatining xususiyatlari aniqlandi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati turli xil ekologik sharoitlarida yashovchi talabalarining jismoniy tayyorgarligini optimallashtirishdan iborat bo‘lib bunda ekologik jihatdan ifloslangan hududlarda talabalarining jismoniy rivojlanishini asoslash va jismoniy mashg‘ulotlarni amalga oshirish bilan bog‘liq nazariy va uslubiy sharoitlar aniqlanadi; og‘ir ekologik hududlarida jismoniy tarbiya vositalaridan samarali foydalanish shartlari aniqlandi; jismoniy tarbiya mashg‘ulotlar mazmuni ishlab chiqildi va ekologik xavfli sharoitlarda yashovchi talabalarining tabaqalashtirilgan jismoniy tarbiya tizimini asoslashga yondashuvlar belgilandi.

Shu nuqtayi nazardan, tadqiqot natijalari jismoniy tarbiya va ekologiyasini to‘ldiradi va rivojlantiradi.

Ishning amaliy ahamiyati ekologik jihatdan noqulay hududlardan kelgan talabalar uchun jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari bo‘yicha mintaqaviy dasturni ishlab chiqishda quyidagi imkoniyatni beradi:

- talabalarining jismoniy rivojlanish darajasini, jismoniy va funksional tayyorgarligini oshirish;
- salomatlik holatidagi o‘zgarishlarni ta‘minlash;
- salomatligi zaiflashgan talabalarda jismoniy mashqlar uchun barqaror motivatsiyani shakllantirish;
- talabalarining jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi ko‘rsatkichlarining na‘munali baholash jadvallarini ishlab chiqish.

Xulosa. Olingan natijalar o‘qituvchilarga turli xil ekologik sharoitlarda talabalar bilan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etishning xususiyatlari va usullari to‘g‘risida zarur bilimlarni, talabalarining sog‘lig‘ini yaxshilash uchun jismoniy tarbiyaning noan‘anaviy vositalaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Tadqiqot jarayonida olingan eksperimental ma‘lumotlardan noqulay ekologik hududlarda joylashgan oliy ta‘lim muassasalari uchun jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari bo‘yicha dastur va me‘yoriy hujjatlarni tayyorlashda foydalanish mumkin. Ko‘p sonli ma‘lumotlar sog‘lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya va ekologiya bo‘yicha nashr etilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining ahamiyatini oshiradi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun. –T., 2020-yil 23-sentyabr.
2. Muxammadiyev K.B. Jismoniy tarbiya ta‘limi jarayonida talabalarining atrof-muhitga bo‘lgan ehtiyohtkorona munosabatlarini rivojlantirish. Dis...ped.fan.bo‘yicha.falsafa.doktori (PhD). – Chirchiq, 2018. –137 b.
3. Muxammadiyev K.B. Jismoniy tarbiya ta‘limi jarayoni samaradorligini oshirish va talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning nazariy asoslari: Monografiya. –Toshkent: “Innovatsion rivojlantirish nashriyoti-matbaa uyi”, 2021. – 413 b.
4. Muxammadiyev K.B. Sport mashg‘ulotlari jarayonida talabalarining jismoniy sifatlari, funksional tayyorganligi, organizm fizologik holatining o‘shish va tiklanish dinamikasi // Xalq ta‘limi – Toshkent, 2020. 6-son, – 78-84 b.
5. Muxammadiyev K.B. Jismoniy tarbiya ta‘lim jarayoni samaradorligini oshirishning dolzarb pedagogik muammolari //“Fan-sportga”. – Toshkent, 2021. 4-son. –53-56 b.
6. Muxammadiyev K.B. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari jarayoni samaradorligini oshirishning dolzarb pedagogik muammolari // O‘zMU xabarlari. № 1/3. – Toshkent, 2021. –98-102 b.
7. Muxammadiyev K.B. Oliy o‘quv yurtlarida jismoniy tarbiya ta‘limi jarayoni samaradorligini oshirish texnologiyalarini takomillashtirish // Ta‘lim, fan va innovatsiya – Toshkent, 2021. 4-son. –53-57 b.

Alisher IBRAGIMOV
Buxoro davlat universiteti
fakultetlararo jismoniy madaniyat
va sport kafedrası dotsenti

MAHALLALARIDA AYOLLARNI SPORTGA YO‘NALTIRISHNING AYRIM ILMIY PEDAGOGIK MUAMMOLARI

Salomatlik har bir yigit qizning istalgan yoshda to‘la qonli hayot kechirishi uchun zarur. Qizlarning normal rivojlanishi hamda salomatligining mustahkam bo‘lishida maktab davri alohida ahamiyatga ega. Bolaning rivojlanishi - aqliy, jismoniy, ijtimoiy, jinsiy va hissiy o‘rish jarayoni bo‘lib, bu davrda bola yoki o‘smir jamiyatning normal va qonunlari doirasida tayyorgarlik ko‘radi. Inson qadryati shakillanadi.

Kalit so‘zlar: sport, xotin-qizlar, qishloq, oila, Ibn Sino.

Здоровье необходимо каждой молодой девушке для полноценной жизни в любом возрасте. Школьный период играет особую роль в нормальном развитии и крепком здоровье девочек. Развитие ребенка-это процесс умственного, физического, социального, полового и эмоционального роста, в ходе которого ребенок или подросток готовится в рамках норм и законов общества. Ценность человека ценится.

Ключевые слова: спорт, женщины, деревня, семья, Ибн Сина.

Health is necessary so that every young man can live a full-blooded life at any age of the girl. The school period has a special significance in the normal development of girls and in the strengthening of their health. The development of the child is a process of mental, physical, social, sexual and emotional growth, during which the child or adolescent is prepared within the framework of the normal and laws of society. Human value is formed.

Key words: sport, women, Village, Family, Ibn Sina.

Kirish. Bugungi kunda sport ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, ma’naviy-madaniy hayotning muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Zero, millatni elatga tez tanitadigan jismoniy-ma’rifiy hodisa. Shu bois 2017-2021-yillarda mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning “Ijtimoiy sohani rivojlantirish”ga yo‘naltirilgan to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishida ta’lim ilmfan, tarbiya, adabiyot, san’at va sport sohalarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilgani bejiz emas. Mazkur masalalarni amaliy jihatlarini hayotga tadbiq etish uchun 2017-yil 3-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori qabul qilinib, unda “Mamlakatimizning barcha hududlarida sportning inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va ma’naviy sog‘lomlikning asosi ekanini targ‘ib-tashfiq qilish, hayotga katta umid bilan kirib kelayotgan yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularning o‘z qobiliyatlari va iste’dodlarini ro‘yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida muhim va dolzarb vazifalar turganligi” ta’kidlangan edi [1].

Bu muammoni qishloq joylarida jismoniy tarbiya va sport tizimi negizida qarab chiqadigan bo‘lsak, uni doimiy ravishda isloh qilish, muntazam amalga oshirishigina samara berishi mumkin. Chunonchi, Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta’biri bilan ta’kidlaganda “Hayotning o‘zi va xalqning talablari bizning oldimizga amaliy yechimini topish lozim bo‘lgan ya’ni va yanada murakkab vazifalarni qo‘ymoqda” [1]. Bu esa qishloq joylarida ayollar sportini tashkil etish, uni yanada takomillashtirish va mukamallashtirib borish, ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muammosini zaruriyat qilib qo‘ymoqda. Buning uchun qishloq hududlarida yashaydigan oilalardagi qizlarni sport va jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga keng jalb qilish, oilada qizlar va ayollar uchun jismoniy mashqlar, chiniqish harakatlarini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa ayollarning oila va jamiyatdagi o‘rni va nufuzini oshirishga e’tibor qaratish qizlar va ayollarning jismoniy mashqlar yig‘indisini ishlab chiqish talab etiladi.

Asosiy qism. Oilada qizlarni sportga jalb qilishning dastlabki omili, ularni oiladagi sport rejimini aniq tuzishdir. U o‘z mazmuniga bir sutkada dam olish, o‘qish, jismoniy mehnat qilish, uxlash, ovqatlanish, jamiyat ishi bilan turli topshiriqlarni bajarishda fiziologik va gigiyenik jihatdan tartibni o‘zida qamrab oladi. U oilaviy, ijtimoiy hayotni tartibga soladi, faoliyatni rejali bajarilishini ta’minlashga xizmat qiladi, mashg‘ulot va dam olishni to‘g‘ri tartibga soladi. Biz quyida tadqiqotimiz mazmunidan kelib chiqib ayollarni sportga tayyorlashga ko‘maklashuvchi rejimni misol tariqasida keltiramiz (1-jadval).

1-jadval. Ayollarning oila va ijtimoiy hayot rejimi

№	Faoliyat mazmuni	Vaqlar
1.	Ertalabki uyqudan turish.	6-00
2.	Yuvinish va badantarbiyaga tayyorlanish.	6-30
3.	Badantarbiya mashqlari va yuvinish.	6:30-7:00
4.	Ertalabki nonushta	7:00-7:30
5.	Ishga otlanish.	7:30-8:00
6.	Faoliyat turi bo'yicha, mehnat turi bilan shug'ullanish.	8:00-12:00
7.	Tushki ovqatlanish.	12:00-13:00
8.	Faoliyat turi bo'yicha mehnat turi bilan shug'ullanish.	13:00-17:00
9.	Dastlabki salomatlik mashqi, yugurish, qizlar uchun belgilangan mashqlar gimnastika sport turi bo'yicha mashg'ulot.	17:00-19:00
10.	Kechki ovqatlanish.	19:00-19:30
11.	Sport turi bilan shug'ullanish.	19:30-22:30
12.	Sayr.	22:30-23:00
13.	Uyqu.	23:00

Alloma ota-ona va tarbiyachining shaxsiy ibratiga, yurish-turishi, muomalasi, suhbatda yoshlarga namuna bo'la oladigan shaxsiy fazilatlariga alohida e'tibor beradi. U kattalar va tarbiyachilarning kelishmagan odatlari, xatti-harakatlari bola xarakteri va shaxsiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ibn Sinoning fikricha, ota-ona, tarbiyachi faqat so'z bilan emas, balki, amaliy hayotda ham bola xulqiga ta'sir etishi kerak deb biladi. Buyuk alloma inson hayotida bilish faoliyatining ahamiyati beqiyos ekaligini uqtirib, ta'lim sohasida ham bilim yuritadi. Bilim olishda bolalarni maktabda o'qitish zarurligini qayd etr ekan, ta'limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga bant qilib qo'ymaslik;
- ta'limda yengildan og'irga qarab borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;
- o'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qishga e'tibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.

Bu talablar hozirgi davr ta'lim tamoyillariga ham mos kelishi bilan qimmatlidir. Yuqoridagi masalalarga alohida nazar bilan qaragan buyuk mutafakkir o'zining “Tadbiri manzil” asarida maxsus bilim bag'ishlaydi. “Bolani maktabda o'qitish va tarbiyalash” bo'limida ta'lim va tarbiya jarayonining mohiyatini ochib beradi. Yuqoridagi tamoyillar esa bolalarni yengil-yelpi bilim olish emas, balki, har tomonlama chuqur va mustahkam bilim olishiga yordam beradi. Bolaga bilim berish o'qituvchining mas'uliyatli burchidir. Shunga ko'ra, Ibn Sino o'qituvchining qanday bilishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan, shunday yo'l-yo'riqlar beradi. Bular quyidagilardan iboratdir:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;
- berilayotgan bilimning bolalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berishi;
- ta'limda turli metod va shakllardan foydalanish;
- talabning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi
- fanga qiziqitira olishi;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimi ajratib bera olishi;
- bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasida bo'lishiga erishishi zarur deydi olim.

Muhokamalar va natijalar. Tatqiqotchi olm S.Rahimovning “Abu Ali ibn Sinoning pedagogik g'oyalari” nomli dissertatsiya ishida mutafakkirning ta'lim-tarbiya, ta'limot, o'qitish mazmunini aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi kabi pedagogik g'oyalar va bilish nazariyasini tashkil etganligi qayd etib o'tilgan. Ibn Sino ta'lim-tarbiyaga doir g'oyalarini ijtimoiy-falsafiy qarashlar asosida tahlil etib har qanday narsa hodisaning mohiyatini anglash bilish orqali amalga oshadi, shuning uchun ta'limning, o'qitishning pedagogik asosini bilish nazariyasi tashkil etadi deb ta'kidlaydi. Falsafa nazariy va amaliy guruhlarga bo'linib, nazariy jihatdan kishilarni voqelikdagi yangi ya'ni, o'zidan tashqaridagi borliq holatidagi bilimlarni egallashga yo'llaydi, amaliy qismda esa bu shakllangan bilimlar asosida nimalar qilishimiz kerakligini o'rgatishga xizmat qiladi deb uqtiradi. Shunga binoan birinchi guruh bilimlariga siyosat, iqtisod, etotika, mantiqqa oid bilimlar kirsar, ikkinchi guruhga fizika, matematika, metofizika, dunyo qonuniyatlarini o'rganuvchi fanlar majmuasidagi fanlar kiradi deydi. U bilim uchun bilimga ega bo'lish kerak deydi, ammo har qanday bilim haqiqatga olib kelmasligi mumkin, buning uchun, ya'ni bilimlarning haqiqatligini bilish uchun mantiqni bilish zarur deb biladi. Ibn Sino inson kamolotida aqliy, axloqiy, mehnat, estetik tarbiyaning o'rni, o'zaro aloqadorligini va ta'lim-tarbiya jarayonida undan unumli foydalanish lozimligini alohida

uqtiradi. U yuqorida tarbiya tarkibiy qismlariga jismoniy tarbiyani kiritib, jismoniy tarbiya sog‘lom aql uchun, tanning sog‘lom bo‘lishi nihoyatda zarur deb biladi. Uning aytishicha, kishi aqliy, estetik, axloqiy jihatdan qanchalik yetuk bo‘lishi, agar undagi bilim, kuch, aql, salomatlik me‘yorlariga mos tushmasa, hali aqliy, jismoniy jihatdan sog‘lom bo‘lmasa, bunday kishi jamiyatning barkamol a‘zosi bo‘la olmaydi. O‘zi uchun yashamasdan xalq uchun, umum insoniyat uchun yashashga intiladigan kishilar sog‘lom, jismonan yetuk kishilar hisoblanadi deb biladi Ibn Sino.

Ayollar muntazam sport bilan shug‘ullanganda dastavval organizmni asta-sekinlik bilan xohlagan sport turiga organizmni moslashtirishi, chiniqtirishi, mustahkamlashi va rivojlantirishi kerak. Buning uchun dastlab asosiy gimnastika, gigiyenik gimnastika, sport yo‘nalishidagi gimnastika, to‘p oshirish gimnastikasi, velosiped uchish, samokadda, sport rolikida uchish, g‘ildirakli konkilarda uchish, suzishga o‘rgatish bilan muntazam ishlab chiqilgan dastrur asosida shug‘ullanishni yo‘lga qo‘yish. Bu qishloq ayollarini sportga yo‘llashning uchinchi muammosi. To‘rtinchi muammo ayollarning qiziqishi, jismoniy tayyorgarligini inobatga olib, sport mashg‘ulotlarini aniq rejalashtirish. Buni biz professor A.Atoyev tavsiyalariga asoslanib ayollar uchun milliy kurash bo‘yicha mashg‘ulotlar tafsilotini keltiramiz. Birinchi mashg‘ulot: a) kurashchining aniq holatda turishi: o‘ng, chap turish; yuqori o‘rtaga, past turish mashqlarini bajarishga o‘rgatish: b) kurashchi tik turib yakka holda siljish oldingi, orqaga, chappa, o‘ngga, qadam bilan siljib yurish, sakrash, sakrab siljish. Ikkinchi mashg‘ulot: kurashchilar o‘rtasida uzoq, o‘rta, yaqin masofa; ushlamasdan turgandagi masofani saqlashga o‘rgatish. Uchinchi mashg‘ulot: 1. Kurashchilarni juft-juft bo‘lib turli masofada bir-birini ushlaymay, turli xilda ushlab siljishi; sherigi bilan o‘zaro ta‘sir ko‘rsatib, qadam bilan siljish (oldinga, orqaga, o‘ngga, chappa); ma‘lum masofada turib (masofani saqlab va uni buzib) siljish; sherigini ushlaymay turib u bilan turli tomonga sakrab-sakrab siljish. To‘rtinchi mashg‘ulot: ushlab to‘n yengini har ikki tomondan, belbog‘ni old tomondan, bilak, o‘rab olib ushlab; belbog‘ni orqa tomondan bilakni o‘rab olib ushlab. Biz ushbu tadqiqotimizda qishloq joylarida ayollarni sportga yo‘naltirishni ayrim muammolarini bayon etdik.

Xulosa. Yuqoridagilarni inobatga olib ertalabki badantarbiya imkon darajasida har kuni o‘z vaqtida ochiq havoda o‘tkazilsa, yaxshi samara berishi bilan birga kun davomida tetik bo‘lib, o‘qish, ish va boshqa ish faoliyatlarida qobiliyatini oshiradi bir so‘z bilan aytganda sog‘lom turmush tarzini yaratadi. Jismoniy mashqlar bilan muntazam shug‘illanib turuvchi ayollar, talaba qizlar, o‘quvchi qizlar va boshqa yoshdagilar davolanishga kamdan-kam muhtoj bo‘ladilar.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy ta‘lim, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Atoyev Q.T. Farzandingiz barkamol bo‘lsin. – T.: “Meditsina”, 1990.
3. Ибрагимов А. К. Основа физкультурного образования школьников–зна-ния по физической культуре //Рекомендовано к изданию Советом по качеству УралГУФК Протокол. – 2018. – №. 8. – С. 128.
4. Ibragimov S. E. RESEARCH PARK. – 2021.
5. Ibragimov A. K. DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM //E-Conference Globe. – 2021. – С. 333-338.
6. Karomatovich I. A., Utkirjonovich E. F. CHARACTERISTICS OF TECHNICAL AND TACTICAL TRAINING METHODOLOGY OF BOXERS //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 05. – С. 27-40.
7. Ibragimov A. K. Catalog of training tasks for training special endurance of young girl handball players //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 11. – С. 486-492.
8. Karomatovich I. A., Shokhrub U. Dynamics of jumping development of volleyballers in different ages //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 11.
9. Ibragimov A. K., Muxiddinovich L. A. INDIVIDUALIZATION OF PSYCHOLOGICAL TRAINING OF QUALIFIED HANDBALL PLAYERS //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 04. – С. 234-241.
10. A.K.Ibragimov, F.I.Mo‘minov. Methodology of optimization of training for young players // International Journal For Innovative Engineering and Management Research Vol 10 Issue02, Feb2021 ISSN 2456 – 5083 Page 43-48.
11. Abdueva S. СПЕЦИФИКА ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.

12. Abdueva S. Jismoniy madaniyat sohasida innovatsion metodlarni qo‘llashning psixologik jihatlari //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
13. Abdueva S. Xotin-qizlarning milliy madaniyati va hozirgi davr jismoniy tarbiya va sportning tasiri //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
14. Abdueva S. Jismoniy madaniyatning ijtimoiy funksiyasi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
15. Abdueva S. THE PSYCHOLOGICAL SIGNIFICANCE OF HIGHLY QUALIFIED 19-21-YEAR-OLD HANDBALL PLAYERS BETWEEN PERIODS IN THE TRAINING PROCES //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
16. Abdueva S. AGE-SPECIFIC DYNAMICS OF ATTACK AND DEFENSE RESPONSE SPEED IN HANDBALL PLAYERS //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
17. Karomatovich I. A. METHODS OF TEACHING CHILDREN FOR MOVEMENT ACTIVITIES IN THE PROCESS OF PHYSICAL EDUCATION //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 242-249.
18. Karomatovich I. A., Shodiyevich T. M. THE PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE OF THE FORMATION OF STUDENTS’ SPIRITUAL AND MORAL VALUES THROUGH MOVEMENT GAMES IN SPORTS LESSONS //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 310-320.
19. Ibragimov A. K. DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM //E-Conference Globe. – 2021. – С. 333-338.
20. Karomatovich I. A., Utkirjonovich E. F. CHARACTERISTICS OF TECHNICAL AND TACTICAL TRAINING METHODOLOGY OF BOXERS //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 05. – С. 27-40.

Jamshid YARASHEV

Lecturer, Department of Theory and Methods of
Physical Culture, Bukhara State University

CLASSIFICATION, SYSTEMATIZATION AND TERMINOLOGY OF TECHNICAL METHODS OF FREESTYLE WRESTLING

After the independence of Uzbekistan, the restoration of our centuries-old cultural and spiritual heritage, national values, the realization in the minds of every citizen of a great future, boundless love, devotion and interest in their work Favorable conditions for the absorption of oysters began to emerge.

Keywords: Wrestling , science , coach , qualified athlete.

После обретения Узбекистаном независимости, восстановления нашего многовекового культурного и духовного наследия, национальных ценностей, осознания в сознании каждого гражданина великого будущего, безграничной любви, преданности и интереса к своему делу стали складываться благоприятные условия для поглощения устриц.

Ключевые слова: борьба, наука, тренер, квалифицированный спортсмен.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ko'p asrlik madaniy va ma'naviy merosimizni, milliy qadriyatlarimizni tiklash, buyuk kelajakning har bir fuqarosining ongi va ongini anglash, o'z ishiga cheksiz muhabbat, sadoqat va qiziqish uyg'otib, ustritsalarni o'zlashtirishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratila boshladi.

Kalit so'zlar: kurash, ilm-fan, murabbiy, malakali sportchi.

Sports wrestling (Greco-Roman, freestyle, sambo, judo, etc.) is a kind of wrestling close to the psyche of our people, because the history of the development of these types of roots goes back to the history of tribal relations of peoples living in vast areas of our country. This historical sequence is the basis of the achievements of our national wrestlers in international competitions. However, national types of wrestling not only serve to preserve and enrich the traditions of our people, but also provide an opportunity to select the most talented representatives and find a solution to the most important problem. Of course, the main issue is how to train this champion, how a new athlete will become an international master of sports, how to manage this process. The process of finding answers to these questions has not always been smooth. Each generation of experts has its own vision of the solution to the problem . The first is based on the talent and diligence of the athlete, the second - on the peculiarities and secrets of wrestling that they know, the third - on the logistics of training for success, the fourth - on the high level of training of sparring partners. Unfortunately, among them were proponents of achieving victory through drugs, judges and proponents of compromise with the opponent. Of course, all of the above methods play an important role in the process of training a champion-wrestler , which does not go beyond the bounds of fairness . But there is another component, the importance of which is enormous. Here is a person's ability to recapture in the current context. If we demonstrate the essence of pre-return in the example of the work of a wrestling coach, a qualified specialist not only pursues the final goal (wrestler-champion), but also the ways to achieve it (advanced model of achieving the set goal). The idea of what to strive for and how to achieve the aspiration is called the coaching concept of an athlete's many years of training. In fact, it should be noted that the concept of coaching can be very primitive. Some people equate this concept with a simple idea: "If you find a talented wrestler, create good conditions for his life and practice, find him a strong sparing partner, train him by giving him large loads in terms of volume and intensity, and the wrestler If he endures, he will be invincible. "Unfortunately, there are many supporters of this approach, because they have achieved high sports results due to that approach. However, such a concept is inherently based on natural selection, where the decisive factor remains not the experience and knowledge of the coach, but chance.

In the field of science, the discovery of the ability of living systems to predict the existence of existence connects this fundamental law of life development with the names NANABernstein and PK Anoxin. Thanks to these famous scientists of our time, we have realized that the training of highly qualified athletes is not a natural selection, but a sufficiently objective and manageable process. However, it is not enough to know that success in coaching has a theoretical basis. It is necessary to move from general considerations to setting clear goals. The coach who reaches them and his student approach the peaks of high sportsmanship, but the goals must be placed in a sequence of levels of achievement. This complex problem can be solved by referring to the psychological theory of activity . The next section is devoted to this issue. The training competition helps to improve technique and tactics, cultivates physical and volitional qualities

in the conditions close to the competition. The execution of all actions and operations is carried out with high responsibility for their outcome, but this does not mean that the wrestler is afraid of losing. Conducting a fight only when the wrestler is on the defensive will hurt to improve his favorite methods, counter-attacks, and tactical combinations.

Practice competition can be done without a task (free competition). In this case, the total time of the competition is determined and the athletes continue to fight in the position formed during the competition (on the ground or standing position). When wrestlers compete in freestyle, they should strive to perform more of their favorite methods and contours, using well-mastered methods of preparation and convenient situations.

It is not recommended to stop to point out the shortcomings of the exercise competition. It can be said when the struggle continues when there is a great need. The reprimands must be clear and concise, not to distract the wrestlers from the competition.

One type of exercise competition is the competition without throws. This type of competition is held if you have to train in a place without a carpet, as well as to avoid injury before the competition.

Training competitions are held mainly in preparation for the competitions.

The competition is aimed at further improving the combat characteristics, technical and tactical skills of the wrestler in the most difficult situations. In this competition, each of the wrestlers uses his technical, tactical, physical and volitional capabilities to strive to gain an advantage over the opponent.

References:

1. Yarashev, J. (2021). Формирование профессиональной компетентности будущих педагогов-тренеров по вольной борьбе. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 1(1)*. извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/1946
2. Yarashev, J. (2021). ПРАВИЛА УЗБЕКСКОЙ БОРЬБЫ КУРАШ . *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 1(1)*. извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/1944

“PEDAGOGIK MAHORAT” JURNALI UCHUN MAQOLALARNI RASMIYLASHTIRISH
TALABLARI

1. Muallif(lar)ning familiyasi (to‘liq), ismi va otasi ismining bosh harflari;
2. Maqola sarlavhasi (oddiy harflarda, masalan: Abdulla Qodiriyning tasvirlash mahorati);
3. Maqolaning annotasiyasi, annotasiya kursiv bilan beriladi va bir qator tashlagan holda asosiy matndan ajratiladi;
4. Kalit so‘zlar (8–10 ta).

5. Maqola matni “Microsoft Word” dasturida tayyorlanib, “Times New Roman” 14 o‘lchamli shriftda, satrlar orasi bir interval, sahifa chetlari chapdan 3 sm, yuqoridan va pastdan 2 sm, o‘ngdan 1,5 sm, xatboshi 1,25 sm qoldirgan holda teriladi va elektron varianti bilan (fleshka yoki CDda) topshiriladi.

Maqola matnida boshqa shriftlardan foydalanilgan taqdirda bunday shriftlar muallif tomonidan elektron variantda taxririyatga taqdim etilishi lozim.

6. Maqolaning umumiy hajmi (rasm, jadval va diagrammalar bilan birgalikda) 8 sahifadan kam bo‘lmasligi (annotasiyalar, kalit so‘zlar va adabiyotlar ro‘yxati bu hisobga kirmaydi) talab qilinadi. Jurnal uchun eng maqbul hajm 8-10 sahifa oralig‘ida.

7. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular oq-qora ranglarda chizilgan bo‘lishi, aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Maqolada matnida rang vositasida ma‘no farqlashga xizmat qiladigan rasm, chizma va diagrammalarning bo‘lishi mumkin emas.

Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.

Adabiyotlar ro‘yhati lotin alifbosiga transliteratsiya qilinadi.

Maqolaga mualliflar haqida ma‘lumot ilova qilinadi.

Muallif(lar) haqidagi ma‘lumot quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– muallif(lar)ning familiyasi, ismi va otasining ismi (to‘liq)

– ilmiy darajasi (agar bo‘lsa)

– ish joyi, bo‘lim, vazifasi (qisqartirmagan holda).

Muallif haqida ingliz tilidagi ma‘lumotlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) muallif(lar)ning familiyasi, ismi va otasi ismining ingliz tilidagi varianti, maqola nomi va muallif ish joyining ingliz tiliga tarjimasi, masalan: Dilmurod H. Quronov, Andijan State University (Andijan, Uzbekistan). E-mail: quronov@rambler.ru

COMPOSITION OF LYRICAL WORK

2) kalit so‘zlarning ingliz tiliga tarjimasi;

Foydalanilgan adabiyotlarning ingliz tilidagi varianti (References) APA-2010 standarti bo‘yicha tayyorlanishi zarur.

1. Kitoblarni berish tartibi:

Esin, A.B. (2000) Printsipy i priyemy analiza literaturnogo proizvedeniya [Principles and techniques of analyzing literary work]. Moscow: Flinta.


Rakhimzhonov, N. (2012) Intellektual she‘riyatning tabiati [Nature of intellectual Poetry] In: Istiqlol va bugungi adabiyot [Independence and Modern Literature]. Toshkent: Teacher. pp. 145–155.

2. Maqolalarni berish tartibi:

Suyarov, M. (2008) Peyzash she‘riyatida kompozitsiya [Composition in landscape poetry]. O‘zbek tili va adabiyoti [Uzbek language and literature]. 1. pp. 72–75 (In Uzb.).

3. Internet manbalarini berish tartibi:

Belova, E. A., Kilkeeva, Yu. A., & Trenogina, A. A. (2014). *Tendencies of the world market of transportation and logistics services development*. Retrieved from http://pnu.edu.ru/media/ejournal/articles-2014/TGU_5_336.pdf (in Russ.)



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
“PEDAGOGIK MAHORAT”
ilmiy-nazariy va metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 208-xona

Tahririyat rekvizitlari:

Moliya vazirligi g‘aznachiligi

23402000000100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

BuxDU 400110860064017950100079002

Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!

<p>PEDAGOGIK MAHORAT</p> <p>Ilmiy-nazariy va metodik jurnal</p> <p>2022-yil 2-son (84)</p> <p>2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.</p> <p>OBUNA INDEKSI: 3070</p>	<p>Buxoro davlat universiteti nashri</p> <p>Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p>Nashr uchun mas’ul: Alijon HAMROYEV. Musahhih: Muhiddin BAFAYEV. Muharrir: O‘g‘iljon Olloqova</p>	<p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 10.06.2022 Bosmaxonaga topshirish vaqti 17.06.2022</p> <p>Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i – 20,6 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 312 Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko‘chasi 11-uy.</p>
---	---	---